



**S O L N O M A**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI**

**SHAVKAT MIROMONOVICH  
MIRZIYOYEV**

**FAOLIYATI XRONIKASI**

TOSHKENT – «O‘ZBEKISTON» – 2022

UO‘K 323(575.1)  
KBK 66.3(5O‘)  
S 77

Ushbu kitobda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil sentabr oyidan 2021-yil 6-noyabrga qadar bo‘lgan davrdagi dastlabki besh yillik siyosiy faoliyati aks etgan.

Mazkur salmoqli xronika, ayni paytda, davlatimizning ichki va tashqi siyosati, mamlakatimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar va o‘zgarishlar bilan bog‘liq eng muhim tarixiy jarayonlarni – Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot solnomasini o‘zida mujassam etgani bilan ahamiyatlidir.

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tegishli bo‘linmalari bilan hamkorlikda Prezident Spichrayteri bo‘linmasi tomonidan nashrga tayyorlandi.

Kitob boshqaruv sohasi xodimlari, O‘zbekistonning eng yangi tarixi bilan qiziqadigan olimlar, siyosatshunos va sotsiologlar, ekspertlar, tadqiqotchi va talabalar, muxtasar aytganda, keng omma uchun mo‘ljallangan.

ISBN 978-9943-7608-5-1



ISBN 978-9943-7608-5-1

© «O‘ZBEKISTON» NMTU, 2022

## SO‘ZBOSHI

Hurmatli kitobxon, e’tiboringizga havola qilinayotgan ushbu to‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil sentabr oyidan 2021-yil 6-noyabrigacha bo‘lgan davrdagi dastlabki besh yillik siyosiy faoliyati aniq tarixiy sanalar, voqealar orqali xronika shaklida, tadrijiy izchillikda aks ettirilgan.

Ma’lumki, ana shu besh yillik muddat mamlakatimizda keng ko‘lamli demokratik islohotlar boshlangan va uzviy davom ettirilgan, Yangi O‘zbekistonning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy asoslari yaratilgan, xalqimiz bu yo‘lda murakkab sinov va qiyinchiliklarga duch kelib, ularning barchasini munosib yengib o‘tgan g‘oyat murakkab va mas’uliyatli davr sifatida Vatanimiz tarixida alohida o‘rin egallaydi. Ushbu to‘plam ana shu keng ko‘lamli jarayonlarni faqat aniq fakt va dalillar asosida ifoda etib, o‘quvchiga xolis va haqqoniy ma’lumot berishi bilan ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Chindan ham, har bir voqea-hodisa, hujjat va tadbir zamirida butun bir tarix, yurtimiz taqdiri va kelajagi mujassam. Bugungi kunda «Yangi O‘zbekiston» degan nom bilan butun dunyoga tanilayotgan ona Vatanimizning rivojlanish sur’atlari, zamonaviy qiyofasini ana shunday tarixiy jarayonlar timsolida yaqqol ko‘rish, tasavvur etish mumkin.

Kitobni varaqlar ekanmiz, har bir yurtdoshimiz hayotida yangi imkoniyatlar ochayotgan hozirgi ulkan o‘zgarishlar va barqaror taraqqiyot davriga yetib kelish uchun xalqimiz naqadar og‘ir, mashaqqatli va ayni paytda sharaflı yo‘lni bosib o‘tganiga to‘la ishonch hosil qilamiz.

Shavkat Mirziyoyev bundan besh yil oldin O‘zbekiston rahbarligiga kirishib, mamlakatimizni yangi taraqqiyot ufqlari sari dadil boshlash, siyosatshunoslar iborasi bilan aytganda, davlat va jamiyat hayotida tarixiy burilish yasashga azm-u qaror qilgani va shu tariqa xalqimizga xos mustahkam siyosiy irodasi, mardlik va jasorat, beqiyos donishmandlik fazilatlarini namoyon etganini yana bir bor chuqur his etamiz.

O‘tgan davrda milliy taraqqiyotimizning bosh hujjati bo‘lib xizmat qilgan mamlakatimizni 2017–2021-yillarda beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilib, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini amalda ta’minlash, bozor iqtisodiyoti prinsiplarini rivojlantirish orqali xalq farovonligini oshirish, dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirish islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi.

Avvalo, «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan tamoyil

asosida aholining dard-u tashvishlari hamda muammolarini eshitish, ularni joyida hal etish, fuqarolarimizning hayot darajasi va sifatini yaxshilash davlat siyosatining bosh mezonini etib belgilandi. Shu asosda «xalq bilan muloqot», «Xalq qabulxonalarini», «mahallabay ishlash», «kambag'allikni qisqartirish» singari qadriyatlar hayotimizga kirib keldi va inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan demokratik o'zgarishlarning samarali tizimi va mexanizmiga aylandi.

Tashqi siyosatda Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlik asosida faol munosabatlar o'rnatish hamda ularni yangi ma'no-mazmun bilan boyitish ustuvor tamoyil deb belgilandi va shu yo'lda tarixan qisqa davrda ulkan ishlar amalga oshirildi. Dunyoning siyosiy lug'atida «Markaziy Osiyo ruhi» degan ibora paydo bo'ldi.

O'zbekiston jahonga ochiq bo'lish, umume'tirof etilgan demokratik prinsiplarni amalda joriy etishni xalqaro hamjamiyat bilan samarali hamkorlikning asosiy yo'nalishi, sharti va garovi sifatida qabul qildi hamda ana shu tamoyilga doimo sodiq bo'lib kelmoqda.

Ana shu yo'ldagi harakat va in-tilishlar qanchalik shiddatli va murakkab kechganini Prezident faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan, ushbu to'plamdan o'rin olgan g'oyat serqirra jarayonlar yaqqol tasdiqlaydi.

Agar o'tgan besh yildan ziyod davrga shu nuqtayi nazardan qa-

raydigan bo'lsak, Prezidentimiz tomonidan mamlakatimiz hududlariga 193 marta safar uyushtirilgani, 156 ta selektor va videoselektor majlis-lari, eng muhim va ustuvor masala-lar bo'yicha 231 ta yig'ilish, muho-kama va taqdimotlar o'tkazilganini ko'ramiz.

Ushbu muddatda davlatimiz rahbari tomonidan 323 ta qonun, 1503 ta farmon, 2703 ta qaror, 996 ta farmoyish tasdiqlangan.

Shu davrda Shavkat Mirziyoyev 47 marta chet davlatlarga tashrif buyurgan, 68 ta xalqaro sammit va anjumanlarda ishtirok etib, ularning doirasida 67 ta uchrashuv o'tkazgan. Bundan tashqari, xorijiy davlat va hukumat rahbarlari boshchiligidagi 83 ta nufuzli rasmiy delegatsiya yurtimizda qabul qilingan. Shuning-dek, vazirlar, xalqaro tashkilot va kompaniyalar, xorijiy ishbilarmon doiralar rahbarlari boshchiligidagi 185 ta delegatsiya bilan muzokara-lar o'tkazilgan.

Ana shu vaqt mobaynida chet dav-latlarning yurtimizda ish boshlagan favqulodda va muxtor elchilaridan 50 nafari davlatimiz rahbariga ishonch yorliqlarini topshirgan, xorijiy dav-lat va hukumat boshliqlari, xalqaro tashkilot rahbarlariga 3000 dan ortiq maktub yo'llangan. Xorijiy davlatlar rahbarlari bilan 243 marta telefon or-qali muloqotlar o'tkazilgan.

Prezidentimiz shu yillar davomida yurtimizda bo'lib o'tgan 84 ta tan-tanali marosimda ishtirok etib nutq so'zlagan, shuningdek, xalqimiz va turli soha vakillariga 114 ta tabrik va qutlovlar yo'llagan.

Bularning barchasi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Prezidentimiz tomonidan siyosiy-ijtimoiy makonda amalga oshirilgan sa'y-harakatlar ko'lami naqadar keng va katta ekanidan, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lida tun-u kun tinim bilmasdan, bor bilim va tajriba, kuch va imkoniyatlar safarbar etilayotgani hamda bu jarayon tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

Agar davlat ahamiyatiga molik birgina hujjatni ishlab chiqish va qabul qilish, har qaysi rasmiy tadbirni o'tkazish qanday katta tayyorgarlikni, ma'naviy-intellektual, ruhiy safarbarlikni, keng miqyosdagi tashkiliy ishlarni talab etishini inobatga oladigan bo'lsak, zikr etilgan raqamlar zamirida tinimsiz izlanish va mehnat jarayonlari, chuqur tahlil, kelajakni oldindan ko'ra bilish salohiyati mujassam ekanini anglash qiyin emas.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz yetakchisidan tortib eng quyi bo'g'indagi rahbar va mutasaddilargacha yangicha muhitda ishlashga o'rganib, xalq bilan muntazam muloqot asosida faoliyat yuritishni hayot qoidasiga aylantirayotgani ahamiyatlidir. Ayni shu xususiyat O'zbekistonda keng ko'lamlı o'zgarishlar muvaffaqiyatini ta'minlayotgan eng muhim omillardan biri ekanini nufuzli xalqaro ekspert va tahlilchilar ham e'tirof etmoqda.

Ta'kidlash joizki, mazkur to'plamdan joy olgan voqealar xronikasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub yangilanish va islohotlar o'tgan vaqt davomida yuksak sifat o'zgarishlari va amaliy samaradorlik

bilan rivojlanib, ortga qaytmaydigan muqarrar tus olganini yaqqol tasdiqlaydi.

Shu o'rinda e'tiborga molik yana bir jihat haqida to'xtalmasdan o'tolmaymiz. U ham bo'lsa, to'plam sahifalarida xalqimiz o'tgan davrda erishgan, har bir yurtdoshimizning munosib hissasi qo'shilgan barcha yutuq va natijalar birlamchi manbalar asosida aks ettirilgan. Shu ma'noda, aniq raqamlar, voqea-hodisalar, binobarin, real tarixiy jarayonlar muhrlangan ushbu kitobni O'zbekistonning keyingi besh yildagi taraqqiyot solnomasi, deb aytishga to'la haqlimiz.

Ishonchimiz komilki, o'zida obyektiv dalil va raqamlar, real voqea-hodisalarni mujassam etgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning faoliyat xronikasi o'tgan besh yillik taraqqiyot yo'limiz haqidagi eng ishonchli manba bo'lib qoladi.

To'plam boshqaruv sohasi xodimlari, tarixchi olimlar, siyosatshunos va sotsiologlar, ekspertlar, tadqiqotchi va talabalar, muxtasar aytganda, O'zbekistonning eng yangi tarixi bilan qiziqadigan barcha insonlar uchun mo'ljallangan.

Kitob bilan tanishgan har bir yurtdoshimiz o'z hayoti, oilasi, farzandlari, xalqimiz, Vatanimiz taqdiriga daxldor voqea-hodisalar, hujjatlar mazmunidan atroflicha xabardor bo'ladi va zamonamiz tarixi haqiqatan ham barchamizning ko'z o'ngimizda, aynan bizning ishtirokimizda yaratilayotganini chin dildan his etadi.

# 2016-yil

**8-sentabr.** Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining Vazirlar Mahkamasi a'zolari, vazirliklar va idoralar rahbarlari, boshqa tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokidagi kengaytirilgan qo'shma majlisi bo'lib o'tdi.

Majlisda «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vazifa va vakolatlarini bajarishni vaqtincha yuklash to'g'risida»gi masala ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Nig'matilla To'liqinovich Yo'ldoshev O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida rahbarlik lavozimlaridagi ko'p yillik tajribasini, aholi o'rtasidagi hurmat-e'tiborini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifa va vakolatlarini bajarishni uning zimmasiga vaqtincha yuklash maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi taklif bilan majlis ishtirokchilariga murojaat qildi.

Mazkur taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi tomonidan ma'qullangani ma'lumot uchun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining vazifa va vakolatlarini bajarishni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Shavkat Miromonovich Mirziyoyev zimmasiga vaqtincha yuklash to'g'risida qo'shma qaror qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasiga «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi qonunga to'liq muvofiq holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o'tkazilishini tashkil etish tavsiya etildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Shavkat Mirziyoyev ma'ruza qildi.

\* \* \*

**9-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Qurbon hayitini nishonlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-sentabr.** Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasiga hurmat bajo keltirish maqsadida Samarqand shahriga tashrif buyurdi.

Samarqand xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O'zbekis-

ton Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev kutib oldi.

Nursulton Nazarboyev va Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov qabriga gul qo'ydilar va uning xotirasiga hurmat bajo keltirdilar.

Forumlar majmuasida Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyevning uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida turli sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga oid masalalar yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**14-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**16-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**16-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar

bilan yaqindan tanishish maqsadida Jizzax viloyatiga tashrif buyurib, Jizzax shahri, Paxtakor, Zafarobod, Do'stlik tumanlarida bo'ldi.

Hududda sanoat sohasining rivojlanishi, yetishtirilgan paxta hosilini yig'ib-terib olish va kuzgi g'alla ekish mavsumining borishiga doir masalalar tahlil etildi. Iqtisodiy islohotlarni izchil olib borish bo'yicha dolzarb vazifalar, kommunikatsiya tizimlarini yanada rivojlantirish, obodonlashtirish, zamonaviy bino va inshootlarni qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar atroflicha muhokama qilindi.

\* \* \*

**19-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**19-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Rio-de-Janeyro shahri (Braziliya)da bo'lib o'tgan XV yozgi paralimpiya o'yinlari g'olib va sovrindorlarini pul mukofotlari bilan taqdirlash to'g'risida»gi farmoyishga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-sentabr.** O'zbekiston Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev joylarda

ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, sanoat va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Angren shahriga tashrif buyurdi.

Shavkat Mirziyoyev 2012-yilda tashkil etilgan «Angren» maxsus industrial zonasi hududida konveyer lentalari, qishloq xo‘jaligi texnikasi va avtomobil shinalari ishlab chiqarishni tashkil etish» loyihasining amalga oshirilish jarayoni bilan tanishdi. Shu kuni Angren issiqlik elektr stansiyasida 2016-yilning avgust oyida ishga tushirilgan yangi energiya blokini ko‘zdan kechirdi. Shuningdek, «O‘zbekko‘mir» aksiyadorlik jamiyati faoliyati, Angren ko‘mir konida mahsulot qazib olish va yetkazib berish ishlari, bu yerda amalga oshirilayotgan texnik qayta jihozlash jarayoni bilan ham tanishdi.

Mazkur sanoat korxonalarini uchun o‘rta maxsus va oliy ta‘lim muassasalarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, mutaxassislarining yetakchi xorijiy kompaniyalarda malaka oshirishini tashkil etish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatiga tashrifi davomida paxta hosilini yig‘ib-terib olish va kuzgi ekish ishlarining borishi bilan ham tanishdi. Fermerlar, soha xodimlari bilan uchrashuv chog‘ida qishloq xo‘jaligi ishlarini qisqa muddatda uyushqoqlik bilan o‘tkazish masalasi atroflicha muhokama etilib, tegishli topshiriq va tavsiyalar berildi.

\* \* \*

**21-sentabr.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**22-sentabr.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Rio-de-Janeyro shahrida bo‘lib o‘tgan XV yozgi paralimpiya o‘yinlarida yuqori natijalarga erishgan sportchi va murabbiylardan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-sentabr.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**22-sentabr.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari Asqar Maminni qabul qildi.

Uchrashuvda Qozog‘iston Prezidenti Nursulton Nazarboyevning joriy yil 12-sentabr kuni Samarqand



shahriga tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**23-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**24-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Navoiy va Buxoro viloyatlarida bo'ldi. Safar davomida «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyatida amalga oshirilayotgan yirik loyihalar bilan tanishdi. Jumladan, polivinilxlorid, kaustik soda va metanol ishlab chiqarishga mo'ljallangan majmua hamda zamonaviy energiya tejaydigan texnologiyalar bilan jihozlanadigan, yiliga 500 ming tonna azot kislotasi ishlab chiqarishga mo'ljallangan obyektidagi ishlar bilan tanishdi.

Navoiy shahrida olib borilayotgan obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari, Navoiy shahri bosh rejasining amalga oshirilishi, kam ta'minlangan oilalar

uchun uy-joy qurish masalalari ko'rib chiqildi.

Shavkat Mirziyoyev viloyatda qishloq xo'jaligi ishlarining borishi bilan ham tanishdi, paxta dalalarini ko'zdan kechirdi. Karmana tumani fermerlari bilan suhbatlashdi.

Shu kuni Shavkat Mirziyoyev Buxoro viloyatida qurilayotgan Qandim gazni qayta ishlash zavodiga tashrif buyurdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev shu yerning o'zida «Lukoyl» neft kompaniyasi prezidenti Vagit Alekperov bilan uchrashdi.

Suhbat chog'ida «Lukoyl» kompaniyasi bilan uzoq muddatli va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari muhokama etildi.

\* \* \*

**28-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatiga tashrif buyurdi.

Shavkat Mirziyoyev mamlakati-mizning shimoliy hududida joylashgan Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasida bo'lib, bu yerda hayotga tatbiq etilayotgan keng ko'lamli investitsiya loyihasi bilan tanishdi.

Shundan so'ng Nukus shahrining bosh rejasi muhokama qilindi. Suh-

bat chog'ida zamonaviy ko'p qavatli turarjoy binolari, dam olish maskanlari, sun'iy ko'llar va suv havzalari barpo etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Aholi uchun qulay va munosib sharoitlar yaratish ko'lamini yanada kengaytirish lozimligi ta'kidlandi.

Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlarining borishi bilan tanishdi, Kegeyli tumani fermerlari bilan suhbatlashdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi faollari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda hududning eksport salohiyatini oshirish, qisqa muddatda paxta hosilini yig'ishtirib olish va kuzgi ekinlarni ekish, ijtimoiy obyektlar hamda uy-joylarning kuzgi-qishki mavsumga tayyorligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini g'amlash masalalari ko'rib chiqildi. Shuningdek, zamonaviy, shinam uy-joylar qurish, kommunal xizmatlar faoliyatini yanada takomillashtirish, obodonlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Shu kuni O'zbekiston Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatiga ham tashrif buyurdi.

Urganch shahrida yaqin yillarda qurilishi rejalashtirilayotgan ko'p-qavatli uylar loyihasi ko'rib chiqildi. Qishloq joylarda kam ta'minlangan oilalar uchun mo'ljallangan muhandislik-kommunikatsiya, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi yaratilgan yakka tartibdagi zamonaviy, shinam uy-joylar loyihalari ham muhokama qilindi.

Shavkat Mirziyoyev Qo'shko'pir tumanida qishloq xo'jaligi ishlarining borishi bilan tanishdi. Fermerlar bilan suhbatda yer unumdorligini oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori hosil beradigan navlarini ekish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Xorazm viloyati faollari bilan uchrashuvda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, hududning eksport ko'rsatkichlarini oshirish, istiqbolli yangi sanoat obyektlarini barpo etish, ijtimoiy infratuzilmani yanada yaxshilash borasidagi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

\* \* \*

**29-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev umumxalq bayrami — O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**1-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohot-

larning borishi, sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Sirdaryo viloyatiga tashrif buyurdi.

Shavkat Mirziyoyev Shirin shahridagi Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasida bo'ldi. Mintaqadagi eng yirik bu korxonada O'zbekiston energiya tizimining markaziy qismiga ulangan iste'molchilarni energiya bilan ta'minlaydigan asosiy manba hisoblanadi. Bu yerda mutaxassislar bilan issiqlik elektr stansiyasi quvvatini oshirish, ishlab turgan energiya bloklarini modernizatsiya qilish masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev viloyat markazidagi «Guliston medtexnika» O'zbekiston — Buyuk Britaniya qo'shma korxonasida ham bo'ldi. Yangi korxonada yiliga 216 million dona shpris va 26 million dona infuziya sistemasi ishlab chiqariladi.

Shavkat Mirziyoyev Guliston shahrida kam ta'minlangan oilalar uchun bunyod etilishi rejalashtirilgan ko'p qavatli zamonaviy uylar loyihasi bilan ham tanishdi.

Mamlakatimiz rahbari shu kuni viloyat paxta dalalarida bo'lib, yig'im-terim ishlarining borishini ko'zdan kechirdi. Guliston tumani fermerlari bilan hududda yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, yuqori unumli navlarni ekish, sohaga zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalarini joriy etish masalalarini muhokama qildi.

Sirdaryo viloyati faollari bilan uchrashuvda viloyatning shahar va tumanlari markazlarida yangi uy-joylar barpo etish, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy inf-ratuzilmani yanada rivojlantirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish ko'zda tutilgan istiqbolli bosh rejalarni tatbiq etish asosida aholining hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilashga doir masalalar ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**5-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Samarqand viloyatiga tashrif buyurdi.

Tashrif O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov qabrini ziyorat qilish bilan boshlandi. Shundan so'ng Oqdaryo tumanida amalga oshirilayotgan qishloq xo'jaligi ishlari bilan tanishildi. Fermerlar bilan dehqonchilikda samaradorlikni oshirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga ularni qayta ishlashni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Samarqand shahrida barpo etilishi rejalashtirilayotgan, shahar aholisining uy-joy muammolarini hal

etish imkonini beradigan zamonaviy ko'p qavatli uylar loyihalari bilan tanishdi. Shuningdek, shaharda transport tizimi faoliyatini yanada yaxshilash, zamonaviy tramvay tarmoqlarini barpo etish lozimligiga e'tibor qaratildi.

Shavkat Mirziyoyev xitoylik mutaxassislar bilan hamkorlikda zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilayotgan muqobil manbalardan elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha noyob obyekt — quyosh fotoelektr stansiyasi loyihasi bilan ham tanishdi.

Mamlakatimiz rahbari shu kuni Urgut tumanida tashkil etilgan sanoat zonasini ham borib ko'rdi. Maydoni qariyb 42 gektar bo'lgan bu hududda 40 ta sanoat korxonasi, jumladan, 19 ta qo'shma korxonasi faoliyat ko'rsatadi. Ularda 1 ming 200 ga yaqin kishi mehnat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Urgut tumanining resurs bazasidan samarali foydalanish, sanoat va eksport salohiyatini yanada rivojlantirish, investitsiya va ilg'or texnologiyalarni jalb etish maqsadida «Urgut» erkin industrial zonasini tashkil etish zarurligini alohida qayd etdi.

Urgut tumani hokimligida Samarqand viloyati faollari bilan bo'lgan uchrashuvda mazkur tuman misolida viloyatni istiqbolda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning kompleks dasturi ko'rib chiqildi.

Viloyatning shahar va tumanlari markazlarida yangi uy-joylar barpo etish, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma-

ni yanada rivojlantirish, xususan, ichki yo'llarni ta'mirlash, ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash asosida aholining turmush sharoitini yuksaltirishga doir masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**5-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlantirishini ta'minlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev bilan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

\* \* \*

**6-oktabr.** Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov xotirasiga hurmat bajo keltirish maqsadida Samarqand shahriga tashrif buyurdi. Samarqand xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev kutib oldi.

Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev

hamrohligida Islom Karimov qabrini ziyorat qilib, uning xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Samarqand shahridagi forumlar majmuasida Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr Lukashenkoning uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Belarus o'rtasida turli sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga oid masalalar yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**7-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev bilan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

O'zaro suhbatda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda ikki tomonlama manfaatli hamkorlikni kengaytirish bo'yicha turli darajada O'zbekiston — Rossiya muloqotlari faollashayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston va Rossiya rahbarlari o'zaro hamkorlikka doir boshqa qator masalalar va ayrim xalqaro muammolar yuzasidan ham fikr almashdilar.

\* \* \*

**10-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 23-bandiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga O'zbekiston Respub-

likasi Konstitutsiyasining yigirma to'rt yilligi munosabati bilan amnistiya to'g'risidagi qarorni qabul qilish haqida taqdimnoma kiritdi.

\* \* \*

**10-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev o'rtasida Qozog'iston tomonining tashabbusi bilan telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi.

Davlat rahbarlari yaqinda oliy darajada o'tgan uchrashuvlar chog'ida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari yuzasidan erishilgan kelishuvlar ijrosining borishini muhokama etdilar.

O'zbekiston va Qozog'iston rahbarlari o'zaro manfaatli barcha sohalarda ikki tomonlama aloqalarni faollashtirish, do'stlik va yaqin qo'shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash to'g'risida kelishib oldilar.

\* \* \*

**11-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan yaqindan tanishish maqsadida Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari ushbu viloyatga safarini Hakim Termiziy majmuasini ziyorat qilishdan boshladi. Shundan so'ng Shavkat Mirziyoyev bojxona terminali ham bo'lgan «Termez Cargo Centre» xalqaro logistika markazi va bu yerda tashkil etilgan avtokemping faoliyati bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz janubiy sarhadlaridagi chegara postlaridan birida bo'lib, davlatimiz sarhadlarini yanada mustahkamlash, harbiy xizmatchilar uchun sharoitlarni yaxshilash zarurligini qayd etdi.

Mamlakatimiz rahbari Termiz shahri mavzalaridan birida kam ta'minlangan va yosh oilalar uchun qurilishi rejalashtirilgan ko'p qavatli zamonaviy uylar loyihalari bilan tanishdi.

Qishloq joylarda kam ta'minlangan oilalar uchun mo'ljallangan yakka tartibdagi zamonaviy, ixcham uyjoylar loyihalari ham ko'rib chiqildi.

Shavkat Mirziyoyev qurilishi davom etayotgan «Amudaryo sohili» sport-sog'lomlashtirish majmuasi hududidagi obyektlarni ham ko'zdan kechirdi.

Mamlakatimiz Prezidenti vazifasini bajaruvchi Termiz tumanidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan yangi «Gold dried fruits export» mas'uliyati cheklangan jamiyatida ham bo'ldi.

Bu yerda viloyatdagi fermer, dehqon va yordamchi xo'jaliklarda meva sabzavotlar yetishtirishni ko'paytirish, ularni moliyaviy resurslar va sifatli urug'lik bilan ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

Shavkat Mirziyoyev Imom Iso Termiziy ziyoratgohida amalga oshirilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan ham tanishdi. Musulmon olamida olti buyuk muhaddisdan biri sifatida mashhur bo'lgan ulug' ajdodimizning bebaho merosi bugungi kunda ham keng o'rganilayotgani ta'kidlandi.

Mamlakatimiz Prezidenti vazifasini bajaruvchi Sherobod tumanida yirik sement zavodi qurilishining borishi bilan ham tanishdi.

Viloyat faollari bilan uchrashuvda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uning eksport salohiyatini oshirish, istiqbolli yangi sanoat obyektlarini barpo etish, ijtimoiy infratuzilmani yanada yaxshilash borasidagi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

\* \* \*

**12-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev raisligida Vazirlar Mahkamasining majlisi bo'lib o'tdi. Majlisda 2017-yilning eng muhim moliyaviy-iqtisodiy hujjatlari bo'lgan — asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlarini, soliq va budjet siyosati konsepsiyalari, O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti hamda Ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi loyihalari har tomonlama muhokama qilindi hamda qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

\* \* \*

**13-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-

yilning 9 oyida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari, 2016-yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim yoʻnalishlari va ustuvor vazifalarini amalga oshirish natijalari muhokamasiga bagʻishlangan majlisi boʻlib oʻtdi. Uni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev olib bordi.

\* \* \*

**14-oktabr.** Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 83-moddasiga asosan «Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasining qonuni loyihasi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining muhokamasiga kiritildi.

\* \* \*

**18-oktabr.** Toshkentdagi Simpoziumlar saroyida Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi boshlandi.

Tashqi ishlar vazirlari kengashi Islom hamkorlik tashkilotining eng muhim tuzilmalaridan biri boʻlib, uning sessiyasi har yili aʼzo mamlakatlardan birida oʻtkaziladi.

Sessiyada Islom hamkorlik tashkilotiga aʼzo davlatlar tashqi ishlar vazirlari, tashkilotning yordamchi va maxsus muassasalari rahbarlari, AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Italiyaning IHTdagi maxsus vakillari hamda BMT, YXHT, Arab davlatlari ligasi, Iqti-

sodiy hamkorlik tashkiloti, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari boʻyicha kengash kabi qator tuzilmalar vakillari ishtirok etdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev sessiyaning ochilish marosimida nutq soʻzladi.

\* \* \*

**18-oktabr.** Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev Kuvayt Davlati Bosh vazirining birinchi oʻrinbosari, Tashqi ishlar vaziri shayx Saboh Xolid al-Hamad as-Sabohni qabul qildi.

Suhbat chogʻida Oʻzbekiston — Kuvayt munosabatlarini yuqori bosqichga koʻtarish, hamkorlikning yangi sahifasini ochish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**18-oktabr.** Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev Islom taraqqiyot banki (ITB) prezidenti Bandar Hajarni qabul qildi.

Suhbat chogʻida Oʻzbekiston rahbariyatining tashabbusini roʻyobga chiqarish — Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi huzurida nafaqat islom madaniyati, balki umuminsoniy sivilizatsiya ravnaqiga benazir hissa qoʻshgan buyuk ajdodlarimizning boy diniy-maʼnaviy merosini oʻrganishga ixtisoslashgan xalqaro ilmiy tadqiqotlar markazini tashkil etishda ITBning ishtiroki istiqbollari yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**21-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «2017—2021-yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**24-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh xodimlarni mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro mehnat tashkilotining birlashmalar erkinligi va kasaba uyushmalariga birlashish huquqini himoya qilish to'g'risidagi 87-sonli konvensiyasini (San-Fransisko, 1948-yil 9-iyul) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Turkmaniston rahbarlari turli darajada o'tkazilgan ikki tomonlama uchrashuvlar doirasida siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha erishilgan kelishuvlar ijrosi qanday borayotgani xususida fikr almashdilar.

\* \* \*

**26-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Almazbek Atamboyev o'rtasida Qirg'iziston tomonining tashabbusi bilan telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston va Qirg'iziston hamkorligining bugungi holati va istiqbollari to'g'risida atroflicha fikr almashib, o'zaro munosabatlarning bir qator asosiy yo'nalishlarida ijobiy o'zgarishlar yuz berayotganini alohida qayd etdilar.

\* \* \*

**26-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Erkin



iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi.

Deputatlar O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi Budjetnoma-si — Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlari, soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ko'rib chiqdilar.

Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vazir Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va so'zga chiqdi.

\* \* \*

**28-oktabr.** Markaziy saylov komissiyasining majlisi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni ro'yxatga olish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

Markaziy saylov komissiyasi siyosiy partiyalar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarni ro'yxatga olish to'g'risida qaror qabul qildi. O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasidan Sarvar Sa'dullayevich Otamurodov, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, O'zbekiston Xalq

demokratik partiyasidan Hatamjon Abdurahmonovich Ketmonov, O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan Narimon Majitovich Umarov O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlar etib ro'yxatga olindi.

\* \* \*

**29-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev AQSh Davlat kotibining siyosiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Tomas Shenonni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni yurtimizga tashrifi bilan samimiy qutlab, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov vafoti munosabati bilan O'zbekiston xalqiga chuqur hamdardlik izhor etgani va qo'llab-quvvatlagani uchun AQSh Prezidenti Barak Obama va Davlat kotibi Jon Kerriga samimiy minnatdorlik bildirdi.

Suhbat davomida tomonlar O'zbekiston — AQSh munosabatlari o'zaro hurmat va ishonch, bir-birining manfaatlarini inobatga olish tamoyillari asosida izchil, muvaffaqiyatli rivojlanayotgani va mustahkamlanib borayotganini qayd etdilar.

\* \* \*

**31-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-noyabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII syezdidagi ma'ruzasi «Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir» degan nom bilan matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**1-noyabr.** Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Andijon viloyati saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so'zladi.

\* \* \*

**1-noyabr.** Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Farg'ona viloyati saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so'zladi.

\* \* \*

**2-noyabr.** Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Namangan viloyati saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so'zladi.

\* \* \*

**3-noyabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi

Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev o'rtasida Qozog'iston tomonining tashabbusi bilan telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi.

Muloqot chog'ida tomonlar siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar sohalarda O'zbekiston — Qozog'iston munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashdilar.

\* \* \*

**4-noyabr.** Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Navoiy viloyati saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so'zladi.

\* \* \*

**4-noyabr.** Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Buxoro viloyati saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so'zladi.

\* \* \*

**8-noyabr.** Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyati saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so'zladi.

\* \* \*

**10-noyabr.** Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekis-

ton Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog'iston Respublikasi saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so'zladi.

\* \* \*

**11-noyabr.** Tadbirkorlar va ish-bilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyati saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so'zladi.

\* \* \*

**12-noyabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Van Ini qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni yurtimizga tashrifi bilan qutlab, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov va foti munosabati bilan O'zbekiston xalqiga chuqur hamdardlik izhor etgani va qo'llab-quvvatlagani uchun Xitoy Xalq Respublikasi rahbariyatiga, shaxsan XXR raisi Si Szinpinga samimiy minnatdorlik bildirdi.

Samimiy va xayrixohlik ruhida o'tgan suhbat davomida O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari izchil rivojlanayotgani va mustahkamlanib borayotgani ta'kidlandi.

Muloqot chog'ida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va moliyaviy-texnikaviy hamkorlikning bugungi

holati hamda istiqbollariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**15-noyabr.** Tadbirkorlar va ish-bilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyati saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so'zladi.

\* \* \*

**16-noyabr.** Tadbirkorlar va ish-bilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryo viloyati saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so'zladi.

\* \* \*

**17-noyabr.** Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an Samarqand shahriga tashrif buyurdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an Hazrati Xizr majmuasiga tashrif buyurib, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti qabrini ziyorat qildi va Islom Karimov xotirasiga hurmat bajo keltirdilar.

Samarqand shahridagi Forumlar majmuasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev bilan Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an o'rtasida muzokara bo'lib o'tdi.

\* \* \*

**18-noyabr.** Tadbirkorlar va ish-bilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyati saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so‘zladi.

\* \* \*

**19-noyabr.** Tadbirkorlar va ish-bilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Sirdaryo viloyati saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so‘zladi.

\* \* \*

**22-noyabr.** Tadbirkorlar va ish-bilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyati saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so‘zladi.

\* \* \*

**23-noyabr.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga Tadbirkorlar va ish-bilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Mirziyoyevning tarjimai holi va dasturi «Xalq so‘zi» va «Народное слово» gazetalarida e‘lon qilindi.

\* \* \*

**24-noyabr.** Tadbirkorlar va ish-bilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev

Toshkent shahri saylovchilari bilan uchrashdi va nutq so‘zladi.

\* \* \*

**28-noyabr.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartishlar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**28-noyabr.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga 25 yil» esdalik nishonini ta‘sis etish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-dekabr.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «Buyuk davlat va siyosat arbobi, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov siymosi tasvirlangan haykalni yaratish bo‘yicha xalqaro ijodiy tanlovni tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**2-dekabr.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-dekabr.** Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahridagi 132-saylov uchastkasiga tashrif buyurib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ovoz berdi.

\* \* \*

**5-dekabr.** Toshkent shahrida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining Prezident saylovining dastlabki natijalariga bag‘ishlangan tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda O‘zLiDeP faollari, tadbirkorlar va ishbilarmonlar, turli soha vakillari, san‘at va madaniyat namoyandalari, keng jamoatchilik ishtirok etdi.

Yig‘ilganlar Prezident saylovini yoritish bo‘yicha Respublika matbuot markaziga onlayn tarzida bog‘lanib, saylovning dastlabki natijalarini kuzatib bordi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining dastlabki natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 15 million 906 ming 724 ovoz, ya‘ni saylovda ishtirok etgan saylovchilar umumiy sonining 88,61 foiz ovozi bilan g‘alaba qozongani haqidagi xabar yig‘ilganlar tomonidan gulduros qarsaklar bilan kutib olindi.

Shavkat Mirziyoyev tadbirda so‘zga chiqib, o‘ziga bildirilgan yuksak

ishonch uchun butun xalqimizga minnatdorlik bildirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish jarayonini kuzatib borgan beshta xalqaro tashkilot — Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Jahon saylov organlari assotsiatsiyasi va Islom hamkorlik tashkilotidan, 46 davlatdan kelgan 600 ga yaqin kuzatuvchilarga ham samimiy minnatdorlik bildirdi.

Tadbirda Vatan, mustaqillik, baxt haqidagi qo‘shiqlar yangradi.

\* \* \*

**5-dekabr.** O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin o‘rtasida Rossiya tomonining tashabbusi bilan telefon orqali muloqot bo‘lib o‘tdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida g‘alaba qozongani bilan samimiy tabrikladi.

O‘zbekiston va Rossiya rahbarlari strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini izchil davom ettirish va yanada rivojlantirish, o‘zaro aloqalarga doir barcha sohalarda, shuningdek, dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar bo‘yicha davlatlararo ishonchli, ochiq va konstruktiv muloqotni chuqurlashtirishga qat‘iy tayyor ekanini bildirdilar.

\* \* \*

**5-dekabr.** O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Rossiya Federatsiyasi Hukumati raisi Dmitriy Medvedev o'rtasida Rossiya tomonining tashabbusi bilan telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi.

Rossiya Hukumati raisi Shavkat Mirziyoyevni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishonchli g'alaba qozongani bilan samimiy tabrikladi.

Tomonlar savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha oliy va yuksak darajada o'tgan uchrashuvlar doirasida erishilgan kelishuvlar ijrosini muhokama qildi.

Suhbat chog'ida o'zaro manfaatli barcha sohalarda ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish va sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashga kelishib olindi.

\* \* \*

**5-dekabr.** O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev o'rtasida Qozog'iston tomonining tashabbusi bilan telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi.

Qozog'iston rahbari Shavkat Mirziyoyevni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangani bilan samimiy tabrikladi va davlat rahbari sifatidagi mas'uliyatli faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

Muloqot chog'ida tomonlar O'zbekiston — Qozog'iston munosabatlarining bugungi holati va istiqbolari haqida fikr almashdilar. Ikki mamlakatning turli vazirlik va idoralari o'rtasidagi aloqalarga, xo'jalik subyektlarining samarali hamkorligi, shuningdek, mintaqalararo aloqalar jadal rivojlanib borayotganiga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**5-dekabr.** O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon o'rtasida telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi.

Tojikiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovidagi ishonchli g'alabasi bilan samimiy tabrikladi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston — Tojikiston munosabatlarini mustahkamlash masalalari bo'yicha fikr almashdilar. Shuningdek, siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi dolzarb vazifalarni amalga oshirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekanini ta'kidladilar.

\* \* \*

**5-dekabr.** O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyev MDH Ijroiya qo'mitasi raisi — ijrochi kotibi Sergey Lebedev bilan uchrashdi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston rahbari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi kuzatuvchilar missiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti say-

lovida samarali ishlagani, ushbu jarayon hamda saylov yakunlarini yuqori baholagani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Hamdo'stlik doirasida hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha atroflicha fikr almashildi.

\* \* \*

**5-dekabr.** O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkiloti kuzatuvchilar missiyasi rahbari, ShHT Bosh kotibi Rashid Alimovni qabul qildi.

Tomonlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishni kuzatish bo'yicha ShHT vakillarining xulosalari to'g'risida fikr almashdilar.

O'zbekiston rahbari ShHT kuzatuvchilariga ochiq, erkin va demokratik sharoitlarda o'tkazilgan saylov kampaniyasi davomida amalga oshirgan samarali ishlari va yakuniy xulosalari uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

\* \* \*

**6-dekabr.** O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov o'rtasida telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi.

Turkmaniston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovidagi ishonchli g'alabasi bilan samimiy tabrikladi.

Suhbat chog'ida o'zbek va turkman xalqlarining tarixi mushtarak-

ligi, ma'naviy va madaniy qadriyat-lari yaqinligi ta'kidlandi.

Davlat rahbarlari do'stlik, yaqin qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlik prinsiplariga asoslangan yuksak darajadagi davlatlararo munosabatlarni mamnuniyat bilan qayd etib, bundan buyon ham siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda amaliy va ochiq muloqotlarni faol davom ettirishga qat'iy ishonch bildirdilar.

Gurbanguli Berdimuhamedov Shavkat Mirziyoyevga o'zi uchun qulay bo'lgan vaqtda Turkmanistonga rasmiy tashrif bilan kelishini taklif etdi. Taklif mamnuniyat bilan qabul qilindi.

\* \* \*

**6-dekabr.** O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an o'rtasida Turkiya tomonining tashabbusi bilan telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi.

Rejep Tayyip Erdo'g'an Shavkat Mirziyoyevni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishonchli g'alaba qozongani bilan samimiy tabrikladi.

Tomonlar o'zaro munosabatlar o'zbek va turk xalqlarining tarixi hamda ma'naviyati mushtarakligining mustahkam asosiga tayanishi va o'zaro manfaatlarga javob beradigan amaliy natijalarga erishishni maqsad qilganini alohida ta'kidladilar.

O'zbekiston va Turkiya rahbarlari o'zaro rasmiy tashriflarni amalga oshirishga kelishib oldilar va shu

munosabat bilan manfaatdor vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**7-dekabr.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tavalludining 80 yilligini nishonlash to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-dekabr.** «O‘zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi arafasida mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlashga katta hissa qo‘shgan, ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarida fidoyilik ko‘rsatgan bir guruh vatandoshlarimiz davlat mukofotlari — faxriy unvon, orden va medallar bilan taqdirlangan yurtdoshlarimizga ana shu yuksak mukofotlarni tantanali topshirish marosimi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat mukofotlarini tantanali ravishda topshirdi.

\* \* \*

**7-dekabr.** «O‘zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

tantanali yig‘ilishda ma‘ruza qildi va kirib kelayotgan yangi — 2017-yilga mamlakatimizda «**Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili**» deb nom berishni taklif etdi.

Davlatimiz rahbarining ushbu tantanadagi ma‘ruzasi «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi» sarlavhasi bilan matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**9-dekabr.** O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining «2016-yil 4-dekabr kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi natijalari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi.

Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq haqiqiy va bo‘lib o‘tgan deb topildi.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2016-yil 4-dekabr kuni muqobillik asosida bo‘lib o‘tgan saylovda saylovchilarning 88,61 foiz ovozi bilan besh yil muddatga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga saylangan deb hisoblandi.

\* \* \*

**13-dekabr.** O‘zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Ukraina Prezidenti Pyotr Poroshenko o‘rtasida Ukraina tomonining tashabbusi



bilan telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi.

Ukraina Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishonchli g'alaba qozongani bilan samimiy tabrikladi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston va Ukraina o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarni, avvalo, savdo-iqtisodiy sohadagi aloqalarni kengaytirish yo'lida birgalikda harakat qilishga, bunda ikki davlatning mavjud imkoniyatlarini to'la ishga solishga kelishib oldilar.

Pyotr Poroshenko Shavkat Mirziyoyevni o'ziga qulay vaqtda Ukrainaga tashrif bilan kelishini taklif etdi.

\* \* \*

**14-dekabr.** Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi.

Tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasi hukumati a'zolari, vazirlik va idoralar rahbarlari, Markaziy saylov komissiyasi a'zolari, mamlakatimizdagi xorijiy davlatlar elchixonalari va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari rahbarlari, mamlakatimiz va chet el ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Qo'shma majlisni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Raisi M.Abdusalomov ochdi. U yurtdoshlarimiz o'zining yuksak siyosiy madaniyati, Vatanimiz taqdiriga daxldorlik tuyg'usini

namoyon etib, 2016-yil 4-dekabr kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida faol qatnashganini ta'kidladi.

Yuksak saviyada o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi nomzodi Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylovchilar umumiy sonining 88,61 foiz ovozini olib g'olib bo'ldi.

Markaziy saylov komissiyasi Raisi zalda hozir bo'lganlar va saylovchilar nomidan Shavkat Mirziyoyevni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylangani bilan samimiy tabrikladi va unga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti guvohnomasini, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining shahodatnomasini topshirdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 92-moddasiga muvofiq Prezident Shavkat Mirziyoyev qasamyod qildi:

**«O'zbekiston xalqiga sadoqat bilan xizmat qilishga, respublikaning Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya etishga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga kafolat berishga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti zimmasiga yuklatilgan vazifalarni vijdonan bajarishga tantanali qasamyod qilaman».**

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangradi.

Tantanali marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbarining nutqi «Erkin va farovon, demokratik

O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» sarlavhasi bilan matbuotda chop etildi.

\* \* \*

Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 98-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rnini olgan siyosiy partiya tomonidan ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tavsiya etiladi. Shunga muvofiq, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy kengashining bo'lib o'tgan yig'ilishida Bosh vazir lavozimiga nomzod ko'rsatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga mamlakatimiz Bosh vazirining o'rinbosari lavozimida ishlab kelayotgan Abdulla Nig'matovich Aripov nomzodini tavsiya etdi.

Davlatimiz rahbari yig'ilganlarni A. Aripovning tarjimai holi bilan tanishtirdi. Nomzodning kasb malakasi, bilim va tajribasi, insoniy fazilatlarini haqida so'z yuritib, deputat va senatorlardan, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga tavsiya etilayotgan Abdulla Nig'matovich Aripov nomzodini qo'llab-quvvatlashni so'radi.

A. Aripov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yaqin va o'rta istiqbolga mo'ljallangan Harakat dasturi haqida nutq so'zladi.

Majlisda so'zga chiqqanlar Prezidentimizning ma'ruzasida bayon etilgan ustuvor yo'nalishlarni qo'llab-quvvatladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga tavsiya etilgan A. Aripov nomzodini ma'qulladi. Oliy Majlis palatalari Abdulla Aripovni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qildi.

\* \* \*

**15-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev o'rtasida telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi.

Shavkat Mirziyoyev Nursulton Nazarboyev va qardosh Qozog'iston xalqini tarixiy sana — Qozog'iston Respublikasi davlat mustaqilligining 25 yilligi bilan samimiy tabrikladi. O'z navbatida, Qozog'iston Prezidenti O'zbekiston rahbarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishgani bilan muborakbod etdi.

O'zbekiston va Qozog'iston rahbarlari siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarida O'zbekiston — Qozog'iston hamkorligini rivojlantirish istiqbollari, shuningdek, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Nursulton Nazarboyev Shavkat Mirziyoyevni o'ziga qulay vaqtda Qozog'istonga davlat tashrifi bilan kelishga taklif etdi. Taklif mamnu-niyat bilan qabul qilindi.

\* \* \*

**15-dekabr.** Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining

navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiyada Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbari Toshkent viloyatida sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloqlarda zamonaviy uyjoylar barpo etish, aholi bandligini ta'minlash borasida, ijtimoiy sohalarda muayyan natijalarga erishilayotganini ta'kidladi.

Yig'ilishda viloyatni barcha sohalarda yanada rivojlantirish, sanoat salohiyatini oshirish, ijtimoiy infratuzilmasini modernizatsiya qilish masalalari tahlil etildi. Tegishli vazirlik va idoralar rahbarlariga mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga doir ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**15-dekabr.** Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiyada Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Sessiyada asosiy e'tibor Sirdaryo viloyatida amalga oshirilishi lozim bo'lgan masalalarga qaratildi.

Prezidentimiz viloyatda erishilgan yutuqlarni qayd etish bilan birga, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlar, mavjud muammolar haqida ham batafsil to'xtalib o'tdi.

\* \* \*

**16-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi

Tashqi ishlar vazirining o'rinbosari Alan Dunkanni qabul qildi.

Uchrashuvda ikki davlat hamkorligining barcha yo'nalishlari yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

\* \* \*

**16-dekabr.** Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiyada Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Yig'ilishda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uning eksport salohiyatini oshirish, istiqbolli yangi sanoat obyektlari barpo etish, ijtimoiy infratuzilmani yanada yaxshilash borasidagi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Prezidentimiz viloyatda yo'l qo'yilgan kamchilik va mavjud muammolar haqida ham atroflicha to'xtalib o'tdi.

\* \* \*

**16-dekabr.** Xalq deputatlari Buxoro viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiyada Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbari mutasaddi rahbarlar viloyatdagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishi va amalga oshirishi zarurligini ta'kidladi.

Sessiyada viloyat qishloq xo'jaligida islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, bunda asosiy e'tiborni paxta maydonlarini

qisqartirish hisobidan meva-sabzavot mahsulotlarini ko'paytirish, viloyatning eksport salohiyatini keskin oshirish masalalari atroflicha muhokama etildi.

Majlisda bunday vazifalarni amalga oshirish uchun har tomonlama chuqur o'ylangan, Buxoro viloyatining sharoiti va imkoniyatlarini hisobga olgan holda alohida dasturlar ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish zarurligi qayd etildi. Mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlariga mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**19-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**20-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruv hamda belgilangan xizmat muddatlarini o'tab bo'lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublika-

si Tashqi ishlar vaziri Erlan Idri-sovni qabul qildi.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz yaqin qo'shni va vaqt sinovidan o'tgan hamkorlar sifatida O'zbekiston va Qozog'istonda, butun Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashdan, iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyot va farovonlikdan birdek manfaatdor ekani qayd etildi.

Suhbat chog'ida tomonlar O'zbekiston — Qozog'iston munosabatlariga oid, avvalambor, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya sohaslarida hamkorlikning barcha yo'nalishlari yuzasidan atroflicha fikr almashdi. Xususan, savdo sohasida yirik sheriklar bo'lgan O'zbekiston va Qozog'iston hamkorlikni yanada rivojlantirish va kengaytirish, bu boradagi barcha imkoniyatlarni ishga solishga tayyor ekani ta'kidlandi.

Uchrashuvda mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**23-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Galina Vitalyevna Melnikovaga «O'zbekiston Respublikasi xalq artisti faxriy unvonini berish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-dekabr.** Xalq deputatlari Jiz-zax viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiyada Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Prezidentimiz qishloqlarda sanoatni rivojlantirish, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlaydigan kichik korxonalar barpo etish asosida aholi bandligini ta'minlash masalalari qoniqarsiz ahvolda ekanini alohida qayd etdi.

Kelgusi besh yilda viloyatda eksport hajmini kamida 2 barobar, eksportchi korxonalarni 2,7 marta ko'paytirish, eksportda ulushi past bo'lgan tumanlarning bu boradagi natijalarini yaxshilash yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va modernizatsiya qilish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilishi lozimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**23-dekabr.** Xalq deputatlari Samarqand viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiyada Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zlad.

Sessiyada viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uning eksport salohiyatini oshirish, istiqbolli yangi sanoat obyektlari barpo etish, ijtimoiy infratuzilmani yanada yaxshilash borasidagi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Yengil sanoat sohasida tumanlarda paxtani qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish, mavjudlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish, shu or-

qali hududlar eksport salohiyatini yuksaltirish lozimligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz viloyatda turizmni yanada rivojlantirish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish zarurligiga alohida e'tibor qaratdi.

Viloyat qishloq xo'jaligida islohotlarni izchil davom ettirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi.

Davlatimiz rahbari 2017-yilning mamlakatimizda Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili, deb e'lon qilingani munosabati bilan bu borada mahalliy hokimlik va boshqaruv organlari oldida turgan vazifalarga alohida e'tibor qaratdi. Rahbarlarning xalq ichiga kirib, aholi bilan samimiy muloqot qilishi, ularning dard-u tashvishlarini tinglab, muammolarga yechim topishi xalqimizning davlatdan rozi bo'lishi va turmushi farovonligiga xizmat qilishi ta'kidlandi.

\* \* \*

**24-dekabr.** Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Almazbek Atamboyev amaliy tashrif bilan Samarqandga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Almazbek Atamboyev Hazrati Xizr majmuasiga tashrif buyurib, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov qabrini ziyorat qildi va uning yorqin xotirasiga hurmat bajo keltirdilar.

Prezidentlar «JV MAN Auto-Uzbekistan» O'zbekiston — Germaniya qo'shma korxonasiga tashrif buyurdilar.

Forumlar majmuasi saroyida ikki davlat rahbarlari o'rtasida muzokara bo'lib o'tdi. Unda Prezidentlar siyosiy muloqotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy munosabatlarni kengaytirish masalalarini muhokama etib, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik qator muammolar yuzasidan fikr almashdilar.

\* \* \*

**25-dekabr.** Xalq deputatlari Navoiy viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiyada Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zlandi.

Sessiyada bandlik masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada aholi, avvalambor, yoshlarni ish bilan ta'minlash, zamonaviy ish o'rinlari yaratish davlatimiz, butun jamiyatimizning diqqat markazida turishi lozimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**25-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Navoiy viloyatidagi yirik sanoat korxonalari faoliyati bilan tanishdi.

Prezidentimiz dastlab «Navoiy kon-metallurgiya» davlat korxonasiga tashrif buyurdi. Kombinatta so'nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar va istiqboldagi rejalar bilan tanishdi. Korxonada 2017–2021-yillarda 16 ta yangi yirik loyiha amalga oshirilishi mo'ljallangan. Davlatimiz rahbari mazkur loyihalarni o'z vaq-

tida va yuqori sifat bilan amalga oshirish, mahsulot ishlab chiqarishni yanada kengaytirish bo'yicha zarur ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyatida amalga oshirilayotgan yirik yangi loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari mazkur korxonadagi yangi loyihalarni tez va sifatli amalga oshirish iqtisodiyotimiz rivojida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Prezidentimiz «Navoiy» erkin iqtisodiy zonasida bo'lib, bu yerdagi korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar namunalarni ko'zdan kechirdi. Mazkur iqtisodiy zona faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan mutasaddi rahbarlarga tegishli topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**26-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**27-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Soliq va budjet siyosatining 2017-yilga mo'ljallangan

asosiy yoʻnalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**28-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oʻzbekiston faxriylarini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash «Nuroniy» jamgʻarmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini taʼminlashga, xususiyl mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**29-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017–2021-yillarda maktabgacha taʼlim tizimini yana-

da takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi yil arafasida mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyandalari bilan uchrashdi.

Uchrashuvda hukumat aʼzolari, vazirlik va idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari, tijorat banklari rahbarlari, Fanlar akademiyasi aʼzolari, yetakchi oliy oʻquv yurtlari rektorlari ishtirok etdi.

Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga koʻtarishni talab qilmoqda. Jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin. Mazkur sohani va olimlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash davlatimizning ustuvor vazifalaridan biridir, dedi Prezident.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyotimizning barcha sohalarini taraqqiyotida ilm-fanning oʻrni, ahamiyati gʻoyat katta ekani, bu borada davlatimiz birinchi galda Fanlar akademiyasi va uning tarkibida faoliyat koʻrsatayotgan olimlarga suyanishini, fan va ishlab chiqarish hamkorligi bugun nihoyatda dolzarb ekanini alohida taʼkidladi.

\* \* \*

**31-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Oʻzbekiston xalqini kirib kelayotgan yangi — 2017-yil bilan tabriklab, ezgu tilaklarini bildirdi.

# 2017-yil

**3-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**5-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev sog'liqni saqlash sohasining bir guruh yetakchi mutaxassislari bilan uchrashdi.

Videokonferensiya shaklida o'tgan uchrashuvda hukumat a'zolari, senatorlar, viloyat hokimlari, vazirlik va idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari rektorlari, sog'liqni saqlash tizimi mas'ul xodimlari ishtirok etdi.

Prezidentimiz tibbiyot sohasida bajarilishi lozim bo'lgan ishlar, yechimini kutayotgan muammolar haqida atroflicha to'xtaldi. Qishloq vrachlik punktlari faoliyatiga oid masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari faoliyatida ham yechimini kutayotgan masalalar ko'p. Mavjud markazlarning hammasi Toshkent shahrida joylashgan. Bu, ayniqsa, qishloq aholisiga muayyan noqulayliklar tug'dirmoqda. Ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari mutaxassislari joylarga chiqib, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatmog'i,

jarrohlik amaliyotlarini o'tkazmog'i lozim, dedi Prezidentimiz.

Tadbirda mamlakatimiz sog'liqni saqlash sohasini yanada rivojlantirish, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish, yosh mutaxassislarni tarbiyalash jarayoniga ilg'or ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish, dunyoning yetakchi tibbiyot markazlari va o'quv muassasalari, taniqli olim va mutaxassislar bilan hamkorlikni kengaytirish hamda boshqa dolzarb masalalar yuzasidan mutasaddilarga aniq topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**5-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan Koreya Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Xvan Gyo An o'rtasida Janubiy Koreya tomonining tashabbusi bilan telefon muloqoti bo'lib o'tdi.

Xvan Gyo An Shavkat Mirziyoyevni 2016-yilning dekabr oyida o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida yuksak natijaga erishib, g'alaba qozongani bilan samimiy muborakbod etdi.

Tomonlar o'zaro hamkorlik tarixidagi shonli sana — O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 25 yilligi bilan bir-birlarini samimiy tabrikladilar.



O'zbekiston — Janubiy Koreya munosabatlarining istiqbollari atroflicha muhokama qilinar ekan, o'zaro foydali bo'lgan barcha sohalarda yuqori texnologiyalarga asoslangan qo'shma loyihalarni ko'paytirishdan ikki tomon ham birdek manfaatdor ekani ta'kidlandi.

Ma'lumki, 2017-yilda koreyslarning O'zbekistonda istiqomat qila boshlaganiga 80 yil to'ladi. Mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida O'zbekistonning koreys millatiga mansub fuqarolari faol ishtirok etayotgani alohida qayd etildi.

Suhbat ochiq va do'stona ruhda o'tdi.

\* \* \*

**7-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Prokuratura organlari xodimlari kuni oldidan bir guruh soha xodimlari bilan uchrashdi.

Uchrashuvda Oliy Majlis palatalari rahbarlari, hukumat a'zolari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, prokuratura organlari mas'ul xodimlari va faxriylari ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 19-dekabrda qonuniga muvofiq, 8-yanvar O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni etib belgilandi.

Prokuratura organlari xodimlarining ishi katta mas'uliyat, fidoyilik, halollikni talab qiladi, dedi Prezidentimiz. Qabul qilinayotgan har bir qaror zamirida inson taqdiri turadi. Shunday ekan, yetti o'lchab bir kesish bu borada asosiy mezon bo'lmog'i shart.

Qonunchilik bazasini har tomonlama mustahkamlash va qonunlarni so'zsiz ijro etish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, demokratik huquqiy davlatni rivojlantirish, xususiy mulk va tadbirkorlik rivojini qo'llab-quvvatlash hamda uning ishonchli himoya qilinishini ta'minlashda prokuratura organlarining roli katta.

Tadbirkor boy bo'lsa, davlat boy bo'ladi. Buning uchun ishbilarmonlarga keng sharoit yaratib berishimiz lozim. Prokuror tadbirkorga ko'makchi bo'lishi, u bilan hamkorlikda ishlashi darkor, dedi Prezidentimiz.

Hozirgi kunda Oliy Majlis Senati tomonidan har yili Bosh prokurorning hisoboti eshitiladi. Bu, albatta, muhim, lekin joylardagi prokurorlarning hisobotini kim eshitadi, dedi Shavkat Mirziyoyev. 2017-yildan boshlab barcha darajadagi hokimlar, prokuratura va ichki ishlar organlari rahbarlarining aholi oldida hisobot berish tizimi joriy etiladi.

Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida mazkur soha xodimlari ham g'oyat mas'uliyatli vazifalarni bajarmog'i lozim bo'ladi. Birona ham murojaat e'tibordan chetda qolmasligi kerak, dedi davlatimiz rahbari.

\* \* \*

**9-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ma'muriy qamoqni o'tash tartibi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**10-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholiga transport xizmati ko'rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo'lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida»gi farmoyishni imzoladi.

\* \* \*

**12-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Urgut», «G'ijduvon», «Qo'qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Vatan himoyachilari kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 25 yilligi munosabati bilan huquqni muhofaza qilish organlari, mudofaa va favqulodda vaziyatlar vazirliklari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**13-yanvar.** O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etil-

ganining 25 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan «O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida tantanali marosim bo'lib o'tdi.

Anjumanda Oliy Majlis Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, hukumat a'zolari, askar va serjantlar, ofitser hamda generallar, Qurolli Kuchlarimiz faxriylari, ota-onalar va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilarini samimiy tabrikladi.

Tabrik nutqi 14-yanvar kuni matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**14-yanvar.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda 2017-yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturning eng muhim yo'nalish va ustuvor vazifalarini belgilashga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisi bo'lib o'tdi.

Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma'ruza qildi. Ushbu nutq «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak» degan sarlavha bilan matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**19-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari bo'yicha vitse-prezidenti Siril Myullerni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni samimiy qutlar ekan, O'zbekiston va Jahon banki o'rtasidagi hamkorlik izchil rivojlanib borayotganini alohida ta'kidladi.

O'zaro hamkorlik elektr energetikasi, irrigatsiya va kommunal tarmoqlarni modernizatsiya qilish, suv ta'minoti, ishlab chiqarish, transport va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishlarida Jahon bankining 2,8 milliard dollar mablag'i asosida amalga oshiriladigan 33 ta qo'shma loyihani o'z ichiga oladi.

Jahon banki vitse-prezidenti O'zbekistonda kichik biznesni jadal rivojlantirish, qulay ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar g'oyat muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidladi.

Uchrashuvda o'zaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari xususida fikr almashildi, sheriklik munosabatlari yanada kengaytirish va istiqbolli loyihalarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari muhokama etildi.

\* \* \*

**19-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20–21-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada oshirishga qaratilgan buniyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, xalq bilan uchrashish va muloqot qilish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif buyurdi.

Shavkat Mirziyoyev safarini Xo'jayli tumanidagi markaziy shifoxona faoliyati bilan tanishishdan boshladi. Shifokorlar bilan muloqotda malakali tibbiy kadrlar tayyorlash, tibbiy jihozlardan unumli foydalanish, xizmat malakasini oshirish, shifoxonalar qurishda har bir hududning o'ziga xos iqlim sharoitidan kelib chiqish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Shundan so'ng Prezidentimiz «Muruvvat» ayollar internatiga borib, ushbu muassasa faoliyati bilan tanishdi.

Tumandagi 69-maktab o'qituvchilari bilan bo'lgan muloqot chog'ida maktablarning infratuzilmasini yaxshilash, Vatan ravnaqi uchun malakali kadrlar tarbiyalash ishlarini takomillashtirish haqida so'z bordi.

Shavkat Mirziyoyev «Qoraqalpog'iston» qishloq vrachlik punktida ham bo'ldi. Shifokorlar bilan suhbat davomida aholining davlat idoralariga ishonchini mustahkamlashda tibbiyot muassasalari xodimlarining faoliyati alohida o'rin tutishi ta'kidlandi.

Prezidentimiz Shumanay tumanidagi Jumaboy Bozorov nomidagi

bolalar musiqa va san'at maktabiga tashrif buyurdi. Maktab o'qituvchi va o'quvchilari bilan samimiy mu-loqot bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari qurilishi boshlangan Qo'ng'iro't — Mo'ynoq ichimlik suvi tarmog'i bilan ta-nishdi. 101 kilometrlik ushbu suv tarmog'i ishga tushirilgach, bir ke-cha-kunduzda 7 ming metr kub suv uzatish va 25 mingdan ziyod aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Nukus shahrida Qoraqalpog'iston Respublikasi faollari bilan uchra-shuv bo'lib o'tdi. Unda Qoraqal-pog'istonni ijtimoiy-iqtisodiy ri-vojlantirish, aholi uchun munosib turmush sharoitlari yaratish masala-lariga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifining ikkinchi kuni Nukus shahrida polimer mah-sulotlari zavodi quriladigan hudud-ga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari mazkur kor-xona bilan yonma-yon barpo etila-digan energiya tarmog'i mahsulot-lari ishlab chiqaradigan zavod loyi-hasi bilan ham tanishdi. Bu yerda Yaponiya, Shveysariya, Italiya ka-bi mamlakatlarda tayyorlangan texnologiyalar asosida zamonaviy transformatorlar, fotoelektrostansiya detallari, avtomatik elektr hisob-lagichlar ishlab chiqariladi.

Davlatimiz rahbari zamonaviy shaharsozlik talablari asosida rekons-truksiya qilingan Nukus temiryo'l vokzalini borib ko'rdi. Preziden-timiz bu yerda xizmat turlarini ko'paytirish, xizmat ko'rsatish ma-

daniyatini yuksaltirish, yo'lovchilar uchun qulayliklarni yanada oshirish zarurligini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev Ibroyim Yusupov nomidagi iqtidorli bola-lar maktabi qurilayotgan hududga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari maktab loyihasini takomillashtirish, xususan, bino oldida maydon barpo etish va bu yerda Ibroyim Yusupov haykalini o'rnatish bo'yicha tavsiya-lar berdi.

Prezidentimiz Toshkent pedi-at-riya-tibbiyot institutining Nukus filialida ham bo'ldi. Institutda ha-qiqiy ilmiy muhit yaratish, xorij tajribasini o'rganish, xalqaro klini-kalar bilan hamkorlikni rivojlanti-rish, onalar va bolalar salomatligini samarali muhofaza qilishni yo'lga qo'yish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qora-qalpog'iston Respublikasidagi Xalq qabulxonasini borib ko'rdi. Har bir murojaatni adolatli ko'rib chiqish va hal etish, rahbarlarning muro-jaatlar bilan ishlashini tahlil qilib borish bo'yicha ko'rsatmalar beril-di.

Prezidentimiz Nukusning Ernazar Olako'z ko'chasini rekonstruksiya qilish loyihasi bilan tanishdi. Re-jaga ko'ra, ushbu markaziy ko'cha kengaytirilib, transport harakati uchun yanada qulaylik yaratiladi. Yo'l bo'yida ko'p qavatli uylar, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari quriladi.

Davlatimiz rahbari Imom eshon Muhammad masjidida nuroniylar bilan suhbatlashdi. Unda xalqimiz

turmush darajasini yanada oshirish, keksalarni e'zozlash, yoshlarni barkamol etib tarbiyalash haqida so'z bordi.

Nuroniylar Shavkat Mirziyoyev o'zining Prezident sifatida mamlakatimiz bo'ylab ilk tashrifini qoraqalpoq zaminidan boshlagani davlatimiz rahbarining Qoraqalpog'istonga, qoraqalpoq xalqiga bo'lgan yuksak hurmat-e'tiboridan dalolat ekanini, tashrif natijalari bu hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidladilar.

\* \* \*

**24-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublika baynalmilal madaniyat markazining 25 yilligi munosabati bilan milliy madaniy markazlarning bir guruh faollarini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirda ishtirok etdi va nutq so'zladi. Davlatimiz rahbari tantanali marosim avvalida milliy-madaniy markazlarning davlat mukofotlari bilan taqdirlangan faollariga faxriy unvonlar, orden va medallar topshirdi.

\* \* \*

**25-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom

Abdug'aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-yanvar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtida Mudofaa vazirligi rahbariyati bilan yig'ilish o'tkazdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, hukumat a'zolari ishtirok etgan tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigida belgilangan vazifalar ijrosining borishi muhokama qilindi, qator vazirlik va idoralar rahbarlarining axboroti tinglandi.

Davlatimiz rahbari xavfsizlik sohasiga oid qonunchilik samaradorligini yuksaltirish, Qurolli Kuchlar tashkiliy tizimini yanada takomillashtirish, uning shaxsiy tarkibini tayyorlash, zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlanish darajasini yanada oshirishga qaratilgan aniq vazifalarni belgilab berdi.

Harbiy xizmatchilarni har tomondama ijtimoiy himoya qilish, jumladan, harbiylar va ularning oila a'zolari uchun zamonaviy uy-joylar qurish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarni vatanparvarlik ruhida

tarbiyalash, yurtdoshlarimizda Vatan taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'usini yanada yuksaltirish kabi muhim vazifalarga alohida e'tibor qaratdi.

Yig'ilishda hukumat a'zolariga, vazirlik va idoralar rahbarlariga Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, milliy armiyamiz va xalqimiz yakdilligini mustahkamlashga doir aniq topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari mazkur bilim yurtida kursantlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan ham tanishdi.

\* \* \*

**27–28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obo-donlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Xorazm viloyatiga tashrif buyurdi.

Prezidentimizning viloyatga tashrifi Xivadagi Ichan qal'a majmuasidan boshlandi.

Pahlavon Mahmud maqbarasi ziyorat qilindi.

Davlatimiz rahbari Matniyoz Devonbegi madrasasida Xiva shahri-ning tarixiy qismida amalga oshiriladigan bunyodkorlik ishlari rejasi, Isfandiyorxon qabul marosimlari uyi va Nurullaboy yodgorlik majmuasini rekonstruksiya qilish loyihalari bilan tanishdi.

Urganchdan Xivagacha temiryo'l va Xiva shahrida zamonaviy vokzal barpo etish, bu yo'lda elektro-

poyezdlar, kelgusida yuqori tezlikda harakatlanadigan «Afrosiyob» tezyurar poyezdi qatnovini yo'lga qo'yish lozimligi qayd etildi. Shaharning turizm sohasidagi jozibadorligini oshirish maqsadida sayilgoh ko'chalar tashkil etish va kechki sayr imkoniyatini yaratish, ularda milliy urf-odatlarimiz va ko'ngilochar dasturlarni namoyish qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar bilan suhbatda tarmoqda xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali xorijlik sayyohlarni ko'proq jalb etish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, sayyohlikka ixtisoslashgan mutaxassislar tayyorlash, kadrlar malakasini oshirish, esdalik sovg'alar ishlab chiqaradigan korxonalarni ko'paytirish xususida so'z bordi. Soha mutasaddilariga tegishli topshiriqlar berildi.

Shavkat Mirziyoyev Xorazm Ma'mun akademiyasiga tashrif buyurdi.

Prezidentimiz akademiyada ilmiy yo'nalishlarni kengaytirish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ularni amaliyotga keng joriy etish, olimlarning turmush sharoitlarini yanada yaxshilash zarurligini ta'kidladi.

Shundan so'ng Xiva tumanidagi «Boltaboy oqsoqol» fermer xo'jaligi baliqchilik kompleksi hamda «Xiva naslli parranda» mas'uliyati cheklangan jamiyati parrandachilik markazi loyihalari bilan tanishuv bo'ldi.

Davlatimiz rahbari Xiva tumani Chodra qishlog'ida Xursand Mad-

rimov va Ollobergan Rahimov xonadonlariga kirib, ularning turmush sharoiti, daromadlari bilan qiziqdi. Tomorqadan samarali foydalanish, limon, yong'och, anor, anjir kabi serdaromad ekinlar ekish zarurligi haqida so'z bordi.

Shavkat Mirziyoyev Yangiariq tumanida tashkil etiladigan ip-gazlama ishlab chiqarish korxonasi, Bog'ot tumanida 200 gektar maydonda tokzor tashkil etish loyihalari bilan tanishdi.

Prezidentimiz Hazorasp tumaniga tashrifi chog'ida Xorazm viloyati qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlaydigan Toshsoqa magistral kanalida amalga oshirilayotgan rekonstruksiya ishlari bilan tanishdi. Bu yerda pudratchi va quruvchilar ishini samarali tashkil etish, qurilish va rekonstruksiya ishlarini jadallashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Urganch shahrida Xorazm viloyati faollari bilan uchrashuvda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada oshirish, yosh avlodni tarbiyalash va ish bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari safarining ikkinchi kunida Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazining Xorazm filialini borib ko'rdi. Ushbu tibbiyot maskani negizida Rossiya Federatsiyasining A. Bakulev nomidagi yurak-qon tomir jarrohligi ilmiy-amaliy markazi filialini tashkil etish rejalashtirilgan. Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch filiali negizida I. Pavlov nomidagi Birinchi Sankt-Peterburg

davlat tibbiyot universiteti bilan hamkorlikda endokrinologiya, otolaringologiya, gematologiya, allergologiya, terapiya bo'limlari ochiladi.

Prezidentimiz Xorazmda mazkur ikki muassasaning tashkil etilishi tarixiy voqea bo'lishini, Orolbo'yi aholisi uchun ulkan ijtimoiy ahamiyat kasbetishini alohida ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari Oxund bobo masjidi qurilishi bilan tanishdi. Nuroniylar bilan suhbatda yoshlarni yuksak ma'naviyatli insonlar etib tarbiyalash, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash, viloyatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar haqida so'z bordi.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xorazm viloyatidagi Xalq qabulxonasini borib ko'rdi.

Urganchdagi «Urganch tekstil» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan amalga oshiriladigan yana bir loyiha ip-kalava ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Korxonada Germaniya va Turkiya uskunalari asosida yiliga 4 ming tonna mahsulot tayyorlash, 200 ish o'rni yaratish imkonini beradi. Bu yerda har yili 6,5 million dollarlik tovar eksport qilish mo'ljallanmoqda.

Shavkat Mirziyoyev xorazmliklar bilan saylovoldi uchrashuvida 2017-yilda O'zbekiston xalq artisti Komiljon Otaniyozov tavalludining 100 yilligini keng nishonlash, mashhur hofiz nomi bilan ataladigan zamonaviy ijod markazi va uning tarkibida go'zal bog' tashkil etishni taklif qilgan edi.

Prezidentimiz mazkur ijod markazidagi qurilish ishlarini borib ko'rdi. Bu yerda Komiljon Otaniyozov haykalini barpo etish, qurilish loyihasini takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Urganch shahridagi 11-bolalar musiqa va san'at maktabida mehnat faxriylari, san'at va adabiyot namoyandalari bilan muloqot bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, odamlarning dunyoqarashi va ma'naviyatini yuksaltirish, aholi turmush darajasini yanada oshirish haqida so'z bordi.

\* \* \*

**28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston havo yo'l-lari» milliy aviakompaniyasining 25 yilligi munosabati bilan bir guruh xodimlarni mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston havo yo'l-lari» milliy aviakompaniyasini O'zbekiston Respublikasining Faxriy yorlig'i bilan mukofotlash to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston havo yo'l-lari» milliy aviakompaniyasi tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan aviakompaniya jamoasiga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**30-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublika-

si Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tavallud kuni munosabati bilan Samarqand shahriga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimov qabrini ziyorat qildi. Qur'on tilovat qilindi.

Islom Karimovning qutlug' tavalludi sanasi — 30-yanvar kuni poytaxtimiz Toshkentda, Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda ehson oshi berildi.

Samarqand va Toshkentdagi marosimlarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

\* \* \*

**31-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak» degan nom bilan kitob holida «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan nashr etildi.

\* \* \*

**1-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Amerika — O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari va Amerika — O'zbekiston savdo palatasi raisi o'rtasida bo'lib o'tgan muzokarada savdo-iqtisodiy, investitsiya,



texnologiya, innovatsiya va ta'lim sohalarida uzoq muddatli hamda keng ko'lamli hamkorlikni yanada rivojlantirish xususida fikr almashildi.

Amerika — O'zbekiston savdo palatasi raisi davlatimiz rahbariga samimiy qabul va ikki mamlakat ishbilarmon doiralari o'rtasida sheriklik munosabatlarini qo'llab-quvvatlayotgani, shuningdek, O'zbekiston bozorida AQSh kompaniyalari ishtirokini kengaytirish maqsadida yaratilgan qulay sharoitlar uchun minnatdorlik bildirdi.

\* \* \*

**1-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalarni to'lash mexanizmini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**3-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amal-

ga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi Bunyodkor va Muqimiy ko'chalari kesishgan joyda qurilayotgan yo'l o'tkazgich bilan tanishdi. Uzunligi 900 metr, balandligi 6 metr, kengligi 24 metr bo'lgan 6 polosali mazkur yo'l o'tkazgich nafaqat haydovchi va piyodalarga, balki shu atrofda yashayotgan aholiga ham ko'plab qulayliklar yaratadi. Quruvchilarga ishning tez va sifatli bajarilishi yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Prezidentimiz shu yerda Bunyodkor va Cho'ponota ko'chalari chorrahasida qurilishi rejalashtirilgan yo'l o'tkazgich loyihasi bilan ham tanishdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent metropolitenining Sergeli yo'nalishida olib borilayotgan qurilish uchastkasida bo'ldi. Ma'lumki, bu yo'nalish yer ustidan o'tadi. Qurilish ishlari 2017—2020-yillarga mo'ljallangan mazkur yo'nalishning uzunligi 7,1 kilometrni tashkil etadi.

Prezidentimiz Sergeli tumanida bunyod etilayotgan zamonaviy ko'p qavatli uy-joylar qurilishini ham ko'zdan kechirdi. Mutasaddi rahbarlar va mutaxassislariga mazkur inshootlarni bugungi kun talablariga to'la javob beradigan puxta loyihalar asosida qurish, ularni eng zamonaviy infratuzilmalar bilan ta'minlash bo'yicha zarur tavsiyalar berildi.

Shavkat Mirziyoyev Yakkasaroy tumanidagi «Yakkasaroy ki-

chik sanoat zonasi» davlat unitar korxonasiga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari texnopark hududidagi loyihalar bilan tanishar ekan, bunday sanoat zonalarini poytaxtimizning barcha tumanlarida tashkil etish, ularda kichik biznes vakillariga keng imtiyozlar yaratish zarurligini ta'kidladi.

Prezidentimiz Sergeli tumanida xorijiy hamkorlarimiz tomonidan bunyod etiladigan «Toshkent metallurgiya zavodi» loyihasi bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari ushbu korxonani qurish bo'yicha boshlangan ishlar bilan tanishdi. Mazkur metallurgiya zavodining mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojidadagi o'rni haqida to'xtalib, bu yerda ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi.

Prezidentimiz Toshkent shahri-ning Olmazor va Beshyog'och ko'chalari kesishadigan hududda barpo etilayotgan ko'p tarmoqli sport kompleksi qurilishini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi va g'oyasi asosida qurilayotgan «Humo» sport majmuasi dizaynida zamonaviy qurilish yechimlari va ilg'or texnologiyalar milliy madaniyat elementlari bilan uyg'unlashtiriladi. Majmua binosi ko'kka parvoz etayotgan Humo qushi ko'rinishida barpo etiladi.

Prezidentimiz Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'idagi Adiblar xiyobonida bir guruh ijodkor ziyolilar bilan uchrashdi.

Uchrashuvda shoir va yozuvchilar ijod ahliga, kitob mutolaasiga, kitobxonlik madaniyati targ'ibotiga qaratayotgan yuksak e'tibori uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildirilar.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahridagi Xalq qabulxonasini borib ko'rdi.

\* \* \*

**7-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»-gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida sog'liqni saqlash tizimidagi muammolar va sohaning rivojlanish istiqbollari- ga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Majlisda tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari, oliy tibbiyot o'quv yurtlari rektorlari, respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari direktorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlar hokimlari, sog'liqni saqlash muassasalari rahbarlari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari sog'liqni saqlash tizimidagi muammolarni chuqur tahlil qilib, ularni bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi, rahbarlar mas'uliyati va shaxsiy javobgarligi xususida atroflicha to'xtaldi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qarab, joylarda tibbiyot sohasidagi vaziyatni o'zgartirish ishlari talab darajasida olib borilmayapti. Buni aholidan Xalq qabulxonalari va Prezidentning Virtual qabulxonasiga kelib tushayotgan ko'plab ariza va shikoyatlar tasdiqlab turibdi.

Tibbiy xizmat inson manfaatlarini ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Tibbiyot xodimlari uyma-uy yurib, kasalliklarni profilaktika qilishi, sohadagi o'zgarishlarni odamlar sezishi kerak. Buning uchun shifokorlarning madaniyati va mas'uliyatini oshirish, ishga va bemorlarga munosabatini o'zgartirish zarur, dedi davlatimiz rahbari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tanqidiy tahlil ruhida o'tgan yig'ilishda tibbiy xizmat samaradorligini yanada oshirish, bu borada belgilangan ustuvor yo'nalish va vazifalarni bajarish bo'yicha mutasaddilarga topshiriq va ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**8-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ichki ishlar organlari faoliyati, tizimdagi mavjud muammo va kamchiliklar tahlili hamda istiqboldagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Res-

publikasi Ichki ishlar vazirligi, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, shaharlar va tumanlar hokimlari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari keyingi vaqtlarda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish, jamoatchilik bilan aloqalarni yanada mustahkamlash borasidagi ishlar yangi bosqichga ko'tarilganini qayd etdi.

Shavkat Mirziyoyev haftaning payshanba kunini «Jinoyatchilikning oldini olish va profilaktika kuni» deb e'lon qilishni taklif etdi. Shu kuni hududlar prokurorlari va ichki ishlar boshqarmalari boshliqlari mahalliy telekanallarda chiqishlar qilib, sodir etilgan jinoyatlar, ularning kelib chiqish sabablari, oldini olish bo'yicha o'tkazilayotgan tadbirlar va profilaktika ishlari haqida axborot beradi.

Yig'ilishda militsiya tayanch punktlari infratuzilmasini takomillashtirish, profilaktika inspektorlarining turmush sharoitini yaxshilash, ichki ishlar organlari tizimini kompleks isloh qilish, uning tarkibiy tuzilmalarini optimallashtirish masalalari ko'rib chiqildi. Ichki ishlar vazirligining tashkiliy tuzilmalari tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilindi.

Mamlakatimizda tadbirkorlar huquqini himoya qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ichki ishlar or-

ganlarining tadbirkorlar faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashishi yoki to'sqinlik qilishi kabi holatlar-ga batamom chek qo'yish zarurligini alohida ta'kidladi.

Mutasaddi rahbarlarga fuqarolarning har bir murojaati e'tiborsiz qolmaydigan tizim yaratish, xizmatga munosabatni tubdan o'zgartirish, jinoyat tafsilotlarini muhokama qilish mexanizmini shakllantirish, ichki ishlar organlarining xalq vakillari oldida hisobot berish tizimini yo'lga qo'yish orqali ularning faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

Majlisda profilaktika inspektorlari malakasini oshirish bo'yicha tizim yaratish kerakligiga alohida e'tibor qaratildi. Shu maqsadda Ichki ishlar vazirligi akademiyasi va viloyatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda maxsus kurslar tashkil etish zarurligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish samarasini oshirish yuzasidan tegishli mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**10-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurdi.

Dastlab davlatimiz rahbari Termiz tumanidagi «Gold Agro Fresh»

agrofirma faoliyati bilan tanishdi.

Prezidentimiz bu yerda mahsulotlar turini kengaytirish, 5 ming gektarda anor, 5 ming gektarda limon yetishtirishni yo'lga qo'yish, odamlarning daromadini ko'paytirish zarurligini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev shu yerning o'zida meva-sabzavot yetishtirish, parrandachilik, chorvachilik kabi tarmoqlardagi istiqbolli loyihalar bilan ham tanishdi.

Davlatimiz rahbari Hakim Termiziy maqbarasini ziyorat qildi. Bu yerda olibborilayotgan ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz Termiz tumanida tashkil etiladigan baliqchilik kompleksida amalga oshirilayotgan ishlarni borib ko'rdi.

Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatida suv resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan loyiha bilan tanishdi. Loyihada viloyatdagi gidrotexnika inshootlari, kanal va boshqa suv tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, yangilarini qurish bo'yicha 122,7 million dollarlik chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashiga qarashli «Termiz marvaridi sanatoriysi» mas'uliyati cheklangan jamiyatida amalga oshirilayotgan rekonstruksiya ishlarini ko'zdan kechirdi. Uchqizil suv ombori bo'yidagi bahavo hududda joylashgan ushbu sihatgohda bemorlar fizioterapiya

va ma'danli suv, qum va quyosh nurlari bilan davolanadi. Davlatimiz rahbari mutasaddilarga mazkur hududda tom ma'nodagi zamonaviy dam olish kompleksini bunyod etish bo'yicha tegishli topshiriqlar berdi.

Shavkat Mirziyoyev Angor tumanida ipak yetishtirish bo'yicha Xitoy bilan hamkorlikda tashkil etish rejalashtirilgan qo'shma korxonani loyihasi bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari muhokamalar paytida Surxon vohasi mahsuldor ipak qurti parvarishlash uchun qulay tabiiy iqlim sharoitiga ega ekanini ta'kidladi.

Prezidentimiz Angor tumanidagi Zang Gilambob qishlog'ida Shodi bobo Xushboqov xonadonida bo'ldi. Shavkat Mirziyoyev Shodi bobo va u kishining umr yo'ldoshi Salomat momo bilan oilaning kundalik hayoti, farzandlar va nabiralar tarbiyasi to'g'risida suhbatlashdi.

Shavkat Mirziyoyev Sherobod tumanidagi «G'urjak-1» massivida yangilangan namunaviy loyihalar asosida barpo etilgan uy-joylar, aholi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Zamonaviy va milliy me'morlik andazalari asosida qurilgan yangi massivda ijtimoiy infratuzilma obyektlari, xizmat ko'rsatish shoxobchalari bunyod etilgan. Davlatimiz rahbari yosh oila — O'ktam Abdullayev va Malohat Jumayeva xonadonida bo'lib, ularni yangi uyga ko'chib o'tgani bilan tabrikladi.

Prezidentimiz Sherobod tumanidagi Abu Iso Muhammad Termiziy

ziyosatgohida amalga oshirilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirdi. Majmuani yanada obod maskanga aylantirish, qulay sharoitlar yaratib, ziyoratchilar oqimini ko'paytirish zarurligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari «Sherobod paxta tozalash» aksiyadorlik jamiyatida ingichka tolali paxtani qayta ishlash korxonasi, zararkunandalarga qarshi kurashishga qaratilgan ishlanmalar, limon va pista yetishtirishga ixtisoslashgan plantatsiyalar loyihalarini ko'zdan kechirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sherobod tumanida «Olmaliq konmetallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyati tomonidan barpo etilayotgan sement zavodi qurilishi bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari ushbu zavod nafaqat viloyat, balki mamlakatimiz iqtisodiyotida ham muhim o'rin tutishini qayd etdi.

Termiz shahrida Surxondaryo viloyati faollari bilan uchrashuvda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada oshirish, yosh avlodni vatandarlik ruhida tarbiyalash va ish bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga tashrifining ikkinchi kunini Termiz shahrida perinatal markazni kengaytirish, urologiya va oftalmologiya markazlarini tashkil etish loyihalari bilan tanishishdan boshladi.

Prezidentimiz uzoq va aholi ko'p yashaydigan tumanlarda ushbu

markazlarning bo'limlarini tashkil etish, joylarda ko'riklar o'tkazish, tibbiy va ovqatlanish madaniyatini yuksaltirish zarurligini ta'kidladi. Tibbiyotning boshqa yo'nalishlari bo'yicha ham shunday markazlar, xususan, kardiologiya va bolalar kasalliklariga ixtisoslashgan klinikalar tashkil etish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Termiz shahrida bunyod etiladigan ko'p qavatli uy-joylar, dehqon bozori va savdo kompleksi, zamonaviy istirohat bog'i loyihalari bilan tanishdi. So'ngra Surxondaryo daryosi bo'yida bunyod etilayotgan «Amudaryo» bolalar sog'lomlashtirish markazi, bu yerda tashkil etiladigan infratuzilma obyektlari loyihalarini ham ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz Adib Sobir Termiziy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi qurilishi, Termiz shahri markazida bunyod etilayotgan «Baxt» bog'i va muhtasham San'at saroyi loyihalari bilan ham tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Surxondaryo viloyatidagi Xalq qabulxonasini borib ko'rdi.

Yurtboshimiz Termiz shahrida «Janub tekstil» mas'uliyati cheklangan jamiyati, «Amudaryo Teks» O'zbekiston – Angliya qo'shma korxonasi hamda Sherobod tumanida barpo etiladigan «Sherobod textile invest» mas'uliyati cheklangan jamiyatida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalari bilan ham tanishdi.

\* \* \*

**14-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz Gurbanguli Berdimuhamedovni Turkmaniston Prezidenti saylovidagi yuksak g'alabasi bilan samimiy tabriklab, davlat rahbari lavozimidagi faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

Davlatlar rahbarlari o'zaro munosabatlarning hozirgi holati va istiqbolli yo'nalishlarini muhokama etib, mintaqaviy va xalqaro siyosatning muhim jihatlarini yuzasidan fikr almashdilar.

Prezidentlar davlatlararo munosabatlar turli darajalarda sezilarli miqyosda faollashgani, o'zaro manfaatli hamkorlik kengayib bora-yotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar. Tomonlar O'zbekiston va Turkmaniston hukumat delegatsiyalarining amaliy tashriflari yakunlarini, shuningdek, ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi hamkorlikni ijobiy baholadilar.

\* \* \*

**15-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yo'l xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston – Rossiya hukumatlararo komissiyasining navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Rossiya Federatsiyasi Hukumati raisining o'rinbosari Dmitriy Kozakni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni qutlar ekan, O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari ko'plab yo'nalishlarda, xususan, savdo-iqtisodiy sohada izchil rivojlanayotgani va mustahkamlanib borayotganini alohida ta'kidladi.

Uchrashuvda iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi o'zaro manfaatli hamkorlik yo'nalishlarini yanada diversifikatsiya qilish masalalari muhokama qilindi. Tomonlar ikki mamlakat kompaniyalari o'rtasida uzoq muddatli amaliy aloqalarini o'rnatish, shuningdek, yangi qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirishda Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya muhim o'rin tutayotganini qayd etdilar.

\* \* \*

**15-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fanlar akademiyasi

faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**21-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**23-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiyaning navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Qozog'iston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari Asqar Maminni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni qutlar ekan, O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari, jumladan, savdo-iqtisodiy aloqalar barqaror va izchil rivojlanayotgani hamda mustahkamlanib borayotganini mamnuniyat bilan ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari ikki mamlakat o'rtasidagi samarali va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada faol-

lashtirish, buning uchun, avvalo, savdo, investitsiyaviy texnologiyalar va transport-kommunikatsiya soha-larida hamkorlik bo'yicha aniq lo-yihalarni ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etdi.

Ikki mamlakat hududlari o'rtasida o'zaro hamkorlik o'rnatish va mus-tahkamlash lozimligi, bu savdo va madaniyat soha-larida aloqalarni yana-da rivojlantirish uchun keng imko-niyatlar yaratishi alohida ta'kidlandi.

\* \* \*

**24–25-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshiri-layotgan bunyodkorlik va obodon-lashtirish ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi bilan yaqin-dan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Qashqadaryo vilo-yatiga tashrif buyurdi.

Prezidentimiz dastlab Qarshi tu-manida qishloq xo'jaligi sohasidagi istiqbolli loyihalarni ko'zdan ke-chirdi. Shuningdek, Yakkabog' tu-manida tashkil etilayotgan qora-bayir zotli otlarni ko'paytirishga ixtisoslashgan «Qorabayir otchilik majmuasi» faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Koson tu-manidagi ikki ming bosh qoramol boqishga mo'ljallangan zamonaviy chorvachilik kompleksi faoliyatini ko'zdan kechirdi. Bu yerga xori-jdan nasldor qoramollar olib kelish, ular-ni zarur texnologiyalar asosida par-varishlash, yetishtirilgan mahsulot-ni qayta ishlashni yo'lga qo'yish bo'yicha mutaxassislarga zarur tav-siyalar berildi.

Nishon tumanida Vyetnam tex-nologiyasi asosida baliq yetishtirish-ga ixtisoslashgan agrofirma tashkil etilmoqda. Uchrashuvda Qashqa-daryoning suv havzalari imkoniyat-laridan samarali foydalanib, viloyat-da baliqchilikni rivojlantirish, baliq iste'molini ko'paytirish zarurligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari «Qarshi nasos stansiyalar kaskadini qayta tiklash — III faza» loyihasi bilan tanishdi. Loyihani bajarish natijasida 402 ming gektar sug'oriladigan maydon-ning suv ta'minoti yaxshilanadi.

Davlatimiz rahbari Qarshi tuma-nida yengil sanoatni rivojlantirish borasidagi yangi loyihalar, jumla-dan, «LT Tekstile International» O'zbekiston — Xitoy — Niderlandiya qo'shma korxonasi loyihasi bilan tanishdi.

Prezidentimizga shu yerning o'zi-da Yakkabog' tumanidagi ilgari-gi «Yakkabog' teks» korxonasi negi-zida barpo etilayotgan «Univer-sal Taraqqiyot Tekstil» qo'shma korxonasiga qo'shimcha investitsiya kiritish loyihasi bo'yicha ham taq-dimot o'tkazildi.

Qarshi shahridagi ilgari-gi paxta tozalash zavodi negizida tashkil eti-layotgan «Wood Decor Production» qo'shma korxonasida Shveysariya-ning mashhur «Rieter», Yaponiya-ning «Murata», «Yamata», Ger-maniyaning «Mayer» kompaniyala-ri-ning yuqori samaradorlikka ega dastgohlari o'rnatilmoqda.

G'uzor tumanidagi ilgari-gi paxta tozalash korxonasi negizida gaz-la-ma ishlab chiqarishga mo'ljallangan



investitsiya loyihasi bilan tanishar ekan, Prezidentimiz yangi ish o'rinlari yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari «Sho'rtan gaz-kimyo» majmuasida sintetik suyuq yoqilg'i (GTL) ishlab chiqarishni tashkil etish» va «Sho'rtan gaz-kimyo» majmuasining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish» loyihalari bilan tanishdi.

Prezidentimiz Qarshi tumanidagi «Nukrobod» qishloq fuqarolar yig'inining Yakkayog'och massivida yangilangan namunaviy loyihalar asosida barpo etilgan arzon uy-joylarni borib ko'rdi. So'ngra yangi uy sohiblaridan biri Alisher Ahmedov xonadonida bo'lib, bu yerda yashash uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Yosh oila a'zolari davlatimiz rahbariga e'tibor va g'amxo'rlik uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Shavkat Mirziyoyev Mirmiron massividagi yangilangan namunaviy loyihalar asosida qurilgan uylarda istiqomat qiladigan aholi uchun issiqxona tashkil etish loyihasi bilan tanishdi. Shu yerda profilaktika inspektorlari va qishloq vrachlik punktlari xodimlari yashab, xizmat ko'rsatadigan turar joylar loyihasi namoyish etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qarshi shahridagi «Qarshi lezer» qo'shma korxonasida bo'lib, Qashqadaryo viloyatida charpoyabzal sohasini yanada rivojlantirish dasturi, meva-sabzavot yetishtirish, yangi logistika markazi tashkil qilish, Yakkabog', Kitob, Shahrisabz tumanlarida tokzorlar barpo

etish bo'yicha qator istiqbolli loyihalar bilan tanishdi.

Qashqadaryo viloyatida mevasabzavotni qayta ishlash va eksport qilish imkoniyatlari juda yuqori. Shahrisabz shahrida tashkil etilayotgan «Shahrisabz» logistika markazi ushbu maqsadlarga xizmat qiladi.

Chiroqchi tumanida yiliga 8 ming tonna salat bargi, brokkoli, rangli karam va boshqa turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari, meva-sabzavot yetishtirish, saqlash va qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan «Big agro eksport» mas'uliyati cheklangan jamiyati barpo etilmoqda.

Yakkabog', Kitob va Shahrisabz tumanlarida 2017–2019-yillarda jami 5 ming gektarda yangi tokzorlar barpo etish mo'ljallanmoqda. Yakkabog' tumanida yiliga 4 ming tonna uzumni qayta ishlash loyihasi amalga oshiriladi.

Shu yerning o'zida mamlakatimiz olimlari tomonidan o'rmon fondi yerlarida shifobaxsh o'simliklar yetishtirish loyihasi taqdimoti o'tkazildi.

Qarshi shahrida mutasaddi rahbarlar va viloyat faollari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Unda viloyat iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'tarish, infratuzilmalarni rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini yanada oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz Qashqadaryo viloyatiga tashrifining ikkinchi kunini Qarshi shahridagi «Gulshan» mahallasida fuqarolar yig'ini

xodimlari va profilaktika inspektori birgalikda ishlashi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishishdan boshladi.

Davlatimiz rahbari Qarshi shahridagi Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'ida amalga oshirilayotgan rekonstruksiya ishlari bilan tanishdi. Bog'da yashil maysazorlarni ko'paytirish, turfa gul va manzarali daraxtlar ekish, bu yerga tashrif buyuruvchilar uchun barcha sharoitlar yaratish bo'yicha zarur ko'rsatmalar berildi.

Shundan so'ng Qarshi shahridagi ilgari «Nasaf» stadioni hududida barpo etilayotgan zamonaviy suzish havzasi va dam olish majmuasi loyihasi bilan tanishuv bo'ldi.

Davlatimiz rahbari Jayhun ko'chasida qurilayotgan 5 qavatli zamonaviy turar joy binolari, «Qashqadaryo dori-darmon» aksiyadorlik jamiyati tomonidan Buyuk Britaniyaning «Rodex Trading Limited» kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan kukun shaklidagi antibiotik dori vositalari ishlab chiqarish, Qarshi shahrida elektronika mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Qarshi shahrida qurilayotgan Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hamda Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazi Qarshi filiallari, Qashqadaryo viloyati yuqumli kasalliklar shifoxonasining yangi binosi loyihalari taqdimotida ham ishtirok etdi.

Prezidentimiz O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Ab-

dulla Oripov haykali, Abul-Muin Nasafiy ziyoratgohida amalga oshiriladigan qurilish-ta'mirlash ishlari loyihalari bilan tanishdi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qashqadaryo viloyatidagi Xalq qabulxonasini borib ko'rdi.

\* \* \*

**28-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Rossiya Tashqi razvedka xizmati direktori Sergey Narishkini qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni qutlar ekan, mamlakatlarimizning zamonaviy tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashish sohasidagi o'zaro hamkorligi yuksak darajada ekanini alohida ta'kidladi.

Suhbat davomida ekstremizm, terrorizm, narkotrafik va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**28-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev AQShning yetakchi «Jeneral Elektrik» kompaniyasi vitse-prezidenti Ronald Jeyms Polletni qabul qildi.

Uchrashuvda «Jeneral Elektrik» kompaniyasi bilan uzoq muddatli, ayniqsa, yuqori texnologik tarmoqlardagi hamkorlikni yanada

kengaytirish va diversifikatsiya qilish istiqbollari muhokama qilindi hamda mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasidagi hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**2-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining siyosiy masalalar bo'yicha yordamchisi Miroslav Enchani qabul qildi.

Suhbat chog'ida hamkorlikning dolzarb yo'nalishlari bo'yicha fikr almashildi va ko'rib chiqilgan barcha masalalar bo'yicha tomonlarning pozitsiyasi o'xshash ekani ta'kidlandi. Istiqbolda o'zaro munosabatlarni kengaytirishning ustuvor yo'nalishlari ham muhokama qilindi.

\* \* \*

**3-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Takexiko Nakaoni qabul qildi.

Uchrashuvda 2017–2019-yillarga mo'ljallangan qo'shma dastur doirasida amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish masalalari muhokama qilindi. Aholi, ayniqsa, qishloq aholisi turmush darajasini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, agrar tarmoqni modernizatsiya qilish, yo'l-transport infratuzilmasi, muqobil energetikani rivojlantirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va boshqa yo'nalishlarga qaratilgan ustuvor

loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

\* \* \*

**3-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-mart.** Poytaxtimizdagi «Navro'z» davlat qabullar uyida 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, mamlakatimiz xotin-qizlarini bayram bilan tabrikladi.

Davlatimiz rahbari adabiyot, san'at, fan, ta'lim, madaniyat, sport sohalarida erishgan alohida yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlangan 15 nafar qizga ana shu yuksak mukofotlarni tantanali ravishda topshirdi.

Prezidentimizning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi 7-mart kuni matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**6–7-mart.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Ashxobodga keldi.

Bu Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida xorijiy davlatga ilk tashrifi edi.

Ashxobodning Mustaqillik maydonida rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi. Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov faxriy qorovul safi oldidan o'tdilar. Ikki davlat madhiyalari yangradi.

O'g'uzxon saroyida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedovning yakkama-yakka muloqoti bo'lib o'tdi. Unda mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning bugungi holati va uni yanada rivojlantirish istiqbollari, tomonlarni qiziqtirgan dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Prezidentlar muloqotni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokarasida davom ettirdilar. Unda savdo-iqtisodiyot, neft-kimyoy, transport kommunikatsiyalari, qishloq xo'jaligi, madaniyat, turizm va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratildi. Savdo-iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish, eksport-import nomenklaturasini kengaytirish, tovar ayirboshlash hajmini ko'paytirish masalalari muhokama qilindi.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov Qo'shma bayonotni, O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Tegishli vazirlik va idoralar o'rtasida 2018–2020-yillarda iqtiso-

diy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, temiryo'l transporti sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga oid memorandum, 2017–2019-yillarga mo'ljallangan madaniy-gumanitar hamkorlik dasturi, 2017–2018-yillarda tashqi ishlar vazirliklari o'rtasidagi hamkorlik dasturi, O'zbekistondan Turkmanistonga qishloq xo'jaligi texnikalari va kimyo mahsulotlari yetkazib berish to'g'risidagi shartnomalar imzolandi. Xorazm viloyati bilan Dashovuz viloyati, Buxoro viloyati bilan Lebap viloyati hokimliklari o'rtasida savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda Prezidentlar ushbu tashrif ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalarini muhokama etish, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik muammolar yuzasidan fikr almashish uchun qulay imkoniyat yaratganini ta'kidladilar.

Shavkat Mirziyoyev Gurbanguli Berdimuhamedovga mamlakatimizda yaqinda chop etilgan Maxtumlulining «Elingga baxsh ayla» deb nomlangan kitobini taqdim qildi.

Kunning ikkinchi yarmida Prezidentlar Xalqaro axaltekin otlari majmuasi bilan tanishdilar. Turkmaniston Prezidenti davlatimiz rahbariga zotdor ot sovg'a qildi.

Prezidentimiz Turkmaniston Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo'ydi. Faxriy mehmonlar xiyoboniga ko'chat o'tqazdi.

Davlatimiz rahbari Turkmanistonning Birinchi Prezidenti Saparmurat Niyozov maqbarasini ziyorat qildi. O'tganlarning ruhi poklariga Qur'on tilovat qilindi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov Turkmanobod shahriga bordilar. Ushbu shahar yaqinida Amudaryoda qurilgan Turkmanobod-Farab avtomobil va temiryo'l ko'priklarining tantanali ochilish marosimi bo'ldi. Prezidentlar ko'priklar oldidagi maydonda tashkil etilgan o'zbek va turkman amaliy san'ati namunalari, hunarmandlik mahsulotlari ko'rgazmasini ko'zdan kechirdilar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mazkur ko'priklar nafaqat Turkmaniston, balki butun mintaqa uchun geostrategik ahamiyatga ega ekanini qayd etdi.

Davlat rahbarlari poyezdga o'tirib, ko'prikdan o'tdilar.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov bilan vidolashuv marosimida Gurbanguli Berdimuhamedov Turkmanistonda uning xotirasi abadiylashtirilishini ta'kidlagan edi. Shu maqsadda Turkmanobod shahridagi markaziy ko'chalardan biriga Islom Karimov nomi berildi. Ushbu ko'chada yodgorlik majmuasi barpo etildi va Birinchi Prezidentimizning byusti o'rnatildi.

Mazkur yodgorlikning ochilish marosimida Gurbanguli Berdimuhamedov va Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladilar.

Prezidentlar Islom Karimov yodgorlik majmuasiga gul qo'yib, hurmat bajo keltirdilar.

Turkmanobod shahridagi «Ruhiyat» saroyida O'zbekiston va Turkmaniston san'at ustalarining konserti namoyish etildi.

\* \* \*

**10-11-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, olib borilayotgan islohotlar jarayoni, yirik loyihalar bilan tanishish va xalq bilan muloqot qilish maqsadida Buxoro viloyatiga tashrif buyurdi.

Tashrif Bahouddin Naqshband me'moriy majmuasini ziyorat qilishdan boshlandi. Taomilga binoan Qur'on tilovat qilindi. Prezidentimiz mazkur yodgorlik majmuasini yanada obodonlashtirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

Buxoroning jahon sivilizatsiyasi va islom madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi beqiyos. Bu zaminda ko'plab allomalar tavallud topgan va yashagan. Ularning boy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish uchun bu yerda Toshkent islom universitetining maxsus fakultetini tashkil qilish kerak, dedi davlatimiz rahbari.

Shavkat Mirziyoyev Buxoro temiryo'l vokzalida yo'lovchilar uchun yaratilgan sharoitlarni borib ko'rdi. Davlatimiz rahbari shu yerda Buxoro - Miskin temiryo'l qurilishining borishi bilan tanishdi.

«O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyati va Ispaniyaning «Patentes Talgo, S.L.U» kompaniyasi o'rtasida yuqori tezlikda harakatlanuvchi 2 ta elektropoyezdni

xarid qilish bo'yicha shartnoma imzolangan edi. Prezidentimiz yurtimizga keltirilgan yangi «Afrosiyob» elektropoyezdning imkoniyatlari, yo'lovchilar uchun yaratilgan qulayliklar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari «Bukhara Brilliant Silk» O'zbekiston – Xitoy qo'shma korxonasida bo'lib, viloyatda aholi farovonligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan bir qancha loyihalar bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev shu yerda «O'zbekyengilsanoat» aksiyadorlik jamiyati tomonidan sobiq «Buxoroteks» AJ negizida tashkil etiladigan «Indorama Indast LTD» O'zbekiston – Singapur qo'shma korxonasi loyihasi bilan tanishdi. Prezidentimizga «O'zbekyengilsanoat» aksiyadorlik jamiyati tomonidan 2017–2018-yillarda Buxoro viloyatida paxta tolasini qayta ishlash dasturi loyihasi haqida ma'lumot berildi.

Buxoro shahrida ishga tushirilayotgan «Bukhara Cotton Textile» korxonasi loyihasi bilan tanishar ekan, Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda yetishtirilgan paxtani tola ko'rinishida sotish eng kam daromad keltirishini, paxta tolasini qayta ishlab, eksportbop tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada kengaytirish zarurligini ta'kidladi.

Prezidentimizga Olot tumani-dagi «Merganteks» mas'uliyati cheklangan jamiyati, Peshku tumani-dagi ip-kalava ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ko'p tarmoqli korxonada, Buxoro shahrida paxta

yetishtirishdan tayyor to'qimachilik mahsuloti ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonni qamrab oladigan paxta-to'qimachilik klasteri tuzish, tabiiy va kimyoviy tolalardan integratsiya asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilish loyihalari haqida ham batafsil ma'lumot berildi.

Shavkat Mirziyoyev Buxoro shahridagi Ark qo'rg'oni majmuasida viloyatning turizm salohiyatini yanada oshirish dasturi taqdimotida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari sohada kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, gidlar va boshqa xodimlarning bilim va malakasini muntazam oshirib borish bo'yicha zarur ko'rsatmalar berdi.

Buxoro tarixi davlat muzeyi loyihasini ko'zdan kechirdi, madaniy meros obyektlarining bugungi kundagi holati va ularni saqlashga doir loyihalar taqdimotlari o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari Jondor tumanidagi «Jondor chinor chorva» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan tashkil etiladigan parrandachilik majmuasi loyihasi bilan tanishdi.

«O'zmilliybank» huzuridagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi va «Property Industry» mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischiligida Buxoro tumanida 38 gektarda agrologistika markazi barpo etilmoqda.

Peshku tumanida tashkil etiladigan chorvachilik kompleksi loyihasi namoyish etildi. Shu yerda

Buxoro, Peshku, Romitan, Olot tumamlarida tashkil etilayotgan chorvachilik xo'jaliklari loyihalari haqida ham ma'lumot berildi.

Shavkat Mirziyoyev Amu-Buxoro irrigatsiya tarmoqlari loyihasi taqdimoti bilan ham tanishdi. Prezidentimiz bu irrigatsiya tizimi Buxoro uchun juda muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlab, ajratilgan mablag' va texnikalardan oqilona foydalanish, belgilangan tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Buxoro shahrida mutasaddi rahbarlar va viloyat faollari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Unda viloyat iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'tarish, infratuzilmani rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini yanada oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Buxoro filialida bo'lib, bu yerda bajarilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlarini ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz Vobkent tumani tibbiyot birlashmasida amalga oshirilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlari loyihasini ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga Buxoro shahrida amalga oshiriladigan bunyodkorlik ishlari loyihalari haqida ma'lumot berildi.

Buxoro shahrining G'ijduvon, Bahouddin Naqshband, Ibn Sino, Navoiy ko'chalarida ko'p qavatli 50

ta uy quriladi. Davlatimiz rahbari yangi uylarda barcha ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish, ularni qurishda milliy va zamonaviy arxitektura talablarini, mahalliy iqlimni hisobga olgan holda ish tutish zarurligini ta'kidladi.

Buxoro shahrida transport vositalari va piyodalar harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasi ham muhokama etildi.

Shavkat Mirziyoyev shaharning tarixiy qismida an'anaviy hunarmandlik ustaxonalarini jamlagan ikki qavatli uylardan iborat hunarmandlar mavzesi qurish loyihasi bilan tanishdi. Hunarmandlar bilan suhbatlashdi.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Buxoro viloyatidagi Xalq qabulxonasida ham bo'ldi.

\* \* \*

**14-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**15-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent axborot texnologiyalari universitetining faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017-yil 18-mart shan-

ba dam olish kunini 2017-yil 20-mart dushanba kuniga ko'chirish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**16-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Shoshilinch tibbiy yordamni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoniga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YTTB) prezidenti Suma Chakrabartini qabul qildi.

Uchrashuvda istiqbolga mo'ljallangan qo'shma Hamkorlik dasturini tayyorlash, kichik biznes subyektlari loyihalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularga ko'maklashishga doir tadbirlar o'tkazish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**20-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida o'tkazilgan Navro'z saylida ishtirok etdi va xalqimizni qutlug' ayyom — Navro'zi olam bilan tabrikladi.

Sayilda xalqimizning tarixi, madaniyati, urf-odat va an'alarini aks ettirgan ayvonlar, yo'lak bo'ylab usta-yu hunarmandlar, ganchkorlar, kashtado'z-u chevarlar milliy liboslarimizni, do'mbira, doira kabi xalq cholg'u asboblari, milliy buyumlarni namoyish etdilar. Davlatimiz rahbari ko'rgazmaga qo'yilgan mah-

sulotlarni ko'zdan kechirdi. Ustalar bilan suhbatlashib, barchani bayram bilan tabrikladi.

Prezidentimiz bayram saylida ishtirok etayotgan xorijiy davlatlar elchixonalari va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillari bilan ko'rishib, ularni ham qutladi.

Shavkat Mirziyoyev Navro'zga bag'ishlangan bayram dasturini tomosha qildi.

\* \* \*

**22–23-mart.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyevning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Ostona shahrida bo'ldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 23-mart kuni Ostona shahrida bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston poytaxtidagi «Vatan himoyachilari» monumentiga gul qo'ydi, tinchlik, ozodlik yo'lida jon fido qilgan vatanparvar insonlar xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston poytaxtidagi Davlat rahbarlari xiyoboniga ko'chat o'tqazdi. Bu yerda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ekkani daraxt baravj o'smoqda.

«Oqo'rda» qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi. Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. O'zbekiston va Qozog'iston davlat madhiyalari yangradi. Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va



Nursulton Nazarboyev faxriy qorovul safi oldidan o'tdilar.

Prezidentlarning tor doiradagi uchrashuvda mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, transmilliy jinoyatchilik va xatarlarga qarshi kurashish masalalariga e'tibor qaratildi.

Rasmiy delegatsiyalarning kengaytirilgan tarkibdagi muzokarasida O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikning bugungi holati va uni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Muzokaralar yakunida davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo 13 hujjat imzolandi.

Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyev O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va ahil qo'shnichilikni mustahkamlash to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani imzoladilar. Parlamentarizm, soliq, transport, mudofaa, savdo-sanoat va boshqa sohalardagi hamkorlikka oid hujjatlar ham imzolandi. O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida 2017–2019-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida hududlararo hamkorlik to'g'risidagi bitim ular orasida alohida ahamiyatga ega.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyev muzokaralar O'zbekiston – Qozog'iston munosabatlariga xos o'zaro hurmat va samimiyat ruhida o'tgani, barcha strategik masalalar bo'yicha tomonlar bir-birini qo'llab-quvvatlaganini alohida ta'kidladilar.

Tashrif doirasida Ostona shahrida O'zbekiston Milliy sanoat ko'rgazmasi va ikki mamlakat ish-bilarmon doiralari ishtirokida biznes-forum bo'lib o'tdi.

Kunning ikkinchi yarmida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyev «Ostona opera» davlat opera va balet teatriga tashrif buyurdilar. Prezidentlar bu yerda «Qiz Jibek» operasini tomosha qildilar.

O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari «Nazarboyev universiteti» va «Mega Silk Way» savdo markazini borib ko'rdilar. Davlatimiz rahbari universitetning Faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozib qoldirdi.

Prezidentlar «Ekspo – 2017» xalqaro ko'rgazma maydonining «Nur olam» pavilyoniga tashrif buyurdilar. Shavkat Mirziyoyev «Ekspo – 2017» ixtisoslashtirilgan xalqaro ko'rgazmasi ish-bilarmon doiralar, korxonalar o'rtasida hamkorlikni yanada kengaytirish, istiqbolli kelishuvlarga erishish yo'lida muhim tadbir bo'lishini ta'kidladi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'iston Respublikasiga davlat tashrifi nihoyasiga yetdi.

\* \* \*

**25-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi va dastlab Bunyodkor va Muqimiy ko'chalari kesishgan chorrahada qurib bitkazilgan ko'prikni borib ko'rdi.

Shavkat Mirziyoyev Bunyodkor va Cho'ponota ko'chalari kesishgan chorrahada qurilishi rejalashtirilgan ko'prik loyihasi bilan ham tanishib, o'z tavsiyalarini berdi.

Davlatimiz rahbari Kichik halqa yo'li va Farg'ona yo'li ko'chasi kesishgan joydagi yo'l o'tkazgichni qurish hamda rekonstruksiya qilish loyihasini ko'zdan kechirdi.

Yunusobod tumanidagi Bog'ishamol va Yangi shahar ko'chalarini tutashtirgan yangi ko'prik mazkur sohadagi uzoqni ko'zlab, izchil amalga oshirilayotgan ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Davlatimiz rahbari ushbu ko'prikni borib ko'rdi. Shu yerda Toshkent shahrida 2017–2030-yillarda yo'l va ko'priklar qurish hamda rekonstruksiya qilish rejasi ham muhokama etildi.

Shavkat Mirziyoyev Bektemir tumanidagi sobiq Toshkent motor zavodiga tashrif buyurdi. Bu yerdagi zavod binolarini ishbilarmon va tadbirkorlarga ajratish, ularda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarurligini ta'kidladi.

Shu yerning o'zida Toshkent shahrida tashkil etilayotgan kichik sanoat zonalari va istirohat bog'lari loyihalari ham namoyish etildi.

Prezidentimiz Yunusobod tumanidagi Uvaysiy nomli mahallada bo'lib, bu yerda fuqarolar yig'ini xodimlari, profilaktika inspektori va aholi uchun yaratilgan qulay sharoitlar bilan tanishdi.

Mamlakatimiz, avvalo, poytaxtimizning barcha hududlarida mana shunday mahalla markazlari bunyod etish, aholi bilan doimiy muloqot o'rnatish, profilaktika inspektorlariga jinoyatchilik va huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, fuqarolar osoyishtaligi va xavfsizligini ta'minlash uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**27-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017–2019-yillar davrida dehqon bozorlarini rekonstruksiya qilish va ularning hududida zamonaviy savdo majmualari qurish dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**28-mart.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, olib borilayotgan islohotlar jarayoni, yirik loyihalar bilan tanishish va xalq bilan muloqot qilish maqsadida Navoiy viloyatida bo'ldi.

Dastlab Qiziltepa tumanidagi Toshrobot mahallasiga tashrif buyurib, viloyatda yengil sanoatni rivojlantirishga qaratilgan qator loyihalarni ko'zdan kechirdi.

Milliy bank krediti hisobidan Navoiy shahrida «Baxt tekstil», «Baxt Navoiy», Qiziltepa tumanida «Toshrobot tekstil» va Navbahor tumanida «Navbahor tekstil» mas'uliyati cheklangan jamiyatlari tomonidan zamonaviy va energiyani tejaydigan texnologik uskunalar asosida sifatli ip-kalava ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

Davlatimiz rahbari teri xomashyosini tayyorlash va qayta ishlash bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar bilan ham tanishdi. Karmana tumanidagi «Kamilla grup» mas'uliyati cheklangan jamiyatida Italiya texnologiyasi asosida tayyor charm ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasini ko'zdan kechirdi.

Shavkat Mirziyoyev Qiziltepa tumanidagi «Vang'ozni agro» fermer xo'jaligi shiyponida bo'lib, viloyat qishloq xo'jaligida amalga oshiriladigan istiqbolli loyihalar bilan tanishdi.

Navoiy viloyati qorako'l teri yetishtirish bo'yicha mamlakatimizda yetakchi o'rinni egallaydi. Davlatimiz rahbari O'zbekistonning qorako'l terilari dovrug'i butun dunyoda mashhur ekani, yangi mulk shakliga o'tish tarmoqda samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini qayd etdi.

«Vang'ozni agro» fermer xo'jaligining shiyponida Malikobod mahallasi onaxonlari sumalak tayyor-

ladi. Davlatimiz rahbari ular bilan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar odamlar hayotida qanday aks etayotgani, xotin-qizlar turmushini farovon qilish, farzandlar ta'lim-tarbiyasi to'g'risida samimiy suhbat qurdi.

Prezidentimiz Karmana tumanidagi Mustaqillik massivida barpo etilayotgan qulay, arzon va zamonaviy uy-joylar, profilaktika inspektorlari uchun yashash joyi, davlat idoralari rahbarlari uchun qurilgan xizmat uylari bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev Nurota tumanidagi Chashma ziyoratgohi yonidagi muzey binosi, «Hunarmandchilik markazi» majmuasi, 50 o'ringa mo'ljallangan mehmonxona loyihalari bilan ham tanishdi. Davlatimiz rahbari ushbu loyihalarni vaqtida sifatli amalga oshirish, Chashma ziyoratgohi maydonini kengaytirish va obodonlashtirish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati, «Navoiyazot», «Qizilqumsegment» aksiyadorlik jamiyatlari kabi yirik korxonalar, iqtisodiyotimizda salmog'i tobora oshib borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyati aynan Navoiy issiqlik elektr stansiyasida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalariga bevosita bog'liq. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ana shu loyiha taqdimotida ishtirok etdi.

Ikkinchi bug'-gaz qurilmasi Navoiy kon-metallurgiya kombinati, «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyati va hududdagi qishloq xo'jaligi iste'molchilarini elektr energiyasi

bilan uzluksiz ta'minlash imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari Navoiy IES ikkinchi bug'-gaz qurilmasi qurilishi boshlanishi munosabati bilan kapsula qo'ydi.

Shavkat Mirziyoyev Navoiy davlat konchilik institutiga tashrif buyurdi. Bu yerda Auminzo-Amantoy oltin konlari negizida Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 5-gidrometallurgiya zavodi qurilishining boshlanishiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz yangi gidrometallurgiya zavodi ulkan iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyat kasbetishini, bu kun mamlakatimiz solnomasiga zarhal harflar bilan yoziladigan tarixiy sanalardan bo'lib qolishini ta'kidladi. Davlatimiz rahbari Auminzo-Amantoy oltin konlarida o'zlashtirishni boshlash uchun ramziy tugmani bosdi.

Shavkat Mirziyoyev yangi zavod bilan kombinat jamoasini, butun viloyat ahlini tabrikladi, ishchilar, muhandislar va barcha mutaxassislarga minnatdorlik bildirdi.

Davlatimiz rahbari shu yerda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Navoiy bo'limini tashkil etish borasidagi loyihalar bilan tanishdi, yaqin yillarda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida amalga oshiriladigan loyihalarni ham ko'zdan kechirdi. Pistali konini o'zlashtirish va 6-gidrometallurgiya zavodini qurish, 2-gidrometallurgiya zavodi quvvatini kengaytirish, Muruntov konini o'zlashtirishning 5-navbati, texnogen

chiqindilarni qayta ishlash majmuasi qurilishi va boshqa loyihalar ham namoyish etildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Navoiy viloyatidagi Xalq qabulxonasida ham bo'ldi.

Karmana tumani hokimligida viloyat faollari yig'ilishi o'tkazildi. Unda viloyat iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'tarish, infratuzilmani rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, aholi turmush darajasini yanada oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**29-mart.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**29-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekipaksanoat» uyushmasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Rossiyaning «Gazprom» kompaniyasi boshqaru-

vi raisi Aleksey Millerni qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekistonda neft-gaz sohasini rivojlantirish, jumladan, 2017—2021-yillarda uglevodorod qazib olishni ko'paytirish dasturi doirasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan istiqbolli loyihalar ko'rib chiqildi.

Suhbat chog'ida mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida o'zaro hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**31-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**4-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**4-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasida onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4–5-aprel.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

Asosiy tadbirlar 5-aprel kuni bo'lib o'tdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Moskva shahrining Aleksandr bog'idagi «Noma'lum askar» yodgorligiga gulchambar qo'ydi.

Shu yilning 3-aprel kuni Sankt-Peterburg metrosida terrorizm harakati sodir etilib, insonlar halok bo'ldi. Davlatimiz rahbari ular xotirasini yodga olib, shu yerdagi «Leningrad — qahramon shahar» yodgorligi poyiga gul qo'ydi.

Kremlda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi. Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. O'zbekiston va Rossiya davlat madhiyalari yangradi. Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin faxriy qorovul safi oldidan o'tdilar.

Prezidentlarning tor doiradagi uchrashuvda O'zbekiston va Ros-

siya o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash masalalari, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro muammolar muhokama qilindi.

Siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikning bugungi holati va istiqboli xususida fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida muzokaralarni davom ettirdilar. Muzokaralarda savdo-iqtisodiyot, neft-kimyo, transport kommunikatsiyalari, qishloq xo'jaligi, madaniyat, turizm, mehnat migrantlariga munosib sharoitlar yaratish va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratildi. Ochiq va do'stona ruhda o'tgan muzokaralarda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, uni yangi bosqichga ko'tarish borasida fikr almashildi.

Muzokarada mamlakatimizda yetishtirilgan meva va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmini ko'paytirish va turini kengaytirishga kelishib olindi.

Uchrashuvda tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sarmoyaviy hamkorlikni rivojlantirish, transport va tranzit sohasidagi aloqalarni kengaytirishga doir masalalar muhokama qilindi. Mamlakatlarimizda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish

uchun hali to'la foydalanilmayotgan imkoniyatlar ko'pligi, ularni ishga solish ikki tomon uchun ham manfaat keltirishi ta'kidlandi.

Muzokaralarda tibbiyot, ilm-fan, ta'lim, madaniyat, sport va turizm sohalari bo'yicha o'zaro aloqalarni yanada kengaytirish masalalariga ham e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi hukumati raisi Dmitriy Medvedev bilan ham uchrashdi.

O'zbekiston delegatsiyasining tashrifi arafasida Moskvadagi A. Pushkin nomidagi tasviriy san'at muzeyida mamlakatimizning I. Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyi ekspozitsiyalari ko'rgazmasi ochildi. «Sahrodagi Luvr» deb nom olgan ushbu muzey o'zining bebaho ekspozitsiyalari bilan dunyo san'at ixlosmandlari e'tiborini qozongan.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin ushbu ko'rgazmaga tashrif buyurdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi yakunlari bo'yicha qator muhim hujjatlar imzolandi.

Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin Qo'shma bayonotni imzodilar. Ikki mamlakat hukumatlari, vazirlik va idoralari o'rtasida hududlararo hamkorlik, mehnat faoliyatini vaqtincha tashkil etish, sog'liqni saqlash, tibbiyot ta'limi va fani, turizm, qurilish, neft-gaz, konchilik, metallurgiya, bank-moliya, bojxona, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalardagi aloqalarni

rivojlantirishga doir hujjatlar imzolandi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda muzokaralar ochiqlik, o'zaro ishonch va amaliy ruhda o'tganini ta'kidladilar.

Tashrif asnosida erishilgan kelishuvlar, imzolangan 16 milliard dollarlik 50 dan ortiq hujjat O'zbekiston va Rossiya taraqqiyotiga, ikki mamlakat xalqlarining farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi qayd etildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiyaga davlat tashrifi yakuniga yetdi.

\* \* \*

**6-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**6-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**6-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Tashqi ishlar vazirlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan MDH Ijroiya qo'mitasi

raisi — Ijrochi kotibi Sergey Lebedevni qabul qildi.

Suhbat chog'ida MDH doirasida erkin savdo zonasining to'laqonli faoliyat yuritishini ta'minlash, shuningdek, transport-kommunikatsiya tarmoqlarini jadal rivojlantirish va butun mintaqaning tranzit salohiyatini yuksaltirishga yo'naltirilgan istiqbolli loyihalarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**7-aprel.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.V. Putinning 2017-yil 5-aprelda Moskva shahrida imzolangan Qo'shma bayonoti matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**10-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida kengaytirilgan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Selektor yig'ilishida dastlab hatyotiy muhim masalalar bo'yicha fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish borasidagi ishlarning ahvoli muhokama qilindi.

Yig'ilishda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida, mamlakatimizning barcha shahar va tumanlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini hamda davlatimiz rahbarining Virtual qabulxonasi tashkil etilib, o'z faoliyatini boshlagani xalq manfaatlarini ta'minlash, mamlakatni yangilash va demokratlashtirish yo'lidagi ulkan amaliy qadam bo'lgani alohida ta'kidlandi.

Selektor yig'ilishida kun tartibidagi navbatdagi masala — mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasidagi dolzarb vazifalar muhokama qilindi.

Yig'ilishda mavjud muammolarni hal etish yo'llaridan biri — bu aholining tomorqa yerlaridan samarali foydalanishi bilan uzviy bog'liq ekani ta'kidlandi.

Ana shu masalalarni hal qilish yuzasidan Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va hokimliklar rahbarlariga oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va eksport hajmini ko'paytirish uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifasi topshirildi.

Selektor yig'ilishida yana bir muhim masala — hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy rahbarlarning o'rni va mas'uliyatini oshirish masalasi ko'rib chiqildi. Mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, yoshlarni xalqimizga begona bo'lgan turli oqimlar ta'siridan himoya qilish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Joylardagi moliya-soliq organlarining asosiy vazifasi sifa-

tida mahalliy budjetning daromadlar bazasini mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlash va ulardan samarali foydalanishni tashkil etish zarurligi qayd etildi.

\* \* \*

**12-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual va Xo'jalik protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**12-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar ijrosi, ijtimoiy obyektlar faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Chilonzor tumanidagi «Rele va avtomatika» aksiyadorlik jamiyatiga tashrif buyurdi. Bu yerda yuzga yaqin turdagi metall va plastmassa buyumlar, past kuchlanishli qurilmalar tayyorlanmoqda.

Shavkat Mirziyoyev Chilonzor tumanidagi «Roison Home White Goods» O'zbekiston — Buyuk Britaniya qo'shma korxonasi-ga tashrif buyurdi. Bu yerda 50 dan ortiq tadbirkorlik subyekti maishiy texnikalar, to'qimachilik va kimyo sanoati mahsulotlari, mebel, qog'oz buyumlar, qurilish materiallari ishlab chiqarish, metallni qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Ushbu



korxonalarda mingdan ziyod ishchi mehnat qilmoqda.

Shu yerning o'zida Chilonzor tumanida amalga oshiriladigan 20 dan ortiq iqtisodiy loyihalar taqdimoti o'tkazildi. Umumiy qiymati 10 milliard so'm bo'lgan «1-zargarlik korxonasi» loyihasi, umumiy qiymati 9 milliard so'm bo'lgan sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi loyihasi, qiymati 3 milliard so'm bo'lgan Chilonzor tumanidagi eski 2-poyabzal fabrikasi hududida ayollar, erkaklar va bolalar oyoq kiyimlarini ishlab chiqarish korxonasi, shuningdek, qandolat mahsulotlari, qadoqlash va qurilish materiallari, avtomobillar uchun texnik moy ishlab chiqarish, «Sovplastital» aksiyadorlik jamiyati hududida kichik sanoat zonasi tashkil etish, yurak kasalliklarini davolash markazi, mediamarket va savdo majmuasi qurish loyihalari ham namoyish etildi.

Prezidentimiz «Katta Xirmontepa» va «Yakkatut» mahalla fuqarolar yig'inlarida bo'ldi.

Katta Xirmontepa mahallasida, asosan, ko'pqavatli uylar joylashgan. Davlatimiz rahbari mahalla hududi bilan tanishdi. Ko'pqavatli uylar, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar atrofini obodonlashtirish, yo'laklarni ta'mirlash bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

Shavkat Mirziyoyev shu yerda yashovchi aholi xonadonlarida bo'lib, ular bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbariga Toshkent shahrida qurilishi rejalashtirilgan namunaviy mahalla markazlari loyihalari haqida axborot berildi.

Shavkat Mirziyoyev Chilonzor tumanidagi ichki yo'llarni ta'mirlash loyihasi bilan tanishdi.

Prezident rahbarligida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda Toshkent shahri va tuman hokimlari, turli vazirlik va idoralar rahbarlari, poytaxt jamoatchiligi vakillari ishtirok etdi. Uchrashuvda aholiga zarur sharoitlar yaratish, kommunikatsiya tizimlarini ta'mirlash, hududlarni obodonlashtirish, tadbirkorlarni qiynayotgan to'siqlarni olib tashlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari mazkur sohalaridagi kamchiliklarni bartaraf etish, istiqbolda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar yuzasidan mutasaddi rahbarlarga tegishli topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**13-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**14–15-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Samarqand viloyatida bo'ldi.

Prezidentimiz Samarqand viloyatiga tashrifini Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov qabrini ziyorat qilishdan boshladi. Islom Karimov ruhiga Qur'on tilovat qilindi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 25-yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq bu borada izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Samarqand shahrida Islom Karimov dafn etilgan hududda yodgorlik majmuasi barpo etilmoqda.

Davlatimiz rahbari maqbara loyihasi bilan tanishdi. Uni yanada takomillashtirish, ziyoratchilar uchun qulayliklarni oshirish bo‘yicha tavsiyalar berdi.

Xususan, Birinchi Prezidentimiz maqbarasi Hazrati Xizr masjidi bilan uyg‘un bo‘lishi zarurligi ta’kidlandi. Ziyoratchilar uchun maqbaraga monand baland ayvonlar bunyod etish, rasmiy delegatsiyalar uchun ham keng sharoit yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Ushbu majmua yuksak ma’naviyat, ilm-ma’rifat maskani bo‘lishi kerak. Bu – katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Majmuada hamisha mayin ohangda Qur‘on suralari yangrab turishi, maqbara devorlariga muqaddas oyatlar bilan birga, Islom Karimovning hikmatli so‘zlari ham bitilishi zarur. Toki ziyoratga kelganlar o‘ziga ulkan ruhiy quvvat olsin, xalqimizning ilmiga, ma’naviyatiga havasi ortsin, dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz Jomboy tumanidagi «G‘alla Osiyo non» mas’uliyati cheklangan jamiyatida bo‘lib, viloyatda yaqin vaqtlar ichida amalga oshiriladigan yirik loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Dastlab «Sharq sanoati» konserni tarkibida tashkil etilgan intensiv ko‘chat yetishtirish loyihasi, Bulung‘ur tumanida tashkil etilayotgan «Tohir», «Samarqand garden plast», Jomboy tumanidagi «Grin agro eksport» mas’uliyati cheklangan jamiyatlari va «Maroqand meva-sabzavot» fermer xo‘jaligi tomonidan meva-sabzavot mahsulotlarini saralash, qayta ishlash, qadoqlash markazini tashkil etish loyihalari bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev Oqdaryo tumanidagi «Yunusjon ahli» oilaviy korxonasi tomonidan soya oqsili izolyati ishlab chiqarish loyihasi bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Jomboy tumanida viloyatda yengil sanoatni rivojlantirishga qaratilgan qator loyihalar taqdimotida ishtirok etdi. Shundan so‘ng «Asakabank» tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar taqdimoti bo‘ldi. «Next textile», «Oqdaryo teks», «Maroqand sifat» mas’uliyati cheklangan jamiyatlarining istiqboldagi faoliyati muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbariga Samarqand viloyatida 2017 – 2018-yillarda yengil sanoat sohasida amalga oshiriladigan manzilli dastur taqdim qilindi.

Prezidentimiz viloyatda terini qayta ishlash, charm va maxsus poyabzallar ishlab chiqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi. Shuningdek, yengil sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar namularini ko‘zdan kechirdi.

Prezidentimiz Imom Buxoriy yodgorlik majmuasini ziyorat qildi. Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy tadqiqot markazi qurilishi loyihasi bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari ushbu xalqaro markazning mazmun-mohiyatiga alohida e'tibor qaratdi. Bu muassasada islom madaniyati targ'iboti bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqish kerakligini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev olimlar va ulamolar bilan suhbatda ushbu markazda tadqiqotchilarga barcha zarur sharoitlarni yaratish, xorijlik tadqiqotchilar uchun stajirovkalar ta'sis etish lozimligini ta'kidladi.

Shuningdek, Maxdumi A'zam ziyoratgohidan Imom Buxoriy majmuasigacha bo'lgan yo'l bo'yida ikki qavatli zamonaviy uylar va ijtimoiy obyektlar qurish, hududni obodonlashtirish bo'yicha mutasaddi rahbarlarga topshiriqlar berildi.

Prezidentimiz Qo'shrabot tumanidagi «Oqtepa» qishloq fuqarolar yig'inida bo'lib o'tgan uchrashuvda tog'oldi hududlarida 2017–2018-yillarda yong'oqzorlar, tokzorlar barpo etish, 2017–2021-yillarda chorva boqishni tashkil etish, tumanda ichimlik suvi ta'minotini yaxshilashga oid loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Qo'shrabotda eksportbop mevalar ekish, chorvachilikni rivojlantirish, buning uchun aholiga kredit mablag'lari ajratish zarurligini ta'kidladi. Shu yerda bir guruh nuroniylar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz Kattaqo'rg'on suv ombori havzasida baliqchilikni ri-

vojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Payariq, Samarqand tumanlarida «Maroqand baliq sanoat agro» agrofirma va «Oq amur baliqlari» fermer xo'jaligi tomonidan «Ipoteka-bank» bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalarni ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari Samarqand viloyatida suv resurslaridan unumli foydalanish, suv tarmoqlarini modernizatsiya qilish loyihalarini ko'rib chiqdi. Suvni samarali ishlatish mintaqamizdagi dolzarb masalalardan biri, dedi Prezidentimiz. Shu bois ushbu resursdan foydalanishni zamon talablari asosida tashkil etish lozim.

Urgut tumanidagi «Cho'ponota parranda», «Afrosiyob parranda», «Maroqand parranda», «Zarafshon parranda» mas'uliyati cheklangan jamiyatlari, shuningdek, «Siyob Shavkat Orzu» fermer xo'jaliklarining loyihalari bilan tanishgan Prezidentimiz, viloyatda parrandachilikni rivojlantirish uchun tabiiy iqlim, xomashyo va ishchi kuchi mavjudligini ta'kidladi.

Samarqand shahrida viloyat faollari yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda viloyat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini yanada oshirish, tinchlik-oso-yishtalikni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz ertasi kuni Samarqand shahridagi «Alpomish» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga

tashrif buyurdi. Bu yerda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan qator istiqbolli loyihalar taqdimotlari o'tkazildi.

Samarqand shahrida erkin turistik hudud barpo etish bo'yicha 2017–2019-yillarga mo'ljallangan loyihalar ishlab chiqilgan. Ushbu loyihalarga ko'ra shaharning Amir Temur ko'chasida sayyohlik-ko'ngilochar mehmonxona kompleksi, Samarqand eshkak eshish kanali bo'yida qishki dam olish maskani barpo etish mo'ljallanmoqda.

«Urgut» erkin iqtisodiy zonasining Urgut tumanida «Urgut-1», Nurobod tumanida «Urgut-2» va Pastdarg'om tumanida «Urgut-3» hududlari tashkil etildi. Prezidentimiz ushbu strategik hududni tashkil etish borasidagi ishlarni tizimli yo'lga qo'yish zarurligini ta'kidladi.

Prezidentimiz Samarqand shahrining Dahbed ko'chasidan Payariq tumanidagi Imom Buxoriy majmuasiga olib boradigan Nurafshon ko'chasini obodonlashtirish loyihasi bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari shaharning Jomiy ko'chasidagi Yoshlar markazini rekonstruksiya qilish, hayvonot bog'i qurish loyihalarini ko'zdan kechirar ekan, bu boradagi ishlarni aholining fikri va takliflari asosida amalga oshirish, milliy me'morlik va zamonaviy arxitektura an'alarini hisobga olish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shavkat Mirziyoyev «Urgut» erkin iqtisodiy zonasi hududida maishiy texnikalar ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni ko'zdan kechirdi.

Shu yerda viloyatda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, sportni yanada ommalashtirish, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish borasidagi loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Samarqand viloyatidagi Xalq qabulxonasini borib ko'rdi. Prezidentimiz 15-aprel kuni Samarqand shahrida Temiryo'l vokzali – Sartepa yo'nalishi bo'yicha tramvay qatnovi yo'lga qo'yilishiga bag'ishlangan tadbirda ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari bir guruh samarqandliklar bilan «Tarix muzevi» bekatidan «Temiryo'l vokzali» bekatigacha tramvayda birga keldi. Samimiy muloqot chog'ida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, aholi farovonligini yanada oshirishga qaratilayotgan alohida e'tibor haqida so'z bordi.

\* \* \*

**18-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**18-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-

kasi xususiylashtirilgan korxonalar-ga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**18-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimini boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**18-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasini tashkil etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hisobidan import hajmi va turlarini maqbullashtirish, shuningdek, eksport prognoz ko'rsatkichlarining so'zsiz bajarilishi va eksport hajmini yanada ko'paytirish maqsadida mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solish uchun barcha darajadagi rahbarlarning shaxsiy javobgarligini kuchay-

tirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda tayyor mahsulotlar turlari, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarni amalga oshirish doirasida qiymati 5,5 milliard dollardan ortiq 2,8 mingdan ko'proq mahalliyashtirish loyihasi hayotga tatbiq etilgani, ilgari xorijdan olib kelingan 4,8 mingdan ziyod yangi mahsulotlar turlarini ishlab chiqarish o'zlashtirilgani ta'kidlandi. Natijada keyingi besh yilda import hajmi 752 million dollarga, jumladan, 2016-yilda 286 million dollarga kamaydi.

Biroq import o'rnini bosadigan mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari amalga oshirilayotganiga qaramasdan, Vazirlar Mahkamasi komplekslari, vazirliklar, idoralar va xo'jalik birlashmalari import hajmining asossiz oshib ketishiga yo'l qo'ymoqda. Ayrim kompaniya va xo'jalik birlashmalari rahbarlari import hajmi, ayniqsa, mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, xomashyo va materiallarni xorijdan olib kelish hajmining o'sishi, shuningdek, asossiz import uchun valyuta resurslarini jalb qilgani uchun ularga nisbatan qat'iy javobgarlik choralari qo'llanilishi, hatto, egallab turgan lavozimiga loyiq yoki noloyiqligi to'g'risidagi masala ko'rib chiqilishi haqida ogohlantirildi.

Yig'ilishda joylarda yangi ish o'rinlari tashkil etish va aholi

bandligini ta'minlash masalasiga ham e'tibor qaratildi. Jumladan, oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining kasblar bo'yicha bilim va mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, bandligini ta'minlash, ular uchun munosib ish sharoiti yaratish chora-tadbirlari ko'rib chiqildi. Vazirlik va idoralar, hokimliklar, mahalliy davlat organlariga yangi ish o'rinlari tashkil etishga ko'maklashish bo'yicha yangicha tizim yaratish yuzasidan topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2018—2022-yillarda isisqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish dasturi to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017—2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**21-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017—2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Olmazor tumanida bo'ldi.

Avvalo tumanda barpo etiladigan yangi savdo markazi va ko'p qavatli uylar loyihalari bilan tanishdi. Nurafshon va Forobiy ko'chalari kesishgan joyda uch qavatli «Eski shahar» savdo markazi barpo etiladi. Davlatimiz rahbari mazkur savdo kompleksi quriladigan joyni ko'zdan kechirdi.

Prezidentimizning 2017-yil 13-martdagi 2017—2021-yillarda Toshkent shahrida ko'p qavatli arzon uylar qurish ko'lamini kengaytirish to'g'risidagi qarori asosida Kichik halqa yo'li va Qorasaroy ko'chasi kesishgan hududda 7 qavatli 12 turar joy barpo etish bo'yicha loyiha ishlab chiqildi.

Prezidentimiz Eski shahardagi uy-joyga muhtoj oilalarni hisobga olish, uylar taqsimotida adolat mezonlariga qat'iy rioya qilinishi zarurligini qayd etdi.

Davlatimiz rahbari Qichqiriq kanali bo'yida bunyod etiladigan yan-

gi madaniyat va istirohat bog‘i loyihasi bilan ham tanishdi. Mazkur bog‘ni aholi farzandlari bilan sayr qiladigan, hordiq chiqaradigan maskanga aylantirish, bunda Toshkentning qadimiy an‘analarini hisobga olish lozimligi alohida ta’kidlandi.

Prezidentimiz «Tabassum» mahalla fuqarolar yig‘inida bo‘lib, mahalla hayoti bilan tanishdi, aholi bilan muloqot qildi. Mahalladagi ko‘p qavatli uylar, maktabgacha ta’lim muassasalari atrofini obodonlashtirish, yo‘laklarni ta’mir olish bo‘yicha mutasaddilarga ko‘rsatmalar berildi.

Shavkat Mirziyoyev Talabalar shaharchasi hududida quriladigan axborot-resurs markazi loyihasi bilan tanishdi. Prezidentimiz markaz loyihasi va konsepsiyasini takomillashtirish, uning faoliyati doirasini kengaytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Shavkat Mirziyoyev «Oniks Toshkent» mas’uliyati cheklangan jamiyatiga tashrif buyurdi. Korxonada Markaziy Osiyoda yagona bo‘lib, bir sutkada 20 tonna natriy-kalsiyli zamonaviy shisha idishlar ishlab chiqaradi. Prezidentimiz korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar namunalari ko‘zdan kechirdi.

Shu yerda 2017–2018-yillarda Olmazor tumanining sanoat va xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha loyiha taqdimoti bo‘ldi. Bo‘sh turgan binolar bazasida zamonaviy va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Prezidentimiz tumandagi Imom Termiziy jome masjidida bo‘ldi.

Hazrati Imom majmuasida Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil qilamiz, dedi Shavkat Mirziyoyev. Yurtdoshlarimiz, mamlakatimizga keladigan mehmonlar bu yerda buyuk allomalarimizning bebaho merosi bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

Mutasaddilarga masjidni rekonstruksiya qilish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Unda Toshkent shahri va tumanlar hokimlari, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari, poytaxt jamoatchiligi vakillari ishtirok etdi. Uchrashuvda aholiga zarur sharoitlar yaratish, kommunikatsiya tizimlarini yangilash, hududlarni obodonlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

\* \* \*

**24-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017–2021-yillarda ko‘p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-aprel.** O‘zaro kelishuvga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev o‘rtasida telefon orqali muloqot bo‘lib o‘tdi.

Davlat rahbarlari siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, ilmiy-texnik, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlik faollashganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Davlat rahbarlari O'zbekiston va Qozog'iston qardosh xalqlarimizning vaqt sinovidan o'tgan o'zaro munosabatlariga amal qilgan holda, bundan buyon ham mamlakatlari-miz barqaror iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashini qayd etdilar.

Tomonlar mintaqaviy va xalqaro siyosatga oid ayrim masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

\* \* \*

**24-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Singapur Respublikasi Prezidenti Toni Tan Keng Yam davlatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 20 yilligi munosabati bilan bir-birlariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**26-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan AQSh Qurolli Kuchlari Markaziy qo'mondonligi qo'mondoni, general Jozef Leonard Votelni qabul qildi.

Suhbat chog'ida ikki tomonlama o'zaro manfaatli va serqirra hamkorlik, jumladan, harbiy va harbiy-texnik sohalardagi hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Mintaqada xavfsizlik va barqa-

rorlikni ta'minlash masalalari yuzasidan fikr almashildi. Afg'onistonda yuzaga kelayotgan vaziyat va ushbu mamlakatda tinchlikka erishish istiqbollari-ga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**26-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Turkiya Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Mevlud Chavusho'g'luni qabul qildi.

O'zbekiston – Turkiya munosabatlari 2016-yilning 17–18-noyabr kunlari Samarqand shahrida o'tgan oliy darajadagi muzokaralarda erishilgan kelishuvlarga muvofiq izchil rivojlanayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish, Turkiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, to'qimachilik, ko'ncilik, kimyo va farmatsevtika sohalari, qurilish materiallari sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va boshqa yo'nalishlarda, jumladan, «Urgut» erkin iqtisodiy zonasi doirasida yuqori texnologiyali zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Uchrashuvda mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**27-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshiri-



layotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, yirik loyihalar bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Jizzax viloyatida bo'ldi. Davlatimiz rahbari o'z tashrifini Zafarobod tumanidan boshladi. «Chimqo'rg'on» qishloq fuqarolar yig'ini hududida Jizzax neftni qayta ishlash majmuasi qurilishiga tamal toshi qo'yish marosimi bo'ldi.

Marosimda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Majmuaga tantanali ravishda tamal toshi qo'yildi.

Prezidentimiz Jizzax shahridagi Tadbirkorlikka ko'maklashish markazi faoliyati bilan tanishdi. Tadbirkorlarga ko'maklashish markazi tadbirkorlarning haqiqiy ko'machisi bo'lishi lozim, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Jizzax viloyatidagi Xalq qabulxonasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Jizzax shahriining bosh rejasi asosida amalga oshirilishi rejalashtirilgan bunyodkorlik ishlari, Sharof Rashidov, Hamid Olimjon va Zulfiya xiyobonlarini barpo etish loyihalari bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 18-noyabrda Jizzax viloyati saylovchilari bilan uchrashuvda xalqimizning fidoyi farzandi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash, u kishi tug'ilib o'sgan Jizzax zaminida yodgorlik majmuasi barpo etish taklifini bildirgan edi.

Ana shu majmuani hamda Hamid Olimjon va Zulfiya xiyobonini barpo etish, ularning ijodiy maktablarini tashkil etish yuzasidan ham ko'rsatmalar berildi.

Jizzax viloyati tumanlari markazlarida bunyod etiladigan 4 qavatli arzon uy-joylar loyihasi ham namoyish etildi.

Prezidentimiz Sharof Rashidov tumani «Yangiobod» mahalla fuqarolar yig'ini faoliyati, profilaktika inspektorining yashash joyi bilan tanishib, «Uchtepa» massivida yangilangan namunaviy loyihalar asosida barpo etilgan uy-joylarda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari aholi vakillari bilan muloqotda bo'ldi.

Prezidentimiz Paxtakor tumanida bo'lib, Jizzax viloyatida yengil sanoat, charm-poyabzal, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida amalga oshiriladigan istiqbolli loyihalar bilan tanishdi.

Jizzax shahridagi «Bonu shirinliklari» korxonasi tomonidan qandolat va shokolad mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi taqdim qilindi.

Viloyatda yirik chorvachilik loyihalarini moliyalashtirish, parrandachilikni rivojlantirish, Zomin tumanida tokzorlar, issiqxona majmuasi barpo etish, asal yetishtirish, Baxmal tumanida 2 ming bosh qoramol boqiladigan va sutni qayta ishlaydigan korxonani ishga tushirish, Forish tumanida naslli echkilarni ko'paytirish va echki sutini qayta ishlash agrofirma tashkil qilish, G'allaorol tumanida yong'oqzorlar barpo etish, Aydar-Arnasoy ko'llar

tizimida baliqchilikni rivojlantirish kabi loyihalarning taqdimotlari ham o'tkazildi.

Prezidentimiz ushbu loyihalar bilan tanishib, ularning har biri bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

Shavkat Mirziyoyev «Jizzax» erkin iqtisodiy zonasida ham bo'ldi.

Sharof Rashidov tumanida mutasaddi rahbarlar va viloyat faollari ishtirokida videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda viloyat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini yanada oshirish, tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**28-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Janubiy Qozog'iston viloyatiga tashrif buyurdi va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev bilan amaliy uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda Prezidentimizning shu yil mart oyida Qozog'istonga davlat tashrifi davomida mamlakatlarimiz o'rtasida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish jarayoni muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston — Qozog'iston hamkorligidagi ijobiy sur'atlar barqaror saqlanishi va yanada rivojlanishiga ishonch bildirdilar.

\* \* \*

**1-may.** O'zaro kelishuvga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov o'rtasida telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi. Davlat rahbarlari Prezidentimizning shu yil 6—7-mart kunlari Turkmanistonga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlar va imzolangan hujjatlarni amalga oshirish jarayonini muhokama qildilar. Tomonlar siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar sohalar bo'yicha yuksak darajadagi aloqalar izchil rivojlanayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Davlat rahbarlari belgilangan dasturlar va hamkorlik loyihalarini, avvalambor, iqtisodiy sohadagi loyihalarni o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida yanada faol hamkorlik qilish muhimligini ta'kidladilar.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan atroflicha fikr almashildi, shuningdek, yaqin istiqboldagi qo'shma tadbirlar jadvali kelishib olindi.

\* \* \*

**1-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**2-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017-yil 6-may shanba dam olish kunini 2017-yil 8-may dushanba kuniga ko‘chirish to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-may.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yevropa Ittifoqining mamlakatimizdagi delegatsiyasi rahbari etib tayinlangan Eduards Stiprays, Qirg‘iziston Respublikasi, Fransiya Respublikasi, Italiya Respublikasi, Chexiya Respublikasi, Yaponiya, Misr Arab Respublikasi, Turkiya Respublikasi va Saudiya Arabistoni Podshohligining O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchilari etib tayinlangan Daniyar Sidiqov, Violen de Vilmor, Andrea Bertotsi, Yaroslav Siro, Nobuaki Ito, Amani al-Etr, Ahmet Bashar Shen, Hisham Mishal as-Suveylimdan ishonch yorliqlarini qabul qilib oldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev elchilarni mamlakatimizda ish boshlayotgani bilan samimiy tabriklab, ularning mas‘uliyatli faoliyatiga muvaffaqiyat tiladi.

\* \* \*

**3-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Nukus-farm», «Zomin-farm», «Kosonsoy-farm», «Sirdaryo-

farm», «Boysun-farm», «Bo‘stonliq-farm» va «Parkent-farm» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahridagi xalqaro aeroportga O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomini berish to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**4-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017–2021-yillarda yer osti suvlari zaxiralardan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakili institutini ta‘sis etish to‘g‘risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**5-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017–2018-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishla-

ri, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Yashnobod tumanida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Oybek ko'chasidagi ko'p qavatli uylarda ishga tushirilgan zamonaviy, energiyatejamkor texnologiyalarni borib ko'rdi.

Shu yerda gelioqurilmalar ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotlari bilan tanishildi. Qozonxonalar qurish va ulardan foydalanishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, malakali mutaxassislarni jalb etish borasida zarur ko'rsatmalar berildi.

Shavkat Mirziyoyev «Toshkent qog'ozi» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga tashrif buyurdi. Prezidentimiz bu yerdagi imkoniyatlardan samarali foydalanish, zavod binolarini ishbilarmon va tadbirkorlarga imtiyozli asosda berish, ularda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarurligini ta'kidladi.

Shu yerning o'zida Yashnobod tumanida amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar taqdimoti o'tkazildi. Davlatimiz rahbari loyihalarning tashabbuskori bo'lgan tadbirkor va investorlar bilan suhbatlashdi. Rejalarni o'z vaqtida amalga oshirish, ishbilarmonlarga qo'shimcha imtiyozlar yaratish bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz kutilmaganda 32-oilaviy poliklinikaga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari poliklinikaning ish tartibi bilan qiziqdi. Mavjud muammolarni qisqa mud-

datda bartaraf etish, poliklinikani ta'mirlash va aholi uchun qulayliklarni oshirish, tibbiy yordam qamrovini kengaytirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Prezidentimiz shu yerda mahalla aholisi bilan muloqotda bo'ldi.

Bugungi kunda «Artel» brendi ostida muzlatkich, televizor, kir yuvish mashinasi, gaz plitasi, konditsioner, mikroto'lqinli pech, changyutkich, qo'l telefoni kabi eng so'ngi rusumdagi maishiy texnika vositalari ishlab chiqarilmoqda. Shavkat Mirziyoyev zavoddagi ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdi.

Shu yerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda Toshkent shahri va tumanlar hokimlari, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari, poytaxt jamoatchiligi vakillari ishtirok etdi. Aholiga barcha zarur sharoitlar yaratish, kommunikatsiya tizimlarini yangilash, hududlarni obodonlashtirish, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**6-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi va samaradorligini oshirishda mahalliy ijro hokimiyati va iqtisodiy kompleksning hududiy organlari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-may.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

poytaxtimizdagi Xotira maydoniga tashrif buyurib Motamsaro ona haykali poyiga gulchambar qo'ydi. Prezidentimiz Ikkinchi jahon urushida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Shu kuni Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Akademik M. Mirzayev nomidagi ilmiy tadqiqot instituti bog'ida Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 72 yilligiga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbirda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan 500 nafar urush va mehnat faxriysi taklif etildi.

Davlatimiz rahbari bu yerga yig'ilganlarni, butun xalqimizni 9-may — Xotira va qadrlash kuni, Ikkinchi jahon urushidagi g'alabaning 72 yilligi munosabati bilan tabrikladi.

Prezidentimizning 9-may — Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan nutqi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**10-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zayd Raad al-Husaynni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni qutlar ekan, O'zbekiston va BMT, ushbu nufuzli universal xalqaro tashkilot institutlari, shu jumladan, BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi o'rtasida amaliy va ochiq muloqotni yanada rivojlantirish va mustahkamlash muhimligini alohida ta'kidladi.

Inson huquqlarini har tomonlama himoya qilish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tarkibiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi ekani qayd etildi.

Uchrashuvda o'zaro hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha fikr almashildi.

\* \* \*

**11-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Shveysariya Konfederatsiyasi Prezidenti Doris Loytxard mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 25 yilligi munosabati bilan bir-birlarini qutladilar.

\* \* \*

**11-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**12-may.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin tasdiqlagan O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasining har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish to'g'risidagi Qo'shma bayonoti matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**11–13-may.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Pekinga bordi.

12-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Pekinda rasmiy kutib olish marosimi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Muzokaralarda o‘zaro va ko‘p tomonlama munosabatlarga oid dolzarb masalalar, jumladan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada rivojlantirish xususida atroflicha fikr almashildi.

Muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyev va Si Szinpin O‘zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi Qo‘shma bayonotni imzoladilar. Hukumatlararo texnikaviy hamkorlik to‘g‘risidagi, xalqaro avtomobil qatnovi to‘g‘risidagi bitimlar, umumta‘lim maktablarida ta‘lim sifatini oshirish, sog‘liqni saqlash sohasini asbob-uskunalar bilan jihozlashga doir loyihalarni moliyalashtirish to‘g‘risidagi hukumatlararo notalar almashinuvi hamda veterinariya va o‘simliklar inspeksiyasi karantini sohasida anglashuv memorandum, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi

hamkorlikni rag‘batlantirish bo‘yicha anglashuv memorandum, qishloq xo‘jaligi sohasida 2018–2020-yillarga mo‘ljallangan idoralararo almashinuv hamkorlik rejasi kabi qator muhim hujjatlar imzolandi.

Shavkat Mirziyoyev va Si Szinpinning tor doiradagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda tomonlar O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bilan bog‘liq keng ko‘lamli masalalar, mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan atroflicha fikr almashdilar.

Imzolangan hujjatlar, erishilgan kelishuvlar O‘zbekiston – Xitoy munosabatlarini yanada rivojlantirish va xalqlarimiz farovonligini yuksaltirishga xizmat qilishi alohida qayd etildi.

Shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi. Muzokaralarda o‘zaro va ko‘p tomonlama munosabatlarga oid dolzarb masalalar, jumladan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada rivojlantirish xususida atroflicha fikr almashildi.

13-may kuni Davlatimiz rahbari Pekin shahrining Tyananmen maydonidagi Xalq qahramonlari yodgorligi poyiga gul qo‘ydi, qahramonlar xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy ishbilarmon doiralari vakillari bilan uchrashdi. Unda o‘zaro

munosabatlarning bugungi holati va istiqbollari, O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlash va izchil rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari muhokama qilindi.

Xitoy O'zbekiston iqtisodiyotiga eng ko'p investitsiya kiritayotgan davlatlardan biridir. Mamlakatimizda Xitoy kapitali ishtirokidagi 700 dan ziyod kompaniya va korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan yillar davomida xitoylik sarmoyadorlar O'zbekiston iqtisodiyotiga qariyb 8 milliard dollar miqdorida investitsiya kiritganini alohida ta'kidlash lozim, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Uchrashuvda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy, texnikaviy, energetika sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish, o'zaro savdo aylanmasi hajmini oshirishga oid masalalar xususida so'z yuritildi.

Shu kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xalq vakillari Umumxitoy Majlisi Doimiy qo'mitasi Raisi Chjan Detszyan bilan uchrashdi. Muloqot chog'ida parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Davlat Kengashi Bosh vaziri Li Ketsyan bilan ham uchrashdi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Xitoy bilan do'stlik aloqalarini qadrlashini, mamlakatlarimizning o'zaro hamkorligi izchil rivojlanib borayotgani xalqlarimiz manfaatlariga mos ekanini ta'kidladi.

O'zbekiston Prezidenti o'zi uchun ajratilgan qarorgohda Xitoy Milliy

neft-gaz korporatsiyasi direktorlar kengashi raisi Van Ilyinni qabul qildi.

Uchrashuvda yuqori texnologiyalar sohasidagi loyihalar ijrosining istiqbollari va O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlariga Xitoy sarmoyalarini jalb etish masalalari muhokama qilindi.

Prezidentimiz Xitoy Xalq Respublikasi Eksport-import banki boshqaruvi raisi Xu Syaolyan xonim bilan ham uchrashdi.

Davlatimiz rahbari o'zaro ishonchga asoslangan va ikki tomon uchun ham manfaatli bo'lgan hamkorlik aloqalarini izchil rivojlantirish mamlakatlarimiz uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi.

Tashrifning muhim natijalaridan biri O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasida oliy darajadagi hamkorlik qo'mitasi tuzish to'g'risidagi kelishuv bo'ldi. Bu bilan ikki mamlakat o'rtasida o'zaro munosabatlarning barcha yo'nalishlari bo'yicha hamkorlikni tizimli rivojlantirish uchun ishonchli institutsional asos yaratiladi. Tashrif yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi Qo'shma bayonot imzolandi.

Tashrif davomida davlatlararo, hukumatlararo va idoralalararo darajadagi 100 dan ziyod hujjat imzolandi.

\* \* \*

**14-15-may.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Pekin shahrida bo'lib o'tgan «Bir makon – bir yo'l» forumida ishtirok etdi.

Forumda 30 ga yaqin mamlakatlardan davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etdi. Anjumanda BMT Bosh kotibi, Jahon banki prezidenti va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari ham qatnashdi.

Forumda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nutq soʻzladi. Davlatimiz rahbari mazkur forumning ahamiyati, uni takomillashtirish va rivojlantirish masalalari haqida toʻxtaldi.

Shu bilan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga davlat tashrifi nihoyasiga yetdi.

\* \* \*

**16-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti Mamnun Husayn davlatlarimiz oʻrtasida diplomatik munosabatlar oʻrnatilganining 25 yilligi munosabati bilan bir-birlarini qutladilar.

\* \* \*

**17-may.** Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Eron Islom Respublikasi Prezidenti Hasan Ruhoniy davlatlarimiz oʻrtasida diplomatik munosabatlar oʻrnatilganining 25 yilligi munosabati bilan bir-birlarini qutladilar.

\* \* \*

**17-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Sirdaryo viloyati-

ga tashrif buyurdi va dastlab Sardoba suv ombori qurilishining borishi bilan tanishdi.

Shu yerda Mirzaobod tumanida amalga oshirilishi rejalashtirilgan qishloq xoʻjaligi sohasidagi istiqbolli loyihalar taqdimoti oʻtkazildi.

Viloyat hududida tashkil etiladigan logistika markazi, baliqchilik majmuasi, shuningdek, chorvachilik, meva-sabzavotni qayta ishlash va mahsulotlarni saqlovchi muzlatkichni oʻz ichiga olgan majmua loyihalari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Mirzaobod tumanidagi «Abdugʻani Turdiboyevich» koʻp tarmoqli fermer xoʻjaligi faoliyati bilan tanishdi, bogʻdorchilik, chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish boʻyicha loyihalarni koʻzdan kechirdi. Shu yerda nuroniy otaxonlar bilan samimiy muloqot oʻtkazildi.

Shavkat Mirziyoyev Guliston shahridagi «Sirdaryo Best Fashion» korxonasida boʻldi. Davlatimiz rahbariga viloyatda tashkil etilayotgan farmasevtika va tibbiyot buyumlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar loyihalari haqida ham soʻzlab berildi.

Mamlakatimizning barcha shaharlari qatori Guliston shahrida ham ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Shaharning Oʻzbekiston va Birlashgan koʻchalarida 180 xonadonli 15 ta koʻp qavatli uy qurildi. Prezidentimiz ana shu uylar joylashgan «Namuna» mahalla fuqarolar yigʻiniga tashrif buyurdi.

Shavkat Mirziyoyev fuqarolar yigʻinida mahalla raisi, maslahatchilar va profilaktika inspektori ish-



lashi uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Jinoyatchilikning oldini olish, tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, odamlarni rozi qilishda ularning hamkorligi muhim ekani ta'kidlandi. Shu yerda Guliston shahrining bosh rejasi asosida amalga oshiriladigan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari taqdimoti o'tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev Yangiyer shahriga tashrif buyurdi. Bu yerda xususiy lashtirilgan, ammo bugun bo'sh turgan korxonalar va obyektlardan samarali foydalanish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar bilan qiziqdi. Viloyat iqtisodiyot kompleksi tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan harakatlar rejasi to'g'risida ma'lumot berildi.

Prezidentimiz «Yangiyer» kichik sanoat zonasida amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi. Ushbu sanoat zonasida 2017–2018-yillarga mo'ljallangan, qiymati salkam 106 million dollar bo'lgan 125 loyihani amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Prezidentimiz sanoat zonasi hududidagi sobiq «Yangiyeryo'landustriya» unitar korxonasining bo'sh turgan binosini ko'zdan kechirdi. Hududi 9 gektar bo'lgan mazkur korxonalar «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyati tarkibiga o'tkazilib, uning negizida Yangiyer temir-beton va metall konstruksiyalari ishlab chiqarish zavodi tashkil etilmoqda.

Davlatimiz rahbari Xovos tumanidagi «Hoji Gadoyboy ota»

xususiy korxonasi tomonidan tashkil etilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga mo'ljallangan issiqxonani ko'zdan kechirdi.

Shu yerda «O'zbekoziqovqatxolding» kompaniyasi tomonidan 2017–2018-yillarda viloyatda tashkil etiladigan meva-sabzavotchilik loyihalari, Sirdaryo tumanidagi «Sirdaryo golden fruits» mas'uliyati cheklangan jamiyati meva-sabzavotchilik logistika markazi, Mirzaobod va Sayxunobod tumanlarida issiqxonalar tashkil etish, Guliston tumanida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, «Guliston agro grup» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan guruchni qayta ishlash, «Agro eko texnologiya» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan sabzavot va dukkakli o'simliklar yetishtirish, unabi bog'i tashkil etish loyihalari taqdimoti ham o'tkazildi.

Guliston shahrida Prezidentimiz raisligida Sirdaryo viloyati faollari, mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda viloyat iqtisodiyotini, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, yo'l infratuzilmasini yaxshilash, aholi turmush darajasini yuksaltirish, tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, belgilangan dasturlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**18-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi raisining o'rinbosari, bosh kotibi Van

Chen rahbarligidagi Butunxitoy xalq vakillari kengashi delegatsiyasini qabul qildi.

Suhbat chog'ida Prezidentimizning yaqinda Xitoy Xalq Respublikasiga oliy darajadagi tashrifi davomida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya va madaniy-gumanitar sohalarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Hududlararo hamkorlikni rivojlantirish, chunonchi, savdo, investitsiya va madaniy aloqalarni jadallashtirish, shuningdek, birodarlashgan qadimiy Samarqand va Sian, Buxoro va Loyan shaharlari o'rtasida sayyohlar almashishga alohida e'tibor qaratildi.

Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi raisining o'rinbosari, bosh kotibi Van Chen 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy islohotlarni yuqori baholadi.

\* \* \*

**18-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekgidroenergo» aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Muborak ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**19-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Millatlararo munosa-

batlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**19–20-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Turkmanistonga keldi.

Tashrifning birinchi kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Avaza» milliy sayyohlik zonasining «Kamalak» bolalar ko'ngilochar bog'ida dam olayotgan o'zbekistonlik bolalar bilan uchrashdi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezidentlarning yakkama-yakka suhbatini bilan boshlandi. «Avaza» kongresslar markazida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Muloqot davomida mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik barcha sohalarda izchil rivojlanib borayotgani ta'kidlandi. Prezidentlar mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarning bugungi holati va istiqboliga oid masalalar, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik muammolar yuzasidan fikr almashdilar.

Amaliy tashrif davomida qator muhim kelishuvlarga erishildi. Muzokaralar yakunida ikki mamlakat vazirlik va idoralari o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish sohasida hamkorlik to'g'risida, Nizomiy nomidagi Tosh-

kent davlat pedagogika universiteti bilan Seyitnazar Seydi nomidagi Turkmaniston davlat pedagogika instituti o'rtasida hamkorlik to'g'risida, Toshkent va Ashxobod shaharlari o'rtasida birodarlik munosabatlari o'rnatish to'g'risidagi bitimlar, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi va Turkmaniston davlat sport qo'mitasi o'rtasida jang san'ati va yopiq inshootlardagi V Osiyo o'yinlarida O'zbekiston sportchilarining ishtirok etishini tashkil qilish va hamkorlik to'g'risidagi bayonoma, «O'zbekneftgaz» milliy xolding kompaniyasi bilan «Turkmannebit» davlat konserni o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini, «O'zbekenergo» AJ bilan Turkmaniston Energetika vazirligi o'rtasida elektroenergiya tranziti sohasida hamkorlik to'g'risida, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi bilan «Turkmen-hova-yollari» xizmati o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandumlar imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari va killari bilan uchrashuvda Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov muzokaralar o'zaro hurmat, ishonch va ishchanlik ruhida o'tganini, erishilgan kelishuvlar O'zbekiston – Turkmaniston hamkorligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishini ta'kidladilar.

– Turkmaniston Konstitutsiyasi qabul qilingan kun va buyuk shoir Maxtumquli tavalludi kuni munosabati bilan turkman xalqini tabriklayman. Shoir tavalludi O'zbekistonda ham keng nishonlandi,

uning nomidagi ko'cha va yodgorlik ochildi. Biz shu ko'chada Ashxobod bog'ini tashkil qilamiz, bu ikki davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ramzi bo'lib qoladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Gurbanguli Berdimuhamedov davlatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini barcha sohalarda izchil rivojlantirishdan manfaatdor ekanini ta'kidladi, Ashxobodning markaziy ko'chalaridan biri Alisher Navoiy nomi bilan atalishini ma'lum qildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonga amaliy tashrifi nihoyasiga yetdi.

\* \* \*

**21-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistonining Ar-Riyod shahrida bo'lib o'tgan Arab-musulmon mamlakatlari va AQSh sammitida ishtirok etdi.

Sammitda Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlari va AQSh Prezidenti, BMT, Arab davlatlari ligasi, Fors ko'rfazi arab davlatlari hamkorligi kengashi bosh kotiblari qatnashdi. Forumni Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saud ochdi.

Mazkur anjuman ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish, bag'rikenglik g'oyalarini ilgari surish, xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlash masalalariga bag'ishlandi.

Sammit doirasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bir qator davlat rahbarlari bilan muloqotda bo'ldi.

Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp davlatimiz rahbari bilan uchrashuvda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar jarayonini yuqori baholadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G'ani, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Navoz Sharif, Turkiya Respublikasi Tashqi ishlar vaziri Mevlud Chavusho'g'lu bilan uchrashib, davlatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish yuzasidan fikr almashdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoniga tashrifi davomida Islom taraqqiyot banki Prezidenti Bandar Hajar bilan uchrashdi.

Muloqot davomida O'zbekiston bilan ITB o'rtasidagi munosabatlar izchil rivojlanib borayotgani, tomonlar ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishdagi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish borasida keng ko'lamli hamkorlik qilayotgani ta'kidlandi. Yangi loyihalar tuzish, sheriklik ko'lamini kengaytirish maqsadida turli darajadagi delegatsiyalar almashuvi bo'yicha aniq harakat dasturini ishlab chiqishga kelishib olindi.

Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi qoshida insoniyat taraqqiyotiga benazir hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning boy diniy-ma'naviy merosini o'rganishga ixtisoslashgan xalqaro

ilmiy tadqiqotlar markazini tashkil etishda ITBning ishtiroki yuzasidan fikr almashildi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi bilan Islom taraqqiyot banki o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirishga doir boshqa masalalar ham muhokama qilindi. Muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi hukumati va Islom taraqqiyot banki o'rtasida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tuzish to'g'risida anglashuv memorandumini imzolandi.

\* \* \*

**23-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ichki ishlar organlari yong'in xavfsizligi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vaziri Vladimir Kolokolsevnini qabul qildi.

Uchrashuvda Prezidentimizning shu yil 4–5-aprel kunlari Rossiya Federatsiyasiga oliy darajadagi tashrifi davomida qabul qilingan ikki tomonlama, shu jumladan, migratsiya sohasiga oid kelishuv va bitimlarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Huquqni muhofaza qilish tuzilmalari uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida tizimli va uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qayd etildi.

\* \* \*

**24-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**24-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) tashqi ishlar va xalqaro hamkorlik vaziri Shayx Abdulla bin Zoid Ol Nahayonni qabul qildi.

Suhbat davomida BAA yetakchi bank-moliya institutlari va kompaniyalari ishtirokida iqtisodiyotning turli tarmoqlarida istiqbolli loyihalarni birgalikda amalga oshirish, turizm sohasidagi hamkorlikni fallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonning Samarqand shahrida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risidagi tashabbusi Amirliklar tomonidan qo'llab-quvvatlangani yuqori baholandi. BAA delegatsiyasining tashrifi davomida Madaniy hamkorlik to'g'risida hukumatlararo anglashuv memorandumini imzolanganini mamnuniyat bilan qayd etildi.

\* \* \*

**24-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlabchiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006-yil 5-yanvardagi PF-3706-sonli farmonga o'zgartirish kiritish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kasanachilikni yanada rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**25-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Barkamol avlod» sport o'yinlari qatnashchilariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**25-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning to'rtinchi majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan Turkiya Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari Yildirim Tug'rul Turkeshni qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekistonda to'qimachilik, charm, kimyo va farmasevtika sohalari, qurilish materiallari sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va boshqa yo'nalishlarda, jumladan, «Urgut» erkin iqtisodiy zonasi doirasida yuqori texnologiyali zamo-

naviy korxonalarni tashkil etish bo'yicha aniq loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun Turkiyaning yetakchi kompaniyalari bilan amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Turizm sohasida o'zaro hamkorlik, xususan, zamonaviy sayyohlik obyektlari inf-ratuzilmasini rivojlantirish, birgalikda sayyohlik mahsulotlarini taklif etish, sohada malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ulkan salohiyat mavjudligi ta'kidlandi. Toshkentda O'zbekiston va Turkiya kompaniya hamda korxonalari ishtirokida bo'lib o'tgan Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning navbatdagi majlisi va Investitsiya forumi natijalari, o'zaro sheriklikning istiqbolli yo'nalishlari va qariyb 2 milliard dollarlik hamkorlik loyihalari belgilangani mamnuniyat bilan qayd etildi.

\* \* \*

**26-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Shayxontohur tumanida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi va dastlab Shayxontohur tumanidagi «Suzuk ota» maqbarasi va jome masjidida bo'ldi.

Prezidentimiz mutasaddilarga maqbara va masjidni rekonstruksiya qilish, atrofni obodonlashtirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Shavkat Mirziyoyev 1970-yillarda qurilgan «Toshkent issiqlik markazi» aksiyadorlik jamiyatining 3-issiqlik markazida bo'ldi. Bugungi kunda qozonxona va tarmoqlar texnik va ma'nan eskirgani sabab-

li iste'molchilarga issiqlik yetkazib berishda ayrim muammolar yuzaga kelmoqda. Shuni hisobga olib, Toshkent shahrini to'liq energiyani tejaydigan lokal qozonxonalarga o'tkazish zarur, dedi Prezidentimiz.

Shu yerda Shayxontohur tumanida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilishi rejalashtirilgan istiqbolli loyihalar taqdimoti bo'lib o'tdi.

Shavkat Mirziyoyev Beltepa va Jarariq ko'chalari kesishgan joyda barpo etilayotgan ko'ngilochar istirohat bog'i qurilishini ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz ko'rsatmasiga muvofiq poytaxtimizda bunyod etiladigan Qoraqamish istirohat bog'i, «Eski shahar» savdo markazi, ko'p qavatli turar joylar, talabalar milliy ilmiy-ma'rifiy markazi, Islom sivilizatsiyasi markazi loyihalari yanada takomillashtirildi.

Islom Karimov ko'chasida 3,5 ming o'rinli Universal sport saroyi, Muxtumquli ko'chasida Ashxobod bog'i, Shayxontohur tumanida zamonaviy savdo markazi, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida Yozuvchilar uyushmasi binosini qurish bo'yicha loyihalar ishlab chiqildi. Ushbu loyihalar qurilishini tezlashtirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

Prezidentimiz raisligida Davlat soliq qo'mitasi binosida o'tgan yig'ilishda Toshkent shahri va tumanlar hokimlari, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari, poytaxt jamoatchiligi vakillari ishtirok etdi. Yig'ilishda aholiga barcha zarur

sharoitlar yaratish, yangi ish o'rinlari tashkil etish, kommunikatsiya tizimlarini yangilash, hududlarni obodonlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va boshqa dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**26-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jeneral Motors O'zbekiston» AJ ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga narxlar shakllanishini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017 – 2021-yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**29-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston, Qozog'iston, Rossiya, Xitoy mamlakatlari tashriflari davomida hamda Turkiya rahbari bilan o'tkazilgan oliy darajadagi uchrashuvlari yakunlari bo'yicha imzolangan bitimlar, shartnomalar va muayyan sohalarda

o'zaro sheriklikni rivojlantirishga doir loyihalarni amalga oshirish jarayonining holatini tahlil qilish va baholashga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Majlisda Bosh Vazir, uning o'rinbosarlari, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirok etdi. Yig'ilishni Prezident Shavkat Mirziyoyev boshqardi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston rasmiy delegatsiyasining Turkmaniston, Qozog'iston, Rossiya va Xitoyga joriy yildagi tashriflari 2016-yilgi Prezident saylovidan keyingi ilk xorijiy safarlar bo'lib, ularning natijalari strategik sheriklar bilan o'zaro munosabatlarni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy hamkorlik ko'lamini yanada kengaytirishga xizmat qilayotganini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari yig'ilishda hisobot bergan mutasaddi rahbarlar o'z mas'uliyatini keskin oshirishi zarurligini, bajarilmayotgan va kechikayotgan loyiha va shartnomalar uchun ular shaxsan javobgar ekani alohida ta'kidladi. Har bir loyihaning bajarilishi bo'yicha birinchi galdagi chora-tadbirlarni aniq-ravshan belgilash, moliyalashtirish va ijro jarayonlari bo'yicha zamonaviy va tizimli asosda monitoring olib borish yuzasidan topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**30-may.** Toshkent shahrida videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda 2017-yilgi investitsiya dasturiga kiritilgan va Prezident Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz hududlariga tashriflari davomida ishlab chiqilgan investitsiya loyiha-

larini amalga oshirish borasidagi ishlarining holatini tanqidiy tahlil qilish va baholash masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari investitsiyalar hajmini izchil ko'paytirib borish, zamonaviy ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, muhim ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, eng asosiysi, aholining hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilashning hal qiluvchi omili ekanini ta'kidladi.

Yig'ilishda ayrim tarmoqlar va hududlar rahbarlarida mas'uliyat, talabchanlik va tashabbuskorlik yetishmayotgani, buning oqibatida ko'pgina investitsiya loyihalarini amalga oshirishda sustkashlikka yo'l qo'yilayotgani qattiq tanqid qilindi.

Yig'ilishda Vazirlar Mahkamasi komplekslari, vazirlik va idoralar, kompaniya va uyushmalar, hokimliklar rahbarlarining hisobotlari, takliflari eshitildi va muhokama qilindi, investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish, mavjud muammolarni hal etish yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**31-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartishlar kiritish (80-, 93-, 108- va 109-moddalariga) to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**31-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**31-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**31-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**1-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Favqulodda vaziyatlarining oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha Xalqaro agentlik Ustavini (Bonn, 2009-yil 26-yanvar) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**1-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o'rtasida



strategik sheriklik to'g'risidagi Shartnomani (Ashxobod, 2017-yil 6-mart) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**1-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi – bir tomondan va Yevropa Hamjamiyatlari hamda ularga a'zo davlatlar – ikkinchi tomondan – o'rtasida sherikchilik ta'sis etuvchi, Sherikchilik va Hamkorlik to'g'risidagi Bitimga ikki tomonlama to'qimachilik Shartnomasining amal qilish muddati tugaganini hisobga olib, Bitim qoidalarini to'qimachilik mahsulotlarining ikki tomonlama savdosiga kengroq ko'lamda qo'llash maqsadida Bitimga o'zgartirish kiritish to'g'risida Bayonnomani (Toshkent, 2011-yil 7-aprel) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**1-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat veterinariya xizmati boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yong'oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**2–3-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, investitsiya loyihalari ijrosining borishi bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Andijon viloyatiga tashrif buyurdi va dastlab «Bog'i Bobur» istirohat bog'i bilan tanishdi. Prezidentimiz muzey eksponatlarini ko'zdan kechirdi. Olimlar va nuroniylar bilan muloqotda bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev «Andijon biokimyo zavodi» aksiyadorlik jamiyati tomonidan Xo'jaobod tumanida tashkil etilgan bog'ni borib ko'rdi. Prezidentimiz o'rmon xo'jaligini rivojlantirishga oid qaror mazmun-mohiyati haqida to'xtaldi. Andijon qishloq xo'jaligi instituti va tegishli kollejlarda o'rmonchilik sohasida malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Shu yerda Qo'rg'ontepa tumanidagi «Bog'i Furqat» fermer xo'jaligi bazasida qishloq xo'jaligi urug'chiligi va ko'chatchilikni rivojlantirish loyihasi namoyish qilindi.

Shavkat Mirziyoyev Xo'jaobod tumanidagi «Navigul» qo'shma korxonasi hududida tashkil etiladigan meva-sabzavotlarni qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan yirik logistika kompleksi loyihasi bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari korxonaning dastlabki bosqichi – meva-sabzavotlarni quritish liniyasining ish boshlashiga bag'ishlangan ramziy tugmani bosdi. Texnologik liniyaning ish jarayonini kuzatdi. Quritilgan mahsulotlar namunalari bilan tanishdi.

Asaka tumanidagi «Obod turmush orzusi» fermer xo'jaligida tashkil etiladigan meva-sabzavotlarni quritish va muzlatkich tashkil etish, «O'zbekoziqovqatxolding» kompaniyasi va tijorat banklari hamkorligida 2017–2018-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan oziqovqat sohasini rivojlantirish dasturi loyihalari namoyish etildi.

Davlatimiz rahbariga «O'zbek charmpoyabzali» uyushmasi va tijorat banklari hamkorligida viloyatda 2017–2018-yillarda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan charmpoyabzal sohasini rivojlantirish dasturi va sohaga doir boshqa loyihalar, bozorlar infratuzilmasini yanada rivojlantirish bo'yicha rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar haqida ham ma'lumot berildi.

Prezidentimiz «Xonobod» sanatoriysini borib ko'rdi. Sanatoriya hududini obodonlashtirish, qurilish ishlarini oxiriga yetkazib, sihatgohni kelgusi yili Navro'z bayramiga foydalanishga topshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Xonobod shahrini har tomonlama rivojlantirish, aholi bandligi va farovonligini oshirish masalalariga e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari Bo'z tumani «Chorvador» mahalla fuqarolar yig'ini hududida qurilgan namunaviy uylarni borib ko'rdi. Akmal va Zilolaxon Rahmonovlar xonadonida bo'lib, yaratilgan sharoitlar, oilaning turmushi, farzandlar tarbiyasi bilan qiziqdi.

«O'zbekyengilsanoat» aksiyadorlik jamiyati va tijorat banklari hamkorligida Andijon viloyatida

2017–2018-yillarda 19 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Buning natijasida tarmoqning eksport salohiyati 2,8 barobar oshadi, qariyb 9 ming 850 ish o'rni yaratiladi. Prezidentimiz mazkur loyihalarining tashabbuskori bo'lgan tadbirkorlar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz Oltinko'l tumani-dagi «Baxt imkon rivoj chorvasi» ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi faoliyati bilan tanishdi.

Ulug'nor tumanida tashkil etiladigan 2000 bosh qoramol va 10 000 bosh naslli echki boqishga mo'ljallangan chorvachilik kompleksi va sutni qayta ishlash loyihasining taqdimoti bo'lib o'tdi. Loyiha haqida batafsil ma'lumot berildi.

Oltinko'l tumanida tomorqalardan unumli foydalanish borasida ilg'or tajriba to'plangan. Ayniqsa, «Ko'makay», «Cho'ntak» mahalla fuqarolar yig'inlarida ish namunali yo'lga qo'yilgan. Davlatimiz rahbari tijorat banklari va tadbirkorlar tomonidan aholi xonadonlariga limon, unabi va yong'oq ko'chatlari va parranda yetkazib berish dasturining ushbu tuman misolidagi taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari raisligida Andijon viloyati hokimligida o'tgan yig'ilishda viloyat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, aholi turmush darajasini oshirish, aholi bandligini ta'minlash, Harakatlar strategiyasining ijrosi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz Andijon viloyatiga safarining ikkinchi kuni shahar-

dagi «Yoyilma» mahalla fuqarolar yig'ini hayoti bilan tanishdi. Mahalla fuqarolar yig'ini guzari qurilishi loyihasi, hududda amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Andijon shahrida amalga oshiriladigan bunyodkorlik ishlari loyihalari taqdimoti o'tkazildi. Shahar bosh rejasiga muvofiq hududni kengaytirish rejalashtirilgan. Ko'p qavatli uy-joylar, universal sport majmuasi, ta'lim, tibbiyot va sport muassasalari qurilishi mo'ljallangan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Andijon shahrida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf xiyoboni va maktabi tashkil etilmoqda. Bu boradagi rejalar bilan tanishuv chog'ida xiyobonda Muhammad Yusuf haykalini o'rnatish, maktab faoliyatini zamon talablari asosida yo'lga qo'yish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Andijon shahrida Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya va Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari filiallarini tashkil etish, viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasini rekonstruksiya qilish va zamonaviy jihozlash rejalashtirilgan. Aholining hayoti, salomatligi bilan bog'liq bu shifoxonalarni tezroq ishga tushirish, viloyat tumanlarida ularning subfiliallarini tashkil etish, malakali mutaxassislar tayyorlash, profilaktika ishlarini kuchaytirish bo'yicha zarur ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari sobiq «Andijonmash» aksiyadorlik jamiyatida

bo'ldi. Bu yerda tashkil etilishi rejalashtirilayotgan kichik sanoat zonasini loyihasi bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari bu yerda tadbirkorlar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz «O'zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi Andijon viloyatida amalga oshirishni rejalashtirgan loyihalar bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Andijon viloyatidagi Xalq qabulxonasini borib ko'rdi.

\* \* \*

**3-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sud va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi xodimlarining mansab darajalari to'g'risidagi nizomga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**8-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi-ning navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun Qozog'iston poytaxti Ostona shahriga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ShHT

sammiti doirasida o'zi uchun ajratilgan qarorgohda Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Navoz Sharif, Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G'ani bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Navoz Sharif bilan uchrashuvda mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning bugungi holati va uni yanada rivojlantirish istiqbollari, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G'ani o'rtasida bo'lib o'tgan muloqotda o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisi munosabati bilan «Ostona opera» davlat opera va balet teatrida namoyish etilgan konsertni tomosha qildi.

\* \* \*

**9-iyun.** Sammit Ostona shahri-ning Mustaqillik saroyida ShHTga a'zo davlatlar rahbarlarining tor doiradagi majlisi bilan boshlandi. Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev raisligida o'tgan majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Almazbek Atamboyev, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tojikis-

ton Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon ishtirok etdi.

Majlisda ShHT va uning tuzilmalari faoliyatini yanada takomillashtirish, Tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, terrorism, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashish, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. ShHTning 2025-yilgacha rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha 2016–2020-yillarga mo'ljallangan harakatlarning rejasini tasdiqlash to'g'risidagi qaror, ShHTga a'zo davlatlarning turizm sohasidagi hamkorligini rivojlantirish dasturi va boshqa hujjatlar ijrosiga e'tibor qaratildi.

Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi. Davlatimiz rahbari Afg'onistondagi vaziyatni tezroq barqarorlashtirish butun mintaqamizda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etdi. Samarqand shahrida Islom hamkorlik tashkiloti ko'magida Imom Buxoriy nomidagi xalqaro tadqiqot markazining tashkil etilishi millatlararo, madaniyatlararo munosabatlarni mustahkamlashda muhim qadam bo'ladi, dedi davlatimiz rahbari.

O'zbekiston ShHTga a'zo davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash tarafdori ekani, Xitoyning «Bir makon – bir yo'l» tashabbusi doirasida keng ko'lamli loyihalarni hamkorlikda

amalga oshirishga alohida ahamiyat qaratilishi, Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston temir yo‘lining qurilishi mamlakatlarimizning jahon bozoriga qisqa yo‘llar orqali chiqish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim o‘rin tutishi ta’kidlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ShHT davlatlari temiryo‘l sohasi rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini tashkil qilish zarurligiga e’tibor qaratdi. ShHT markazlari – xalq diplomatiyasining doimiy faoliyat yurituvchi institutlarini ta’sis etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishni taklif qildi.

Tashkilotning 2016-yilgi Toshkent sammitida Hindiston Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasining ShHTga a’zo davlat maqomini olish yo‘lidagi majburiyatlari to‘g‘risidagi memorandumlar imzolangan edi. Ostona sammitida Hindiston va Pokiston tashkilot a’zolicigiga qabul qilindi.

Sammit yakuni bo‘yicha Ostona deklaratsiyasi qabul qilindi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda sammit samarali o‘tgani, imzolangan hujjatlar ShHT mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga xizmat qilishi ta’kidlandi.

Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislik Xitoy Xalq Respublikasiga o‘tdi.

Prezidentimiz ShHT sammiti doirasida qator davlatlar rahbarlari bilan uchrashdi.

Jumladan, Qirg‘iziston Prezidenti Almazbek Atamboyev bilan uchrashuvda bu galgi muloqot davlatla-

rimiz o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash va kengaytirishda muhim bosqich bo‘lishi, Samarqanddagi uchrashuvda erishilgan kelishuvlarni mazmunan boyitishi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Hindiston Bosh vazirini ushbu davlatning ShHT a’zolicigiga qabul qilingani munosabati bilan tabrikladi. Narendra Modi O‘zbekiston Hindistonni ShHTga a’zolicikka qabul qilish to‘g‘risidagi taklifni qat’iy qo‘llab-quvvatlab kelgani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ispaniya Qirol Filipp VI bilan uchrashdi. O‘zbekiston rahbari mamlakatlari o‘rtasidagi an’anaviy do‘stlik munosabatlari uzoq o‘tmishga borib taqalishini ta’kidladi. Shavkat Mirziyoyev va Filipp VI o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari muhokama etib, xalqaro ahamiyatga ega dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar. Ispaniya turizm sohasida ulkan natijalarga erishgan va bu borada jahon miqyosida ilg‘or tajribaga ega. Shu munosabat bilan tomonlar ushbu sohada uzoq muddatli tizimli hamkorlik o‘rnatish imkoniyatlarini muhokama qildilar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Ekspo – 2017» xalqaro ixtisoslashtirilgan ko‘rgazmaning rasmiy ochilish marosimida ishtirok etdi. Shu bilan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘istonga tashrifi nihoyasiga yetdi.

\* \* \*

**10-iyun.** Samarqand shahridagi Forumlar majmuasida Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrishning uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan BMT va uning tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning bugungi holati va uni rivojlantirish istiqbollari, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar, jumladan, Orol dengizi ekologik inqirozining oqibatlarini yumshatishga doir masalalar muhokama etildi. Global xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etish masalalari ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**10-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Samarqand viloyatida bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov qabrini ziyorat qildi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 25-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to'g'risida»gi qarori ijrosi bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Islom Karimov dafn etilgan hududda yodgorlik majmuasi barpo etilmoqda. Prezidentimiz majmuadagi

qurilish jarayonini ko'zdan kechirdi. Davlatimiz rahbari majmuani yanada takomillashtirish, ziyoratchilar uchun barcha qulayliklar yaratish bo'yicha tavsiyalar berdi.

Shavkat Mirziyoyev Imom Buxoriy yodgorlik majmuasiga tashrif buyurdi. Bu yerda Imom Buxoriy nomidagi xalqaro tadqiqot markazi bunyod etiladi. Markazning umumiy konsepsiyasi, atrofini obodonlashtirish bo'yicha qilinadigan ishlar loyihasi haqida ma'lumot berildi.

Prezidentimiz tashkil etiladigan markaz Toshkent islom universiteti bilan yaqin hamkorlik qilishi, uning faoliyatida xorijiy davlatlardan islom madaniyati bo'yicha yetuk mutaxassislar ishtirokini ta'minlash zarurligini qayd etdi.

Shavkat Mirziyoyev Payariq tumanidagi «To'polos» fermer xo'jaligiga tashrif buyurib, fermer va dehqonlar bilan muloqotda bo'ldi. Prezidentimiz qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi bilan qiziqdi. Paxta va g'alla maydonlarini ko'zdan kechirdi.

Shavkat Mirziyoyev raisligida viloyat rahbarlari, mutasaddilari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda viloyat iqtisodiyotini yuksaltirish, yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, istiqboldagi dolzarb vazifalar muhokama qilindi.

\* \* \*

**12-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Na-

zarboye v o'rtasida telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi.

Davlat rahbarlari o'zaro hamkorlik, mintaqaviy va xalqaro siyosatga oid dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

\* \* \*

**12-iyun.** Toshkent shahrida videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda joriy yilning birinchi yarim yilligi bo'yicha kutilayotgan natijalarni oldindan tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni tezkorlik bilan bartaraf etgan holda, barcha soha va tarmoqlarda belgilangan prognoz ko'rsatkichlari va maqsadli parametrlarga erishishni ta'minlash borasidagi vazifalar muhokama qilindi.

Majlisda mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha belgilab olingan strategik vazifalarni amalga oshirish yuzasidan joriy yilning o'tgan davrida erishilgan ijobiy natijalar e'tirof etilib, bugungi islohotlar jarayonidagi kamchilik va muammolar, ularni hal etish yo'llari, ijro intizomini mustahkamlash masalalari atroflicha tahlil qilindi. Jumladan, davlat boshqaruvi organlari tizimida to'planib qolgan muammolarni hal etish, ushbu tizimni tubdan takomillashtirish va samarasini oshirish bo'yicha keyingi paytda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi. Bu borada, ayniqsa, 22 vazirlik, davlat qo'mitasi, kompaniya, uyushma va boshqa tuzilmalar yangidan yoki qayta tashkil etilgani, Vazirlar Mahkamasi

komplekslari tarkibidagi o'nlab idoralar tuzilmasi o'zgartirilib, ularning asosiy vazifa va funksiyalariga aniqliklar kiritilgani muhim amaliy qadam sifatida qayd etildi. Ayni paytda mazkur o'zgarishlar hamma sohada ham kutilgan natijalarni bermayotgani, ba'zi yangi vazirlik va idoralar o'z faoliyatini hanuzgacha samarali yo'lga qo'ymagani, bu esa 2017-yil uchun belgilangan dasturlar ijrosini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani tanqid qilindi.

Yig'ilishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohot va davlat dasturlarining pirovard maqsadi aholi turmush darajasi va sifatini oshirishga, ularning og'irini yengil qilish va xalq dasturxonining to'kin-sochin bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgani alohida ta'kidlandi.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan Vazirlar Mahkamasi komplekslari, vazirlik va idoralar, xo'jalik birlashmalari rahbarlari, viloyatlar, tuman va shaharlar hokimlarining hisobotlari atroflicha muhokama etilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

\* \* \*

**13-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlari ni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**13-iyun.** Toshkent shahrida sud organlari tizimida odil sudlovni

ta'minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va istiqboldagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Majlisda adolat va ma'naviyat — o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalar ekani, ma'naviyat bo'lmagan joyda hech qachon adolat bo'lmasligi, shuning uchun ham sudyalari, yurist kadrlarni tayyorlash va sudyalik lavozimiga tayinlashda bu masalaga alohida e'tibor qaratish lozimligi uqtirib o'tildi.

Sudya lavozimida faoliyat ko'rsatayotgan sud xodimlari o'z faoliyati yuzasidan Xalq deputatlari mahalliy kengashlarida axborot berishi bilan bog'liq amaliyotni yo'lga qo'yish vaqti kelgani qayd etildi.

Yig'ilishda sudyalarni kasbga tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish masalasi ham atroflicha muhokama qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik bugungi kunda davlat boshqaruvi organlarida faoliyat ko'rsatayotgan barcha insonlar qatori sudyalari faoliyatining ham kundalik qoidasi bo'lib qolishi zarurligini alohida ta'kidladi.

\* \* \*

**15-iyun.** Toshkent shahrida «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi» mavzusida anjuman bo'lib o'tdi. Tadbirda O'zbekiston

musulmonlari idorasi rahbarlari, din arboblari, «Nuroni» va «Mahalla» jamg'armalari, Xotin-qizlar qo'mitasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faollari, hokimliklar, huquq-tartibot idoralari vakillari, ilm-fan hamda madaniyat namoyandalari, islomiy ta'lim muassasalari mutasaddilari va talabalari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning anjumandagi ma'ruzasi «Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik» degan sarlavha bilan matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**16-iyun.** Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida poytaxtimizning Uchtepa tumani-da bo'ldi hamda dastlab u yerda bunyod etilishi rejalashtirilayotgan ko'ngilochar va istirohat bog'i loyihasi bilan tanishdi.

Mazkur istirohat bog'i loyihasini yanada takomillashtirish, zamonaviy gipermarket bunyod etish, unda kinoteatr, kutubxona va boshqa dam olish maskanlari bo'lishi zarurligini ta'kidlab, mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz tumandagi 1967-yilda qurilgan 78-maktabni borib ko'rdi.

Maktab bilan kollejlari o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash, xususan, ushbu maktabda tajriba si-



fatida 11 yillik ta'limni qayta tiklash, uning qoshida o'quv-kasb kursi tashkil etish zarurligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari tumanning Vatanparvar mahallasidagi «Vatanparvar inoq kommunalchi» xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati faoliyati bilan tanishdi. Prezidentimiz xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati rahbari va shu yerda yashovchilar bilan shirkat faoliyati, ko'p xonadonli turar-joylarda aholining uy-joy sharoitini yaxshilash bo'yicha qilinayotgan ishlar haqida suhbatlashdi.

Uchtepa tumanidagi sobiq «Signal» zavodi hududida ish boshlaydigan kichik korxonalarda plastmassa mahsulotlari, energiyatejamkor lampalar, transformator podstansiyalari, tikuv va trikotaj mahsulotlari, zamonaviy mebel kabi mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Prezidentimiz raisligida O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida shahar, tuman faollari, mutasaddi tashkilotlar vakillari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda aholi turmush darajasini yanada oshirish, bandlikni ta'minlash, ta'lim masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**19-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ramazon hayitini nishonlash to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**20-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017–2021-yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**21-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mahalliy eksport qiluvchi tashkilotlarni yanada qo'llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**22–23-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, yangi loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Farg'ona viloyatiga tashrif buyurdi hamda dastlab Farg'ona asalarichilik ishlab

chiqarish o'quv markaziga tashrif buyurdi. Shavkat Mirziyoyev markazda amaliyot o'tayotgan kollej o'quvchilari bilan Farg'ona asalarichiligi tarixi, asalning shifobaxsh xususiyatlari, ta'lim jarayonida olib borilayotgan islohotlar haqida suhbatlashdi.

Shu yerda Xalq banki tomonidan viloyatda amalga oshiriladigan loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi. «O'zbekipaksanoat» uyushmasi tomonidan Farg'ona viloyatida 2017–2021-yillarda ipakchilikni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgani ma'qullandi.

Prezidentimiz Farg'ona tumanidagi «Mindonobod agrosanoat» uzumchilikka ixtisoslashgan agrofirmasiga tashrif buyurib, viloyat qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi.

Shu yerda «O'zvinosanoat xolding» kompaniyasi tomonidan 2017–2018-yillarda Farg'ona viloyatida amalga oshiriladigan loyihalar to'g'risida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari Uchko'prik tumanidagi sobiq konserva zavodi negizida amalga oshirilayotgan loyihani ham ko'zdan kechirdi.

Shavkat Mirziyoyev Erkin Vohidov nomidagi Marg'ilon shahar madaniyat va istirohat bog'ini rekonstruksiya qilish loyihasi bilan tanishdi. Prezidentimiz qahramon shoirimiz nomi bilan ataladigan ushbu bog' har tomonlama mukammal bo'lishi, uni yoshlar ma'naviyatini yuksaltiradigan maskanga aylantirish zarurligini ta'kidladi.

Shu yerda Farg'ona viloyati shaharlari va tuman markazlarini zamonaviy shaharsozlik talablari asosida rivojlantirishning bosh rejasi, Marg'ilonda turizmni rivojlantirish dasturi, tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan loyihalar taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Davlatimiz rahbari Marg'ilon hunarmandlar markazini tashkil etish, soha xodimlari uchun qulay soliq imtiyozlari, zarur shart-sharoitlar yaratish, boshqa loyihalarni ham yanada mukammallashtirish, qurilish ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

22-iyun kuni Marg'ilondan Qo'qonga ilk bor elektropoyezd harakati yo'lga qo'yildi. Prezidentimiz ushbu poyezdda Qo'qonga keldi. Bu turdagi zamonaviy transport harakati Farg'ona vodiysi hayotida tarixiy voqea bo'ldi. Prezidentimiz tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan ushbu elektrichka harakati yaqin kunlarda yanada kengayadi va Qo'qon, Marg'ilon, Andijon shaharlari o'rtasida qatnay boshlaydi. Bu aholi uchun juda katta qulaylik yaratadi.

Shavkat Mirziyoyev Qo'qon shahridagi «Shaffof metan sanoat» mas'uliyati cheklangan jamiyatida iqtisodiy loyihalar bilan tanishdi. Qo'qon shahrida hunarmandlikni va turizmni rivojlantirish borasida ham qator loyihalar belgilangan. Jumladan, hunarmandlik va zargarlik markazlari tashkil etish, zamonaviy mehmonxona qurish rejalashtirilgan.

Shavkat Mirziyoyev «Imano grupp» korxonasi negizida poliure-

tan qoplamali tayyor charm ishlab chiqarish investitsiya loyihasi bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Qo‘qon shahar teatrini borib ko‘rdi. Prezidentimiz ijodkorlar bilan muloqotda teatrning xalq orasidagi obro‘yi va nufuzini yanada oshirish bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi institutining Farg‘ona filiali tajriba xo‘jaligida bo‘lib, g‘alla o‘rimi va g‘o‘za parvarishini ko‘zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari g‘alla yig‘imterimida ishtirok etayotgan fermerlar bilan muloqot qildi.

Farg‘ona shahrida Prezidentimiz raisligida mutasaddi rahbarlar va viloyat faollari ishtirokida yig‘ilish o‘tkazildi. Unda viloyat iqtisodiyotini yangi bosqichga ko‘tarish, infratuzilmani rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, aholini ish bilan ta‘minlash va turmush darajasini yanada oshirish masalalari muhokama qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashrifining ikkinchi kuni Farg‘ona shahridagi Ahmad Farg‘oniy nomidagi madaniyat va istirohat bog‘ida barpo etilgan Nuroniylar maskanini borib ko‘rdi.

Davlatimiz rahbari Farg‘ona mexanika zavodi hududida kichik sanoat zonasi tashkil etish, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish loyihalari bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari mazkur korxonada mahsulotlari namularini ko‘zdan kechirdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlari jadal rivojlanishi natijasida elektr energiyasiga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Farg‘ona politexnika instituti viloyatdagi ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlikda MikroGES ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi loyihasini taklif etdi. Davlatimiz rahbari ushbu loyiha ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish borasida olib borilayotgan izlanishlarning yaqqol namunasi ekanini ta‘kidlab, mikroGESlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish va boshqa hududlarga ham joriy etish bo‘yicha tavsiyalar berdi.

Shu yerda Farg‘ona viloyati sanoatini rivojlantirishning manzilli dasturi taqdimotlari o‘tkazildi.

\* \* \*

**23-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan respublika Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrik yo‘lladi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma olti yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Toshkent shahrida videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda 2017-yil birinchi yarim yilligida eksport dasturining ijrosi, mahalliy mahsulotlarni yangi xorijiy bozorlarga sotish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini eksportga yo'naltirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev eksport sohasidagi ishlar ahvolini atroflicha tahlil qildi. Mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilarining an'anaviy tashqi bozorlardagi o'rnini mustahkamlash va kengaytirish, yangi tashqi bozorlarni o'zlashtirish bo'yicha tizimli ishlarni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi komplekslari, tarmoqlar va hududlar rahbarlariga har bir tarmoq va hudud bo'yicha eksport strategiyasini ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

Yig'ilishda tashqi bozorlarda samarali faoliyat yuritish uchun zamonaviy infratuzilmani yaratish, korxonalar va tashkilotlar tomonidan xorijiy mamlakatlarda tashkil etilgan savdo uylari va logistika markazlari ishini yanada faollashtirish, davlatimiz elchixonalarining savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha ishlarini takomillashtirish masalalari muhokama qilinib, tegishli vazifalar belgilab olindi.

\* \* \*

**28-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy

tashrif bilan kelgan Rossiyaning «Lukoil» kompaniyasi prezidenti Vagit Alekperovni qabul qildi.

Uchrashuvda uzoq muddatli hamkorlikning amaldagi loyihalarini amalga oshirish va istiqbolli loyihalarni tayyorlash masalalari atroflicha muhokama qilindi. Qazib olinadigan tabiiy gazni chuqur qayta ishlashga doir yangi loyihalar, shuningdek, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha hamkorlikka alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**29-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi. Davlatimiz rahbari suhbat avvalida Turkmaniston Prezidentini 60 yillik tavallud ayyomi bilan samimiy muvohabat etdi.

Prezidentlar strategik sheriklikning yuksak darajasiga erishish imkonini bergan yaqin va samarali o'zaro hamkorlik bo'yicha to'plangan tajriba ikki tomonlama aloqalarning mavjud ulkan salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qilayotganini ta'kidladilar.

Tomonlar mintaqaviy va xalqaro siyosatning o'zlarini qiziqtirgan dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashdilar.

\* \* \*

**29-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Termiz filiali faoliyati-

ni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-iyun.** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, yangi loyihalar bilan tanishdi.

Dastlab «Krantas Group» zavodiga tashrif buyurib, qurilish uchun maxsus texnika ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari shu yerda tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan loyihalar bilan tanishdi. Tuman hududida joylashgan ilm va ta'lim muassasalari salohiyatidan samarali foydalanish, aholi turmushi uchun qulay sharoitlar yaratish, mavzelnari obodonlashtirish, loyihalarni moliyalashtirish uchun mahalliy budjet daromadlarini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash va eksport hajmini ko'paytirish masalalari muhokama qilindi.

Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahri saylovchilari bilan uchrashuvida ilgari surgan tashabbusiga muvofiq axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yuritadigan Mirzo Ulug'bek innovatsion markazini tashkil etish, O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy etish bo'yicha kompleks dasturlar, tijorat banklari tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar taqdimotlari o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasida bo'lib, u yerdagi sharoitlar bilan tanishdi. 2017–2021-yillarda IIV akademiyasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha loyihalarni ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz Mirzo Ulug'bek tumani ichki ishlar bo'limi qoshidagi 8-shahar ichki ishlar bo'limi xodimlari bilan muloqot qildi, zamonaviy texnologiyalar bo'yicha amalga oshirilayotgan ish jarayoni bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev «Katta Qorasuv» mahallasida ham bo'ldi. Davlatimiz rahbari mahalla oqsoqollari bilan yoshlar tarbiyasi, aholi bandligini ta'minlash, mahallada jinoyatchilikning oldini olish borasida olib borilayotgan ishlar haqida suhbatlashdi. Mahalla qoshidagi «Kristall» bolalar raqs to'garagi ishtirokchilari turli raqslar ijro etdi. Yosh iste'dod egalariga musiqa asboblari sovg'a qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida Mirzo Ulug'bek tumani faollari, mutasaddi tashkilotlar vakillarining yig'ilishi bo'ldi. Unda aholi turmush farovonligini yanada oshirish, bandligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**30-iyun.** Toshkentdagi Simpoziumlar saroyida O'zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi. Davlati-

miz rahbarining ushbu anjumandagi ma'ruzasi «Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar — ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir» sarlavhasi bilan matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**30-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**3-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Seul shahri meri Pak Von Sunni qabul qildi.

Yuqori martabali mehmon Prezidentimizga Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning ushbu mamlakatga joriy yilning oxirigacha davlat tashrifi bilan borish taklifini shaxsan topshirish uchun Toshkentga kelgan.

Davlatimiz rahbari taklifni mamnuniyat bilan qabul qilar ekan, bugun O'zbekiston bilan Janubiy Koreyani do'stlik rishtalari, o'zaro manfaatli hamkorlik va strategik sheriklik munosabatlari mustahkam bog'lab turganini alohida ta'kidladi.

Mamlakatlarimiz poytaxtlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikning istiqbolli loyiha va dasturlarini tayyorlash va amalga oshirish maqsadida muntazam tashriflar almashish to'g'risida kelishuvga erishildi.

\* \* \*

**4-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Toshkent shahrida yig'ilish o'tkazildi. Unda Vazirlar Mahkamasining Kommunal xizmatlar, transport, kapital qurilish va qurilish industriyasi masalalari kompleksi hamda Iqtisodiy rivojlantirish, tarkibiy o'zgartirishlar, investitsiyalar, bank va moliya tizimini isloh qilish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari kompleksi rahbarlari bilan birga, ushbu komplekslar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar rahbarlarining joriy yil birinchi yarim yilligi yakunlari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish choralari, shuningdek, ikkinchi yarim yillikdagi dolzarb vazifalar to'g'risidagi hisobotlari tinglandi va har tomonlama, atroflicha muhokama qilindi.

\* \* \*

**5-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida sog'liqni saq-

lash tizimini yanada takomillash-tirish, sohadagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish masalalariga bag'ishlangan video-selektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda hukumat a'zolari, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari, oliy tibbiyot o'quv yurtlari rektorlari, respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari direktorlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlar hokimlari, sog'liqni saqlash muassasalari rahbarlari ishtirok etdi.

Biz endi tibbiyot muassasasi, jumladan, patronaj xizmatining faoliyatiga soha amaldorlari emas, balki oddiy odamlar, aholining bevosita o'zi xolis baho beradigan tizim yaratishimiz kerak, dedi davlatimiz rahbari.

Yig'ilishda yana bir ustuvor yo'nalish — respublikamizda sog'liqni saqlash tizimining xususiy sektorini rivojlantirishning mavjud holati atroflicha muhokama qilindi. Lekin yaratib berilgan katta imkoniyatlarga qaramasdan, bu borada sustkashlikka yo'l qo'yilayotgani tanqidiy nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilindi.

Yig'ilishda sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarni izchil davom ettirish, ayniqsa, xususiy tibbiyot tarmog'ini kengaytirish bo'yicha ishlarning ahvoli uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari hamda tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari shaxsan mas'ul ekani alohida ta'kidlandi.

\* \* \*

**6-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi. Davlatimiz rahbari suhbat avvalida Qozog'iston Prezidentini tug'ilgan kuni bilan samimiy muborakbod etdi.

Suhbat chog'ida davlat rahbarlari joriy yilda oliy darajadagi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishning muhim jihatlari muhokama etdilar.

Tomonlar o'zlarini qiziqtirgan dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

\* \* \*

**7–8-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Namangan viloyatida bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 2-noyabr kuni Namangan viloyati saylovchilari bilan uchrashuvda Is'hoqxon Ibrat haqida alohida to'xtalib, unga atab zamonaviy bog' yaratish, yodgorlik majmuasi va «Ibrat maktabi»ni tashkil qilish tashabbusini bayon etgan edi. Bu taklif jamoatchilik tomonidan keng qo'llab-quvvatlangan edi. Prezidentimiz ushbu majmua qurilishini borib ko'rdi.

Shavkat Mirziyoyev To'raqo'rg'on tumanidagi Namangan ko'chasida

xalq ichiga kirib, odamlar bilan samimiy muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Mingbuloq tumanidagi «Mingbuloqneft» O'zbekiston – Xitoy qo'shma korxonasi tashrif buyurdi. Prezidentimiz ushbu korxonada mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirishda muhim o'rin tutishini ta'kidladi. Quruvchilar va xitoylik mutaxassislar bilan suhbatlashdi. Shu yerda Namangan viloyatida quriladigan gidroelektr stansiyalari loyihasi namoyish qilindi.

Davlatimiz rahbari To'raqo'rg'on tumanidagi «Gold Fresh Fruits» mas'uliyati cheklangan jamiyatida qishloq xo'jaligini rivojlantirish loyihalari bilan tanishdi. Shu yerda Uchqo'rg'on tumanidagi «Muhammadali hamkor biznes» mas'uliyati cheklangan jamiyatida 10 gektarda issiqxona va tomat pastasi ishlab chiqarish zavodi, Namangan shahridagi «Jahon javohiri invest» va Pop tumanidagi «Namangan agro logistic» MChJlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash hamda issiqxona tashkil etish loyihalari taqdimoti ham o'tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev Pop tumanidagi «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyatiga qarashli Ko'mir briketi ishlab chiqarish zavodiga tashrif buyurdi.

Tumanda shu sohada yana bir korxonada ishga tushirildi. Qiymati 7 million dollar bo'lgan mazkur loyiha natijasida yiliga 500 ming tonna ko'mir briketi ishlab chiqariladi. Prezidentimiz briket ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi. Bu yer-

da «O'zqurilishmateriallari» aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi.

Pop tumanida sement, shifer, asbest quvurlar, beton va yarim sintetik moylash materiallari, Kosonsoy va Yangiqo'rg'on tumanlarida sement, Namangan shahrida keramik plita va santexnika mahsulotlari, Pop, To'raqo'rg'on, Uychi, Yangiqo'rg'on tumanlarida pishiq g'isht, Chust tumanida pardozlash toshlari ishlab chiqarishni tashkil etish loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari Chust tumanida qurilayotgan O'simliklarni himoya qiluvchi kimyoviy vositalar ishlab chiqaruvchi zavod faoliyati bilan tanishdi. Shu yerda Namangan viloyati hududidagi past rentabeli adirlarda yong'oqzor, pistazorlar bunyod etish, paxta va g'alla maydonlarini kamaytirish hisobiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, kovul ekishni tashkil qilish, parrandachilik va echkichilikni rivojlantirish loyihalari taqdimoti ham bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Chortoq tumanidagi Sulton Uvays Qaraniy ziyoratgohini rekonstruksiya qilish loyihasi bilan tanishdi. Qadamjoni qadimiy usulda ta'mirlash, keng va obod ziyoratgohga aylantirish, ziyoratchilarga zarur sharoitlar yaratish, kutubxonada tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Chortoq tumanidagi chegara postini



borib ko'rdi. Prezidentimiz bu yerda xizmat qilayotgan harbiylar bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari Yangiqo'rg'on tumanidagi «Bo'ston» mahalla fuqarolar yig'inida mahalla ahli bilan suhbatlashdi.

Namangan shahrida Prezidentimiz raisligida mutasaddi rahbarlar va viloyat faollari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Unda viloyat iqtisodiyotini yangi bosqichga ko'tarish, infratuzilmani rivojlantirish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, aholini ish bilan ta'minlash va turmush darajasini yanada oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz tashrifining ikkinchi kuni Namangan tumanidagi «Merrymed Farm» mas'uliyati cheklangan jamiyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari «Nuroniylar jamg'armasining Namangan viloyati bo'limi yangi binosi va «Nuroniylar maskani»ni borib ko'rdi. Prezidentimiz bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Oqsoqollar bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida tashkil etilgan Gulchilar assotsiatsiyasi faoliyati bilan tanishdi.

Prezidentimiz Namangan shahri-ning Islom Karimov ko'chasida tashkil etiladigan madaniyat va istirohat bog'i loyihasi bilan tanishtirildi.

Davlatimiz rahbari shaharning Uychi ko'chasini obodonlashtirish, infratuzilmasini takomillashtirish, rekonstruksiya qilish borasida amal-

ga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Shu yerda Namangan shahrida namunaviy loyiha asosida bunyod etilayotgan sakkizta 7 qavatli arzon turar joy binosi, Farg'ona vodiysi temir yo'llarini elektrlashtirish konsepsiyasi, Namangan temiryo'l vokzalini yangidan qurish, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya va endokrinologiya ilmiy-amaliy markazlarining Namangandagi filiallari binolarini rekonstruksiya qilish, ularni malakali kadrlar va zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlash, Kosonsoy tumanida yoshlar va o'smirlar texnoparki bunyod etish loyihalari taqdimoti bo'ldi.

Prezidentimiz O'zbekiston Badiiy akademiyasining Namangan viloyatidagi badiiy ijodkorlar uyushmasi galereyasining rekonstruksiya qilingan binosi va bu yerdagi ko'rgazma bilan tanishdi.

Prezidentimiz 2-bolalar va o'smirlar sport maktabida mashg'ulotlarda qatnashayotgan badiiy gimnastikachi qizlar va bokschi yoshlar bilan muloqot qildi. So'ngra Namangan shahridagi «Orzu» mahalla fuqarolar yig'ini faoliyati, profilaktika inspektori yashash joyi bilan tanishdi.

\* \* \*

**10-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Sergeli tumanidagi qurilish ishlari uchta maydonda olib boril-

moqda. 6-mavzedagi 66 ta yetti qavatli uy qurilishi yakunlanish arafasida. Boshqa maydonlardagi 36 ta ko'p qavatli uyni qurish ishlari ham boshlab yuborilgan. Prezidentimiz ushbu uylardan biriga kirib, bu yerda yaratilayotgan sharoitlar bilan qiziqdi.

Shu yerda Sergeli tumanini kompleks rivojlantirish bo'yicha rejalar namoyish etildi.

Shavkat Mirziyoyev Sergeli tumanida amalga oshirilayotgan metro qurilishi bilan tanishdi. Yangi qurilayotgan metro bekatlarining dizayni, devorlariga ishlatiladigan qurilish materiallari, tasvirlardan namunalar namoyish etildi.

Sergeli tumanidagi Qipchoq ko'chasi aholi va transport harakatiga qulaylik yaratish maqsadida zamonaviy qilib kengaytirilmoqda. Ushbu ko'chani temiryo'l bilan kesishgan joyida uzunligi 1011, eni 28 metr bo'lgan yo'l o'tkazgich qurilishi rejalashtirilgan. Shavkat Mirziyoyev mazkur inshoot loyihasi bilan tanishdi.

Yo'l o'tkazgich ko'chadagi tirbandlikni bartaraf etib, avtomobil va poyezdlar harakati xavfsizligini ta'minlaydi. Qipchoq ko'chasi Yangi Sergeli aylanma yo'li bilan Toshkent halqa avtomobil yo'lini bog'lab, transport harakati uchun qo'shimcha qulayliklar yaratadi.

Prezidentimiz «Pallada investiment» qo'shma korxonasi tashrif buyurdi. Shavkat Mirziyoyev korxonada laboratoriyasi, ishlab chiqarish sexlarini ko'zdan kechirdi. Korxonada ishlab chiqarish hajmini

oshirish, yangi mahsulotlarni o'zlashtirish, eksport ko'lamini kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Toshkent shahri atrofida tezyurur elektrichka qatnovi yo'lga qo'yiladi. Davlatimiz rahbari ushbu temiryo'l qurilishi loyihasini ko'zdan kechirdi. Prezidentimiz mamlakatimizda bu yangi soha ekani, uni loyihalashtirishda ilg'or xorij tajribasini o'rganish, shu sohaga ixtisoslashgan mutaxassislarni jalb etish zarurligini alohida ta'kidladi.

\* \* \*

**10-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkentga amaliy tashrif bilan kelgan Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o'rinbosari — Tashqi ishlar vaziri Rashid Meredovni qabul qildi.

Suhbat davomida mamlakatlari-miz o'rtasida amaliy hamkorlikni kengaytirish, strategik sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan yangi yo'nalishlarni belgilash va istiqbolli loyihalarni birgalikda amalga oshirish masalalari muhokama etildi.

\* \* \*

**12-iyul.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida parlament palatalari, siyosiy partiyalar, O'zbekiston Ekologik harakati, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlari faoliyatining tahlili hamda istiqboldagi vazifalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma'ruza qildi. Davlatimiz rahba-

rining ma'ruzasi «Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak» sarlavhasi bilan matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**13-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mahalla iftixori» ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mehnat faxriysi» ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**15-iyul.** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Yunusobod tumaniga tashrif buyurdi. Dastlab Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasining Qo'riqlash boshqarmasi faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari «Shifo Nur» ko'p tarmoqli tibbiyot markazida bo'lib, shifokorlar va bemorlar uchun yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Kattalar va bolalarni davolash, ushbu yo'nalishda xorijning nufuzli klinikalari bilan hamkorlikni mustahkamlash, malakali mutaxassislarni jalb etish loyihasi bilan tanishdi.

Yunusobod kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kollejida 11 yillik maktab ta'limini tashkil etish loyihasi taqdimoti o'tkazildi. Unda mahalla faollari, ota-onalar ishtirok etdi.

Shu yerda O'zbekiston yoshlar ittifoqining bir guruh faollari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda iste'dodli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, uy-joy bilan ta'minlash, yosh kompozitorlar uyini tashkil etish va boshqa masalalar haqida so'z bordi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Islomobod mahallasida yashovchi To'laganovlar xonadonida bo'lib, ushbu oila a'zolari bilan samimiy suhbatlashdi.

Shavkat Mirziyoyev Bo'zsuv kanali bo'yida barpo etiladigan madaniyat va istirohat bog'i loyihasi bilan tanishdi.

«O'zekspomarkaz» majlislar zalida Prezidentimiz raisligida Toshkent shahri faollari, mutasaddi tashkilotlar vakillari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda Yunusobod tumanini har tomonlama rivojlantirish, aholi uchun zamonaviy qulayliklar yaratish, tinchlik-osoyishtalikni yanada mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**17-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lov-

larning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**20-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Xalq artisti Komiljon Otaniyozov tavalludining 100 yillik bayrami qatnashchilariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**21-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatiga tashrif buyurdi. Dastlab Angren shahriga tashrif buyurib, Xitoyning «Poli texnologiz» kompaniyasi bilan hamkorlikda konveyer lentalari, qishloq xo'jaligi texnikasi va avtomobil shinalari ishlab chiqarish loyihasining ijrosi bilan tanishdi.

Shu yerda qurilish materiallari, avtomobilsozlik, elektr texnikasi va neft-kimyó mahsulotlari ishlab chiqarish, «Angren» erkin iqtisodiy zonasida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, Toshkent viloyatidagi bo'sh turgan binolardan samarali foydalanish borasidagi ishlar haqida ma'lumot berildi.

Prezidentimiz xorijlik investorlar bilan suhbatlashdi.

Shu yerda «Angren» erkin iqtisodiy zonasidagi korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan namunalar namoyish etildi.

Shavkat Mirziyoyev O'rta Chirchiq tumanidagi «O'zbekim otlari» ot zavodi faoliyati bilan tanishdi.

Ot zavodida zotdor otlarni ko'paytirish, sohada naslchilik ishlari ni yaxshilashga qaratilgan istiqbolli loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi.

Davlatimiz rahbariga Parkent tumanini kompleks rivojlantirish, Parkent shahrining bosh rejasi haqida axborot berildi.

Shuningdek, Toshkent viloyatining asosiy turistik yo'nalishlari namoyish etildi. 2017–2018-yillarda viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirishning asosiy ko'rsatkich prognoz parametrlari taqdim qilindi. Chimyon oromgohida xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun 500 o'rinli zamonaviy mehmonxona majmuasi loyihasining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz Bo'stonliq tumani «Xo'jakent» mahalla fuqarolar yig'ini hududida quriladigan «Qo'shchinor» mehmonxona majmuasi loyihasini ko'zdan kechirdi.

Toshkent viloyatida amalga oshiriladigan bunyodkorlik ishlari loyihasi taqdimoti bo'ldi.

Viloyat hududidan o'tadigan Toshkent – Sirdaryo avtomobil yo'li bo'yida – Zangiota, Chinoz va Yangiyo'l tumanlari hududidan o'tadigan yo'l bo'yida 5 va 7 qavatli uy-joylar qurilishi va joylashuvi bo'yicha loyiha taqdimoti o'tkazildi.

Hozirgi kunda To'ytepa shahrini viloyatning markazi sifatida qayta qurish tadbirlari amalga oshirilmoqda. To'ytepa shahrining bosh rejasi taqdimoti ham o'tkazildi. Prezidentimiz loyiha bilan tanishar ekan, Toshkent – To'ytepa yo'li atrofida zamonaviy uy-joylar qurish, ijtimoiy soha obyektlarini zamon talablari darajasida barpo etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Toshkent viloyati hokimligida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida viloyat faollari yig'ilishi bo'lib o'tdi.

\* \* \*

**22-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Parkent tumanidagi «Markaziy» mahalla fuqarolar yig'iniga tashrif buyurdi. Mazkur mahalla fuqarolar yig'ini uchun yangi bino, mahalla guzari barpo etilgan. Bu yerda yig'in xodimlari, profilaktika inspektori va aholi uchun barcha sharoit yaratilgan.

Shu yerda ichki ishlar tizimi tomonidan olib borilayotgan profilaktika ishlari, «Xavfsiz dam olish» konsepsiyasi haqida ma'lumot berildi.

Prezidentimiz Toshkent viloyati, jumladan, Parkent tumanida turizmni rivojlantirish uchun ulkan salohiyat borligi, buning uchun dam oluvchilar va aholining xavfsizligini ta'minlash, odamlarni shu yo'nalishda oilaviy tadbirkorlikka o'rgatish kerakligini ta'kidladi.

Mahalla guzarida faoliyat yuritayotgan tikuvchi va kasanachi ayollar bilan samimiy suhbat bo'lib o'tdi.

Tumanda tomchilatib sug'orish asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, tokzorlar tashkil etish, Parkent shahrining bosh rejasini, ko'p qavatli uy-joylar, yo'llar, bozor, istirohat bog'i va boshqa obyektlar barpo etish loyihalari namoyish etildi.

Davlatimiz rahbari Parkent tumani Guliston mahallasida yashov-

chi Aminjon ota Muhammadjonovning bog'ida bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev bog'ni kirib ko'rdi. Shunday ajoyib bog' yaratgani, xoriждан ko'chatlar olib kelib, yurtimiz sharoitida ko'paytirayotgani uchun Aminjon otaga minnatdorlik bildirdi.

Prezidentimiz bog'da mahalla faollari, nuroniylar bilan suhbatlashdi. Nuroniylar xalq bilan mu-loqot qilib, inson manfaatlarini ta'minlashda namuna bo'layotgani, hududlarni rivojlantirish, odamlar turmush farovonligini oshirishga hissa qo'shayotgani uchun ularga minnatdorlik bildirdi.

Shavkat Mirziyoyev Yuqori Chirchiq tumanida barpo etilayotgan zamonaviy logistika markazida bo'ldi.

Shu yerda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha amalga oshiriladigan loyihalar taqdimoti ham bo'lib o'tdi.

2017—2018-yillarda qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish innovatsion loyihasi ham ko'rsatildi. «O'zagrotexsanoatmashxolding» kompaniyasi tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalari namoyish qilindi.

Mamlakatimizda belaruslik investorlar bilan hamkorlikda zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari ishlab chiqarilmoqda. Prezidentimiz ushbu texnikalar turlarini ko'zdan kechirdi. Investorlar bilan mazkur tizimni yanada takomillashtirish, hamkorlik aloqalarini rivojlantirish istiqbollari haqida suhbatlashdi.

\* \* \*

**24-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasida Loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Turkiya Respublikasi Milliy mudofaa vaziri Nurettin Janiklini qabul qildi.

Suhbat chog‘ida harbiy va harbiy-texnik hamkorlik istiqbollari ham muhokama etildi. O‘zbekiston va Turkiya Mudofaa vazirliklari o‘rtasida amaliy hamkorlik o‘rnatish, jumladan, harbiy ta‘lim sohasida qo‘shma dasturlarni amalga oshirish bu boradagi muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi.

Turkiya milliy mudofaa vaziri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga qabul uchun samimiy minnatdorlik bildirdi va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo‘g‘anning euzu tilaklarini yetkazdi.

Nurettin Janikli O‘zbekistonda Qurolli Kuchlar salohiyatini oshirish va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga yuksak baho berdi va Turkiya davlatlarimiz o‘rtasida keng ko‘lamli hamkorlikni rivojlantirishga tayyor ekanini ta‘kidladi.

\* \* \*

**27-iyul.** Vatanimiz mustaqilligining 26 yillik bayrami arafasi-

da yurtimizning barcha hududlarida Birinchi Prezidentimiz, buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Abdug‘aniyevich Karimovni xotirlash tadbirlari bo‘lib o‘tdi.

Milliy urf-odatimizga binoan ushbu marosimlarda elga osh tortildi. Birinchi Prezidentimiz xotirasiga Qur‘on tilovat qilinib, duoyi fотиha o‘qildi.

Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan ana shunday marosimda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

\* \* \*

**27-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining istiqbolli yosh pedagog va ilmiy kadrlarning malakasini oshirish «Iste‘dod» jamg‘ar-masi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**27-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda mol-mulknı realizatsiya qilish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarish sohasi uchun muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**27-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mahalliy eksport qiluvchi korxonalarini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**31-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlar tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoyishga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi temiryo'l transporti xodimlari kunini nishonlash to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**2-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlagan holda, 11 yillik o'rta ta'lim tizimini joriy etish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan isloh qilish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda ota-onalar va bolalarning xohish-istaklarini to'liq hisobga olish va ro'yobga chiqarish zarurligi, ularning ovora bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, shunday holatlar yuz bergan taqdirda tegishli tumanlar hokimlari, xalq ta'limi bo'limi va ta'lim muassasalari rahbarlariga nisbatan qat'iy choralar ko'rilishi ta'kidlandi.

Mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlariga joriy yilning 20 avgustiga qadar ta'lim muassasalarini yangi o'quv yili, kuzgi-qishki mavsumga sifatli tayyorlash hamda Investitsiya dasturiga kiritilgan ta'lim obyektlarida olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlarini yakunlash bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**3-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda milliy madaniyatimiz, adabiyot va san'atimizni rivojlantirish bilan bog'liq dolzarb masalalar, ularni hal etish yo'llari, bu borada ijodiy uyushmalar va davlat tashkilotlari oldida turgan muhim vazifalar haqida atroflicha fikr almashildi.

Samimiy va ochiq muloqot ruhida o'tgan yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari rahbarlari, Bosh vazir, Prezidentning Davlat maslahatchilari, Vazirlar Mahkamasi komplekslari, vazirlik va idoralar, yirik kompaniya va xo'jalik birlashmalari, banklar, ijodiy uyushmalar, yetakchi ommaviy axborot vositalari, madaniyat muassasalari, teatr va muzeylar rahbarlari, adabiyot, san'at va madaniyat sohasining atoqli namoyandalari, jurnalistlar ishtirok etdi. Videokonferensiya shaklida o'tgan uchrashuvda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, Madaniyat vazirligi, ijodiy uyushmalarning hududiy bo'limlari, joylardagi madaniyat muassasalari, tele-radiokanallar, gazetalar rahbarlari, ijodkor ziyolilar qatnashdi.

Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma'ruza qildi.

Ushbu ma'ruza «Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir»

sarlavhasi bilan matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**4-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev yurtimiz hayotida ilk bor nishonlanayotgan temir yo'lchilar kuni munosabati bilan «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyati jamoasiga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**4-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatimiz temiryo'l sohasi xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2017-yilgi Investitsiya dasturiga kiritilgan yirik va muhim ahamiyatga ega investitsiya loyihalarini amalga oshirish va yil yakuni bo'yicha kutilayotgan natijalar, shuningdek, davlatimiz rahbarining Andijon viloyati va poytaxtimizning Chilonzor tumaniga tashriflari chog'ida belgilangan vazifalar ijrosiga bag'ishlangan video-selektor yig'ilishi o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib borishini ta'minlash, yuqori qo'shimcha qiymatli, chuqur qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi yangi zamonaviy korxonalarni ishga tushirish – mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, avvalo, aholi hayoti va farovonligi darajasini yanada oshirishning eng muhim omillaridan biri ekanini ta'kidladi.



Yig'ilishda Vazirlar Mahkamasi komplekslari, vazirliklar, idoralar, kompaniyalar, uyushmalar va hokimliklar rahbarlarining hisobotlari va takliflari tinglanib, muhokama qilindi hamda investitsiya loyihalari ijrosini jadallashtirish va mavjud muammolarni hal etish yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

\* \* \*

**7-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi qurilish sohasi xodimlari kuni»ni nishonlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**7-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Erkin iqtisodiy zonalar samarali faoliyat ko'rsatishi uchun vazirliklar, idoralar va joylardagi davlat hokimiyati organlarini muvofiqlashtirishni kuchaytirish va ularning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**8-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy

tashrif bilan kelgan Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki prezidenti Szin Litsyunni qabul qildi.

Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki prezidenti Szin Litsyun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga samimiy qabul va o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlagani uchun minnatdorlik izhor etdi. Bank O'zbekiston bilan uzoq muddatli va keng ko'lamli hamkorlik qilishga tayyor ekanini alohida ta'kidladi.

\* \* \*

**8-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**9-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston ijodkorlarini qo'llab-quvvatlash «Ilhom» jamoat fondini tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**9-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yilning o'tgan 7 oyi mobaynida mamlakatimizni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq davlat

va jamiyat hayotining barcha soha-  
larini yangilash, iqtisodiyotni erkin-  
lashtirish va aholi uchun munosib  
turmush sharoiti yaratish, davlati-  
miz rahbarining joylarda xalq bilan  
muloqotlari chog'ida belgilangan  
maqsad va vazifalarning bajarilishi-  
ga bag'ishlangan selektor yig'ilishi  
bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda Shavkat Mirziyoyev  
o'tgan davr mobaynida mamlakati-  
mizni rivojlantirishga qaratilgan 20  
dan ortiq qonun, Prezidentning 180  
dan ortiq farmoni, 450 dan ortiq  
qarori qabul qilingani va bu jara-  
yon uzluksiz davom etayotganini,  
ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar-  
ning amaldagi ijrosini ta'minlashda  
barcha bo'g'indagi rahbarlarning  
mas'uliyatini oshirish zarurligini  
ta'kidladi.

\* \* \*

**10-avgust.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev kasb bayrami munosa-  
bati bilan mamlakatimiz qurilish  
sohasi xodimlariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**10-avgust.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev «Mamlakatimiz qurilish  
sohasi xodimlaridan bir guruhini  
mukofotlash to'g'risida»gi farmonga  
imzo chekdi.

\* \* \*

**10-avgust.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev «O'zbekiston jurnalist-  
lari ijodiy uyushmasi faoliyatini  
yanada takomillashtirish chora-tad-  
birlari to'g'risida»gi qarorga imzo  
chekdi.

\* \* \*

**10-avgust.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev «Nufuzli xalqaro sport  
musobaqalarida yuksak natijalarga  
erishgan O'zbekiston sportchilari-  
ni jamoat va sport ishlariga keng  
jalb etish hamda sportchilarni va  
ularning trenerlarini rag'batlantirish  
to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**10-avgust.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev Jahon taekvondo fe-  
deratsiyasi prezidenti Cho Chung  
Vonni qabul qildi.

Uchrashuvda o'zaro hamkorlik-  
ni kengaytirish, mamlakatimizda  
yirik xalqaro turnirlarni munta-  
zam o'tkazish, Jahon taekvondo  
federatsiyasining davlatimiz rahbari  
tashabbusi bilan O'zbekiston Mil-  
liy universitetida tashkil etilayot-  
gan taekvondo fakulteti faoliyatini  
yo'lga qo'yishda, shuningdek, yurti-  
miz yoshlarini sportga keng jalb qi-  
lishga qaratilgan boshqa tadbirlarda  
ishtirok etish masalalari muhokama  
etildi.

\* \* \*

**11-avgust.** Prezidentimiz Shavkat  
Mirziyoyev Toshkent viloyatining  
Olmaliq shahriga tashrif buyurdi.  
Bu yerda «Olmaliq kon-metallur-  
giya kombinati rivojlanishining ik-  
kinchi bosqichi» loyihasi bo'yicha  
ishlar boshlanishiga bag'ishlangan  
tantanali marosimda ishtirok etdi  
va nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbari mazkur loyi-  
hani kadrlar bilan ta'minlash masa-  
lasiga alohida e'tibor qaratdi. Bu-

gun mazkur tarmoqda ishlayotgan yoshlar ko'pligini inobatga olib, yangi ochilgan kongga «Yoshlik» deb nom berishni taklif qildi.

Majmuuga tantanali ravishda tamal toshi qo'yildi.

Prezidentimiz Olmaliq shahri-ning bosh rejasi asosida amalga oshirilishi rejalashtirilgan qurilish va obodonlashtirish loyihalari bilan tanishdi.

Prezidentimiz Olmaliq shahridagi «Oydin» dehqon bozori va buyum bozorida sotuvchi va xaridorlarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan qiziqdi.

Olmaliq shahar bolalar shifoxona-si rekonstruksiya davom etmoqda. Bu bolalar salomatligini muhofaza qilish, ularga o'z vaqtida va sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishda keng imkoniyat yaratadi. Davlatimiz rahbari shifoxonani zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash, buning uchun zarur mablag'lar ajratish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Prezidentimizga zamonaviy tipdagi shahar FHDY bo'limining yangi binosi qurilishi loyihasi namoyish etildi.

Shu yerda Olmaliq shahar oqova suvlarni tozalash inshootini rekonstruksiya qilish loyihasi taqdimoti ham o'tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev Olmaliq shahri markazidagi 5/2 massivida qurilayotgan 7 qavatli, 2 va 3 xonali turar joy binolarini borib ko'rdi. Davlatimiz rahbari mazkur uylarda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Mutasaddilarga qurilish

ishlarini sifatli bajarish, inshootlarni o'z vaqtida qurib bitkazish va topshirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berdi.

Prezidentimiz Olmaliq shahri aholisi bilan muloqot qildi. Samimiy va ochiq o'tgan suhbatda shahar faollari va yoshlar davlatimiz rahbariga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, turli dolzarb masala va muammolar tezkorlik bilan hal etilayotgani uchun minnatdorlik bildirdi.

Shavkat Mirziyoyev Olmaliq konmetallurgiya kombinatining misni eritish fabrikasi va maxsus sexida bo'lib, ish jarayonini ko'zdan kechirdi.

Shundan so'ng kombinatning majlislar zalida shahar yoshlari va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda Olmaliq shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, Olmaliq konmetallurgiya kombinatining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, yangi ish o'rinlari yaratish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**11-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Matbuot va axborot sohasida boshqaruvni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Madaniyat va san'at tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va ommaviy axborot vositalari faoliyatini yanada rivojlantirish, soha xodimlari mehnatini rag'batlantirish

rish bo'yicha qo'shimcha sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**15-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoyishni imzoladi.

\* \* \*

**16-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijga chiqish tartibini takomillashtirishga doir muhim chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**16-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2018—2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filialini tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**16-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida o'zaro integratsiyani ta'minlagan holda yangi o'quv yiliga tayyorgarlikning borishi, 11 yillik o'rta ta'lim tizimini joriy etish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan isloh qilish, yangi ochilgan oliy ta'lim muassasalari, filiallar faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq ishlar bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Majlisda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlariga 25-avgustga qadar barcha ta'lim muassasalarini yangi o'quv yiliga va kuz-qish mavsumiga sifatli tayyorlash hamda Investitsiya dasturiga kiritilgan ta'lim obyektlarida olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlarini yakunlash, ko'rilgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar loyihalarini tayyorlash bo'yicha mutasaddi tashkilotlar rahbarlariga ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**17-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Toshkentda ichki ishlar organlari tizimida olib borilayotgan ishlarning ahvoli, muammolar va kelgusidagi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda ichki ishlar organlari tizimida olib borilayotgan ishlarning ahvoli, muammolar va kelgusidagi vazifalar muhokama qilindi.

\* \* \*

**17-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo'lib turgan Qozog'iston Respublikasi mudofaa vaziri Saken Jasuzoqovni qabul qildi.

Harbiy va harbiy-texnik hamkorlik ikki tomonlama munosabatlarning muhim va istiqbolli yo'nalishi sifatida belgilangan. Xususan, suhbat chog'ida mamlakatlarimiz mudofaa mahkamalari o'rtasida, jumladan, sanoat kooperatsiyasi va harbiy kadrlar tayyorlash sohasida samarali hamkorlik qilish masalalari ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**17-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Bekobod shahrida bo'ldi. Davlatimiz rahbari tashrifini «O'zbekiston metallurgiya kombina-

ti» aksiyadorlik jamiyatidan boshladi. Prezidentimiz korxonaning maxsus sexlari faoliyati bilan yaqindan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev kombinat ishchi-xodimlari bilan suhbatlashdi. Ularning unumli mehnat qilishi va dam olishi uchun yaratilgan sharoitlar bilan qiziqdi.

Shu yerda korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan namunalarni namoyish etildi.

Prezidentimiz Bekobod shahar xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli «Shudring» nomli 5-maktabgacha ta'lim muassasasiga tashrif buyurdi. Bolalarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Bekobod shahridagi «Paxtakor» mahalla fuqarolar yig'inidagi «Metallurgmadad» xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatiga qarashli ko'p qavatli uylarda yashovchi aholi bilan uchrashdi.

Bekobod shahrining 2035-yilgacha mo'ljallangan bosh rejasi taqdimoti o'tkazildi. Xususan, 2017–2018-yillarda umumiy qiymati 3,8 trillion so'mlik 179 loyiha amaliyotga tatbiq etilib, qariyb 5 ming aholi doimiy ish joyiga ega bo'ladi. Yangi mavzalar quriladi, ko'p qavatli uylar qad rostlaydi.

Aholiga yanada keng qulaylik yaratish maqsadida Toshkent – Bekobod yo'nalishida elektrichka qatnovini yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriq berildi.

Prezidentimiz Bekobod shahrida istiqomat qiluvchi Muxtor Mir-

komilovning turmush o'rtog'i bevaqt vafot etgani munosabati bilan o'tkazilayotgan ta'ziya marosimida ishtirok etib, xonadon egalariga chuqur hamdardlik bildirdi, sabr-toqat tiladi. Mutasaddi rahbarlarga boshiga musibat tushgan ushbu oilaga ko'mak ko'rsatish bo'yicha tegishli topshiriqlar berdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida «Metallurg» madaniyat saroyida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda Toshkent viloyati va Bekobod shahri faollari, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirok etdi. Yig'ilishda aholiga barcha zarur sharoitlar yaratish, kommunikatsiya tizimlarini yangilash, hududlarni obodonlashtirish, tadbirkorlikni yanada rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**23-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining fan va texnika, adabiyot, san'at va me'morchilik sohasidagi davlat mukofotlarini berish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**23-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Zamonaviy energiya samarador va energiya tejaydigan

texnologiyalarni yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Rossiya Federatsiyasi Hukumati raisining birinchi o'rinbosari Igor Shuvalovni qabul qildi.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz o'rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish, shuningdek, investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish va yuqori texnologiyali sohalarda yangi istiqbolli dasturlarni tayyorlashni jadallashtirish masalalari batafsil muhokama qilindi.

\* \* \*

**23-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qurbon hayitini nishonlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi yoshlari kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**25-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**25-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-

kasi mustaqilligining yigirma olti yilligi munosabati bilan fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, adabiyot, madaniyat, san'at, ma'naviyat va ma'rifat, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-avgust.** O'zbekiston Respublikasi bilan Ukraina o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 25 yilligi munosabati bilan ikki davlat rahbarlari bir-birlarini qutladilar.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma olti yilligi munosabati bilan huquqni muhofaza qilish organlari, mudofaa va favqulodda vaziyatlar vazirliklari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan tadbirkor va fermerlarni mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

qiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan tadbirkor va fermerlarni mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelayotgan yosh avlod vakillarini mukofotlash to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqandga keldi. Davlatimiz rahbari viloyatga tashrifini Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov qabrini ziyorat qilishdan boshladi.

Shavkat Mirziyoyev Islom Karimov qabriga gul qo'ydi. Qur'on tilovat qilindi.

Shu kuni Prezidentimiz Imom Buxoriy majmuasiga tashrif buyurdi. O'tganlar xotirasi yod etilib, Qur'on tilovat qilindi.

Davlatimiz rahbarining Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi qoshida islom madaniyati, umumbashariy sivilizatsiya rivojiga benazir hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ko'p qirrali boy merosini o'rganishga ixtisoslashgan xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tashkil etish haqidagi tashabbusi mamlakatimiz jamoatchiligi va xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqot markazi qurilishi jadal davom etmoqda. Shavkat Mirziyoyev qurilish ishlari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari markazni zamonaviy uslubda barpo etish bilan

birga, uni ma'naviy mazmun bilan yanada boyitish, buyuk ajdodlarimiz merosini targ'ib etish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish zarurligini ta'kidladi. Bu yerga kelgan odamlar faqat ziyorat bilan cheklanib qolmasin, ilm-ma'rifat olsin. Boshqa davlatlardan ham talabalar kelib o'qisin. Buning uchun chuqur ilmiy uslubiyat yaratish, dinimizning asl mohiyatini o'rgatish kerak, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu yerda Samarqand shahrining Dahbed ko'chasidan Payariq tumanidagi Imom Buxoriy majmuasiga olib boradigan Nurafshon ko'chasini obodonlashtirish, yo'l bo'yida zamonaviy turar joylar, savdo va maishiy xizmat inshootlari barpo etish bo'yicha loyihalar ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahrida «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali va «Jahon tamadduni tarixida Markaziy Osiyo Renesansi» xalqaro anjumanida ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo'lib turgan BMT Jahon sayyohlik tashkiloti bosh kotibi Taleb Rifaini qabul qildi.

Uchrashuvda turizm sohasidagi amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlashning istiqbolli yo'nalishlari muhokama qilindi.

\* \* \*

**28-avgust.** Samarqand shahrida «Sharq taronalari» XI xalqaro musiqa festivalining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Festivalda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Prezidentimizning ushbu tantanadagi tabrik so'zi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**28-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Samarqandda mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari va bu boradagi dolzarb vazifalar ijrosiga bag'ishlangan sayyor videosektor yig'ilishi bo'ldi.

Yig'ilishda erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda sohada mavjud kamchilik va muammolar ham chuqur tahlil qilindi.

Majlisda Mudofaa vazirligi qo'shinlarida jangovar tayyorgarlik va shaylikni oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ham tanqidiy tahlil qilindi.

Belgilangan strategik maqsadlarimizga erishish va ularni hayotga to'liq tatbiq etishda har tomonlama puxta tayyorgarlikka ega, o'z Vatanga sodiq, yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash va ularning ijtimoiy himoyasini davlat tomonidan kafolatlash kabi vazifalarni amalga oshirish hal qiluvchi va asosiy omil sanaladi, dedi Prezidentimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari harbiy litsey va kollejlardagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini shaxsan nazoratga olishlari zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, Qurolli



Kuchlar faxriylarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish borasida amalga oshirilgan ishlar ham tahlil qilindi.

Yig'ilishda g'oyaviy-badiiy saviyasi yetuk, zamonaviy talablarga javob beradigan harbiy-vatanparvarlik ruhidagi badiiy va musiqiy asarlar, harbiy, tarixiy mavzudagi kinofilmlar yaratishda faollik yetishmasligi, bu yo'nalishda nafaqat Jamoatchilik kengashi, balki mamlakatimiz ijodkor ziyolilari, yetakchi adabiyot va san'at arboblari, yangidan tuzilgan Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi birgalikda samarali faoliyat olib borishi kerakligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda mutasaddi rahbarlarning tegishli soha va tarmoqlarda olib borilayotgan ishlar bo'yicha axboroti tinglandi. Oldinda turgan qator dolzarb vazifalar va ularni bajarish yo'llari belgilab olindi.

\* \* \*

**29-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahar xalq deputatlari tuman Kengashlariga saylov to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**29-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**29-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**31-avgust.** Qatag'on qurbonlari kuni munosabati bilan «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuidida xalqimiz ozodligi va yurtimiz mustaqilligi yo'lida qurbon bo'lgan marhumlarni yod etish marosimi o'tkazildi. Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

Qur'on tilovat qilinib, qatag'on qurbonlari ruhiga hurmat bajo keltirildi.

Prezidentimiz O'zbekiston musulmonlari idorasi rahbariyati, ulamolar, mahalla faollari va ziyolilar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzey eksponatlari bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev muzey yonidan oqib o'tadigan Bo'zsuv kanalini atrofini yanada obodonlashtirish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**31-avgust.** Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov haykalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

Marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Shavkat Mirziyoyev va Birinchi Prezidentimizning rafiqasi Tatyana Karimova Islom Karimov haykalini ochdi. Buyuk Yurtboshimiz haykali poyiga gulchambar qo'ydi.

\* \* \*

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 26 yillik bayrami nishonlanayotgan kunlarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Mustaqillik maydoniga tashrif buyurib, hurriyatimiz, porloq istiqbolimiz va ezgu niyatlarimiz ramzi bo'lgan Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gulchambar qo'ydi.

\* \* \*

**31-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirda ishtirok etdi va nutq so'zladi. Nutq matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**1-sentabr.** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 21-aprel kuni Toshkent shahrining Olmazor tumaniga tashrifi chog'ida Imom Termiziy jome masjidini rekonstruksiya qilish bo'yicha topshiriq bergan va Hazrati Imom (Hastimom) majmuasida Islom madaniyati markazini tashkil etish taklifini bildirgan edi.

Shavkat Mirziyoyev Hazrati Imom (Hastimom) majmuasida

bo'lib, mazkur markaz loyihasi bilan tanishdi.

Mamlakatimizda muqaddas dini-mizni, ulamolarimizning boy merosini o'rganish, tarixiy obidalar-ni asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tashkil etilmoqda, Shero-bod tumanidagi Abu Iso Muhammad Termiziy, Qarshi tumanidagi Abul Muin Nasafiy ziyoratgohlari va boshqa qadamjolarida qurilish-ta'mirlash ishlari bajarilmoqda. Bu kabi xayrli ishlar yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda. Shularni inobatga olib, davlatimiz rahbari Islom madaniyati markazi nomini Islom sivilizatsiyasi markazi, deb o'zgartirish taklifini bildirdi.

Shavkat Mirziyoyev markaz qurilishi bo'yicha taqdim qilingan loyihaga alohida e'tibor qaratdi. Bu markaz bizning islom dini targ'ibotidagi yuzimiz bo'ladi. Shunday ekan, uning tashqi ko'rinishi, bu yerda ishlatiladigan qurilish materiallariga ham e'tibor qaratish lozim. Odatdagi, ko'zimiz o'rganib qolgan loyihalardan voz kechib, yangi shakl va dizayn topishimiz kerak, dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz davlat va jamoat tashkilotlari, Musulmonlar idorasi rahbariyati, imom-xatiblar, mahalla faollari bilan suhbatlashdi.

\* \* \*

**1-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti

Rejep Tayyip Erdo‘g‘an bilan telefon orqali muloqot qildi. Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo‘g‘an Turkiya xalqi va o‘z nomidan davlatimiz rahbarini va ko‘p millatli O‘zbekiston xalqini Vatanimiz mustaqilligining 26 yilligi va muborak Qurbon hayiti bilan chin dildan tabrikladi.

O‘zbekiston Prezidenti samimiy tabrik uchun chuqur minnatdorlik bildirib, barcha musulmonlarning muborak bayrami munosabati bilan Turkiya rahbari va qardosh turk xalqiga tinchlik, farovonlik va taraqqiyot tiladi.

Davlatlar rahbarlari bo‘lajak oliy darajadagi uchrashuvlar ikki qardosh xalq o‘rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash, keng ko‘lamli va har tomonlama O‘zbekiston – Turkiya sherikligini chuqurlashtirishga xizmat qilishiga ishonch bildirdilar.

\* \* \*

**2-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov haykalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali tadbirda ishtirok etish uchun Samarqand shahriga keldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Islom Karimov qabrini ziyorat qildi. Qur‘on tilovat qilindi.

Samarqand ramzi bo‘lgan Registon maydoni yonidagi xiyobonda, Islom Karimov tug‘ilib o‘sgan xonadon yaqinida Birinchi Prezidentimizga haykal o‘rnatildi. Bu yerga hukumat a‘zolari, davlat va jamoat

tashkilotlari vakillari, viloyat faollari, nuroniylar, yoshlar jam bo‘ldi.

Marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi.

Shavkat Mirziyoyev va Birinchi Prezidentimizning turmush o‘rtog‘i Tatyana Karimova Islom Karimov haykalini ochdi. Haykal poyiga gul qo‘yib, hurmat bajo keltirildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Islom Karimov tug‘ilib o‘sgan xonadonga tashrif buyurdi. Qur‘on tilovat qilinish, elga ehson dasturxonini yozildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu tantanali marosimdagi nutqi matbuotda e‘lon qilindi.

\* \* \*

**2-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyati Zarbdor tumaniga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari «Toshkesgan» fermer xo‘jaligining paxta dalasini ko‘zdan kechirdi. Fermer va dehqonlar bilan agrotexnik tadbirlarni to‘g‘ri va sifatli amalga oshirish, hosilni o‘z vaqtida yig‘ib-terib olish xususida suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbariga «O‘zpaxta-sanoat» AJ tomonidan 2017-yilgi paxta xomashyosini elektron tarozi orqali «E-tarozi» dasturida qabul qilish va ushbu jarayonga «Fotofiksatsiya» tizimini samarali joriy etish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar haqida ma‘lumot berildi.

Mutasaddilarga ushbu zamona-viy tizimni yanada takomillashtirish va amaliyotga keng tatbiq etish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Shavkat Mirziyoyev «Taraqqiyot manzarasi» fermer xo‘jaligi dala shiyponida viloyat mutasaddilari, fermerlar bilan uchrashdi.

Tadbirda viloyatda paxta yig‘imterimi mavsumini samarali tashkil qilish, takroriy ekinlar monitoringi, qishloq xo‘jaligi sohasida kutilayotgan hosil va daromad, barcha toifadagi xo‘jaliklar uchun 2018-yilda ekiladigan sabzavot ekinlari hamda ulardan olinadigan mahsulot miqdori va boshqa masalalar ko‘rib chiqildi.

\* \* \*

**2-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**5–6-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti Almazbek Atamboyevning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatga keldi.

Bishkek shahridagi Ala Archa qarorgohida Prezidentlarning tor doiradagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalar-dagi hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash istiqbollari, mamlakatlarimizning chegaraoldi hududlari aloqalarini faollashtirish, shuningdek, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro muammolar muhokama qilindi.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston Prezidentlari muzokaralari rasmiy delegatsiyalar ishtirokida davom ettirildi.

Muzokaralarda ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarga oid dolzarb masalalar muhokama qilindi. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlikni yanada rivojlantirish xususida atroflicha fikr almashildi.

Tashrif yakunlari bo‘yicha Prezidentlar O‘zbekiston Respublikasi va Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida Qo‘shma bayonot va O‘zbekiston – Qirg‘iziston davlat chegarasi to‘g‘risida shartnomani imzoladilar.

Joriy yil oktabr oyida Qirg‘izistonda O‘zbekiston madaniyati kunlari, 2018-yil O‘zbekistonda Qirg‘iziston madaniyati kunlarini o‘tkazishga kelishib olindi.

Muzokaralar yakunida Shavkat Mirziyoyev va Almazbek Atamboyev O‘zbekiston Respublikasi va Qirg‘iziston Respublikasi o‘rtasida Qo‘shma bayonot va O‘zbekiston – Qirg‘iziston davlat chegarasi to‘g‘risida shartnomani imzoladilar. Andijon va O‘sh, Toshkent va Bishkek shaharlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik to‘g‘risida, ikki davlat Savdo-sanoat palatalari o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida, Soliq qonunchiligiga rioya qilish masalalari bo‘yicha hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risida, Mintaqalararo hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, Oliy ta‘lim sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitimlar, Chegaradosh

mintaqalar o'rtasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha 2017–2019-yillarga mo'ljallangan qo'shma tadbirlar rejasi, Parlamentlararo hamkorlik to'g'risidagi memorandum va boshqa muhim hujjatlar imzolandi.

Davlatimiz rahbari o'zi uchun ajratilgan qarorgohda Qirg'iziston Respublikasi Jogorku Kengeshining raisi Chinibay Tursunbekovni qabul qildi.

Shundan so'ng Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qirg'iziston Respublikasi Bosh vaziri Sapar Isakovni qabul qildi.

Ommaviy axborot vositalari va-killari bilan uchrashuvda har ikki davlat rahbarlari muzokaralar o'zaro hurmat, ishonch va amaliy ruhda o'tganini, erishilgan tarixiy kelishuvlar O'zbekiston – Qirg'iziston hamkorligini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishini ta'kidladilar.

\* \* \*

**6-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**7-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**8-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**8-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**9-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi siyosiy-huquqiy komissiyasi kotibi, O'zbekiston – Xitoy hukumatlararo hamkorlik qo'mitasi hamraisi Men Szyanchju boshchiligida Qo'shma qo'mitaning navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Xitoy Xalq Respublikasi hukumati delegatsiyasini qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi amaliy hamkorlik, birinchi navbatda, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, moliyaviy va transport-kommunikatsiya sohalaridagi aloqalar istiqbollari muhokama qilindi.

Prezidentimiz farmoniga muvofiq, mamlakatlarimiz o'rtasida

do'stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash, uzoq muddatli va o'zaro manfaatli aloqalarni yanada kengaytirish, shuningdek, yirik iqtisodiy va sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish, har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun Men Szyanchjuga «Do'stlik» ordeni topshirildi.

\* \* \*

**9–10-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyevning taklifiga binoan Ostona shahrida bo'ldi.

10-sentabr kuni Ostona shahrida Mustaqillik saroyida Islom hamkorlik tashkilotining «Fan, texnologiyalar, innovatsiyalar va islom olamini modernizatsiya qilish» mavzusidagi birinchi sammiti ochildi.

Sammitda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Anjumanda Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar va kuzatuvchi mamlakatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar vakillaridan iborat 80 ga yaqin delegatsiya ishtirok etdi. Sammit yakunida Ostona deklaratsiyasi imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sammit doirasida Eron Islom Respublikasi Prezidenti Hasan Ruhoniy, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an va Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G'ani bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

\* \* \*

**11-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**13-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi bilan Bolgariya Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 25 yilligi munosabati bilan ikki davlat rahbarlari bir-birlarini qutladilar.

\* \* \*

**13-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga

oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabni tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatini va «Astronomiya va aeronavtika» bog'ini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**16-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.

Yuksak martabali mehmon Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Mustaqillik maydoniga tashrif buyurdi. Oliy martabali mehmon hurriyatimiz, porloq istiqbolimiz va ezgu niyatlarimiz ramzi bo'lgan Mustaqillik va ezgulik monumentiga gul qo'ydi.

Prezidentlar poytaxtimizdagi Shayx Xovandi Tohur va To'labiy maqbaralarini ziyorat qildilar.

Davlat rahbarlari O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti haykali poyiga gul qo'yib, Islom Karimov xotirasiga hurmat bajo keltirdilar.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev «O'zekspomarkaz»da tashkil etilgan «O'zbekiston – Qozog'iston: hamkorlikning yangi bosqichi» deb nomlangan Qozog'iston milliy mahsulotlari ko'rgazmasi bilan tanishdilar.

Tashrifning asosiy tadbirlari «Ko'ksaroy» qarorgohida bo'lib o'tdi. So'ng Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyev tor doirada uchrashuv o'tkazdi.

Muloqotda O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning bugungi holati, uni yanada rivojlantirish istiqbolari muhokama qilindi. Tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Muzokaralar O'zbekiston va Qozog'iston rasmiy delegatsiyalari ishtirokida davom ettirildi. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish, transport-kommunikatsiya, energetika, qishloq xo'jaligi, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi aloqalarni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Shundan so'ng ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev Qo'shma bayonotni imzoladilar. O'zbekiston – Qozog'iston hamkorligining turli sohalariga doir 10 dan ziyod hujjat imzolandi. Shuningdek, ikki mamlakat hudud-

larining to'g'ridan to'g'ri aloqalariga asos bo'ladigan qator hujjatlar qabul qilindi.

Ommaviy axborot vositalari va killari bilan uchrashuvda Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyev muzokaralar O'zbekiston – Qozog'iston munosabatlariga xos o'zaro anglashuv va samimiyat ruhida o'tgani, tomonlar barcha strategik masalalar bo'yicha hamfikir ekanini alohida ta'kidladilar.

Qozog'iston Prezidentining mamlakatimizga davlat tashrifi arafasida Nursulton Nazarboyevning «XXI asr bo'sag'asida» kitobi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning so'zboshisi bilan o'zbek tilida chop etildi. Davlatimiz rahbari mazkur kitobni Qozog'iston Prezidentiga tuhfa qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 15-sentabrdagi farmoniga muvofiq, mamlakatlarimiz o'rtasidagi an'anaviy do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan ulkan hissasi uchun Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlandi. Davlatimiz rahbari ushbu yuksak mukofotni tantanali ravishda topshirdi. Nursulton Nazarboyev ushbu mukofot va hurmat-e'tibor uchun Shavkat Mirziyoyevga chuqur minnatdorlik bildirdi.

\* \* \*

**17-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan Turkmanistonda bo'ldi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning uchrashuvi bo'lib o'tdi. Samimiy ruhda o'tgan muloqotda so'nggi paytlarda mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalar barcha sohalarida jadal rivojlanayotgani qayd etildi.

Prezidentlarning ochiqlik va ishonch ruhida o'tgan suhbatida o'zaro hamkorlik masalalari muhkama qilinar ekan, mamlakatlarimiz manfaatlari mushtarakligi, ikki tomonda ham ko'p qirrali munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish uchun xohish va iroda mavjudligi, davlatlarimiz buning uchun ulkan salohiyat va imkoniyatlarga ega ekani ta'kidlandi.

Shu kuni davlatimiz rahbari Ashxobod shahrida o'tkazilayotgan Yopiq inshootlarda va jang san'atlari bo'yicha V Osiyo o'yinlarining ochilish marosimida ishtirok etdi.

\* \* \*

**17-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg'iziston Prezidenti Almazbek Atamboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat davomida davlatimiz rahbarining joriy yil 5–6-sentabr kunlari Qirg'izistonga amalga oshirgan tarixiy davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'targani, o'zaro hamkorlikni aniq amaliy mazmun bilan boyitishga xizmat qilgani ta'kidlandi.

O'zbekiston va Qirg'iziston parlamentlari, hududlari va ishbi-



larmon doiralari o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish, ikki davlat hukumatlari rahbarlari shafeligida faoliyat yuritadigan Chegaraoldi viloyatlar hokimlari kengashining amaliy faoliyatini tashkil etishni tezlashtirish hamda madaniy-gumanitar sohada yangi dasturlarni amalga oshirish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**18–20-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ishtirok etish uchun Nyu-York shahriga keldi.

Shavkat Mirziyoyev 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zladi. Nutqda ilgari surilgan g'oya va tashabbuslar yig'ilganlarda katta qiziqish uyg'otdi.

BMTning Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zayd Raad al-Husayn bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Prezidentimiz O'zbekiston fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish, chinakam demokratik huquqiy davlat barpo etishning qat'iy tarafdori ekanini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zi uchun ajratilgan qarorgohda Xalqaro valuta jamg'armasi farmoyish beruvchi direktori Kristin Lagardni qabul qildi. Davlatimiz rahbari ushbu uchrashuvdan mamnunligini bildirib, Xalqaro valyuta jamg'armasi

jahon iqtisodiyotidagi vaziyatning yaxshilanishida muhim o'rin tutayotganini ta'kidladi.

Kristin Lagard Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida iqtisodiyot va ijtimoiy hayot barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilayotgani diqqatga sazovor ekanini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQShning yetakchi kompaniyalari rahbarlarini qabul qildi. Uchrashuvda Amerika – O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm, «General Electric» kompaniyasi prezidenti Ron Pollett, «Honeywell» kompaniyasi prezidenti va ijrochi direktori Rajiv Gautam, «CNH Industrial» kompaniyasi vitse-prezidenti Stiven Naderni, «Deere and Company» kompaniyasi prezidenti Jeyms Fild ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari ishbiarmonlarni samimiy qutlab, O'zbekiston bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik rivojlanib borayotgani, Amerika – O'zbekiston savdo palatasi qo'shma loyihalarni qo'llab-quvvatlash va amalga oshirishning muhim mexanizmiga aylanganini ta'kidladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga O'zbekiston Respublikasining tuhfası – Registon maydonining maketi topshirildi. Shu munosabat bilan o'tkazilgan marosimda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi. Tadbirda BMT Bosh kotibi o'rinbosari Jen

Bigl, Bosh Assambleya sessiyasiga kelgan diplomatlar qatnashdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp tomonidan uyushtirilgan rasmiy qabul marosimida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari 19-sentabr kuni BMTning Nyu-York shahridagi bosh qarorgohida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashdi. Shavkat Mirziyoyev Antoniu Guterrishga BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishning «yo'l xaritasi» bo'lgan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini qo'llab-quvvatlayotgani uchun minnatdorlik bildirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-sentabr kuni Nyu-York shahrida Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumén Radev bilan uchrashdi. Unda O'zbekiston – Bolgariya munosabatlarining bugungi holati va istiqbollari muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Gruziya Bosh vaziri Georgiy Kvirikashvilini qabul qildi. Uchrashuvda o'zaro tovar ayirboshlash hajmini yanada oshirish va nomenklaturasini kengaytirish, savdo-sanoat palatalari o'rtasidagi aloqalarni faollashtirish, savdo uylari tashkil etish va qo'shma ko'rgazmalar o'tkazish masalalari muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jahon banki prezidenti Jim Yong Kim bilan uchrashdi. Davlatimiz rah-

bari Jahon banki O'zbekistonning ishonchli va strategik sherigi ekanini alohida ta'kidladi. Muloqotda o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha aniq takliflar, istiqbolli loyihalar muhokama etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlarida istiqomat qilayotgan bir guruh vatandoshlarimiz bilan uchrashdi. Uchrashuv ham ochiq va samimiy ruhda o'tdi. Prezidentimiz uchrashuvga kelgan har bir yurtdoshimizning hayoti va faoliyati bilan qiziqdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlatimiz rahbari sharafiga tashkil etilgan O'zbekiston va AQSh ishbiarmon doiralari vakillari ishtirokida o'tgan qabul marosimida qatnashdi.

Shuning bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining AQShga tashrifi yakunlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**25-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Rossiya Federatsiyasining Tatariston Respublikasi Prezidenti Rustam Minnixonovni qabul qildi. Davlatimiz rahbari mehmonni qutlar ekan, oliy darajadagi uchrashuvlar chog'ida erishilgan kelishuvlar hamda joriy yil aprel oyidagi Rossiyaga davlat tashrifi doirasida imzolangan ikki mam-

lakat hududlari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitimga muvofiq Tatariston va Rossiya Federatsiyasining boshqa subyektlari bilan aloqalar faollashib borayotganini alohida ta'kidladi.

Uchrashuvda amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish va uni aniq mazmun bilan boyitishga doir masalalar batafsil ko'rib chiqildi. O'zaro savdo hajmini oshirish, neft-gaz, neft-kimyoye, kimyoye, avtomobilsozlik, mashinasozlik, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi tarmoqlari, axborot texnologiyalari sohasi va boshqa yo'nalishlarda investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlardan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratildi. Ta'lim, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniy-gumanitar almashuv va sayyohlik sohalaridagi aloqalarni faollashtirish va qo'shma dasturlarni amalga oshirish muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**25-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning topshirig'iga binoan mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Rossiya Federatsiyasi qishloq xo'jaligi vaziri Aleksandr Tkachevni qabul qildi.

Uchrashuvda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini to'g'ridan to'g'ri yetkazib berish hajmini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish va zamonaviy savdo-logistika infratuzilmasini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Agrar sohada kooperatsiyani kuchaytirish va qo'shma ishlab chiqarishlarni tashkil etish, jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, urug'lik va veterinariya preparatlari tayyorlash muhimligi qayd etildi. Malakali mutaxassislar tayyorlash sohasida hamkorlikni kengaytirishga kelishib olindi.

\* \* \*

**25-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Suv obyektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**26-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Spikeri Chon Se Gyunni qabul qildi. Uchrashuvda mamlakatlarimiz parlamentlari va ularning alohida qo'mitalari o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlash, parlamentlarda faoliyat yuritayotgan do'stlik va hamkorlik guruhlari ishini faollashtirish, O'zbekiston va Janubiy Koreyada o'zaro tashrif va qo'shma tadbirlarni muntazam ravishda tashkil etish muhimligi qayd etildi.

Savdo-iqtisodiy, investitsiya va madaniy-gumanitar sohalarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, xalqaro parlamentlararo tuzilmalar doirasidagi hamkorlikni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**26-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**27-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi parlamenti Senati raisi Qosim-Jo'mart Toqayev boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda parlamentlararo hamkorlik, jumladan, xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasidagi aloqalarni yanada faollashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Oliy darajadagi tashriflar davomida erishilgan ikki tomonlama kelishuvlar va qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash hamda o'zaro manfaatli sheriklikka doir istiqbolli loyiha va dasturlarni il-

gari surishda mamlakatlarimiz parlamentlari muhim o'rin tutishi qayd etildi. Do'stlik va hamkorlik guruhlari o'rtasida muntazam uchrashuvlar o'tkazish, O'zbekiston va Qozog'iston parlamentlarining tegishli qo'mitalari o'rtasida yaqin amaliy aloqalar o'rnatish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**29-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**29-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Moskva va Butun Rus Patriarxi Kirillni qabul qildi. Davlatimiz rahbari yuqori martabali mehmonni qutlar ekan, Rus pravoslav cherkovi rahbarining O'zbekistonga tashrifi mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi an'anaviy yaqin va do'stona aloqalarni mustahkamlashda muhim voqea ekanini chuqur mamnuniyat bilan qayd etdi. O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi oliy va yuqori darajadagi faol muloqot barcha yo'nalishlardagi amaliy hamkorlikka jadal sur'at bag'ishlagani, ikki tomonlama aloqalarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'targani alohida ta'kidlandi.

Uchrashuvda ekstremizm, terrorizm va radikalizm kabi global xavf-xatarlarga qarshi kurashish maqsadida konfessiyalararo muloqotni yanada mustahkamlash, jamiyatda millatlararo totuvlik va di-

niy bag'rikenglikni ta'minlash, yosh avlodga ta'lim va ma'naviy-axloqiy tarbiya berish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**29-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**30-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kurash» milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**2-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev aholiga sifatli kommunal xizmat ko'rsatish, ko'p qavatli uy-joylar, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlarining holati tahliliga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda aholiga uy-joy kommunal xizmatlari ko'rsatishni tubdan yaxshilash, uy-joy fondi va ijtimoiy obyektlardan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, xususi uy-joy mulkdorlari shirkatlarining ish sifatini yuksaltirish va moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarining borishi ko'rib chiqildi.

Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlariga uy-joylar va ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarni kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlarini yakunlash, aholini elektr, issiqlik, gaz, suv va boshqa hayotiy zarur vositalar bilan uzluksiz ta'minlash, odamlarning farovonligini oshirish bo'yicha ko'rsatma va topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**3-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda turizmni izchil rivojlantirish istiqbollari, sayyohlik obyektlaridan samarali foydalanish, ko'rsatilayotgan xizmat turlari sifatini oshirish, yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimini ko'paytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahliliga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda turizm industriyasini jadal rivojlantirishda xususi sektor ishtirokini yanada kengaytirish, ularga imtiyozlar taqdim etish, sohada kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, yangi sayyohlik mahsulotlari turini ko'paytirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari mutasaddi qo'mita, vazirlik va idoralar rahbarlariga sayyohlikni rivojlantirishda yangicha usul va yondashuvlardan samarali foydalanish, ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan tegishli qarorlar loyihalarini tayyorlash bo'yicha topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**4-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida o'zbek-qirg'iz Davlat chegarasi to'g'risidagi Shartnomani (Bishkek, 2017-yil 5-sentabr) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**5-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi. Suhbat chog'ida o'zaro qo'llab-quvvatlash va birgalikdagi sa'y-harakatlar tufayli mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi ko'p asrlik mustahkam do'stlik rishtalari, umumiy tarix, ma'naviy va madaniy qadriyatlariga asoslangan an'anaviy yaqin va yaxshi qo'shnichilik aloqalari mustahkamlanayotgani chuqur mamnu-niyat bilan alohida ta'kidlandi.

Muloqotda davlatlarimiz o'rtasida amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari, oliy va yuksak darajada bo'lib o'tadigan tadbirlar rejasi muhokama qilindi. Shuningdek, mintaqaviy va xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan

fikr almashildi. Tomonlar do'stlik va yaxshi qo'shnichilik aloqalarini mustahkamlash, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasida keng ko'lamli o'zaro manfaatli hamkorlikni bundan buyon ham birgalikda rivojlantirishga tayyor ekani qayd etildi.

\* \* \*

**5-6-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Almazbek Atamboyev davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.

Prezident Almazbek Atamboyev Prezident Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Mustaqillik maydoniga tashrif buyurdi. Oliy martabali mehmon hurriyatimiz, porloq istiqbolimiz va ezgu niyatlarimiz ramzi bo'lgan Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gul qo'ydi.

Davlat rahbarlari «O'zekspomarkaz»da tashkil etilgan O'zbekiston va Qirg'iziston sanoat mahsulotlari ko'rgazmasi bilan tanishdilar.

Davlat tashrifi doirasidagi asosiy tadbirlar Ko'ksaroy qarorgohida bo'ldi. Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng davlat rahbarlarining tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Muloqotda mamlakatlarimiz o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'r-

tasida strategik sheriklik, do'stlik, ahil qo'shnichilik va ishonchni mustahkamlash to'g'risida deklaratsiya, shuningdek, mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning turli sohalariga doir yana 10 dan ortiq boshqa hujjatlar imzolandi.

\* \* \*

**9-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta'limning bakalavr yo'nalishiga qabul bo'yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda ta'lim muassasalari bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasalarining bakalavr yo'nalishiga bo'ladigan test sinovlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, bunda rivojlangan davlatlarda sinovdan o'tgan eng ilg'or tajribalarga alohida ahamiyat qaratish, test sinovlarining ochiqligini ta'minlash yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**9-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi tahliliga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda erkin iqtisodiy zonalaridagi natijalar qoniqarli emas-

ligi, ularni yanada rivojlantirish uchun tartib-taomillarni soddalash-tirish, investor va tadbirkorlarni jalb etishni kengaytirish zarurligi ta'kidlandi. Kichik sanoat zonalarining sarmoyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishdagi ahamiyati xususida alohida to'xtalib o'tildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tegishli vazirlik, idora va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bu sohada faoliyatini tanqid qilib, ularda tashabbuskorlik yetishmasligi, erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil qilish darajasi sustligini ta'kidladi.

Yig'ilishda erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida joylashgan korxonalarni barcha zarur muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari va infratuzilma bilan o'z vaqtida ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**9-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari fao-

liyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**10-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Konstitutsiyasiga 25 yil» esdalik nishonini ta'asis etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**10–11-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasining Sochi shahrida bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashi majlisida ishtirok etdi.

Sammitning asosiy tadbirlari 11-oktabr kuni bo'lib o'tdi. Dastlab MDH davlat rahbarlari tor doirada uchrashuv o'tkazdi. Unda Hamdo'stlik doirasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, ushbu xalqaro tuzilma faoliyatini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi, mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Hamdo'stlik mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport, turizm, ilm-fan, ta'lim va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdorligini ta'kidladi.

Davlat rahbarlari muzokaralarni kengaytirilgan tarkibda davom ettirdi. Majlisda Hamdo'stlik mamlakatlarning Parlamentlararo assambleyasi faoliyatini takomillashtirish, Tashqi ishlar vazirlari kengashi va Iqtisodiy kengashini rivojlantirish,

kelgusi yillarda MDHning madaniy poytaxtlarini belgilash kabi masalalar muhokama qilindi. MDHga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlarining Oila instituti va an'anaviy oilaviy qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bayonoti, Hamdo'stlikda 2019-yilni Kitob yili, 2020-yilni 1941–1945-yillardagi ulug' Vatan urushida qozonilgan g'alabaning 75 yilligi yili, deb e'lon qilish haqida qaror qabul qilindi. Hamdo'stlik mamlakatlarining jinoiy daromadlarni legallashtirish, terrorizm va qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohalaridagi hamkorligiga doir konsepsiyalar ma'qullandi. Shuningdek, MDH mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan yana qator hujjatlar qabul qilindi.

Sammit doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda qo'shma korxonalar tashkil etish, savdo uylarini kengaytirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash bo'yicha hamkorlik qilish masalalari muhokama qilindi.



Davlatimiz rahbarining ushbu sammitdagi nutqi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**12-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha kengashining din va e'tiqod erkinligi masalasi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Ahmad Shahidni qabul qildi.

Uchrashuvda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish, dinlararo va millatlararo munosabatlar sohasida o'zaro muvofiqlashtirilgan choralar ko'rish va qo'shma tadbirlar o'tkazish masalalari ham muhokama qilindi.

\* \* \*

**13-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida sanoat va ijtimoiy soha obyektlari, aholini tabiiy gaz, elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash, bu boradagi qarzdorlikni bartaraf etish, ushbu yo'nalishdagi amaliy chora-tadbirlarga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Ushbu masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi rahbariyati va tegishli mutasaddilar hisoboti tinglandi.

Tanqidiy tahlil ruhida o'tgan yig'ilishda Majburiy ijro byurosi faoliyati, qarzdorliklarni undirish, huquqbuzarliklarni fosh etish, sud hujjatlari ijrosini ta'minlash, tashkiliy-huquqiy tadbirlar bilan bog'liq masalalar muhokama etildi. Davlatimiz rahbari Majburiy ijro byu-

rosi faoliyatini yanada takomillashtirish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng jalb etish, sanoat tarmoqlari mutasaddilari, mahalla faollari bilan hamkorlikni kengaytirish kabi muhim vazifalar bo'yicha topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**14-15-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan tanishish, istiqboldagi vazifalarni belgilash maqsadida Xorazm viloyatiga keldi va dastlab Urganch xalqaro aeroportida bajarilgan rekonstruksiya ishlari bilan tanishdi. Aeroport faoliyatini takomillashtirish, mehmonlar uchun qulayliklarni yanada oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari viloyatga kelayotgan sayyohlar oqimini ko'paytirishda tarixiy obidalarning ahamiyati beqiyos ekanini ta'kidladi. Tarixiy obyektlarni qayta tiklash va ta'mirlashda asl milliy qadriyat va urf-odatlarimizni saqlash va xorijliklarga ko'rsatish borasida tavsiyalar berdi.

Shavkat Mirziyoyev aholi uchun yangilangan namunaviy loyihalar asosida qurib bitkazilgan uylar bilan tanishdi. Zamonaviy va milliy me'morlik andazalari asosida barpo etilgan 1 va 2 qavatli 64 ta uy-joylarda yaratilgan sharoitlarni ko'rib chiqdi.

Davlatimiz rahbari Toshsoqa tizimidagi magistral sug'orish kanallarini qayta tiklash loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar

bilan tanishdi. Kanallar atrofidagi yerlarni obodonlashtirish, odamlar bu yerda dam olishi uchun sharoit yaratish bo'yicha Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda viloyat hokimligi mutasaddilariga tegishli topshiriqlar berildi.

Shavkat Mirziyoyev Xiva shahrida barpo etilayotgan «Farovon» mehmonxonasining qurilish uchastkasida bo'ldi.

Prezidentimiz Xiva shahridagi hukmdorlar qarorgohi – Nurillaboy saroy majmuasini ko'zdan kechirdi.

Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyati iqtisodiyotiga jalb qilinadigan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni ko'paytirish va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonasi faoliyatini yanada rivojlantirish loyihalari taqdimoti bilan tanishdi. Taqdimotda kam ta'minlangan oilalarning qoramol va parranda boqish, tomorqada sabzavot mahsulotlari yetishtirishdagi ishtirokini faollashtirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalar haqida ham ma'lumot berildi.

Prezidentimizga viloyatga xorijlik va mahalliy sayyohlarni jalb qilish, hududning turizm salohiyatini yanada rivojlantirish loyihalari taqdim qilindi.

Davlatimiz rahbari viloyatda «Xavfsiz turizm» konsepsiyasini amalga oshirish loyihasi bilan ham tanishdi.

Xiva shahridagi Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi hududida Pahlavon Mahmud majmuasidagi ta'mirlash-tiklash ishlari bilan tanishish maqsadida ushbu hududda bo'ldi. Qur'on tilovat qilindi.

Ilgari bu joylar tashlandiq maskanga aylanib qolgan edi. Bu yerlar insonga ruhiy quvvat beradi. Buni kelayotgan ziyoratchilarning ko'pligidan ham bilsa bo'ladi, dedi Prezidentimiz.

Mazkur majmuaga kuniga o'rtacha 400 ga yaqin ziyoratchi keladi. Ta'mirlash va qurilish ishlarini joriy yil oxirida yakuniga yetkazish ko'zda tutilgan. Shavkat Mirziyoyev ziyoratchilar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari Sherg'ozixon madrasasini ko'zdan kechirdi. Bu maskanda ta'lim olgan allomalar sharafiga tashkil etilgan muzey faoliyati bilan tanishdi. Madrasa binosiga zarar yetkazmagan holda uni qayta ta'mirlash zarurligini qayd etdi.

Viloyat turizmiga taalluqli yana bir yirik loyiha – Urganchdan Xivagacha temiryo'l barpo etish loyihasidir. Temiryo'l zamonaviy talablar asosida loyihalashtirilib, ulkan bunyodkorlik ishlari boshlab yuborildi.

Kelgusida mazkur temiryo'l elektrlashtirilib, Toshkentdan Xivagacha tezyurar poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yiladi. Xiva vokzali Ichan qal'aning Hazorasp darvozasi yonida barpo etilayotgani sayyohlarga qulaylik yaratadi. Prezidentimiz Xiva shahar vokzalida amalga oshirilayotgan ishlar, istiqboldagi loyihalar bilan tanishdi.

Xiva shahrining tarixiy qismini yangilash rejasi taqdimoti o'tkazildi. Shavkat Mirziyoyev Ichan qal'a

yaqinida istirohat bog'i barpo etish, sayyohlar piyoda sayr qiladigan ko'cha bo'yida savdo va hunarmandlik shoxobchalari, ikki qavatli uy-joylar qurish bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz Xiva tumanidagi «Rahimbergan hoji anbar» ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi dalasida ilg'or dehqon va fermerlar bilan suhbatlashdi.

Shu kuni Urganch shahrida Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlad.

Tashrifning ikkinchi kuni davlatimiz rahbari Xorazm viloyati musiqali drama teatrini borib ko'rdi. Davlatimiz rahbari teatr mutasaddilari bilan muloqotda teatrning repertuari, xodimlar malakasi va mehnat sharoiti bilan qiziqdi.

Ijodkorlar uchun zamonaviy uy-joy qurib berish, teatrning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Urganch shahridagi Yoshlar markazida ham bo'lib, bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, viloyatning bir guruh faol yoshlari bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz xorazmlik yoshlarining shijoati, erishayotgan yutuqlarini yanada rag'batlantirish maqsadida Urganch davlat universiteti qoshidagi 2-akademik litsey o'quvchisi Ozoda Ismoilovaga O'zbekistonning Germaniyadagi elchixonasida malaka oshirish uchun yo'llanma, Gurlan maishiy xizmat kasb-hunar kol-

leji o'quvchisi Shirinoy Rahimovaga «Spark» avtomobili sovg'a qildi.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Checheniston Respublikasi rahbari Ramzan Qodirovni qabul qildi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Checheniston o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. O'zaro savdo hajmi va nomenklaturasini kengaytirish, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarida qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish, aholi salomatligini mustahkamlash, sifatli dori-darmon bilan ta'minlash borasidagi islohotlar tahliliga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Tizim faoliyatini tubdan takomillashtirish, odamlarda haqli e'tiroz uyg'otayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi, shu yo'nalishda amalga oshirilayotgan dasturlar ijrosi atroflicha ko'rib chiqildi.

Aholini sifatli va arzon dori-darmon vositalari bilan ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, shoshilinch tibbiy yordamni takomillashtirish, birlamchi tibbiyot tizimini yanada yaxshilash, xususiy sektor va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni yanada rivojlantirish borasida hali qiladigan ishlarimiz ko'p, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilishda tegishli vazirlik va idoralar rahbarlarining axborotlari tinglandi.

Sohada o'z yechimini kutayotgan qator dolzarb masalalar ko'rib chiqildi. Vazirlik va idoralar rahbarlariga tegishli topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**18-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Islom hamjihatligi: O'zbekiston va Ozarbayjon misolida» mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik yo'l-ladi.

\* \* \*

**19-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Islom hamjihatligi: O'zbekiston va Ozarbayjon misolida» xalqaro konferensiyasining Kavkaz musulmonlari idorasi raisi shayxulislom Olloshukur Poshshozoda boshchiligidagi ishtirokchilari delegatsiyasini qabul qildi.

Uchrashuvda bugungi kundagi global jarayonlar, xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan tobora kuchayib borayotgan tahdid va xatarlar sa'y-harakatlarni birlashtirish, konfessiyalararo hamkorlik va muloqotni rivojlantirishni taqozo qilayotgani qayd etildi. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlash, ta'limni rivojlantirish va yoshlarning axloqiy tarbiyasini yuksaltirish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**19-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg'iziston tashabbusiga ko'ra Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Almazbek Atamboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari muloqot avvalida qirg'iz xalqini joriy yil 15-oktabr kuni prezidentlik saylovining muvaffaqiyatli o'tkazilgani bilan samimiy muborakbod etdi.

Ikki davlat rahbarlari yaqinda bo'lib o'tgan oliy darajadagi o'zaro tashriflar chog'ida erishilgan kelishuvlar va imzolangan bitimlarni amalga oshirish borasidagi ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalarini an'anaviy do'stlik va amaliy ruhda atroflicha muhokama qildi.

\* \* \*

**19-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillash-tirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Majlisda Vazirlar Mahkamasi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Moliya va zirligi, Qoraqalpog'iston Respubli-kasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari va boshqa tegishli idoralarga har bir masala yuzasidan aniq muddatlari ko'rsatilgan holda muhim topshiriq va vazifalar berildi.

\* \* \*

**23-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-kasi Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh xodimlarni mukofotlash to'g'risi-da»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**25–26-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an-ning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Turkiyada bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev Anitkabir yodgorlik majmuasiga tashrif buyu-rib, Turkiya Respublikasining Birinchi Prezidenti Mustafo Kamol Otaturk xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Tashrifning asosiy tadbirlari Tur-kiya Respublikasi Prezidenti sa-royida bo'lib o'tdi. Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat

Mirziyoyev va Rejep Tayyip Er-do'g'an tor doirada uchrashuv o't-kazdi. Unda O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport kommunikatsiya va boshqa sohalar-dagi hamkorlikni rivojlantirish ma-salalari muhokama qilindi, minta-qaviy va xalqaro muammolar yuza-sidan fikr almashildi.

Prezidentlar muloqotni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida davom ettirdilar. Mu-zokarada savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, turizm, ilm-fan va boshqa sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Muzokarada o'zaro hamkor-likda hali foydalanilmagan imkoni-yatlar ko'pligi, ushbu tashrif ikki mamlakat vazirlik va idoralari, ish-bilarmon doiralari o'rtasidagi alo-qalar rivojiga yangi sur'at baxsh etishi ta'kidlandi. Ikki mamlakatda xaridorgir bo'lgan yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlarni yetkazib be-rish va uzoq muddatli investitsiya-viy hamkorlikni rivojlantirish orqali o'zaro savdo hajmini muttasil oshi-rib borish va diversifikatsiya qilish bo'yicha yakdil fikr bildirildi. Shu maqsadda Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston – Turkiya hu-kumatlararo komissiyasi majlislarini muntazam yo'lga qo'yish muhimligi qayd etildi.

Muzokaralar yakunida O'zbe-kiston va Turkiya o'rtasidagi ham-korlikning turli sohalariga doir 20 dan ziyod hujjat imzolandi. Prezi-dent Shavkat Mirziyoyev va Prezi-dent Rejep Tayyip Erdo'g'an davlat

rahbarlarining Qo'shma bayonotini imzoladilar.

Ommaviy axborot vositalari va-killari bilan uchrashuvda Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Rejep Tayyip Erdo'g'an muzokaralar o'zaro anglashuv va hurmat ruhida o'tganini, imzolangan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi bilan Turkiya Respublikasi o'rtasidagi uzoq istiqbolli hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidladilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 26-oktabr kuni Turkiya Buyuk millat majlisiga tashrif buyurib, Spiker Ismoil Qahramon bilan uchrashdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bilan Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi.

Prezidentimiz kunning ikkinchi yarmida Istanbul shahriga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari Turkiya Respublikasi Bosh vaziri Binali Yildirimni qabul qildi. Muloqotda Anqara kelishuvlarini amalga oshirish, ikki mamlakat vazirlik va idoralari o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga e'tibor qaratildi. Tomonlarni qiziqtirgan masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Bosh vaziri Binali Yildirim ishtirokida ikki mamlakat moliya va ishbilarmon doiralari uchrashuvi bo'lib o'tdi. Ochiq va amaliy ruhda o'tgan muloqotda O'zbekiston va Turkiyaning moliya tashkilotlari, firma va kompaniyalari o'rtasida alo-

qalarni yanada rivojlantirish, o'zaro mahsulot yetkazib berish va xizmat ko'rsatishni kengaytirish masalalariga e'tibor qaratildi, tomonlarni qiziqtirgan aniq loyihalar muhokama qilindi. Uchrashuvda ikki mamlakat kompaniyalari o'rtasida qator hujjatlar imzolandi.

Davlatimiz rahbari tashrif dasturi doirasida Istanbul shahridagi mashhur To'pqopi saroyini borib ko'rdi.

\* \* \*

**27-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga tashrif buyurgan Rossiya Federatsiyasi Hukumati raisining o'rinbosari Dmitriy Rogozinni qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy hamda harbiy-texnik hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha kelishuv va bitimlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Mamlakatlarimiz yetakchi korxonalar va kompaniyalari o'rtasida istiqbolli qo'shma dastur va innovatsiya loyihalarini jadal rivojlantirishga qaratilgan sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**27-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida xususiylashtirilgan davlat mulki negizida xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini yangi sifat darajasiga ko'tarish, xususiylashtirilgan tadbirkorlik subyektlarini samarali qo'llab-quvvatlash borasida amal-

ga oshirilayotgan ishlar tahliliga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda xususiylashtirilgan korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati va moliyaviy-iqtisodiy ahvolini monitoring qilish, ularni kredit va moddiy resurslar bilan ta'minlash, mavjud muammolar va ularning sabablarini aniqlash, muhandislik ishlab chiqarish infratuzilmasini tiklash, bozor topishda tadbirkorlarga amaliy ko'mak berish masalalariga davlat idoralari tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmayotgani ta'kidlandi. Raqobat muhiti va qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini muhofaza qilish, birja faoliyatini litsenziyalash, zamonaviy kadrlarni tizimli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, sohaga eng rivojlangan davlatlar tajribasini tatbiq etish kabi masalalar muhokama qilindi.

\* \* \*

**28-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlarining borishi, istiqbolli loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Toshkent shahri tumanlarida bo'lib, dastlab «Tashkent City» xalqaro biznes markazi loyihasini ko'zdan kechirdi. Loyihalarni takomillashtirish, qurilishni tezlashtirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrining Kichik halqa yo'li va Farg'ona yo'li kesishgan joyda qurilgan yo'l o'tkazgichni borib ko'rdi, odamlarga qanchalik

manzur bo'lgani, transport harakati va xavfsizligiga qanday ta'sir ko'rsatgani bilan qiziqdi.

Davlatimiz rahbari Yashnobod tumanida qurib bitkazilgan «Ashxobod sayilgohi»da bo'ldi.

Sayilgohda turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, uchrashuvlar o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar, sayilgoh va unga tutash hududlarni yanada obodonlashtirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Aholining talab va ehtiyojlari, poytaxtimizning kelgusi rivojlanishi inobatga olinib, Toshkent shahrida yer usti halqa metro liniyasini barpo etish bo'yicha ishlar boshlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mazkur qurilish bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Yashnobod tumanidagi «Vatandosh» mahalla fuqarolar yig'inida tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari, Toshkent shahar tumanlari hokimlari va faollari bilan uchrashdi. Ochiq muloqot shaklida o'tgan uchrashuvda kommunal, yo'l-transport, ta'lim, tibbiyot, fan-texnika sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar va yechimini kutayotgan dolzarb masalalar xususida so'z yuritildi. Shavkat Mirziyoyev mazkur mahalladagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari do'konida ham bo'ldi va aholi ehtiyojlari uchun zarur mahsulotlar turi va narxi bilan qiziqdi.

\* \* \*

**1-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan BMT Bosh kotibi o'rinbosari, BMTning Narkotik-

lar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi ijrochi direktori Yuriy Fedotovni qabul qildi.

Uchrashuvda o'zaro hamkorlikning «yo'l xaritasi» — Amaliy harakatlar rejasini ishlab chiqish va qabul qilish asosida narkotrafik, jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar ko'rish va birgalikdagi ishlarni yanada kuchaytirish masalalari atroflicha ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**1-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo'lib turgan va MDH Hukumat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etadigan Rossiya Federatsiyasi Hukumati raisi Dmitriy Medvedevni qabul qildi.

Suhbat chog'ida joriy yilning aprel oyida Moskva shahrida o'tgan oliy darajadagi muzokaralar, ikki mamlakat rahbarlarining uchrashuvlari, jumladan, oktabr oyida MDHning Sochi sammiti doirasidagi muloqoti strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga kuchli sur'at bag'ishlagani, o'zaro hamkorlikni sifat jihatidan yangi mazmun bilan boyitgani alohida ta-

kidlandi. Ko'pqirrali O'zbekiston — Rossiya munosabatlarini yanada kengaytirish, o'zaro savdo hajmini oshirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo'shma kooperatsiya loyihalarini hayotga tatbiq etish, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**2-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev MDH Hukumat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda, Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Bakitjan Sagintayev, Belarus Respublikasi Bosh vaziri Andrey Kobaykov va Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisi o'rinbosari Esenmurat Orazgeldiyev bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazdi.

Tojikiston, Qozog'iston, Belarus va Turkmaniston hukumatlari rahbarlari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi va o'z davlatlari rahbarlarining ezgu tilaklarini yetkazdi.

\* \* \*

**3-noyabr.** O'zbekiston Respublikasi bilan Latviya Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 25 yil to'lishi munosabati bilan ikki davlat rahbarlari bir-birlarini qutladilar.

\* \* \*

**3-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hunarmandchilikni yanada rivojlantirish, hu-



narmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Unda xalq hunarmandligi va amaliy san'atini rivojlantirish, ular tomonidan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, shu asosda yangi ish o'rinlari yaratish masalalari muhokama qilindi. Hunarmandlarning istiqbolli loyihalarini moliyalashtirish, buning uchun ularga imtiyozli kreditlar ajratish, sohaga xalqaro moliya institutlari investitsiyalarini jalb etish zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda sohada xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, hunarmandlarni moliyaviy-tashkiliy qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini oshirish va boshqa dolzarb masalalar muhokama qilindi. Tegishli tashkilotlar mutasaddilari zimmasidagi vazifalar belgilab berildi.

\* \* \*

**3-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev MDH Hukumat rahbarlari kengashining Toshkent shahrida o'tgan navbatdagi majlisida ishtirok etgan Qirg'iziston Bosh vaziri Sapar Isoqov, Armaniston Bosh vaziri Karen Karapetyan hamda Ozarbayjon Bosh vazirining birinchi o'rinbosari Yoqub Eyubov bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazdi.

Qirg'iziston, Armaniston va Ozarbayjon hukumatlari rahbarlari O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi va o'z davlatlari rahbarlarining ezgu tilklarini yetkazdi.

\* \* \*

**3-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Maxsus turdagi tovarlar eksporti va importini litsenziyalash, shuningdek, eksport kontraktlarini ro'yxatga olish va import kontraktlarini ekspertizadan o'tkazishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**6-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni mahalliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-noyabr.** Jizzaxda atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan tantanali tadbirlar bo'lib o'tdi. Ularda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi. Dastlab ehson dasturxonini yozilib, Qur'on tilovat qilindi. So'ngra Jizzax shahri markazida o'rnatilgan Sharof Rashidov haykalining ochilish marosimi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Sharof Rashidov haykalini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Sharof Rashidovning qizi Sayyora Rashidova ochdi. Sharof Rashidov haykali poyiga gullar qo'yildi.

Shavkat Mirziyoyev yubiley arafasida qurib bitkazilgan Sharof Rashidov memorial muzeyida bo'lib, bu yerda yaratilgan sharoitlar va eksponatlar bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev memorial muzey faxriy mehmonlar kitobiga o'z fikr va taassurotlarini yozib qoldirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Jizzax shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya xotirasiga bag'ishlab bunyod etilgan yodgorlik majmuasini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan barpo etilgan Hamid Olimjon va Zulfiya xiyoboni, ikki shoir nomi bilan ataluvchi o'zbek tili va adabiyotini chuqur o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internat hamda muzey xalqimizning ardoqli farzandlariga ko'rsatilgan ulkan ehtirom namunasi bo'ldi.

Jizzax shahrida adabiyotimizning ulkan namoyandalari Hamid Olimjon va Zulfiyaning adabiy merosini keng targ'ib qilish maqsadida muzey tashkil etildi.

Davlatimiz rahbari Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi xiyobon atrofini yanada obodonlashtirish, muzey faoliyatini takomillashtirish, maktab-internatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha topshiriqlar berdi. Shoirlar haykali poyiga gul qo'ydi.

Atoqli davlat arbobi, taniqli yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligi munosabati bilan Jizzax viloyati musiqali drama teatri ham zamonaviy talablar darajasida rekonstruksiya qilindi. Prezidentimiz teatr binosi bilan tanishar ekan, ushbu zamonaviy san'at dargohi Sharof Rashidovning qutlug' tavallud sanasi nishonlanayotgan kunda Jizzax viloyati xalqiga katta tuhfa bo'lganini ta'kidladi.

Kunning ikkinchi yarmida Jizzax viloyati musiqali drama teatrida atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan xotira kechasi va konsert dasturi bo'lib o'tdi. Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari Jizzax viloyatiga tashrifi davomida «Jizzax» erkin iqtisodiy zonasida amalga oshirish mo'ljallanayotgan yangi loyihalar bilan tanishdi.

Prezidentimizga «O'zqurilish-materiallari» AJ tomonidan Jizzax viloyatida 2017–2018-yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar to'g'risida ham ma'lumot berildi.

\* \* \*

**7-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Farmasevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga ama-

liy tashrif bilan kelgan Sankt-Peterburg shahri gubernatori Georgiy Poltavchenkoni qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Sankt-Peterburg shahri o'rtasidagi an'anaviy yaqin va o'zaro manfaatli munosabatlarni yanada kengaytirish va mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**8-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik» mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan nufuzli delegatsiyaga boshchilik qilayotgan AQSh Prezidenti maslahatchisi o'rinbosari, Milliy xavfsizlik kengashining Janubiy va Markaziy Osiyo bo'yicha katta direktori Liza Kyortisni qabul qildi. Davlatimiz rahbari mehmonni samimiy qutlar ekan, hozirgi vaqtda O'zbekiston — Amerika muloqoti amaliy hamkorlik ruhida barqaror rivojlanib borayotganini qayd etdi.

Liza Kyortis AQSh rahbariyati O'zbekistonning mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashda tutgan o'rnini yuksak qadrlashini ta'kidladi. Amerika Qo'shma Shtatlari O'zbekiston bi-

lan uzoq istiqbolga mo'ljallangan munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishdan manfaatdor ekanini qayd etdi.

\* \* \*

**9-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh kotibining siyosiy masalalar bo'yicha yordamchisi Miroslav Yench va Bosh kotibning maxsus vakili, Markaziy Osiyoda preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markazi rahbari Natalya Germanni qabul qildi.

O'zbekiston Jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida xalqaro jarayonlarda faol ishtirok etayotgani, jumladan, yig'ilib qolgan masalalarga amaliy yechim topish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, mintaqaning uzoq istiqbolga mo'ljallangan taraqqiyoti bo'yicha aniq takliflar ilgari surayotgani va amalga oshirayotgani ta'kidlandi.

Uchrashuvda O'zbekiston va BMT o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlashga doir boshqa masalalar muhokama qilindi.

\* \* \*

**9-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga tashrif bilan kelgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) Bosh kotibi Tomas Gremingerni qabul qildi. Davlatimiz rahbari Shveysariyaning atoqli diplomatini yuqori va mas'uliyatli lavozimga tayinlangani bilan qutlab, O'zbekiston YXHT bilan yanada faol hamkorlik qilish, Tashkilot mandatiga

kiruvchi barcha masalalar bo'yicha o'zaro anglashuvni mustahkamlashdan manfaatdor ekanini qayd etdi.

Mehmon O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining asosiy yo'nalishlari YXHTning xavfsizlik, iqtisodiy-ekologik va inson mezonlari bo'yicha barcha maqsad va ustuvor yo'nalishlari bilan to'la hamohang ekanini alohida ta'kidladi.

YXHT va uning O'zbekistondagi vakolatxonasi o'zaro hamkorlikka, mamlakatimizda uzoq istiqbolga mo'ljallangan islohotlar va o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha tajriba almashish va ekspert ko'magi ko'rsatishga tayyor ekani bildirildi.

Uchrashuvda YXHT faoliyatiga oid boshqa masalalar, jumladan, mintaqaviy va xalqaro dolzarb muammolar ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**9-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha reja va dasturlar bilan tanishish, istiqbol-dagi vazifalarni belgilash maqsadida Samarqandga keldi.

Davlatimiz rahbari Hazrati Xizr majmuasida bo'lib, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov qabrini ziyorat qildi. Qur'on tilovat qilindi. Shavkat Mirziyoyev mazkur majmuada olib borilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz Samarqand shahridagi sobiq liftsozlik zavodi hududida tashkil etilgan yangi sanoat

majmuasida bo'lib, viloyatda amalga oshirilayotgan yirik loyihalar bilan tanishdi. Dastlab yengil sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar namunalarini ko'zdan kechirdi. Shu yerda terini qayta ishlash, charm-poyabzal ishlab chiqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar haqida ham ma'lumot berildi. Davlatimiz rahbari «Ideal elektroluks» O'zbekiston – Turkiya qo'shma korxonasida ishlab chiqarilayotgan maishiy texnika jihozlari, «Sino» aksiyadorlik jamiyatida tayyorlanayotgan muzlatkich va sovutkichlarni ko'zdan kechirdi. Mahsulotlarga tashqi bozorda xaridor topish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Prezidentimizga 2018–2019-yillarda Samarqand viloyatini kompleks rivojlantirish dasturi doirasida amalga oshiriladigan loyihalar to'g'risida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari Samarqand viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish yuzasidan amalga oshiriladigan loyihalarga ham alohida e'tibor qaratdi. Prezidentimiz joriy yilda xorijdan kelgan sayyohlar viloyat iqtisodiyotiga keltirgan foyda boshqa ko'plab sohalaridagidan yuqori ekanini ta'kidladi. Viloyatda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish xorijiy sayyohlar oqimini ko'paytirish, iqtisodiyot taraqqiyotiga yangicha sur'at berishi qayd etildi.

Shu yerda zamonaviy loyihalar-ni amalga oshirish yuzasidan turkiyalik ishbiarmonlar bilan muloqot bo'lib o'tdi.

Shu kuni xalq deputatlari Samarqand viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbari 10-noyabr kuni Samarqand viloyati Payariq tumanidagi Imom Buxoriy majmuasiga tashrif buyurdi.

Prezidentimiz Imom Buxoriy majmuasi, xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va hududda joylashadigan boshqa infratuzilma inshootlari konsepsiyasi bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari markaz konsepsiyasida ziyoratchilarga qulayliklar yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratdi.

Kelajakda ushbu markaz muqaddas dinimizni, ajdodlarimizning hadisshunoslik rivojiga qo'shgan benazir hissasini targ'ib qiladigan maskan bo'lishi lozim.

Davlatimiz rahbari markaz qurilishini zamonaviy va milliy me'morlik an'alarini uyg'unlashtirgan holda amalga oshirish, bunyodkorlik ishlarida sifatli qurilish materiallaridan foydalanish, hududda ziyorat turizmini keng yo'lga qo'yish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish yuzasidan mutasaddilarga tavsiyalar berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xalq deputatlari Samarqand viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**10-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqandda BMT shafeligida o'tkazilayotgan Markaziy

Osiyoda xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga bag'ishlangan xalqaro anjumanda ishtirok etgan Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili, Yevrokomissiya vitse-prezidenti Federika Mogerini, Eron tashqi ishlar vaziri Muhammad Javad Zarif va Turkiya iqtisodiyot vaziri Nixat Zeybekchi bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazdi.

Uchrashuvda Yevropa bilan keng qamrovli aloqalarni kengaytirish borasida sezilarli natijalarga erishilayotgani qayd etildi. Yevropa Ittifoqi bilan sheriklikni investitsiya, savdo, moliyaviy-texnikaviy hamkorlik, ta'lim va boshqa qator yo'nalishlarda ilg'or tajriba va texnologiyalar almashish sohasidagi amaliy mazmun bilan boyitish tomonlar uchun manfaatli ekaniga e'tibor qaratildi. Xalqaro va mintaqaviy, xususan, Markaziy Osiyoda siyosiy ishonchni mustahkamlash va barqaror taraqqiyotni ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**10-noyabr.** Samarqand shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida «Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik» mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi. Nutq matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**13-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Elektr energiyasi va ta-

biiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini jadal joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida geologiya-qidiruv ishlari samaradorligini oshirish, mineral-xomashyo va qimmatbaho metallar resurs bazasi hamda ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish bo'yicha muhim strategik loyihalarni amalga oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Unda geologiya sohasining bugungi holati tanqidiy tahlil qilindi. Yer qa'ridan oqilona foydalanish, muhofaza qilish va konchilikni boshqarishda aniq mexanizm mavjud emasligi, bu sohaga yetarlicha e'tibor berilmagani ko'rsatib o'tildi. Bu sohada ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rgangan holda Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasining butunlay yangi tuzilmasi va yo'nalishlarini ishlab chiqish, salohiyatini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda sohadagi yirik muassasalar — Navoiy kon-metallurgiya kombinati va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tomonidan amalga oshiriladigan loyihalar ijrosiga ham e'tibor qaratildi.

«Yoshlik-1» va «Yoshlik-2» konlarini o'zlashtirishni yanada tezlashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Sohani zamonaviy mutaxassislar bilan ta'minlash uchun Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi huzurida ixtisoslashgan oliy ta'lim

muassasasi tashkil etish, unda ilmiy izlanishlarga katta ahamiyat qaratish, ishlab chiqarish korxonalari va ta'lim tizimi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash zarurligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**15-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida belgilangan vazifalar ijrosi, bu borada mavjud muammolar va ularni hal etish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Sohada amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda, davlatimiz rahbari ayrim hududlarda jinoyatlarni sezilarli kamaytirishga erishilmagani, ba'zi jinoyat turlari oshgani kabi kamchiliklarni keskin tanqid qildi. Qator mahallalarda profilaktik tadbirlarning samaradorligi yetarli darajada ta'minlanmagani, huquq-tartibot idoralarining jamoatchilik bilan hamkorligi talabdarajasida yo'lga qo'yilmagani, bu esa ayrim turdagi og'ir jinoyatlar sodir etilishiga sabab bo'lgani aniq raqam va misollar asosida tahlil qilindi.

Davlatimiz rahbari tomonidan har bir hududning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda, tumanlar bo'yicha jinoyatlarning oldini olish borasida alohida chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan «yo'l xaritasi»ni ishlab chiqish yuzasidan ko'rsatma berildi.

Majlisda yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish, bu bora-

da ta'lim muassasalari va ichki ishlar organlarining hamkorligini mustahkamlash va mas'uliyatini oshirish masalalari ham tahlil qilindi.

Yig'ilishda jinoyatchilikning oldini olishda eng muhim omillardan biri bo'lgan ishsizlikni bartaraf etish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**16-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Suv ta'minoti va suv chiqarish xizmati ko'rsatish sohasida to'lov intizomini tubdan takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda koreys millatiga mansub yurtdoshlarimiz istiqomat qilayotganining 80 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim ishtirokchilariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**17-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Sergeli tumanida qurib bitkazilgan yangi uy-joylar, ijtimoiy soha obyektlari bilan tanishdi.

Prezidentimiz yangi xonadonlarda bo'ldi. Yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, uy sohiblari bilan suhbatlashdi. Ularni yangi xonadon bilan tabriklab, sovg'alar taqdim qildi.

Davlatimiz rahbari bu yerda joylashgan 50-shahar ichki ishlar bo'limi xodimlari bilan 15-noyabr kuni huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish

masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosi quyi pog'onada qanday aksini topayotgani yuzasidan muloqot qildi.

Mazkur massivda xususiy uy-joylarga xizmat ko'rsatuvchi professional boshqaruv kompaniyasi ish boshladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga mazkur xizmat ko'rsatish markazi faoliyati haqida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari yangi barpo etilgan zamonaviy suzish havzasini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari 61-oilaviy poliklinika faoliyati bilan tanishdi. Poliklinikadagi asosiy yangiliklardan biri — bu bemorlarni navbatga yozish bo'yicha elektron tizim joriy qilinganidir. Prezidentimiz ushbu tizimni 61-oilaviy poliklinika misolida namunaviy qilib poytaxtimizdagi barcha birlamchi tibbiyot muassasalariga joriy etish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari 18-maktabgacha ta'lim muassasasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Shu yerda davlatimiz rahbari Sergeli tumani faollari, nuroniylar, yoshlar, jamoatchilik vakillari, yangi uy sohiblari bilan uchrashdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashrifi doirasida Sergeli tumanida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar taqdimoti bo'lib o'tdi.

\* \* \*

**17-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbek milliy maqom

san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**20-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida bozorlarni qish-bahor mavsumida ham qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, ularni qayta ishlash ko'lamini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, ho'l mevasabzavotlar eksportini kengaytirish, shuningdek, poliz va meva-sabzavot mahsulotlari, kartoshka, uzum xarid qilish bo'yicha 2018-yilga mo'ljallangan davlat buyurtmasini shakllantirish vazifalari ijrosiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini takroriy ekish hajmini oshirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlarni hisobga olgan holda, ho'l meva-sabzavot eksportini kengaytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlar yetarlicha ishga solinmayotganiga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**20-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda huquqbuzarliklar profilaktikasi kunida o'tkazilayotgan tadbirlarda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi sezilmayotgani, ayrim hududlarda aholi bilan manzilli profilaktik tadbirlar yetarli darajada olib borilmagani oqibatida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar sodir etilayotgani ta'kidlandi.

Shavkat Mirziyoyev huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishda idoralararo hamkorlikni mustahkamlash yuzasidan zarur topshiriqlar berdi.

Prezidentimiz jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda aholining huquqiy madaniyatini oshirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratdi. Har bir mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish lozimligini ta'kidlab, bu boradagi sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirish zarurligini qayd etdi.

\* \* \*

**22-noyabr.** O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 25 yilligi munosabati bilan ikki davlat rahbarlari bir-birlarini qutladilar.

\* \* \*

**22–24-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Mun Chje



Inning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Koreya Respublikasiga keldi.

Tashrifning asosiy voqealari 23-noyabr kuni bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev dastlab Janubiy Koreya – O'zbekiston biznes-forumida qatnashdi.

Prezidentimiz o'z nutqida O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar izchil rivojlanayotgani, mamlakatimizda biznes yuritish uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilganini qayd etdi.

Shu yerda Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimidagi bir yillik faoliyati haqida koreys tilida chop etilgan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev» nomli kitobning taqdimoti bo'lib o'tdi. 50 ming nusxada chop etilgan kitob 8 bo'lim, 320 sahifadan iborat.

Davlatimiz rahbari Koreya Respublikasi mustaqilligi yo'lida jon fido qilgan qariyb 170 ming odam xoki qo'yilgan Milliy yodgorlik majmuasini ziyorat qildi. Vatandar insonlar xotirasiga hurmat bajo keltirib, yodgorlik poyiga gulchambar qo'ydi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Koreya Respublikasi Prezidentining «Chong va de» («Moviy saroy») qarorgohida rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev va Mun Chje In o'rtasida o'tkazilgan tor doiradagi muzokarada o'zaro ham-

korlikni yanada rivojlantirishning uzoq istiqbolga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari, tomonlarni qiziqtirgan dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

Prezidentlar ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni kengaytirishga oid masalalarni muhokama qildilar.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In Strategik sheriklik munosabatlarini har tomonlama chuqurlashtirish to'g'risida Qo'shma bayonotni imzoladilar.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Koreya Respublikasi Inson resurslarini boshqarish vazirligi o'rtasida Hamkorlik memorandumini, ikki mamlakat Adliya vazirliklari o'rtasida Hamkorlik memorandumini, O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi hamda Koreya Respublikasi Savdo, sanoat va energetika vazirliklari o'rtasida O'zbekistonda Milliy elektron savdo platformasini joriy qilish bo'yicha hamkorlik bitimi, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo memorandum, ikki davlat Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2018–2020-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan Koreya Strategiya va moliya vazirligi o'rtasida Bilimlar alma-

shinuv dasturi bo'yicha Anglashuv memorandumini, 2018–2020-yillarda Iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik jamg'armasi kreditlari bo'yicha hukumatlararo hadli kelishuv hamda O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot fondi bilan Koreya Respublikasi eksport-import banki o'rtasida moliyaviy hamkorlik to'g'risida kelishuv kabi oltmishdan ortiq hujjat imzolandi.

Tashrif doirasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnikaviy va boshqa sohalarga oid umumiy qiymati 10 milliard AQSh dollaridan ortiq 60 dan ziyod hujjat imzolandi. Shundan 4,5 milliard dollari to'g'ridan to'g'ri investitsiyalardir.

Davlatimiz rahbari 24-noyabr kuni BMT sobiq Bosh kotibi, Xalqaro Olimpiya qo'mitasining etika komissiyasi raisi Pan Gi Munni qabul qildi. Pan Gi Mun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Koreya Respublikasiga davlat tashrifini yuqori baholab, ikki mamlakat o'rtasidagi azaliy do'stlik va o'zaro ishonch ruhidagi hamkorlik aloqalari rivojida yangi bosqichni boshlab berganini qayd etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Spikeri Chon Se Gyun bilan uchrashdi.

Prezidentimiz Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi poytaxti meriyasiga tashrif buyurdi.

Prezidentimizni Seul shahri meri Pak Von Sun kutib oldi. Shavkat Mirziyoyev faxriy mehmonlar kitobiga o'zining tilaklarini yozib qoldirdi. Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga Seul shahrining faxriy fuqarosi unvonini berishga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tdi. Marosimda so'zga chiqqanlar O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik aloqalari rivojlanib borayotgani, ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik munosabatlari yanada mustahkamlanishida Prezident Shavkat Mirziyoyevning davlat tashrifi muhim ahamiyat kasb etayotganini qayd etdi.

Davlatimiz rahbari xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik ramzi sifatida Toshkent shahridagi ko'chalardan biriga Seul nomi berish taklifini bildirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga Seul shahri faxriy fuqarosi unvoni tantanali ravishda topshirildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Bosh vaziri Li Nak Yon bilan uchrashdi. Suhbat chog'ida erishilgan mazkur kelishuvlarni amaliyotga izchil tatbiq etish, yangi istiqbolli loyihalar bo'yicha hamkorlik aloqalarini jadallashtirish masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In hamrohligida Seul shahridagi Janubiy Koreya Milliy muzeyiga tashrif buyurdi. Madaniy-gumanitar sohalarda davlatlarimiz o'rtasidagi

aloqalarni yanada kengaytirish yuzasidan kelishib olindi.

\* \* \*

**27-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi. Suhbatda tomonlar O‘zbekiston – Qozog‘iston munosabatlarining muhim masalalari, siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va boshqa sohalaridagi o‘zaro hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash istiqbollari yuzasidan fikr almashdilar.

Davlat rahbarlari diplomatik munosabatlar o‘rnatilganiga 25 yil to‘lgan joriy yil aniq amaliy mazmunga boy bo‘lgani hamda ikki tomonlama munosabatlarni sezilarli darajada mustahkamlash, yangi, sifat jihatidan yanada yuqori bosqichga ko‘tarish imkonini berganini, hamkorlik bo‘yicha rejalashtirilgan, avvalo, iqtisodiyot sohasidagi dastur va loyihalarni o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida birgalikda yanada faol harakat qilish muhimligini ta’kidladilar. Tomonlar tashqi siyosat va yetakchi xalqaro tashkilotlar doirasida ham samarali hamkorlik amalga oshirilayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

\* \* \*

**27-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg‘iziston Respublikasi sobiq rahbari Almazbek Atamboyev bilan telefon orqali muloqot qildi. Suhbatda yakuniga yetayotgan yil ikki tomonlama munosabatlarda

to‘planib qolgan ko‘plab, jumladan, ancha murakkab masalalarni hal qilishda katta natijalarga erishish imkonini bergan hamkorlikni yangi darajaga olib chiqishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgani ta’kidlandi.

O‘zbekiston – Qirg‘iziston davlat chegaralari to‘g‘risidagi shartnoma imzolanganining tarixiy ahamiyati alohida qayd etildi.

Suhbat yakunida ikki mamlakat tashqi siyosatida izchillikni saqlash muhimligi alohida ta’kidlandi.

\* \* \*

**27-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Abdug‘aniyevich Karimov tavalludining 80 yilligini nishonlash to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Paxtachilik tarmog‘ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**28-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Vazirlar Mahkamasi faoliyatini takomillashtirish va ish samaradorligini oshirish, Bosh vazir va uning o‘rinbosarlari, departamentlar mudirlari, vazirlar, qo‘mita va kompaniyalar raislarining shaxsiy mas‘uliyatini kuchaytirish bilan bog‘liq masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev o'z so'zida kun tartibidagi masalaga chuqur tahlil asosida tanqidiy yondashib, aksariyat rahbarlar tomonidan tartib-intizom va mas'uliyatning bo'shashtirib yuborilgani, ular o'z faoliyatini zamon talablari asosida tashkil eta olmayotgani, xizmat vazifasiga loqaydlik va beparvolik bilan munosabatda bo'layotgani kabi holatlar umumiy natijadorlikka salbiy ta'sir ko'rsatayotganini ta'kidladi.

Yig'ilishda iqtisodiyot soha va tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash, jumladan, qat'iy pul-valuta siyosatini yuritish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, zamonaviy sanoat korxonalarini barpo etish, yangi ish o'rinlari yaratish, mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish, samarali soliq siyosatini shakllantirish, budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, davlat statistikasi tizimini takomillashtirish kabi masalalar atroflicha muhokama qilindi. Shuningdek, davlatimiz rahbari ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniyat va san'at, jismoniy tarbiya va sport, yoshlar va xotin-qizlar masalalari bilan bog'liq vazifalarga e'tibor qaratdi.

Yig'ilishda Prezidentimiz joriy yilda amalga oshirilgan ishlarni chuqur tahlil qilish asosida erishilgan yutuqlarni yanada mustahkamlash, yo'l qo'yilgan kamchiliklarning takrorlanmasligi uchun barcha za-

rur choralarni ko'rish, ayni paytda 2018-yilning birinchi choragida bajariladigan aniq vazifalar bo'yicha tegishli ko'rsatma va topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**29-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**30-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida arxitektura va qurilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari yuzasidan Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi rahbarlarining hisoboti eshitildi.

Yig'ilishda amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birga, Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tizimining faoliyati tahlil qilindi va islohotlarni amalga oshirish sust olib borilayotgani ta'kidlab o'tildi. Shuningdek, yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan loyiha institutlari faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilmagani, bu borada ilg'or chet el tajribasi joriy etilmayotgani tanqid qilindi.

Yig'ilishda shaharlardagi ko'p-qavatli arzon uylar va qishloq joy-

lardagi namunali uylarni sifatli qurish va muddatida topshirish, odamlarning bu uylarga ko'chib kirishini tashkil etish ishlarini jadallashtirish vazifasi yuklatildi.

Muhokama qilingan barcha masalalar bo'yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**30-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston — Rossiya: strategik sheriklikning 25 yili» mavzusidagi tarixiy-hujjatli ko'rgazma tashkilotchilari va ishtirokchilariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**1-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Nursulton Nazarboyevni Qozog'iston Respublikasi Birinchi Prezidenti kuni bilan samimiy tabrikhladi.

O'zbekiston va Qozog'iston davlat rahbarlari ikki tomonlama hamkorlikning bugungi holati va istiqbollarni ham muhokama qildilar. Yakuniga yetayotgan yilda mamlakatlarimizning siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi munosabatlari salmoqli darajada kengaygani ta'kidlandi.

Davlat rahbarlari, shuningdek, xalqaro ahamiyatga molik alohida masalalar hamda yangi 2018-yilga mo'ljallangan ikki va ko'p tomonlama hamkorlik yuzasidan fikr almashdilar.

\* \* \*

**1-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Chorvoq» erkin turistik zonasini tashkil etish to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**4–6-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'ani rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. Tashrifning asosiy tadbirlari «Ko'ksaroy» qarorgohida bo'lib o'tdi. Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Ashraf G'anining tor doiradagi uchrashuvi bo'ldi.

Muloqotda mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning dolzarb mavzulari ko'rib chiqildi. Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar, xususan, terrorizm, ekstremizm va narkotrafikka qarshi kurashish, Markaziy Osiyoda xavfsizlikni mustahkamlash yuzasidan fikr almashildi.

Ikki davlat rahbarlari muzokarlarni kengaytirilgan tarkibda davom ettirdilar. Unda rasmiy delegatsiyalar a'zolari, vazirlik va yirik kompaniyalar rahbarlari ishtirok etdi. Muzokaralarda savdo-iqtisodiyot, tran-

sport, tranzit, energetika, kimyo, agrosanoat, ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Muzokarada madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston va Afg'oniston Prezidentlarining Qo'shma bayonoti imzolandi. Mamlakatlarimiz o'rtasida turli sohalardagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan 16 hujjat imzolandi.

Prezidentlar ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda bo'lib o'tgan muzokaralar va imzolangan hujjatlar O'zbekiston Respublikasi bilan Afg'oniston Islom Respublikasi o'rtasidagi o'zaro manfaatli va uzoq muddatli aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidladilar.

Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'ani Toshkent qishloq xo'jaligi texnikasi zavodiga tashrif buyurdi. Afg'oniston delegatsiyasi mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan yengil va yuk mashinalari, qishloq xo'jaligi texnikalari, maishiy uskunalari va boshqa sanoat mahsulotlari bilan tanishdi. Tadbirda samimiy do'stlik munosabatlarining ifodasi sifatida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan 25 dona «Isuzu» rusumli avtobus va «New Holland» markali 3 ta traktor O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan birodar Afg'onistonga hadya etilgani e'lon qilindi.

Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'ani mamlakatimizga rasmiy tashrifi doirasida 6-dekabr kuni Buxoroda bo'ldi. Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'ani Buxoro davlat universiteti professor-o'qituvchilari va talabalari bilan uchrashib, ularning huzurida ma'ruza qildi.

Muhammad Ashraf G'aniga Buxoro davlat universiteti faxriy doktori unvoni berilgani to'g'risida diplom topshirildi.

Afg'oniston rahbari universitetning Faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozib qoldirdi.

Mehmonlar Ark qal'asi, Poyi Kalon majmuasi tarkibiga kiradigan Minorayi Kalon, Masjidi Kalon va Mir Arab madrasasi hamda shaharning boshqa diqqatga sazovor joylari bilan tanishdi. Afg'oniston delegatsiyasi a'zolari buyuk ajdodimiz Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasida ham bo'lib, Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandasi qabrini ziyorat qildi.

\* \* \*

**6-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida «Navoiy» xalqaro intermodal logistika markazi faoliyatini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

2008-yili Navoiy shahri aeroporti bazasida xalqaro intermodal logistika markazi tashkil qilinib, O'zbekiston transport-tranzit salohiyatini yanada yuksaltirish hamda «Navoiy» erkin iqtisodiy zonasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni

tashqi bozorlarga yetkazish yo'lga qo'yilgan edi. Ishni tashkil qilishga munosabatning qanchalar ayanchli holda bo'lganini shundan ham bilsa bo'ladiki, hozirgi kungacha «Navoiy» logistika markazi obyektlarini foydalanishga topshirish bo'yicha davlat qabuli amalga oshirilmagan, deb qayd etdi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari aviatashuvlarning tarif siyosatini qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidladi.

«O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasiga tegishli tashkilotlar bilan birgalikda amaldagi tariflarni qayta ko'rib chiqib, optimal tarzda pasaytirish, logistika markazlari tajribasini o'rganish bo'yicha ishchi guruh tuzish vazifasi yuklandi.

\* \* \*

**6-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jismoniy shaxslar tomonidan naqd xoriyiy valutani olib kirish va olib chiqib ketish tartibini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmonlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 26 yilligi arafasida mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlashga katta hissa qo'shgan, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda fidoyilik ko'rsatgan bir guruh yurtdoshlarimiz davlat mukofotlari —

faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlangan edi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida ana shu yuksak mukofotlarni tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari yig'ilganlarni yuksak unvonlar, orden va medallarga sazovor bo'lgani munosabati bilan samimiy qutladi. Ular orqali barcha vatandoshlarimizni Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 25 yilligi bilan muborakbod etdi.

\* \* \*

**7-dekabr.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligi munosabati bilan poytaxtimizdagi «O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ma'ruza qildi.

Ushbu ma'ruza «Konstitutsiya — erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir» sarlavhasi bilan matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**7-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan soha rivojiga munosib hissa qo'shgan yurtdoshlarimizdan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-dekabr.** Poytaxtimizdagi «O'zbekiston» xalqaro anjumanlar sa-

royida Qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali yig'ilish bo'lib o'tdi. Anjumanda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlashdi.

U «Rizq-ro'zimiz bunyodkori bo'lgan qishloq xo'jaligi xodimlari mehnatini ulug'lash, soha rivojini yangi bosqichga ko'tarish — asosiy vazifamizdir» sarlavhasi bilan matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**11-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an o'rtasida Turkiya tomonining tashabbusi bilan telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi.

Muloqotda davlat rahbarlari joriy yil oktabr oyida Turkiya Respublikasiga oliy darajadagi tashrif yakunlari bo'yicha erishilgan keli-shuv va bitimlarni amalga oshirish muhimligini alohida ta'kidladi.

Savdo-iqtisodiy, texnologik, moliya-sarmoyaviy, transport, turizm va madaniyat sohalaridagi qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirish borasida o'zaro samarali aloqalarni davom ettirish zarurligi qayd etildi. Prezidentlar, shuningdek, Istanbul shahrida bo'lib o'tadigan Islom hamkorlik tashkilotining navbatdan tashqari sammiti kun tartibidagi masalalar, jumladan, mintaqaviy va xalqaro siyosatning boshqa dolzarb masalalari bo'yicha fikr almashdilar.

\* \* \*

**12-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizi-

mini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimiz tibbiyot sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Shavkat Mirziyoyev sog'liqni saqlash tizimidagi muammo va kamchiliklarni hududlar kesimida tahlil qilib, joylardagi tibbiyot muassasalarining kadrlar ta'minoti va salohiyati yetarli emasligi, ya'ni bugungi kunda mamlakatimizda 11 mingdan ziyod shifokor yetishmasligi sababli yangidan tashkil etilayotgan tibbiyot muassasalari tomonidan aholiga sifatli tibbiy yordam ko'rsata olinmayotgani, buning sabablari, oqibat va yechimlariga alohida e'tibor qaratdi. Shuningdek, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasi zaifligi, qishloq oilaviy poliklinikalarida zarur bo'lgan tez tibbiy yordam shoxobchalari va dorixonalar tashkil etilmagani, xususiy tibbiyot tizimini rivojlantirishda tadbirkorlar ishiga to'siq bo'layotgan rahbarlar faoliyati tanqid qilindi.

Yig'ilishda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 2018-yilning birinchi yarmida amalga oshirilishi lozim bo'lgan qator strategik vazifalar belgilab berildi.

\* \* \*

**13-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy



erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to'liqligini ta'minlash bo'yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yer resurslari, geodeziya va kadastr sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi rahbarlarining soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan hisobotlari eshitildi.

Yig'ilishda «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi rahbariyatida yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr sohasida munosabatlarni kompleks tartibga solish, yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, ta'sirchan nazoratni ta'minlashda tashabbus yetishmayotgani qattiq tanqid qilindi. Shuningdek, sohada hal etilishi talab qilinayotgan ko'plab muammolar borligi qayd etildi.

Yer va mulkni ro'yxatga olish tartibini takomillashtirish zarurligiga yig'ilishda alohida urg'u berildi.

\* \* \*

**13–14-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti

Sooranbay Jeenbekov rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. Tashrif doirasidagi asosiy tadbirlar «Ko'ksaroy» qarorgohida bo'lib o'tdi.

Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng davlat rahbarlari tor doirada muzokara o'tkazdilar.

Prezidentlar ushbu tashrif savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, davlat chegaralarini delimitatsiya qilish, yangi o'tkazish punktlari ochish va ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalarini muhokama qilish uchun yaxshi imkoniyat ekanini ta'kidladilar. Tomonlar o'zlarini qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Shavkat Mirziyoyev va Sooranbay Jeenbekov muzokaralarni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirdilar. Unda asosiy e'tibor O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, bank-moliya, fan-texnika, madaniy-gumanitar va hududlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, sanoat, qishloq va suv xo'jaligi, turizm va boshqa sohalardagi hamkorlikni mustahkamlash masalalariga qaratildi. Qirg'iziston hududida O'zbekiston qishloq xo'jaligi texnikasi, yengil avtomobillari, avtobuslari, maxsus pritseplari va maishiy buyumlarini yig'ishni yo'lga qo'yish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish hamda qurilish materiallari va to'qimachilik sanoati-

da qo'shma korxonalar tashkil etish muhimligi qayd etildi.

Muzokaralar yakunida hujjatlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iziston Prezidenti Sooranbay Jeenbekov Qo'shma bayonotni imzoladilar. Bu hujjatda siyosiy, savdo-iqtisodiy, suv-energetika, madaniy-gumanitar, transport va kommunikatsiya, hududlararo hamkorlik sohalaridagi davlatlararo aloqalarni yanada rivojlantirish istiqbollari hamda oliy darajadagi tashriflar chog'ida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari o'z ifodasini topgan.

Ikki mamlakat hukumatlari vakillari moliyaviy hamkorlik to'g'risidagi bitim hamda 2018–2021-yillarga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va gumanitar hamkorlik to'g'risidagi dasturni imzoladi.

Prezidentlar ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda muzokaralar o'zaro anglashuv, ochiq va samimiy ruhda o'tgani, erishilgan kelishuvlar xalqlarimiz manfaatiga xizmat qilishini ta'kidladilar.

Ma'lumki, ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish yo'lidagi ulkan xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg'izistonning «Danaker» ordeni bilan mukofotlangan edi. Yuksak davlat mukofotlaridan bo'lgan ushbu orden xalqlar o'rtasida tinchlik, do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga, millatlararo totuvlikni asrash, ilm-fanni rivojlantirish, milliy madaniyatlarni

yaqinlashtirish va boyitishga katta hissa qo'shgan insonlarga beriladi. Ko'ksaroy qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooranbay Jeenbekov «Danaker» ordenini tantanali ravishda topshirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooranbay Jeenbekov 14-dekabr kuni «O'zekspomarkaz»da tashkil etilgan mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari ko'rgazmasi bilan tanishdilar.

Qirg'iziston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizga rasmiy tashrifi yakunlari bo'yicha savdo va kooperatsiya sohasida umumiy qiymati qariyb 140 million AQSh dollari bo'lgan bitim va shartnomalar imzolandi. Shu bilan Qirg'iziston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizga rasmiy tashrifi yakuniga yetdi.

\* \* \*

**14-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Islom akademiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**15–16-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog'iston

Respublikasiga tashrif buyurdi va uni Chimboy tumanidagi 8-maktabgacha ta'lim muassasasidan boshladi.

Prezidentimiz Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filialining Chimboy tumanidagi akademik litseyiga tashrif buyurdi. Shu yerda farmasevtika sanoatini yanada rivojlantirish, dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, ichki bozorni mamlakatimizda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli preparatlar bilan to'ldirish borasida amalga oshiriladigan istiqbolli loyihalar taqdim etildi.

Prezidentimiz Qoraqalpog'iston Respublikasida farmasevtika plantatsiyalarini tashkil etish va yetishtirish loyihasi bilan ham tanishdi.

Davlatimiz rahbari Chimboy tumani faollari, ziyolilar bilan uchrashdi.

Shavkat Mirziyoyev Taxiatosh tumaniga tashrif buyurdi. Bu yerda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks rivojlantirish bo'yicha 2017-yilda amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumot berildi. Shu yerda «O'zqurilishmateriallari» va «O'zbekenergo» aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan amalga oshiriladigan ishlar, Orolbo'yi aholisi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan rejalar namoyish etildi.

Davlatimiz rahbari Xo'jayli tumanidagi barpo etilayotgan zamonaviy logistika markazida bo'ldi. Shu yerda Qoraqalpog'istonda oziq-ovqat sanoati sohasida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari, chorvachilik, parrandachi-

lik, asalarichilik va baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha dasturlar, 2018-yili Qoraqalpog'istonda to'moqalardan samarali foydalanish dasturi loyihasi ham taqdim etildi.

Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog'iston Respublikasida melioratsiya va irrigatsiya tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihalari bilan tanishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Nukus shahrida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputatlari va faollari bilan uchrashuv o'tkazdi. Unda shu kungacha bajarilgan ishlar tanqidiy tahlil qilinib, barcha sohalarni rivojlantirish bo'yicha kelgusi ikki yilda amalga oshiriladigan ustuvor yo'nalishlar va dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Davlatimiz rahbari 16-dekabr kuni Nukus shahrida barpo etilgan Ibroyim Yusupov nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari maktabda o'qituvchi va o'quvchilar, qoraqalpog'istonlik adiblar bilan uchrashdi.

Prezidentimiz maktab-internatda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirib, maktab jamoasiga avtobus sovg'a qildi.

Davlatimiz rahbari Nukus shahrida ish boshlagan «Samsung» zavodini borib ko'rdi. Ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi, mahsulotlar sifati va ko'lami bilan qiziqdi.

Prezidentimizga «O'zeltexsanoat» AK tomonidan kelgusida Qoraqalpog'iston Respublikasida amalga

oshirilishi rejalashtirilgan yangi loyihalar taqdim qilindi.

Davlatimiz rahbari Nukusda yangidan qurilgan Olimpiya va milliy sport turlariga ixtisoslashtirilgan oliy sport mahorati maktabi faoliyati bilan tanishdi. Prezidentimiz yosh sportchilar bilan muloqot qildi.

Shu yerda Prezidentimiz nomidan og'ir atletika bo'yicha nufuzli turnirlar sovrindori Rustam Jangaboyevga uy, dzyudochi Elyor Masharipovga «Malibu» avtomobili, qilichbozlik bo'yicha xalqaro turnirlar sovrindori Zaynab Dayibekovaga «Nexia» mashinasi berildi. Yosh sportchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Shavkat Mirziyoyev Nukus shahrining bosh rejasi asosida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik loyihalari bilan tanishdi.

Prezidentimiz Nukus shahridagi Imom eshon Muhammad jome masjidida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Bu yerda nuroniylar va imom-xatiblar bilan suhbatlashdi. Buyuk ajdodlarimiz hayoti va ma'naviy merosini chuqur o'rganish uchun barcha sharoitni yarata-miz, aholi ziyorat qilib, chinakam ma'naviy ozuqa oladigan bunday ma'naviy-ma'rifiy maskanlarni yanada obod qilib, kelajak avlodlar uchun saqlashimiz kerak, dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

\* \* \*

**18-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyallashtirishning yangi tartibini joriy

etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga tashrif buyurgan Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA) prezidenti Serdar Chamni qabul qildi.

Uchrashuvda TIKAning mamlakatimizdagi faoliyatini yanada kengaytirish va yangi bosqichga olib chiqish muhimligi qayd etildi.

Bu borada «yo'l xaritasi»ni qisqa muddatda ishlab chiqib, uni amalga oshirishga kirishish muhimligi, shu munosabat bilan, iqtisodiy, madaniy, ta'lim, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, turizm va ijtimoiy ahamiyatga molik boshqa qator sohalarda amalga oshirilayotgan loyiha va dasturlar hajmini bir necha barobar ko'paytirish bo'yicha kelishib olindi.

\* \* \*

**19-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish va istiqboldagi vazifalarni belgilab olishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda tizimda amalga oshirilayotgan ishlar muhkama qilindi.

Prezidentimiz maktabgacha ta'lim tizimidagi holatni hududlar bo'yicha tahlil qilib, o'z yechimini kuttayotgan muammo va kamchiliklarga to'xtaldi. Shuningdek, ko'pgina mahalliy hokimliklar tomonidan

maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati uchun zarur sharoit yaratilmagani, bog'cha binolari bo'm-bo'sh turgani, ulardan samarali foydalanish yo'lga qo'yilmaganiga alohida e'tibor qaratilib, mutasaddi rahbarlarning bu boradagi hisobotlari tinglandi.

Yig'ilishda qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida 2018-yilning birinchi yarmida amalda oshirilishi lozim bo'lgan qator strategik vazifalar belgilab berildi.

\* \* \*

**19-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp o'rtasida telefon orqali muloqot bo'lib o'tdi. Ikki davlat rahbarlari ko'pqirrali O'zbekiston — Amerika hamkorligining bugungi holati va istiqbollari muhokama qildilar.

Muloqotda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

AQSh Prezidenti O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini rivojlantirish va kooperatsiyani faollashtirishga qaratilgan, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan ochiq va konstruktiv tashqi siyosati va faol sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashini ta'kidladi.

Ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirishning istiqbolli rejalarini birgalikda ko'rib chiqish maqsadida

Prezident Donald Tramp mamlakatimiz rahbariga AQShga rasmiy tashrif bilan borishni taklif etdi.

\* \* \*

**20-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga tashrif bilan kelgan XXR Davlat kengashi a'zosi, mudofaa vaziri Chan Vansyuanni qabul qildi.

Uchrashuvda ikki tomonlama harbiy va harbiy-texnik hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari ko'rib chiqildi, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**20-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi temiryo'l transporti xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**21-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi qurilish sohasi xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**21-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Qirg'iziston Respublikasi Jogorku Kengeshi spikeri Dostonbek Jumabekovni qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Qirg'iziston parlamentlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish

masalalariga alohida e'tibor qarantildi.

Qirg'iziston O'zbekiston bilan do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash yo'lidagi hamkorlikka tayyor ekani ta'kidlandi.

\* \* \*

**22-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz tarixida birinchi marta Oliy Majlisga Murojaatnoma yo'lladi. Toshkent shahridagi Simpoziumlar saroyida bo'lib o'tgan anjumanda Oliy Majlis Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar rahbarlari, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillari, nodavlat tashkilotlar faollari ishtirok etdi. Tantanali tadbirda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018-yilga yurtimizda «**Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili**» deb nom berishni taklif etdi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**23-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Toshkent shahridagi bir qator ijtimoiy obyektlarga tashrif buyurdi. Prezidentimiz dastlab Adiblar xiyobonida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Prezidentimiz O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining zamonaviy binosi bilan tanishdi, shoir va yozuvchilar bilan muloqot qildi.

Biz doimo ziyolilarni, ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashimiz kerak, dedi Shavkat Mirziyoyev. Ular yaratgan ibratli asarlarni, she'rlarni yoshlarimiz qancha ko'p o'qisa, ma'naviyati, ma'rifati yuksaladi, demakki, vatanparvar bo'ladi. Vatanparvarlar qancha ko'p bo'lsa, mamlakatimiz ham shuncha tez ravnaq topadi.

Shavkat Mirziyoyev Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetiga tashrif buyurdi. Tashrif doirasida mazkur universitet binolari foydalanishga topshirildi.

Prezidentimiz universitetda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi. O'qituvchi va talabalar bilan suhbatlashdi.

Shavkat Mirziyoyev Alisher Navoiy asarlarining multimediyaviy lug'atini yaratib, xalqimizga yetkazish, ilmiy izlanishlarni rag'batlantirish zarurligini ta'kidladi.

O'zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish, o'zbek adabiyoti namunalarini chet tillarga tarjima qilish masalalariga alohida e'tibor qarantildi.

Davlatimiz rahbari universitet o'qituvchilarining uy-joyi va ijtimoiy sharoitlari bilan ham qiziqdi. Ular uchun Toshkent shahridan 20 ta kvartira ajratish bo'yicha topshiriq berdi.

Prezidentimiz poytaxtimizning Alisher Navoiy, Olmazor, Islom

Karimov va Furqat ko'chalari oraliq'ida bunyod etilayotgan «Tashkent City» xalqaro ishbilarmonlik markazining takomillashtirilgan loyihasi bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev qurilishga jalb qilingan investorlar bilan suhbatlashdi. Ularning fikrlari va tashabbuslari bilan qiziqdi. Prezidentimiz «Tashkent City» xalqaro ishbilarmonlik markazida qurilayotgan bino va inshootlarning dizayn jihatidan bir-biriga uyg'un bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

\* \* \*

**24-dekabr.** Toshkent shahar xalq deputatlari tuman kengashlariga saylov bo'lib o'tdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Mirzo Ulug'bek tumanidagi 162-saylov uchastkasiga tashrif buyurib, ovoz berish jarayonida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbarining taklifi bilan Toshkent shahrida xalq deputatlari tuman kengashlari ta'xis etildi. Shu vaqtgacha poytaxt tumanlarining fuqarolari bunday imkoniyatga ega emas edi. Bu borada Konstitutsiyamizga tegishli o'zgartirishlar kiritildi. Endilikda Toshkent shahri aholisi ham o'zlari saylagan vakillari orqali tumanlarni boshqarishda ishtirok etadi.

\* \* \*

**25-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2018—2022-yillar davrida bolalarda tug'ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash davlat dasturi to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida madaniyat va san'at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Badiiy akademiya va ijodiy tashkilotlar rahbarlarining hisobotlari tinglandi. Ularning faoliyatiga tanqidiy baho berilib, bu boradagi ishlarni faollashtirish va yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha aniq topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda mamlakatimiz teatrlarining xalqimizga, jumladan, chekka tuman, mahalla va qishloqlar aholisiga madaniy xizmat ko'rsatish darajasi bugungi kun talabiga javob bermasligi alohida ta'kidlandi.

Madaniyat vazirligi tomonidan kelgusi yil amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator muhim vazifalar qayta ko'rib chiqilib, ularning aniq muddatlari belgilandi.

Majlisda Badiiy akademiya faoliyatini yanada yaxshilash borasida 2018-yilda amalga oshiriladigan ishlar haqida atroflicha fikr yuritildi.

\* \* \*

**25-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda 2017-yil yakuni bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari to'liq bajarilishini ta'minlash, milliy mahsulotlar eksporti geografiyasini kengaytirish, kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik subyektlarining eksport sohasidagi faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlarini tashqi bozorlarga yo'naltirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari tegishli mutasaddilarga mamlakat eksport salohiyatini oshirish, eksport geografiyasi va nomenklaturasini kengaytirish, eksportchi korxonalarni har tomondan qo'llab-quvvatlash, yangi tadbirkorlik subyektlarini eksport faoliyatiga jalb qilish yuzasidan aniq topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**26-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Moskva shahrida bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining norasmiy uchrashuvida ishtirok etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yilda O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan hamkorligi yanada mustahkamlanib, tovar ayirboshlash hajmi sezilarli oshganini ta'kidladi. O'zaro manfaatli hamkorlik a'zo davlatlarni uzviy bog'lab turishi, ushbu uchrashuv aloqalariga yangi sur'at bag'ishlashini qayd etdi.

Uchrashuvda Hamdo'stlik davlatlari o'rtasida turli sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish, xavfsizlikni mustahkamlash, mintaqaga tahdid va xatarlarning oldini olish masalalariga e'tibor qaratildi va tomonlarni qiziqtirgan boshqa masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**27-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, taniqli adabiyotshunos va tarjimon Ibrohim G'afurovning 80 yoshga to'lishi munosabati bilan tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**28-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kelajak bunyodkori» medalini ta'sis etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**28-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xorvatiya Respublikasining Yevropa Ittifoqiga qo'shilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi, bir tomondan, Yevropa Hamjamiyatlari hamda ularga a'zo davlatlar, ikkinchi tomondan, o'rtasida sheriklik ta'sis etuvchi Sheriklik va Hamkorlik to'g'risida Bitimga Bayonnomani (Bryussel, 2017-yil 17-iyul) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**28-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Harakatlanuvchi uskunalarga nisbatan xalqaro kafolatlar to'g'risidagi Konvensiyaga (Keyptaun, 2001-yil 16-noyabr) va Harakatlanuvchi uskunalarga nisbatan xalqaro kafolatlar to'g'risidagi Konvensiyaning Aviatsiya uskunalari bo'yicha protokoliga (Keyptaun, 2001-yil 16-noyabr) qo'shilishi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.



\* \* \*

**28-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2018-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish to‘g‘risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**28-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida kimyo sanoati korxonalarining moliyaviy-iqtisodiy holati va sohani rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Unda tarmoqda uzoq yillar davomida saqlanib kelgan tizimli muammolar hanuzgacha o‘z yechimini topmagani, mineral o‘g‘it ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari og‘ir moliyaviy ahvolga tushib qolgani, qishloq xo‘jaligini moliyalashtirishga umuman e‘tibor berilmagani yoki masalaga yuzaki yondashilgani ushbu sohadagi o‘zaro hisob-kitoblar tizimida nuqsonlar yuzaga kelishiga sabab bo‘layotgani tanqid qilindi.

Muhokama qilingan masalalar bo‘yicha mutasaddilarga tegishli ko‘rsatmalar berildi.

\* \* \*

**29-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Soliq va budjet siyosatining 2018-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinishi to‘g‘risida»gi farmonni imzoladi.

Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**29-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida milliy kino san‘ati va kinoindustriyamizni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Prezidentimiz soha oldida turgan dolzarb vazifalar haqida to‘xtalib, kino san‘atining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, iqtidorli yosh rejissor, aktyor, operator va rassomlarning dunyodagi yetakchi kinostudiyalar, madaniyat va san‘at yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalarida tajriba va malaka oshirishini tashkil etish bilan bog‘liq ishlarni jadallashtirish va uni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish zarurligini alohida qayd etdi.

Majlisda kino san‘atimiz, kinoindustriyamizning jahon miqyosida raqobatbardoshligini ta‘minlash, buning uchun yetuk professional rejissorlar, kinodramaturglar, aktyorlar, rassomlar, operatorlar tayyorlash zarurligiga alohida e‘tibor qaratildi.

Yig‘ilishda sohadagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish yuzasidan mutasaddi tashkilotlar rahbarlariga topshiriq va ko‘rsatmalar berildi.

\* \* \*

**29-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respubli-

kasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolari hamda sobiq O'zbekiston Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasining haqiqiy a'zolari va muxbir a'zolari faoliyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**29-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xususiy tibbiyot tashkilotlarini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jahon chempionatida yuqori natijaga erishgan sportchilarni taqdirlash to'g'risida»gi farmoyishni imzoladi.

\* \* \*

**30-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Soliq ma'muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**31-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqini kibr kelayotgan yangi – 2018-yil bilan tabrikladi.

# 2018-yil

**1-yanvar.** O‘zbekiston Respublikasi va Chexiya Respublikasi o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganiga 25 yil to‘lgani munosabati bilan ikki davlat rahbarlari bir-birlarini qutladilar.

\* \* \*

**3-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Vazirlar Mahkamasi komplekslari faoliyatini tahlil qilish va yangi ustuvor vazifalarni belgilashga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Prezidentimiz kun tartibidagi masalaga tanqidiy yondashib, aksariyat tashkilotlar o‘z faoliyatini zamon talablari darajasida tashkil eta olmayotgani, qabul qilingan qaror va dasturlarni bajarishda sustkashlikka yo‘l qo‘yayotganini ta’kidladi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasidan kelib chiqqan holda, Vazirlar Mahkamasi komplekslari, vazirlik va idoralar oldida turgan muhim vazifalar haqida so‘z yuritildi. Amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi rejalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari tinglandi.

\* \* \*

**3-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

milliy antidoping agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ayrim davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi, shuningdek, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**5-yanvar.** Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar, bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari dastlab, Zangiota tumandagi «Highway Logistics» logistika markaziga tashrif buyurdi.

Shu yerning o‘zida Toshkent viloyatining eksport salohiyatini oshirish, 2018–2019-yillarda mevasabzavot mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash, chorvachilik, issiqxona xo‘jaligini tashkil etish, charm-poyabzal sohasini rivojlantirish dasturlari taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari Zangiota majmuasini ziyorat qildi. O'tganlar xotirasi yod etilib, Qur'on tilovat qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yangiyo'l shahridagi «Fayzli» mahalla fuqarolar yig'inida bo'ldi. Shu yerda Yangiyo'l shahrining bosh rejasi loyihasi, shahardagi ko'pqavatli uy-joylarni ta'mirlash dasturi hamda xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari faoliyatini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish borasidagi ishlar haqida ma'lumot berildi.

Prezidentimiz «Fayzli» mahalla fuqarolar yig'ini profilaktika inspektori Anvar Toshevning xonadonida bo'ldi. Bugungi kunda ushbu mahallada 4 ming 200 nafar aholi istiqomat qiladi. Shavkat Mirziyoyev mahalla ahli bilan muloqot qildi.

Shavkat Mirziyoyev Yangiyo'l tumani tibbiyot birlashmasi faoliyati bilan tanishdi. Bemorlarning ahvoli, turmush sharoiti bilan qiziqdi, ular bilan muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari shifoxonaning kardiologiya bo'limida davolanayotgan Zulayho Aliyeva bilan suhbatlashdi, uning turmush sharoiti, oilasidagi ahvol bilan qiziqdi. Prezidentimizning topshirig'iga binoan shu kunning o'zida Z. Aliyeva poytaxtimizdagi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markaziga davolanishga yuborildi. Shuningdek, kam ta'minlangan ushbu oilaga uch xonali yangi uy ajratildi.

Prezidentimiz Quyi Chirchiq tumanidagi sobiq «Kanop» zavodi

hududida bo'lib, qishloq xo'jaligi texnikalari va agregatlarini ko'zdan kechirdi, agrar sohani rivojlantirish bo'yicha loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda, jumladan, Piskent, O'rta Chirchiq, Quyi Chirchiq, Oqqo'rg'on va Bo'ka tumanlarida tashkil etiladigan paxta-to'qimachilik klasterlari loyihalari bilan tanishdi. Bu yerda, Toshkent viloyatida amalga oshiriladigan chorvachilik, parrandachilik, baliqchilikni yanada rivojlantirish, kanop yetishtirish, sholini qayta ishlash, sport va xizmat otlari uchun karantin hamda veterinariya xizmati ko'rsatish bo'yicha hamda ot zavodi majmuasi, issiqxonalar tashkil etish bilan bog'liq loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi.

Oqqo'rg'on qurilish va kommunal xo'jaligi kolleji binosida yoshlarni kasbga tayyorlash va migratsiya markazini tashkil etish, «Jamoatchilik markazi», «Oqqo'rg'on savdo markazi» kabi loyihalar ko'rib chiqildi.

Tuman markazini zamonaviy shaharsozlik andazalari asosida qayta qurish, eski bozorni yangi joyga ko'chirish va uning o'rnida ko'rkam bog' barpo etishga qaratilgan loyihalar, shuningdek, shaharning Bosh rejasi taqdimoti ham o'tkazildi.

Xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.

Unda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlad.

\* \* \*

**8-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ma'muriy tartib-ta-

omillar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**9-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**9-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**9-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda mazkur sohada erishilgan natijalar alohida qayd etilar ekan, 2018-yilda va yaqin istiqbol-da amalga oshirilishi zarur bo'lgan ustuvor vazifalar haqida so'z bordi.

Majlisda dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va buning uchun milliy kadrlar tayyorlash ishlari hali talab darajasida emasligi qayd etildi. Mutasaddilarga dunyoning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yirik korporatsiyalari bilan raqobatlasha oladigan milliy operator va dasturchilarimiz faoliyatini takomillashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

\* \* \*

**10-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Chirchiq shahridagi harbiy qismga tashrif buyurdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev harbiylar uchun yaratilgan sharoitlar, jangovar tayyorgarlikda foydalaniladigan moddiy vositalar, harbiy xizmatchilarning kiyim-kechak ta'minoti bilan tanishdi, ular bilan suhbatda bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev tashrif doirasida mamlakatimiz qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohasini rivojlantirish dasturi bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari loyiha doirasida ishlab chiqarilishi ko'zda tutilayotgan qishloq xo'jaligi texnikalari namunalari bilan tanishdi.

Prezidentimiz «O'zbekkimyomash zavodi» aksiyadorlik jamiyatida yangi quyuv sexi va yirik hajmli uskunalarni ishlab chiqarish loyihasi bilan tanishdi.

So'ngra ushbu korxonada Chirchiq transformator zavodida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar namunalari ko'zdan kechirdi. Mahsulot turlari va eksport ko'lamini kengaytirishda bunday yangi quvvatlar muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi.

Shu yerda Chirchiq shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan qator dastur va loyihalar taqdimoti o'tkazildi. Prezidentimizga O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutlari bino-

larini rekonstruksiya qilish, yangi o'quv binolari, sport inshootlari, talabalar turar-joylari qurish, Toshkent – Qibray – Chirchiq – G'azalkent va Chirchiq – G'azalkent avtomobil yo'llarida tirbandlikni kamaytirish, Pskom GESi va to'g'onini barpo etish, Chorvoq GESi xavfsizligini oshirish loyihalari ham taqdim etildi. Loyihalar samaradorligini oshirish bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berildi.

Zavodning faollar zalida ishchi-mutaxassislar, Chirchiq shahri jamoatchiligi vakillari, nuroniylar, yoshlar bilan o'tkazilgan uchrashuvda shaharda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar mohiyati, aholi turmush farovonligini yuksaltirish, yoshlarga puxta ta'lim-tarbiya berish masalalari xususida so'z yuritildi.

Shavkat Mirziyoyev shu kuni poytaxtimizdagi Qurolli Kuchlar akademiyasiga tashrif buyurdi. Prezidentimiz akademiyada yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. O'quv xonalari, muzey, oshxona, kursantlar yotoqxonalari bo'lib, ularning ta'lim olishi, harbiy mashg'ulotlar jarayonini ko'zdan kechirdi. Davlatimiz rahbari tinglovchilar va kursantlar bilan suhbatlashdi.

Shavkat Mirziyoyev Qurolli Kuchlar akademiyasining situatsion markazida bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida ishtirok etdi va nutq so'zlad.

\* \* \*

**11-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida O'zbekiston

Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va mamlakatimizning xorijdagi elchixonalari faoliyati tahliga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni vakillari, hukumat a'zolari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlari, viloyatlar hokimlari, Tashqi ishlar vazirligi va boshqa vazirlik hamda idoralar rahbar xodimlari ishtirok etdi.

Yig'ilishda Tashqi ishlar vazirligi, uning muassasalari, mamlakatimizning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarining 2017-yildagi faoliyati tanqidiy tahlil qilinib, 2018-yil va yaqin istiqboldagi ustuvor vazifalari belgilab olindi. Shavkat Mirziyoyev xorijiy davlatlardagi elchilar faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish, vazirlik va unga qarashli muassasalar tashkiliy-shtat tuzilmasini takomillashtirish, sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish zarurligiga e'tibor qaratdi.

Yig'ilishda, shuningdek, diplomat kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida istiqbolli, professional yosh kadrlar tayyorlash sifatini oshirish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**12-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Vatan himoyachilari kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 26 yilligi munosabati bilan huquqni muho-

faza qilish organlari, mudofaa va favqulodda vaziyatlar vazirliklari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-yanvar.** O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 26 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan «Turkiston» saroyida tantanali marosim bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 26 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigi o'qib eshitirildi.

\* \* \*

**13-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatlarini o'tab bo'lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**16-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizdagi diplomatik missiyasini yakunlayotgan

Xitoy Xalq Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Sun Litszeni qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy elchisining har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan ulkan hissasini inobatga olib, Sun Litszega Vatanimizning yuksak davlat mukofoti — «Do'stlik» ordenini topshirdi.

\* \* \*

**17-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakat iqtisodiyotining tarmoqlarini talab yuqori bo'lgan mahsulot va xomashyo turlari bilan barqaror ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tavalludining 80 yilligini nishonlash bo'yicha tayyorgarlik ishlarini samarali olib borish va ushbu sanani har tomonlama yuqori saviyada o'tkazish bilan bog'liq masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 80 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar chuqur tahlil qilinib, asosiy yubiley tadbirlarini yuksak darajada o'tkazish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

\* \* \*

**17-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida O'zbekiston

Respublikasining rivojlanish davlat dasturlarini shakllantirish va moliyalashtirish bo'yicha joriy etilgan yangi tartib asosida ishlarni tashkil etish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari yuqori iqtisodiy o'sishga erishish va kuchli ijtimoiy himoyani ta'minlashda investitsiyalarning muhimligini qayd etar ekan, shu paytgacha bu boradagi ishlar pala-partish bajarib kelinganini tanqid qildi hamda bu boradagi ishlarni uch bosqichda amalga oshirish zarurligini ta'kidladi.

Yig'ilishda investitsiya loyihalarini iqtisodiy, moliyaviy va texnologik asoslangan holda ishlab chiqishda loyiha institutlarining o'rni-ga jiddiy e'tibor qaratildi.

Loyihalashtirish ishlarini takomillashtirish, yangi loyiha institutlarini tashkil etish, qurilish-loyiha hujjatlarini tayyorlash va ekspertiza qilishning mutlaqo yangicha mexanizmini ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Majlisda budget va investitsiya mablag'laridan oqilona foydalanish, moliyalashtirish bazasini kengaytirish, soliq imtiyozlari tizimini takomillashtirish va boshqa masalalar muhokama qilindi hamda mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**18-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Jahon banki bosh ijrochi direktori Kristalina Georgiyeva boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Ushbu nufuzli xalqaro moliyaviy institut delegatsiyasi tarkibiga Jahon bankining vitse-prezidenti

Siril Myuller, mintaqaviy direktori Liliya Burunchuk, ijrochi direktori Verner Gruber hamda bankning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Xideki Mori ham kiritilgan.

Davlatimiz rahbari mehmonlarni samimiy qutlar ekan, O'zbekiston va Jahon banki guruhi o'rtasida mamlakatimiz iqtisodiyotining turli tarmoqlarida ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan sheriklik izchil rivojlanib borayotganini alohida ta'kidladi.

Uchrashuvda 2017—2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasiga muvofiq mamlakatimizni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari doirasida sheriklikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Jahon bankining uzoq muddatli moliyaviy resurslarini jalb etgan holda, investitsiya loyihalarini sifatli va o'z vaqtida tayyorlash, ularni samarali amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**18-yanvar.** Qozog'istonning Oqto'ba viloyati Irgiz tumanida avtobusda yong'in sodir bo'lishi oqibatida 52 nafar O'zbekiston fuqarosi halok bo'lgan va 5 kishi jabrlangan.

Shu munosabat bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev halok bo'lganlarning oila a'zolari va yaqinlariga hamdardlik bildirdi.

Davlatimiz rahbarining topshirig'i bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri boshchiligidagi maxsus Hukumat komissiyasi tashkil etildi.

Komissiya a'zolari belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash uchun



2018-yil 18-yanvar kuni maxsus samolyotda Toshkentdan Qozog'istonning Oqto'ba shahriga jo'nab ketdi.

\* \* \*

**19-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yog'-moy tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19–20-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, avval belgilangan vazifalar ijrosi bilan tanishish maqsadida Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurdi. Shavkat Mirziyoyev dastlab Termiz tumanidagi «Inter Silk Pro» qo'shma korxonasiga qarashli pillaxona bilan tanishdi.

Shu yerning o'zida viloyatda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, issiqxonalar, anorzorlar, yong'oqzorlar, intensiv bog' va tokzorlar, kovrak va pista plantatsiyalari, baliqchilik va parrandachilik komplekslari tashkil etish, yer o'lchashda dronlardan foydalanish kabi loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Prezidentimiz Hakim Termiziy maqbarasini ziyorat qildi.

Shavkat Mirziyoyev «ASG Group» korxonalar uyushmasiga qarashli «Jarqo'rg'on meva-sabzavat eksport» mas'uliyati cheklangan jamiyatida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

«Angor Surxon g'ururi» tomonidan to'qimachilik klasteri tashkil etish loyihasi ham taqdim etildi. Shu yerda Termiz shahri bosh rejasi asosida ko'p qavatli uylar, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Otalar choyxonasi, mas-

jid qurish, «Xo'jaipok» tumanlararo ichimlik suvi ishlab chiqarish, zamonaviy kanalizatsiya tarmoqlari yotqizish, viloyatda ko'p qavatli uy-joylarni ta'mirlash, uy-joy mulkdorlari faoliyatini takomillashtirish, Denov shahrining Sharof Rashidov nomidagi ko'chasini qayta qurish, ko'cha atrofida ko'p qavatli uy-joylar barpo etish loyihalari haqida ham batafsil ma'lumot berildi.

Shavkat Mirziyoyev Angor tumanidagi «Bio Texno Eco» mas'uliyati cheklangan jamiyatining maishiy chiqindilarni saralash va qayta ishlash zavodi faoliyati bilan tanishdi. Shu yerda viloyatda gidroenergetika, ko'mir sanoati va boshqa sohalarini rivojlantirish, qurilish materiallari ishlab chiqarish, bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanish loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari Sherobod tumanidagi «Euromed plus» xususiy diagnostika va davolash markazi faoliyati bilan tanishdi. Prezidentimiz mazkur shifo maskani bilan poytaxtimizdagi «Akfa Medline» klinikasi o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish zarurligini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev tumanning Taroqli mahallasida ham bo'lib, «Pokiza» nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyati bilan tanishdi. Bog'chada kichkintoylar va pedagog-tarbiyachilar uchun yaratilgan sharoit, tarbiya jarayoni qanday yo'lga qo'yilgani bilan qiziqdi.

Prezidentimiz Imom Iso Termiziy maqbarasini ziyorat qildi. Ushbu qadamjo yonida bunyod etilgan masjidni kirib ko'rdi.

Qiziriq tumani markazida Surxondaryo viloyati faollari yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, yosh avlodni tarbiyalash va ish bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga tashrifining ikkinchi kuni Janubi-g'arbiy maxsus okrugiga qarashli harbiy qismda bo'ldi. Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishida berilgan vazifalar qanday bajarilayotgani bilan tanishdi. Harbiylar bilan muloqot qildi.

Uchrashuvda harbiylarning xizmat va yashash sharoitini yaxshilash, ularning farzandlari oliy o'quv yurtlarida o'qishi uchun imtiyozlar joriy etish, uy-joy bilan ta'minlash ishlarini yanada jadallashtirish zarurligi qayd etildi.

Termiz shahridagi 700 o'rinli zamonaviy San'at saroyi hamda 3 ming o'ringa mo'ljallangan amfi-teatrda 82 milliard so'mlikdan ortiq qurilish-montaj ishlari amalga oshirildi. Davlatimiz rahbari mazkur madaniyat maskaniga taniqli san'atkorlarni taklif etib, hamkorlikda mahorat darslari o'tkazish, «ustoz-shogird» an'anasini yanada rivojlantirish, ulug' ajdodlarimiz haqida spektakllar sahnalashtirish lozimligini qayd etdi.

Shavkat Mirziyoyev «Amudaryo» bolalar sog'lomlashtirish oromgohida yaratilgan sharoitlar bilan ham tanishdi. Oromgoh tar-

kibida umumta'lim maktabi barpo etilgan. Maktab negizida 125 o'rinli 22-bolalar musiqa, san'at va baxshichilik maktabi ham faoliyat yuritadi. O'quvchilar bu yerda baxshichilik va o'zbek xalq cholg'ularidan saboq oladi. Dars mashg'ulotlarini o'qituvchilar bilan birga, O'zbekiston xalq baxshilari ham olib boradi.

Prezidentimiz maktabni ko'zdan kechirdi, O'zbekiston xalq baxshilari Shoberdi Boltayev va Abdunazar Poyonov bilan muloqot qildi. «Mustaqillik baxshilari» kitobini chiqarish, Surxondaryo viloyatidagi bolalar musiqa va san'at maktablari-da ham ushbu san'at turini o'qitish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Shu yerda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari viloyat faollari bilan uchrashib, ularning o'yfikrlari bilan qiziqdi, hayotiy takliflarini eshitdi, mavjud muammolarni qisqa muddatlarda hal etish yuzasidan topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**21-yanvar.** O'zbekiston Respublikasi bilan Belarus Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 25 yil to'lishi munosabati bilan ikki davlat rahbarlari bir-birlarini qutladilar.

\* \* \*

**22-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strate-

giyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksini tasdiqlash haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**23-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Dori vositalari va tibbiyot buyumlari ishlab chiqarish hamda olib kirishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksini tasdiqlash haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**24-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In bilan telefon orqali muloqot qildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Prezident Mun Chje Inni tug'ilgan kuni bilan samimiy qutlab, uning O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish, o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashga qo'shayotgan ulkan hissasini alohida qayd etdi.

Prezident Mun Chje In Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga tabrik va ezgu tilaklar uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Muloqotda ikki mamlakat rahbarlari O'zbekiston – Janubiy Koreya hamkorligini yanada kengaytirish istiqbollari atroflicha muhokama qildi, mintaqaviy va xalqaro dolzarb masalalar bo'yicha fikr almashdilar. Janubiy Koreyaning ilg'or tajribasi, ilm-fan yutuqlari va texnologiyalarini O'zbekistonda sanoat va infratuzilmani modernizatsiya qilish, ijtimoiy sektorni rivojlantirishga faol jalb qilishga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**24-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Muloqotda ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish hamda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi. O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi do'stlik, yaqin qo'shnichilik va hamkorlikni rivojlantirish hamda mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlarni qat'iy qo'llab-quvvatlashini bildirdilar.

\* \* \*

**25-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksini tasdiqlash haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**25-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Umumiy o'рта, o'рта maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Shoshilinch tibbiy yordam tizimini jadal takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**25-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida «O'zbekneftgaz» aksiyadorlik jamiyati tizimida geologiya-qidiruv va qazib olish ishlari samaradorligi, yoqilg'i materiallari bilan ichki ehtiyojni ta'minlashning ahvoli, tizimdagi istiqbolli vazifalar ijrosiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz tarmoqda yillar davomida ko'plab to'planib qolgan muammo va kamchiliklarni tanqidiy tahlil qilar ekan, uglevodorod zaxiralarini oshirish va qazib chiqarishni ko'paytirish borasidagi muhim vazifalarni belgilab berdi.

Muhokama qilingan masalalar bo'yicha zarur hujjatlar qabul qilish

va belgilangan chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**26-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi. Muloqotda ikki davlat rahbarlari O'zbekiston va Rossiya o'rtasida strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari izchil mustahkamlanib, jadal rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

O'zbekiston va Rossiya rahbarlari mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalarni, kelgusidagi turli darajadagi uchrashuv va tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

Muloqot so'ngida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin mamlakatlarimiz va xalqlarimiz manfaatlari yo'lida, mintaqada tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlash maqsadida o'zaro manfaatli sheriklikni yanada mustahkamlashga tayyor ekanini qat'iy ta'kidladilar.

\* \* \*

**26-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Navoiy konmetallurgiya kombinati tomonidan 2026-yilgacha quriladigan yangi ishlab chiqarish quvvatlarini kafolatlangan elektr energiyasi bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda kombinatdagi yangi quvvatlarni elektr energiyasi bilan ta'minlashga qaratilgan loyihalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish borasidagi ishlar atroflicha muhokama etildi. Muhokama qilingan masalalar yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**27-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasida bo'lib o'tgan futbol bo'yicha 23 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida Osiyo chempionati g'oliblari — O'zbekiston yoshlar terma jamoasi a'zolariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**28–29-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Qashqadaryo viloyatiga keldi. Prezidentimiz dastlab Yakkabog' tumanidagi meva-sabzavotni qayta ishlash va qadoqlashga ixtisoslashgan «Darmon sharbati» korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Shu yerning o'zida Qashqadaryo viloyatida 2018–2019-yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va eksport hajmini oshirish loyihalari taqdimoti bo'lib o'tdi.

Keyingi manzil Shahrisabz shahri bo'ldi. Davlatimiz rahbari dastlab «Dor ut-tilovat» majmuasini ziyorat qildi. Davlatimiz rahbarining bu yerda diniy ulamolar, mehnat faxriylari bilan bo'lgan muloqotida xalqimiz farovonligi yo'lida amalga

oshirilayotgan xayrli ishlar haqida so'z yuritildi.

Prezident qaroriga ko'ra, 2018-yildan boshlab Shahrisabz shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish belgilangan. Prezidentimiz Shahrisabz shahriga tashrifi davomida Oqsaroy maydonida mazkur anjumanni o'tkazish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi. Xalqaro maqom san'ati anjumanining ilmiy-ijodiy konsepsiyasi haqida ma'lumot berildi.

Shavkat Mirziyoyev shu yerda maqom san'ati ustalari bilan uchrashib, ushbu san'at turi istiqbolari, xalqaro maqom san'ati anjumanini yuksak saviyada o'tkazish haqida suhbatlashdi.

Tashrif doirasida Prezidentimiz Oqsaroy maydonidagi «Koba» madaniyat majmuasida viloyat iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan loyihalar bilan tanishdi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar va soliq to'lovchilar soni, yirik korxonalar tomonidan budjetga to'lanadigan to'lovlar, joriy yilgi prognoz ko'rsatkichlar haqidagi ma'lumotlar navbatdagi taqdimotda namoyish etildi.

Davlatimiz rahbari Shahrisabz shahrida davlat – xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan «Wunderkind» («Bilimdon bola») xususiy maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyati bilan tanishdi. Prezidentimiz bu yerda yaratilgan sharoitni yuksak baholadi.

Shavkat Mirziyoyev shu yerda Qashqadaryo viloyatida xususiy

shiriklik asosida hamda davlat tomonidan quriladigan maktabgacha ta'lim muassasalari dasturi taqdimoti bilan tanishdi.

Shu kuni Prezidentimiz raisligida Chiroqchi tumani hokimligi binosida Qashqadaryo viloyati faollari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Davlatimiz rahbari o'tgan yili viloyatda bajarilgan ishlarni tahlil qilib, joriy yil va yaqin istiqbolda amalga oshirilishi zarur bo'lgan dolzarb choratadbirlarni belgilab berdi. Videoaloqa orqali barcha tumanlar faollari bilan ham muloqot qilindi.

29-yanvar kuni davlatimiz rahbari Qarshi tumanidagi Abu Muin Nasafiy ziyoratgohida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Abu Muin Nasafiy kalom ilmi-ning buyuk namoyandalaridan biri bo'lib, Abu Mansur Moturidiy asos solgan moturidiya ta'limotining dunyoda keng tarqalishiga salmoqli hissa qo'shgan allomalardandir. Davlatimiz rahbari ulamolar bilan suhbatda buyuk bobokalonimiz asarlari bugungi kun uchun ham g'oyat ahamiyatli ekani, ularni qayta nashr etib, mazmun-mohiyatini yosh avlodga yetkazish zarurligini ta'kidladi. Prezidentimiz ziyoratgohda saqlanayotgan qadimiy Qur'on nusxasini ko'zdan kechirdi.

Shundan so'ng Shavkat Mirziyoyev Qarshi tumanidagi «Baxt» ko'p tarmoqli fermer xo'jaligiga tashrif buyurib, viloyatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy loyihalar bilan tanishdi. Shu yerda viloyatda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, achchiq qalampir, kovrak

plantatsiyalari tashkil etish, chorvachilik, kurkachilik majmualari, pistazor va yong'oqzorlar barpo etish, sutni qayta ishlash, asalarichilik loyihalari taqdimoti ham o'tkazildi.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Xonobod harbiy aerodromida bo'ldi. Uchuvchilar bilan suhbatda mamlakatimizning yangi Mudofaa doktrinasining mazmun-mohiyati, Vatan himoyachilarining burchi va mas'uliyati haqida so'z bordi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yaqinda barpo etilgan O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internati faoliyati bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev muzey, o'quv xonalarida bo'ldi, maktab o'quvchilari bilan suhbatlashdi. Bir guruh o'quvchilarga sovg'alar topshirdi.

Shavkat Mirziyoyev Qarshi tumani «Qoratepa» qishloq fuqarolar yig'inidagi Fayzobod qishlog'ida joylashgan «LT Textile International» xorijiy korxonasida bo'lib, uning faoliyati bilan tanishdi, ishchi-xodimlar bilan muloqot qildi. Shu yerda Qashqadaryo viloyatida tikuv-to'qimachilik sanosatini rivojlantirish dasturi taqdim etildi. Xususan, «LT Textile International» mas'uliyati cheklangan jamiyatini rivojlantirishning keyingi bosqichlari doirasida amalga oshiriladigan ishlar loyihasi, Qarshi shahridagi «Sulton Tex Group» xususiy korxonasida yengil sanoatni rivojlantirish bo'yicha rejalashtirilgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

\* \* \*

**29-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**30-yanvar.** Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti, buyuk davlat va siyosat arbobi, o‘zbek xalqining atoqli farzandi Islom Karimov tavalludining 80 yilligi keng nishonlandi.

Birinchi Prezidentimiz milliy tariximizning o‘ta og‘ir davrlarida rahbarlik qilgan Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahridagi viloyat hokimligi binosi oldidagi bosh maydonda davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, O‘zbekiston Qahramonlari, fan va madaniyat, adabiyot va san‘at namoyandalari, Qashqadaryo viloyatining keng jamoatchiligi vakillari, talaba-yoshlar Islom Karimov haykali ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda ishtirok etish uchun yig‘ildi. Marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Birinchi Prezidentimizning rafiqasi Tatyana Karimova Islom Karimov haykalini ochdilar. Haykal poyiga gul qo‘yilib, hurmat bajo keltirildi.

\* \* \*

Buyuk davlat va jamoat arbobi tug‘ilib o‘sgan Samarqand shahrida

ham Islom Karimov xotirasiga atab bunyod etilgan maqbara majmuasining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda mamlakatimiz jamoatchiligi vakillari, yurtimizning barcha hududlaridan kelgan faollar, nuroniy-lar, yoshlar ishtirok etdi. Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Islom Karimov maqbarasini ziyorat qilib, Birinchi Prezidentimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdi. Qur‘on tilovat qilindi.

Marosimdan so‘ng davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Islom Karimov haykali poyiga gul qo‘ydi. Samarqand shahridagi Forumlar majmuasida ehson oshi berildi.

\* \* \*

**31-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining kengaytirilgan yig‘ilishida ishtirok etdi. Unda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar va o‘zgarishlar jarayonida prokuratura organlari tomonidan qilinayotgan ishlar va ular oldida turgan vazifalar muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari prokuratura organlari oldida turgan ustuvor vazifalar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tdi.

Yig‘ilish ishtirokchilarining e‘tibori farovon hayotimiz asosi bo‘lgan tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, xorijiy investorlarning mamlakatimizda erkin faoliyat yuritishi uchun sharoitlar yaratish prokuratura organlari tomonidan kafolatlanishi zarurligiga qaratildi.

\* \* \*

**31-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining sohada amalga oshirilgan ishlar tahlili va Milliy xavfsizlik xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarga bag'ishlangan kengaytirilgan hay'at yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Majlisda o'tgan davrda Milliy xavfsizlik xizmati O'zbekiston suverenitetini, mustaqilligini va hududiy yaxlitligini saqlash hamda himoya qilish ishlariga salmoqli hissa qo'shgani qayd etildi. Shu bilan birga, uning ayrim bo'linmalari va hududiy boshqarmalari faoliyati tanqid qilindi. Idoralararo hamkorlik, tezkor va qidiruv tadbirlarini o'tkazish, shuningdek, kadrlar bilan ishlash borasida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar aniq misollar bilan ko'rsatib o'tildi.

Davlatimiz rahbari zamon talablaridan kelib chiqqan holda, Milliy xavfsizlik xizmatining tarkibiy tuzilishini qayta ko'rib chiqish kerakligini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti MXX o'quv yurtlarining rahbarlari va professor-o'qituvchilariga yosh kadrlarni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakat qonunchiligi talablariga og'ishmay rioya etish, turli sinovlarga chidamli bo'lish, o'z ustida muntazam ishlash va professional mahoratini uzluksiz oshirib borishga intilish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratishni qat'iy vazifa qilib qo'ydi.

Milliy xavfsizlik xizmati va uning bo'linmalari faoliyati sama-

radorligini yanada oshirish bo'yicha mas'ul rahbarlarga tegishli topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**2-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ekologik holatni yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi ishlarini tahlil etish, eng dolzarb vazifalarni belgilab olishga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Unda sohada hali o'z yechimini kutayotgan masalalar va qilinadigan ishlar juda ko'p ekani ta'kidlanib, tizim oldidagi dolzarb vazifalar belgilab berildi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga tegishli vazirliklar bilan birgalikda shaharlarda chiqindi yig'ish shoxobchalarini tartibga solish, qishloq aholi punktlarida sanitar-tozalash xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha 5 yillik dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda o'simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini muhofaza qilish, ulardan oqilona foydalanish, muhofaza etiladigan hududlarni kengaytirish masalalari ham muhokama qilindi. Bu boradagi ishlar zamirida odamlarning sog'lig'i, turmush farovonligi yotibdi. Shu bois, bu masala bilan har bir tumanda va doimiy shug'ullanish kerak, dedi davlatimiz rahbari.

\* \* \*

**2-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tad-



birlari to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2018—2022-yillarda aholi punktlarini bosh rejalar bilan ta‘minlash, loyiha tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, shuningdek, shaharsozlik sohasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**3-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**6-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida farmasevtika sohasini rivojlantirish borasidagi ishlar natijadorligini tahlil qilish, istiqboldagi dolzarb vazifalarni belgilashga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda davlat tomonidan barcha imkoniyatlar yaratilganiga qaramasdan, bu boradagi ishlar-ni tashkil etish sust kechayotgani, ayrim muammolar hamon saqlanib qolayotgani tanqid qilindi.

Prezidentimiz dolzarb muammolarni chuqur tahlil qilib, ularni

bartaraf etish bo‘yicha istiqboldagi muhim vazifalarni belgilab berdi.

\* \* \*

**7-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Unda xotin-qizlar qo‘mitalari faoliyati qoniqarsiz ekanini, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan ayollarga ko‘mak berish, erta nikohlar, ajrashishlar va ayollar jinoyatchiligining oldini olishga yetarlicha e‘tibor berilmagani tanqid qilindi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz xotin-qizlarining hayotiy muhim manfaatlarini ta‘minlash, turmush sharoitlarini har tomonlama yaxshilash bo‘yicha muhim vazifalarni belgilab berdi.

Yig‘ilishda sohada olib borilayotgan ishlar yuzasidan mutasaddilarning hisobotlari tinglandi. Istiqboldagi muhim vazifalar yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**7-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo‘g‘an bilan telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi. Muloqotda ikki davlat rahbarlari 2017-yil oktabr oyida Turkiya Respublikasiga amalga oshirilgan

oliy darajadagi samarali tashrif ko'pqirrali va o'zaro manfaatli O'zbekiston – Turkiya hamkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqqanini mamnuniyat bilan qayd etdilar. Ushbu tarixiy tashrif yakunlari bo'yicha erishilgan aniq kelishuv va imzolangan bitimlarning bajarilishi, jumladan, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, texnologik, bank-moliya, transport, turizm va boshqa muhim sohalardagi yirik qo'shma loyihalarni tayyorlash hamda amalga oshirish masalalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Muloqotda xalqaro va boshqa dolzarb masalalar muhokama qilindi.

\* \* \*

**9-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida poytaxtimiz tumanlarida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Toshkent metropoliteni Yunusobod yo'nalishidagi 2-bosqich qurilish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Toshkent shahrining Abdulla Qodiriy, Sharof Rashidov va Labzak ko'chalari kesishgan joyda «Navro'z» bog'i barpo etilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev ana shu bog' loyihasini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari bog' hududini obodonlashtirish, manzarali daraxt va gul ko'chatlari o'tqazish, Anhor bo'yida qayiqlar bekati bunyod etish, majmuada aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish-

ga xizmat qiladigan sahna asarlarini namoyish etishni tashkillashtirish yuzasidan mutasaddilarga zarur tavsiyalar berdi.

Shu yerda O'zbekiston davlat konservatoriyasi hududida Musiqa san'ati professor-o'qituvchilari malakasini oshirish markazini bunyod etish loyihasi taqdimoti ham o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan Olmazor tumani Qichqiriq kanali bo'yida madaniyat va istirohat bog'i barpo etilishi rejalashtirilgan. Bu yerga kelgan Shavkat Mirziyoyevga mazkur park loyihasi yuzasidan ma'lumot berildi.

Bog' bilan tanishuv chog'ida Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizda «Xavfsiz shahar» konsepsiyasi doirasida olib borilayotgan ishlar ko'lamini ko'zdan kechirdi.

Prezident Shayxontohur tumani-dagi Suzuk ota yodgorlik majmuasida olib borilayotgan qurilish ishlari bilan tanishdi.

Prezident masjidni milliy me'morlik an'analari asosida bunyod etish va bu yerda ziyoratchilar uchun keng qulayliklar yaratish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Shavkat Mirziyoyev Chilonzor tumanidagi Biznes markazida yuqori va tejamkor texnologiyalarga asoslangan «High Tech City» shaharchasi qurilishi loyihasi bilan tanishdi. Janubiy Koreyaning «Posco Daewoo» kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan mazkur loyihaning qiymati 1,4 milliard AQSh dollarini tashkil etadi.

Shavkat Mirziyoyev Chilonzor tumanidagi Bunyodkor va Cho'pon-

ota ko'chalari kesishmasida «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyatiga qarashli «Ko'prik qurilish trest» korxonasi tomonidan bunyod etilayotgan yo'l o'tkazgich qurilishini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari Chilonzor tumanida barpo etilayotgan yangi masjidga tashrif buyurdi. Prezident ushbu maskanga shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf nomini berishni taklif etdi.

Prezident Sergeli tumanidagi ko'p-qavatli yangi uy-joylar qurilishi bilan ham tanishdi.

\* \* \*

**13-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoyishga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Koreya Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari, strategiya va moliya vaziri, ikki tomonlama Hukumatlararo komissiya hamraisi Kim Dong Yonni qabul qildi.

Uchrashuvda savdo-iqtisodiy, investitsiya, innovatsiya, bank-moliya va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

\* \* \*

**14-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyat-

chilikka qarshi kurashishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Farmasevtika tarmog'ini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**14-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarining ahvoli, sohadagi ishlarni jadallashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Yig'ilishda joriy yilda davlat maktabgacha ta'lim muassasalari qurish, ta'mirlash va jihozlash bo'yicha manzilli ro'yxatni tasdiqlash, bolalar bog'chalarining moddiy-texnik holatini o'rganib, mebel, oshxona jihozlari, o'yin maydonchalari va sport inventarlariga bo'lgan talabni aniqlash hamda yaqin 2 yilda mamlakatimizdagi barcha bog'chalarni jihozlash bo'yicha hujjatlarni tayyorlash zarurligi ta'kidlandi.

Davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy bog'chalar tashkil etish bo'yicha ham qator vazifalar belgilandi.

Yana bir muhim vazifa – maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarining saviyasi, bilimi va ko'nikmalari masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda yuqori malakali, oliy ma'lumotli kadrlarni rag'batlantirish, maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining oylik ish haqini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Muhokama qilingan masalalar bo'yicha mutasaddi rahbar va hokimlarning axborotlari tinglandi.

\* \* \*

**15-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan AQShning «Jeneral elektrik» kompaniyasi vitse-prezidenti Ronald Jeyms Polletni qabul qildi.

Uchrashuvda «Jeneral elektrik» kompaniyasining mamlakatimizdagi faoliyati kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Davlatimiz rahbari energetika tarmog'idagi o'zaro manfaatli texnologik sheriklik hamda ishlab chiqarish kooperatsiyasi sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish muhimligini alohida ta'kidladi. Mamlakatimizda, jumladan, xorijning yetakchi mutaxassislari va ekspertlarini jalb qilgan holda, yuqori malakali kadrlar tayyorlash sohasidagi hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**15-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg'iziston Prezidenti Sooronbay Jeenbekov bilan telefon orqali muloqot qildi. Muloqot avvalida davlat rahbarlari O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 25 yiligi munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutladilar.

O'tgan davrda qardosh xalqlarimiz o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalarini mustahkamlash, o'zaro manfaatli O'zbekiston—Qirg'iziston hamkorligini salmoqli darajada kengaytirishga erishilgani chuqur mamnuniyat bilan qayd etildi. Tomonlarning siyosiy irodasi va amaliy sa'y-harakatlari tufayli o'zaro munosabatlar strategik sheriklik darajasiga yetgani alohida ta'kidlandi.

Muloqotda davlat rahbarlari oliy darajadagi o'zaro tashriflar davomida erishilgan kelishuvlarni o'z vaqtida amalga oshirish zarurligini qayd etdilar. Ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikning boshqa masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**16-fevral.** O'zbekiston Respublikasi va Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganiga 25 yil to'lishi munosabati bilan ikki davlat rahbarlari bir-birlarini qutladilar.

\* \* \*

**16–17-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning borishi bilan tanishish maqsadida Buxoro viloyatiga tashrif buyurdi. Tashrif Bahouddin Naqshband majmuasi ziyoratidan boshlandi.

Bahouddin Naqshband, Abduxoliq G'ijduvoni, Orif Revgariy, Ali Romitaniy, Boboyi Samosiy, Mahmud Fag'naviy, Sayyid Amir Kulol kabi me'moriy majmualarni o'z ichiga

olgan Yetti pir ziyoratgohi nafaqat yurtdoshlarimiz, balki butun dunyo musulmonlari uchun tabarruk maskanlar hisoblanadi. Prezidentimizga mazkur majmualarni rekonstruksiya qilish va yangi sayyohlik yo'nalishlarini ochish bo'yicha qilinadigan ishlar haqida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari tashrif davomida Buxoro tumanidagi «Buxoro baliq sanoat» mas'uliyati cheklangan jamiyatida bo'lib, bu yerda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Buxoro tumanida bir qator iqtisodiy loyihalar taqdimoti bo'ldi.

Prezidentimizga Buxoro viloyatida mavjud yaylovlardan samarali foydalanish to'g'risida ham ma'lumot berildi. Shu yerda «Komteks p'p'osh» MChJ tomonidan qo'y junini sanoat usulida qayta ishlash klasteri taqdimoti bo'lib o'tdi. Shuningdek, 2018-yilda viloyatda amalga oshiriladigan parrandachilik, pilla yetishtirish, asalarichilik, zamonaviy issiqxonalar, agrosanoat logistikasi va savdo logistikasi markazlari tashkil etish loyihalari taqdim qilindi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbariga 2018–2020-yillarda viloyatda irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish dasturi, Buxoro shahrida rekonstruksiya qilinayotgan kanallar haqida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari Buxoro shahridagi 280 o'ringa mo'ljallangan 54-maktabgacha ta'lim muassasasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev Buxoro shahriining tarixiy qismida amalga oshi-

rilayotgan ishlar bilan tanishdi. Mir Arab madrasasi bino va inshootlari, turistlarga xizmat ko'rsatuvchi avtoullovlar, infratuzilma obyektlarini ko'zdan kechirdi.

Shu kuni Peshku tumani hokimligida viloyat faollari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda Buxoro viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada oshirish, yoshlar tarbiyasi va ularni ish bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari viloyatga tashrifining ikkinchi kunini Buxoro shahar Yoshlar markazi faoliyati bilan tanishishdan boshladi. Markaz to'garaklarida olib borilayotgan mashg'ulotlar jarayonini kuzatdi.

Shundan so'ng Shavkat Mirziyoyev Buxoro — Kogon yo'li bo'yida qurilayotgan ko'pqavatli uylarni borib ko'rdi.

Buxoro shahrining Islom Karimov ko'chasi bo'yidagi inshootlarni qayta qurish loyahasiga ko'ra, savdo, ko'ngilochar markazlar, ijtimoiy soha obyektlari barpo etiladi.

Buxoro shahrining bosh rejasiga ko'ra, bir qator markaziy ko'chalar kesishmalaridagi turar joy mavzeleri qayta quriladi. Tartibsiz va ma'naviy eskirgan uylar yangilanadi, yangi turar joy binolari qad rostlaydi.

Davlatimiz rahbariga Buxoro davlat tibbiyot institutining 900 o'rinli o'quv binosi va 200 o'rinli klinikasi, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Buxoro filialining qabul-diagnostika bo'limini qurish va 120 o'rinli davolash korpusini rekonstruksiya qilish loyihalari taqdim qilindi.

Buxoro viloyatida ichimlik suvi ta'minoti tizimini rivojlantirish rejasini ham ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugga qarashli harbiy qismlardan birida bo'ldi. Prezidentimiz dastlab Mudofaa vazirligi qo'shinlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, Buxoro viloyati harbiy-ma'muriy sektori faoliyati, viloyatda harbiy shaharcha barpo etish borasidagi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi. Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirib borish, ularni xorijda o'qitishni tashkil etish, harbiy sohaga qanday zamonaviy dasturlarni joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlash yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**19-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev import hajmini qisqartirish va mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish ishlarini tahlil qilish, bu boradagi eng muhim vazifalarni belgilab olishga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Davlatimiz rahbari Mahalliyashtirish dasturi va importni qisqartirish rejasini ijrosini chuqur tahlil qilib, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tanqidiy baholadi.

Yig'ilishda sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish, mahalliyashtirishni rivojlantirish bo'yicha dolzarb vazifalar belgilab olindi.

\* \* \*

**22-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish va ichki turizmni yanada rivojlantirish, sayyohlik xizmatlarini yaxshilash va turlarini kengaytirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar natijadorligi tanqidiy tahlil qilindi.

Majlisda soha mutasaddilari, mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchilari va joylardagi rahbarlarning hisobotlari tinglandi.

\* \* \*

**22-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Iqtisodiyot bazaviy tarmoqlaridagi loyiha ishlarini hamda muhandis-loyihalovchilarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2018-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'on bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat chog'ida ikki mamlakat rahbarlari O'zbekiston—Turkiya hamkorligini yanada kengaytirish istiq-

bollarini atroflicha muhokama qildi, mintaqaviy va xalqaro dolzarb masalalar bo'yicha fikr almashdi.

Muloqot so'ngida davlat rahbarlari O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi azaliy do'stlik va qar-doshlik aloqalari hamda an'anaviy yaqin hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlashga tayyorligini bildirdilar.

\* \* \*

**27-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida eksportni oshirish va importni qisqartirish bo'yicha qo'yilgan vazifalar ijrosi, bu borada tarmoqlar va hududlardagi ishlar holati tahliliga bag'ishlangan video-selektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilish tanqidiy ruhda o'tdi. Davlatimiz rahbari eksport rejasini bajarishdagi kamchiliklarni chuqur tahlil qilib, asosiy yo'nalish va vazifalarni belgilab berdi.

\* \* \*

**28-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Vinochilik sohasini va alkogolli mahsulotlarni realizatsiya qilishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**28-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respub-

likasi, Shveysariya Konfederatsiyasi, Latviya Respublikasi, Isroil Davlati, Germaniya Federativ Respublikasi, Slovakiya Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasining mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchilari etib tayinlangan Irfon Yusuf Shomiy, Olivye Shav, Mixails Popkovs, Eduard Shapir, Gyunter Overfeld, Yan Bori va Szyan Yandan ishonch yorliqlarini qabul qilib oldi.

Davlatimiz rahbari elchilarni mamlakatimizda diplomatik missiyasini boshlagani bilan samimiy qutlab, mas'uliyatli faoliyatida ulkan yutuq va muvaffaqiyatlar tiladi.

\* \* \*

**28-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Paxta xomashyosi va boshqoli don yetishtirishni moliyallashtirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston—Turkmaniston hukumatlararo qo'shma komissiyasining navbatdagi yig'ilishi doirasida mamlakatimizga tashrif buyurgan Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o'rinbosari Bayram Annamerodovni qabul qildi.

Suhbat chog'ida savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika sohalaridagi keng miqyosli hamkorlik istiqbollari, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**2-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, olib borilayotgan islohotlar jarayoni, yirik loyihalar bilan tanishish va xalq bilan muloqot qilish maqsadida Navoiy viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Karmana tumanidagi «Karmana golden eggs» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyatini ko'zdan kechirdi.

Davlat rahbariga taqdim qilingan yana bir reja bo'yicha 2018–2019-yillarda umumiy qiymati 84,5 million AQSh dollariga teng bo'lgan alumin profillar, aksessuar va butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi 4 ta loyiha amalga oshiriladi.

«Navoiy» erkin iqtisodiy zonasi istiqboldagi rejalar taqdimoti bo'lib o'tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Nurota tumanida 10 ming gektar lalmi yerda tashkil etiladigan intensiv pista plantatsiyalari loyihasi bilan tanishdi.

Shuningdek, Navoiy viloyatida cho'l o'rmonchiligini rivojlantirish ilmiy markazini tashkil etish, Xatirchi tumanida bog' va zamonaviy issiqxona barpo etish, meva-sabzavotni qayta ishlash, Navbahor tumanida tomchilatib sug'orish usulida bodom va pista plantatsiyalari ochish, qorako'lchilik, tivit junli echkilarni ko'paytirish, 2018–2019-yillarda viloyatda oziq-ovqat ta'minotini ravnaq toptirish va qator boshqa yo'nalishlarga oid istiqbolli loyihalar ham taqdim etildi.

Davlatimiz rahbari viloyatning eng olis hududlaridan biri — Tom-

di tumanida ham bo'ldi. Tumandagi 12-bolalar musiqa va san'at maktabida Navoiy viloyatida amalga oshirilayotgan loyihalar va istiqboldagi rejalar bilan tanishdi.

Prezident Zarafshon va Uchquduq shaharlaridagi ko'pqavatli uy-joy fondini ta'mirlash ishlarini ko'zdan kechirdi.

Ayni paytda 2026-yilgacha qimmatbaho metallar qazib olishni ko'paytirish, «Auminzo-Amantoy» konini o'zlashtirish, Muruntov konini o'zlashtirishning 5-bosqichi, Tomdi tumanidagi 2-gidrometallurgiya zavodi quvvatlarini kengaytirish kabi loyihalar taqdimotlari o'tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev shu yerda Tomdi, Uchquduq, Konimex tumanlari va Zarafshon shahri jamoatchiligi vakillari, oqsoqollar, yoshlar, tadbirkorlar bilan samimiy muloqot qildi.

Shu kuni Xatirchi tumani hokimligida viloyat faollari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda viloyat iqtisodiyotini yuksaltirish, odamlar turmush sharoitini yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratishga e'tiborni kuchaytirish, ta'lim, tibbiyot va boshqa sohalarda boshlangan islohotlarni izchil davom ettirish, ayollar o'rtasida jinoyatchilikni kamaytirish kabi qator dolzarb masalalar muhokama qilindi.

\* \* \*

**2-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent xalqaro aeroportida Germaniyaning «Mangold Konsalting» kompaniyasi boshqaruvi raisi Klaus Mangold bilan uchrashdi.



Uchrashuvda Germaniya kompaniyalari bilan O'zbekistonda yuqori texnologik korxonalar ochish, transport-logistika va turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, savdo-sotiq va qo'shma loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha amaliy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

\* \* \*

**2-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**6-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev ikki tomonlama idoralararo maslahatlashuvlar o'tkazish uchun mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Rossiya Federatsiyasi moliya vaziri Anton Siluanovni qabul qildi.

Uchrashuvda ikki mamlakat moliya vazirliklari o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'tgan yil aprel oyida Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi chog'ida imzolangan Hamkorlik to'g'risidagi memorandum doirasida yaqin o'zaro

hamkorlik yo'lga qo'yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Moliyaviy sohadagi samarali muloqotni yanada rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi. Qo'shma loyihalarni moliyalashtirish, Rossiyaning yetakchi ta'lim muassasalari negizida soha uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasida hamkorlik imkoniyatlari muhokama qilindi.

\* \* \*

**7-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami munosabati bilan mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-mart.** Poytaxtimizdagi «O'z-ekspomarkaz» Milliy ko'rgazma majmuasida 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tantanali bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan turli sohalarda mehnat qilayotgan faol ayollar qatnashdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tadbirda ishtirok etib, mamlakatimiz xotin-qizlarini ushbu qutlug' ayyom bilan tabrikladi. Davlatimiz rahbari adabiyot, san'at, fan, ta'lim, madaniyat, sport sohalarida erishgan alohida yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlangan 28 nafar qizga ana shu yuksak mukofotlarni tantanali ravishda topshirdi.

Prezidentimizning Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutqi 8-mart kuni matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**9–10-mart.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Dushanbega keldi.

Tashrifning asosiy voqealari Dushanbe shahridagi Millat qasrida bo‘lib o‘tdi. Prezidentlarning yakama-yakka uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Do‘stona va konstruktiv ruhda o‘tgan suhbatda siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda ikki tomonlama keng qamrovli hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish istiqbollari, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro muammolar muhokama qilindi.

O‘zbekiston va Tojikiston rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibdagi uchrashuvda hamkorlikning boshqa muhim masalalari ham ko‘rib chiqildi. Muzokarada uzoq muddatli munosabatlarning huquqiy asoslarini yanada rivojlantirish va hamkorlikning barcha yo‘nalishlaridagi mavjud yuksak salohiyatni imkon qadar to‘laro‘yobga chiqarish masalalari muhokama qilindi. Tomonlar yengil sanoat, oziq-ovqat, qurilish materiallari ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, meva-sabzavotni qayta ishlash, tranzit uchun qulay sharoitlar yaratish, mintaqalar o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish kabi sohalarda atroflicha fikr almashdi.

Ochiq muloqot, o‘zaro anglashuv ruhida o‘tgan muzokarada mintaqadavlatlari manfaatlarini hisobga olgan holda suv-energetika resursla-

ridan oqilona va adolatli foydalanish, muammolarni hal etishda umume’tirof etilgan xalqaro norma va standartlarga rioya qilish zarurligi ta’kidlandi.

Prezidentlar o‘zbek tilini Tojikistonda, tojik tilini O‘zbekistonda o‘rganish va o‘rgatishni takomillashtirish, o‘quv va badiiy adabiyotlar, davriy va ilmiy nashrlar bilan almashuv, ikki mamlakatning mumtoz adabiyot vakillari va zamonaviy mualliflari asarlarini tarjima qilishga alohida e’tibor qaratdilar. Ta’lim va fan sohasida o‘zaro munosabatlarni, shu jumladan, ikki mamlakat oliy o‘quv yurtlari va fanlar akademiyalari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish zarurligi qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmonga Abdurahmon Jomiyning o‘zbek tilida chop etilgan «Muhabbat maxzani» kitobini sovg‘a qildi.

Muzokaralar yakunida ikki mamlakat rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o‘rtasida Do‘stlik va yaxshi qo‘shnilikni mustahkamlash to‘g‘risidagi Qo‘shma bayonot, O‘zbekiston–Tojikiston davlat chegarasining alohida uchastkalari to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar. Bundan tashqari, savdo, iqtisodiyot, investitsiya, moliya, transport va tranzit, qishloq xo‘jaligi, suv-energetika, soliq, bojxona, turizm, fan-ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, xavfsizlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohaslaridagi hamkorlik hamda hududlararo aloqalarni rivojlantirishga doir 27 hujjat imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari va-killari bilan uchrashuvda Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon muzokaralar o'zaro hurmat, ishonch va ishchanlik ruhida o'tganini, mazkur tarixiy tashrif manfaatli keli-shuvlarga erishishda muhim qadam bo'lib, O'zbekiston — Tojikiston hamkorligini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishini ta'kidladilar.

Davlatimiz rahbari Dushanbe shahridagi «Do'stlik» maydoniga tashrif buyurdi. Bu yerda somoniylar davlati asoschisi, millat ozodligi va tinchlik ramzi bo'lgan Ismoil Somoniy haykali poyiga gulchambar qo'ydi.

Prezidentimizning Tojikiston Respublikasiga tashrifi doirasida «O'zbekistonda ishlab chiqarilgan» milliy mahsulotlar ko'rgazmasi ochildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon hamrohligida mazkur ko'rgazmaga tashrif buyurdi. Davlat rahbarlari ko'rgazmaga kirishdan oldin «G'alaba — Amuzang — Xoshadi» temiryo'l tarmog'ining ochilish marosimida ishtirok etdilar. Prezidentlar poyezdlar qatnovini boshlash uchun izn berilganini bildiradigan ramziy tugmani bosdilar. Ikki davlat o'rtasida temiryo'l qatnovi rasman yo'lga qo'yildi. Shundan so'ng davlat rahbarlari va delegatsiya a'zolari ko'rgazmadagi mahsulotlar bilan tanishdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga tashrifi doirasida O'zbekiston—Tojikiston biznes-forumi ham bo'lib o'tdi.

Tashrifning ikkinchi kuni davlatimiz rahbari o'zi uchun ajratilgan qarorgohda Tojikiston Respublikasi

parlamentining Majlisi namoyandagon palatasi raisi Shukurjon Zuhurovni qabul qildi. Uchrashuvda O'zbekiston Prezidentining Tojikistonga davlat tashrifi g'oyat samarali kechayotgani, tomonlarni qiziqtirgan barcha masalalar bo'yicha yakdil keli-shuvlarga erishilgani qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'zi uchun ajratilgan qarorgohda Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzodani qabul qildi. Suhbat chog'ida bo'lib o'tgan oliy darajadagi uchrashuvlarda ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikka doir barcha masalalar muhokama etilib, uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olingani ta'kidlandi. Ikki mamlakat hududlari va yetakchi korxonalari o'rtasida kooperatsiyani kengaytirish, qo'shma korxonalar tashkil etish, tranzit yuk tashishni ko'paytirish va boshqa masalalar muhokama qilindi.

\* \* \*

**12-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasining to'liq matni Bishkek (Qirg'iziston) shahrida qirg'iz tilida kitob shaklida chop etildi.

\* \* \*

**13-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Buyuk qozoq shoiri va mutafakkiri Abay Qo'nonboyev ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ijro hujjatlari yuzasidan qarzdorlikni undirish masa-

lari bo'yicha yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini yaratish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**14-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida qishloq xo'jaligi mashinasozligini rivojlantirish va sohani zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash bo'yicha ishlar natijadorligi, mavjud muammolar va eng dolzarb vazifalar tahliliga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish, servis xizmatini yaxshilash, importni optimallashtirish, eksportni kengaytirish bo'yicha muayyan kamchiliklar mavjudligi tanqid qilindi.

Yig'ilishda fermerlarni zamonaviy texnika va agregatlar bilan uzluksiz ta'minlash, ularning manfaatdorligini oshirish yuzasidan ko'rsatma va topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**14-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qorako'lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Ostona shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvida ishtirok etdi.

Ostona shahridagi Oqo'rda qarorgohida Prezident Shavkat Mirziyoyev-

ni Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev kutib oldi. Dastlab ikki davlat rahbarlarining tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari ikki tomonlama hamkorlikning bugungi holati va istiqbollarini muhokama qildilar. O'zaro hamkorlikni izchil rivojlantirish, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash masalalari va tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan fikr almashildi.

Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvida mintaqa mamlakatlari o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, terrorizm, diniy ekstremizm, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlad.

Qozog'iston Respublikasi 2018-yilni mamlakatda O'zbekiston yili deb e'lon qildi. Bu qozoq eli va Qozog'iston davlatining o'zbek xalqiga hurmati, yurtimizga yuksak ehtiromi ramzidir. Shu munosabat bilan «Ostona opera» teatrida tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston Prezidentlari va Markaziy Osiyo davlatlari delegatsiyalari a'zolari, diplomatik korpus vakillari, xorijlik faxriy mehmonlar ishtirok etdilar. Marosimda Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyev nutq so'zladilar.

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish yo'lidagi ulkan xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni birinchi darajali «Do'stlik» ordeni bilan mukofotladi.

Qozog'iston Respublikasida O'zbekiston yili ochiq, deb e'lon qilindi. O'zbek san'at ustalarining chiqishlari yig'ilganlarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qozog'iston Respublikasiga tashrifi nihoyasiga yetdi.

Davlatimiz rahbarining sammitda hamda tantanali tadbirda so'zlagan nutqlari matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**16-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Psixiatriya yordami ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**17-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, olib borilayotgan islohotlar jarayoni, yirik loyihalar bilan tanishish va xalq bilan muloqot qilish maqsadida Samarqand viloyatiga tashrif buyurdi. Tashrif Imom Buxoriy majmuasi ziyoratidan boshlandi. Xalqimiz ma'naviy hayotidan chuqur o'rin

olgan ushbu go'shani rekonstruksiya qilish va uzoq-yaqin davlatlardan keladigan ziyoratchilar uchun yanada ko'rkam qadamjoga aylantirish yuzasidan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Rekonstruksiya loyihasini yana bir bor sinchiklab ko'rib chiqish, majmuaning Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi bilan hamohang bo'lishiga e'tibor qaratish kerakligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari Oqdaryo tumanidagi «Daromad baxt omad» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan gidroponika usulida tashkil etilgan issiqxona bilan tanishdi. Bu yerda mehnat qilayotgan ishchilar bilan suhbatlashdi.

Shu yerda Samarqand viloyatida parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik va boshqa tarmoqlarni rivojlantirish, meva-sabzavot yetishtirish va eksport qilishni ko'paytirish loyihalari taqdimoti o'tkazildi. Prezident tadbirkorlar bilan suhbatlashdi.

Shavkat Mirziyoyev Oqdaryo tumanidagi «Mushtariy Oqdaryo» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli tikuvchilik fabrikasida ham bo'ldi. 500 ga yaqin xotin-qiz mehnat qilayotgan fabrikaning ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdi, mahsulotlarni ko'zdan kechirib, xodimlar bilan suhbatlashdi.

Shu yerda «Urgut» erkin iqtisodiy zonasida amalga oshirilayotgan loyihalar, viloyatda tashkil etiladigan kichik sanoat zonalarini va ixcham gidroenergetika stansiyalari loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Samarqandda «KamAZ» avtomobillari ishlab chiqarish loyihalari

bilan tanishuv chog'ida Prezidentimiz mahalliy lashtirish, avtomobillar eksportini oshirish lozimligini qayd etdi.

Shavkat Mirziyoyev Ishtixon tumani «Humo» mahalla fuqarolar yig'inidagi Xina qishlog'ida «Ish-tixon tomorqa xizmati» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari mazkur qishloqda yashovchi Toshquvvat Rajabov xonadoniga tashrif buyurdi. Otaxon farzandlari bilan tomorqasida issiqxona qurib, pomidor va bodring parvarishini yo'lga qo'ygan.

Shu yerda «Obod qishloq» dasturi asosida Nurobod tumani Jom qishlog'ini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, bog'cha, dehqon bozori, turar joy binolarini ta'mirlash, qishloq vrachlik punktini rekonstruksiya qilish kabi muhim loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Shu kuni Pastdarg'om tumani hokimligida viloyat faollari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, qurilish-bunyodkorlik ishlari ko'lamini kengaytirish, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash, aholi turmushdarajasini yanada oshirish, xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta'minlash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**21-mart.** Navro'z bayramiga bag'ishlangan asosiy bayram tadbirlari Toshkent shahridagi «O'z-ekspomarkaz» majmuasida bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bayram sayliga chiqdi.

Prezidentimiz dastlab bayram saylida ishtirok etayotgan diplomatik korpus vakillari, faxriy mehmonlar bilan ko'rishib, ularni muborakbod etdi.

Davlatimiz rahbari tantanaga tashrif buyurgan turli millat va elat vakillari bilan uchrashib, ularni bayram bilan tabrikladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Navro'zi olam — Sharqona yangi yil bilan butun O'zbekiston xalqini samimiy muborakbod etdi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahrida o'tkazilgan Navro'z shodiyonalarida ham ishtirok etdi. Davlatimiz rahbari dastlab shahardagi markaziy istirohat bog'ida yaqinda o'rnatilgan Alisher Navoiy va Jomiy haykallari poyiga gul qo'ydi. Shu yerda samarqandlik ijodkorlar hamda Navro'z shodiyonalarida ishtirok etish uchun yurtimizga kelgan tojikistonlik sho'ir va yozuvchilar bilan muloqot chog'ida o'zbek va tojik adabiyotining bu ikki buyuk vakili xotirasiga o'rnatilgan yodgorlik xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy do'stlik, yaqinlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidladi.

Samarqand shahridagi Alisher Navoiy nomidagi markaziy madaniyat va istirohat bog'ida tashkil etilgan bayram tadbirlarida viloyat jamoatchiligi, nuroniylar, ishlab chiqarish faollari, yoshlar bilan suhbatlashib, barchani bayram bilan yana bir bor tabrikladi. Samimiy suhbat chog'ida mamlakatimizdagi islohotlar, odamlar hayotidagi o'zgarishlar haqida so'z bordi.

\* \* \*

**21-mart.** Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev O‘zbekiston xalqini Navro‘z bilan tabriklash maqsadida Samarqand shahriga tashrif buyurdi. Oliy martabali mehmonni Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand xalqaro aeroportida kutib oldi.

Samarqand shahridagi Forumlar majmuasida ikki davlat rahbarlarining uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyevning tashabbusi bilan O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi hamkorlikning bugungi holati yuqori baholandi, uni yanada rivojlantirishga oid masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Nursulton Nazarboyev va Shavkat Mirziyoyev Hazrati Xizr majmuasiga tashrif buyurib, mustaqilligimiz asoschisi Islom Karimov qabrinini ziyorat qildilar. Birinchi Prezidentimiz qabriga gul qo‘yib, uning xotirasiga hurmat bajo keltirdilar.

Qozog‘iston Prezidenti davlatimiz rahbari hamrohligida Samarqandning diqqatga sazovor joylarini tomosha qildi.

\* \* \*

**23-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida qishloq xo‘-

jaligini jadal rivojlantirish va islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha ishlar natijadorligiga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda g‘alla o‘rim-yig‘imiga tayyorgarlik masalasi ham muhokama qilindi. Bu boradagi mavjud kamchiliklarni qisqa fursatlarda bartaraf etish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

Majlisda chigit ekishni sifatli o‘tkazish va to‘liq ko‘chat olish, paxta va g‘alla yetishtirishni moliyalashtirish masalalari ham diqqat markazida bo‘ldi.

Yig‘ilishda tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etishga ham alohida e‘tibor qaratildi.

Yig‘ilishda qayd etilgan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish, barcha turdagi ekinlardan mo‘l-ko‘l hosil olish yuzasidan mutasaddilarga tegishli ko‘rsatma va topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**24-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tashqi savdoni yanada erkinlashtirish va savdo operatsiyalarining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Ko‘ksaroy qarorgohida «Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik» mavzusida Afg‘oniston bo‘yicha yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiyasida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan mamlakatimizga kelgan Afg‘oniston Islom

Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'anini qabul qildi.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, shuningdek, o'zaro manfaatli amaliy hamkorlikni kengaytirish, jumladan, savdo, transport va energetika sohalaridagi loyihalar, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa yo'nalishlardagi dasturlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi. Tomonlar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

\* \* \*

**26-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik» mavzusida Afg'oniston bo'yicha yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiyasida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan AQShning nufuzli delegatsiyasi rahbari, AQSh Davlat kotibining siyosiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Tomas Shenonni qabul qildi.

Uchrashuvda Afg'onistondagi vaziyat yuzasidan fikr almashildi. O'zbekiston va AQSh afg'on mojarosini tinch siyosiy yo'l bilan hal etish bo'yicha jarayonni tez fursatda boshlash tarafdori ekani ta'kidlandi.

\* \* \*

**27-mart.** Poytaxtimizda «Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik» mavzusida Afg'oniston bo'yicha yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashab-

busi bilan tashkil etilgan mazkur konferensiya jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otdi. Unda ishtirok etish uchun mamlakatimizga Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'ani, BMTning Afg'onistondagi maxsus vakili Tadamiti Yamamoto, Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili Federika Mogerini, shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Turkiya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Pokiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari tashqi siyosat mahkamalari rahbarlari, jami 25 davlat va xalqaro tashkilot vakillari tashrif buyurdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalqaro konferensiyada nutq so'zladi. Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi va Afg'oniston Islom Respublikasining birgalikdagi tashabbusi bilan o'tkazilayotgan mazkur anjuman xalqaro hamjamiyat tomonidan Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan amaliy sa'y-harakatlarning mantiqiy davomi ekanini ta'kidladi.

Konferensiya ishtirokchilari anjuman yakuni bo'yicha Toshkent deklaratsiyasini imzoladilar. Mazkur hujjatda mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, barcha sohalarda hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, ahil qo'shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash kabi ezgu maqsadlar ko'zda tutilgan.



Davlatimiz rahbarining ushbu xalqaro konferensiyada soʻzlagan nutqi matbuotda eʼlon qilindi.

\* \* \*

**27-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik» mavzusidagi Afgʻoniston boʻyicha yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiyasi doirasida Yevrokomissiya vitse-prezidenti, Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati boʻyicha Oliy vakili Federika Mogerini, Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov, Turkiya Respublikasi tashqi ishlar vaziri Mevlud Chavushoʻgʻlu, Pokiston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Xavaja Muhammad Asif bilan uchrashuvlar oʻtkazdi.

Uchrashuvlar chogʻida xorijiy delegatsiyalar rahbarlari Afgʻoniston boʻyicha yuksak darajadagi Toshkent konferensiyasini toʻliq qoʻllab-quvvatlashini bildirib, u oʻz vaqtida tashkil etilgani va tadbir kun tartibiga kiritilgan masalalar dolzarb ahamiyatga ega ekanini qayd etdi. Yangi bosqichda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar va sotsial-iqtisodiy islohotlar, shuningdek, Oʻzbekistonning mintaqada konstruktiv va oʻzaro manfaatli hamkorlik boʻyicha faol ishtirokiga yuksak baho berildi.

\* \* \*

**28-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oʻsimliklar karantini boʻyicha davlat xizmati faoliyatining samaradorligini oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar

toʻgʻrisida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Obod qishloq» dasturi toʻgʻrisida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**29-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oʻzbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**30-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, olib borilayotgan izchil islohotlar, yirik loyihalar bilan tanishish va xalq bilan muloqot qilish maqsadida Jizzax viloyatiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Zardor tumanidagi «Zardor textile» masʼuliyati cheklangan jamiyatida boʻldi. Shu yerda Jizzax shahridagi sobiq toʻqimachilik kombinatining boʻsh turgan binolari negizida zamonaviy toʻqimachilik majmuasi barpo etish, «Jizzax», «Zomin-farm» erkin iqtisodiy zonalarida 2018–2019-yillar uchun rejalashtirilgan investitsiya, shuningdek, viloyatda yengil sanoat va qishloq xoʻjaligi sohala-

rida amalga oshiriladigan loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari Jizzax shahar ichki ishlar bo'limi 2-son ichki ishlar bo'linmasida bo'ldi. Shavkat Mirziyoyev mahalla raisi va profilaktika inspektori bilan aholi farovonligini oshirish, kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, mahallada jinoyatchilikning oldini olish masalasida suhbatlashdi. Shu yerda Prezidentimiz bir guruh nuroniylar bilan ham uchrashdi.

Prezidentimiz Jizzax shahar Mustaqillik ko'chasida barpo etilayotgan ko'pqavatli arzon uy-joylar loyihalari bilan tanishdi. Jizzax shahridagi Islom Karimov ko'chasi bo'ylab quriladigan infratuzilma obyektlari, ko'pqavatli turar joylar, Sayljoyi mahallasi hududidagi 37-maktabgacha ta'lim muassasasi binosini qayta ta'mirlash kabi qator istiqbolli loyihalar taqdim etildi.

Prezidentimiz viloyatda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha barcha manbalarni ishga solish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

Shuningdek, Do'stlik tumanidagi Manas qishlog'iga tashrif buyurdi. Bu yerda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Manas qishlog'i mamlakatimizda boshlangan «Obod qishloq» dasturini tatbiq etishda namuna sifatida tarixda qoldi. Prezidentimiz qayta rekonstruksiya qilingan qishloq vrachlik punktidagi sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari qishloqdagi 125 o'rinli «Aychurek» maktabgacha ta'lim muassasasida ham bo'ldi.

«Manas» madaniyat saroyida xalq deputatlari Jizzax viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiyada Prezident Shavkat Mirziyoyev so'zga chiqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatiga tashrifining ikkinchi kuni «Forish» tog'dala o'quv bazasida bo'ldi. Davlatimiz rahbari harbiylar uchun ajratilgan yotoqxon, mashg'ulotlar maydonlarida bo'ldi. Prezidentimiz harbiy o'quv-mashg'ulotlarni ko'zdan kechirdi.

Shu kuni Prezidentimiz 2018–2019-yillarda Jizzax viloyatida irrigatsiya-melioratsiya Davlat dasturi asosida amalga oshiriladigan ishlar bilan tanishdi. Shu yerda «O'zbekgidroenergo» aksiyadorlik jamiyati tomonidan Jizzax viloyatining Zomin va Zafarobod tumanlarida mikro GESlarni qurish va modernizatsiya qilish investitsiya loyihalari taqdimoti ham o'tkazildi.

\* \* \*

**2-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va

Turkmaniston o'rtasida uch davlatning Davlat chegaralari tutashgan nuqtasi hududi to'g'risidagi Shartnomani (Samarqand, 2017-yil 10-noyabr) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi bilan Afg'oniston Islom Respublikasi o'rtasida fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro huquqiy yordam to'g'risidagi Shartnomani (Toshkent, 2017-yil 5-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Buyuk adib va jamoat arbobi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**3-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti Ustavini (Boku, 2015-yil 26-noyabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**3-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Umumjahon pochta

ittifoqining Ustaviga To'qqizinchi qo'shimcha bayonnomani (Istanbul, 2016-yil 6-oktabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**3-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Shanxay hamkorlik tashkilotining Ekstremizmga qarshi kurashish Konvensiyasini (Ostona, 2017-yil 9-iyun) ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish borasidagi ishlar tahlili va galdagi eng muhim vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Unda davlat xizmatlarining har bir turini «Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi» tamoyiliga ko'ra, vakolatli davlat organlari, tashkilotlar zarur hujjatlar va axborotlarni boshqa tuzilmalardan mustaqil ravishda olishi hisobidan soddalashtirish, ayrim vakolatli organlarda davlat xizmati ko'rsatish bo'yicha elektron axborot tizi-

mi to'liq joriy etilmagani, idoralararo elektron axborot almashuvi yo'lga qo'yilmagani, ayrim Davlat xizmatlari markazlari optik tolali internet tarmog'iga ulanmagani bilan bog'liq muammolar tanqidiy tahlil qilindi.

Adliya vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda boshqa tegishli idoralarga 50 ta davlat xizmatlari bo'yicha elektron axborot tizimi va elektron ma'lumotlar bazasini yaratish, barcha davlat xizmatlari markazlarini optik tolali internetga ulash bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**5-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**5-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda uning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublika oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**5-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida poytaxtimiz tumanlarida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademik Sobir Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi institutiga tashrif buyurdi. Institutning asosiy yo'nalishlari, ilmiy va ishlab chiqarish salohiyati bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev mazkur dargoh o'zining ilmiy salohiyati bilan nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinlarda turishi, bu yerda yaratilayotgan yangiliklar farmatsevtika sanoatini rivojlantirishda muhim o'rin tutishini ta'kidladi. Prezidentimiz mazkur korxonaga bilan tanishdi, olimlar tomonidan tayyorlangan biologik aktiv substansiyalarni ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari institut faollari zalida vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari va O'zFA ilmiy tadqiqot institutlari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan samimiy muloqot qildi.

Shundan so'ng Prezidentimiz Yashnobod tumanidagi zamonaviy harbiylar shaharchasi qurilishi bilan tanishdi. Shu yerda huquqni muho-

faza qilish organlari mutasaddilari bilan suhbat o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari Yashnobod tumanidagi Muhammad Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabning qurilish loyihasi, «Ashxobod sayilgohi»da olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari «Tashkent City» xalqaro ishbilarmonlik markazi hududida barpo etilayotgan zamonaviy inshootlar qurilishini borib ko'rdi.

Prezidentimiz loyihalar bilan tanishar ekan, mazkur inshootlarni eng zamonaviy texnologiyalar va me'morlik andazalari asosida barpo etish zarurligini ta'kidladi. «Tashkent City» shahar ichidagi yangi shahar bo'lishi kerak, bu shaharcha katta sur'atlar bilan rivojlanayotgan O'zbekistonimizning bor salohiyatini o'zida to'la namoyon etishi zarur, deb ta'kidladi.

\* \* \*

**6-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro maqom san'ati anjumanini o'tkazish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**9-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat xaridlari to'g'ri-

sida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**11-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat mukofotlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**11-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada qisqartirish va soddalashtirish, shuningdek, biznes yuritish shart-sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan telefon orqali muloqot qildi. Davlatimiz rahbari Ilhom Aliyevni yaqinda bo'lib o'tgan Ozarbayjon Prezidenti saylovida ishonchli g'alabaga erishgani bilan samimiy tabrikladi.

Davlatlar rahbarlari O'zbekiston – Ozarbayjon ko'pqirrali hamkorligi, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

\* \* \*

**12-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jamoatchilik nazorati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**12-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sirdaryo» erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda Adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**13-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, yirik loyihalar bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Sirdaryo viloyatida bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev dastlab Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi «Bek klaster» mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qo'shma korxonadan tomonidan tashkil etilgan zamonaviy gidroponik issiqxonada bo'ldi, ishchilar bilan muloqot qildi.

Prezidentimiz qishloq xo'jaligi texnikalarini ham ko'zdan kechirdi. «Social web solution» korxonasi mutaxassislari tomonidan yaratilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari dasturiga alohida e'tibor qaratdi. Shu yerda viloyatda baliqchilik, chorvachilik, ipakchilik va ko'ndilikni rivojlantirish, 2018–2019-yillarga mo'ljallangan irrigatsiya va melioratsiya davlat dasturi, sholi yetishtirish, lalmi va tomorqa yerlardan samarali foydalanish, irrigatsiya-melioratsiya tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilishga qaratilgan loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlar va xorijlik investorlar bilan muloqot qildi, loyihalar samaradorligini oshirish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi. Shundan so'ng M-34 «Toshkent – Dushanbe» avtomobil yo'lining 117–146-kilometrlaridagi Toshkent ko'chasida amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi.

Prezidentimiz Guliston shahridagi suv sporti turlariga ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabida qurilgan yopiq suzish havzasini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari Guliston shahrida tashkil etilgan Alisher Navoiy nomidagi Bilimdonlar maskanida bo'ldi. Prezidentimiz bu yerda viloyat ijodkor ziyolilari, ijtimoiy soha va yoshlar vakillari bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbari Sirdaryo tumanidagi «Sirdaryo mega lyuks» mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi O'zbekiston – Rossiya

qo'shma korxonasida qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi.

«Sirdaryo mega lyuks» qo'shma korxonasi hududida viloyatda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari ko'rgazmasi va sanoatni rivojlantirish bo'yicha loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari «Ideal asr» korxonasining bosim ostida ishlaydigan uskuna va maxsus texnikalarini ko'zdan kechirdi. Mazkur sig'imlar suyultirilgan gazni saqlash va tashishga mo'ljallangan bo'lib, chekka hududlar aholisini tabiiy gaz bilan ta'minlashda katta qulaylik yaratadi.

Prezidentimiz «Crocus Uz composite» korxonasida mahalliy xomashyo, ya'ni shisha paxta, kvarts qumi va efir moyidan ishlab chiqarilayotgan lotok va quvurlarning afzalligiga alohida e'tibor qaratdi.

Davlatimiz rahbariga Sirdaryo viloyatidagi «Peng Sheng» majmuasi tarkibidagi «AWP» qo'shma korxonasida suv jihozlari, jezdan dastaklar, fittinglar, katta hajmdagi keramik plitalar, eshik qulflari ishlab chiqarish kabi qator yangi loyihalar namoyish etildi.

Shu kuni Sayxunobod tumanidagi 8-bolalar musiqa va san'at maktabida viloyat faollari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Videoselektor shaklida o'tgan yig'ilishda viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, ta'lim, tibbiyot sohalaridagi o'zgarishlar, aholi bandligini ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**16-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'rmon to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**16-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**16-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq va suv xo'jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**17-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida iqtisodiyot tarmoqlarida hisob-kitob tizimini takomillashtirish, debitor, kreditor va budjet oldidagi qarzdorliklarni kamaytirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar tahliliga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Unda davlatimiz rahbari uzoq yillardan

beri hisob-kitob tizimiga e'tibor qaratilmay kelingani, iqtisodiyot tarmoqlarida pul oqimlari samarasiz boshqarilgani va nomutanosib taqsimlangani oqibatida qarzdorlik holatlari ko'payib ketganini ta'kidladi.

Yig'ilishda Prezidentimiz Bosh vazir o'rinbosarlari, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlariga iqtisodiyot tarmoqlarida hisob-kitoblar tizimini takomillashtirish, debitor, kreditor va budjet oldidagi qarzdorliklarni qisqartirish, tuman, viloyat va respublika darajasida soliq organlari, banklar, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa idoralar o'rtasida har oy yakuni bo'yicha o'zaro qarzdorlik holatini solishtirib borish tizimini joriy etish, solishtirmalar asosida qarzdorlik ahvolini Vazirlar Mahkamasida komplekslarida har oyda jiddiy muhokama qilish, davlat idoralari o'rtasida elektron hamkorlik va ma'lumot almashuvini yo'lga qo'yish borasidagi ishlarni jadallashtirish yuzasidan topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**18-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**18-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda tashrif bilan bo'lib turgan Koreya Respublikasi tashqi ishlar vaziri Kan Gyon Xva xonimni qabul qildi.

Suhbatda 2017-yil noyabr oyida Janubiy Koreyaga oliy darajadagi tarixiy tashrif hamda uning yaku-

nida erishilgan muhim kelishuvlar O'zbekiston—Janubiy Koreya o'zaro manfaatli hamkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish va aniq amaliy mazmun bilan boyitishga xizmat qilgani alohida qayd etildi. Davlatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash istiqbollari hamda xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**19-aprel.** Buxoro viloyatida Qandim gazni qayta ishlash majmuasining ishga tushirilishiga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tdi. Rossiyaning «Lukoil» neft kompaniyasi bilan hamkorlikda «Qandim—Xauzak—Shodi—Qo'ng'iro't» mahsulot taqsimoti bitimi doirasida Qandim gazni qayta ishlash majmuasi muddatidan 8 oy avval qurib bitkazildi.

Majmuaning ishga tushirilishiga bag'ishlangan marosimda Rossiya Federatsiyasi energetika vaziri Aleksandr Novak, «Lukoil» kompaniyasi prezidenti Vagit Alekperov, diplomatik korpus, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, zavod ishchi-muhandislari, yoshlar, milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi. Marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning tabrigini ushbu mamlakatning energetika vaziri Aleksandr Novak o'qib eshittirdi. Shundan so'ng Qandim gazni qayta ishlash majmuasi faoliyatiga start beruvchi ramziy tugma bosildi.



Davlatimiz rahbari majmuaning texnologik jarayonini ko'zdan kechirdi. Laboratoriya va markaziy boshqaruv pultida bo'ldi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Buxoroga tashrifi davomida viloyat va tumanlar hokimlari, xo'jalik birlashmalari rahbarlari, mutasaddilar bilan yig'ilish o'tkazdi.

Shu kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Navoiy viloyatiga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari dastlab viloyatdagi to'rt sektor rahbarlari, tashkilot va idoralar mas'ullari bilan muloqot qildi.

Shavkat Mirziyoyev «Navoiy-azot» aksiyadorlik jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

Jamiyat hududida uchta yirik investitsion loyiha — Polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol ishlab chiqarish, Ammiak va karbamid ishlab chiqarish hamda Azot kislotasi ishlab chiqarish korxonalari qurilishi qizg'in davom etmoqda. Prezidentimiz yangi obyektlardagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi, quruvchilar, xorijlik investorlar bilan muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari bunday yirik ishlab chiqarish korxonalarining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni haqida to'xtalib, qurilish ishlarini tez va sifatli yakunlash bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi. Davlatimiz rahbari Prezident Vladimir Putinga samimiy qutlov hamda

Buxoro viloyatida Qandim gazni qayta ishlash majmuasi qurilishi yakunlangani va ishga tushirilgani munosabati bilan bo'lib o'tgan tantanali tadbirda Rossiyadan nufuzli delegatsiya ishtirok etgani uchun minnatdorlik bildirdi.

Muloqotda oliy darajadagi uchrashuvlar chog'ida erishilgan kelishuvlar doirasida O'zbekiston — Rossiya ko'pqirrali aloqalarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari yuzasidan fikr almashildi. Shuningdek, mintaqaviy va xalqaro siyosatning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar hamda o'zboshimchalik bilan qurilgan turar-joylarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bo'yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini o'tkazish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini doimiy foydalanishga berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**23-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning O'zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi doirasida Toshkent shah-

rida o'tkazilayotgan Turkmaniston milliy ko'rgazmasining barcha ishtirokchilari va mehmonlariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**23–24-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. Tashrifning asosiy tadbirlari «Ko'ksaroy» qarorgohida bo'lib o'tdi.

Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng davlat rahbarlari tor doirada uchrashuv o'tkazdilar.

Uchrashuvda terrorizm, ekstremizm, narkotiklarning noqonuniy aylanishi, transmilliy uyushgan jinoyatchilik hamda xalqaro xavfsizlikka tahdid soladigan boshqa xavf-xatarlarga qarshi kurashishdagi hamkorlikni yanada mustahkamlash zarurligi qayd etildi. O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Ikki davlat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, neft-kimyo, transport-kommunikatsiya, qishloq xo'jaligi, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi aloqalarni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov Qo'shma bayonotni imzoladilar. Ikki tomonlama

hamkorlikni siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, ta'lim va sport sohalarida yanada mustahkamlashga va o'zaro aloqalarni izchil rivojlantirishga doir 17 hujjat, jumladan, mintaqalararo hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitim, 2018–2020-yillarga mo'ljallangan transport sohasida hamkorlik to'g'risida hamda 2019–2021-yillarga mo'ljallangan ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida hukumatlararo dasturlar, O'zbekiston va Turkmanistonda savdo uyularini tashkil etish, ikki mamlakat Savdo-sanoat palatalari o'rtasida ishbilarmonlar kengashini tashkil etish to'g'risida bitimlar, O'zbekiston va Turkmaniston Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2019-yilga mo'ljallangan hamkorlik dasturi imzolandi. Shuningdek, ikki tomonlama hamkorlikni qishloq xo'jaligi, yoshlar, xotin-qizlar masalalari, fan-texnika, kasaba uyushmalari va boshqa sohalarda yanada mustahkamlashga doir hujjatlar, o'simliklar karantini sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim, ikki mamlakat kasaba uyushmalari va xotin-qizlar qo'mitalari o'rtasida anglashuv memorandumlari, yoshlar tashkilotlari o'rtasida anglashuv memorandumini qabul qilindi, oliy o'quv yurtlari o'rtasida va axborot-kommunikatsiya sohalariga oid 15 hujjat imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda Prezidentlar muzokaralar ochiq, samimiy, ishchanlik ruhida o'tgani, imzolangan hujjatlar O'zbekiston va Turkmaniston xalqlari manfaatlarini yo'lidagi

serqirra va do'stona munosabatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilishini qayd etdilar.

Kunning ikkinchi yarmida Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Mustaqillik maydoniga tashrif buyurdi. Oliy martabali mehmon hurriyatimiz, porloq istiqbolimiz va ezgu niyatlارimiz ramzi bo'lgan Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gul qo'ydi. Shundan so'ng Gurbanguli Berdimuhamedov O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov haykali poyiga gul qo'yib, uning xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov Toshkent shahrida ochilgan Maxtumquli ko'chasiga tashrif buyurishdi. Prezidentlar mashhur turkman shoiri va mutafakkiri yodgorligi poyiga gul qo'ydilar.

Turkmaniston Prezidentining O'zbekistonga tashrifi sharafiga Maxtumquli ko'chasida «Ashxobod saylgohi» barpo etildi. Ikki davlat rahbarlari ushbu saylgohning ochilish marosimida qatnashdilar, bog'da yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar. Ikki davlat rahbarlari Turkmaniston va O'zbekiston o'rtasidagi do'stlik va yaxshi qo'shnichilik aloqalarining ramzi sifatida «Ashxobod saylgohi»ga ko'chat o'tqazdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov 24-aprel kuni Xorazm viloyatida bo'ldi. Urganch xalqaro aeroport-

tida oliy martabali mehmonni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kutib oldi.

Xorazm viloyatining Urganch tumani G'oybu qishlog'idagi Turkman mahallasida minglab turkmanlar o'zbeklar bilan tinch-totuv, bir oila vakillaridek inoq yashab kelmoqda.

Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov xalqlarimiz do'stligi ramzi sifatida barpo etilgan «O'zbek-turkman» do'stlik uyini borib ko'rdilar, yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar. Davlat rahbarlari bu yerda o'rnatilgan turkman xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firog'iy byusti poyiga gul qo'ydilar.

Shundan so'ng Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov «Ulli hovli» yodgorlik majmuasiga tashrif buyurdilar. Prezidentlar qal'ada saqlanayotgan, o'zbek-turkman xalqlarining qadimiy tarixidan hikoya qiluvchi no-dir eksponatlar bilan tanishdilar. «Ulli hovli» majmuasi otxonasidagi mashhur axaltekin zotli otlarni borib ko'rdilar.

Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Ichan qal'a hamda Nurillaboy majmuasini ziyorat qildi.

Prezidentlar Sherg'ozixon madrasasini ham ko'zdan kechirdilar. Bu maskanda ta'lim olgan allomalar sharafiga tashkil qilingan muzey faoliyati bilan tanishdilar. Ushbu madrasada o'z davrida Maxtumquli Firog'iy ham uch yil tahsil olgan.

Kunning ikkinchi yarmida Urganch shahridagi Xorazm viloyati

musiqali drama teatrida O'zbekiston—Turkmaniston san'at ustalarining konserti namoyish etildi. Unda Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov ishtirok etdilar.

\* \* \*

**26-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida «Obod qishloq» dasturini amalga oshirishni samarali tashkil etish bilan bog'liq masalalar va bu boradagi eng muhim vazifalarga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

«Obod qishloq» dasturini bajarish uchun zarur bo'ladigan moliyaviy resurslarning 80 foizi davlat budjeti, davlat korxonalari mablag'lari va ular jalb qiladigan xorijiy kreditlar hisobidan ta'minlanadi. Qolgan 20 foizi tadbirkorlarning o'zlariga tegishli bozor infratuzilmasi obyektlariga sarflanadigan mablag'lari va bank kreditlaridir. Yig'ilishda bu borada barcha resurs va mablag'larni ishga solish zarurligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari joriy yilda «Obod qishloq» dasturi asosida amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng muhim vazifalarga alohida to'xtaldi.

\* \* \*

**27-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida urug'chilik tizimini tubdan ta-

komillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasining Quruqlikdagi qo'shinlar qo'mondoni, general-leytenant Qamar Jovid Bajva boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda ikki tomonlama o'zaro manfaatli aloqalar, jumladan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya va boshqa sohalarga oid hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Harbiy va harbiy-texnik sohalardagi hamkorlik istiqbollari, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikka tahdid solayotgan zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi kurashish, shuningdek, Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**29-aprel — 1-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. Tashrifning asosiy tadbirlari «Ko'ksaroy» qarorgohida bo'lib o'tdi.

Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Rejep Tayyip Erdo'g'an tor doirada va rasmiy delegatsiyalar ishtirokida uchrashuv o'tkazdi. Do'stona va ochiqlik ruhida o'tgan muloqotda O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, ilm-fan, madaniyat, turizm va boshqa sohalardagi hamkorlikni

rivojlantirish masalalari muhokama qilindi, mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan fikr almashildi.

Muzokaralar yakunida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo‘g‘an keng ko‘lamli strategik hamkorligimizni yangi, yanada yuksak bosqichga ko‘tarishga qaratilgan, o‘z mazmun-mohiyati bilan katta ahamiyatga ega bo‘lgan Qo‘shma bayonotni imzoladilar. O‘zbekiston – Turkiya hamkorligining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash maqsadida mamlakatlarimiz hukumatlari, vazirlik va idoralari o‘rtasida iqtisodiyot, savdo-sotiq, transport-logistika, sanoat, ilm-fan, ta‘lim, turizm va boshqa sohalarga doir 24 ta hujjatga imzo chekildi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Rejep Tayyip Erdo‘g‘an muzokaralar o‘zaro anglashuv va hurmat ruhida o‘tganini, imzolangan hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkiya Respublikasi o‘rtasidagi uzoq istiqbolli hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilishini ta’kidladilar.

Rejep Tayyip Erdo‘g‘an O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga tashrif buyurdi. Oliy martabali mehmonga mamlakatimiz parlamentida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so‘zlab berildi. Turkiya Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari oldida nutq so‘zladi.

Kunning ikkinchi yarmida Turkiya Prezidenti Mustaqillik maydoniga tashrif buyurdi. Oliy martabali mehmon hurriyatimiz, porloq istiqbolimiz va ezgu niyatlarimiz ramzi bo‘lgan Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gul qo‘ydi. Shundan so‘ng Rejep Tayyip Erdo‘g‘an O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov haykali poyiga gul qo‘yib, uning xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Davlat rahbarlari Shavkat Mirziyoyev va Rejep Tayyip Erdo‘g‘an «O‘zekspomarkaz»da tashkil etilgan «O‘zbekiston – Turkiya» ishbi-larmonlari biznes-forumida ishtirok etdilar.

Tashrifning uchinchi kuni oliy martabali mehmon Buxoro viloyatiga keldi. Buxoro xalqaro aeroportida Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo‘g‘anni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kutib oldi. Mehmon Buxoro viloyatiga tashrifini Bahouddin Naqshband majmuasini ziyorat qilishdan boshladi.

Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo‘g‘an Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Buxoro shahridagi Ark qo‘rg‘onini tomosha qildi. Ikki davlat rahbarlari mazkur muzey faoliyati bilan tanishdilar, bu yerdagi noyob osori atiqalarni ko‘zdan kechirdilar, muzey qo‘riqxonada hududidagi jome masjidida bo‘ldilar.

Prezidentlar Ark qo‘rg‘oni yaqinidagi Poyi Kalon majmuasida ham bo‘ldilar.

Oliy martabali mehmon Buxoro shahrining tarixiy qismida zardo‘zlik, zargarlik, gilamdo‘zlik, kash-

tachilik, kulolchilik mahsulotlari ko'rgazmasi bilan tanishdi. Buxoroning tarixiy va me'moriy obidalari, milliy hunarmandlik mahsulotlari turkiyalik mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

\* \* \*

**2–3-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, islohotlar jarayoni, yirik loyihalar bilan tanishish va xalq bilan muloqot qilish maqsadida Namangan viloyatiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Chust tumanidagi «Baraka meva sanoat servis» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi. Shu yerning o'zida 2018–2019-yillarda baliqchilik, parrandachilik, chorvachilik, pillachilikni yo'lga qo'yish, tomorqachilikni yanada rivojlantirish, issiqxonada limon yetishtirish, tutzorlar tashkil etish, og'ir hududlardagi maydonlarning suv ta'minotini yaxshilash, paxtadan bo'shagan yerlarga turli ekinlar ekish va eksportbop mahsulotlar yetishtirish, viloyat eksport salohiyatini yanada oshirish bo'yicha loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi.

Namangan shahrida yengil sanoatni rivojlantirish, xususan, «Yuksalish», «Orzu», «Paxtaliko'l», «Xonobod» sanoat zonalarida amalga oshiriladigan loyihalar, Katta Farg'ona kanalining Uchqo'rg'on tumani hududidan o'tgan qismida kichik GESlar kaskadi qurilishi, «Vodiy neftgaz energiya» korxonasida ishlab chiqarilgan gaz tarmog'i xavfsizligini ta'minlaydigan innovatsion qurilma taqdimotlari

o'tkazildi. Shundan so'ng Shavkat Mirziyoyev Norin tumanidagi «Besh sada» fermer xo'jaligi shiyponida Namangan viloyati fermerlari bilan muloqot qildi.

Shavkat Mirziyoyev Uchqo'rg'on tumanidagi «Uztex Uchkurgan» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi. Prezidentimizga korxonada faoliyatini kengaytirish va klaster tizimida amalga oshiriladigan loyihalar taqdim etildi.

Shu kuni Norin tumani hokimligida viloyat faollari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Videoselektor shaklida o'tgan majlisda viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, ta'lim, tibbiyot sohalarini takomillashtirish, aholi bandligini ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari tashrifning ikkinchi kuni To'raqo'rg'on tumanidagi Is'hoqxon To'ra Ibrat memorial majmuasida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Prezidentimiz Is'hoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktab-internatda bo'ldi, o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashdi.

Shavkat Mirziyoyev majmua-ga uyg'un tarzda Kosonsoy soyining ikki qirg'og'ida bunyod etilgan xiyobonni ko'zdan kechirdi. Bu yerda qurilayotgan uy-joylar, savdo shoxobchalari, ko'ngilochar maskanlar, sayr qilinadigan yo'laklar va boshqa infratuzilma obyektlari qurilishini yanada takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berdi.

Is'hoqxon Ibrat muzeyi bilan tanishuv asnosida Prezidentimiz viloyat ziyolilari, nuroniylar bilan muloqot qildi.

Prezidentimiz ko'rsatmalari asosida To'raqo'rg'on tumani «Yangi-obod» mahalla fuqarolar yig'ini hududida qiymati 2 milliard 250 million so'mlik 10-maktabgacha ta'lim muassasasi barpo etildi.

Davlatimiz rahbariga bog'chada o'tkazilayotgan mashg'ulotlar jarayoni, yaratilgan sharoitlar haqida ma'lumot berildi.

Shavkat Mirziyoyev Namangan shahar davlat xizmatlari markazida bo'ldi. Davlatimiz rahbari markazdagi shart-sharoitlar bilan bevosita tanishdi.

Muassasaning uchinchi qavatida «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi viloyat bo'limi hamda Namangan innovatsiya markazi faoliyat ko'rsatmoqda.

Davlatimiz rahbari xotin-qizlar o'rtasida ishsizlikning oldini olish, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatni, uy-joy sharoitini yaxshilash, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish yuzasidan mutasaddilarga zarur topshiriqlar berdi.

Prezidentimizga madaniyat va istirohat bog'ida qurilishi rejalashtirilayotgan «O'n bir Ahmad» masjidi, Guliston dahasida bunyod etilishi mo'ljallangan «Namangan City», Pop tumanidagi zamonaviy savdo majmuasi va «Pop eco park» kabi loyihalar haqida ham ma'lumot berildi.

\* \* \*

**3-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasining Shimol bilan iqtisodiy hamkorlik bo'yicha qo'mitasi raisi Son Yon Gil boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Suhbatda mamlakatlarimiz o'rtasida savdo-iqtisodiy, moliyaviy-investitsiyaviy, innovatsiya va gumanitar, jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash istiqbollari muhokama qilindi. Shuningdek, xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**3-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatni demokratik yanilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**4-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Qozog'iston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari, ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiya hamraisi Asqar Maminni qabul qildi.

Uchrashuvda Prezidentimiz savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport-kommunikatsiya, gumanitar va boshqa sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish, istiqbolli loyiha va dasturlarni birgalikda amalga oshirish muhim ekani ta'kidladi.

\* \* \*

**4-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Muloqotda davlat rahbarlari oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida ko‘pqirrali O‘zbekiston – Qozog‘iston hamkorligini yanada kengaytirish va mustahkamlashning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.

Suhbat chog‘ida Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida yaxshi qo‘sh-nichilik munosabatlarini rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi.

Davlat rahbarlari xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlikning qator dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashdilar.

\* \* \*

**5-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Inson huquqlari umum-jahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**7-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta‘minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**7-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga tashrif buyurgan Birlashgan Arab Amirliklari Bosh vaziri o‘rinbosari, Prezident ishlari bo‘yicha vazir shayx Mansur bin Zoid Ol Nahayonni qabul qildi.

Uchrashuvda ikki tomonlama amaliy hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, jumladan, Amirliklar investorlarini mamlakatimizdagi istiqbolli loyihalarni amalga oshirishga keng jalbetish, ularning faoliyatini tizimli ravishda rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**8-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Prokuratura organlari kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-may.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ikkinchi jahon urushida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdi — harbiy orkestr sadolari ostida Motamsaro ona haykali poyiga gulchambar qo‘ydi.



Shu kuni Toshkent shahridagi Botanika bog'ida Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 73 yilligiga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirga Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan urush va mehnat faxriylari taklif etildi.

Bayram tantanasida hozir bo'lganlar Prezident Shavkat Mirziyoyevni qarsaklar bilan kutib oldi. Davlatimiz rahbari bu yerga yig'ilganlarni, butun xalqimizni 9-may — Xotira va qadrlash kuni, Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 73 yilligi munosabati bilan tabriklaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 9-may — Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**10-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligini o'z vaqtida qishloq xo'jaligi texnikasi bilan ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**11-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi «Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti «MISiS»ning Olmaliq shahri-

dagi filiali faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Allergik kasalliklarni profilaktika qilish, ularga tashxis qo'yish va davolashni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**12-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan mamlakatimizga kelgan AQSh Qurolli Kuchlari Markaziy qo'mondonligi qo'mondoni, general Jozef Votelni qabul qildi.

Uchrashuvda xavfsizlik, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik sohalaridagi o'zaro aloqalarga alohida e'tibor qaratildi. Mintaqada barqarorlikka tahdid solayotgan zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi kurashish, shuningdek, Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Muloqot yakunida O'zbekiston Prezidentining AQShga kutilayotgan rasmiy tashrifi O'zbekiston — Amerika hamkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishi, o'zaro manfaatli hamkorlikni aniq amaliy mazmun bilan boyitishiga qat'iy ishonch bildirildi.

\* \* \*

**12-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat aktivlarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**12-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**14-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat madaniyat muassasalari va davlat arxivlari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish va ularni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**15-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlariga rasmiy safari davomida London shahri aeroportida qisqa texnik to'xtash vaqtida Buyuk Britaniya tashqi ishlar vaziri o'rinbosari

Alan Dunkan bilan uchrashdi. Suhbat davomida davlatimiz rahbari ikki tomonlama hamkorlik borasida mavjud ulkan salohiyatni samarali ro'yobga chiqarish muhim ekanini alohida ta'kidladi. Turli darajalardagi muloqotlarni jadallashtirish, amaliy hamkorlikni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, innovatsion, moliyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Londondagi texnik to'xtashdan so'ng Prezidentimiz AQShga jo'nab ketdi.

\* \* \*

**15–17-may.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan ilk rasmiy tashrif bilan Vashingtonga keldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 16-may kuni Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidentining rasmiy qarorgohi — Oq uyda bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp kutib oldi. Davlat rahbarlarining tor doiradagi uchrashuvida Donald Tramp mamlakatlarimiz o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi aloqalarni yanada mustahkamlash, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik sohasidagi umumiy maqsadlarni amalga oshirishda birgalikda ishlashdan mamnun ekanini qayd etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Donald Tramp mu-

zokaralarni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida davom ettirdilar. Unda asosiy e'tibor savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratildi. Vazirlik va kompaniyalar, ishbilarmon doiralari o'rtasidagi aloqalarni faollashtirish, yuqori texnologiyalar, savdo-sanoat, yoqilg'i-energetika, transport va boshqa sohalarda qo'shma investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari qishloq xo'jaligi, energetika, kimyo, moliya, turizm, to'qimachilik sanoati, sog'liqni saqlash va raqamli texnologiyalar sohalarida yanada yaqin hamkorlik qilish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni o'rganishga kelishib oldilar.

Tomonlar madaniyat, ilm-fan, ta'lim, sport va turizm sohalari bo'yicha o'zaro hamkorlikni kengaytirish masalalari yuzasidan fikr almashdilar. Prezidentlar mamlakatlirimiz o'rtasida ta'lim sohasidagi hamkorlikka o'z hissasini qo'shadigan Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika kengashlarining O'zbekistonda akkreditatsiya qilinishini mamnuniyat bilan qayd etdilar. Donald Tramp AQSh O'zbekistonda ingliz tili bo'yicha ta'lim dasturlarini amalga oshirishda ko'mak berishga tayyor ekanini bildirdi.

Davlat rahbarlarining «O'zbekiston va Amerika Qo'shma Shtatlari: strategik sheriklik yangi davrining boshlanishi» deb nomlangan Qo'shma bayonoti qabul qilindi. Shuningdek, ikki davlatning turli vazirlik va idoralari o'rtasida savdo-iqtisodiy, elektrotexnika, farmasevtika, investitsiya, texnologiya, innovatsiya

va ta'lim sohalarida uzoq muddatli hamda keng ko'lamli hamkorlikni yanada rivojlantirishga oid hujjatlar imzolandi.

O'zbekiston rahbarining ushbu tashrifi o'zaro munosabatlarda yangi ufq va marralar sari dadil qadam ekani alohida ta'kidlandi.

Kunning ikkinchi yarmida davlatimiz rahbari Artur Sakler galereyasiga tashrif buyurdi. Galereya kolleksiyasi Osiyo xalqlari san'ati asarlaridan iborat 10 mingga yaqin eksponatni o'z ichiga olgan. Prezidentimiz galereyada saqlanayotgan o'zbek to'qimachilik buyumlari namunalarni ko'zdan kechirdi. Markaziy Osiyo bo'limidagi miniatura va qo'lyozmalar bilan tanishdi.

Vashingtonda AQSh ishbilarmon doiralari vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

O'zbekiston delegatsiyasining AQShga tashrifi munosabati bilan «Villard interkontinental» mehmonxonasida tashkil etilgan qabul marosimida Shavkat Mirziyoyev Donald Tramp bilan muloqot o'zaro ishonch va hurmat, bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillari asosida o'tganini alohida ta'kidladi.

Tadbirda o'zbek maqom san'atini rivojlantirish, xalqimizning boy madaniy merosini dunyoda targ'ib etishga qo'shgan hissasi uchun Izro Malakovga «O'zbekiston Respublikasi xalq artisti» faxriy unvoni berilgani e'lon qilindi.

Tashrifning uchinchi kuni ham uchrashuv, muzokara va tadbirlarga boy bo'ldi. Davlatimiz rahbari AQSh Davlat kotibi Maykl Pompeo bilan uchrashdi. Unda O'zbekiston

Prezidentning rasmiy tashrifi ikki mamlakat manfaatlariga xizmat qilishi qayd etildi. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash, tashqi siyosat mahkamalari aloqalarini faollashtirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Pentagonda AQSh mudofaa vaziri Jeyms Mettis bilan muzokara olib bordi.

Uchrashuvda mudofaa va xavfsizlik, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik sohalaridagi munosabatlarni rivojlantirish yuzasidan fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari Kapitoliyda AQSh Kongressi Vakillar palatasi a'zosi Trent Kelli boshchiligidagi kongressmenlar bilan uchrashdi. Muloqotda ikki mamlakat o'rtasida o'zaro ishonch va manfaatdorlikka asoslangan munosabatlar qaror topgani qayd etildi. Prezidentimiz parlament va hukumat darajasidagi ikki tomonlama tashriflar faollashgani siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilayotganini ta'kidladi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSh Senati Raisi o'rinbosari, moliya bo'yicha qo'mitasi raisi Orrin Xetch boshchiligidagi senatorlar bilan muloqot qildi. Suhbatda parlamentlararo aloqalar, shuningdek, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi. Mamlakatimiz rahbarining AQShga rasmiy tashrifi dasturidan o'rin olgan mazkur uchrashuv strategik sherik-

lik munosabatlarini yanada rivojlantirish, ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shu kuni Jahon banki prezidenti Jim Yong Kim bilan uchrashdi. Davlatimiz rahbari uzoq yillardan buyon Jahon bankida ishlayotgan yurtdoshlarimiz bilan ham ko'rishdi. Prezidentimiz O'zbekistonda amalga oshirayotgan yirik iqtisodiy loyihalarda Jahon banki bilan hamkorlik yuksak samara berayotganini qayd etdi. O'zbekiston Jahon banki bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish tarafdori ekanini ta'kidladi. Uchrashuvda istiqbolli loyihalar ko'rib chiqilib, amaliy aloqalarni yanada kengaytirish bo'yicha aniq takliflar bildirildi. Bog'dorchilikni rivojlantirish, shoshilinch tibbiy yordam tizimini takomillashtirish, sanoat korxonalarining energiya tejamkorligini oshirish, isitish tarmoqlarini modernizatsiya qilish, moliyaviy konsultativ xizmat ko'rsatish kabi sohalarga oid bitimlar imzolandi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning AQShga rasmiy tashrifi yakuniga yetdi.

\* \* \*

**18-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Vashingtondan qaytib, Toshkent xalqaro aeroportida «O'zbekiston havo yo'llari» Milliy aviakompaniyasi qabul qilib olgan yangi «Boeing-787 Dreamliner» samolyotini ko'zdan kechirdi. Davlatimiz rahbari «O'zbekiston havo yo'llari»

Milliy aviakompaniyasi rahbariyatiga xorijiy mamlakatlarga qatnovlar soni va sifatini oshirish, buning uchun eng zamonaviy samolyotlar hamda texnologiyalardan foydalanish zarurligi yuzasidan tegishli tavsiyalar berdi.

\* \* \*

**18-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasida gripp va boshqa o‘tkir respirator infeksiyalarning tarqalishiga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**19–20-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, yirik loyihalar bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Andijon viloyatida bo‘ldi. Safar davomida avvalgi tashrif asnosida berilgan topshiriqlar ijrosiga alohida e‘tibor qaratildi.

Prezidentimiz o‘tgan yili Andijon tumani Xakan qishlog‘ida «Milana textile» mas‘uliyati cheklangan jamiyatining trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasini tashkil etish loyihasi bilan tanishgan edi. Tadbirkor «Aloqabank»ning viloyat

filialidan olingan 2 milliard so‘m kredit hamda 7 milliard so‘m o‘z mablag‘i hisobidan uch qavatli bino qurib, uni zamonaviy jihozladi. Eng muhimi, fabrika ishga tushirishi bilan tumandagi 200 nafardan ortiq xotin-qiz doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi.

Shu yerda «Har bir oila — tadbirkor» dasturining Andijon viloyati misolidagi konsepsiyasi namoyish qilindi.

Prezidentimiz ko‘rsatmalari asosida Andijon tumanidagi «Zamin Bio Health» mas‘uliyati cheklangan jamiyati insulin dori vositasi ishlab chiqarish korxonasini barpo etdi. Tumanning Xartum qishlog‘ida joylashgan bu zavod Markaziy Osiyoda yagona bo‘lib, yiliga 10 million flakon dori vositasi ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Shu yerda «Zamin Bio Health» mas‘uliyati cheklangan jamiyatida kukunli antibiotik ishlab chiqarish, viloyatda farmatsevtika sanoatini rivojlantirishga oid boshqa loyihalar taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

19-may kuni Andijon tumanidagi «Andijan Silk.Co» O‘zbekiston — Xitoy qo‘shma korxonasi pillani qayta ishlab, undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha yirik majmuani ishga tushirdi. Prezidentimiz korxonada faoliyatiga start beradigan ramziy tugmani bosdi. Bu yerda amalga oshirilgan ishlarni ko‘zdan kechirdi.

Shu yerda trikotaj, charm-poyabzal, qurilish materiallari, ip-kalava va gazlama ishlab chiqarishga mo‘ljallangan loyihalar taqdimoti o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari Andijon viloyatiga o'tgan yilgi tashrifi davomida Asaka tumanida zamonaviy issiqxona tashkil etish loyihasi bilan tanishgan edi. «Asaka» bankining tuman filialidan loyiha uchun 1,5 million dollar mablag' ajratilib, «Sabo hamkor» MChJ tomonidan 5,8 gektar maydonda gidroponika usulida banan va pomidor yetishtiriladigan 2 ta issiqxona barpo etildi. Prezidentimiz banan yetishtirilayotgan issiqxonani ko'zdan kechirdi. Uni kengaytirish, mahsulotni saqlash, hosildorlikni oshirish yuzasidan tavsiyalar berdi.

Shu yerda 2018–2019-yillarda Andijon viloyatida agrar sohani, jumladan, chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan dastur va loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

O'tgan yili viloyatga tashrifi davomida Prezidentimiz O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti-ning Andijon filialini tashkil etish bo'yicha topshiriq bergan edi. Davlatimiz rahbari filialda innovatsiyalarni rivojlantirish bo'yicha fond tuzish, viloyatda za'faron va na'matak kabi dorivor o'simliklar yetishtirish bo'yicha iqtisodiy zona tashkil etish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Prezidentimiz Ulug'nor tumani-dagi «Shahriobod» mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib, bu yerda «Obod qishloq» dasturi doirasida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi, aholi bilan muloqot qildi.

Shu kuni Ulug'nor tumani hokimligida viloyat faollari va mutasaddi rahbarlar ishtirokida yig'ilish bo'lib

o'tdi. Videoselektor shaklidagi yig'ilishda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, qo'shimcha manbalar topish hisobidan ish o'rinlari tashkil etish, ta'lim, tibbiyot sohalarini takomillashtirish, aholi bandligini ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Andijon viloyatiga tashrifining ikkinchi kuni Sharqiy harbiy okrugga qarashli qismda bo'lib, yangi Mudofaa doktrinasi ijrosi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari harbiy xizmatchilarning sport mashg'ulotlarida qatnashish jarayoni bilan qiziqdi. Shavkat Mirziyoyev askarlar, ziyolilar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz viloyatga tashrifi davomida Andijon shahrida aholining turmush tarzini yaxshilash, uy-joyga ehtiyojini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar bilan qiziqdi.

Davlatimiz rahbari viloyatga o'tgan yilgi tashrifi doirasida Andijon shahrining «O'zbekim» mahalla fuqarolar yig'inida barpo etilayotgan 7 qavatli 5 ta uy bilan tanishib, bu yerni zamonaviy massivga aylantirish bo'yicha tavsiyalar bergan edi. Ana shu topshiriqdan so'ng bu yerda 5 ta uy qurilib, 2017-yil dekabr oyida o'z egalariga topshirildi. Ayni paytda davlatimiz rahbarining topshirig'i asosida hududda yana 9 ta, shahar bo'yicha jami 14 ta ko'pqavatli uy qurilmoqda. Prezidentimiz Andijonda aholi-

ni uy-joy bilan ta'minlash dolzarb ekanini inobatga olib, shu yilning o'zida qo'shimcha yana beshta 7 qavatli uy qurish bo'yicha topshiriq berdi.

Shu yerda Andijon shahrining 2035-yilgacha mo'ljallangan bosh rejasi va shaharda amalga oshiriladigan boshqa ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish-rekonstruksiya qilish loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

\* \* \*

**21-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi. Muloqot avvalida davlatimiz rahbari Vladimir Putinni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti lavozimiga kirishgani bilan yana bir bor samimiy tabrikladi va faoliyatida katta muvaffaqiyatlar tiladi.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasida do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari jadal rivojlanayotgani va izchil mustahkamlanib borayotgani, shuningdek, o'zaro manfaatli va ko'pqirrali hamkorlikda erishilgan yuqori natijalar chuqur mamnuniyat bilan alohida qayd etildi.

Davlat rahbarlari xalqaro siyosatning dolzarb masalalarini ham muhokama qildilar. Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalari yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**21-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazar-

boyev bilan telefon orqali muloqot qildi. Davlat rahbarlari oliy darajadagi muntazam uchrashuvlar va muloqotlar davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ko'pqirrali sheriklikning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.

Davlat rahbarlari Ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiyaning samarali faoliyatini, shuningdek, Qozog'istonda O'zbekiston yili doirasida birgalikda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan tadbirlarni yuksak baholadilar. Shuningdek, xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**22-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo'lib turgan Rossiya Federatsiyasi mudofaa vaziri Sergey Shoyni qabul qildi.

Suhbatda O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi harbiy va harbiy-texnik hamkorlikni, jumladan, idoralararo sheriklikni yanada kengaytirish, ikki tomonlama tadbirlar o'tkazish, harbiy kadrlar tayyorlash va boshqa masalalar muhokama qilindi. Shuningdek, xalqaro siyosat va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**22-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kapital qurilishda loyiha va qurilish ishlarini amalga oshirish tartibini optimallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**25-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Nizolarning oldini olishga qaratilgan institut sifatida notariat tizimini yanada takomillash-tirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlari harbiylarini mukofotlash to‘g‘risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**29-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga mexanizatsiya va servis xizmatlarini ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida eksport-import, mahalliy budjetga qo‘shimcha tushumlarni ta‘minlash, qishloq xo‘jaligida g‘o‘za parvarishi, g‘alla o‘rimi, takroriy ekinlar va suvdan oqilona foydalanish kabi muhim tadbirlarni samarali o‘tkazish bilan bog‘liq bugungi kunda g‘oyat dolzarb bo‘lib turgan masalalarga bag‘ishlangan videosektor yig‘i-lishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilish kun tartibidagi masalalar Vazirlar Mahkamasi komplekslari bo‘yicha atroflicha tanqidiy tahlil qilinib, bu borada amalga oshiriladigan eng muhim vazifalar belgilab olindi.

Yig‘ilishdamamlakatimizda 1-iyundan 1-iyulgacha «G‘o‘zada kafo-latli hosil yaratish zarbdor oyli-gi» e‘lon qilinishi bo‘yicha kelishib olindi.

Kun tartibidagi yana bir muhim masala — joriy yilda yetishtiriladigan g‘alla hosilini nest-nobud qilmasdan, qisqa muddatda yig‘ishtirib olish borasida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar ham muhokama qilindi.

Majlisda hududlarda budjetga qo‘shimcha daromadlarni jalb qilish borasida olib borilayotgan ishlarning holati tanqidiy tahlil asosida ko‘rib chiqildi. Bu borada joriy yilning shu davri uchun belgilangan rejalar ayrim hududlarda bajarilmasdan qo- layotgani tanqid qilindi.

\* \* \*

**30-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Istiqbolli boshqaruv kadrlarini tanlov asosida tanlab olishning zamonaviy tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo‘lib turgan «Rosatom» atom energiyasi bo‘yicha davlat korporatsiyasi bosh direktori Aleksey Lixachyovni qabul qildi.

Suhbat davomida fan va yuqori texnologiyalar sohasida uzoq mud-



datli sheriklik aloqalarini rivojlantirish va mustahkamlash, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, ikki mamlakat ilmiy-tadqiqot institutlari va innovatsiya markazlari o'rtasida, jumladan, o'tgan yili imzolangan Atom energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish sohasida hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitim doirasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Qo'shma dastur va loyihalar doirasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**31-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Imtiyozlar va preferensiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**31-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga O'zbekiston xalqining qo'shgan munosib hissasiga bag'ishlangan kitob-albomni nashr etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoyishni imzoladi.

\* \* \*

**1-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Baholash xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ish-

lari va yirik loyihalar bilan tanishdi. Prezidentimiz dastlab «Toshkent sharqiy aerodromi» bazasida barpo etilayotgan ishbilarmonlik aeroporti qurilish maydoniga tashrif buyurdi.

Prezidentimiz poytaxtimizning Maxtumquli va Ohangaron ko'chalari kesishmasida barpo etilayotgan uch qavatli zamonaviy ko'prik loyihasini ko'zdan kechirdi.

Shu yerda davlatimiz rahbariga Toshkent yerusti halqa metro liniyasini qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berildi. Chilonzor tumanining Afrosiyob va Beshyog'och ko'chalari kesishuvidagi hududda barpo etilayotgan ko'p tarmoqli «Humo Arena» muz saroyi qurilishi ko'zdan kechirildi.

Davlatimiz rahbari «Tashkent City» qurilish jarayoni bilan tanishdi. Quruvchi va muhandislar, xorijlik mutaxassislar bilan suhbatlashdi. So'ng mehmonxona va «Kongress-holl»ning ichki dizayni, kirish qismlari hamda nufuzli xalqaro anjumanlarni o'tkazishga mo'ljallangan zallar interyerlari loyihasi bilan tanishib, ularni milliy uslubda bezash va jihozlash yuzasidan zarur tavsiyalar berdi.

Davlatimiz rahbari Chilonzor tumanidagi Bunyodkor va Cho'ponota ko'chalari kesishmasida zamonaviy yo'l o'tkazgich qurilishida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi, quruvchilar bilan muloqot qildi. Shu yerda yangi ko'priklar qurish, mavjudlarini ta'mirlash va ekspluatatsiya qilish borasidagi ishlar taqdimoti o'tkazildi. Toshkent shahrida yana o'n

beshta joyda yo'l o'tkazgichlar qurilishi ma'lum qilindi.

Chilonzor tumanidagi Xirmon-tepa mahallasi tajriba tariqasida «Obod mahalla» dasturi asosida obod qilinmoqda. Prezidentimiz shu yerda mahalla faollari, ko'pqavatli uylarda yashayotgan aholi va yoshlar bilan suhbatlashdi, ularning o'y-tashvishlari bilan qiziqdi.

Shavkat Mirziyoyev Chilonzor tumanidagi Tirsakobod mahallasida ham bo'lib, bu yerda amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari mahalla faollari bilan muloqotda bo'ldi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Toshkent shahri va tumanlari hokimlari, mutasaddi rahbarlar ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Tanqidiy-tahliliy ruhda o'tgan yig'ilishda poytaxtimizda sanoat va kichik biznesni rivojlantirish, aholi bandligini oshirish, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash bo'yicha dolzarb chora-tadbirlar belgilab berildi.

\* \* \*

**4-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2018–2019-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**5-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev qarori bilan Afg'oniston Islom Respublikasiga O'zbekistondan 3 ming tonna bug'doy insonparvarlik yordami sifatida yuborildi. Qo'shni Afg'onistonning qurg'oqchilikdan aziyat chekayotgan aholisi uchun ajratilgan insonparvarlik yordami O'zbekiston temir yo'llarining «Sho'rchi» bekati orqali Hayratonga yetkazildi.

\* \* \*

**5-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda budjetga qo'shimcha tushumlar va mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish orqali narxlar barqarorligini ta'minlash hamda inflatsiyaning oldini olishda mahalliy ijro hokimiyati organlari, soliq va moliya idoralari rahbarlarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Majlisda budjetga qo'shimcha tushumlarni ko'paytirish va inflatsiya darajasi barqarorligini ta'minlash bo'yicha ishlarning mavjud holati atroflicha tanqidiy tahlil qilinib, bu boradagi eng muhim vazifalar belgilab olindi.

Videosektor yig'ilishida qishloq xo'jaligi mahsulotlari zaxirasini yaratish, fermerlar bilan takroriy ekinlardan olinadigan mahsulotlar bo'yicha shartnomalar tuzish, avans mablag'larini o'z vaqtida ajratish bilan bog'liq choralarni ko'rish zarurligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**7-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Har bir oila — tabrikor» dasturini amalga oshirish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8–10-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoyning Sindao shahrida Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining o'n sakkizinchi majlisida ishtirok etdi.

Sammit doirasida 9-iyun kuni Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari bir qator ikki tomonlama va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazib, kun tartibidagi eng dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalarni muhokama qildilar. Sammitning asosiy tadbirlari 10-iyun kuni bo'lib o'tdi. Dastlab ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari tor doirada uchrashdilar.

Majlisda ShHTga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni har tomonlama kengaytirish, iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklikni rivojlantirish, innovatsiya va yuqori texnologiyalar hamda transport-kommunikatsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi hamkorlikni mustahkamlash kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida ShHTni rivojlantirishning istiqboldagi yo'nalishlari, muhim mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan fikr almashildi. Iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish, transport-kommunikatsiya sohasidagi hamkorlikni faollashtirish masalalari hamda ko'p tomonla-

ma kooperatsiyaning boshqa jihatlari muhokama qilindi. Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Sammit yakunlari bo'yicha Sindao deklaratsiyasi qabul qilindi. Davlat rahbarlari, shuningdek, Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha 2019–2021-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi, Uzoq muddatli yaxshi qo'shnihilik, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma qoidalarini amalga oshirish bo'yicha 2018–2022-yillarga mo'ljallangan harakatlar rejasi, jami 17 hujjatni imzoladilar. O'zbekiston Prezidentining taklifiga muvofiq, ShHT davlat rahbarlarining Yoshlarga qo'shma murojaati qabul qilangani sammitning yana bir ahamiyatli voqeasi bo'ldi.

Ommaviy axborot vositalari va killari bilan uchrashuvda ShHTning Sindao sammiti samarali o'tgani, imzolangan hujjatlar tashkilotni yanada rivojlantirish, mintaqa mamlakatlari va xalqlarini jiplashtirishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ShHT sammiti doirasida qator davlatlar rahbarlari bilan uchrashdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashuvda ushbu davlat bilan strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlash O'zbekiston tashqi siyosatining o'zgaras yo'nalishi ekani ta'kidlandi. Muloqotda tomonlarni qiziqtirgan xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev XXR Raisi Si Szinpin bilan uchrashdi. Xitoy rahbari XXR O'zbekiston bilan keng ko'lamli strategik sheriklik va ko'p formatli hamkorlikka katta ahamiyat qarataishini ta'kidladi. Uchrashuvda iqtisodiyot, savdo, investitsiya, transport kommunikatsiyalari, yuqori texnologiyalar va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ShHTning Sindao sammiti doirasida Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi bilan uchrashdi. Unda O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy, innovatsiya va gumanitar sohalardagi hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Axborot texnologiyalari, tibbiyot, farmasevtika, turizm kabi yo'nalishlarda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti Mamnun Husayn bilan uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuvda savdo, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Sindao shahrida Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'ani bilan muzokara o'tkazdi. Davlatimiz rahbari O'zbekiston xalqi qardosh va

qo'shni Afg'onistonda tinchlik barqaror bo'lishidan manfaatdor ekani ni ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining birinchi o'rinbosari Amina Muhammad xonimni qabul qildi. Davlatimiz rahbari keyingi ikki yilda O'zbekiston — BMT hamkorligi faol tus olgani, amaliy natijalar bilan boyiganini ta'kidladi. Muloqotda BMT delegatsiyalari rahbarlari bilan bo'lib o'tgan avvalgi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlar ijrosining borishi bo'yicha atroflicha fikr almashildi. Hamkorlikning istiqboldagi muhim yo'nalishlari muhokama qilindi.

\* \* \*

**11-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ramazon hayitini nishonlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholining ijtimoiy zaif qatlami bandligini ta'minlashni rag'batlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**12-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fuqarolik holati dalo-latnomalarini qayd etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12–13-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish va xalq

bilan muloqot qilish maqsadida Farg'ona viloyatiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Quva tumanida yangi barpo etilgan «Farg'ona anorchilik» agrofirma bilan tanishdi. Shu yerning o'zida viloyatda agrologistika markazi, anorzorlar tashkil etish, parrandachilik, chorvachilik, tuyachilik, baliqchilik, limon, urug'lik kartoshka yetishtirish, asalarichilikni rivojlantirish loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Marg'ilon shahridagi «Narimteks» mas'uliyati cheklangan jamiyatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar yuqori sifati va o'ziga xos dizayni bilan xaridorlarga manzur bo'lmoqda. Korxonada zamonaviy texnologiyalar asosida jihozlangan. Prezidentimiz ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishib, tikuvchilar bilan muloqotda bo'ldi.

Davlatimiz rahbari shu yerda Farg'ona viloyatida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari bilan tanishdi.

Farg'ona viloyatidagi sanoat korxonalariga investitsiya jalb etish, bo'sh turgan binolardan samarali foydalanish, yoshlarning innovatsion ishlanmalarini qo'llab-quvvatlashga oid loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yili Farg'ona viloyatiga tashrifi chog'ida Marg'ilon shahrida ijodkorlar bog'ini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi. Shu asosda bu yerda qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Shavkat Mirziyoyev ijodkorlar bog'ini borib ko'rdi. O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov haykali poyiga gul qo'ydi.

Bog'da, shuningdek, Erkin Vohidov nomidagi ijtimoiy fanlar yo'nalishidagi iste'dodli yoshlar maktab-internati, Erkin Vohidov memorial muzeyi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi binosi, Nuroniylar maskani, turli tadbirlar o'tkazishga mo'ljallangan 1500 o'rinli amfiteatr va boshqa infratuzilma obyektlari qurilgan. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, Marg'ilonida yangi ma'naviyat o'chog'i barpo etildi.

Davlatimiz rahbari memorial muzeydagi eksponatlarni ko'zdan kechirdi.

Shavkat Mirziyoyev Nuroniylar maskanida mehnat faxriylari bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz Oltiariq tumanidagi «Ismoil Nozim obod» fermer xo'jaligida bo'lib, mazkur xo'jalik misolida Farg'ona viloyatida paxta va g'alladan olinadigan hosilni ko'paytirish va takroriy ekin ekish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar bilan tanishdi. Viloyat dehqon va fermerlari bilan hosilni nest-nobud qilmay yig'ib olish, g'alladan bo'shagan maydonlarga takroriy ekinlar ekish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan muloqot qildi.

Shavkat Mirziyoyev Oltiariq tumani Qapchig'oy mahallasidagi «Smart kids» nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasini borib ko'rdi. Shu yerda mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tizimida tatbiq etilayotgan Integratsiyalashgan monitoring elektron tizimi taqdimoti o'tkazildi.

Shu kuni Oltiariq tumanida viloyat faollari ishtirokida yig'ilish

bo'lib o'tdi. Videoselektor shaklida o'tgan yig'ilishda viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, ta'lim, tibbiyot sohaslarini takomillashtirish, aholi bandligini ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Farg'ona viloyatiga tashrifining ikkinchi kuni Sharqiy harbiy okrugga qarashli harbiy qismda bo'ldi. Bu yerda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida berilgan vazifalar ijrosining borishi bilan tanishdi, harbiy-havo desantchilari brigadasi mashg'ulotlarini kuzatdi, askar va ofitserlar bilan muloqot qildi. Davlatimiz rahbari harbiy qismda tashkil etilgan Madaniy hordiq markazi, Ma'naviyat markazi, autsorsing tizimi joriy etilgan oshxonani ko'zdan kechirdi.

Shavkat Mirziyoyev Farg'ona shahridagi Mustaqillik mavzesida barpo etilayotgan ko'pqavatli yangi uy-joylar bilan tanishdi.

Shu yerda viloyatdagi mavjud infratuzilma inshootlarini saqlash va ulardan samarali foydalanish, Farg'ona, Marg'ilon, Quvasoy va Qo'qon shaharlaridagi ko'pqavatli uylarning isitish tizimini qayta tiklash, viloyatda ichimlik suvi tarmoqlarini rivojlantirish loyihalari taqdimotlari o'tkazildi.

\* \* \*

**14-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga Ramazon hayiti tabrigi e'lon qilindi.

\* \* \*

**14-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan Moskva shahriga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari «Lujniki» olimpiya kompleksida o'tkazilgan futbol bo'yicha jahon chempionatining rasmiy ochilish marosimida ishtirok etdi.

Prezidentimiz oliy martabali mehmonlar qatorida Rossiya va Saudiya Arabistoni milliy terma jamoalari o'rtasidagi futbol o'yinini tomosha qildi. Xorijiy davlatlar rahbarlari bilan samimiy muloqotlar o'tkazdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev shu kunning o'zida Toshkentga qaytib keldi.

\* \* \*

**19-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahrida jamoat tartibini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Dori vositalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish samaradorligini oshirish va aholini ular bilan ta'minlashni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**20-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya texnik vositalarini ishlab chiqarishni rivojlan-

tirish hamda tibbiy-ijtimoiy muassasalarning moddiy-texnika bazasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**21-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tarmoqlar va hududlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish holati, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va o'zlashtirish natijalari tahliliga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Majlisda har bir loyiha ijrosini jadallashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Yana bir muhim masala — qishloq joylarda namunaviy arzon uy-joylar qurish ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Prezidentimiz bu boradagi ishlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo'yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi. Shaharlarda arzon, ko'pqavatli turar joylar qurish ishlarini ham jadallashtirish lozimligi qayd etildi. Investitsiyalarni, eng avvalo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va samarali o'zlashtirishni ta'minlash — muhim vazifa ekani alohida ta'kidlandi.

Loyihalarni amalga oshirishning barcha jarayonlarini to'liq qamrab oladigan, ularni tayyorlashdan to ishga tushirishgacha bo'lgan davrni monitoring qilish imkonini beradi-

gan yagona elektron axborot tizimini joriy etish yuzasidan vazifalar belgilandi. Investitsiya takliflarini shakllantirish, investorlar topish, loyihalar ishlab chiqish, ekspertiza qilish, moliyalashtirish va amalga oshirish bo'yicha qator topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**22-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish va shifoxona ichki infeksiyalarini profilaktika qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an bilan telefon orqali muloqot qildi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Rejep Tayyip Erdo'g'anni Turkiya Respublikasi Prezidenti lavozimiga qayta saylangani munosabati bilan samimiy tabriklab, faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

Suhbatda xalqlarimizning ko'p asrlik do'stligi va mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlari bugungi kunda yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgani va mustahkamlanib borayotgani chuqur mamnuniyat bilan alohida qayd etildi. Davlat rahbarlari, shuningdek, mamlakatlarimiz o'rtasidagi keng qamrovli va ko'pqirrali hamkorlik, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

\* \* \*

**26-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida avtomobil sanoatida joriy yil uchun belgilangan ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlarini ta'minlash, tarmoqning rivojlanish istiqbollarini belgilash masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Yig'ilishda tarmoqda mahalliyashtirish, aholiga avtomobillarni tez va arzon yetkazib berish, tashqi bozorga eksport qilish zamon talablariga umuman javob bermasligi tanqid qilindi.

Hukumat va «O'zavtosanoat» kompaniyasi rahbariyatiga mamlakatimiz avtomobilsozlik tarmog'i jahon bozorida munosib o'rin egallashi uchun uni izchil rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, iste'molchilar ehtiyojini inobatga olgan holda, yanada zamonaviy mashinalar ishlab chiqarishni kengaytirish, tarmoqqa innovatsion texnologiyalarni jalb etish va investitsiyalar oqimini ko'paytirish, kadrlar salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlari tashkil etish yuzasidan zarur ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**26-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi tashkil etilishini davlat tomonidan qo'llab-

quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yoshlar — kelajagimiz» Davlat dasturi to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan O'zbekiston matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlarini amalga oshirish, aholi yashash joylarini obod maskanga aylantirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda zikr etilgan dasturlarni amalga oshirish bo'yicha erishilgan dastlabki natijalar atroflicha tahlil qilindi. Dasturda belgilangan ishlarni tashkil etish va



amalga oshirishda sustkashlikka yo'l qo'yilayotgani qayd etildi.

Yig'ilishda dasturga muvofiq qishloq va mahallalarni obod qilish ishlarini tizimli tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**28-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yetti yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ipak yo'li» turizm xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda birinchi marta nishonlanayotgan «Yoshlar kuni» munosabati bilan O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi yo'lladi.

\* \* \*

**29-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliya-

tini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**29-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Muloqotda savdo, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, energetika sohalari, samarali transport va tranzit kommunikatsiyalarini rivojlantirish, shuningdek, madaniy-gumanitar yo'nalish bo'yicha hamkorlik istiqbollari ko'rib chiqildi. Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**29-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, yangi loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Toshkent shahar Olmazor tumanida bo'ldi. Davlatimiz rahbari dastlab tuman-dagi «Ibrohim ota» mahalla fuqarolar yig'inida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Prezidentimiz mazkur mahalla faollari va aholi bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent o'yinchoqlar fabrikasida bo'lib, bu yerda bajarilgan ishlar bilan tanishdi. Shu yerda Olmazor tumanida tashkil etiladigan Davlat xizmatlari markazi binosi qurilishi loyihasining taqdimoti bo'lib o'tdi.

O‘zbekiston karlar jamiyatining Olmazor tumanida joylashgan Karsoqovlar madaniyat markazi hududida ham keng qamrovli ishlar bajarildi. Prezidentimiz madaniyat markazi binosida yaratilgan sharoitlarni ko‘zdan kechirdi. Jamiyat a‘zolari bilan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga qaratilayotgan e‘tibor, ularning muammolarini hal qilish bo‘yicha ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rliklar haqida suhbatlashdi. Shaxmat bo‘yicha ikki karra jahon chempioni Sirojiddin Zayniddinov, taekvondo bo‘yicha Osiyo chempionati sovrindori Davron Xidirov, yosh rejissor Oleg Oshipkovga Toshkent shahridan uy, madaniyat markazi uchun ikkita avtobus sovg‘a qildi.

Prezidentimiz «Ko‘kcha tekstil» mas‘uliyati cheklangan jamiyatida bo‘lib, tikuvchi ayollar bilan suhbatlashdi. Shuningdek, Olmazor tumanidagi 2-ichki ishlar bo‘limi faoliyati bilan tanishdi.

Shu yerda davlatimiz rahbari Toshkent shahar IIBB qo‘riqlash, yo‘l harakati xavfsizligi, post-patrol xizmatlariga ajratilgan avto-mototransport vositalari, ko‘chma post kabinasi namunalari ko‘zdan kechirdi.

Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahar Yoshlar markazida Olmazor tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid loyihalar bilan tanishdi. Olmazor tumanining yangi markazi — «Olmazor city»ni barpo etish loyihasi taqdimoti o‘tkazildi.

Toshkent shahar Yoshlar markazida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida Toshkent shahar faolla-

ri, yoshlar va jamoatchilik vakillari ishtirokida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish, ishlayotgan zavodlarni tiklash, yangi korxonalar tashkil etish, tadbirkorlik va xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish hisobidan odamlarga daromad manbayi yaratish, oilalarni mustahkamlash zarurligi ta‘kidlandi.

\* \* \*

**2-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi bilan Turkiya Respublikasi o‘rtasida ekstraditsiya to‘g‘risidagi Bitimni (Toshkent, 2018-yil 30-aprel) ratifikatsiya qilish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jamoat joylarida chilim va elektron sigaretalar chekishni cheklash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahrida Puchon universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**3-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respubli-

kasi o'rtasida o'zbek-tojik Davlat chegarasining alohida uchastkalari to'g'risidagi Shartnomani (Dushanbe, 2018-yil 9-mart) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**3-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mediatsiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlar bilan manzilli va tizimli ishlash, ular uchun munosib sharoitlar yaratish, ular bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda yoshlar bilan ishlashda hamon kamchiliklar mavjudligi, jumladan, katta maqsadlar bilan tuzilgan Yoshlar ittifoqi yoshlar bilan manzilli va tizimli ishlashga, ularning muammolarini hal etishga yetarlicha e'tibor bermayotgani, yoshlar o'rtasida jinoyatlarning oldi olinmayotgani tanqid qilindi. Shu munosabat bilan Yoshlar ittifoqi, Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi rahbarlariga yoshlar bilan ishlashni takomillashtirish, qarovsizlik va nazoratsizlikning oldini olish, ular o'rtasida jinoyatlarni keskin qisqartirishga qaratilgan aniq takliflar ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

\* \* \*

**4-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasiga xorijiy fuqarolarning ki-

rishi tartibini optimallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**6-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyevning taklifiga binoan Qozog'istonga tashrif buyurdi va Ostona shahrining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirda ishtirok etdi.

Prezidentlar dastlab yaqinda ochilgan «Ostona» xalqaro moliya markazini borib ko'rdilar. Ushbu markazda ishbilarmonlar uchun yaratilgan sharoitlar, istiqbolda belgilangan rejalar bilan tanishdilar.

Mustaqillik saroyida Ostona shahrining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu tarixiy sana bilan Qozog'iston xalqi va Prezident Nursulton Nazarboyevni samimiy tabrikladi.

Ostona shahrining 20 yillik tadbirlari yana bir samimiy muloqot maydoni bo'ldi. Yubileyga Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon ham tashrif buyurdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'istonga tashrifi chog'ida Tojikiston

Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan uchrashuv o'tkazdi. Muzokarada ikki mamlakat hamkorligining istiqbollari, shuningdek, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro masalalar muhokama qilindi.

\* \* \*

**9-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**9-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'simliklar karantini to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**10-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Buxoro-agro» erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda mutlaqo yangi soha bo'lgan atom energetikasini barpo etish bo'yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Unda atom elektr stansiyasini qurish, undan foydalanish bilan bog'liq tashkiliy-texnik va amaliy ishlar muhokama qilindi. Preziden-

timiz shunday obyektlarni qurish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi asosida ish tutish, atom elektr stansiyasini joylashtirish bo'yicha texnik shartlarni ishlab chiqish va geologik-qidiruv ishlarini sifatli bajarish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Yig'ilishda har bir bosqichdagi ishlarni puxta ishlab chiqish va amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini qat'iy nazoratga olish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**12-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi aholisiga nefrologiya va gemodializ yordami ko'rsatish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**13-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jahon banki va xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha vitse-prezidenti Siril Myuller boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda O‘zbekiston va Jahon banki o‘rtasidagi ko‘pqirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi, fuqarolik aviatsiyasi va qayta tiklanadigan energetika sohalarida, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida salmoqli qo‘shma loyihalarni amalga oshirish borasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlash muhimligi ta’kidlandi.

\* \* \*

**14-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**17-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev umumiy o‘rta ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi.

Shavkat Mirziyoyev umumiy o‘rta ta’lim sifatini yangi bosqichga

ko‘tarish masalasiga alohida e’tibor qaratdi. Bu borada davlat ta’lim standartlari va o‘quv rejalarini o‘quvchining har bir sinfda qaysi ko‘nikmalarga ega bo‘lishni inobatga olgan holda, qayta ko‘rib chiqish, eng zamonaviy uslublar asosida darsliklar yaratish va chop etish, maktablarda texnologiya, muhandislik fanlari, matematika, san’at, chet tillari yo‘nalishlarini kuchaytirish, ularga taalluqli laboratoriyalarni qayta jihozlash, buning uchun maktablarni internet tarmog‘i bilan qamrashni kengaytirish zarurligi ta’kidlandi. Xalq ta’limi vazirligi rahbariyatiga tegishli qaror loyihasini tayyorlash, bunda tizimni boshqarish bo‘yicha barcha darajadagi tashkiliy tuzilmalarni qayta ko‘rib chiqish vazifasi yuklandi.

\* \* \*

**18-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2018-yilda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar va shaharlarda arzon ko‘p kvartirali uylar qurish dasturlarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasida Atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**20-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respubli-

kasining Jinoyat, Jinoyat-protsesual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**20-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fan va oliy ta'lim sohasi xodimlarining mehnat haqi miqdorini yanada oshirish, ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalari joriy etilishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahrida «MMFI» milliy tadqiqot yadro universiteti» federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasining filialini tashkil etish va uning faoliyatini tashkillashtirish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**20-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari dastlab Mirzo Ulug'bek shaharchasida joylashgan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi institutida bo'lib, bu yerda tashkil etiladigan Moskva muhandislik-fizika instituti filiali loyihasi bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev Yadro fizikasi instituti zalida Fanlar akademiyasi va ilmiy-tadqiqot institutlari vakillari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuv o'tkazdi.

Prezidentimiz Toshkent shahri bo'ylab barpo etilayotgan yer usti halqa metro liniyasi qurilishi bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev Sergeli tumani «Choshtepa» mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi yangi ujoylar qurilishini borib ko'rdi. Prezidentimiz qurilish jarayoni bilan tanishar ekan, uylarning mustahkam va pishiqligiga, ularni qurishda zamonaviy, yangi va samarador texnologiyalardan foydalanilayotganiga e'tibor qaratdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent metropolitenining Sergeli tarmog'i qurilishning borishini ko'zdan kechirdi. Shu yerda Toshkent shahrida qurilishi rejalashtirilgan 9 qavatli uylar loyihasi taqdimoti ham o'tkazildi.

\* \* \*

**23-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ba'zi davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**24-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov va Turkiya

Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an bilan telefon orqali muloqot qildi. Xorijiy davlatlar rahbarlari O'zbekiston Prezidentini tug'ilgan kuni bilan samimiy tabriklab, ko'pmillatli xalqimizga tinchlik, taraqqiyot va farovonlik tiladilar.

Muloqotlar chog'ida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yuritayotgan vazmin va konstruktiv tashqi siyosatga, davlatimiz rahbarining xorijiy sheriklar bilan o'zaro manfaatli va samarali hamkorlikni yanada mustahkamlashga, shuningdek, mintaqamiz va global miqyosda tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan xalqaro va mintaqaviy tashabbuslariga yuksak baho berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xorijiy davlatlar rahbarlariga samimiy tabrik uchun minnatdorlik bildirib, o'z navbatida, do'st mamlakatlar — Rossiya, Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkiya xalqlariga tinchlik, barqarorlik va farovonlik tiladi.

\* \* \*

**24-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**24-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Iqtisodiyotning jadal rivojlanishini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev tavallud topgan kuni munosabati bilan chin dildan qutlab, o'zlarining samimiy tabriklari va ezgu tilaklarini yo'llagan davlat va hukumat boshliqlariga, xorijiy siyosat va jamoat arboblari, ishbi-larmon doiralar vakillariga, xalqaro tashkilotlar rahbarlariga, yurtimizdagi mahallalar va mehnat jamoalariga, barcha vatandoshlarimizga chuqur minnatdorlik izhor etdi.

\* \* \*

**26-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish, bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish, sarmoyalarni o'zlashtirishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda investitsiya mablag'larini o'zlashtirish va loyihalarni amalga oshirish holati sustligi tanqid qilindi. Shavkat Mirziyoyev Bosh vazir va uning o'rinbosarlariga xalqaro va xorijiy moliya tashkilotlari mablag'larning asosiy qismini avgust-oktabr oylarida o'zlashtirish va yil yakuni-

da prognoz ko'rsatkichlarini to'liq bajarish bo'yicha yangi tarmoq jadvallarini tasdiqlash vazifasini topshirdi hamda xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini sifatli amalga oshirish uchun «Loyihalarni amalga oshirish guruhlari» faoliyatini samarali tashkil qilish muhim ekanini ta'kidladi.

Yig'ilishda Vazirlar Mahkamasi komplekslari rahbarlari, mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchilari va hokimlarning hisobotlari tinglandi. Xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish va loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

\* \* \*

**27-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish borasidagi ishlarning bugungi holati, bu borada ichki ishlar organlari va boshqa davlat idoralarining mas'uliyatini yanada oshirish, tizimda mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda huquqni muhofaza qiluvchi idoralarda ko'rsatkichlarni oldingi davr bilan taqqoslash amaliyoti avj olgani qayd etildi. Shu sababli endi jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha ishlar yangicha tizimda tashkil etilishi, unga asosan mas'ul

rahbarlar joylarga borib, jinoyatlarining sabablarini o'rganishi, muhkama qilishi, takrorlanishining oldini olishga qaratilgan aniq choralar ko'rishlari lozimligi aytib o'tildi.

Tegishli mutasaddilarga ichki ishlar organlarining boshqaruv, tizimli tahlil, prognoz va nazorat yo'nalishlaridagi faoliyatini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

\* \* \*

**30-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**31-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida g'oz'a rivojini jadallashtirish, g'alla o'rimidan bo'shagan maydonlarga takroriy ekinlar ekish, aholi tomorqasidan samarali foydalanish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda 2018-yil 4-iyul kuni bo'lib o'tgan videoselektorda 5-iyuldan 5-sentabrga qadar e'lon qilingan «Hosilga-hosil qo'shish dolzarb ikki oyligi»da amalga oshirilgan ishlar atroflicha tahlil qilindi.

Majlisda g'alladan bo'shagan maydonlarga takroriy ekinlar ekishni yakunlash, shartnoma tuzish va bo'nak mablag'larini berish ishlarini jadallashtirish masalasi ko'rib chiqildi.

— Tomorqadan samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha yaratilgan tizim natija berishi shart. Biz



buni aholi turmush sharoitining o'zgarishi va ichki bozordagi narxnavo bilan baholaymiz. Barcha rahbarlar yaxshi tushunib olishi kerak. Tomorqa — bu aholining bandligi, daromad manbayidir, — dedi davlatimiz rahbari.

\* \* \*

**1-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**1-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Suma Chakrabartini qabul qildi.

Uchrashuvda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish, avvalo, asosiy tarmoqlardagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash va ularning strategiyasini ishlab chiqish, korxonalarni xususiylashtirishga tayyorlash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish, hududlarni kompleks rivojlantirish, shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyotiga xususiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan yangi dastur va loyihalar bilan boyitish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**2-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-

kasida sog'liqni saqlashni boshqarishning innovatsion modelini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatimiz temiryo'l transporti sohasi xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**3-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyati jamoasiga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**3-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev uzum plantatsiyalarini ko'paytirish, vinochilikni rivojlantirish, alkogolli mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilishni kengaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Majlisda mutasaddilarga uzumchilikni va uzumni qayta ishlashni keskin rivojlantirish, alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va yangi quvvatlar tashkil etish bo'yicha 5 yillik dastur ishlab chiqish topshirildi.

\* \* \*

**5-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Hindiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Sushma Svaraj xonimni qabul qildi.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz o'rtasidagi keng ko'lamlı, avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiya, innovatsiya va madaniy-gumanitar sohalar-

dagi hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash muhimligi alohida qayd etildi. Farmasevtika va tibbiyot, axborot texnologiyalari, qishloq xo'jaligi, turizm va boshqa tarmoqlarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish istiqbollari muhokama qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Hindistonga bo'lajak davlat tashrifi O'zbekiston va Hindiston o'rtasidagi ko'p asrlik azaliy do'stlik rishtalariga asoslangan munosabatlarda yangi davrni boshlash, ikki tomonlama hamkorlikni yanada yuqori bosqichga ko'tarishga xizmat qilishi alohida ta'kidlandi. Mintaqaviy va xalqaro siyosatning tomonlarni qiziqtiruvchi dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**7-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**8-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'gan bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy siyosatning tomonlarni qiziqtirgan dolzarb masalalarini muhokama qildilar, shuningdek, bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini ko'rib chiqdilar.

Muloqot so'ngida davlat rahbarlari O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi do'stlik va strategik sherik-

lik munosabatlarini, keng ko'lamli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlashga intilishlari qat'iy ekanini yana bir bor tasdiqladilar.

\* \* \*

**8-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**9-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida atrof-muhitni muhofaza qilish, maishiy chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash tizimini rivojlantirish bo'yicha yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishda chiqindilarni qayta ishlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Mutasaddi rahbarlarning axboroti tinglanib, tegishli topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**10-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatimiz qurilish sohasi xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan mamlakatimiz qurilish sohasi xodimlariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**10-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida poytaxtimiz tumanlarida bo'ldi. Davlatimiz rahbari dastlab Chilonzor tumanida Bunyodkor va Cho'ponota ko'chalari kesishmasida qurilgan zamonaviy ko'prikn borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari bu yerda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi, quruvchilar bilan muloqot qildi.

Shu yerda poytaxtimiz va hududlarda mavjud ko'priklar holati, yangi rejalar haqida ma'lumot berildi. AQShning «Crafco» kompaniyasi ishlab chiqqan maxsus texnika va ixcham mexanizatsiyalar yordamida yo'l o'tkazgich va ko'priklarni ta'mirlash loyihasi namoyish etildi.

Prezidentimiz G'afur G'ulom nomidagi madaniyat va istirohat bog'ini ham ko'rdi. Bog'ni zamonaviy qilib qayta qurish, bu yerda ochiq va yopiq akvapark barpo etish bo'yicha topshiriq berdi.

Shavkat Mirziyoyev Shayxontohur tumani Kamolon mahallasida qurilayotgan ko'pqavatli uylarni borib ko'rdi, yozuvchi-shoirlar bilan muloqot qildi. Xiyobon ro'parasida qurilayotgan mazkur uy-joylar yozuvchi va shoirlarga beriladi. Qulaylik uchun birinchi qavatda maktabgacha ta'lim muassasasi va oilaviy poliklinika tashkil etiladi.

Shavkat Mirziyoyev qurib bitkazilgan xonadonlardan biriga kirdi. Oilalarning tinch-farovon yashashi,

bolalarning barkamol bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Davlatimiz rahbari bog'chada bolalarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Shu yerda Toshkent shahri tumanlarida zamonaviy turar-joy majmualari, ishbilarmonlik markazlari, dam olish maskanlari va sayilgohlar qurish, jamoat transporti xizmatini yaxshilash bo'yicha loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Prezidentimiz Bo'zsuv kanali bo'yida qurilgan sayilgohni ko'zdan kechirdi. Davlatimiz rahbari Shayxontohur tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid loyihalar bilan tanishdi.

«O'zmilliybank», «O'zsanoatqurilishbank» va «Ipotekabank» tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Davlatimiz rahbari sanoatni innovatsion rivojlantirish, xorijiy tajriba asosida mahsuldorlik va raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Tadbirkorlarning innovatsion loyihalarini qo'llab-quvvatladi.

Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'iga tashrif buyurib, uni zamonaviy maskanga aylantirishga qaratilgan loyihalar bilan tanishdi. Chorsu bozori va Gulbozor mahallasida bunyodkorlik ishlarini amalga oshirish, bu tarixiy joyda turizmni rivojlantirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Prezidentimiz shu yerda mahalla faollari va ziyolilar bilan suhbatlashdi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Shayxontohur tumani iqtisodiyotini rivojlantirish, uy-joy-kommunal sohadagi muammolarni hal qilish bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Shavkat Mirziyoyev uchrashuvga yig'ilgan tadbirkorlar bilan muloqot qildi. Ular oldida turgan muammolarni hal qilish, reja va takliflarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**14-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda investitsiyalarni jalb etish bo'yicha ijro natijasi qoniqarsiz ekani qayd etildi. Qaysi rahbar qanday investitsiya loyihalariga mas'ul ekani, ularning qiymati va bajarilish muddatlari birma-bir muhokama qilindi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoyalarni jalb etish holati bo'yicha mutasaddilarning hisobotlari tinglandi. Bosh vazir o'rinbosarlari, hokimlar va tarmoqlar rahbarlariga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalarni vaqtida va sifatli bajarish, yangilarini ishlab chiqishni ta'minlash topshirildi.

\* \* \*

**15-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahrida investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha eksperimentni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qurbon hayitini nishonlash to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**17-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.

Emomali Rahmon Prezidentimiz hamrohligida Mustaqillik maydoniga tashrif buyurib, hurriyatimiz, porloq istiqbolimiz va ezgu niyatlrimiz ramzi bo'lgan Mustaqillik va ezgulik monumentiga gul qo'ydi.

Tashrifning asosiy tadbirlari «Ko'ksaroy» qarorgohida bo'lib o'tdi. Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon tor doirada uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi ko'pqirrali hamkorlikning bugungi holati, uni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashdilar.

Prezidentlar muloqotni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokarasida davom ettirdilar. Unda mamlakat-

larimiz o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika, investitsiya, qishloq va suv xo'jaligi, turizm va boshqa sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Shundan so'ng ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon Qo'shma bayonotni, O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish, antimonopol siyosat va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, geologiya sohasida qo'shma ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, ilmiy-texnikaviy, qishloq xo'jaligi sohalarida hamkorlik, oziq-ovqat xavfsizligi, ta'lim, yoshlar, madaniyat va san'at masalalariga doir qator hujjatlar imzolandi. Mamlakatlarimiz hududlari o'rtasidagi hamkorlikka oid, jumladan, Surxondaryo viloyati bilan Xatlon viloyati, Samarqand viloyati bilan So'g'd viloyati o'rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda Prezidentlar muzokaralar ochiqlik, o'zaro ishonch, anglashuv va do'stona ruhda o'tgani, imzolangan hujjatlar O'zbekiston va Tojikiston xalqlari manfaatlariga xizmat qilishini ta'kidladilar.

Tojikiston Prezidenti xalqlarimiz o'rtasidagi samimiy do'stlik va

yaqin qardoshlik munosabatlarining yaqqol namunasi sifatida Prezidentimizga buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlari tarjimai to'plangan «Chashmayi xirad» kitobini sovg'a qildi.

Tojikiston rahbarining tashrifi arafasida «O'zekspomarkaz»da Tojikiston sanoat mahsulotlari ko'rgazmasi ochildi. Kunning ikkinchi yarmida Prezidentlar mazkur ko'rgazmaga tashrif buyurdilar.

Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon poytaxtimizdagi «Artel» zavodida bo'ldilar. Bu yerda ishlab chiqarilayotgan keng turdagi maishiy texnika va elektr jihozlari, ilg'or standartlar asosida mahsulot yig'uv jarayoni oliy martabali mehmonda katta taassurot qoldirdi.

«O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida O'zbekiston va Tojikiston san'at ustalari ishtirokida «Do'stlik oqshomi» deb atalgan konsert bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari o'zbek va tojik xalqlari azaldan yonma-yon yashagani, qiyinchiliklarni birgalikda yengib o'tganini ta'kidladi.

— O'zbek va tojik xalqlari bir daraxtning ikki shoxi, bir daryoning ikki irmog'iga o'xshaydi. Bizning muqaddas dinimiz, yerimiz va suvimiz bir. Quvonch-u tashvishlarimiz, taqdirimiz mushtarak. Ajdodlarimizning ezgu an'alarini davom ettirib, xalqlarimiz do'stligini mustahkamlashimiz va asrab-avaylashimiz kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tantanali marosimda Prezidentimiz Emomali Rahmonga ikki tomonlama hamkorlikni, xalqlarimiz

o'rtasida do'stlik munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan ulkan hissasi uchun davlatimizning «El-yurt hurmati» ordenini topshirdi.

\* \* \*

**17-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahrida boshqaruvning alohida tartibini joriy etish bo'yicha huquqiy eksperiment to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Budjet ma'lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**24-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan Turkmanboshi shahrida bo'lib, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari kengashining majlisida ishtirok etdi.

Prezidentimiz dastlab «Avaza» sayyohlik zonasida Turkmaniston Prezidenti bilan uchrashdi. O'zbekiston va Turkmaniston rahbarlarining bu galgi uchrashuvi o'zaro manfaatli, samarali va faol muloqotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari muhokama qilindi. Avval erishilgan kelişuvlar ijrosiga e'tibor qaratildi. Tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining majlisi Prezidentlarning tor doiradagi uchrashuvi bilan boshlandi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon ishtirok etdi. Majlisda jamg'arma faoliyatini takomillashtirish, mintaqadagi ekologik vaziyatni yaxshilash, suv resurslarini muvofiqlashtirgan holda boshqarish, bu borada Markaziy Osiyo mamlakatlarining hamkorligini mustahkamlash masalalari muhokama etildi.

Kengaytirilgan tarkibdagi majlisda O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston delegatsiyalari a'zolari, xalqaro tashkilotlar va moliya muassasalari vakillari, ekologiya va suv masalalari bo'yicha mutaxassislar qatnashdi. Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Majlis yakuni bo'yicha davlat rahbarlarining Qo'shma bayonoti qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonning Turkmanboshi shahrida bo'lib o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari kengashining majlisidagi nutqi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san‘at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev avtomobil transporti sohasida boshqaruvni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, transport xizmatlari ko‘lamini kengaytirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Yig‘ilishda soha rivojiga to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar mavjudligi qayd etildi. Tizimdagi islohotlarni izchil davom ettirish, zamonaviy transport xizmati ko‘rsatish bo‘yicha vazifalar belgilandi. Qishloqdan shahargacha, tumanlararo hamda shaharlararo yo‘nalishlarda transport xizmati ko‘rsatish tizimi va infratuzilmasini yaxshilash yuzasidan topshiriq berildi.

Yig‘ilishda yuk tashish tizimiga xususiy sektorni jalb etish, xizmat taklif etuvchi va mijozlarga ekspeditorlik xizmati ko‘rsatishni joriy etish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

\* \* \*

**28-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yetti yilligi munosabati bilan fan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, adabiyot, madaniyat, san‘at, ma‘naviyat va ma‘rifat hamda ijtimoiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yetti yilligi munosabati bilan huquqni muhofaza qilish organlari, mudofaa va favqulodda vaziyatlar vazirliklari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**29-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma yetti yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tojikiston Respublikasining bir guruh davlat va jamoat arboblari, madaniyat, fan va sog‘liqni saqlash sohalarini vakillarini mukofotlash to‘g‘risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**29-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Toshkent viloyatida bo‘ldi. Davlatimiz rahbari dastlab Bekobod shahrida joylashgan mamlakatimizdagi yirik ishlab chiqarish obyektlaridan biri bo‘lgan «O‘zbekiston metallurgiya kombi-

nati» aksiyadorlik jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

Tashrif chogʻida 60 million dollarlik loyiha asosida zamonaviy, energiya tejavchi va ilgʻor texnologiyalar bilan jihozlangan ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexi ishga tushirildi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda korxonaning ishchi va xodimlari, soha mutasaddilari, xorijlik investorlar ishtirok etdi.

Prezidentimiz quyish-prokatlash majmuasi qurilishiga tamal toshi qoʻydi. Soʻng kombinatning ishchi va xodimlari bilan suhbatlashdi. Ularning samarali mehnat qilishi va dam olishi uchun yaratilgan sharoitlar bilan qiziqdi.

Prezidentimiz Toshkent viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida 2018–2019-yillarda amalga oshiriladigan loyihalar bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari loyihalarni yanada takomillashtirish boʻyicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Maʼlumki, Prezidentimiz 2017-yil 18-avgust kuni Bekobod shahriga tashrifi chogʻida Bekobod va Olmaliq shaharlarini rivojlantirish boʻyicha ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish taklifini ilgari surgan edi.

Oʻtgan bir yilda Bekobodda salmoqli ishlar amalga oshirildi. 90 mingdan ziyod odam istiqomat qiladigan shaharda aholining uy-joyga ehtiyojini qoplash maqsadida oʻnta yetti qavatli uy qurib bitkazilmoqda. Uylar atrofiga bolalar maydonchalari, zamonaviy savdo va sport shoxobchalari qurish ham rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbarining taklifi bilan «Mustaqillikning 27 yilligi» deb nom berilgan yangi massivda jamoatchilik vakillari bilan uchrashuv boʻldi.

Davlatimiz rahbariga Toshkent viloyatida barpo etilayotgan koʻpqavatli uylar haqida ham maʼlumot berildi. Ohangaron shahridagi Amir Temur koʻchasini rekonstruksiya qilish, Yuqori Chirchiq, Oʻrta Chirchiq va Ohangaron tumanlari hududidan oʻtadigan hamda Toshkent–Bekobod va Toshkent–Sirdaryo avtomobil yoʻllari boʻylab namunaviy uylar qurish, viloyatda ichimlik suvi tizimini takomillashtirish, koʻmir, texnologik chiqindi, mineral ruda va biomassani maydalash, quritish va separatsiya qilish loyihalari taqdimotlari oʻtkazildi.

Prezidentimiz Bekobod tumanidagi «Yusupov Gʻofurjon fayz» fermer xoʻjaligida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari xoʻjalik dala-shiyponida viloyat fermerlari bilan muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Toshkent viloyati Zangiota tumanida barpo etilayotgan Toshkent metallurgiya zavodi qurilishi bilan tanishdi. Shavkat Mirziyoyev qurilish jaryonini koʻzdan kechirib, zavodning mamlakatimiz iqtisodiyotida tutadigan oʻrni haqida toʻxtalar ekan, bu yerda ishlaydigan mutaxassislar tayyorlashga alohida eʼtibor qaratish lozimligini taʼkidladi.

\* \* \*

**30-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ozodlikdan mahrum



etish jazosini o'tayotgan, qilinishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**31-avgust.** Erta tong. «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasida xalqimiz ozodligi va yurtimiz mustaqilligi yo'lida qurbon bo'lgan marhumlarni yod etish marosimi o'tkazildi. Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

Prezidentimiz diniy ulamolar, jamoatchilik vakillari, ta'lim sohasi mutasaddilari bilan suhbatlashdi.

\* \* \*

Shu kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Mustaqillik maydoniga kelib, hurriyatimiz, porloq istiqbolimiz va ezgu niyatlarimiz ramzi bo'lgan Mustaqillik va ezgulik monumentiga gulchambar qo'ydi.

\* \* \*

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Mustaqilligimizning 27 yilligi bayrami arafasidagi farmonlariga muvofiq, mamlakatimizning xorijiy davlatlar bilan hamkorligini mustahkamlash borasidagi ulkan xizmatlari uchun bir qator chet el fuqarolari Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan edi.

**31-avgust** kuni mamlakatimiz tarixida birinchi marta chet elliklarga O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlarini topshirishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev ko'p millatli

xalqimiz Vatanimiz mustaqilligining 27 yilligini keng nishonlayotganini, ushbu tarixiy sanani biz bilan birgalikda davlatimizning ko'psonli do'stlari va sheriklari — diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar, yirik xorijiy kompaniyalar va moliya institutlari vakillari bayram qilyotgani hammamizni quvontirishini alohida ta'kidladi.

\* \* \*

Prezidentimiz farmonlariga muvofiq, mustaqilligimizning 27 yilligi arafasida mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirishga katta hissa qo'shgan, o'z sohalarida yuqori natijalarga erishgan bir guruh yurtdoshlarimiz faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlangan edi. «O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida ana shu yuksak mukofotlarni topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Prezidentimiz yig'ilganlarni Mustaqillik bayrami, shuningdek, davlat mukofotlariga sazovor bo'lgani bilan tabrikladi.

\* \* \*

**31-avgust.** «O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida Vatanimiz mustaqilligining 27 yilligiga bag'ishlangan bayram tantanasi bo'lib o'tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mustaqilligimizning yigirma yetti yilligi bilan xalqimizni muborakbod etib, nutq so'zladi. Ushbu nutq matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**3-sentabr.** Qirg'izistonning Cho'lponota shahridagi «Ruh o'rda» madaniyat markazida Turkiy tilli dav-

latlar hamkorlik kengashining oltinchi sammiti bo'lib o'tdi. Unda ushbu tuzilmaga a'zo mamlakatlar — Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Vengriya Respublikasi Bosh vaziri Viktor Orban anjumanda faxriy mehmon sifatida qatnashdi.

Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi 2009-yilda tashkil etilgan. Tashkilot kotibiyati Istanbul shahrida joylashgan. O'zbekiston mazkur kengash anjumanida birinchi marta ishtirok etdi.

Sammitda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi. Nutq matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**4-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ishlab chiqarish maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4–5-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh Said Husayn Xalil as-Sisi rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi.

«Ko'ksaroy» qarorgohida o'tgan rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Abdul-

fattoh as-Sisi o'rtasida tor doirada uchrashuv bo'lib o'tdi.

Prezidentlar xavfsizlik muammolariga alohida e'tibor qaratdilar. Terrorizm, ekstremizm, noqonuniy migratsiya, giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi, transmilliy uyushgan jinoyatchilik va boshqa tahdidlarga qarshi kurashish borasidagi hamkorlikka doir masalalarni atroflicha muhokama qildilar.

O'zbekiston va Misr Prezidentlarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokarasida savdo-sotiq va investitsiya sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish, shu maqsadda mamlakatlarimiz imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanish masalalari muhokama markazida bo'ldi.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdulfattoh as-Sisining Qo'shma bayonoti qabul qilindi. Mamlakatlarimiz o'rtasida yoshlar, sport, investitsiya, qishloq xo'jaligi sohalarida hamkorlik to'g'risida anglashuv memorandumlari, ta'lim, turizm, arxeologiya, madaniy meros va muzeyshunoslik sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga doir bitimlar, ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2019–2020-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi va adliya vazirliklari o'rtasida hamkorlik memorandumini singari jami 12 ta hujjat imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari va killari bilan uchrashuvda Prezidentlar muloqotlar ochiq, do'stona va amaliy ruhda o'tganini, hamkorlikni rivojlantirishga doir keng qamrov-

li masalalar muhokama etilganini ta'kidladilar.

Abdulfattoh as-Sisi Shavkat Mirziyoyevni rasmiy tashrif bilan Misrga taklif qildi.

\* \* \*

**5-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Korporativ, loyiha boshqaruvi va davlat xaridlari sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**6-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Belarus Respublikasi, Malayziya hamda Turkmanistonning mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchilari etib tayinlangan Leonid Marinich, Xendi Assan va Yazguli Mammedovdan ishonch yorliqlarini qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yangi tayinlangan elchilarning boy tajribasi, bilimi va samarali diplomatik faoliyati mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni har tomonlama mustahkamlash va o'zaro manfaatli sheriklikni kengaytirishga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

Yangi tayinlangan elchilar samimiy qabul uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirib,

mamlakatlarimiz o'rtasidagi keng ko'lamli va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirishga bor kuch-g'ayratini safarbar qilishini qayd etdi.

\* \* \*

**6-sentabr.** Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom san'ati anjumanining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Oqsaroy maydonida o'tayotgan xalqaro musiqa san'ati anjumani ishtirokchilari va mehmonlarini qutlab, jahon xalqlarining musiqiy xazinasiga aylangan maqom san'atini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, uni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish mazkur anjumaning asosiy maqsadi ekanini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi nutqi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**11-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Hududlarda tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarini jadal amalga oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat budjetiga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni to'liq bajarish, 9 oy va yil yakuni bo'yicha belgilangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish, paxta-to'qimachilik sohasida klasterlarni joriy etishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Unda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifa va maqsadli parametrlarni bajarish holati muhokama qilinib, yana qo'shimcha rezervlarni ishga solish choralari ko'rish borasidagi vazifalar belgilab olindi.

Davlatimiz rahbari maqsadli va prognoz parametrlariga erishishda muammo mavjud bo'lgan soha va tarmoqlarda ishlarni jadallash-tirish, belgilangan ko'rsatkichlarni ta'minlash zarurligini ta'kidladi.

2018-yilda ishga tushirilishi mo'ljallangan obyektlarni foydalanishga topshirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish holati tahlil qilindi.

\* \* \*

**12-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 13-sentabr kuni «Ko'ksaroy» qarorgohida bo'lib o'tdi. Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr Lukashenko tor doirada uchrashuv o'tkazdi.

Prezidentlar ikki tomonlama hamkorlikka doir keng ko'lamli masalalarni muhokama qilib, mamlakatlarning o'rtasidagi siyosiy muloqotni mustahkamlashga, turli sohalardagi amaliy hamkorlikni izchil rivojlantirishga kelishib oldilar.

Rasmiy delegatsiyalar ishtirokida kengaytirilgan tarkibda o'tkazilgan muzokarada O'zbekiston bilan Belarus o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish va

yanada kengaytirish, ikki mamlakat iqtisodiyotining bir-birini to'ldirishini hisobga olgan holda, sheriklikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Muzokara yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko Qo'shma bayonotni imzoladilar. Tashrif doirasida 19 hujjat, jumladan, o'zaro savdoga ko'maklashish tizimi, sanoat mulkini muhofaza qilish, bojxona ishlarida o'zaro yordam to'g'risida, fan va texnologiyalar, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, tibbiyot, oliy ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik to'g'risida bitim va shartnomalar imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda davlat rahbarlari muzokaralar ochiq va o'zaro ishonch ruhida o'tgani, uning natijalari yanada mustahkam va keng ko'lamli bo'lishini qayd etdi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Aleksandr Lukashenko «O'zbekpomarkaz»da ochilgan «Belarusda ishlab chiqarilgan» ko'rgazmasiga tashrif buyurdilar. Aleksandr Lukashenko Prezidentimizga Belarus iqtisodiyoti, uning asosiy tarmoqlari salohiyati haqida so'zlab berdi. Davlat rahbarlari yuqori texnologiyalar sohasidagi sheriklikni kengaytirish, jumladan, ikki mamlakatning innovatsion markazlari va texnoparklari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda birgalikda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish muhimligini ta'kidladilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Aleksandr Lukashenko Toshkent qishloq xo'jaligi texnikasi zavodi hududida tashkil etilgan «Amkodor-Agrotexmash» qo'shma korxonasi ochilishida ishtirok etdilar.

Shu yerda qo'shma korxonada ishlab chiqarilgan dastlabki ekskavatorlar namoyish etildi.

\* \* \*

**18-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan AQShning xalqaro diniy erkinlik sohasida alohida topshiriqlar bo'yicha elchisi Samuel Braunbekni qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston inson huquqlari, jumladan, diniy erkinlik va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash sohasidagi konstruktiv muloqotni rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratayotgani ta'kidlandi.

\* \* \*

**19-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**19-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-

kasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Missisipi shtati Milliy gvardiyasi qo'mondoni general Jenson Boylz va AQSh Kongressi Vakillar palatasi a'zosi Trent Kellini qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston Milliy gvardiyasi va tegishli idoralarining Missisipi shtati Milliy gvardiyasi bilan, jumladan, jamoat tartibini ta'minlash va favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish sohasida tajriba almashish, trening va tadbirlar o'tkazish borasida amaliy hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi. Parlamentlararo aloqalarni kengaytirish, shuningdek, Missisipi shtatining yetakchi korxonalari va kompaniyalari bilan savdo va innovatsiyalar, qishloq xo'jaligi, ta'lim sohasida sheriklikni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**19-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari tizimidagi ishlarni tahlil qilish, sohani jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilashga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda davlatimiz rahbarining 2018-yil 19-fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni va Prezident huzuridagi yig'ilishlarda berilgan

topshiriqlar ijrosini ta'minlash qanday borayotgani tahlil qilindi. Sohani jadal rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi.

\* \* \*

**20-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda bo'lib turgan Muvofiqlashtiruvchi guruhning yetakchi arab jamg'armalari delegatsiyasiga boshchilik qilayotgan Islom taraqqiyot banki prezidenti Bandar Hajarni qabul qildi.

Suhbat davomida ushbu bank bilan amaliy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari ko'rib chiqildi. Qishloq aholisining hayot sifatini yaxshilash, infratuzilmani modernizatsiya qilish, mamlakatimiz hududlaridagi tibbiyot va ta'lim muassasalarini zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, tadbirkorlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning eksport salohiyatini, jumladan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanilgan holda ro'yobga chiqarish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Hamkorlik uchun ulkan salohiyat, eng muhimi, uni yanada mustahkamlashga o'zaro intilish mavjudligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**20-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo mintaqasining transport masalalariga bag'ishlangan «Markaziy Osiyo xalqaro transport yo'laklari tizimida: strategik istiqbollari va foydalanilmagan imkoniyatlar» mavzusida o'tkazilayotgan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**20-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha istiqboldagi muhim vazifalar belgilab berildi. Aholi, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportning ommaviy turlari bilan shug'ullantirish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagani, darsdan tashqari vaqtlarda ta'lim muassasalaridagi sport obyektlaridan barcha yoshdagi odamlarning foydalanishi tashkil etilmagani ko'rsatib o'tildi.

Mutasaddi rahbarlarga barcha sport federatsiyalari faoliyatini tanqidiy o'rganib, ularning ishini, ayniqsa, seleksiya yo'nalishini tubdan yaxshilash, rahbar kadrlarning mas'uliyatini oshirish topshirildi.

Yig'ilishda 2020-yil Tokioda o'tadigan Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik masalasi ham muhokama qilindi. Mamlakatimiz sportchilarining ko'plab litsenziyalarni qo'lga kiritishi hamda munosib ishtirok etishi uchun tayyorgarlikni kuchaytirish bo'yicha vazifalar belgilandi.

\* \* \*

**20-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo komissiyani tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2019—2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**24-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizdagi diplomatik missiyasini yakunlayotgan Amerika Qo‘shma Shtatlarining Favqulodda va muxtor elchisi Pamela Spratlenni qabul qildi.

AQSh elchisi davlatimiz rahbariga samimiy qabul uchun chuqur minnatdorlik bildirdi. Amerika Qo‘shma Shtatlari ikki tomonlama munosabatlarni izchil rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratishi hamda mamlakatimiz bilan ko‘pqirrali hamkorlikni yanada kengaytirishga intilishi qat‘iy ekanini qayd etdi.

Uchrashuv yakunida mamlakatlaring o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shgan katta hissasi uchun AQShning Favqulodda va muxtor elchisi Pamela Spratlen «Do‘stlik» ordeni bilan taqdirlandi.

\* \* \*

**24-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga kelgan Turkiya Respublikasi Buyuk Millat Majlisi raisi Binali Yildirimni qabul qildi.

Suhbatda oliy darajadagi uchrashuvlar yakunida erishilgan kelishuvlar va qabul qilingan bitimlarni amalga oshirish, shuningdek, hamkorlikka oid qo‘shma dastur va loyihalarning parlamentlar vakillari

tomonidan faol qo‘llab-quvvatlanishi muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**25-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha «El-yurt umidi» jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**27–28-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan ushbu mamlakatga tashrif buyurdi.

Dushanbe xalqaro aeroportida Prezidentimizni Tojikiston Respublikasi Prezidenti kutib oldi. Prezidentlar Dushanbe shahrida ikki tomonlama uchrashuv o‘tkazdi.

Uchrashuvda mamlakatlaring o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan joriy yil 7-mart kuni Samarqand shahridagi Alisher Navoiy nomidagi markaziy istirohat bog‘ida o‘zbek va tojik xalqlarining buyuk mutafakkirlari — Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiyga haykal

oʻrnatilgan edi. Ana shu ezgu tashabbusga javoban Dushanbe shahrida Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istirohat bogʻi barpo etilib, unda ikki buyuk siymoning haykali qad rostlagani xalqlarimiz oʻrtasidagi doʻstona aloqalar mustahkamlanib borayotganining yana bir ifodasi boʻldi.

Prezidentimizning tashrifi doirasida mazkur yangi bogʻ hamda Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyga oʻrnatilgan haykalning ochilish marosimi boʻldi. Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon ushbu ikki buyuk mutafakkir haykali pogʻiga gullar qoʻydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Emomali Rahmon hamrohligida Tursunzoda shahriga tashrif buyurdi. Shaharga kiraverishda minglab odamlar davlatimiz rahbarini katta xursandchilik, tantana bilan kutib oldi. Milliy kuy-qoʻshiqlar, raqslar ijro etildi. Prezidentlar Tursunzoda shahridagi «Talko» davlat unitar korxonasiga tashrif buyurdilar.

Oʻzbekistonning «Krantas grupp» masʼuliyati cheklangan jamiyati bilan Tojikiston aluminiy kompaniyasi hamkorligida 2018-yil iyul oyida tashkil etilgan «Talko-Krantas maxsus texnikalar zavodi» masʼuliyati cheklangan jamiyati shaklidagi Oʻzbekiston–Tojikiston qoʻshma korxonasi taqdimoti boʻlib oʻtdi.

Tursunzoda tumanidagi «Bogʻi somon» dehqon xoʻjaligi rahbari Kamol hoji Madumarov asli oltiariqlik usta dehqon farzandi. U ota kasbini davom ettirib, elda obroʻ top-

gan. Xoʻjalik uzumzori 500 gektar. 1 ming 100 ishchi mehnat qilayotgan xoʻjalikda uzumning «Husayni», «Rizamat», «Kattaqoʻrgʻon», «Kelin barmoq» kabi 7 xil navi yetishtiriladi.

Prezidentlar xoʻjalik uzumzorlarida boʻldi. Shavkat Mirziyoyev Kamol ota Madumarovga mamlakatimizda ishlab chiqarilgan «Captiva» avtomashinasini sovgʻa qildi. Davlatimiz rahbari shu tumandagi «Vatan» dehqon xoʻjaligida boʻlib, uning rahbari Neʼmat hoji Usmonovga ham «Captiva» mashinasini tuhfa etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasiga safarining ikkinchi kuni Dushanbe shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi Davlat rahbarlari kengashi majlisida ishtirok etdi.

Dastlab davlat rahbarlari tor doirada uchrashuv oʻtkazdilar. Unda Hamdoʻstlik doirasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, ushbu xalqaro tuzilma faoliyatini takomillashtirish, mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi. Prezidentimiz dunyo miqyosida jadal oʻzgarishlar roʻy berayotgan, global xatar va tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi kunda Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi koʻpqirrali hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim maydon boʻlib xizmat qilayotganini taʼkidladi.

Tor doiradagi uchrashuvda 2019-yilda MDHga raislik hamda Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisini oʻtkazish joyi toʻgʻrisidagi masalalar koʻrib chiqildi. Qabul qilingan qarorga koʻra, 2019-yilda



Hamdo'stlikka raislik Turkmanistonga o'tdi. O'zbekiston Respublikasi tashkilotga hamrais etib belgilandi.

Davlat rahbarlari muzokaralarni kengaytirilgan tarkibda davom ettirdilar. Unda turli sohalarda ko'p tomonlama hamkorlikning bugungi holati va uni yanada rivojlantirish istiqbollari doir keng ko'lamlı masalalar muhokama qilindi. Koınotni tadqiq etish va tinch maqsadlarda foydalanish sohasida hamkorlik to'g'risida MDH konvensiyasi hamda 1941—1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'alabaniı 75 yilligiga tayyorgarlik ko'rish va uni nishonlash bo'yicha asosiy tadbirlar rejasi ma'qullandi. MDHga a'zo mamlakatlar Davlat rahbarlariniı 1948-yil 10-dekabrdaı Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganiı 70 yilligi munosabati bilan bayonoti, 2019—2023-yillarga mo'ljallangan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar davlatlararo dasturi, Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik to'g'risidagi bitim va boshqa hujjatlar qabul qilindi. Shuningdek, 2021-yilni MDHda arxitektura va shaharsozlik yili deb e'lon qilishga qaror qilindi. Jami 16 hujjat imzolandi.

\* \* \*

**28-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlardan bir guru-

hini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**30-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**30-sentabr — 1-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Hindiston Respublikasi Prezidenti Ram Nath Kovindning taklifiga binoan davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Hindistonning qadimgi poytaxti Agra shahriga tashrif buyurdi. Shavkat Mirziyoyev rafiqasi bilan jahonga mashhur Toj Mahal me'moriy obidasini ziyorat qildi.

Shavkat Mirziyoyev majmuaning faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozib qoldirdi.

Kunning ikkinchi yarmida Prezidentimiz Hindiston poytaxti Nyu-Dehli shahriga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari hind xalqi an'alariga xos tarzda kutib olindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston delegatsiyasi uchun ajratilgan qarorgohda Hindistonning yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashdi. Unda Hindiston tashqi ishlar davlat vaziri Mobashar Javad Akbar, Hindiston-

ning mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchisi Vinod Kumar, Hindiston sanoatchilari konfederatsiyasi bosh direktori Chandrajit Bannerji, shuningdek, bir qator nufuzli kompaniyalar rahbarlari ishtirok etdi. Muloqotda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar xorijiy investorlarning mamlakatimizda o'z biznesini yo'lga qo'yishi uchun keng imkoniyat yaratayotgani ta'kidlandi.

Tashrif arafasida Nyu-Dehli-da o'tkazilgan biznes-forum ikki mamlakat ishbilarmon doiralarning hamkorligi uchun samarali maydon bo'ldi. Ushbu forumda savdo-iqtisodiy va investitsiya sohalariidagi ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish, jumladan, O'zbekiston—Hindiston ishbilarmonlar kengashini ta'sis etish masalalari muhokama etildi.

Tashrifning ikkinchi kuni «Rashtrapati Bxavan» saroyida davlatimiz rahbarini rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev shu yerda mamlakatimiz va Hindiston ommaviy axborot vositalari uchun qisqacha bayonot berdi.

Shundan so'ng Shavkat Mirziyoyev Nyu-Dehli shahridagi «Raj Gxat» yodgorligiga tashrif buyurib, hind xalqining milliy qahramoni Mahatma Gandi xotirasiga yoqilgan mangu olov yoniga gulchambar qo'ydi. Shavkat Mirziyoyev buyuk davlat va siyosat arbobi xotirasiga hurmat bajo keltirdi, majmuaning faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozib qoldirdi.

Haydarobod saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Hindiston Respub-

likasi Bosh vaziri Narendra Modining tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, investitsiyaviy, innovatsiya, transport, energetika, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi, mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan fikr almashildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Bosh vazir Narendra Modi muloqotni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibidagi muzokarasida davom ettirdilar.

Muzokaralarda savdo, iqtisodiyot, investitsiyalar, yuqori texnologiyalar, tibbiyot, farmasevtika, turizm va boshqa sohalardagi hamkorlikning yangi imkoniyatlari muhokama qilindi. Bu borada hali foydalanilmagan imkoniyatlar ko'pligi, ushbu tashrif o'zaro manfaatli O'zbekiston—Hindiston munosabatlariga yangi sur'at baxsh etishi ta'kidlandi.

Nyu-Dehli-da o'tgan oliy darajadagi muzokaralar yakunida imzolangan hujjatlarni o'zaro almashish marosimi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston—Hindiston muloqoti yakunida ikki mamlakat hamkorligini turli sohalarda yangi, yanada yuqori bosqichga olib chiqishga qaratilgan 20 ta hujjat imzolangani qayd etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hindiston Respublikasi Bosh vazirining Qo'shma bayonoti qabul qilindi. Diplomatik pasport egalari-ni viza talablaridan ozod etish, turizm, qishloq xo'jaligi, fan-texnika va innovatsiyalar, koinotni tadqiq

etish va undan tinchlik maqsadlarida foydalanish, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish, sog'liqni saqlash va tibbiyot ilmi sohasida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitimlar imzolandi. Bundan tashqari, harbiy ta'lim, huquq va adliya, farmasevtika sohalaridagi munosabatlarni rivojlantirishga doir o'zaro anglashuv memorandumlari qabul qilindi.

Ommaviy axborot vositalari va killari uchun o'tkazilgan brifingda Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Hindiston bilan aloqalarga ustuvor ahamiyat qaratishi, amaliy ruhda o'tgan muzokaralar tomonlarning o'zaro hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdor ekanini tasdiqlaganini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Nyu-Dehli shahrida o'zi uchun ajratilgan qarorgohda Hindiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Sushma Svaraj xonimni qabul qildi. Muloqotda davlatimiz rahbari O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasida do'stlik va strategik sheriklik munosabatlari izchil rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Joriy yilda tomonlarning intilishi natijasida o'tkazilgan uchrashuvlar, qator delegatsiyalar almashuvlari davlatlararo hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilayotgani yuqori baholandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Nyu-Dehli shahrida o'zi uchun ajratilgan qarorgohda Hindiston Respublikasi vitse-prezidenti, senat raisi Venkaya Nayduni qabul qildi. Uchrashuvda

mamlakatlarimiz aloqalarini rivojlantirishning turli jihatlarini, o'zaro hamkorlikning huquqiy asoslarini mustahkamlash masalalari xususida fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari «Rashtrapati Bxavan» saroyida Hindiston Respublikasi Prezidenti Ram Nath Kovind bilan uchrashdi.

\* \* \*

**2-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Parij bitimini (Parij, 2015-yil 12-dekabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Islom hamkorlik tashkiloti Ustaviga kiritilgan tuzatishni (Abidjan, 2017-yil 10–11-iyul) ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Islom mamlakatlarining standartlar va metrologiya instituti Ustavi va Tartib-qoidalarini (Istanbul, 1999-yil 7-noyabr, 2017-yil 7-may holatidagi o'zgartirishlar bilan) ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**3-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga iqtisodiy munosabatlar va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**3-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev elektr energetika sohasidagi ishlar ahvolini chuqur tahlil qilish, tarmoqni yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilashga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi.

Yig‘ilishda elektr energetika sohasi faoliyatini tubdan takomillashtirish zarurligi qayd etilib, sohani jadal rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalar belgilab olindi.

\* \* \*

**4-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Saylov jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**5-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi. Tomonlar muntazamlik kasb etgan oliy

darajadagi uchrashuv va muloqotlar mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik rishtalari va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qilayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Suhbatda hamkorlikni rivojlantirish va erishilgan kelishuvlar ijrosini to‘liq ta‘minlashda ikki mamlakat hukumatlari, vazirlik va idoralari darajasida muntazam amaliy muloqotlar muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**8–9-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.

Ikki davlat bayroqlari bilan bezatilgan «Orli» xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Fransiya Respublikasining rasmiy shaxslari kutib oldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Parij shahridagi UNESCO bosh qarorgohida ushbu tashkilot Bosh direktori Odri Azule bilan uchrashdi.

Uchrashuvda O‘zbekiston bilan UNESCO o‘rtasidagi 2018–2021-yillarga mo‘ljallangan qo‘shma Harakatlar rejasi qabul qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev UNESCOning faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozib qoldirdi.

Shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiya Respublikasi Senati Raisi Jerar Larshe bilan uchrashdi.

Mamlakatlarimiz parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlik, ayniqsa, ulardagi do‘stlik guruhlari tufayli an-

cha faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Fransiya Senatini binosini ko'zdan kechirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Fransiyaning eng yirik kompaniyalari rahbarlari bilan uchrashuv o'tkazdi. Unda «Total», «Total Eren», «Orano», «Fivs Shteyn», «Ranjis Semmaris», «Vinchi», «Suetts», «Sad», «Idemiya», «Mersie», «Tales Aleniya Speys», Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Fransiya taraqqiyot agentligi kabi Yevropa va jahon bozorida yetakchi kompaniyalar va moliyaviy tuzilmalar rahbarlari ishtirok etdi. Uchrashuvda O'zbekistonda xorijiy investorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani, ular faoliyatini rag'batlantirish va himoya qilish uchun zarur normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingani, biznesni rivojlantirish yo'lidagi turli to'siqlarga barham berilgani, tashqi savdo va bojxona-tarif nazorati sezilarli darajada qisqartirilgani ta'kidlandi.

Tashrifning asosiy voqealari 9-oktabr kuni bo'lib o'tdi. Parij shahridagi Shon-sharaf maydonida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi. Shundan so'ng davlatimiz rahbari Fransiya Respublikasi Prezidentining Yelisey saroyiga yo'l oldi.

Shavkat Mirziyoyev va Emmanuel Makron o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralarda O'zbekiston—Fransiya munosabatlarini yanada rivojlantirish, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga

molik masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy va xalqaro hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, tahdid va xatarlarga qarshi birgalikda kurashish muhimligini qayd etdilar. Mintaqada tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashning muhim sharti sifatida Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish zarurligi yana bir bor ta'kidlandi. Bunda oldindan hech qanday shart qo'ymasdan to'g'ridan to'g'ri siyosiy muloqotni yo'lga qo'yish ushbu muammoni hal etishning birdan-bir yo'li ekaniga e'tibor qaratildi.

Uchrashuvda savdo-iqtisodiy, investitsiya, energetika, texnologiyalar, madaniy-gumanitar sohalarida hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Tashrif doirasida iqtisodiyot, muhandislik, qishloq xo'jaligi, turizm kabi yo'nalishlarda mutaxassislar tayyorlash bo'yicha O'zbekistonda Fransiyaning yetakchi universitetlari filiallarini ochish borasida kelishuvlarga erishildi. Avtomobil transportida xalqaro yo'lovchi va yuk tashish, turizm sohalarida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitimlar, Fransiya taraqqiyot agentligi bilan 2018—2020-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturini amalga oshirish to'g'risida ahdlashuv bitimi imzolandi. Shuningdek, 2019—2020-yillarda tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida hamkorlik dasturi, O'zbekiston Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va Fransiya ekologiya, barqaror taraqqiyot va energetika

vazirligi o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror taraqqiyot sohasida hamkorlik, ikki mamlakat ichki ishlar, madaniyat vazirliklari, O'zbekiston Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi va Luvr muzeyi o'rtasida hamkorlik bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumini kabi hukumatlararo va idoralararo jami 10 ta hujjat qabul qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Luvr muzeyiga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari muzey eksponatlarini tomosha qildi va ularning tarixi bilan qiziqdi. Bu yerda saqlanayotgan tarixiy merosimiz namunalarini xalqimiz uchun nihoyatda qadrli va ahamiyatli ekanini ta'kidladi. O'zbekiston va Fransiya muzeylari hamkorligida ko'rgazmalar tashkil etish, arxeolog va tarixchi olimlarning ilmiy hamkorligini kengaytirish zarurligi qayd etildi.

\* \* \*

**10-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan, shu jumladan, ichimlik suvidan oqilona foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**10-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mudofaa qurilishi va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini rivojlantirish

masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Unda qo'shinlarning jangovar shayligi va jangovar qobiliyatini yanada oshirish, ularni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnika bilan ta'minlash, mavjud qurol-yarog' namunalari modernizatsiya qilish, mintaq va dunyo mamlakatlari bilan harbiy va harbiy-texnik hamkorlikni faollashtirish, harbiy shaharchalar infratuzilma obyektlarini, qo'shinlarning texnik va front orti ta'minoti tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari va Qurolli Kuchlar faxriylarini ijtimoiy muhofaza qilish masalalari muhokama qilindi.

Yig'ilish yakunlari bo'yicha Prezidentimiz tomonidan Qurolli Kuchlar faoliyatini yanada takomillashtirish va umuman, mamlakat mudofaa qobiliyatini yuksaltirishning ustuvor yo'nalish va vazifalari belgilab berildi.

\* \* \*

**10-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida Vazirlar Mahkamasi va iqtisodiy idoralar rahbarlari ishtirokida mamlakatni joriy yil 9 oyida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish holati va yil yakunlari bo'yicha kutilayotgan natijalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Unda moliyaviy bozorning rivojlanishi iqtisodiyotni yanada liberashtirish va tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishning asosiy omili ekani, mamlakatimizda valyuta bozorining erkinlashtirili-

shu iqtisodiyotda likvidlilik darajasi oshishi hamda bo'sh pul mablag'larining muhim investitsiya va infratuzilma loyihalariga jalb etilishini taqozo qilishi ta'kidlandi. Kapital bozorini rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar, banklar va sug'urta kompaniyalarining bo'sh mablag'larini muhim loyihalarga jalb qilish ham yaxshi samara berishi, bu borada yangi islohotlarni amalga oshirish davlat budjeti xarajatlarini bir maromda moliyalashtirish uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirishga xizmat qilishi qayd etildi.

\* \* \*

**11-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Prezidentlar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar. Tomonlar eng muhim masalalar, jumladan, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi birgalikda samarali kurashish bo'yicha yondashuvlari mushtarak ekanini qayd etdilar.

\* \* \*

**11-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev yurtimizga tashrif bilan kelgan Misr Bosh imomi, Al-Azhar majmuasi rahbari shayx Ahmad Muhammad Tayyibni qabul qildi.

Uchrashuvda bugungi kunda muqaddas islom dinining bag'rikenglik tamoyillarini, ma'rifiy qadriyatlarini targ'ib qilish, uning insonparvarlik mohiyatini asrash, diniy-ma'naviy

merosni tadqiq etish, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish borasida O'zbekiston va Misrda katta ishlar qilinayotgani qayd etildi.

\* \* \*

**11-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlari-ga odil sudlovni amalga oshirish samaradorligini yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunini o'z kuchini yo'qotgan deb topish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**11-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yuridik yordam va huquqiy xizmatlar ko'rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlari-ga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**11-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat mulki obyektlarini va yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni tadbirkorlik subyektlariga sotish tartibini soddalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Buxoro viloyatida kichik sanoat zonalarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**12-oktabr.** Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, paxta yig'im-teriminin borishi bilan tanishish maqsadida Toshkent viloyati Bo'ka tumanidagi «Valixon ota» fermer xo'jaligiga tashrif buyurdi. Prezidentimiz bu yerda viloyatning bir guruh ilg'or fermer xo'jaliklari rahbarlari, qishloq xo'jaligi sohasi mutasaddilari bilan muloqotda bo'ldi. Uchrashuvda paxta yig'im-terimi ishlarining borishi, takroriy ekin ekish holati, viloyat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, xorijiy davlatlar bilan hamkorlik masalalari muhokama etildi.

Davlatimiz rahbari fermer xo'jaligi dalasida sinovdan o'tkazilayotgan zamonaviy paxta terish mashinasi bilan tanishdi.

Prezidentimiz muloqot so'ngida sohaga innovatsion texnologiyalarni kengroq jalb etish, hosilni yog'insochinli kunlarga qoldirmasdan yig'ishtirib olish lozimligini qayd etdi.

\* \* \*

**12-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Mudofaa vazirlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan MDHga a'zo

davlatlar mudofaa idoralari rahbarlarini qabul qildi. Uchrashuvda Ozarbayjon mudofaa vaziri Z. Gasanov, Armaniston mudofaa vaziri D. Tonoyan, Belarus mudofaa vaziri A. Ravkov, Qozog'iston mudofaa vaziri N. Yermekbayev, Rossiya mudofaa vaziri S. Shoygu, Tojikiston mudofaa vaziri Sh. Mirzo, Qirg'iziston Qurolli Kuchlari Bosh shtabi boshlig'i R. Duyshenbiyev va MDH Mudofaa vazirlari kengashi kotibi Y. Dashkin ishtirok etdi.

Prezidentimiz delegatsiyalar rahbarlarini qutlar ekan, MDH Mudofaa vazirlari kengashining majlisi ilk bor Toshkentda o'tkazilayotgani mamlakatimizning Hamdo'stlik faoliyatidagi ishtiroki yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat ekanini mamnuniyat bilan ta'kidladi.

Uchrashuvda MDH doirasida harbiy va harbiy-texnik hamkorlikni, jumladan, idoralararo sheriklikni yanada kengaytirish, ikki va ko'p tomonlama tadbirlar o'tkazish, professional harbiy kadrlarni tayyorlash masalalari ko'rib chiqildi. Xalqaro va mintaqaviy siyosat, xususan, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida davlatimiz rahbari MDH Mudofaa vazirlari kengashi majlisi ishiga muvaffaqiyatlar tiladi.

\* \* \*

**12-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.



\* \* \*

**13-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**15-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**15-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**15-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida muntazamlik kasb etgan oliy darajadagi muloqot va uchrashuvlar qardosh xalqlarimizning ko'p asrlik do'stligini, o'zaro hurmat, qo'llab-quvvatlash va manfaatlarini hisobga olish tamoyillari asosida mamlakatlarimiz o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga, ikki tomonlama foydali hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Shuningdek, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Muloqot so'ngida davlat rahbarlari qardosh mamlakatlarimiz o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va amaliy hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashga intilishlari qat'iy ekanini yana bir bor tasdiqladilar.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kimyo sanoatini jadal rivojlantirish, tarmoqqa xorijiy investitsiya va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Unda tarmoq faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish va kimyo sanoatini yanada rivojlantirish yuzasidan amalga oshiriladigan choratadbirlar muhokama qilindi. Prezidentimiz mutasaddi rahbarlarga bu borada tatbiq etilayotgan loyihalarni amalga oshirishga xorijiy investorlarni jalb qilish bo'yicha topshiriqlar berdi. Sohaga innovatsiyalar umuman joriy qilinmagani, ilm-fan salohiyatidan samarali foydalanilmayotgani tanqid qilindi. Yig'ilishda mutasaddilarga belgilangan barcha vazifalar bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqish va uning ijrosini muntazam muhokama qilib borish topshirildi.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida tez tibbiy yordam xiz-

matini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholining ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini ta'minlash va uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xususiylar bandlek agentliklari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**17-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Meva-sabzavot mahsulotlarini tashqi bozorlarga chiqarish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**18–19-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir

Putin davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi. Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni davlatimiz rahbari kutib oldi. Prezidentlar shu yerda qisqa suhbat o'tkazdilar.

Tashrifning asosiy tadbirlari 19-oktabr kuni Ko'ksaroy qarorgohida bo'lib o'tdi. Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin tor doirada muzokara o'tkazdilar.

Uchrashuvda hamkorlikning hozirgi holati va uni har tomonlama rivojlantirish, turli sohalarda yangi qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi, mamlakatlarimizning dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalarga doir yondashuvlari mos yoki yaqin ekani ta'kidlandi. Prezidentlar xavfsizlik sohasida o'zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish prinsiplariga asoslangan sheriklik munosabatlarini kengaytirish Markaziy Osiyo mintaqasidagi yangi tahdid va xatarlarga qarshi kurashish vazifalarini birgalikda hal etishga xizmat qilishini qayd etdilar. Terrorizm, ekstremizm, ayniqsa, yoshlar orasida radikallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish yuzasidan fikr almashildi. Tomonlar Afg'onistonda tinchlik o'rnatish jarayonini afg'on xalqining o'zi amalga oshirishi zarurligini yana bir bor ta'kidladilar. Davlat rahbarlari Markaziy Osiyoda o'zaro manfaatli va samarali mintaqaviy hamkorlik rivojida ijobiy tendensiyalar kuzatilayotganini qayd etdilar.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Prezidenti Vladimir Putin muzokaralarni ikki mamlakat delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirdi. Unda savdo-iqtisodiy investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirishning amaliy jihatlari muhokama qilindi. Muzokaralarda tovar ayirboshlash hajmini oshirish va nomenklaturasini diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirish, transport va energetika sohalarida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Muzokaralar yakunida salmoqli hujjatlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin Qo'shma bayonotni imzoladilar. Tashrif doirasida imzolangan 2019–2024-yillarda iqtisodiy hamkorlik dasturi, 2019–2021-yillarda madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik dasturi, «Suffa» xalqaro radioastronomik observatoriyasini tashkil etish bo'yicha yo'l xaritasi, O'zbekistonda Rossiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari filiallarini tashkil etish va faoliyatini ta'minlash to'g'risidagi bitim, To'qimachilik sanoatida hamkorlik to'g'risidagi bitim o'zaro almashildi. «Mustaqillikning 25 yilligi» konini qo'shimcha razvedka qilish va jihozlash hamda Surxondaryo viloyatida gaz-kimyó majmuasini qurish bo'yicha «O'zbekiston mustaqilligi» investitsiya blokiga doir qo'shimcha bitim, O'zbekiston Respublikasi Pre-

zidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi va M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, O'zbekistonda Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutining filialini tashkil etish to'g'risida bitim, Fanlararo ilmiy ta'lim markazini tashkil etish to'g'risida bitim, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari rektorlari kengashi va «Butunrossiya rektorlari ittifoqi» jamoat tashkiloti o'rtasida bitim, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va Rossiya Federatsiyasi Milliy gvardiya qo'shinlari federal qo'shinlar xizmati o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi bitim, jami 20 ta hujjat imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari uchun brifingda Prezidentlar tor va keng doiradagi muzokaralar har doimgidek ochiq va o'zaro ishonch ruhida o'tganini, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari yuzasidan atroflicha fikr almashilganini ta'kidladilar.

Kunning ikkinchi yarmida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Mustaqillik maydoniga tashrif buyurib, Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gul qo'ydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ikki tomonlama munosabatlar tarixida ilk bor «O'zbekiston – Rossiya» hududlararo hamkorlik forumi tashkil etildi. «O'zekspomarkaz»da bo'lib o'tgan

forumda Rossiya hududlari, yetakchi kompaniya va sanoat korxonolari rahbarlari — jami mingdan ziyod kishi ishtirok etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin ushbu forumga tashrif buyurdilar.

Forumda ishbilarmonlar o'rtasidagi hamkorlikning amaliy masalalari, aniq loyiha va dasturlar muhokama qilindi. Ularning natijasida umumiy qiymati 2 milliard dollarlik kelishuv va shartnomalar imzolandi.

«O'zekspomarkaz»da mamlakatimizdagi birinchi atom elektr stansiyasi qurilishi loyihasining boshlanishiga bag'ishlangan tantanali marosim ham bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin ramziy tugmani bosib, ushbu yirik loyihaga start berdilar.

Tadbirni videoaloqa orqali kuzatib turgan «O'zatom» agentligi va «Rosatom» davlat korporatsiyasi mutaxassislari O'zbekistonda birinchi atom elektr stansiyasi qurilish maydonini tanlash uchun muhandislik tadqiqotlari boshlanganini e'lon qildi.

\* \* \*

**20-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-

kasining ayrim qonun hujjatlariga jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**22-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda AQSh biznesi haftaligi tadbirlarida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Amerika—O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash, avvalo, texnologiyalar sohasidagi sheriklikni rivojlantirishning aniq istiqbollari muhokama qilindi.

\* \* \*

**23-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Elektr energetikasi tarmog'ini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Amerika Qo'shma Shtatlari savdo vaziri Vilbur Rossni qabul qildi.

Uchrashuvda AQShning jahonga mashhur sanoat xoldinglari, moliya-investitsiya korporatsiyalari va banklari rahbarlari va vakillari ishtirokida o'tgan O'zbekistonda AQSh biznesi haftaligi tadbirlarining samarali natijalari mamnuniyat bilan qayd etildi. Savdo, sanoat

va yuksak texnologiyalar, qishloq xo'jaligi, logistika va transport so-halarida aniq loyiha va dasturlarni ro'yobga chiqarishda amaliy ham-korlik masalalari ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**24-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-kasi Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh xodimlarni mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tay-yorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ken-gaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Unda oliy ta'lim muassasalarini-ning nufuzi, professor-o'qituvchi-larning ilmiy salohiyati xalqaro il-miy hamjamiyatda munosib o'ringa ega emasligi qayd etildi. Ta'lim ja-rayoniga dunyoda tan olingan fan arboblari, yuqori malakali professor-o'qituvchilarni jalb etish yaxshi yo'lga qo'yilmagani tanqid qilindi.

Yig'ilishda O'zbekiston – Rossiya ta'lim forumi natijalariga ham e'tibor qaratildi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalik-da mazkur «yo'l xarita»larida bel-gilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda ilm-fanni rivojlanti-rishga qaratilgan kelishuvlar asosida professor-o'qituvchilarning ilmiy-pe-dagogik salohiyatini mustahkamlash, malakasini oshirish, oliy ta'lim ti-

zimiga ilmiy-texnologik ishlanmalar va axborot texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha topshiriqlar be-rildi.

\* \* \*

**25-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xorijda istiqomat qila-yotgan vatandoshlar bilan hamkorlik sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatini yanada takomil-lashtirish chora-tadbirlari to'g'risi-da»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respub-likasida kimyo sanoatini jadal ri-vojlantirish chora-tadbirlari to'g'-risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**26-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri Yunu-sobod tumaniga tashrif buyurib, bu yerda amalga oshirilishi mo'l-jallangan loyihalar, istiqboldagi re-jalar bilan tanishdi.

Prezidentimiz Toshkent metropoli-teni Yunusobod yo'nalishining ik-kinchi bosqichidagi qurilish ishlari-ni ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari Bog'ishamol mahallasida joylashgan «Sevinch» nomli 74-maktabgacha ta'lim muas-sasasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, tarbiyachilar bilan mulo-qot qildi.

Davlatimiz rahbariga Toshkent shahridagi maktabgacha ta'lim mu-assasalarining holati va ularni ri-vojlantirishga oid loyihalar haqida ma'lumot berildi. Shu yerda Janu-biy Koreyaning Puchon universiteti

rahbarlari bilan videokonferensiya orqali muloqot qilindi. Prezidentimiz bog'cha tarbiyalanuvchilariga sovg'alar berdi.

Shavkat Mirziyoyev «Yunusobod» zamonaviy ishbilarmonlik markazi loyihasi bilan tanishdi. Shu yerda Yunusobod tumanidagi ko'pqavatli uylarni boshqarish bo'yicha takliflar taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari «Amilov» qandolat mahsulotlari fabrikasi faoliyati bilan tanishdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zekspomarkaz»da Toshkent shahri va Yunusobod tumani hokimlari, mutasaddilar va sektorlar rahbarlari, mahalla raislari ishtirokida yig'ilish o'tkazdi. Unda Yunusobod tumani iqtisodiy rivojlantirish, mahallalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada yaxshilash, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berildi.

\* \* \*

**30-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yilda Davlat budgetining kutilayotgan ijrosi, 2019-yilga mo'ljallangan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, budget-soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda kelasi yili budget daromadlari izchil oshishi, soliq ti-

zimida joriy etiladigan tarixiy o'zgarishlar natijasida aholi va biznesga katta yengilliklar yaratilishi ta'kidlandi.

Budjet kamomadini qisqartirish, daromadlarni ko'paytirish, jumladan, ishchilar soni va ish haqini legallashtirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish yuzasidan topshiriqlar berildi. 2019-yilgi budjetnomani, shuningdek, soliq siyosatidagi o'zgarishlar bo'yicha tegishli qonun loyihasini puxta ishlab chiqib, yaqin vaqt ichida Oliy Majlisga taqdim etish vazifasi qo'yildi. Qo'shimcha qiymat solig'i to'lashning soddalashtirilgan mexanizmini joriy etish, mavjud imtiyozlarni to'liq xatlovdan o'tkazib, optimizatsiya qilish bo'yicha ham topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**31-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida qishloq xo'jaligini kompleks rivojlantirish, sohaga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, mahsulotlar eksportini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Unda qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar, ilmiy ishlanmalar, ayniqsa, tomchilatib sug'orish texnologiyasini keng joriy qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Yerni haqiqiy egasiga berish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, urug'chilikni rivojlantirish, mineral o'g'itlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish, qishloq xo'jaligi texnika parkini yangilash, mahsulotlarni qayta ishlash sohasini rivojlantirish va bosh-

qa yo‘nalishlarda dolzarb vazifalar belgilab berildi.

\* \* \*

**31-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev ikki tomonlama munosabatlar tarixidagi muhim sana — O‘zbekiston Respublikasi bilan Qozog‘iston Respublikasi o‘rtasida Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnoma imzolanganining 20 yilligi munosabati bilan bir-birlariga tabrik yo‘lladilar.

O‘zbekiston Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi Prezidentlari ushbu muhim sana munosabati bilan xalqlarimizga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

\* \* \*

**1-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro hunarmandchilik festivalini o‘tkazish to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**2-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev xalq ta‘limi tizimini yanada rivojlantirish borasidagi islohotlar samaradorligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi.

Prezidentimiz soha oldida ko‘plab vazifalar turgani, darsliklar ta‘minoti, ta‘lim dasturlari sifati, o‘qituvchilar bilim va malakasini oshirish, kadrlar yetishmovchiligini

bartaraf etish, chet tillarini o‘qish imkoniyatini kengaytirish borasidagi ishlar talab darajasida emasligini ta’kidladi.

Yig‘ilishda xalq ta‘limi tizimida o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, o‘quvchilarni maktabga qabul qilish va ko‘chirish xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish, davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy maktablar tashkil etish sust borayotgani qayd etildi. Shu yo‘nalishlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Maktablarning binosi, ularning moddiy-texnik bazasi holatiga ham e‘tibor qaratildi.

Maktablarda bilim berish va o‘zlashtirish darajasi zamon talablariga mos emasligi tanqid qilindi. 10–11-sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga o‘rgatish maqsadida o‘quv-ishlab chiqarish majmualari tashkil etish va ularni jihozlash ishlari qoniqsiz ekani ko‘rsatib o‘tildi.

Maktablarda kompyuter bilan ta‘minlanganlik darajasini tanqidiy o‘rganib, ularni jihozlash bo‘yicha aniq manzilli dasturlar ishlab chiqish, informatika fanini o‘qitishning zamonaviy uslublarini joriy etish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Xalq ta‘limi va Moliya vazirliklari mahalliy hokimliklar bilan birgalikda 2 hafta muddatda maktablarni kuz-qish mavsumiga to‘liq tayyorlash choralarini ko‘rish zarurligi ta’kidlandi.

\* \* \*

**5-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzurida

Toshkent xalqaro arbitraj markazini (TIAC) tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**7-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat tibbiyot muassasalari va sog'liqni saqlashni boshqarish organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, hududlar aholisini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish, tibbiyot muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasidagi islohotlar natijalarini tahlil qilish va istiqboldagi ustuvor vazifalarni belgilashga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi o'tkazildi. Davlatimiz rahbari barcha islohotlardan asosiy maqsad odamlar hayotini yaxshilash ekani, sifatli tibbiy xizmat bu borada muhim o'rin tutishini ta'kidladi.

Yig'ilishda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish masalalariga ham e'tibor qaratildi. Onalar va bolalar o'limiga sabab bo'layotgan omillarni chuqur tahlil qilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Videosektor yig'ilishida tibbiyot sohasini o'rta va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish yo'nalishlari muhokama qilindi.

\* \* \*

**12-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2019-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo'shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko'chirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**13-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbatda davlat rahbarlari keng ko'lamli ikki tomonlama hamkorlikning holati va uni oliy darajada erishilgan kelishuvlar doirasida rivojlantirish istiqbollarini muhokama qildilar. O'zbekiston va Turkmaniston rahbarlarining muntazam uchrashuv va muloqotlari ikki tomonlama do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida amaliy hamkorlikni kengaytirish uchun ishonchli poydevor bo'lib xizmat qilayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

\* \* \*

**15–16-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshi-



rilayotgan islohotlar, olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrif buyurdi. Prezidentimiz dastlab Nukus xalqaro aeroportida amalga oshirilgan modernizatsiya ishlarini ko‘zdan kechirdi.

Prezidentimiz Mo‘ynoq tumaniga tashrif buyurdi. 2019-yilda Mo‘ynoq tumanida sanoat sohasida 12 ta, qishloq xo‘jaligida 5 ta, xizmat ko‘rsatish bo‘yicha 14 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Shavkat Mirziyoyev ushbu loyihalar bilan tanishdi.

Prezidentimiz kelgusi ikki yilda Mo‘ynoqda 20 ta ko‘p qavatli uy qurish, yangi shaharcha barpo etish bo‘yicha topshiriq berdi. Bu yerda zamonaviy shaharsozlikdagi barcha yangiliklarni joriy etish, namunaviy infratuzilma yaratish zarurligini ta’kidladi.

Ekologiya muzeyi zalida mahalliy aholi vakillari bilan bo‘lib o‘tgan muloqotda ana shu ulkan rejalar haqida so‘z bordi.

Davlatimiz rahbari Qanliko‘l tumanida barpo etilgan «Kanteks invest» to‘qimachilik korxonasi bilan tanishib, korxonaning ishlab chiqarish binosi, to‘qimachilik dastgohlarini ko‘zdan kechirdi, ta’sischilar bilan suhbatlashdi. Shu yerda Qoraqalpog‘iston Respublikasini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy loyihalar taqdimoti o‘tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev «Qo‘ng‘irot» ovul fuqarolar yig‘inidagi 23-oilaviy poliklinikada yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Prezidentimizga bu yerda mobil oftalmologik klinika

faoliyati haqida ham ma’lumot berildi.

Prezidentimiz Qo‘ng‘irot tumani-dagi «Wunderkinds in Kungirad» maktabgacha ta’lim muassasasida bo‘lib, xodimlar bilan muloqot qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog‘istonga tashrifining ikkinchi kuni Shimoli-G‘arbiy harbiy okrugga qarashli Nukus garnizonida bo‘ldi. Bu yerda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig‘ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosi bilan tanishdi, harbiylar bilan muloqot qildi, o‘quv korpuslarida turli mutaxassisliklar bo‘yicha o‘tkazilayotgan mashg‘ulotlar jaryonini kuzatdi.

Davlatimiz rahbari Nukus shahri-ning «Qumbuz ovul» mahalla fuqarolar yig‘inida barpo etilgan ko‘p qavatli uylar va ularning birinchi qavatida joylashgan nodavlat maktabgacha ta’lim muassasasi hamda oilaviy poliklinika bilan tanishdi. Prezidentimiz davlat-xususiy sheriklik asosida bunyod etilgan «Navshe» nodavlat maktabgacha ta’lim muassasasi sharoitlarini ko‘zdan kechirdi.

Prezidentimiz 8-oilaviy poliklinika shifokorlari bilan suhbatda tibbiyotga munosabat o‘zgarganini, soha vakillari patronaj xizmatini manzilli yo‘lga qo‘yishi kerakligini qayd etdi.

Davlatimiz rahbari shu yerda Abdambetov ko‘chasida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, «Nukus city» shaharchasi qurilishi loyihasi bilan tanishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Nukus shahrida Qoraqalpog'iston iqtisodiyotini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashi a'zolari, shahar va tumanlar hokimlari, sektorlar rahbarlari ishtirok etgan videosektor yig'ilishini shahar va tumanlarda keng jamoatchilik vakillari kuzatib bordi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Nukus xalqaro aeroportida nuroniyalar, ziyolilar, jamoatchilik vakillari bilan suhbatlashdi.

\* \* \*

**16-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Muloqotda o'zaro savdo hajmini oshirish, sanoat, energetika, transport va qishloq xo'jaligi sohalarida kooperatsiyani kengaytirish istiqbolari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**19-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kongressmen Trent Kelli boshchiligidagi AQSh Kongressi delegatsiyasini qabul qildi. Davlatimiz rahbari tarkibida AQSh Vakillar palatasi a'zolari Visente Gonsales, Ronald Estes, Rojer Marshall va Jennifer Gonsales Kolon ham bo'lgan delegatsiyani samimiy qutlar ekan, kongressmenlarni AQSh parlamentiga oraliq saylovning muvaffaqiyatli o'tgani bilan tabrikladi.

Uchrashuvda ikki tomonlama munosabatlarga doir, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**19-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Muloqot davomida davlat rahbarlari oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasidagi amaliy hamkorlik istiqbollarini, shuningdek, bo'lajak tadbirlar rejasini muhokama qildilar. Dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar, jumladan, 2019-yilda mamlakatimizda o'tkaziladigan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining ikkinchi maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ishlari xususida fikr almashildi.

\* \* \*

**20-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Issiqxona komplekslarini rivojlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizdagi «Tashkent City» xalqaro ishbiarmonlik markazi hududida barpo etilayotgan zamonaviy inshootlar qurilishi bilan tanishdi.

Prezidentimiz dastlab dunyoning yetakchi brendlaridan bo'lgan besh yulduzli «Hilton» mehmonxonasi qurilishini ko'zdan kechirdi.

Prezidentimizga 7-lotda amalga oshirilayotgan ishlar xususida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari «Gardens Residence» turar joy majmuasini ham borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari «Tashkent City» nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyodagi eng ulkan ishbilarmonlik va turar joy maskaniga aylanishi kerakligini ta'kidlab, uni zamonaviy shaharsozlik me'yorlari asosida qurish, bu yerda barpo etilayotgan turar joy majmualari va biznes ofislar haqida xaridorlarga ko'proq ma'lumot taqdim etish yuzasidan mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**20-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev neft-gaz sanoatidagi ishlarning holatini muhokama qilish va sohani yanada rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Unda «O'zbekneftgaz» aksiyadorlik jamiyati rahbariyatiga geologiya-qidiruv ishlari va qazib olish hajmini oshirish, konlarni modernizatsiya qilish va yangilarini ochish, neft-gaz xomashyosini chuqur qayta ishlash, investitsiyalarni ko'paytirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**21-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining o'rinbosari, BMTning Jeneva shahridagi bo'linmasi bosh direktori Maykl Myollerni qabul qildi.

Muloqot davomida O'zbekiston Respublikasi va Birlashgan Millat-

lar Tashkilotining ikki tomonlama hamkorligini rivojlantirish istiqbolari, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar muhokama qilindi. Orol ekologik fojiasi oqibatlarini, jumladan, Orolbo'yida ijtimoiy-iqtisodiy, gumanitar dastur va loyihalarni amalga oshirish orqali yumshatishda jahon hamjamiyati sa'y-harakatlarini birlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**21-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**22-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida bank tizimini isloh qilish va banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, hududlar va tadbirkorlikni rivojlantirishda tijorat banklari rolini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda muammoli kreditlar masalasi muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash maqsadida mikrokredit-

lar hajmini keskin oshirish, ularni ajratish tartibini soddalashtirish zarurligini ta'kidladi.

\* \* \*

**22-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi ishtirokchilariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**22-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish uchun to'lovlarni to'lash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Navoiy kon-metallurgiya kombinati va Navoiy shahri tashkil etilganining 60 yilligi munosabati bilan «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» davlat korxonasi jamoasi va Navoiy shahri ahliga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**22-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» davlat korxonasi va Navoiy shahrining 60 yilligi munosabati bilan ishlab chiqarish ilg'orlari va jamoatchilik faollaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kreditorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**24-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq joylarda va fuqarolarning ayrim toifalari uchun arzon uy-joylar qurishni kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**26-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olish faoliyatini amalga oshirish uchun shartsharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining sobiq Bosh kotibi, Yashil taraqqiyot global instituti assambleyasi va Xalqaro olimpiya qo'mitasining Etika bo'yicha komissiyasiga rahbarlik qilayotgan Pan Gi Munni qabul qildi.

Uchrashuvda Orol dengizi mintaqasida ustuvor loyihalarni amalga oshirishda xalqaro institutlar va tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi. Shuningdek, O'zbekiston Respub-

likasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish va strategik sheriklikni mustahkamlash yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**27-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining fuqaro aviatsiyasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**28-noyabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Chirchiq dala o'quv maydonida yuqori darajadagi jangovar shaylikka keltirilgan bo'linmalarining maxsus-taktik mashqlarini kuzatdi.

Prezidentimiz poligon yonidagi harbiy qismda yaratilgan sharoitlar, qurol-aslaha va texnikani ko'zdan kechirdi. Shu yerda harbiy-ma'muriy sektorlar, vazirlik va idoralar rahbarlari bilan yig'ilish o'tkazildi.

Shu kuni Qurolli Kuchlar akademiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha

Harakatlar strategiyasi asosida barcha masalalar qatori harbiy qurilish sohasida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidladi.

Yig'ilishda mamlakatimiz harbiy qudratini yanada mustahkamlash, mudofaa sanoati va harbiy ta'limni rivojlantirish, qurol-aslaha va harbiy texnikalarni modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shinlarni boshqarish tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilindi. Shavkat Mirziyoyev Xavfsizlik kengashi yig'ilishida yoshlarda harbiy-vatanparvarlik ruhini mustahkamlash masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Askarlar, harbiy xizmatchilar mamlakatimizning shonli tarixini, ona zaminimizda yashab o'tgan buyuk qahramonlar, sarkarda va qo'mondonlar hayoti va jasoratini chuqur bilishi, ular bilan g'ururlanishi lozimligini ta'kidladi.

\* \* \*

**29-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**29–30-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish maqsadida Xorazm viloyatida bo'ldi. Prezidentimiz viloyatga safarini Shovot tumanidan boshladi.

Davlatimiz rahbari bu yerda gi qo'shma korxonaga, uning qoshida tashkil etilgan logistika markazi, to'quv, qadoqlash sexlari, laboratoriya faoliyati bilan tanishdi, ishchilarga yaratilgan shart-sharoitlar bilan qiziqdi.

Shu yerda Xorazm viloyatida to'qimachilik sanoatini rivojlantirish, «Develop Textile» MChJ tomonidan «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonasi hududida yengil sanoat majmuasi tashkil etish, Shovot tumanida aralash va paxta ip-kalava ishlab chiqarish bo'yicha yangi yigiruv fabrikasi qurish, Urganch shahrida «Textile finance Khorezm» MChJ tomonidan tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish, Toshkent viloyati Parkent tumanida Zarkent sanatoriysini barpo etish loyihalari haqida ma'lumot berildi. «Katqal'a teks» qo'shma korxonasi hududida Xorazm viloyatini rivojlantirishga doir iqtisodiy loyihalar taqdimoti o'tkazildi. Malayziyaning «Serba Dinamik Group» kompaniyasi vitse-prezidenti Palendran Palachandran davlatimiz rahbariga «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonasi hududida kaustik soda ishlab chiqarish zavodi barpo etish investitsiya loyihasini taqdim etdi.

Shavkat Mirziyoyev Urganch — Xiva poyezdida Xiva shahriga keldi.

Shavkat Mirziyoyev Xiva temiryo'l vokzali bilan Ichan qal'a majmuasi o'rtasida barpo etilayotgan xiyobonni ko'zdan kechirdi. Prezidentimiz shu yerda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish, Xiva shahrining tarixiy qismini batafsil rejalashtirishga oid loyihalar bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev xorijlik ish-bilarmonlar bilan suhbatlashib, ularning investitsiya takliflari bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari «Khiva Silk Fabric» korxonasi amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar bilan tanishdi, ishlab chiqarilishi kutilayotgan yangi mahsulotlar namunalarini ko'zdan kechirdi. Shu yerda xitoylik hamkorlar bilan ipak urug'i ishlab chiqarish, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, bog'dorchilik, qovunning hosildor va eksportbop navlarini yaratish, asosiy va takroriy ekinda sholi yetishtirish, Xorazm sharoitida yerdan unumli foydalanish kabi qator istiqbolli loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezidentimiz Urganch shahridagi «Nihol» innovatsion maktabi faoliyati bilan tanishdi.

Prezidentimiz Urganch shahar markazida Muhammad Xorazmiy va Pahlavon Mahmud ko'chalari kesishmasida bunyod etiladigan Jaloliddin Manguberdi memorial bog'i loyihasi bilan tanishdi. Shu yerda Urganch shahri markazini batafsil rejalashtirish, ko'p qavatli uy-joylar qurish, issiqlik va ichimlik suvi ta'minotini yaxshilashga doir loyihalar bo'yicha ham ma'lumot berildi.

Urganch shahrida Xalq deputatlari Xorazm viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlad.

\* \* \*

**30-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-

kasida ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahrida Adju universitetini tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**30-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Alohida turdagi tovarlarni markirovkalashning zamonaviy usullarini joriy etishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublikada pillachilik tarmog'ini jadal rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**6-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar Davlat rahbarlari kengashining Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan norasmiy majlisida ishtirok etdi.

Uchrashuvda Hamdo'stlik davlatlarining savdo-iqtisodiy hamkorligini yanada rivojlantirish, o'zaro savdo hajmini oshirish, transport-kommunikatsiya salohiyatidan samarali foydalanish, shuningdek, xavfsizlikni mustahkamlash, zamonaviy xatar va tahdidlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish masalalariga e'tibor qaratildi. Guma-

нитар, ta'lim va turizm sohalarida almashuvlarni izchil davom ettirish zarurligi ta'kidlandi. Tomonlarni qiziqtirgan boshqa masalalar ham muhokama qilindi.

MDH norasmiy sammiti doirasida Prezidentimiz qator davlat rahbarlari bilan ikki tomonlama suhbatlar o'tkazdi. Ularda 2018-yilda samarali sheriklikning asosiy yakunlari va kelgusidagi hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari muhokama qilindi.

\* \* \*

**7-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**7-dekabr.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligi munosabati bilan «O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda davlat va jamoat arboblari, ishlab chiqarish, ilm-fan, madaniyat, san'at va sport namoyandalari, keng jamoatchilik, yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumanda so'zlagan ma'ruzasi «Bilimli avlod — buyuk kelajakning,

tadbirkor xalq — farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir» sarlavhasi bilan matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**8-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan soha rivojiga munosib hissa qo'shgan yurtdoshlarimizdan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**10-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**10-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev AQShning Afg'onistondagi yarashish masalalari bo'yicha maxsus vakili Zalmay Xalilzod va AQSh Prezidenti yordamchisining o'rinbosari, Milliy xavfsizlik kengashining Janubiy va Markaziy Osiyo bo'yicha katta direktori Liza Kyortisni qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan AQSh o'rtasidagi har tomonlama munosabatlarni yanada kengaytirishga doir, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko'rib chiqildi. Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga alohida e'tibor

qaratildi. Jumladan, Afg'onistonda tinchlik muzokaralari jarayonini boshlashda afg'on xalqining bosh va hal qiluvchi rolini nazarda tutgan butun xalqaro hamjamiyat sa'y-harakatlarini yanada uzviy muvofiqlashtirish, ushbu mamlakatga iqtisodiy ko'mak loyihalarini ilgari surishda amaliy yordam ko'rsatish zarurligi qayd etildi.

\* \* \*

**12-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat boshqaruvi va nazorati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**12-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya tizimlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.



\* \* \*

**12-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yoshlarni vatanparvarlik ruhida va jismoniy tarbiyalash hamda chaqiriluvchilarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**13-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 27 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoyishga imzo chekdi.

\* \* \*

**13–14-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish maqsadida Qashqadaryo viloyatida bo'ldi. Davlatimiz rahbari tashrifini G'uzor tumanida barpo etilayotgan «Uzbekistan GTL» zavodi bilan tanishishdan boshladi. Prezidentimiz majmua qurilishini ko'zdan kechirdi. Pudratchi va investorlar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz Yakkabog' tumanida «Sag agro Yakkabog'» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan barpo etilayotgan yong'oqzor va bodomzorlarni borib ko'rdi.

Shu yerning o'zida Qashqadaryo viloyati tumanlaridagi zaxira yer maydonlarida o'rmon xo'jaliklari tomonidan 2019–2020-yillarda pista, achchiq bodom, yong'oq va chakanda plantatsiyalarini tashkil etish hamda Qamashi davlat o'rmon xo'jaligida kurkachilikni rivojlantirish, mamlakatimizdagi o'rmon xo'jaliklari va fermer xo'jaliklarida pista plantatsiyalari barpo qilish, qorako'lchilik, uzumchilikni rivojlantirish, «Nasaf agro impeks» MChJ tomonidan Kitob tumanida zamonaviy intensiv bog' tashkil etish loyihalari taqdimoti o'tkazildi. Davlatimiz rahbariga viloyatda baliqchilik, parrandachilik, chorvachilik sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar haqida ham ma'lumot berildi.

Prezidentimiz Muborak tumanidagi mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi «Aziz agro trans fayz» zamonaviy issiqxonasi faoliyati bilan tanishdi va ishchilar bilan muloqot qildi. Shu yerda Qashqadaryo viloyatida 2019–2020-yillarda issiqxonalar tashkil etish, Chiroqchi tumanida lalmi maydonlarda poliz ekinlari yetishtirishni ko'paytirish, viloyatda aholi tomorqasidan foydalanishni yaxshilash kabi qator loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Prezidentimiz Qarshi shahridagi «Sulton tex group» korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Shu yerda Singapurning «Indorama» kompaniyasi tomonidan Qashqadaryo va Sirdaryo viloyatlarida paxta to'qimachilik klasterlari tashkil etish, mamlakatimizning Polsha, Eron, Buyuk Britaniyadagi elchixonalari tomonidan Qashqadaryo viloyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmat ko'rsatish sohalarida yirik loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan rejalar taqdimoti o'tkazildi.

Prezidentimiz Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya hamda Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining Qarshi filiallarida bemorlar uchun yaratilgan sharoitlar, tibbiy asbob-uskunalar, malakali kadrlar ta'minoti, zamonaviy davolash usullari bilan tanishdi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Qarshi shahrida Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz videoaloqa orqali tumanlardagi aholi vakillari bilan muloqot qilib, ularning taklif va istaklarini bajarish bo'yicha muta-saddilarga topshiriqlar berdi.

Shu kuni Shavkat Mirziyoyev Qarshi shahrida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov haykali poyiga gul qo'yib, uning xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Davlatimiz rahbari Qarshi shahrida bunyod etilayotgan «Vatanparvarlar» bog'ini borib ko'rdi.

Prezidentimiz bog'da yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi, ta'lim muassasalaridagi «Jasorat» guruhlari a'zolari bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari «Vatanparvarlar» bog'i yonida qad rostlagan yangi suv sporti majmuasi bilan tanishdi. Bu yerda shug'ullanayotgan yosh sportchilar bilan suhbatlashib, ularga kelgusi musobaqalarda omadlar tiladi.

\* \* \*

**14-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryo viloyatidan qaytishi bilanoq Toshkent xalqaro aeroportida mamlakatimizda tashrif bilan bo'lib turgan Xalqaro mehnat tashkiloti bosh direktori Gay Rayer bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda XMT bilan barcha masalalar, jumladan, yangi yo'nalishlar yuzasidan konstruktiv muloqotni davom ettirish va sheriklik munosabatlarini kengaytirishga ikki tomon ham tayyor ekani ta'kidlandi.

Uchrashuvda sheriklikni yanada kengaytirish muloqotni faollashtirish uchun mustahkam zamin yaratishiga, O'zbekistonda Bandlik milliy strategiyasini ishlab chiqishda XMT tajribasidan samarali foydalanishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

\* \* \*

**18-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda zamonaviy kadrlarga ehtiyojni ta'minlash, bilimli yoshlarni strategik sohalarga jalb etish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 25-sentabrdagi farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi huzurida Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha «El-yurt umidi» jang'armasi tashkil etilgan edi. Yig'ilishda shu yo'nalishdagi ishlarni to'g'ri tashkil etish masalalari ham muhokama qilindi.

\* \* \*

**18-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar tomonidan qo'shma aksilterror o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Bitimni (Dushanbe, 2008-yil 28-avgust) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**18-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi Shartnomani (Toshkent, 2018-yil 17-avgust) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**19-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respub-

likasining 2019-yilga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**20-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yangi qabul qilingan soliq siyosati konsepsiyasini amaliyotga to'liq tatbiq qilish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda qo'shimcha qiymat solig'ini yuritish borasidagi ishlarni to'g'ri tashkil etish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, yuridik shaxslarni zarur kompyuter dasturlari bilan ta'minlash, hisobchilar tayyorlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Soliq yig'uvchanligini oshirish masalasi ham muhokama qilindi. Soliq xodimlari ishi qoniqarli emasligi, joylarda soliq qarzi saqlanib qolayotgani ta'kidlandi. Tegishli tashkilotlarga soliq tushumini to'la ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**21-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligida ekin maydonlaridan samarali foydalanish mexanizmi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**21-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi. Prezidentimiz dastlab, Mirzo Ulug'bek tumanidagi «DMS» xususiy innovatsion klinikasiga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari innovatsion klinikadagi sharoitlarni ko'zdan kechirdi, shifokorlar bilan suhbatlashdi.

Shu yerda ko'z mikrojarrohligi bo'yicha innovatsion o'quv-simulyatsiya markazini tashkil etish loyihasi haqida ma'lumot berildi.

Shavkat Mirziyoyev «Steel property construction» MChJ qo'shma korxonasi hududidagi ishlab chiqarish quvvatlarini ko'zdan kechirdi. Yevropa texnologiyasi asosida temir eshiklar tayyorlashga ixtisoslashgan «Dacros», zamonaviy issiqxona majmualari uchun konstruksiyalar ish-

lab chiqaradigan «Midas agrotech», shuningdek, yo'l to'siqlari, yoritish ustunlari, qurilish konstruksiyalari tayyorlaydigan «Bektemir metall konstruksiyalari» korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Bektemir tumanidagi «Binokor» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar namoyish etildi. Shu yerda Toshkent shahri iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yangi korxonalar tashkil etishga doir loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Toshkent shahrida kommunal tarmoqlarni rivojlantirish, kanallarni ta'mirlash va tutash hududlarni obodonlashtirish, yo'l o'tkazgichlar qurilishi bo'yicha loyihalar namoyish etildi.

Sergeli tumanidagi Choshtepa mahallasi hududida 3 ming 696 xonadonli 66 ta ko'p qavatli uy qurilmoqda. Davlatimiz rahbari yangi uy-joylarni borib ko'rdi.

Prezidentimiz Islom sivilizatsiyasi markazining qurilish jarayoni bilan tanishdi.

Shu kuni Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Prezidentimiz Toshkent shahri- ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha muhim yo'nalishlarni ko'rsatib o'tdi. Toshkent shahri- ni yirik ishbilarmonlik va moliya markaziga aylantirish bo'yicha strategiya ishlab chiqish zarurligini ta'kidladi.

Ijtimoiy soha, qurilish va kommunal tarmoqlarini rivojlantirish, aholi va turistlar uchun qulayliklarni ko'paytirish bo'yicha ham istiqboldagi muhim vazifalar belgilandi.

\* \* \*

**22-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**24-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Soliq va budget siyosatining 2019-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**24-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining bayrog'i va emblemasi namunalari tasdiqlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-dekabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati binosida mamlakatimiz xavfsizligini mustahkamlash va milliy manfaatlarimizni himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan cho-

ra-tadbirlar natijadorligiga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda tizimda amalga oshirilgan islohotlar natijalari va galdagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Davlat xavfsizlik xizmatining boshqa davlat organlari va idoralari bilan tashqi va ichki tahdidlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorligini mustahkamlashga doir dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining yangi hududi va yangi binosi, uning faoliyati, moddiy-texnik imkoniyatlari bilan tanishdi, xodimlar bilan muloqotda bo'ldi. Shu yerda tahdidlarning oldini olish va bartaraf etish, davlat xavfsizligini ta'minlash jarayonida qo'llaniladigan maxsus texnika va qurol-aslaha namoyish etildi.

\* \* \*

**26-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi geologiya sohasi xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasini (Bryussel, 1953-yil 19-oktabr) ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fonogramma tayyor-

lovchilarning manfaatlarini ularning fonogrammalari noqonuniy takrorlanishidan muhofaza qilish to'g'risidagi Konvensiyaga (Jeneva, 1971-yil 29-oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga budjet mo'ljallari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**27-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Paxta xomashyosini yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyalaridan keng foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-dekabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Turkmaniston

Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an bilan telefon orqali muloqot qildi. Davlat rahbarlari kirib kelayotgan Yangi yil munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutlab, ezgu tilaklar bildirdilar. O'zaro hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi, 2018-yilda oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish va amaliy hamkorlikni kengaytirish yakunlari sarhisob qilindi, ko'pqirrali sheriklikni mustahkamlashning istiqbolli yo'nalishlari va aniq loyihalari ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**28-dekabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomani taqdim etdi. Toshkent shahridagi Simpoziumlar saroyida bo'lib o'tgan anjumanda Oliy Majlis Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar rahbarlari, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillari, nodavlat tashkilotlar faollari ishtirok etdi.

Anjumanni videokonferensiya aloqa tizimi orqali viloyat, tuman va shaharlardagi mahalliy kengashlar deputatlari, barcha bo'g'indagi ijro hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlari rahbarlari, shuningdek, mamlakatimizning chet ellardagi elchilari kuzatib bordi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev taklifiga muvofiq, 2019-yil mamla-

katimizda «**Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili**» deb e'lon qilindi. Murojaatnoma matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**28-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi. Davlat rahbarlari kirib kelayotgan Yangi yil munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutlab, ezgu tilaklar bildirdilar. Ko'p qirrali sheriklikni mustahkamlashning istiqbolli yo'nalishlari va aniq loyihalari, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko'rib chiqildi. O'zbekiston – Tojikiston munosabatlari rivoji g'oyat jadal sur'at kasb etgani hamda strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgani alohida qayd etildi.

\* \* \*

**28-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov bilan telefon orqali muloqot qildi. Davlat rahbarlari kirib kelayotgan Yangi yil munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutlab, ezgu tilaklar bildirdilar. Prezidentlar o'zaro manfaatli hamkorlikning bugungi holati va istiqbollarini muhokama qildilar hamda mintaqaviy va xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashdilar. So'nggi bir yilda O'zbekiston – Qirg'iziston munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilib, aniq amaliy mazmun bilan boyigani qayd etildi.

\* \* \*

**31-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqini Yangi yil bilan tabrikladi.

# 2019-yil

**3-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jizzax viloyatini kompleks rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish va boshqarishning samarali modelini ishlab chiqish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 1-yanvardan boshlab Shanxay hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi lavozimini bajarishga kirishgan Vladimir Norovni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston Respublikasi vakilining shunday yuqori va mas‘uliyatli lavozimga — ShHT Bosh kotibligiga tasdiqlanishi tarixiy voqea ekanini alohida ta’kidladi. Birinchi marta O‘zbekiston fuqarosi xalqaro tashkilotning rahbari etib tayinlandi.

Uchrashuvda O‘zbekiston Prezidenti ochiq va konstruktiv muloqot uchun samarali maydon, ko‘p qirrali hamkorlikning ta’sirchan mexanizmi, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikning muhim omiliga aylangan Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyatiga yuqori baho berdi. ShHTning asosiy hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilganidek, mamlakatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligi va davlat chegaralari daxlsizligini o‘zaro hurmat qilish, ichki ishlar-

ga aralashmaslik, tenglik, o‘zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish kabi tamoyillar bu borada asosiy o‘rin tutishi qayd etildi.

\* \* \*

**4-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha «El-yurt umidi» jamg‘armasining dasturlari bo‘yicha kadrlarni o‘qitishni tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Elektrotexnika sanoatining eksport salohiyatini yanada rivojlantirish va oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**5-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.



\* \* \*

**6-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**8-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ba‘zi davlat organlarining faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**8-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jaddallashtirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan hududiy loyihalarni amalga oshirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi.

Videoselektor yig‘ilishida yana bir muhim vazifa — xorijiy investorlar loyihasini davlat tomonidan

qo‘llab-quvvatlash masalasi muhokama qilindi. Xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, xorijiy investorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish zarurligi belgilandi.

Shuningdek, uzoq muddatli, past foizli to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy kredit resurslarini jalb qilish ishlarini kuchaytirish lozimligi uqitirib o‘tildi.

\* \* \*

**9-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sudlarda davlat bojini undirish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**9-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jamoat tartibini ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**10-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 7-ichki ishlar bo‘limiga tashrif buyurdi.

Prezidentimiz poytaxt ichki ishlar organlarini aholiga yanada

yaqinlashtirish maqsadida tashkiliy shtat tuzilmasini maqbullashtirish loyihasi bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari ichki ishlar bo'limidagi yangi mutaxassislar — psixolog, voyaga yetmaganlar va xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha profilaktika inspektorlari bilan suhbatlashdi.

Shavkat Mirziyoyev mazkur ichki ishlar bo'limidagi pasport xizmati xonasida bo'lib, biometrik pasportlarni rasmiylashtirish jarayonini kuzatdi. Jahon standartlari asosida tashkil etilgan tergov xonasini ko'zdan kechirdi.

\* \* \*

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimiz tinchligi va jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish borasidagi kelgusi vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda jinoyatchilikni jilovlashni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish zarurligi ta'kidlandi. Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilishda kadrlar masalasi ham ko'rildi. O'z xizmat vazifasini bajarishda kamchiliklarga yo'l qo'ygan ko'plab rahbarlar qat'iy ogohlantirildi, ayrimlari egallab turgan lavozimidan ozod etildi.

\* \* \*

**10-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**11-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi islohotlar, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishish maqsadida Samarqand viloyatiga tashrif buyurdi. Prezidentimiz dastlab Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qildi.

Shavkat Mirziyoyev Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi yonida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi binosi va unda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev Hadis ilmi maktabi bilan ham tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev Samarqand tumanidagi Qorasuv massivida qurilayotgan zamonaviy uy-joylarni borib ko'rdi. Jasur Tursunqulov va Jamshid Kattaqulovlar oilalari ko'chib o'tgan xonadonlarni kirib ko'rdi, uy sohiblari bilan suhbatlashdi. Shu yerda Qorasuv massivida 2019-yilda foydalanishga topshiriladigan uylar, jumladan, «Agromir buildings» kompaniyasi tomonidan Turkiyaning zamonaviy texnologiyasi asosida monolit usulida barpo etilayotgan 16 qavatli turar joylar, kommunal soha infratuzilma obyektlarining loyiha ko'rinishidagi taqdimotlari o'tkazildi.

Samarqand viloyatiga birlashtirilgan O'zbekiston Respublikasining Turkiya, Xitoy va Ispaniya davlatlaridagi elchixonalari hamda Afina shahridagi Bosh konsulligi ko'magida amalga oshiriladigan loyihalar, viloyatda intensiv bog'lar, paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etish, suv tejaydigan texnologiyalar, parrandachilikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlari taqdimotlari ham bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Samarqand shahrining Universitet xiyobonida qurilayotgan Konfutsiy maydonida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Prezidentimiz bu yerda xalqaro ta'lim dasturlari markazi loyihasi bilan tanishib, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi. Shu yerda Samarqandda turizmni rivojlantirish, kongress-holl va mehmonxonalar qurishga oid loyihalar namoyish etildi.

Shu kuni Samarqand shahrida Xalq deputatlari viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlad.

\* \* \*

**11-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Vatan himoyachilari kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 27 yilligi munosabati bilan huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va harbiy xizmatchilardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-yanvar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 27 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan askar va serjantlar, ofitser va generallar, Qurolli Kuchlarimizning faxriylari, barcha yurtdoshlarimizga bayram tabrigi yo'lladi.

\* \* \*

**14-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**14-yanvar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga muvofiq, Vatan himoyachilari kuni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 27 yilligi munosabati bilan bir guruh harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qi-

lish organlari xodimlariga harbiy unvonlar, orden va medallarni topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev yig'ilganlarni Vatan himoyachilari kuni bilan tabrikladi.

Prezidentimiz bir guruh harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga unvonlar, orden va medallarni tantanali ravishda topshirdi.

\* \* \*

**14-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Andijon-farm» erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Iqtisodiy jinoyatlarga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**16-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yog'-moy tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar va sohani boshqarishda bozor mexanizmlarini joriy etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**17-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavini tasdiqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**17-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**17–18-yanvar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modining taklifiga binoan ushbu mamlakatda amaliy tashrif bilan bo'lib, «Jo'shqin Gujarat–2019» IX xalqaro investitsiya sammitida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari 18-yanvar kuni Gandinagar shahrida «Jo'shqin Gujarat – 2019» xalqaro sammiti doirasida Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi bilan uchrashdi.

Uchrashuv so'ngida Hindistonga uran yetkazib berish bo'yicha imzolandi.

gan uzoq muddatli kelishuvni o'zaro almashish marosimi bo'lib o'tdi.

Gandinagar shahridagi «Mahatma Mandir» ko'rgazmalar majmuasida «Jo'shqin Gujarat—2019» IX xalqaro investitsiya sammiti bo'lib o'tdi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, shuningdek, Avstraliya, Kanada, Fransiya, Yaponiya, Norvegiya, Niderlandiya, Polsha, Koreya Respublikasi, Daniya, Chexiya, Malta, Tailand, Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlardan davlat va hukumat rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar boshliqlari, ekspertlar ishtirok etdi. Anjumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

\* \* \*

**20–22-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Germaniya Federativ Respublikasi Federal kansleri Angela Merkelning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan mazkur mamlakatga bordi.

21-yanvar kuni Berlin shahridagi Belvyu saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer kutib oldi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasidagi siyosiy muloqotni yanada mustahkamlash, o'zaro manfaatli sohalaridagi aloqalarni ikki va ko'p tomonlama asosda rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Ger-

maniya Federal kansleri Angela Merkelning muzokaralari oldidan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun brifing o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan Germaniya Federal kansleri Angela Merkelning uchrashuvida asosiy e'tibor savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni rivojlantirish masalalariga qaratildi.

Tashrif doirasida iqtisodiyot, savdo, moliya, ta'lim, ilm-fan va innovatsiya sohalariga oid hukumatlararo va idoralararo 9 ta hujjat imzolandi. Tomonlar mamlakatlari-miz va xalqlarimiz manfaati yo'lida o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga intilishini bildirdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Germaniya Federativ Respublikasi Bundestagi Raisi Wolfgang Shoyble bilan ham uchrashdi.

Muloqotda qonun ustuvorligini ta'minlash, parlament nazorati, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha tajriba almashish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Bundestag binosini ko'zdan kechirdi. Mamlakatimiz delegatsiyasiga Bundestag tarixi va faoliyati haqida so'zlab berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev shu kunning o'zida Myunxen shahriga tashrif buyurdi. O'zbekiston delegatsiyasi uchun ajratilgan qarorgoh yonida Bavariyada o'qiyotgan, ishlayotgan o'zbekistonlik yoshlar bilan muloqot bo'lib o'tdi.

Tashrifning ikkinchi kuni O'zbekiston Prezidenti Myunxen shah-

rida Bavariya federal o'lkasi Bosh vaziri Markus Zyoder bilan uchrashdi. Davlatimiz rahbari faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozdi. Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollarga oid masalalar muhokama qilindi.

\* \* \*

**24-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**24-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yilda Toshkent shahrida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalariga oid ma'lumotlar bilan tanishdi.

Taqdimotda shahar iqtisodiyotiga 2 milliard 700 million dollar miqdorida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etish evaziga amalga oshirish belgilangan 273 ta loyihalarining sohalari va joylari, mablag'larni o'zlashtirish muddatlari tahlil qilindi.

Prezidentimiz loyihalarining iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratdi. Xorijiy investorlarga ko'maklashish, loyihalarining belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Toshkent shahrida zamonaviy uy-joylar, mehmonxonalar, ta'lim va tibbiyot muassasalari hamda boshqa inshootlar barpo etish, issiqlik ta'minoti tizimini rivojlantirish, kommunal xizmatlar boshqaruv markazini tashkil etish loyihalari yuzasidan ham tegishli ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik vazifalari amalga oshirilishi samaradorligi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mas'uliyatini oshirishga doir birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Hukumati ishini tashkil etishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**29-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev valyuta siyosati va tashqi

savdo faoliyati sohasini takomillash-tirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahlili-ga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda valyuta zaxiralarimizdan oqi-lona foydalanish, ularni boshqarish-ning aniq strategiyasini ishlab chi-qish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Shuningdek, oltin-valyuta zaxiralari tarkibini optimallashtirish, valutalar-ni saqlashda xalqaro tajriba asosida qimmatli qog'ozlar, jumladan, yuqori likvidli obligatsiyalardan foydalanish zarurligi ta'kidlandi. Vazirlar Mah-kamasi, Markaziy bank, Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga har bir xo'jalik birlashmasi kesimida eks-port bo'yicha muddati o'tgan debi-tor qarzdorlikni kamaytirish yuza-sidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqib, ijrosini ta'minlash vazifasi yuklatildi.

\* \* \*

**30-yanvar.** Mamlakatimizda O'z-bekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tavalludi kuni munosabati bilan xotira tad-birlari o'tkazildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahridagi Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasiga tashrif buyurib, Bi-rinchi Prezidentimiz haykali poyiga gulchambar qo'ydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev shu kuni Samarqand shahriga ham tashrif buyurib, ushbu maqbarani ziyorat qildi. Shundan so'ng Samar-qand shahridagi Forumlar majmuasida ehson oshi berildi. Unda dav-lat va jamoat tashkilotlari vakil-lari, nuroniylar, ziyolilar, yoshlar ishtirok etdi.

\* \* \*

**30-31-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtiso-diy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishla-ri, yirik loyihalar bilan tanishish maqsadida Jizzax viloyatiga keldi. Shavkat Mirziyoyev dastlab Forish tumanida atom elektr stansiyasini qurish uchun muhandislik tadqiqot-lari olib borilayotgan maydonlardan birini ko'zdan kechirdi. Prezidenti-miz tadqiqot ishlarining borishi bi-lan qiziqdi, «O'zatom» agentligi va «Rosatom» korporatsiyasi rahbarlari bilan suhbatlashdi.

Shu yerda Jizzax viloyatining mineral xomashyo bazasini kengay-tirish, Forish tumanini ijtimoiy-iq-tisodiy rivojlantirish, turizm salo-hiyati va lalmi yerlardan samarali foydalanishga qaratilgan loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari jizzaxlik nu-roniylar bilan muloqot qildi. Suh-batda mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy o'zgartirish, aholi turmush darajasini yuksaltirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z bordi.

Prezidentimiz tumandagi bazalt toshini qayta ishlab, bazalt tola-si va armaturasi ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan «Mega Invest In-dustrial» qo'shma korxonasi faoli-yati bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev kunning ik-kinchi yarmida Mirzacho'l tumaniga keldi va G'alaba mahallasida «Obod qishloq» dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlarni ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz hududdagi «Mir-zacho'l tikuvchilik majmuasi»

mas'uliyati cheklangan jamiyatida, G'alaba mahallasi Barokat ko'chasida yashovchi Maqsud Misirov xonadonida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari Mirzacho'l tumanidagi O'zbek-qozoq milliy madaniy markazi faoliyati bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev tumandagi «Binafsha» davlat maktabgacha ta'lim muassasasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, farzandlarimizga yaxshi tarbiya berish doimiy e'tiborimizda bo'ladi. Bog'chaga borgan bolaning sog'lig'i mustahkam, dunyoqarashi keng, o'ziga ishonchi yuqori bo'ladi, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari tumandagi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikani ko'zdan kechirar ekan, aholini kasalliklar profilaktikasi bilan to'liq qamrab olish, odamlar boshqa joyga davo izlab borib ovora bo'lmasligi kerakligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari yangi qurilgan Mirzacho'l tumani Davlat xizmatlari markazida bo'ldi.

Prezidentimiz «Mirzacho'l teks» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishib, korxonada faoliyatiga doir zarur ko'rsatmalar berdi.

Shu yerning o'zida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish loyihalari taqdimoti bo'lib o'tdi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Jizzax shahrida viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash masalalariga bag'ishlangan videose-

lektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda viloyat faollari, deputatlar, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, tuman va shaharlar hokimlari, keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Faollar yig'ilishidan so'ng Prezidentimiz viloyat markazidagi Mirzo Ulug'bek mahallasida bo'lib, shaharda qurilishi rejalashtirilayotgan uy-joylar, ijtimoiy obyektlar, obodonlashtirish loyihalari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbariga viloyat aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, shahar oqova suv tizimi tarmog'ini rivojlantirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berdi.

So'ng Jizzax shahridagi 3-ichki ishlar bo'limida ham bo'lib, bu yerda o'tgan yili berilgan topshiriqlar ijrosi bilan tanishdi.

\* \* \*

**1-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bankrotlik taomillarini yanada soddalashtirish va sud boshqaruvchilari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**1-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.



\* \* \*

**1-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**1-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**2-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Germaniya, Fransiya, Hindiston va Birlashgan Arab Amirliklari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish, jumladan, qabul qilingan «yo'l xaritalari» ijrosini so'zsiz ta'minlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb etish orqali biznesni rivojlantirish, ish o'rinlari yaratish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilayotgani, lekin bu hali yetarli emasligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbarining xorijiy mamlakatlarga tashriflari davomida o'zaro hamkorlik va sheriklik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilgani, jumladan, O'zbekiston bilan Germaniya, Fransiya, Hindiston va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasida umumiy qiymati 14 milliard AQSh dollaridan ortiq bo'lgan manfaatli shartnoma va kelishuvlar imzolangani qayd etildi. Shavkat Mirziyoyev xalqimiz farovonligiga xizmat qiluvchi istiqbolli loyihalarni o'z vaqtida va to'liq bajarish zarurligini ta'kidladi.

«Yo'l xaritalari»dagi har bir loyiha sifatli va o'z muddatida bajarilishiga erishish, muammoli loyihalar bo'yicha yangi hamkorlarni izlab topishga asosiy e'tibor qaratish zarurligi qayd etildi.

\* \* \*

**5-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida 2022-yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Alkogol va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning aylanmasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish hamda uzumchilik va vinochilikni rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**5-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jahon banki va xalqaro moliya korporatsiyasining «Biznes yuritish» yillik hisobotida

O‘zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**6-fevral.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda eksport hajmini oshirish borasidagi eng muhim vazifalarga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda eksportni ko‘paytirishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, bu boradagi ishlarni jonlantirish masalalari muhokama qilindi.

Yig‘ilishda yana bir dolzarb vazifa — xizmatlar eksportini kengaytirish, ayniqsa, turizmni rivojlantirish istiqbollari haqida ham so‘z yuritildi. Makroiqtisodiy barqarorlik ko‘p jihatdan importni tartibga solishga ham bog‘liq ekani ta‘kidlanib, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, importning tarif va notarif boshqaruv siyosatini takomillashtirish masalalariga e‘tibor qaratildi.

Muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddi rahbarlarning hisoboti eshitildi.

\* \* \*

**7-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Huquqbuzarliklar profi-

laktikasi va jamoat xavfsizligini ta‘minlash sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Intellectual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**11-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yetim bolalar va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**13-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2019—2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya yordami ko‘rsatish tizimini takomillashtirish

chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**15-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini yanada kompleks rivojlantirish choralari haqida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Butunjahon intellektual mulk tashkilotining ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasiga (Jeneva, 1996-yil 20-dekabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**16-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Butunjahon intellektual mulk tashkilotining mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasiga (Jeneva, 1996-yil 20-dekabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**16-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Urug'chilik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**18-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**19-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni, bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Sirdaryo viloyatiga tashrif buyurdi va dastlab Sirdaryo tumanidagi «Sirdaryo universal oyna» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi. Shu yerda «Sirdaryo universal oyna» korxonasi tomonidan klaster usulida amalga oshirilayotgan loyihalar haqida ma'lumot berildi.

Shu yerning o'zida viloyatda investitsiya mablag'lari asosida farmatsevtika, to'qimachilik, elektrotexnika mahsulotlari va qurilish materiallari ishlab chiqarish, Farhod GESni modernizatsiya qilish, Sardoba suv ombori qoshida kichik GES qurish loyihalari, «Sirdaryo golden fruits» MChJ tomonidan tumanda tashkil etilgan ko'p tarmoqli logistika markazi taqdimotlari o'tkazildi. Mamlakatimizning Xitoy, Italiya va Qozog'iston davlatlaridagi elchilari viloyatga to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jalb etish, hududlararo hamkorlikni kengaytirish va eksport hajmini yuksaltirish bo'yicha amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar haqida ma'lumot berdi.

Prezidentimiz Xovos tumaniga tashrif buyurib, avvalo Xovos sha-

harchasining bosh rejasi bilan tanishdi. So'ng bu yerda xovoslik nuroniylar, mahalla faollari va yoshlar bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari tumandagi «Gran ruta De La Seda» korxonasi tomonidan zamonaviy usulda tashkil etilgan gidroponika issiqxona majmuasini ko'zdan kechirdi.

Shavkat Mirziyoyev Yangiyer shahrida tashkil etilishi rejalashtirilgan ammiak va karbamid zavodi qurilishi maydonida bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev Mirzaobod tumanidagi «Bek klaster» mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo'shma korxonasi tomonidan tashkil etilgan paxtani qayta ishlash zavodi faoliyati bilan tanishdi. Bu yerda mehnat qilayotgan xodimlar bilan muloqot qildi.

Sirdaryo viloyatida qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshiriladigan loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Prezidentimiz Guliston shahri-ning «Buyuk kelajak» mavzesida qurilgan uylar, yangi qurilish jaryoni bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari viloyatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ma'naviyat va ma'rifat, sport sohasida amalga oshiriladigan loyihalar bilan ham tanishdi.

Guliston shahrida Sirdaryo viloyati va tumanlar hokimlari, faollar, vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Sirdaryo viloyatining sanoat va xizmat ko'rsatish salohiyatidan to'liq foydalanilmayotgani, qishloq tumanlarda yangi sanoat korxonalari barpo etish kerakligini qayd etdi.

Yig'ilishda ma'naviyat, madaniyat, ta'lim-tarbiya masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari keyingi yillarda an'anaga aylangan xayrli ishlarini davom ettirgan holda, Guliston shahrida O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi tashkil etish taklifini ilgari surdi. Yig'ilganlar bu tashabbusni qizg'in qo'llab-quvvatladi.

\* \* \*

**20-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Obod qishloq» dasturini 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Prezident maktablari-ning tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**20-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bosh shtablari boshliqlarining konferensiyasida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan AQSh Qurolli Kuchlari Markaziy qo'mondonligi qo'mondoni general Jozef Votelni qabul qildi.

Prezidentimiz AQSh Qurolli Kuchlari Markaziy qo'mondonligi tomonidan tashkil etilayotgan Marka-

ziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari bosh shtablari boshliqlarining konferensiyasi ilk bor mamlakatimiz poytaxtida o'tkazilayotgani hamda bugungi davrning eng o'tkir muammolaridan biri — Afg'onistondagi qurolli mojaroni muhokama qilish va uni hal etishga yondashuvlarni birgalikda ishlab chiqish uchun maydon ekanini ta'kidladi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan AQSh o'rtasidagi harbiy va harbiy-texnik hamkorlik hamda xavfsizlik sohasidagi sheriklik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**20-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev elektr energetikasi tarmog'ida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va sohani rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari sohada investitsiya loyihalarini sifatli amalga oshirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha topshiriqlar berdi. Energetika vazirligi va «O'zbekenergo» aksiyadorlik jamiyatiga xalqaro moliya tashkilotlari mablag'larini to'liq o'zlashtirish, loyihalarni o'z vaqtida bajarib, mablag'larni iqtisod qilish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Prezidentimiz sohadagi muhim yo'nalishlarni belgilab berdi.

\* \* \*

**21-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev neft-gaz va kimyo sanoatida olib borilayotgan islohotlar natijadorligini tahlil qilish, ushbu tarmoqlarni tizimli rivojlantirish

masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Prezidentimiz mazkur soha bo'yicha 2019-yilgi Investitsiya dasturiga kiritilgan 26 ta loyihaning o'z muddatida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash zarurligini ta'kidladi.

Yig'ilishda tizimda to'planib qolgan debitor qarzdorlikni kamaytirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Neft-gaz sohasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kimyo tarmog'idagi ishlar ham tahlil qilindi.

\* \* \*

**22-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijadorligi tahlili hamda navbatdagi muhim vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda soliq yukini kamaytirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish haqida so'z yuritildi, iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim masalalari muhokama qilindi.

Yig'ilishda soliq idoralari ayrim xodimlarining malakasi, kasb mas'uliyati talab darajasida emasligi, oqibatda jiddiy xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilayotgani qayd etildi. Yangi soliq tizimini joriy etishda sustkashlikka yo'l qo'ygan ayrim viloyat hokimlarining birinchi o'rinbosarlari, tuman hokimlari va ularning o'rinbosarlariga intizomiy choralar ko'rildi. Soliq xodimlari malakasini oshirish, soliq to'lovchilarga hisobotlarni shakllantirish va hisob-fakturalarni to'ldirish

tartibini o'rgatish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**22-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatni o'tash tartibini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**25-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim bo'lgan g'alla parvarishini tizimli tashkil etish va hosilga hosil qo'shish bo'yicha dolzarb vazifalarga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda g'alla rivoji holati har bir hudud misolida tanqidiy tahlil qilinib, yo'l qo'yilgan kamchiliklar ko'rsatib o'tildi.

Videsektor yig'ilishida kamchiliklarni bartaraf etish, hosildorlikni oshirish, qo'shimcha don ishlab chiqarish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Prezidentimiz paxtachilikda o'zini oqlayotgan tajribadan kelib chiqib, g'allachilik bo'yicha ham klasterlar tashkil etish zarurligini ta'kidladi. Mutasaddi rahbarlar va viloyatlar hokimlariga bu borada tegishli topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston—AQSh siyosiy maslahatlashuvlarining navbatdagi davrasida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan AQSh Davlat kotibining Janubiy va Markaziy Osiyo masalalari bo'yicha yordamchisi vazifasini bajaruvchi Elis Uellsni qabul qildi.

Amerikalik diplomat O'zbekiston poytaxtida siyosiy maslahatlashuvlarning yettinchi davrasi muvaffaqiyatli o'tkazilganidan mamnunligini bildirdi. Mehmon O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va davlat boshqaruvini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni yuksak baholadi. AQShning mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali sheriklikni yanada mustahkamlash va kengaytirish borasidagi intilishi qat'iy ekani ta'kidlandi.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi. Davlat rahbarlarining qat'iy siyosiy irodasi va sa'y-harakatlari tufayli O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida strategik sheriklik va o'zaro manfaatli hamkorlik mu-

nosabatlari jadal rivojlanib, izchil mustahkamlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Muloqotda davlat rahbarlari qar-dosh xalqlarimiz va mamlakatlari-miz farovonligi yo'lida O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasida do'st-lik, yaxshi qo'shnichilik va strate-gik sheriklik munosabatlarini yana-da mustahkamlash borasidagi inti-lishlari qat'iy ekanini yana bir bor tasdiqladilar.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi do'stlik, strategik sheriklik va o'zaro man-faatli hamkorlik munosabatlari to-bora mustahkamlanib borayotganini alohida mamnuniyat bilan qayd et-dilar. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, in-vestitsiyaviy, moliyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda oliy darajada erishilgan kelishuvlarni to'liq amalga oshirish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy-iqtisodiy rivoj-lanishdan ortda qolayotgan hudud-lar masalalariga bag'ishlangan yig'i-lish o'tkazdi. Unda bozor talablari asosida mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solish, hududlar va tarmoq-larni jadal rivojlantirish choralarini ko'rish masalalari muhokama qil-indi.

Davlatimiz rahbari yalpi ich-ki mahsulotda sanoatning ulushini

oshirishga qaratilgan aksariyat lo-yihalar infratuzilma qulay bo'lgan tumanlarga joylashtirilib, boshqa hududlar e'tibordan chetda qolmas-ligi lozimligini ta'kidladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdan ortda qolayotgan tumanlarda koope-ratsiya asosida kichik sanoat zonala-ri tashkil etib, ularda to'qimachilik, ko'nychilik, meva-sabzavot mahsulot-larini qayta ishlash va saqlash bo'y-icha loyihalarni joylashtirish zarurli-gi ta'kidlandi. Mazkur tumanlarda ishlab chiqarish va transport infra-tuzilmalarini rivojlantirishga qara-tilgan dastur qabul qilish zarurligi uqtirib o'tildi.

Yig'ilishda ushbu vazifalarni amal-ga oshirish bo'yicha tashkiliy ishlar ham belgilab berildi.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sharq taronalari» xal-qaro musiqa festivalini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «II xalqaro maqom san'a-ti anjumanini o'tkazishga tayyor-garlik ko'rish chora-tadbirlari to'g'ri-sida»gi farmoyishni imzoladi.

\* \* \*

**27-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Jahon bankining Yev-ropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha vitse-prezidenti Siril Myul-ler boshchiligidagi delegatsiyani qa-bul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Jahon banki guruhlarini o'rtasidagi

ko'p qirrali sheriklikni yanada mustahkamlash masalalari atroflicha ko'rib chiqildi. Mehmon O'zbekistonning qimmatli qog'ozlari jahon fond bozorlarida muvaffaqiyatli joylashtirilgani, suveren reytinglari olingani va xalqaro reytingi oshgani mamlakatimizda yangi bosqichda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning xalqaro e'tirofi ekanini alohida ta'kidladi. Jahon banki O'zbekiston va butun mintaqaning barqaror taraqqiyotiga ko'maklashish maqsadida mamlakatimiz bilan o'zaro manfaatli sheriklikni yanada mustahkamlashga tayyor ekani yana bir bor tasdiqlandi.

\* \* \*

**28-fevral — 1-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Namangan viloyatiga tashrif buyurdi. Prezidentimiz ushbu viloyatga bu galgi tashrifini To'raqo'rg'on issiqlik elektr stansiyasi qurilishi bilan tanishishdan boshladi.

Prezident To'raqo'rg'on tumani dehqon bozori yonida xalq ichiga kirib, odamlar bilan samimiy muloqot qildi.

Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish yo'lidagi islohotlar xalq bilan bamaslahat davom ettirilishini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari To'raqo'rg'on tumanidagi miloddan avvalgi III asrda asos solingan, Buyuk ipak

yo'lining asosiy shaharlaridan biri bo'lgan Axsikent arxeologik yodgorlik majmuasini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari To'raqo'rg'on tumanidagi «FT textile group» mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi qo'shma korxonada faoliyati bilan tanishdi, ishchilar bilan muloqot qildi. Shu yerda Namangan viloyatida O'zbekistonning xorijiy mamlakatlardagi elchixonalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan investitsion loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari Namangan tumanidagi parrandachilikka ixtisoslashgan «Golden egg of Namangan» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev Namangan shahridagi «Art Soft TexGroup» korxonasiga tashrif buyurdi. Shu yerning o'zida viloyatda parrandachilik, baliqchilik, chorvachilik, asalarichilik, quyonchilik, intensiv bog'dorchilikni rivojlantirish, irrigatsiya va meliorativ tadbirlarni amalga oshirish, zaxiradagi yerlarni foydalanishga kiritish loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev Chortoq tumanida barpo etilayotgan «Chortoq resorts» sanatoriy-sog'lomlashtirish markazi bilan tanishdi. Prezidentimiz markazda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Shu yerda Chortoqni ekologik shaharga aylantirish, Jahon banki bilan hamkorlikda o'rta shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi doirasida Chortoq shahri markazini qayta qurish, Namangan aeroportini kengaytirish va shaharlararo



avtobuslar qatnovini tartibga solish, «Har bir oila— tadbirkor» dasturi asosida aholi bandligini ta'minlash kabi loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Prezidentimiz Namangan shahridagi «Best Market» supermarketiga tashrif buyurib, mahsulotlar narxi va sifati bilan qiziqdi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Namangan shahrida viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Davlatimiz rahbari viloyatda o'tgan yili amalga oshirilgan ishlar haqida to'xtaldi, barcha sohada erishilgan natijalar tahlil qilinib, yangi vazifalar belgilab berildi.

Mamlakatimiz rahbari Namangan shahridagi «Anamed» xususiy diagnostika markazi faoliyati bilan tanishdi.

Prezidentimiz Namangan shahri markazida barpo etilayotgan «Afsonalar vodiysi» madaniyat va istirohat bog'ida olib borilayotgan qurilish ishlarini ko'rib chiqdi.

Davlatimiz rahbari Namangan shahridagi Yuksalish mahallasida barpo etilayotgan ko'p qavatli uylar va hududni rivojlantirish loyihalari bilan tanishdi.

\* \* \*

**2-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ishtirokchi davlatlari-

ning Parlamentlararo Assambleyasi to'g'risidagi Konvensiyani (Minsk, 1995-yil 26-may) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtasida O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi harbiy havo kemalarining O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi havo hududidan foydalanish to'g'risidagi Bitimni (Toshkent, 2018-yil 12-oktabr) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro mehnat tashkilotining xalqaro mehnat normalari qo'llanilishiga ko'maklashish uchun uch tomonlama maslahatlashuvlar to'g'risidagi 144-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 1976-yil 21-iyun) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yer to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**5-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas'uliyati kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**5-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev ko'mir qazib olish tarmog'ini barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Unda konlarning salohiyati yuqori bo'lsa-da, keyingi yillarda ko'mir qazib chiqarish rejalari bajarilmayotgani, tarmoqdagi tizimli muammolar bartaraf etilmagani ko'rsatib o'tildi.

Yig'ilishda Angren konidagi holatni yaxshilashga qaratilgan ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi. Iqtisodiyot tarmoqlari va aholining yaqin va uzoq istiqbolda ko'mirga bo'ladigan talabini maksimal darajada qoplash uchun Angren konini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz «O'zbekko'mir» aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratdi. Moliya va Energetika vazirliklariga ko'mir narxi tariflarini optimalashtirish, tarmoqning rentabelligini oshirish, investitsiya xarajatlarini qoplash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**6-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yuk va yo'lovchi ta-

shish tizimini tubdan takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**7-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-mart.** Poytaxtimizdagi «O'zeks-pomarkaz» milliy ko'rgazmalar zalida 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tantanali tadbir bo'lib o'tdi.

Tantanali tadbirda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va mamlakatimiz xotin-qizlarini tabriklab, nutq so'zsladi.

Prezidentimizning 2019-yil 6-mart kuni qabul qilingan «8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida»gi farmoniga muvofiq, qishloq xo'jaligi, sanoat, tadbirkorlik, fan-texnika, innovatsiya, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at va boshqa sohalarda alohida tashabbus ko'rsatib, samarali mehnat qilib kelayotgan bir guruh ayollar faxriy unvonlar, orden va medallar bilan mukofotlandi. Shuningdek, davlatimiz rahbarining joriy yil 2-mart-

dagi qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan yigirma sakkiz nafar qiz a'lo xulqi, noyob iste'dodi, zukkoligi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari hamda ta'lim, fan, adabiyot, madaniyat, san'at, sport sohalarida va jamoatchilik faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirokchi ayollarga hamda Zulfiyachi qizlarimizga mukofotlarni tantanali ravishda topshirdi.

Davlatimiz rahbarining ushbu tantanali marosimdagi ma'ruzasi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**7-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston — Rossiya hukumatlararo komissiyasi hamraisi, Rossiya Federatsiyasi iqtisodiy rivojlanish vaziri Maksim Oreshkinni qabul qildi.

Uchrashuvda o'zaro muloqotning yangi ko'p darajali formati, Ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha qo'shma komissiyaning tashkil etilishi, hech shubhasiz, ko'p qirrali sheriklikni kengaytirish bo'yicha erishilgan kelishuvlar samaradorligini oshirish va ularni o'z vaqtida

ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

\* \* \*

**11-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**12-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12–13-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Navoiy viloyatiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari tashrifini Nurota tumanidagi «Marmarobod» davlat unitar korxonasi faoliyati bilan tanishishdan boshladi.

Shu yerda Olmaliqda faoliyat yuritayotgan, tosh kukunini zichlash orqali turli rang va o'lchamdagi plitalar ishlab chiqarayotgan «National stone» O'zbekiston — Kanada qo'shma korxonasining mahsulotlari namoyish etildi.

Navoiy viloyatida 2019–2020-yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarish, xitoylik investorlar bilan hamkorlikda marmardan sanoat haykaltaroshligini tashkil etish, Nurota tumani G'ozg'on shaharchasini bosh

reja asosida rivojlantirish loyihalari taqdimoti ham o'tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev Nurota tumanidagi «Chashma» tarixiy qadamjosini ziyorat qildi, bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Aholi vakillari: nuroniylar, tadbirkorlar, xotin-qizlar va yoshlar bilan suhbatda kelgusi rejalar, Navoiy viloyati va mamlakatimizdagi o'zgarishlar haqida so'z bordi. Prezidentimiz Nurota tumanida ham to'planib qolgan masalalar bosqichma-bosqich hal etilayotgani, aholini ish bilan ta'minlash, iqtisodiyotimizni rivojlantirishga qaratilgan choralar ko'rilishini qayd etdi.

Prezidentimiz Navoiy issiqlik elektr stansiyasida bo'lib, ikkinchi bug'-gaz qurilmasi gaz turbinasining ishlash jarayonini ko'zdan kechirdi.

Shavkat Mirziyoyev korxonalar ishchilari va xorijlik investorlar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyatiga ham bordi. Davlatimiz rahbari hozirgi kunda qurilishi qizg'in davom etayotgan uchta yirik investitsiya loyihasi — Polivinilxlorid (PVX), kaustik soda va metanol, Ammiak va karbamid hamda Azot kislotasi ishlab chiqarish korxonalaridagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi, quruvchilar, xorijlik investorlar bilan muloqot qildi.

Shu yerda Navoiy viloyatida mamlakatimizning Amerika Qo'shma Shtatlari, Birlashgan Arab Amirliklari va Ukrainadagi elchixonalari ko'magida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Prezidentimiz Karmana tumanidagi «Export Fish Product» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan ham tanishdi. Shu yerning o'zida viloyatda qishloq xo'jaligining turli tarmoqlari bo'yicha agroklasterlar tashkil etish, yaylovlar holatini yaxshilash bo'yicha loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezidentimiz Navoiy shahrida viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Davlatimiz rahbari viloyatni kompleks rivojlantirishga qaratilgan dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

Shavkat Mirziyoyev faollar yig'ilishidan so'ng Navoiy shahar Davlat xizmatlari markazi faoliyati bilan tanishdi.

Prezidentimiz Xalq qabulxonasining markazdagi bo'limiga kirib, xodimlar bilan suhbatlashdi. Aholi qanday masalalar bo'yicha murojaat qilayotgani bilan qiziqdi. Shu yerda Navoiy viloyatida tadbirkorlik, kichik biznes va hunarmandchilikni rivojlantirishga doir loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev Navoiy shahridagi 3-ichki ishlar bo'limini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari ichki ishlar bo'limidagi situatsion markazni ko'zdan kechirdi. Jamoat xavfsizligini ta'minlashga ixtisoslashgan dasturiy mahsulotlar yaratish, jinoyatchilikni turlari bo'yicha tahlil qilib, ularning oldini olish yuzasidan tavsiyalar berdi.

\* \* \*

**13-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mahkumlarning hamda qamoqda saqlanayotgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini ko‘zdan kechirdi. Davlatimiz rahbari dastlab «Tashkent City» xalqaro biznes markaziga tashrif buyurib, kongress-holl va besh yulduzli mehmonxona qurilishi bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev kongress-hollning asosiy zali, har bir xonasini ko‘zdan kechirib, ularning qanday bezatilishi va jihozlanishi, mehmonlar uchun qanday sharoitlar yaratilishi bilan qiziqdi. Xalqaro sammitlar chog‘ida ko‘plab delegatsiyalar qatnashishini inobatga olib, yuqori martabali mehmonlar va ishtirokchilarning harakatlanishi, ikki va ko‘p tomonlama uchrashuvlar o‘tkazishi, dam olishi uchun keng

qulayliklar yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Kongress-holl yonida qurilayotgan mehmonxonaga oid loyihalar ham namoyish etildi.

Prezident «Tashkent City» yaqinida qad rostlagan «Humo arena» muz saroyida olib borilayotgan so‘nggi pardoqlash ishlarini ham ko‘zdan kechirdi.

\* \* \*

**14-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-mart.** Toshkent shahrida «Humo arena» muhtasham sport koshonasining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, yig‘ilganlarni ushbu qutlug‘ voqea bilan tabrikladi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda olib borilayotgan keng miqyosli islohotlarda sog‘lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalash, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilayotganini ta’kidladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi tabrik so‘zi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**18-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Birlashgan Arab Amirliklari fuqarolari uchun O‘zbekiston Respublikasiga kirish rejimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**18-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Eshitish va nutqida muammosi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev prezidentlik vakolatlarini topshirish haqida e'lon qilgan Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

O'zbekiston Prezidenti uzoq mudatli va o'zaro manfaatli O'zbekiston—Qozog'iston munosabatlarida mustahkam poydevor yaratilishida qardosh Qozog'iston Birinchi Prezidentining shaxsan qo'shgan hissasini yuksak baholadi va chuqur minnatdorlik bilan qayd etdi.

Davlatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik, o'zaro ishonch va hamkorlik bundan buyon ham izchil mustahkamlanib borishiga ishonch bildirildi.

\* \* \*

**19-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan

to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Ma'lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi.

**Birinchi tashabbus** yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

**Ikkinchi tashabbus** yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

**Uchinchi tashabbus** aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va Internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

**To'rtinchi tashabbus** yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

**Beshinchi tashabbus** xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Yig'ilishda ana shu tashabbuslarni O'zbekistonning barcha hududlarida keng joriy qilish masalalari muhokama qilindi.

Yig'ilishda yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasidagi chora-tadbirlar belgilab berildi. O'lis va chekka qishloqlarda yengil konstruksiyali sendvich

panellardan kichik sport zallari va sun'iy qoplamali maydonlar qurish, tashabbuskor tadbirkorlarga sport inshootlari barpo etish uchun yer ajratish zarurligi ta'kidlandi.

Videselektor yig'ilishida yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratildi.

Yig'ilishda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari ham muhokama qilindi.

\* \* \*

**20-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev investitsiya loyihalarini amalga oshirish va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb etish ishlarini jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Unda shu yo'nalishda o'tgan ikki oyda bajarilgan ishlar tanqidiy tahlil qilindi. Davlatimiz rahbari xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish holati umuman sust ketayotganini ta'kidlab, mutasaddilarni jiddiy ogohlantirdi. Prezidentimiz tegishli vazirlik va hokimliklar zimmasiga aniq va qat'iy vazifalar yukladi. Investitsiya va tashqi savdo vazirligiga energetika, neft-gaz, kimyo, mashinasozlik, elektr texnikasi, axborot texnologiyalari va boshqa muhim sohalarga to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoyalarni jalbetish bo'yicha investitsiya loyihalari portfelini shakllantirish topshirildi.

\* \* \*

**20-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart To-

qayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Muloqot avvalida Prezidentimiz Qosim-Jo'mart Toqayevni Qozog'iston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishgani munosabati bilan samimiy tabrikladi va davlat rahbari sifatidagi faoliyatida muvaffaqiyatlar tiladi.

Muloqotda davlat rahbarlari oliy darajada erishilgan kelishuvlarni keng miqyosda amalga oshirish muhim ekanini qayd etdilar. Mintaqaviy va xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**20-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**20-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahrida Vebs-ter universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**21-mart.** Toshkent shahri markazida yaqinda foydalanishga top-

shirilgan muhtasham «Humo arena» majmuasida Navro‘z umumxalq bayramiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yig‘ilganlarni, butun O‘zbekiston xalqini Navro‘z umumxalq bayrami bilan tabrikladi.

Majmuada san‘at ustalari, yosh ijrochilarning ona yurtini, istiqlolni, yangilanish va yasharish ayyomini madh etadigan badiiy konsert dasturi namoyish etildi.

\* \* \*

**24–26-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Abu-Dabi Amirligi valiahdi Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan Birlashgan Arab Amirliklariga keldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 25-mart kuni Abu-Dabi shahrida bo‘lib o‘tdi. Davlatimiz rahbari taomilga ko‘ra, dastlab Abu-Dabi shahridagi Amirliklarning birinchi Prezidenti, shayx Zoid bin Sulton Ol Nahayon maqbarasi va masjidini ziyorat qildi.

Shavkat Mirziyoyev maqbaraning Ziyoratchilar kitobida dastxat qoldirdi.

Davlatimiz rahbari «Vohat al-Karoma» yodgorligiga gulchambar qo‘ydi. Davlatimiz rahbari yodgorlikning Faxriy mehmonlar kitobida dastxat qoldirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Abu-Dabi shahrida Birlashgan Arab Amirliklari Bosh vaziri o‘rinbosari, Ichki ishlar vaziri shayx Sayf bin Zoid Ol Nahayonni qabul qildi. Uchrashuv-

da ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash sohasida amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi.

Abu-Dabi shahridagi «Qasr al-Vatan» saroyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo‘ldi. Ikki davlat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Muzokaralarda ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni har tomonlama kengaytirish, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, innovatsion, bank-moliya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi amaliy aloqalarni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralardan so‘ng ikki tomonlama imzolangan hujjatlarni almashish marosimi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi bilan BAA o‘rtasida Qo‘shma bayonot qabul qilindi. Investitsiyalar, moliya, muqobil energetika, sanoat va infratuzilmani rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi, bojxona ma‘murchiligi, madaniyat va boshqa sohalardagi hamkorlik bo‘yicha imzolangan hujjatlar almashildi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev va Abu-Dabi Amirligi valiahdi Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning tor doiradagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Samimiy muloqotda siyosat, xavfsizlik, investitsiya sohalari yuzasidan fikr almashildi. Savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, energetika va infratuzilma yo‘nalishida qo‘shma loyihalarni ishlab chiqish, fan-texnologiya va ta‘lim sohasida hamkorlikni rivojlantirishga kelishib olindi.



Uchrashuvda tomonlarni qiziq-tirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar ham ko'rib chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklariga rasmiy tashrifi doirasida 26-mart kuni Dubay shahrida BAA vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay amiri shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum bilan muzokara o'tkazdi.

Ko'p qirrali hamkorlikni mustahkamlash masalalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum bilan «Zaabil» saroyida bo'lib o'tgan uchrashuvining asosiy mavzusi bo'ldi.

O'zaro ishonch ruhida o'tgan suhbatda qator sohalarida sheriklik va tajriba almashishni kengaytirish yo'llari, turli darajalarda yangi aloqalar o'rnatish masalalari muhokama qilindi. Muzokaralardan so'ng imzolangan hujjatlarni almashish marosimi bo'ldi.

\* \* \*

**28-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**1-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklariga rasmiy tashrif doirasida erishilgan kelishuv va bitimlarni amalga oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda Prezidentimiz erishilgan kelishuvlarning o'z vaqtida va so'zsiz ijrosini ta'minlash lozimligini qayd etib, qabul qilingan «yo'l xaritasi»ni amalga oshirishni samarali usul va mexanizmlarni joriy etgan holda darhol boshlash muhim ekanini ta'kidladi.

Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar, tarmoq kompaniyalari rahbarlariga eng qisqa muddatda investitsiya loyihalarining tarmoq jadvalini tasdiqlash va ularni amalga oshirishni boshlash, oliy darajada erishilgan O'zbekiston—BAA kelishuvlarining so'zsiz ijrosini ta'minlash bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy etish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**2-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**3-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga joriy etish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Yig‘ilishda har bir tashabbus bo‘yicha loyihalari ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturlari kiritilgan takliflar, ularni amalga oshirish mexanizmlari muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari dasturlar loyihasida tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlari yetarli emasligi, har bir shahar va tumanga ijodiy maslahatchi sifatida birlashtirilgan soha namoyandalarining amaliy vazifalari aniq belgilanmaganini qayd etdi. Hududiy «yo‘l xarita»lari ijrosini tizimli tashkil etish, to‘garak va sinflarga qamrab olingan bolalarni rag‘batlantirish, jumladan, turli tanlovlar o‘tkazish zarurligini ta’kidladi. Belgilangan qurilish, rekonstruksiya va kapital ta’minlash ishlari, shuningdek, madaniyat markazlari, musiqa va san’at maktablarini zarur cholg‘u asboblari bilan ta’minlash uchun tegishli mablag‘ ajratish bo‘yicha topshiriq berildi.

Prezidentimiz ikkinchi tashabbus yuzasidan tayyorlangan yoshlar-

ni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish, sport inshootlari quvvatini oshirishga qaratilgan dastur loyihasi haqida fikr bildirib, mavjud va yangi quriladigan sport inshootlariga aholi va yoshlarni keng jalb etish, ommaviy sport tadbirlarini o‘tkazishni yanada ko‘paytirish kerakligini ta’kidladi.

Yig‘ilishda uchinchi tashabbusga muvofiq aholining kompyuter savodxonligini oshirish, axborot texnologiyalariga qiziqqan bolalarning salohiyatini ro‘yobga chiqarish va malakali mutaxassis darajasiga olib chiqish, dasturiy mahsulotlar yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish chora-tadbirlar dasturi loyihasini amalga oshirishga qaratilgan to‘rtinchi tashabbusga ko‘ra, har bir hududga 1 million donadan badiiy, tarixiy, ilmiy-ommabop mavzulardagi kitoblar yetkazib berish ko‘zda tutilgani, axborot-kutubxona markazlarini rekonstruksiya qilish va kapital ta’minlash, tadbirkorlar tomonidan xalq kutubxonalari ochish belgilangani ta’kidlandi.

Beshinchi tashabbus bo‘yicha hududlarda tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish va xotin-qizlar bandligini ta’minlash chora-tadbirlari dasturi loyihasi tayyorlangani, 2019–2020-yillarda har bir tumanda yengil konstruksiyali tikuv-trikotaj korxonalarini qurish va ayollar uchun ish o‘rinlari yaratish ko‘zda tutilayotgani qayd etildi. Ana shu korxonalarni puxta hisob-kitob asosida tashkil etish, ular-

da ishlab chiqariladigan mahsulotlar bozorini, ya'ni aniq xaridorini topish yuzasidan takliflar bildirildi.

Muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarning axborotlari eshitilib, dasturlar loyihalarini yanada takomillashtirish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**4-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan o'z vaqtida ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yilning birinchi choragi yakunlari bo'yicha Davlat budjetiga tushumlar va eksport prognozlari ijrosi natijadorligi hamda birinchi yarim yillik uchun belgilangan ko'rsatkichlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlash yuzasidan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu vazifaning ahamiyatini hamma rahbar ham birdek anglab yetmayotganini tanqid qildi.

Prezidentimiz soliq islohotlarini samarali amalga oshirish uchun hukumat oldida juda ko'p vazifalar turganini ta'kidladi.

Yig'ilishda mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan choralar ham muhokama qilinib, har bir tarmoq va hudud rahbari eksport tushumlari barqaror va o'z vaqtida kelib tushishi uchun shaxsan javobgar ekani belgilab qo'yildi.

\* \* \*

**5-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

Termizda birinchi Xalqaro baxshichilik festivali ochildi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

\* \* \*

**8-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yilning birinchi choragida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi loyihalar amalga oshirilishini tahlil qilish, birinchi yarim yillikka doir vazifalarni belgilash masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Unda investitsiya loyihalari tarmoqlar va hududlar bo'yicha tahlil qilinib, olib borilayotgan ishlar yuzasidan tegishli rahbarlarning hisobotlari eshitildi. Muddatidan kechikayotgan loyihalarning muammoni jihatlarini muhokama qilindi.

Videosektor yig'ilishida oliy darajadagi tashriflar yakuniga ko'ra tasdiqlangan «yo'l xaritalari» ijrosiga ham e'tibor qaratildi.

Muhokama qilingan masalalar bo'yicha muhim vazifalar belgilab berildi.

\* \* \*

**9-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat boshqaruvining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2019—2021-yillarda respublikaning farmasevtika tarmog'ini yanada jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**11-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklarining hukumat va kelajak ishlari bo'yicha vaziri Muhammad bin Abdulloh al-Qarqoviy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Qabul davomida davlat tashkilotlari, ilmiy markazlar, yetakchi kompaniya va korxonalar, bank-moliya institutlari darajasida faol muloqot va almashinuvlarni davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**11-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Amerika Qo'shma Shtatlarining Afg'onistondagi yarashish masalalari bo'yicha maxsus vakili Zalmay Halilzodni qabul qildi.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni yanada kengaytirishga doir, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko'rib chiqildi. Afg'onistondagi vaziyatni hal etishda mamlakatlarimiz hamkorligining holati va istiqbollari baho berildi.

Suhbat davomida AQSh O'zbekistonning Afg'onistonda tinchlik muzokaralariga ko'maklashish borasidagi konstruktiv sa'y-harakatlarini, xususan, Afg'oniston hukumati vakillari ishtirokidagi muloqotning navbatdagi davrasini Samarqand shahrida o'tkazish to'g'risidagi tashabbusini qo'llab-quvvatlashi ta'kidlandi.

\* \* \*

**12-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Ummon Sultonligi, Qirg'iziston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Indoneziya Respublikasi va Qozog'iston Respublikasining mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchilari etib tayinlangan Ahmad bin Said al-Kasiriy, Ibragim Junusov, Mehmet Sureyya Er, Sunario Karta-dinata hamda Darxan Satibaldidan ishonch yorliqlarini qabul qildi. Davlatimiz rahbari elchilarni samimiy tabriklab, ularga mas'uliyatli diplomatik missiyani bajarishda muvaffaqiyatlar tiladi.

O'z navbatida, elchilar samimiy qabul uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirib, O'zbekiston bilan keng ko'lamlı hamkorlik va samarali sheriklikni yanada rivojlantirishga bor kuch-g'ayratlarini safarbar qilishini qayd etdilar.

\* \* \*

**14–15-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo‘mart Toqayev davlat tashrifi bilan mamlakatimizda bo‘ldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari 15-aprel kuni bo‘lib o‘tdi. Ko‘ksaroy qarorgohida Qozog‘iston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo‘ldi. Shundan so‘ng Shavkat Mirziyoyev va Qosim-Jo‘mart Toqayev tor doirada uchrashuv o‘tkazdi.

Prezidentlar mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va xalqaro ahamiyatga molik muhim masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Oliy darajadagi muzokaralar chog‘ida davlat rahbarlari O‘zbekiston – Qozog‘iston hamkorligining istiqbolli yo‘nalishlari, shuningdek, tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalarni ham muhokama qildilar.

O‘zbekiston va Qozog‘iston rasmiy delegatsiyalari ishtirokidagi kengaytirilgan muzokarada mamlakatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi aloqalarni mustahkamlash masalalariga e‘tibor qaratildi.

Ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo‘mart Toqayev Qo‘shma bayonotni imzoladilar. Ikki mamlakat o‘rtasidagi ham-

korlikning turli sohalariga oid 10 ga yaqin hujjat imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari uchun brifingda davlat rahbarlari muzokaralar an‘anaviy do‘stlik, o‘zaro hurmat, ishonch va ochiqlik ruhida o‘tganini, ikki tomonlama munosabatlarning muhim masalalari, o‘zaro manfaatli mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb muammolar muhokama qilinganini alohida ta’kidladilar.

\* \* \*

«O‘zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida 15-aprel kuni O‘zbekistonda Qozog‘iston yilining rasmiy ochilish marosimi bo‘ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Qosim-Jo‘mart Toqayev nutq so‘zladilar. Davlat rahbarlari Qozog‘istonda O‘zbekiston yili doirasida faollashgan madaniy-gumanitar aloqalar xalqlarimizni yanada yaqinlashtirganini ta’kidladilar.

Tantanali marosim katta konsert dasturi bilan davom etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekistonda Qozog‘iston yilining tantanali ochilish marosimidagi nutqi matbuotda e‘lon qilindi.

\* \* \*

**16-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo‘lib turgan Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi tashqi ishlar vazirining o‘rinbosari Alan Dunkanni qabul qildi.

Uchrashuvda ikki tomonlama amaliy hamkorlikni yanada mustah-

kamlash, Britaniyaning to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarini, ilg'or tajriba va texnologiyalarini jalb qilgan holda, qo'shma loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**16-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2019—2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**17-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**19-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2019—2021-yillarda respublika aholisiga endokrinologiya yordami ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18–20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.

Tashrifning asosiy voqealari 19-aprel kuni Ko'ksaroy qarorgohida bo'lib o'tdi. Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Mun Chje In tor doirada uchrashuv o'tkazdi.

Muzokarada mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish maqsadida siyosiy muloqot va maslahatlashuvlarni faol davom ettirish bo'yicha yakdil fikr bildirildi.

Prezidentlar muzokarani ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida davom ettirdilar. Unda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnik va madaniy-gumanitar sohalardagi amaliy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Samarali muzokaralardan so'ng ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo'ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Mun Chje In O'zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o'rtasida alohida strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani imzoladi. Hukumat va vazirliklar o'rtasida investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish, erkin savdo bitimi tuzishni o'rganish, tinch maqsadda fazoni tadqiq etish, fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasida hamkorlik, sog'liqni saqlash sohasida hamkorlik bo'yicha O'zbekiston — Koreya

markazini tashkil etishga oid va boshqa hujjatlar imzolandi. Tashrif doirasida maktabgacha ta'lim, mehnat va bandlik, adliya, qishloq xo'jaligi, kapital bozorini rivojlantirish, kichik va o'rta biznes, o'simliklar karantini sohalarida, shuningdek, mamlakatlarimiz savdo-sanoat palatalari o'rtasida ikki tomonlama qator hujjatlar imzolanganini qayd etildi.

Ommaviy axborot vositalari uchun o'tkazilgan brifingda Prezidentlar an'anaviy do'stlik, ochiqlik va o'zaro anglashuv ruhida kechgan muzokaralar natijalaridan mamnunligini alohida ta'kidladi.

Kunning ikkinchi yarmida Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga tashrif buyurib, mamlakatimiz parlamenti a'zolari oldida nutq so'zladi.

Oliy martabali mehmon Mustaqillik maydoniga tashrif buyurib, hurriyatimiz, porloq istiqbolimiz va ezgu niyatlarimiz ramzi bo'lgan Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gul qo'ydi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Mun Chje In «O'zekspomarkaz»da tashkil etilgan O'zbekiston — Janubiy Koreya biznes-forumining ochilish marosimida ishtirok etdilar.

Davlatimiz rahbari Ko'ksaroyda o'tgan muzokaralarda ishbilarmonlik aloqalarini qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, o'rta va kichik biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilganini ta'kidladi.

— Bugun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohot va o'zgarish-

lar ulkan g'oya va loyihalarni hayotga dadil joriy etish uchun keng imkoniyatlar ochmoqda. O'tgan yili mamlakatimizda yangi qo'shma korxonalar soni 3 barobar ko'paydi. Biz bundan buyon ham Koreya biznesining mamlakatimizdagi ishtirokini kengaytirish uchun eng qulay sharoitlarni yaratishga tayyormiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In rafiqalari bilan birga ikki mamlakat san'at ustalarining konsert dasturida ishtirok etdi.

Oliy darajadagi tashrif doirasida 20-aprel kuni Toshkent shahrida Koreys madaniyati va san'ati uyining tantanali ochilish marosimi o'tkazildi.

Davlat rahbarlari o'zbekistonlik koreys rassomlari asarlari ko'rgazmasi bilan tanishdilar.

Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In kunning ikkinchi yarmida Samarqand shahriga keldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Mun Chje In rafiqalari hamrohligida Samarqanddagi tarixiy obidalarni tomosha qildilar.

Davlat rahbarlari dastlab Mirzo Ulug'bek rasadxonasiga tashrif buyurdilar. O'zbekiston va Janubiy Koreya Prezidentlari «Afrosiyob» muzeyida bo'ldilar. Shu yerda, davlat rahbarlari huzurida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan Koreya Respublikasining Madaniy meros ma'muriyati o'rtasida imzolangan madaniy meros sohasida hamkorlik to'g'risidagi anglashuv memorandumini o'zaro almashildi.

Koreya Respublikasi Prezidenti Registonidagi Tillakori madrasasi va masjidini, milliy hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmalarini tomosha qildi. Shu yerda majmua ziyoratiga kelgan sayyohlar va Samarqand shahri aholisi O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi Prezidentlarini qarsaklar bilan olqishladi.

Amir Temur maqbarasi ziyorati chog'ida mehmonlarga buyuk bobomizning davlatchilik siyosati, harbiy mahorati, turli mamlakatlar bilan diplomatik aloqalari haqida so'zlab berildi.

\* \* \*

**22-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma'muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**23-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi. Prezidentimiz Qozog'iston rahbarini joriy yil 9-iyun kuni o'tkazilishi rejalashtirilgan navbatdan tashqari Qozog'iston Respublikasi Prezidenti sayloviga nomzod etib ilgari surilgani bilan qutladi va ushbu muhim siyosiy tadbirning o'tkazilishida muvaffaqiyat tiladi.

Muloqot so'ngida O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlikni strategik sheriklik, ko'p asrlilik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalariga tayangan holda mamlakatlarimiz va xalqlarimiz manafati yo'lida yanada mustahkamlash borasida intilishlari qat'iy ekanini ta'kidladilar.

\* \* \*

**23-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**24–27-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan «Bir makon, bir yo'l» xalqaro forumida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Pekin shahriga keldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xitoyga tashrifi 25-aprel kuni ertalab Pekin shahrida Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin bilan uchrashuvdan boshlandi.

Uchrashuvda ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmini yanada kengaytirish va diversifikatsiya qilish masalalari muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Pekin shahrida o'zi uchun ajratilgan qarorgohda Belarus Respublikasi



Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan uchrashdi. Muloqotda ilgari erishilgan kelishuvlar ijrosining borishi atroflicha ko'rib chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Pekin shahrida Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon bilan ham uchrashdi. Prezidentlar keyingi yillarda sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarilgan ko'p qirrali O'zbekiston—Tojikiston hamkorligi izchil rivojlanayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev «Dyaoyuytay» qarorgohida Xalqaro valuta jamg'armasi boshqaruvchi direktori Kristin Lagardni qabul qildi.

Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikning joriy masalalari ko'rib chiqildi, uning samaradorligiga yuksak baho berildi. Tomonlar faol hamkorlikni, avvalo, pul-kredit siyosati, bank tizimi, soliq-budjet siyosati, to'lov balansini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish sohalarida davom ettirishga kelishib oldilar.

Xitoy Xalq Respublikasida amaliy tashrif bilan bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 25-aprel kuni «Huawei» kompaniyasining Tadqiqotlar va innovatsiyalar markaziga tashrif buyurdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev dastlab «Huawei» kompaniyasining eng so'nggi texnologik yechimlari va mahsulotlari namunalari bilan tanishdi.

Kompaniyaning sun'iy intellektga asoslangan aqlli texnologiyalariga yuqori baho berdi. «Huawei» bi-

lan hamkorlikda mamlakatimizda amalga oshirilgan loyihalar, mutaxassislar tayyorlash masalalari bilan qiziqdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Bir makon, bir yo'l» xalqaro forumi ochilish marosimidan so'ng ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari shu kuni Pekinda Butunxitoy xalq vakillari kengashi Doimiy qo'mitasi raisi Li Chjanshu bilan uchrashdi. Unda oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz o'zi uchun ajratilgan qarorgohda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish bilan uchrashdi. Prezidentimiz Bosh kotibning BMTni isloh qilish, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni, izchil taraqqiyotni ta'minlash yo'lidagi tashabbuslari va sa'y-harakatlarini to'liq qo'llab-quvvatlashini qayd etdi.

Suhbat chog'ida Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etish mintaqamizda barqarorlikni ta'minlashning muhim omili ekani ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonning Xitoydagi elchixonasi yangi binosini ko'zdan kechirdi.

«Bir makon, bir yo'l» ikkinchi xalqaro forumi 27-aprel kuni «Yansi» xalqaro konferensiyalar markazida delegatsiya rahbarlarining davra suhbatlari tarzida davom etdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Xalqaro va mintaqaviy o'zaro bog'liqlik masalalari Markaziy Osiyo, jumladan, dengiz portlariga bevosita chiqish imkoniyati bo'lmagan mamlakatimiz uchun dolzarb bo'lib kelgan va hozir ham shunday. O'zbekiston mamlakatlarimizning barqaror taraqqiyotida muhim omil bo'ladigan «Bir makon, bir yo'l» tashabbusini ilk kunlardan oq qo'llab-quvvatlagan, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari forum davra suhbatining Qo'shma bayonoti qabul qilinishini ma'qullab, bu mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, umumiy maqsadlarga erishish, iqtisodiy yuksalishning yangi manbalarini kashf etish, natijada xalqlarimiz turmush darajasi oshishiga xizmat qilishini ta'kidladi. Prezidentimiz Markaziy Osiyoning transport va logistika imkoniyatlarini oshirish, «yashil iqtisodiyot» orqali oziq-ovqat xavfsizligiga erishish, turizmni rivojlantirish, ekologik muammolarni birgalikda bartaraf etish va boshqa dolzarb masalalar bo'yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Prezidentimiz «yashil iqtisodiyot» ni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligiga erishish uchun qishloq xo'jaligiga zamonaviy texnologiyalar va ilg'or yechimlarni joriy etish masalalariga e'tiborni qaratdi. Orol dengizi qurishi oqibatida yuzaga kelgan ekologik vaziyatni bartaraf etish umumiy vazifa ekanini ta'kidlar ekan, Shavkat Mirziyoyev sheriklarni BMTning Orolbo'yi mintaqasi uchun Trast fondi hamda Orolbo'yi hududida ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi faoliyatida ishtirok etishga chaqir-

di. Turizm sohasida almashinuvlarni rivojlantirish, buning uchun «Ipak yo'li» brendi ostida qo'shma dastur va mahsulotlarni ilgari surish bo'yicha dolzarb takliflar bildirildi.

Davlatimiz rahbari Afg'oniston masalasiga ham e'tibor qaratib, ushbu mamlakatda tinchlik o'rnatilishi Markaziy va Janubiy Osiyoda yangi taraqqiyot manbalari yaratishini ta'kidladi. Shavkat Mirziyoyev bu boradagi dolzarb masalalar joriy yilning kuzida Toshkentda bo'lib o'tadigan Afg'oniston bo'yicha Mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik konferensiyasida (RECCA) muhokama etilishini ma'lum qildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan fikr va tashabbuslar anjuman ishtirokchilari tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

\* \* \*

**29-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**29-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbatda ilgari erishilgan ke-lishuvlarni izchil amalga oshirish, hududlararo hamkorlik imkoniyatlarini to'liq ishga solish, shuningdek, madaniy-gumanitar aloqalar-ni kengaytirish muhimligi alohida qayd etildi. Prezidentlar mintaqaviy infratuzilma loyihalarini ko'rib chi-qishga alohida e'tibor qaratdilar.

\* \* \*

**30-aprel — 1-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarni ijti-moiy-iqtisodiy rivojlantirish, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari hamda avval berilgan topshiriqlar ijrosi bilan tanishish maqsadida Surxondaryo viloyatiga keldi. Tash-rifi Sariosiyo tumanidagi To'polang gidroelektr stansiyasidan boshlandi.

Prezidentimiz «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiya-tiga qarashli Sariosiyo tumanida-gi Sharg'un ko'mir konida amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbariga viloyatda toshko'mir qazib chiqarishni rivoj-lantirishning asosiy yo'nalishlari haqida ma'lumot berildi. «Shar-g'un ko'mir» AJni modernizatsiya qilish investitsiya loyihasi, Boysun toshko'mir va Sherobod tumanida-gi Ko'hitang konlarida ko'mir qazib chiqarishni tashkil etish, Sariosiyo tumani va Sharg'un shaharchasini 2019—2020-yillarda ijtimoiy-iqtiso-diy rivojlantirish loyihalari taqdi-moti ham o'tkazildi.

Mazkur loyihani qisqa muddat-da va sifatli amalga oshirish, kon-chilikni yanada rivojlantirish, soha uchun mutaxassislar tayyorlash za-rurligi, Sharg'un shaharchasining ijtimoiy infratuzilmasini tubdan

o'zgartirish, zamonaviy ta'lim, tib-biyot muassasalari, mehmonxonalar va yangi turar joy binolari barpo etish, chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha mutasaddilarga topshiriq-lar berildi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil aprel oyida Rossiya Federatsiya-siga tashrifi asnosida rossiyalik in-vestorlar bilan Boysun tumanidagi «Mustaqillikning 25 yilligi» gaz konida dastlabki qidiruv, uni ishla-tish va gaz-kimyo majmuasi qurish bo'yicha mahsulot taqsimotiga oid bitim imzolangan edi. Prezidentimiz ushbu bitim doirasidagi ishlarning borishi bilan tanishdi. Loyiha ham-kori, «Altmax Holding LTD» kom-paniyasi ta'sischisi, rossiyalik inves-tor Andrey Filatov bilan dastlabki geologiya-qidiruv ishlari natijalari, gazni qayta ishlash majmuasini lo-yihalashtirish va qurish haqida suh-batlashdi.

Termiz tumanida 900 megavatt-li issiqlik elektr stansiyasi barpo etish, viloyatda sanoatni rivojlan-tirish, muhandislik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, Boysun tu-manida aholini ichimlik suvi bil-an ta'minlash, Sariosiyo tumani-ni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar taqdimotlari o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari shu yerda vi-loyat oqsoqollari bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz Muzrabot tuma-nidagi «Yangiobod invest servis» xususiy korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Shu yerda Surxondaryo viloya-tida ertapishar qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va eksport-

ga chiqarish, aholi tomorqasidan samarali foydalanish, agrosanoat klasteri tashkil etish va boshqa qator loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi.

Prezidentimiz tomorqachilik bo'yicha olib borilayotgan ishlarga alohida e'tibor qaratdi.

Davlatimiz rahbari «O'zbekiston temir yo'llari» AJ tomonidan taqdim etilgan arpa, bug'doy, suli va makkajo'xori donidan yem ishlab chiqaradigan mobil zavodi loyihasini ham ko'zdan kechirdi.

Tashrifning ikkinchi kuni Termiz shahrida Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.

Majlisda Surxondaryoning o'ziga xos xususiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib, chet el investitsiyasini jalb etgan holda zamonaviy korxonalar tashkil etish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi va mahalliy budjetlar daromadini ko'paytirish, hududni kompleks rivojlantirish bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

Prezidentimiz Termiz shahridagi tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan «Zif textile» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

Prezidentimizga Termiz shahridagi «Nova pharm» O'zbekiston — Hindiston farmasevtika qo'shma korxonasi, Termiz shahrining bosh rejasi, Termiz tumanidagi Sulton Saodat ziyoratgohini ta'mirlash va atrofini obodonlashtirish, shuningdek, viloyatga investitsiya kiritishga mas'ul etib belgilangan mamlakatimizning Avstriya, Yaponiya va Afg'onistondagi diplomatik vako-

latxonalari ko'magida amalga oshiriladigan loyihalar haqida ma'lumot berildi. Shu yerda «Kinomobil» — O'zbekistondagi birinchi innovatsion kinoteatr loyihasi taqdimoti o'tkazildi.

\* \* \*

**1-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Muborak ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**2-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari energetika va sanoat vaziri Suhayl bin Muhammad al-Mazruiy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekistonda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida istiqbolli loyihalarni, jumladan, elektr stansiyalari qurish va modernizatsiya qilish, yangi konlarni o'zlashtirish va uglevodorod xomashyosini chuqur qayta ishlashni kengaytirish, zamonaviy kimyo sanoati va agrosanoat korxonalari, logistika markazlari tashkil etish, mamlakatimiz hududlarida infratuzilmani rivojlantirish va boshqa qo'shma tashabbuslarni amalga oshirish masalalari batafsil muhokama qilindi.

\* \* \*

**2-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyoda giyovand moddalarni nazorat qilish sohasidagi mintaqaviy hamkorlik bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumini ishtirokchi davlatlarining 11-majlisida qatnashish doirasida mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovni qabul qildi.

Uchrashuvda oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish hamda samarali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar, jumladan, BMT, ShHT, MDH va boshqa tuzilmalar doirasidagi hamkorlikning dolzarb jihatlari va Afg'onistonda tinchlik o'rnatish masalalari ham muhokama qilindi.

\* \* \*

**2-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash, eksportbop mahsulotlarni ko'paytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Unda yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi va tayyor mahsulot eksport qiladigan sanoat korxonalarini ko'paytirish, mavjud salohiyat va xomashyo resurslaridan samarali foydalanish masalalari muhokama qilindi.

Yig'ilishda Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasiga mavjud xomashyo bazasi va import tarkibidan kelib chiqib, 2019–2021-yillar-

da sanoatlashtiriladigan mahsulotlar ro'yxatini shakllantirish vazifasi topshirildi.

Davlatimiz rahbari kundalik sanoat mahsulotlarini keng ishlab chiqarish va kooperatsiyani rivojlantirish zarurligini ta'kidladi. Yurtimizda ishlab chiqarilayotgan va import qilinayotgan sanoat mahsulotlarini solishtirgan holda ehtiyojni hisob-kitob qilish tizimli olib borilmayotgani qayd etildi. Kichik sanoat zonalarida kundalik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalarini ko'paytirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**2-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida «Har bir oila — tadbirkor» dasturi ijrosini ta'minlash, aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish borasidagi ishlar tahliliga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda dastur doirasida ajratilayotgan mablag'larni o'zlashtirish qoniqarsiz ekani yoki o'z holiga tashlab qo'yilgani ta'kidlandi.

Kreditlar ajratish va o'zlashtirishni jadallashtirish, sektorlar rahbarlari, tijorat banklari va jamoat tashkilotlarining bu boradagi mas'uliyatini oshirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**2-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish

haqida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**3-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**3-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**6-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6–7-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va avval berilgan topshiriqlar ijrosi bilan tanishish maqsadida Farg‘ona viloyatiga keldi.

Prezidentimiz dastlab Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodiga tashrif buyurdi. Shavkat Mirziyoyev zavod ishchilari va investorlar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz Qo‘shitepa tumani-dagi «Ipak gilamlar» korxonasi-da bo‘lib, xotin-qizlar bandligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Prezidentimiz Farg‘ona shahridagi zamonaviy rentgen apparatlari ishlab chiqaradigan qo‘shma korxonada bo‘lib, ishchi-xizmatchilar bilan muloqot qildi.

Shu yerda O‘zbekistonning Janubiy Koreyadagi elchixonasi bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan «Farg‘onaazot» va «Qo‘qonsuperfosfat» aksiyadorlik jamiyatlarida azotli va fosforli o‘g‘it ishlab chiqarish jaryonini modernizatsiya qilish, Vodil ko‘mir konida ko‘mir qazib chiqarish, toshdan ekologik toza qog‘oz ishlab chiqarishga oid rejalar, Farg‘ona viloyatida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimotlari o‘tkazildi.

Prezident Farg‘ona shahridagi «Temurbeklar maktabi»ni borib ko‘rdi. Davlatimiz rahbari harbiy litseylarning nomi o‘zgarganini, endi uning mazmun-mohiyati, ta’lim sifati ham Amir Temur bobomizga munosib bo‘lishi zarurligini ta’kidladi. «Temurbeklar maktabi»ga avtobus sovg‘a qilindi.

Shu yerda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari bilan muloqot bo‘lib o‘tdi. Prezidentimiz ularni yaqinlashib kelayotgan Xotira va qadrlash kuni bilan tabrikladi.

Shavkat Mirziyoyev Farg‘ona tumani-dagi «Komiljon ota Mamajonov» fermer xo‘jaligida bo‘lib, bu yerda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Shu yerda Prezidentimizga Farg‘ona viloyatida 2019–2020-yillarda qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshiriladigan loyihalar haqida ma’lumot berildi.

Tashrifning ikkinchi kuni Farg‘ona shahrida viloyat faollari, va-

zirlilik va idoralar rahbarlari, nuro-niylar, tadbirkorlar ishtirokida yig'ish bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga viloyatni 2019–2020-yillarda rivojlantirish bo'yicha dasturdagi har bir loyihani amalga oshirish bo'yicha tarmoq jadvallarini tasdiqlab, ijrosini ta'minlash yuzasidan topshiriqlar berdi.

Prezidentimiz yig'ilishda aholini ish bilan ta'minlash, daromadlarini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. «Har bir oila — tadbirkor» dasturi doirasida o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan oilalarni aniqlab, ikki-uch oy ichida ularga belgilangan miqdordagi imtiyozli kreditlarni to'liq ajratish zarurligini ta'kidledi.

\* \* \*

**8-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Samarqand shahrida «Rossiya davlat jismoniy tarbiya, sport, yoshlar va turizm universiteti» federal davlat budjeti oliy ta'lim muassasasining filialini tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**8-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalar haqidagi Stokgolm konvensiyasini (Stokgolm, 2001-yil 22-may) ratifikatsiya qilish

haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**8-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev zargarlik tarmog'ini rivojlantirish, zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilar uchun yanada qulay sharoitlar yaratish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Davlatimiz rahbari sohada xomashyodan samarali foydalanish, tarmoqqa faol investitsiya jalb qilib, zamonaviy ishlab chiqarishni tashkil etish zarurligini ta'kidledi.

Zargarlik sanoatida soliq yukini qayta ko'rib chiqish, import qilinadigan xomashyo va uskunalarni bojxona to'lovlaridan ozod qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda zargarlikning barcha turlarini rivojlantirish, tarmoq uchun zarur toshlarni o'zlashtirishni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**9-may.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ikkinchi jahon urushida jon fido qilgan yurtdoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdi — harbiy orkestr sadolari ostida Motamsaro ona haykali poyiga gulchambar qo'ydi.

Shu kuni Toshkent shahridagi Botanika bog'ida Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 74 yilligiga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tantanali marosimda nutq so'zladi va Xotira va qadrlash kuni hamda

Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 74 yilligi bilan barcha faxriylarni, butun xalqimizni tabrikladi.

Davlatimiz rahbarining nutqi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**10-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ba'zi davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**10-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**10-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari dastlab Shayxontohur tumanidagi Suzuk ota majmuasiga tashrif buyurdi.

Prezidentimiz bu yerda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Maqbarani ziyorat qildi.

Shu yerda diniy ulamolar va nuroniylar bilan suhbat bo'lib o'tdi. Shavkat Mirziyoyev ularni Ramazon oyi bilan yana bir bor tabriklab, yangilangan majmuaning shunday ulug' ayyom kunlarda ochilishi xayrli ekanini ta'kidladi.

Prezidentimiz shu yerdagi hunarmandlar uylari, xattotlik ustaxonalari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Chilonzor tumani Bog'iston ko'chasida barpo etilayotgan ko'p qavatli uylarni borib ko'rdi. Uylarning qurilish texnologiyasi, sifati haqida ma'lumot berildi.

Prezidentimiz qurib bitkazilgan xonadonlardan birini kirib ko'rdi. Bunday uylarning sifati, energiyani tejashi, zilzilabardoshligi xalqimizga ma'qul bo'lmoqda.

Prezidentimiz shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf nomidagi majmuada amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev bu masjid shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf nomiga munosib bo'lganini ta'kidladi. Hazratning ilmiy merosini o'rganish, ma'rifat va odob-axloq mavzularida ko'proq kitoblar chop etish, jamiyatimizdagi ma'naviy muhitni mustahkamlash bo'yicha tavsiyalar berildi.

Shavkat Mirziyoyev «Toshkent» avtovokzalida bo'lib, bu yerda amalga oshirilgan ishlar va yo'lovchilar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Shu yerda mamlakatimizning transport-logistika tizimini rivojlantirish, xalqaro va shaharlararo avtobus yo'nalishlari, avtovokzal hamda avtostansiyalarni takomillashtirish loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari Uchtepa tumanidagi 238-umumiy o'rta ta'lim maktabining yangi o'quv binosi bilan tanishdi.

Prezidentimiz ta'lim tizimiga zamonaviy o'quv dasturlarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar berdi. Shu yerda Toshkent shahar xalq ta'limi



muassasalarining bugungi ahvoli, maktablarning moddiy-texnik ta'minoti bo'yicha ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari Uchtepa tumani 200 nafar xotin-qiz ish bilan ta'minlanadigan tikuvchilik sexiga bordi.

Shavkat Mirziyoyev Uchtepa tumani rahbarlari, mahallalar raislari, ziyolilar, mutasaddilar bilan uchrashuv o'tkazdi.

\* \* \*

**13-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ustuvor loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ustuvor loyihalar bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan mutasaddilarning hisobotlari tinglandi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish holati juda sustligi, ulkan moliyaviy imkoniyatlardan samarali foydalanilmayotgani tanqid qilindi. Erishilgan kelishuvlar va qo'shma loyihalar ijrosini o'z vaqtida va so'zsiz ta'minlash bo'yicha qo'shimcha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**13-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ipoteka krediti bozorini rivojlantirish va kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Missisipi shtati gubernatori Filipp Brayant boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan Missisipi shtati o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari batafsil ko'rib chiqildi. Muayyan loyiha va dasturlarni tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha ikki tomonlama komissiya faoliyatini yo'lga qo'yish xususida kelishuvga erishildi.

\* \* \*

**14-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda qurilish materiallari sohasida ishlab chiqarishni kelgusi besh yilda kamida ikki barobar oshirish bo'yicha dolzarb vazifalar belgilab berildi. Noruda konlar zaxiralarini oshirish, sanoat usulida qayta ishlashni kengaytirish, qurilish materiallari sohasini diversifikatsiya qilish zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda soha ixtisosliklariga budjet kvotasini oshirish, korxonalarda o'quv amaliyotini tashkil etishni takomillashtirish, xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda yangi texnologiyalar asosida malka oshirish markazlari tashkil etish bo'yicha topshiriqlar berildi. Muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilarning hisobotlari tinglandi.

\* \* \*

**14-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oliy ta'lim muassalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**14-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston neft va gazi» xalqaro ko'rgazmasi tadbirlarida ishtirok etish maqsadida mamlakatimizda bo'lib turgan «Lukoyl» kompaniyasi prezidenti Vagit Alekperovni qabul qildi.

Uchrashuvda o'zaro manfaatli hamkorlik istiqbollari, jumladan, yangi investitsiya dastur va loyihalarini tayyorlash hamda «Lukoyl» kompaniyasining mamlakatimizdagi faoliyatini kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**15-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiyaning atom energiyasi bo'yicha «Rosatom» davlat korporatsiyasi bosh direktori Aleksey Lixachyovni qabul qildi.

Uchrashuvda mamlakatimizda qabul qilingan «yo'l xaritasi» asosida AES qurilishi loyihasini sifatli tayyorlash va amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha hamkorlikni davom ettirish masalalari ko'rib chi-

qildi. Yangi tarmoqni rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**15-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Navoiy viloyatini innovatsion, yuqori texnologiyalarga asoslangan, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'gan bilan telefon orqali muloqot qildi. Prezidentlar do'stlik va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarda hamkorlik aloqalari izchil rivojlanayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

An'anaviy do'stlik ruhida o'tgan muloqotda davlat rahbarlari xalqlarimizga tinchlik-osoyishtalik, yanada farovonlik va barqaror taraqqiyot tiladilar.

\* \* \*

**16–17-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va avval berilgan topshiriqlar ijrosi bilan tanishish maqsadida Andijon viloyatiga keldi. Davlatimiz rahbari dastlab Xonobod shahridagi «Xon tex city» mas'uliyati cheklangan jamiyati bilan tanishdi.

Prezidentimiz shahardagi «Xonobod» sihatgohida amalga oshirilgan ishlarni ko'zdan kechirdi. Shu yerda Andijon viloyatida turizmni rivojlantirishga doir loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Faollar bilan muloqotda Xonobod shahrini har tomonlama rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va farovonlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari «Khantex Group» MChJ tomonidan Qo'rg'ontepa tumani Uchqun mahallasida tashkil etilgan paxta-to'qimachilik klasteri faoliyati bilan tanishdi.

Shu yerda Andijon viloyatida 2019–2020-yillarda qishloq xo'jaligi sohasi, aholi tomorqasidan samarali foydalanish, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, pillachilikni rivojlantirishga qaratilgan rejalar, O'zbekistonning Belarudagi elchixonasi tomonidan ishlab chiqilgan loyihalar muhokama qilindi.

Prezident «Mustaqillikning 27-yiligi» mahallasidagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Tinimsiz mehnatimiz, izlanishlarimiz o'z mevasini bera boshladi, xalqimizning hayotga qarashi, munosabati o'zgardi. Bunday shinam uylarga ko'chib kirgan oilalar hayotidan mamnun, davlatdan rozi bo'ladi.

Davlatimiz rahbari mahallada ikkinchi bosqichda quriladigan 2 sotixli 612 ta uy, 168 xonadondan iborat 7 ta ko'p qavatli arzon turarjoy, 615 o'rinli maktab, 160 o'rinli bolalar bog'chasi ham Andijondagi o'zgarishlar ruhiga hamohang bo'lishi zarurligini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev «Kelajak bo'lajonlari» maktabgacha ta'lim muassasasini ko'zdan kechirar ekan, farzandlarimiz ma'naviyatini bog'cha yoshidan boyitish, bu boradagi ishlarni maxsus qaror asosida tizimli yo'lga qo'yish lozimligini ta'kidladi.

Prezidentimiz Andijon tumanidagi «Makro Farm Andijan» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

Shu yerda Andijon shahridagi «Avto Tekstil» MChJning avtomobil va avtobus o'rindiqlari uchun gazlama-mato ishlab chiqarish loyihasi taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbariga O'zbekiston Respublikasining Germaniya va Hindistondagi elchixonalari tomonidan viloyatda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari haqida ma'lumot berildi.

Andijon viloyati hokimligida Prezident raisligida faollar yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda ijtimoiy sohani rivojlantirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Shavkat Mirziyoyev 17-may kuni Andijon shahrining Mustaqillik mahallasiga borib, bu yerdagi haqiqiy ahvol bilan tanishdi. Prezidentimiz eski barak shaklidagi hovlilarda yashayotgan odamlar bilan suhbatlashdi.

Ular uchun barcha sharoitlari mavjud uy-joylar qurish va oilalarni ko'chirish bo'yicha topshiriq berdi.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf xiyoboni va ijod maktabida bo'ldi.

Prezident maktab-internat o'qituvchi va o'quvchilari bilan mu-

loqot qildi. Muhammad Yusufning ijodiy faoliyati aks etgan muzeyda bo'ldi.

\* \* \*

**17-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Xalqaro valyuta jamg'armasi boshqaruvchi direktori Kristin Lagardni qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Xalqaro valyuta jamg'armasining hamkorligi istiqbollari batafsil muhokama qilindi va bu boradagi ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

\* \* \*

**17-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi. Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Qozog'iston Prezidentini tavallud kuni bilan samimiy qutlab, mustahkam sog'lik va davlat xizmatidagi faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

Prezidentlar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

\* \* \*

**18-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida zargarlik tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yaylovlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**20-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilishi rejalashtirilgan istiqbolli investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi. Ushbu loyihalarning barchasi sanoat sohasiga oid bo'lib, ular ijrosi natijasida 10 mingdan ortiq ish o'rni yaratiladi. Har yili qariyb 1 milliard dollarlik bozorbop mahsulotlar ishlab chiqarish, 290 million dollardan ziyod eksport qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Investorlar va tashabbuskorlar o'z loyihalari yuzasidan taqdimotlar o'tkazdi.

\* \* \*

**21-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**21-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mehnatga haq to'lash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**22-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarida telekommuni-

katsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**22-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev elektrotexnika sanoatini rivojlantirish, sohada ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda eksport-import konyunkturasini o'rganish asosida elektrotexnika sanoatini rivojlantirish, yangi mahsulotlarni o'zlashtirish va raqobatbardoshligini mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. «O'zeltexsanoat» uyushmasiga 2022-yilgacha ishlab chiqarish hajmini ikki baravar oshirish hisobiga importni optimallashtirish va eksportni 500 million dollarga yetkazish vazifasi qo'yildi. Prezidentimiz buning uchun xomashyoni chuqur qayta ishlab, qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish zarurligini ta'kidladi.

Ishlab chiqaruvchilarga yaratilgan sharoitlar tahlil qilinar ekan, bu borada erkin iqtisodiy zonalar muhim o'rin tutishi qayd etildi. «Navoiy» va «Jizzax» erkin iqtisodiy zonalarida yangi loyihalarni joylashtirish, «Termiz» erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish bo'yicha takliflar bildirildi. Tarmoqni jadal rivojlantirish, ishlab chiqaruvchilar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida zamonaviy infratuzilmaga ega elektrotexnika texnoparklari tashkil etish zarurligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**23-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublika-

sining Birinchi Prezidenti — Elboshi Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbatda Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyev ikki tomonlama munosabatlarga doir, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalarni muhokama qildilar.

\* \* \*

**23-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**23-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta'minlash bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**24-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Eksport faoliyatini moliyalashtirish va sug'urta himoyasi mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Olma-

zor tumanida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari dastlab Talabalar shaharchasiga bordi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan «Beruniy» metro bekati yonida Beruniy maydoni barpo etildi. Abu Rayhon Beruniyning Texnika universiteti oldidagi haykali shu yerga ko'chirilib, atrofi obodonlashtirildi. Davlatimiz rahbari bu yerda olib borilgan ishlarni ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz 2017-yil 2-dekabr kuni Innovatsion rivojlanish vazirligi binosi qurilishi bilan tanishib, mamlakatimizda yetakchi soha va tarmoqlarni rivojlantirish, innovatsion g'oya va texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish yuzasidan zarur ko'rsatmalar bergan edi.

– Vazirlikni bejiz Talabalar shaharchasiga joylashtirmadik. Bu yerdagi oliy o'quv yurtlarida minglab iqtidorli yoshlar, tadqiqotchilar, olimlar ilmiy ish bilan mashg'ul. Ularning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlab, har bir sohada yangilik yaratish kerak. Innovatsion rivojlanish vazirligi bu borada ilmiy markaz, baza bo'lishi zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev. Shu yerda vazirlik va Jarayonlarni avtomatlashtirish milliy assotsiatsiyasi — NAPA tomonidan xorijiy markazlar bilan hamkorlikda tashkil etilishi rejalashtirilgan innovatsion texnopark taqdimoti bo'lib o'tdi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida Prezidentimiz oliy ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ilm-fan va ishlab

chiqarish integratsiyasini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Shu yerda O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-pedagogik faoliyati va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid rejalar taqdimoti ham o'tkazildi.

O'zbekiston Milliy universiteti kutubxonasida oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari rahbarlari, akademiklar, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Olmazor tumanidagi kovorking markazi va undagi tikuvchilik korxonasi faoliyati bilan tanishdi, kutubxonalar va Nuroniylar maskanini ko'zdan kechirdi. Mahalliy aholi vakillari, oqsoqollar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimizga «Soy bo'yi» sayilgohi va hudud atrofidagi Oltinsoy, Qichqiriq va Taraqqiyot mahallalarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash tizimi haqida ma'lumot berildi. Davlatimiz rahbari bu tizimni Toshkent shahrining barcha tumanlarida joriy qilish, jinoyatchilikning oldini olishda ilm va tahlil asosida ishlash zarurligini ta'kidladi.

\* \* \*

**27-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonalari ishga tushirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonalari

faoliyatini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Yig'ilishda sektorlar va davlat idoralari rahbarlari tadbirkorlarga har tomonlama ko'maklashishi, xalq deputatlari Kengashlari majlislarida ularning bu boradagi faoliyati muhokama qilinishi zarurligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**27-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Germaniya Federativ Respublikasi Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. Tashrifning asosiy voqealari 28-may kuni Ko'ksaroy qarorgohida bo'ldi. Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Frank-Valter Shtaynmayer tor doirada va kengaytirilgan tarkibda muzokara o'tkazdi.

Muloqotda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik muammolar, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish, xavfsizlik sohasida hamkorlikni mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston va Germaniya Prezidentlarining muzokaralari yakunida ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo'ldi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda Prezidentlar muzokaralar an'anaviy do'stlik,

ochiqlik va o'zaro anglashuv ruhida o'tganini qayd etdilar.

Kunning ikkinchi yarmida GFR Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer Mustaqillik maydoniga tashrif buyurib, Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gul qo'ydi.

So'ngra O'zbekiston va Germaniya ishbilarmon doiralari vakillari yig'ilishida ishtirok etdi. Yig'ilishda O'zbekistonda germaniyalik investorlar ishtirokida tuzilgan korxonalar, ushbu mamlakat firma va kompaniyalari vakolatxonalari muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatayotgani ta'kidlandi. O'zbekiston va Germaniya tadbirkorlarining turli sohalarda qo'shma loyihalar ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlari, o'zaro manfaatli hamkorlikning yangi yo'nalishlarini ochish masalalari muhokama qilindi. Energetika, neft-gaz kimyosi, axborot texnologiyalari, bank-moliya, transport, atom energetikasi kabi sohalarda sheriklik aloqalariga oid qator hujjatlar imzolandi.

Frank-Valter Shtaynmayer poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi «Bakan Tex» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga tashrif buyurdi. Oliy martabali mehmon paxta tolasidan ip-kalava ishlab chiqarish, qadoqlash va eksportga yo'naltirishgacha bo'lgan jarayon haqidagi videorolik bilan tanishdi, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti talabalari bilan suhbatlashdi.

Germaniya Prezidenti Toshkentdagi Gyote institutida bo'lib, Yohann Wolfgang Gyote haykalining ochilish marosimida qatnashdi.

Oliy martabali mehmon Toshkentdagi Gyote instituti faoliyati bilan tanishdi. Bu yerda til o'rganayotgan yoshlar, madaniyat va san'at namoyandalari, ilmiy doiralar hamda keng jamoatchilik vakillari bilan suhbatlashdi.

GFR Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning mamlakatimizga rasmiy tashrifi Xorazm viloyatida nihoyasiga yetdi.

\* \* \*

**28-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**28-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev ilm-fan va oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Akademik olimlar, professor-o'qituvchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, talabalarga zamonaviy shart-sharoit yaratish, ular orasidan bo'lajak ilm-fan vakillarini topib, kamolga yetkazish zarurligi ta'kidlandi. Mamlakatimizda ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilab, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishning yangi tizimini joriy etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**29-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ixtisoslashtirilgan o'quv-

tarbiya muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ramazon hayitini nishonlash to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**30-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hukumat rahbarlari darajasidagi Qo'shma komissiyaning birinchi majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Dmitriy Medvedevni qabul qildi.

Uchrashuvda oliy darajadagi muntazam va samarali muloqot, Rossiya Prezidentining o'tgan yil oktabr oyida mamlakatimizga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlarning birgalikda amalga oshirilishi ko'p qirrali O'zbekiston — Rossiya aloqalarini kengaytirishga, amaliy hamkorlikni aniq dastur va loyihalar bilan boyitishga xizmat qilgani ta'kidlandi.

O'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish hamda turli iqtisodiy tarmoqlardagi ustuvor investitsiya loyihalarini jadallashtirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**31-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Yevropa kengashi Prezidenti Donald Tuskni qabul qildi.

Uchrashuvda asosiy e'tibor iqtisodiyot, savdo, innovatsiya va inves-



titsiyalar, transport, ilm-fan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalariga qaratildi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik boshqa dolzarb masalalar, jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etish yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuv yakunida butun min-taqa barqarorligi va izchil taraqqiyotini ta'minlash yo'lida keng ko'lamli sheriklikni yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish borasida tomonlarning intilishlari mushtarak va qat'iy ekanini ta'kidlandi.

\* \* \*

**31-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Ichki ishlar vazirlari kengashining shu kunlarda Toshkent shahrida o'tayotgan tadbirlarida ishtirok etayotgan delegatsiyalar rahbarlarini qabul qildi.

Prezidentimiz Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Tojikiston va Turkmaniston vakillarini samimiy qutlar ekan, Hamdo'stlik mamlakatlari huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi ikki va ko'p tomonlama hamkorlik aloqalari tobora mustahkamlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Uchrashuvda MDHga a'zo davlatlar ichki ishlar organlari hamkorligini yanada kengaytirish, jumladan, samarali idoralararo aloqalarni yo'lga qo'yish, qo'shma tadbirlar o'tkazish, kadrlar tayyorlash bo'yicha dasturlarni amalga oshi-

rish istiqbollari ko'rib chiqildi. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikning dolzarb masalalari, xususan, Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etish va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishda sheriklikni mustahkamlash yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**31-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Gruziya, Amerika Qo'shma Shtatlari va Koreya Respublikasining mamlakatimizdagi Favqulodda va muxtor elchilari etib tayinlangan Zurab Abdushelishvili, Deniel Rozenblyum va Kan Chje Kvon-dan ishonch yorliqlarini qabul qildi. Davlatimiz rahbari elchilarni mamlakatimizdagi diplomatik missiyasini boshlagani bilan samimiy tabriklab, ularga ushbu sharaflil va mas'uliyatli vazifada muvaffaqiyatlar tiladi.

Prezidentimiz o'z nutqida yangi elchilar vakillik qilayotgan davlatlar bilan ko'p qirrali hamkorlikning istiqbollariga to'xtalib o'tdi.

\* \* \*

**1-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar, yirik loyihalar va bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari dastlab Angren shahriga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari yangi Angren temiryo'l vokzalini ko'zdan kechirdi. Shu yerda viloyatda turizm, energetika, kimyo, metallurgiya sohalaridagi istiqbolli loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev «Chorvoq» erkin turistik zonasida xalqaro dam

olish maskanlari, Beldersoy, Chimyon va Nanay hududlarida Fransiya kompaniyalari konsorsiumi ishtirokida tog‘chang‘i kurorti barpo etish loyihalariga alohida ahamiyat qaratdi.

Prezidentimiz loyihalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish, yirik investitsiya loyihalarini yanada kengaytirish, viloyatning turistik salohiyatini targ‘ib qilish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Davlatimiz rahbari Angren shahridagi 2-ichki ishlar bo‘limini borib ko‘rdi. Ichki ishlar, Milliy gvardiya, prokuratura, sud va boshqa organlar hamkorligini kuchaytirish, bo‘linmalarning tezkorligini oshirish va maksimal darajadagi harakatchanligini ta‘minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Shavkat Mirziyoyev Ohangaron shahar davlat xizmatlari markazining yangi binosini ko‘zdan kechirdi. So‘ng Ohangaron shahridagi «Qaldirg‘och» maktabgacha ta‘lim muassasasiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbarining tashrifi arafasida tumanda «Building innovation» korxonasi qurib bitkazildi. Prezidentimiz korxonadagi ish jaryonini ko‘zdan kechirdi, ishchilar bilan muloqot qildi.

Shu yerda Toshkent viloyatini ijtimoiy yuksaltirish dasturi, infratuzilmani yaxshilash, 2019–2022-yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, «Ohangaronsment» AJ tomonidan sement ishlab chiqarishga oid qator loyihalar taqdim etildi.

Shavkat Mirziyoyev Bo‘ka tumandagi «Sarkor» fermer xo‘jaligi

dalasida paxta va g‘alla rivojini ko‘zdan kechirdi. Davlatimiz rahbari fermerlar, qishloq xo‘jaligi mutasaddilari bilan muloqot qildi.

Viloyatda 2019–2020-yillarda qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshiriladigan loyihalar taqdimotida bog‘dorchilik, chorvachilik, logistika markazi va meva-sabzavotchilik klaster tizimini yo‘lga qo‘yish masalalari haqida so‘z bordi. Prezidentimiz «Solanum agro» ko‘p tarmoqli urug‘chilik agrosanoat klasteri mahsulotlari namunalarini ko‘zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari Bo‘ka tumandagi Bo‘ston mahallasi misolida tumanda 5 ta muhim tashabbusga hamohang amalga oshirilgan ishlar bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev 1960-yilda qurilgan mukammal ta‘mirlangan 7-qishloq oilaviy poliklinikasidagi sharoitni ko‘zdan kechirar ekan, aholini tibbiy xizmat bilan to‘liq qamrab olish, uyma-uy yurib, odamlar salomatligini muhofaza qilish zarurligini alohida ta‘kidladi.

Davlatimiz rahbari «Bo‘ston baraka chevarlari» MChJga qarashli tikuvchilik sexida ishlayotgan xotin-qizlar bilan suhbatlashdi.

Guzardagi qarovsiz kinoteatr binosi ta‘mirlanib, zamonaviy madaniyat markaziga aylantirildi. Bu yerda raqs, doira, rubob, tasviriy san‘at, fortepyano to‘garaklari tashkil etildi. Prezidentimiz to‘garaklarga qatnayotgan o‘g‘il-qizlar bilan suhbatlashdi. Tumandagi 27-umumta‘lim maktabi 3-sinf o‘quvchisi Fazilat Yoqubova beshta muhim tashabbusga bag‘ishlangan

she'rini o'qib berdi. Davlatimiz rahbari Fazilatga yaxshi ta'lim-tarbiya, ijodiy muhit va sharoit yaratib bergani uchun uning otasiga avtomobil sovg'a qilinishini aytdi. Madaniyat saroyida tarbiyalanayotgan bolalar uchun «Kelajak nihollari» ansambli tashkil etish va jamoaga avtobus sovg'a qilish bo'yicha topshiriq berdi.

Prezidentimiz Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan Bo'ka tumani markazida barpo etilgan Madaniyat va ma'rifat ekoparkini borib ko'rdi.

\* \* \*

**3-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Nurafshon shahrida Toshkent viloyati faollari, hokimlar va sektorlar rahbarlari, vazirlik va idoralar mutasaddilari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi. Unda tadbirkorlik va qishloq xo'jaligi, bandlik, ijtimoiy sharoitlarga doir dolzarb masalalar muhokama qilindi. Prezident Toshkent viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi korxonalar va ish o'rinlari yaratish bo'yicha muhim vazifalarni belgilab berdi.

Prezidentimiz Nurafshon shahrida bosh reja asosida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik loyihalari bilan tanishdi. Shu yerda viloyat aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash loyihalari ham taqdim qilindi.

\* \* \*

**4-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqini Ramazon hayiti bilan tabrikladi.

\* \* \*

**4-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi

Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari mamlakatlarimiz o'rtasida do'stlik, o'zaro ishonch va strategik sheriklik ruhida aloqalar barcha sohalarda, jumladan, siyosiy, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik yo'nalishlarida jadal rivojlanib borayotganini alohida e'tirof etdilar.

\* \* \*

**4-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahrida «MEI» milliy tadqiqot universiteti» federal davlat budjeti oliy ta'lim muassasasi filialini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish borasidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda o'zlashtirish imkoni bo'lgan maydonlarni qayta o'zlashtirish bo'yicha samarali tizimni joriy qilishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi. Xalqaro tajriba asosida foydalanishdan chiqqan yerlarni davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida o'zlashtirish tartibini yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlandi. Tegishli vazirliklar rahbarlariga mazkur loyihalarni amalga oshirish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Yig'ilishda foydalanishga qaytarilgan yerlarni suv bilan uzluksiz ta'minlash, buning uchun faqat suvni tejoychi texnologiyalarni qo'llash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**7-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi Parlamenti Majlisi raisi Nurlan Nigmatulin boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda O‘zbekiston – Qozog‘iston parlamentlararo hamkorligini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

\* \* \*

**7-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda sanoatni rivojlantirish, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni o‘zlashtirishni jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda shu borada amalga oshirilayotgan ishlar Andijon viloyati misolida tahlil qilindi.

Yig‘ilishda har bir loyiha bo‘yicha amalga oshiriladigan tadbirlar va muddatlarni aniq belgilagan holda, tarmoq jadvalarini ishlab chiqish, bo‘sh turgan davlat obyektlarida ustuvor ravishda sanoat loyihalarini joylashtirish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Davlatimiz rahbari Farg‘ona vodiysida sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun investitsiya fondi tuzilishini ta’kidladi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, o‘zlashtirish va loyihalarni muddatida ishga tushirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar holati tarmoq va hududlar bo‘yicha muhokama qilindi.

Mutasaddilarga joylarga chiqib, xorijiy investorlar ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirishni tezlashtirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**7-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlik subyektlarini tugatish tartib-taomillarini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahrida «D.I. Mendeleev nomidagi Rossiya kimyo-texnologiya universiteti» Federal davlat budjeti oliy ta’lim muassasasi filialini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**7-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Avtomobil transportida yuklarni xalqaro tashishni yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**10-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Suma Chakrabarti boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda amaliy hamkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari, jumladan, mamlakatimizda investitsiya loyihalarini va kreditlarni o‘zlashtirishni tezlashtirish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, qulay ishbilarmonlik va investitsiya muhitini shakllantirishga

ko'rsatilayotgan ko'makni kengaytirish masalalari batafsil ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**10-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi. Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Qosim-Jo'mart Toqayevni Qozog'iston Prezidenti saylovida ishonchli g'alabaga erishgani bilan samimiy tabrikladi.

Suhbat chog'ida Shavkat Mirziyoyev va Qosim-Jo'mart Toqayev O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi hamkorlikka doir, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalarni muhokama qildilar.

\* \* \*

**13-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun Bishkek shahriga keldi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg'iziston Prezidenti Sooronbay Jeenbekov bilan uchrashdi.

Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikka doir va mintaqaviy ahamiyatga ega masalalar ko'rib chiqildi.

Shavkat Mirziyoyev Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G'ani bilan muzokara o'tkazdi. Davlatimiz rahbari turli darajadagi ikki tomonlama muloqotlar faollashgani, o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlik va gumanitar

almashuvlar kengayib borayotganini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh kotibining siyosiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Rozmari Di Karlo xonim bilan ham uchrashdi. Muzokarada O'zbekiston bilan BMT institutlari o'rtasidagi Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishga qaratilgan ko'p qirrali sheriklik istiqbollari ko'rib chiqildi. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va taraqqiyotni ta'minlashning dolzarb masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shu kuni Qirg'iziston davlat filarmoniyasida ShHT Davlat rahbarlari kengashining Bishkek samiti ishtirokchilari uchun konsert dasturi namoyish qilindi.

\* \* \*

**13-14-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg'izistonning Bishkek shahrida Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining o'n to'qqizinchi majlisida ishtirok etdi. Sammitning asosiy tadbirlari 14-iyun kuni «Ala-archa» qarorgohida bo'lib o'tdi. Dastlab davlat rahbarlari tor doirada uchrashdilar. Qirg'iziston Prezidenti Sooronbay Jeenbekov raisligida o'tgan majlisda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi, Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayev, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Imron Xon, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin va Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon ishtirok etdi.

Tomonlar ShHT mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarni kengaytirishga, siyosat, iqtisodiyot va xavfsizlik sohalarida ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlashga oid hamda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalarni muhokama qildilar. ShHT Bosh kotibi Vladimir Norovning tashkilot faoliyatiga doir hisoboti tinglandi.

Davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida tashkilotga a'zo mamlakatlar bilan birga, kuzatuvchi, muloqot bo'yicha sherik maqomidagi davlatlar, xalqaro tashkilotlar delegatsiyalari rahbarlari qatnashdi. Unda ShHTni rivojlantirishning istiqbol-dagi yo'nalishlari, muhim mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Davlat rahbarlari kengashi majlisi yakunida hujjatlarni imzolash marosimi bo'ldi. Bishkek deklaratsiyasi qabul qilindi. A'zo mamlakatlar o'rtasida turli sohalardagi sheriklikni rivojlantirish, ShHTning boshqa xalqaro tuzilmalar bilan hamkorligiga doir 22 ta hujjat imzolandi. O'zbekiston Prezidentining taklifiga muvofiq, ShHTga a'zo mamlakatlarning Raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi hamkorligi konsepsiyasi hamda Hududlararo hamkorlikni rivojlantirish dasturi qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shu kuni Osiyoda hamkorlik va ishonch cho-

ralari bo'yicha kengashning sammitida ishtirok etish uchun Bishkekdan Dushanbega jo'nab ketdi.

\* \* \*

**14-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengashning beshinchi sammitida ishtirok etish uchun Dushanbe shahriga keldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Dushanbe shahridagi Millat saroyida Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon bilan uchrashdi.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz o'rtasidagi keng ko'lamlilikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi hamda mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**14-15-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengashning beshinchi sammitida ishtirok etish uchun Dushanbe shahrida bo'ldi.

Sammitning asosiy tadbirlari 15-iyun kuni Dushanbe shahridagi «Ko'hi Navro'z» saroyida bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengashning beshinchi sammitida nutq so'zladi hamda ishtirokchi mamlakatlarning tinchlikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirish borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtirishga qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Sammitda kengashga a'zo davlatlar delegatsiyalari rahbarlari Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikka tahdid va xatarlarning oldini olish, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, madaniy-gumanitar almashuvlarni faollashtirish yuzasidan o'z qarashlarini bayon etdi. Bu boradagi yakdil yondashuvlar, amaliy sa'y-harakatlar qit'a mamlakatlari va xalqlari farovonligi, tinchligi va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilishi ta'kidlandi. Muhokamalar yakunida Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengash beshinchi sammitining deklaratsiyasi qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Dushanbe shahridagi o'ziga ajratilgan qarorgohda Bangladesh Xalq Respublikasi Prezidenti Abdul Hamidni qabul qildi. Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikni, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi sheriklikni kengaytirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengash sammiti doirasida Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an bilan uchrashdi. Muzokarada savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, turizm, ilm-fan va boshqa sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**17-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali so'zlashdi.

Suhbatda O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Prezidentlar xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlikka doir dolzarb masalalarni ham muhokama qildilar.

\* \* \*

**17-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev neft-gaz, kimyo va elektr energetikasi sohalaridagi investitsiya loyihalari ijrosini yanada jadallashtirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Unda 2019-yilda amalga oshiriladigan loyihalar muhokama qilinib, ularning ijrosi bo'yicha mutasaddilarning hisoboti tinglandi.

Yig'ilishda neft-gaz, kimyo va elektr energetikasi sohalarida yil yakunida kutilayotgan natijalar hamda kelgusi yilga mo'ljallangan rejalarni ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**17-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2019–2023-yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**21-iyun.** Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirmanchi yalpi majlisi ish boshladi. Unda hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar rahbarlari, mamlakatimiz va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Majlisda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi. Nutq matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**21-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi majlisida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Asqar Maminni qabul qildi.

Uchrashuvda qardosh mamlakatlari rahbarlari darajasidagi munozam uchrashuvlar va ishonchga asoslangan muloqot ikki tomonlama munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilib, ularni aniq amaliy mazmun bilan boyitgani ta'kidlandi.

\* \* \*

**21-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kichik sanoat zonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari dastlab

«Tashkent City» xalqaro ishbilarmonlik markazining qurilish maydoniga tashrif buyurdi.

Prezident Kongress-hollga tutash qilib qurilgan 21 qavatli besh yulduzli «Hilton» mehmonxonasini kirib ko'rdi. Mahalliy va xorijiy investorlar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi qurilishi bilan tanishdi. Shavkat Mirziyoyev qurilishni ko'zdan kechirdi, binoning ichki va tashqi ko'rinishi, gumbaz ranglari uchun tanlangan namunalar bilan tanishdi. Ushbu markaz islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalarimiz merosini o'rganadigan, dinimizning asl mohiyatini xalqimizga yetkazadigan ilmiy-ma'rifiy maskan bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

– Yurtimizdagi ikkita oliy va yettita o'rta maxsus diniy bilim yurtiga bu yerdan joy berish zarur. Chunki ilm shu yerda boyitiladi, talabalar olgan bilimni markazdagi buyuk ajdodlarimiz merosiga oid qimmatli dalillar bilan mustahkamlaydi, – dedi davlatimiz rahbari.

Shu yerda Abdulla Qodiriy nomidagi madaniyat va istirohat bog'i oldida adib muzeyi va uning nomida maktab barpo etish loyihasi muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Olmazor tumanida G'alaba bog'ini bunyod etish loyihasi va qurilish konsepsiyasi bilan tanishdi.

Mudofaa va Madaniyat vazirliklari, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiya, Toshkent shahar hokimligiga tarixchilar va keng jamoatchilik vakillari bilan maslahatlashib,



G'alaba bog'ining konsepsiyasini ta-  
komillashtirish yuzasidan ko'rsatma  
va tavsiyalar berildi.

\* \* \*

**25-iyun.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev mamlakatimizni ijti-  
moiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'y-  
icha amalga oshirilayotgan ishlar,  
bu borada joriy yilning birinchi  
yarmida kutilayotgan natijalar va  
sifat o'zgarishlarini tahlil qilish-  
ga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.  
Unda faol investitsiya siyosati yuri-  
tilib, iqtisodiyot tarmoqlari va hu-  
dudlarga investitsiyalar, eng avvalo  
to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoya-  
lar yo'naltirilayotgani, tadbirkor va  
investorlarga har taraflama amaliy  
ko'mak berish bo'yicha ta'sirchan  
mexanizmlar joriy qilinib, izchil  
amalga oshirilayotgani natijasida  
yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari  
ta'minlanayotgani qayd etildi. Vazir-  
lar Mahkamasi, vazirlik va idoralar,  
xo'jalik birlashmalari va hududlar  
rahbarlarining hisoboti tinglandi.  
Har bir tarmoq va hududni rivoj-  
lantirish bo'yicha ko'zlangan mar-  
ralar va aniq vazifalarning so'zsiz  
ijrosini ta'minlash uchun tegishli  
rahbarlarning shaxsiy mas'uliyatini  
oshirish choralari belgilandi.

\* \* \*

**25-iyun.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-  
kasining Saylov kodeksini tasdiq-  
lash to'g'risida»gi O'zbekiston Res-  
publikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**25-iyun.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev «Xalqaro mehnat tash-  
kilotining 1930-yildagi Majburiy

mehnat to'g'risidagi 29-sonli Kon-  
vensiyasiga Bayonnomani (Jeneva,  
2014-yil 11-iyun) ratifikatsiya qi-  
lish haqida»gi O'zbekiston Respub-  
likasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-iyun.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev raisligida hududlarda  
sanoatni rivojlantirish, bo'sh tur-  
gan bino va yerlarda yangi loyiha-  
larni amalga oshirish masalala-  
riga bag'ishlangan videoselektor  
yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda sanoat loyihalari taq-  
dimoti o'tkazildi. Har bir loyiha  
tarmoqlar, shahar va tumanlar, ti-  
jorat banklari bo'yicha ko'rib chi-  
qildi. Mutasaddilarga ushbu sanoat  
loyihalari yuzasidan reja jadvallari-  
ni tasdiqlab, ularni o'z muddatida  
ishga tushirish topshirig'i berildi.

Videoselektor yig'ilishida erkin  
iqtisodiy zonalar va kichik sanoat  
zonalari salohiyatidan unumli foy-  
dalanish masalasi ham atroflicha  
muhokama qilindi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev Matbuot va ommaviy  
axborot vositalari xodimlari kuni  
munosabati bilan tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev «Matbuot va ommaviy  
axborot vositalari xodimlari kuni mu-  
nosabati bilan soha xodimlaridan bir  
guruhini mukofotlash to'g'risida»gi  
farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev «Ommaviy axborot vo-

sitalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruv akademiyasida boshqaruv kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Soliq va Bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**28-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Prezidentlar ikki tomonlama munosabatlar va mintaqaviy siyosatga doir dolzarb masalalarni ko'rib chiqdilar. O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari izchil mustahkamlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

\* \* \*

**28-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yashnobod va Qibray tumanlarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar

bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari dastlab Toshkent mexanika zavodiga tashrif buyurdi. Prezidentimiz korxonalar barqaror ishlashi uchun doimiy xaridor kerakligini, chet elardagi korxonalar bilan kelishib, ularga zarur mahsulot va ehtiyot qismlar tayyorlab berish mumkinligini ta'kidladi. Yangi loyihalar ishlab chiqish, ularni aholining ishga talabi va mavjud resurslardan kelib chiqib, oqilona joylashtirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Shu yerda Toshkent shahri tumanlariga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish va hududiy eksport hajmini oshirishga qaratilgan loyihalar taqdimoti o'tkazildi. Prezidentimizga yer usti halqa metro liniyasi hamda Toshkent metropoliteni Yunusobod liniyasi va Sergeli yo'nalishidagi qurilish jarayoni haqida ma'lumot berildi.

Prezidentimiz Yashnobod tumanining Maxtumquli ko'chasida zamonaviy tibbiyot va ilm-fan yutuqlari asosida barpo etilayotgan Bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi qurilishini borib ko'rdi.

Ushbu muassasa yonida EDCF bilan birgalikda IV darajadagi kattalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi barpo etish rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbari shu loyiha bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev «Toshkent-Sharqiy» aerodromi negizida barpo etilayotgan aeroportni ko'zdan kechirdi. So'ng bu yerdagi qurilish jarayoni bilan tanishib, chet ellik mutaxassislar bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent viloyatining Qibray va Yuqori Chirchiq tumanlari hududida qurilgan yangi

avtomobil yo'lini borib ko'rdi. Chirchiq daryosi ustiga qurilgan ko'prik bilan tanishdi. Prezidentimiz yo'llar qurilishini izchil davom ettirish, bu sohada sifatni ta'minlash uchun malakali kadrlar tayyorlash zarurligini ta'kidladi.

\* \* \*

**28-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlarini Yoshlar kuni bilan qutlab, tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**1-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev geologiya sohasini yanada rivojlantirish, geologik qidiruv va qazib olishni kengaytirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda geologiya-qidiruv va qazib olish ishlari uchun belgilangan soliq stavkalarini optimallashtirish, budjet mablag'lari samaradorligini oshirish, tarmoqqa xususiy investitsiyalarni keng jalb qilish bo'yicha vazifalar belgilandi. Geologiya-qidiruv ishlari ni moliyalashtirish tizimini isloh qilish, xorijiy ekspertlarni jalb etib, eng ilg'or tajribani amaliyotga joriy qilish zarurligi ta'kidlandi.

2020–2021-yillarga mo'ljallangan mutlaqo yangi formatdagi qidiruv ishlari dasturini shakllantirish, sohaning moddiy-texnik bazasini yangilash bo'yicha topshiriqlar berildi. Mineral xomashyo bazasini xalqaro standartlar asosida baholash, jumla-

dan, konlar zaxiralarini JORC kodeksi talablari asosida hisoblash va ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**1-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Hisob palatasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**1-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat tovarlari sifatini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari, avvalo, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ish, tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va eksport qilish jarayonlarini qamrab oladigan zamonaviy agrologistika markazlarini ko'paytirish zarurligini ta'kidladi.

Yig'ilishda 2025-yilga qadar sovitkichlar sonini 4 ming 500 taga, agrologistika markazlarini 140 taga yetkazish vazifasi qo'yildi. Osiyo taraqqiyot bankining imtiyozli krediti

ishtirokida Andijon, Samarqand va Toshkent viloyatlarida agrologistika markazlari barpo etish, Jizzax, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida ham bu boradagi ishlarni boshlash yuzasidan topshiriqlar berildi. Mahsulot yetishtiruvchilar bilan qayta ishlovchi korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalari yo'lga qo'yilmagani ko'rsatib o'tildi.

Muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddilar o'z taklif va mulohazalarini bildirdi.

\* \* \*

**5-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida birinchi yarim yillikda davlat budjetiga tushumlar natijadorligini tahlil qilish va yangi vazifalarni belgilash masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari joylarda yangi soliq islohotlarini tizimli joriy etish, soliq tushumlarini ko'paytirish va undirish borasida ayrim kamchiliklar ham borligi va buning oqibatida milliardlab mablag'larni budjetga tushirish imkoniyati yo'qotilganini ta'kidlab, tegishli vazirlik va hududlar rahbarlariga kamchiliklarni bartaraf etish, belgilangan vazifalar ijrosini qat'iy nazorat qilish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Yig'ilishda bu o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini aholi va tadbirkorlarga chuqur tushuntirish bo'yicha Bosh vazir rahbarligida tuzilgan Ishchi guruh shtabi va uning hududiy tuzilmalari ishini yanada jonlantirish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda tariflarni tartibga solish bo'yicha taklif etilayotgan is-

lohotlarni aholiga to'liq yetkazish zarurligi ta'kidlandi. Soliq islohotlarini targ'ib qilish bo'yicha Respublika ishchi guruhi a'zolari, shuningdek, mahalliy kengashlar deputatlari, iqtisodiyot va kommunal xizmat ko'rsatish tashkilotlari mutasaddilariga joylarga borib, aholiga tariflar o'zgarishining mazmun-mohiyatini tushuntirish bo'yicha vazifalar topshirildi.

\* \* \*

**8-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev avtomobil sanoatini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda lokalizatsiya darajasini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish orqali eksportni ko'paytirish masalalari muhokama qilindi.

Yig'ilishda yagona platformada bir necha markadagi avtomobillar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari avtomobillar narxini barqaror saqlab, sifatini oshirish, yangi hamyonbop modellar ishlab chiqarish va mahalliy lashtirishni kengaytirish orqali mahsulotlarning bozordagi o'rnini mustahkamlash muhimligini ta'kidladi.

Yig'ilishda muhokama qilingan chora-tadbirlar yuzasidan mutasaddilar axborot berdi.

\* \* \*

**8-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**9-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Matematika ta‘limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta‘minlash, neft-gaz tarmog‘ini moliyaviy sog‘lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**10-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. Unda Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta nazorati davlat inspeksiyasini bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda tubdan isloh qilish masalasi muhokama etildi.

Sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish yuzasidan topshiriqlar berildi. Jumladan, sug‘urta kompaniyalarining lizing faoliyati bilan shug‘ullanishini rag‘batlantirish va lizing xizmatlari bo‘yicha soliqqa tortish tizimini takomillashtirish vazifalari belgilandi. Iqtisodiyot tarmoqlarini sug‘urta xizmatlari bilan qamrab olish muhimligi qayd etildi. Moliya vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini sug‘urtalash xarajatlarining bir qismini davlat tomonidan subsidiyalash mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

\* \* \*

**10-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**11-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston tarixi»

telekanalini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**12-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent qishloq xo'jaligi texnikasi zavodiga tashrif buyurib, bu yerda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari ushbu korxonaga uchun mo'ljallangan binoni kirib ko'rdi.

Traktor yig'ish va payvandlash sexlari, «Uz Claas Agro» O'zbekiston — Germaniya qo'shma korxonasidagi ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz Toshkent qishloq xo'jaligi texnikasi zavodida agrar soha mashinasozligini rivojlantirish bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Unda qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarishni rivojlantirish, mahsulot va xizmatlar turlarini kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**15-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev uzluksiz professional ta'lim tizimini yanada takomillash-tirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Unda o'rta bo'g'in mutaxassislari va ishchi kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlashning samarali tizimini yo'lga qo'yish masa-

lari muhokama qilindi. Kollejlar negizida professional ta'lim muassasalarining yangi tarmog'ini shakllantirish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda ushbu tizimni joriy qilishdan avval uning metodologiyasini yaratish, ta'lim dasturlarini xalqaro talablar asosida yangidan ishlab chiqib, o'qituvchi va ishlab chiqarish ustalarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Yoshlarni kasb-hunarga qiziktirish va rag'batlantirish bo'yicha taklif kiritish yuzasidan topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**18-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Turizm to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**18-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi bilan tanishish maqsadida Sirdaryo viloyati Xovos tumaniga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari dastlab Xovos tumani markazida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Prezident qurilishda ishlatilayotgan materiallarning narxi va sifa-

ti bilan qiziqdi. Mahalliyashtirish darajasini oshirib, ularning narxini yanada kamaytirish choralarini ko'rish kerakligini ta'kidladi. Urbanizatsiya nuqtayi nazaridan tuman kelajagini bugundan o'ylash, zarur joylarga kommunikatsiya tarmoqlari tortish, aholini ish bilan ta'minlash va bo'shagan yerlardan samarali foydalanish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Shu yerda Prezidentimizga Sirdaryo viloyati, xususan, Xovos tumanida ichimlik suvi ta'minoti va oqova tizimini rivojlantirish, «O'zbekiston temir yo'llari» aksiyadorlik jamiyati tomonidan Mirzaobod tumanida bunyod etilayotgan parrandachilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik va poliz ekinlari majmuasi, «Xavfsiz shahar» konsepsiyasi doirasida Xovos shahrida jamoat tartibini saqlash bo'yicha hamkorlikda tashkil etiladigan xizmatlar, joriy yilda tumanida tuziladigan kichik biznes subyektlari haqida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari tuman markazidagi aholining turmush sharoiti bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev Xovos tumanidagi «Saxovat» fermer xo'jaligi dalasida bo'lib, g'oz rivojini ko'zdan kechirdi.

Shu yerda viloyat tumanlari va sektorlar rahbarlari, nuroniylar, fermer va tadbirkorlar bilan uchrashuv bo'ldi. Unda qishloq xo'jaligi va kichik biznesni rivojlantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, jino-yatchilikning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z bordi.

Davlatimiz rahbari yirik sanoat korxonalarini bo'lmagan viloyatda

yalpi hududiy mahsulotni o'stirish, aholini ish bilan ta'minlashning asosiy manbayi kichik biznes bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Prezidentimiz viloyatda jino-yatchilikning, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish, aholi salomatligini ta'minlash, ta'lim tizimini takomillashtirish, kichik biznesni rivojlantirish, bunyodkorlik ishlari ko'lamini kengaytirish kabi masalalar bo'yicha zarur topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**19-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha vitse-prezidenti Siril Myuller boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasi bilan Jahon banki o'rtasidagi sheriklik aloqalarini kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Bank-moliya sektori va davlat korxonalarini isloh qilish, ta'lim, tadbirkorlik va qishloq xo'jaligini rivojlantirish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik shartlarida infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**23-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida kichik biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda ushbu tarmoqda keyingi paytda sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishilgani, lekin ular islohotlar-

ning dastlabki natijalari ekani ta'kidlanib, asosiy e'tibor hanuzgacha uchrayotgan muammolarni hal etishga qaratildi.

Iqtisodiyot va sanoat vaziri boshchiligidagi Respublika ishchi guruhi har bir tumanning salohiyatidan kelib chiqib, kichik biznesni rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha videosektor yig'ilishida sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari va yirik korxonalar o'rtasida kooperatsiyani keng yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlandi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda kooperatsiya yarmarkalari o'tkazish, mahsulot va xizmatlar o'z egasini topishi uchun «Yagona elektron kooperatsiya birja portali»ni tashkil etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda tadbirkorlik rivojiga to'siq bo'layotgan yana bir muammo — loyihalarni joylashtirish uchun yer ajratish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan mutasaddi vazirlik va idoralar rahbarlari, hokimlar so'zga chiqdi.

\* \* \*

**23-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yer qa'rini geologik jihatdan o'rganishni yanada takomillashtirish va 2020—2021-yillarda

mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**24-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aksiz solig'iga tortiladigan ayrim mahsulot turlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti — Elboshi Nursulton Nazarboyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayev, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an, shuningdek, Birlashgan Arab Amirliklari Bosh vazirining o'rinbosari, Prezident ishlari bo'yicha vazir shayx Mansur bin Zoid Ol Nahayon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat va hukumat rahbarlari Shavkat Mirziyoyevni tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mamlakatda tarixiy yangilanishlar kechayotgan bugungi muhim davrda baxt-saodat va ulkan zafarlar, ko'p millatli O'zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladilar.



\* \* \*

**25-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev tavallud topgan kuni munosabati bilan chin dildan qutlab, o'zlarining samimiy tabrikleri va ezgu tilaklarini yo'llagan davlat va hukumat boshliqlariga, xorijiy siyosat va jamoat arboblari, ishbi-larmon doiralar vakillariga, xalqaro tashkilotlar rahbarlariga, yurtimizdagi mahallalar va mehnat jamoa-lariga, barcha vatandoshlarimizga chuqur minnatdorlik izhor etdi.

\* \* \*

**26-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarni ijtimoiy-iqti-sodiy rivojlantirish borasidagi islo-hotlar, amalga oshirilayotgan bun-yodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishish maqsadida Samarqand viloyatiga tashrif buyurdi. Davlati-miz rahbari qurilish ishlarini sifatli va belgilangan muddatlarda amalga oshirish, milliy me'morlik an'anala-riga rioya etish kerakligini ta'kidladi. Aeroport faoliyatida zamonaviy bosh-qaruvni joriy qilish, rekonstruksiya ishlari amalga oshirilayotgan paytda esa Samarqandga poyezd va avto-buslar qatnovini ko'paytirish, aholi va turistlarga muqobil qulayliklar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahridagi Islom Karimov maqbara-majmuasiga tashrif buyurib, mam-lakatimizning Birinchi Prezidenti qabriga gul qo'ydi.

Davlatimiz rahbari Samarqand vi-loyatiga tashrifi davomida Oqdaryo tumanidagi «Pure milk Oqdaryo» fermer xo'jaligi dalasida bo'lib, mi-rishkorlar bilan suhbatlashdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Sa-marqand tumanidagi eshkak eshish kanaliga tashrif buyurib, bu yerda qurilishi rejalashtirilayotgan turis-tik markaz loyihasi bilan tanishdi.

Prezidentimizga 2019–2020-yil-larda viloyatda turizm sohasida amalga oshirish belgilangan 164 lo-yiha, ko'p qavatli uy-joylar qurish, ichimlik suvi va oqova tarmoqlarini modernizatsiya qilish, Samarqand shahrini markazlashgan issiqlik ener-giyasi bilan ta'minlashni yaxshilash borasidagi ishlar to'g'risida ma'lu-mot berildi.

Davlatimiz rahbari Samarqand tumanidagi «Agromir» mas'uliyati cheklangan jamiyatida bo'lib, me-va-sabzavotni qayta ishlash jarayo-nini ko'zdan kechirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand tumanida viloyat faolla-ri, sektorlar rahbarlari, nuroniylar, fermer va tadbirkorlar ishtirokida yig'ilish o'tkazdi.

Shavkat Mirziyoyev viloyatda sa-noat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda muayyan natijalarga erishilayotgan bo'lsa-da, Samarqand-ning iqtisodiyotini mustahkamlash, aholi bandligini ta'minlash va tur-mush darajasini oshirishda turizm sohasi asosiy yo'nalish bo'lishi ke-rakligini ta'kidladi. Davlatimiz rah-bari tuman va shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandli-gini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish borasidagi ishlarni jadal-lashtirish, «Urgut» erkin iqtisodiy zonasi salohiyatini kengaytirish bo-rasida topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**29-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**30-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida «O‘rta shaharlarni kompleks rivojlantirish» loyihasini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**31-iyul — 1-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi.

Davlatimiz rahbari Minsk shahridagi G‘alaba monumenti poyiga gulchambar qo‘ydi.

Tashrifning asosiy voqealari 1-avgust kuni Minsk shahridagi Mustaqillik saroyida bo‘lib o‘tdi. Rasmiy kutib olish marosimidan so‘ng Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr Lukashenko tor doirada uchrashuv o‘tkazdi.

Muloqot chog‘ida O‘zbekiston bilan Belarus o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarning bugungi holati, rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi. Davlat rahbarlari uchinchi mamlakatlar bozorlarini o‘zlashtirish maqsadida kooperatsiyani kuchaytirish lozimligiga alohida e‘tibor qaratdilar.

Muzokara rasmiy delegatsiyalar ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirildi. Unda o‘zaro savdo ko‘lamini oshirish, mintaqalararo hamkorlik uchun yangi yo‘nalishlar ochish, ilm-fan, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, ta‘lim va turizm sohalaridagi aloqalarni mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Muzokaralar yakunida qabul qilingan qarorlar va imzolangan bitimlarni amalga oshirish bo‘yicha qo‘shma yo‘l xaritasini ishlab chiqish va qabul qilishga kelishib olingdi. Hujjatlarni imzolash marosimida Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Aleksandr Lukashenkoning Qo‘shma bayonoti qabul qilindi. Ikki mamlakat hukumatlari, vazirlik va idoralari o‘rtasida 11 ta hujjat imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda davlat rahbarlari muzokaralar ochiq va konstruktiv ruhda o‘tgani, o‘zaro manfaatli kelishuvlarga erishilganini ta’kidladilar.

Shavkat Mirziyoyev Aleksandr Lukashenko hamrohligida Faxriy mehmonlar bog‘iga tashrif buyurib, xalqlarimiz do‘stligi va birodarligining ramzi sifatida ko‘chat o‘tqazdi.

Kunning ikkinchi yarmida davlat rahbarlari Minskda tashkil etilgan

«O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan» brendi ostidagi milliy mahsulotlar ko‘rgazmasiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston kompaniya va agentliklarining mutasaddilariga Belarusdagi manfaatdor korxonalar bilan kooperatsion aloqalarni o‘rnatish, qo‘shma savdo va investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Prezidentimiz Belarus Bosh vaziri Sergey Rumas hamrohligida Minsk shahridagi «Belarus» yuqori texnologiyalar parki faoliyati bilan tanishdi. Bank-moliya, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi, ekologiya va boshqa sohalar uchun yaratilgan innovatsion yechim va ishlanmalar haqida ma‘lumot berildi. Davlatimiz rahbari mazkur texnopark rezidentlari imkoniyatlarining O‘zbekistonda taqdimotini tashkil etish taklifini ilgari surdi. Texnologik hamkorlikni mustahkamlash, kadrlar tayyorlash va tajriba almashish bo‘yicha aloqalarni kengaytirish yuzasidan tavsiyalar berildi.

\* \* \*

**31-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**2-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh

qilish va uning jadal rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan telefon orqali muloqot qildi. Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Aleksandr Lukashenko va birodar Belarus xalqiga muvaffaqiyatli yakunlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Belarus Respublikasiga ilk rasmiy tashrifi davomida ko‘rsatilgan mehmondo‘stlik uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Davlat rahbarlari O‘zbekiston va Belarus o‘rtasidagi keng ko‘lamli hamkorlikni yanada rivojlantirish va do‘stlik munosabatlarini mustahkamlash borasida intilishlari qat‘iy ekanini ta‘kidladilar.

\* \* \*

**2-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahliliga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda mutasaddi vazirlik va tashkilot, hududlar rahbarlarining hisobotlari eshitildi.

Davlatimiz rahbari tadbirkorlar mulklarini kompensatsiya to‘lamasdan buzish va yer maydonlarini olib qo‘yishga mutlaqo yo‘l qo‘yilmasligi uchun Bosh vazir o‘rinbosari rahbarligida Ishchi guruh tuzish, ular joylarga chiqqan holda tadbirkorlarga yetkazilgan zararni xatlovdan o‘tkazib, bu mablag‘larni

bozor qiymati asosida to'lab berish zarurligini ta'kidladi.

Videselektor yig'ilishida tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shu bilan birga, ajratilgan mablag'larning maqsadli va samarali ishlatilishini ta'minlash masalasi ham muhokama qilindi.

Yig'ilishda faoliyatini to'xtatgan kichik biznes subyektlarini qayta tiklash masalalari ham tahlil qilindi. Mutasaddilarga soliq va statistika ma'lumotlarini tahlil qilib, har bir korxonaning faoliyat ko'rsatmaslik sabablarini aniqlash vazifasi qo'yildi. Hokimlarning tadbirkorlik masalalari bo'yicha o'rinbosarlari va joylardagi iqtisodiy kompleks idoralari rahbarlari faoliyatini tiklash imkoni bo'lgan korxonalar bilan manzilli ishlab, ularning muammolarini hal etishga yordam berishi kerakligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**2-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qurbon hayitini nishonlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga Qurbon hayiti tabrigi e'lon qilindi.

\* \* \*

**12-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini oshirish va ulardan samarali foydalanish, investitsiyalarni, avvalo, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va o'zlashtirish, ishlab chiqarishni

mahalliyashtirish ko'lamini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan videselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda mutasaddi rahbarlar eksportyorlarning muammolari bilan tizimli shug'ullanmayotgani, davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlarni tadbirkorlarga yetkazib, ularning tashqi bozorga chiqishiga ko'maklashmayotgani tanqid qilindi.

Videselektor yig'ilishida yana bir muhim soha — mahalliyashtirishni kengaytirish masalasi atroflicha tahlil qilindi.

Vazirlar Mahkamasiga barcha tarmoq va hududlar korxonalarida mahalliyashtirilgan tovar ishlab chiqarish hajmini kelgusi ikki yilda kamida 20 foizga oshirish, import ulushi yuqori bo'lgan tovarlarni mahalliyashtirish bo'yicha dastur tayyorlash vazifasi qo'yildi.

Videselektor yig'ilishida tarmoqlar hamda hududlar rahbarlarining hisobot va takliflari eshiltildi.

\* \* \*

**13-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki prezidenti Szin Litsyun boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Szin Litsyun mamlakatimiz va butun Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror taraqqiyotini ta‘minlash maqsadida bankning O‘zbekiston bilan keng ko‘lamli hamkorlikni mustahkamlash borasidagi intilishi qat‘iy ekanini ta‘kidladi.

\* \* \*

**13-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasida Turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha 2019-yilning birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlarini muhokama qilish hamda 9 oy va yil yakuni bo‘yicha belgilangan prognoz parametrlariga erishishni ta‘minlaydigan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilish o‘tkazildi.

Yig‘ilishda makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash, yoqilg‘i-energetika, qayta ishlash sanoati va agrosanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, hududlarni kompleks rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy sohalarni yaxshilash, aholi farovonligini oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijalari chuqur tahlil qilindi. Makroiqtisodiyot, tarkibiy o‘zgartirishlar, moliya-bank tizimi va xususiy tadbirkorlik masalalari muhokama qilindi. Yig‘ilishda davlat budjetining daromadlari va xarajatlari mutanosib bo‘lishini ta‘minlash, mahalliy budjetlarga qo‘shimcha tushumlar bo‘yicha rezervlar topish va safarbar qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

\* \* \*

**15-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Xavfsizlik kengashining mamlakatimiz tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy natijalari va istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda mamlakatimizning xorijiy sheriklar bilan hamkorligining amaliy natijalari, global tendensiyalar, shuningdek, jahonda va mintaqada barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solayotgan zamonaviy xatarlar ko‘rib chiqildi. Keyingi yillarga mo‘ljallangan tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy vazifalari belgilab olindi.

Yig‘ilishda shu davrgacha amalga oshirilgan ishlar tanqidiy baholandi hamda mutasaddi vazirlik va ido-

ralar rahbarlariga hamkor davlatlar bilan o'zaro manfaatli muloqotni yo'lga qo'yishni davom ettirish, shuningdek, ikki va ko'p tomonlama aloqalar doirasida milliy manfaatlarni ta'minlash yuzasidan aniq topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**15-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida muvofiqlikni baholash tizimini yanada takomillashtirish va sinov laboratoriyalari kompleksini rivojlantirish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qorako'lchilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**19-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent davlat agrar universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20–21-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar ijrosi bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari Mo'ynoq tumanida Amudaryo deltasida kichik suv havzalari barpo etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, «Mo'ynoq porloq teks» korxonasi faoliyati bilan tanishdi, ishchilar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz «Mo'ynoq akva sanoat»ning salohiyati, bu yerda tayyorlanadigan mahsulot turlari va ularni eksport qilish imkoniyatlari bilan tanishdi. Shu yerda Qoraqalpog'istonda baliqchilikni rivojlantirish, Orol dengizining qurigan tubida yashil butazorlar barpo etish va mintaqada ekologik holatni yaxshilash borasidagi loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev Mo'ynoq tumanidagi Madaniyat markazida qoraqalpog'istonlik faollar bilan uchrashdi.

Prezidentimiz Tebinbuloq koni negizida kon-metallurgiya kompleksini qurish loyihasi bilan tanishdi. Shavkat Mirziyoyev xorijiy kompaniyalar mutaxassislari bilan suhbatlashdi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezidentimiz raisligida Nukus shahrida Qoraqalpog'istonni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda Qoraqalpog'istonni yanada taraqqiy ettirish bo'yicha beshta ustuvor yo'nalish belgilab berildi.

**Birinchisi** — sanoatni rivojlantirish, barcha tarmoqlarda yirik va kichik ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishdan iborat. **Ikkinchi ustuvor yo'nalish** tadbirkorlik jadal rivojlanishi uchun keng yo'l ochib berish va uni har taraflama qo'llab-quvvatlashdir. Qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyalarni keng joriy qilgan holda, ishlab chiqarish hajmi, hosildorlik va mahsulot turlarini keskin oshirish **uchinchi ustuvor yo'nalish** etib belgilan-

di. **To'rtinchisi** — ishlab chiqarish va odamlar uchun qulay bo'lgan zamonaviy infratuzilmani yaratish. Orolbo'yi aholisining yashash sharoiti va turmush darajasini yaxshilash yuzasidan keng qamrovli ishlarni amalga oshirish esa **be-shinchi ustuvor yo'nalish** sifatida e'lon qilindi.

Shavkat Mirziyoyev Nukus shahridagi Prezident maktabida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Shu yerda Nukus shahri bosh rejasini, «Nukus City» qurilishi mo'ljallanayotgan hudud haqida ham ma'lumot berildi.

Shavkat Mirziyoyev Taxiatoş tumanidagi «Maded Botir» fermer xo'jaligi dalasida g'oz rivojini ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz Taxiatoş issiqlik elektr stansiyasida quvvati 230—280 megavatt bo'lgan ikkita bug'-gaz qurilmasini barpo etish bo'yicha amalga oshirilayotgan investitsiya loyihasi bilan tanishdi.

Shu yerda Prezidentimizga Ustyurt mintaqasida neft va gaz zaxiralarini aniqlash bo'yicha olib borilayotgan geologiya-qidiruv ishlarining holati haqida ham ma'lumot berildi.

\* \* \*

**22-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev AQSh Davlat kotibining siyosiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Devid Xeylni qabul qildi.

\* \* \*

**22-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya sama-

radorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor choratadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**23-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» degan tamoyilga asoslangan holda, milliy g'oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi. Maktablardagi kamchiliklarni tuzatish, ta'lim sifatini nazorat qilish uchun ota-onalar, keng jamoatchilikning ishtiroki zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

Videoselektor yig'ilishida xalq ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish, muammolarni kompleks hal etish masalalari chuqur tahlil qilinib, kelgusidagi vazifalar muhokama etildi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahrida BMT ning ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (UNESCO) Bosh direktori Odri Azuleni qabul qildi.

Uchrashuvda keng ko'lamli sheriklikni yanada rivojlantirish, jumladan, Jahon merosi qo'mitasining navbatdagi sessiyasi yakunida erishilgan kelishuvlarni so'zsiz amalga oshirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

Shavkat Mirziyoyev Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qildi. Davlatimiz rahbari Imom Buxoriy majmuasini rekonstruksiya qilishga oid takliflar bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev majmua rekonstruksiyasini shoshmasdan, sifatli va chuqur o'ylab loyihalashtirish, xorij tajribasini o'rganib, ziyoratchilarga yanada keng qulaylik yaratish zarurligini ta'kidladi.

\* \* \*

Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalini yoritish uchun kelgan mahalliy va xorijiy blogerlar bilan suhbatlashdi.

Muloqot so'ngida Shavkat Mirziyoyev blogerlar bilan suratga tushdi, ularning faoliyatiga muvaffaqiyatlar tiladi.

\* \* \*

**26-avgust.** Samarqand shahrida «Sharq taronalari» XII xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ish-

langan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro uzumchilik va vinochilik tashkilotini ta'sis etish to'g'risidagi Bitimni (Parij, 2001-yil 3-aprel) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Konvensiyaga (Kishinyov, 2002-yil 7-oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jismoniy tarbiya va sport obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash ishlarini moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligida mo'ljallanmagan bo'sh turgan yer uchastkalarini berish hamda arxitektura-qurilish ishlarini amalga oshirish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.



\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini qo'riqlash va himoya qilish tizimini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan ishchi yig'ilish bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda bajarilgan ishlar tanqidiy baholanib, O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini qo'riqlash va himoya qilish tizimining samaradorligini yanada oshirish yuzasidan mutasaddi tuzilmalar rahbarlariga aniq topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro mehnat tashkilotining qishloq xo'jaligida mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi 129-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 1969-yil 25-iyun) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro mehnat tashkilotining sanoat va savdoda mehnat inspeksiyasi to'g'risidagi 81-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 1947-yil 11-iyul) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi budjetini shakllantirish va ijro etishning yangi mexanizmlari joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjat-

lariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**28-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Qahramoni» unvonini berish to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**28-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yilligi munosabati bilan fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, adabiyot, madaniyat va san'at sohalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yilligi munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir

guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**29-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**29-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligi munosabati bilan Rossiya Federatsiyasining O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi Vladimir Lvovich Tyurdenev «Mehnat shuhrati» ordeni bilan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muvofiqlashtiruvchisi Helena Freyzer, AQShdagi J. Hopkins universiteti qoshidagi Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti rahbari Frederik Starr, AQSh Kongressi Vakil palatasi a'zosi Trent Kelli, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining O'zbekistondagi loyihalari muvofiqlashtiruvchisi Jon

Mak Gregor «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlandi.

\* \* \*

**30-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Moddiy madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishi kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**30-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida kosmik faoliyatni rivojlantirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**30-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari dastlab Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabining rekonstruksiya qilingan yangi binosini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari bilim yurtining o'qituvchi va murabbiylari bilan suhbatlashdi.

Eng ulug', eng aziz bayramimiz arafasida Toshkentda yana bir yirik majmua — «Navro'z» bog'i foydalanishga topshirildi. Prezident

Shavkat Mirziyoyev mazkur bog'da yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari etnografik shaharchani ko'zdan kechirdi. Olimlar, ijodkorlar, mahalla oqsoqollari bilan suhbatda har bir hududning o'ziga xos qadimiy madaniyati, hunarmandlik, pazandalik an'analari, folklori, etnografiyasi bu yerga keluvchilar uchun madaniy hordiq bilan birga, beqiyos tarixiy manba bo'lib xizmat qilishi qayd etildi.

Prezidentimiz Yunusobod tumani-dagi Mirzo Ulug'bek nomidagi fizika, matematika, informatika va astronomiya fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari maktabning yangi binosida yaratilgan sharoitlar, o'quv xonalarini ko'zdan kechirdi. O'quvchilar bilan suhbatlashdi.

Shavkat Mirziyoyev shundan so'ng «Tashkent City»ga kelib, kongress-holl va besh yulduzli mehmonxona, hududdagi obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz majmuada amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarini yuqori baholab, bu obyektlar ishga tushirilgach, xizmat turlarini ko'paytirishga e'tibor qaratish, xalqimizning bu yerga kelib mazmunli dam olishi uchun qulayliklar yaratish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**31-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Shahidlar xotirasi» yodgorlik majmuasida o'tkazilgan xalqimiz ozodligi va yurtimiz mustaqilligi yo'lida qurbon bo'lganlarni yod etish marosimida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari xiyobondagi ramziy qabr yonida nuroniylar, ulamo va ziyolilar bilan suhbatlashdi.

Shu kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Mustaqillik maydoniga tashrif buyurib, hurriyatimiz, porloq istiqbolimiz va ezgu niyatlarimiz ramzi bo'lgan Mustaqillik va ezgulik monumentiga gulchambar qo'ydi.

\* \* \*

**31-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan telefon orqali muloqot qildi. Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Aleksandr Lukashenkoni tug'ilgan kuni bilan samimiy muborakbod etib, unga mustahkam sog'lik, baxt-saodat va katta zafarlar tiladi. Belarus Prezidenti, o'z navbatida, iliq qutlov uchun minnatdorlik bildirib, davlatimiz rahbarini va ko'p millatli O'zbekiston xalqini Mustaqillik kuni bilan tabrikladi.

Tomonlar serqirra O'zbekiston — Belarus munosabatlari bugungi kunda yuqori sur'atlar bilan rivojlaniib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Belarus Respublikasiga amalga oshirgan ilk rasmiy tashrifining samarali natijalari ikki tomonlama hamkorlikni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishga xizmat qilgani, uni aniq mazmun bilan boyitgani ta'kidlandi.

\* \* \*

**31-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmonlariga muvofiq, mustaqilligimizning 28 yilligi

arafasida bir guruh yurtdoshlarimiz va mamlakatimiz bilan samarali hamkorlik qilib kelayotgan xorijliklar faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlangan edi. «Ko'ksaroy» qarorgohida ana shu yuksak mukofotlarni tantanali topshirish marosimi bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev yig'ilganlarni, ularning timsolida joylarda davlat mukofotlarini qabul qilib olayotgan barcha yurtdoshlarimizni muborakbod etdi.

Prezidentimiz taqdirlangan yurtdoshlarimiz va xorijlik diplomatlarga mukofotlarni tantanali ravishda topshirdi.

\* \* \*

**31-avgust.** «O'zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida Vatanimiz mustaqilligining 28 yilligiga bag'ishlangan bayram tantanasi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zlashdi.

\* \* \*

**2-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasiga tashrif buyurib, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti haykali poyiga gulchambar qo'ydi, uning yorqin xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

\* \* \*

**2-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlari o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, xalqaro musobaqalarga tayyorgarlikni kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. Unda xalqaro musobaqalarga puxta tayyorgarlik ko'rish, buning uchun joylarda zarur sharoit yaratish masalalari muhokama etildi.

Videoselektor yig'ilishida aholini, ayniqsa, yoshlarni ommaviy sportga keng jalb etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan soha mutasaddilari va hokimlar axborot berdi.

\* \* \*

**5-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari mavjud muammolarni hal etish uchun sohada

olib borilayotgan ishlarni keskin jaddallashtirish lozimligini ta'kidladi.

\* \* \*

**5-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarini kuzqish davrida barqaror ishlashga kompleks tayyorlash bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Yig'ilishda yoqilg'i-energetika kompleksidagi korxonalar faoliyati tahlil qilinib, galdagi muhim choralar belgilab berildi. Kuzqish mavsumida aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojini qoplash hamda eksportni ta'minlash, buning uchun tabiiy gaz qazib olishni ko'paytirish dasturini samarali bajarish zarurligi ta'kidlandi. Vazirlar Mahkamasi va Energetika vazirligiga iste'molchilar ehtiyojini qondirish imkoniyatlarini to'liq safarbar etish yuzasidan topshiriq berildi.

\* \* \*

**6-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020—2030-yillarda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Yig'ilishda bu sohada ishlab chiqilayotgan strategiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan muhim vazifalar belgilab berildi.

Yig'ilishda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va davlat xaridlari tizimini takomillashtirish masalalari muhokama qilinar ekan, budget mablag'larining asosiy qismini yerlarning unumdorligini oshirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, ilm-fanni rivojlantirishga sarflash

lozimligi ko'rsatib o'tildi. Sohaning eksport salohiyatini oshirish va qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish masalalariga alohida ahamiyat qaralilib, bu boradagi jahon tajribasi tahlil qilindi.

Yig'ilishda mutasaddilarga mahsulotlarni Yevropa Ittifoqi, Sharqiy Osiyo va arab mamlakatlari standartlari asosida sertifikatlash tizimini joriy etish bo'yicha topshiriqlar berildi. Buni meva navini tanlashdan boshlash kerakligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**6-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**6-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Dori vositalari noqonuniy aylanishining oldini olish choralari kuchaytirish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan

maktablarni rivojlantirish agentligini tashkil etish to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**9-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida sanitariya-epidemiologiya xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**9-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**9-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-sentabr.** Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida ish boshlagan Prezident maktabini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari maktabda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, o'quvchilar bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari xorijlik va mahalliy o'qituvchilar bilan ham muloqotda bo'ldi.

Davlatimiz rahbari tashrif chog'ida Prezident maktabining faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozib qoldirdi.

Shavkat Mirziyoyev maktabning ilk o'quvchi va o'qituvchilari bilan suratga tushdi, yangi maskanga zamonaviy avtobus sovg'a qildi.

\* \* \*

**10-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ba'zi davlat organlarining faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**11-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Iste'molchilar huquqlarini himoya qilishning huquqiy va institutsional tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish hamda davlat budjetiga kafolatlangan tushumlarni ta'minlash masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Majlisda biznes muhitini yaxshilash bo'yicha qonuniy asoslarni takomillashtirish va aniq yo'nal-

tirilgan amaliy choralar ko'rish haqida alohida to'xtalib o'tildi.

Videoselektor yig'ilishida muhokama qilingan masalalar bo'yicha mutasaddi rahbarlar va hokimlarning hisoboti va takliflari eshitildi.

\* \* \*

**12-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Psixiatriya yordami ko'rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**13-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Chiroqchi» erkin iqtisodiy zonasini tashkil etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Farg'ona viloyatidagi «Qo'qon» erkin iqtisodiy zonasiga tashrif buyurdi. Bu yerda, dastlab, Qo'qon va Marg'ilon shaharlarini kompleks rivojlantirishga xorijiy investitsiyalar jalb etish bo'yicha yangi loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qo'qon» erkin iqtisodiy zonasidagi «Shaffof omadli sanoat» qo'shma korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari shu yerda «Qo'qon» erkin iqtisodiy zonasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ko'zdan kechirdi, farg'onalik tadbirkorlar bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari Qo'qon shahridagi Buyuk allomalar muzeyida Farg'ona viloyati faollari, nuroniy-

lar, ziyolilar bilan muloqot qildi. Unda madaniyat, ma'rifat sohalaridagi o'zgarishlar, yoshlar ta'lim-tarbiyasi haqida so'z bordi.

Davlatimiz rahbari Qo'qon shahridagi Buyuk allomalar muzeyi yonida shahar ahli vakillari bilan uchrashdi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Qo'qon shahrida birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivali ochildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Anjuman o'tkaziladigan maydon atrofida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston kabi qo'shni davlat hamda boshqa xorijiy mamlakatlardan kelgan hunarmandlar buyumlari ko'rgazmasi tashkil etilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev festival ochilish marosimidan so'ng ushbu mahsulotlarni ko'zdan kechirdi, hunarmandlar bilan suhbatlashdi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tuzish to'g'risidagi Naxichevan Bitimini (Naxichevan, 2009-yil 3-oktabr) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**16-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisining Davlat dumasi raisi Vyacheslav Volodin boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Uch-

rashuvda mamlakatlarimiz o'rtasida siyosiy muloqotni yanada rivojlantirish, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, ilmiy-texnik, ta'lim, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalari yuzasidan fikr almashildi. Faol parlamentlararo muloqot va almashinuvlarni, jumladan, O'zbekiston va Rossiya parlamentlari palatalari o'rtasida yo'lga qo'yilgan hamkorlik mexanizmlaridan samarali foydalanish holda davom ettirish muhimligiga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**16-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Osiyo futbol konfederatsiyasi prezidenti Shayx Salmon bin Ibrohim al-Xalifani qabul qildi.

Uchrashuvda Osiyo futbol konfederatsiyasi bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**17-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida sanoatni jadal rivojlantirish, mahalliyashtirish darajasini oshirish va ko'lamini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston sanoatini zamon talablari asosida rivojlantirish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va turini kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**19-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev suv resurslarini boshqarish tizimini isloh qilish va suvdan foydalanish samaradorligini

oshirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Unda sug'orishdagi yo'qotishlarni qisqartirish, ajratilayotgan budjet mablag'laridan samarali foydalanish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**20-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi, Yaponiya hamda Fransiya Respublikasining mamlakatimizdagi favqulodda va muxtor elchilari etib tayinlangan Ahmad Holid Elmiy, Santosh Ja, Timoti Torlot, Yoshinori Fujiyama va Izabel Servoz-Galluchchidan ishonch yorliqlarini qabul qildi. Davlatimiz rahbari elchilarni O'zbekistondagi diplomatik missiyasini boshlagani bilan samimiy tabriklab, ularga ushbu sharafl va mas'uliyatli vazifada muvaffaqiyatlar tiladi.

\* \* \*

**20-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi «O'zarxiv» agentligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**20-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qurilish sohasiga



axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari kengashining sudyalari va advokatlar mustaqilligi masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Diye-go Garsiya-Sayanni qabul qildi.

Uchrashuvda hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari yuzasidan atroflicha fikr almashildi, O'zbekistonning sud-huquq sohasidagi qonunchiligini yanada takomillash-tirish jihatlari va qo'shma tadbirlar o'tkazish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**26-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**27-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**27-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Rossiya Federatsiyasining Yekaterinburg shahrida boks bo'yicha bo'lib o'tgan jahon chempionatida yuqori natijalarga erishgan sportchi va murabbiylardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-sentabr.** Prezidentning Ko'ksaroy qarorgohida Rossiya Federatsiyasining Yekaterinburg shahrida bo'lib o'tgan boks bo'yicha jahon chempionatida yuksak natijalarga erishgan bir guruh sportchi va murabbiylarga yuksak mukofotlarni topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Prezidentimiz tomonidan boksni maktablar, mahallalar, tumanlar va viloyatlar darajasida rivojlantirish yuzasidan zarur sharoitlar yaratish bo'yicha konsepsiya ishlab chiqish, boksni umummilliy sport turiga aylantirish yuzasidan alohida dastur va chora-tadbirlar qabul qilishga doir muhim taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Sportchilarga Vatanimizning yuksak mukofotlari topshirildi.

\* \* \*

**30-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bolalar musiqa va san'at maktablari rahbar, o'qituvchi va konsertmeysterlari mehnatiga

haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**2-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo'lib turgan Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenkoni qabul qildi.

Uchrashuvda ikki tomonlama munosabatlar, shuningdek, oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda hamda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, innovatsion, transport-logistika, agrosanoat, ilmiy-texnik sohalarida istiqbolli loyihalarni ilgari surishda, ta'lim va madaniy-gumanitar almashinuvlarni kengaytirishda ikki mamlakat parlamentlarining faol ishtirokiga oid dolzarb masalalar ko'rib chiqildi. Xalqaro parlamentlararo tashkilotlar doirasida hamkorlikni mustahkamlash muhimligi alohida qayd etildi.

\* \* \*

**2-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev yo'l xo'jaligini rivojlantirish va ushbu sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda ushbu sohani rivojlantirish, qurilish loyihalarini barqaror moliyaviy manba bilan ta'minlash masalalari muhokama qilindi. Avtomobil yo'llarini qurish yoki ta'mirlash ishlariga xalqaro tashkilotlar va xususiy sheriklarni faol jalb qilish zarurligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**3-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro hunarmand-

chilik festivalini o'tkazib borishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiy tilli davlatlar Ishbilarmonlar kengashi majlisi va Investitsiya forumida ishtirok etish uchun mamlakatimizga tashrif buyurgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi bosh kotibi Bag'dat Amreyevni qabul qildi.

Uchrashuvda Turkiy kengashning, birinchi navbatda, savdo, investitsiyalar, innovatsiyalar, transport, turizm, madaniy-gumanitar almashinuvlar kabi dolzarb yo'nalishlarda amaliy sheriklikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi samarali mintaqaviy tuzilma sifatidagi salohiyatiga yuksak baho berildi.

\* \* \*

**4-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Turkiya savdo palatalari va tovar birjalari ittifoqi raisi Mustafo Rifat Hisorjiqli o'g'lini qabul qildi.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasida erishilgan kelishuvlar va imzolangan bitimlarni keng ko'lamda amalga oshirish, savdo, innovatsiyalar, energetika, infratuzilmani rivojlantirish, transport, turizm, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati, boshqa tarmoqlarda qo'shma loyihalarni faol ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**4-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev aholini uzluksiz issiq suv va issiqlik quvvati bilan

ta'minlash bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda 12 ta shahardagi 5 mingga yaqin turar joyning markazlashgan issiqlik ta'minotini tiklash va ularni «yopiq tizim»ga o'tkazish, xususan, Buxoro va Chirchiq shaharlari bo'yicha tender savdolarini yakunlab, 2020-yilda foydalanishga topshirish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi xalqimizni rozi qilish, odamlarning turmush darajasi va sifatini yuksaltirish, ularning ishonchini oqlashdan iborat ekani alohida ta'kidlandi.

\* \* \*

**4-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni qabul qilinganining o'ttiz yilini keng nishonlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**7-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Oliy Majlisi Vakillar palatasi raisi Shukurjon Zuhurov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda o'zaro aloqalar barcha darajalarda faollashgani qayd etildi. Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish maqsadida qo'mitalar va parlamentlararo guruhlar darajasida yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**7-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi. Suhbat avvalida davlatimiz rahbari rossiyalik hamkasbini tug'ilgan kuni bilan samimiy muborakbod etib, unga mustahkam sog'lik, baxt-saodat va katta zafarlar tiladi. Davlat rahbarlari erishilgan kelishuvlar va imzolangan bitimlarni o'z vaqtida amalga oshirish, o'zaro savdo hajmini ko'paytirish, investitsiya, fan-texnika, transport-logistika, qishloq xo'jaligi va boshqa ustuvor sohalarda hamkorlikni kengaytirish muhim ekaniga e'tibor qaratdilar.

\* \* \*

**7-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev fond bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqib, ortiqcha cheklovlarni bekor qilish va fond bozorida ishlashni soddalashtirish zarurligini ta'kidladi.

Majlisda qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabni ko'paytirish, xorijiy birja, broker va banklarni mamlakatimiz fond bozoriga jalb etish choralari muhokama qilindi.

\* \* \*

**7-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev xorijiy mamlakatlar bilan erishilgan kelishuvlar ijrosi, yangi investitsiyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda joriy yil yanvar-sentabr oylarida eksport va investitsiya prognoz ko'rsatkichlarining ijrosi holati va yil yakuni bo'yicha ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan choralar ham ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**8-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tovar-xomashyo birjalari faoliyati samaradorligini oshirish va birja savdo mexanizmlarini yanada takomillashtirish choralari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**9-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari Olmazor

tumanida barpo etilayotgan «Olmazor business city» ishbilarmonlik markazi qurilish maydoniga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari bunyodkorlik ishlari bilan tanishar ekan, kommunikatsiya tarmoqlari, yo'l infratuzilmasi, yashil landshaftlarning joylashuviga e'tibor qaratdi.

Prezidentimiz xonadonlardagi sharoitlarni kirib ko'rdi.

Bunyodkorlik ishlarining borishi, o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot berildi. Qurilishda mahalliy materiallardan foydalanilayotgani, uylar ham to'liq yurtimizda ishlab chiqarilgan maishiy texnika va mebellar bilan jihozlanishi ta'kidlandi.

Shu yerda Olmazor tumani faollari bilan muloqot bo'ldi. Aholi farovonligini oshirish, bandligini ta'minlash, yoshlar tarbiyasiga e'tibor qaratish, jinoyatchilikning oldini olish, yurtimizda ro'y bera-yotgan o'zgarishlarni targ'ib qilish haqida so'z yuritildi.

Prezidentimiz o'tgan yili 29-iyun kuni Olmazor tumani aholisi bilan muloqot chog'ida Toshkent chinni zavodini qayta tiklash zarurligini ta'kidlagan edi. O'tgan qisqa vaqtda ushbu tashabbus amalga oshdi, zamonaviy chinni zavodi barpo etildi. Davlatimiz rahbari mazkur korxonani borib ko'rdi, yangi korxonada sexlarini ko'zdan kechirib, mahsulot tayyorlash jarayoni bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev korxonada huzurida tashkil etilgan chinni buyumlar muzeyini ko'zdan kechirdi. Zavodda ishlagan mehnat faxriylari bilan suhbatlashdi. Shu yerda Tosh-

kent shahrida amalga oshiriladigan sanoat va investitsiya loyihalari taqdimoti ham o'tkazildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tashkent City» xalqaro ishbilarmonlik markazining qurib bitkazilgan ilk obyektlari — Kongress holl va «Hilton» mehmonxonasini borib ko'rdi.

Shavkat Mirziyoyev mehmonxonada yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, hudud markazidagi xiyobonni ko'zdan kechirdi, quruvchi va mas'ullarga tegishli ko'rsatma va topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**10-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tashqi beg'araz ko'mak mablag'larini jalb etish mexanizmlarini va donorlar bilan ishlashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**10–11-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi majlisida ishtirok etdi. Sammitning asosiy tadbirlari 11-oktabr kuni bo'lib o'tdi. Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov raisligida o'tgan yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart To-

qayev, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov, Moldova Respublikasi Prezidenti Igor Dodon, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, MDH Ijroiya qo'mitasi raisi — Ijrochi kotibi Sergey Lebedev ishtirok etdi. Dastlab MDH davlat rahbarlari tor doirada uchrashuv o'tkazdi. Unda Hamdo'stlik doirasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, ushbu xalqaro tuzilma faoliyatini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi, mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida Hamdo'stlik doirasida ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish zarurligini qayd etdi hamda sheriklikning istiqbolli yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratdi.

Uchrashuvda 2020-yilda MDHga raislik O'zbekiston Respublikasiga o'tishi to'g'risidagi qaror barcha ishtirokchilar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Muzokaralar yakunida hujjatlar imzolandi. 2020-yilda MDHga raislik O'zbekiston Respublikasiga o'tishi to'g'risida qaror, Strategik iqtisodiy hamkorlik to'g'risida deklaratsiya, Sovet xalqining 1941–1945-yillarda Ulug' Vatan urushida qozonilgan G'alabaning 75 yilligi munosabati bilan MDHga a'zo davlatlar rahbarlarining Hamdo'stlik mamlakatlari xalqlari va xalqaro hamjamiyatga murojaati, 2020–2022-yillarda terrorizm, ekstremizm va zo'rvonlikning

boshqa ko‘rinishlariga qarshi kurashish bo‘yicha hamkorlik dasturi va boshqa hujjatlar qabul qilindi.

\* \* \*

MDH Davlat rahbarlari kengashining Ashxobod sammiti doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon bilan uchrashdi. Uchrashuvda savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport, madaniy-gumanitar almashinuv sohalarda va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda ikki tomonlama amaliy hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

Prezident Shavkat Mirziyoyev Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyanni qabul qildi. Uchrashuvda savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish muhimligi qayd etildi. Hukumatlararo va idoralararo darajada o‘zaro almashinuvlarni yo‘lga qo‘yishga kelishib olindi.

\* \* \*

**14-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining Biologik xilma-xillik haqidagi Konvensiyaning bioxavfsizlik bo‘yicha Kartaxena protokoliga (Monreal, 2000-yil 29-yanvar) qo‘shilishi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Madaniy ifodalarning turli xil shakllarini muhofaza qilish va qo‘llab-quvvatlash to‘g‘ri-

sidagi Konvensiyani (Parij, 2005-yil 20-oktabr) ratifikatsiya qilish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida ishtirok etish uchun Boku shahriga tashrif buyurdi. Boku xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Ozarbayjon rasmiylari kutib oldi.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev bilan uchrashdi.

Davlat rahbarlari o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalarini muhokama qilib, bu borada birinchi galdagi vazifalarni belgilab oldilar.

Uchrashuv yakunida Prezidentlar ko‘p asrlik do‘stlik va strategik sheriklikka asoslangan O‘zbekiston – Ozarbayjon munosabatlarini yanada mustahkamlash borasida intilishlari qat’iy ekanini ta’kidladilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Kavkaz musulmonlari idorasi raisi shayxulislom Oллоhshukur Poshshozodani qabul qildi. Uchrashuvda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash, konfessiyalararo muloqotni kengaytirish, ta’lim va yoshlarning ma’naviy tarbiyasi masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**15-oktabr.** Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tuzish to‘g‘risidagi Naxichevan bitimi qabul qilinganining 10 yilligi munosa-

bati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy kengashning 7-sammiti arafasida «Integratsiya va hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar» sarlavhali maqolasi Turkiyaning «Hurriyet Daily» gazetasida chop etildi. Davlatimiz rahbarining ushbu maqolasi respublika matbuotida o'zbek va rus tillarida e'lon qilindi.

\* \* \*

**15-oktabr.** Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammiti bo'lib o'tdi. Sammitda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'gan, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov, Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti — Elboshi Nursulton Nazarboyev ishtirok etdi.

Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev sammitni ochar ekan, Prezident Shavkat Mirziyoyevni O'zbekistonning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'lgani munosabati bilan tabrikladi. O'zbekiston rahbarining bu tarixiy qarori turkiy tilli davlatlarning hamjihatligi va izchil taraqqiyotiga xizmat qilishini qayd etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lishi, hech shubhasiz, tabiiy va tarixiy jarayonlar ifodasi ekanini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev sammit kun tartibiga kiritilgan masalalar

bo'yicha o'z fikr va takliflarini bildirdi.

Shavkat Mirziyoyev Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga raislik Ozarbayjon Respublikasiga o'tishi munosabati bilan Ilhom Aliyevni qutlab, unga ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

Uchrashuv yakunida hujjatlarini imzolash marosimi bo'ldi. Delegatsiyalar rahbarlari Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammiti deklaratsiyasi, Turkiy kengashning muvofiqlashtiruvchi qo'mitasini tashkil etish to'g'risidagi qaror va boshqa hujjatlarni qabul qildilar.

Turkiy kengashga a'zo davlatlar rahbarlarining O'zbekiston Respublikasining to'la huquqli a'zo sifatida Tashkilotga qo'shilishi to'g'risidagi Qo'shma bayonoti sammitning muhim voqeasi bo'ldi.

Sammit doirasida Boku shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'anning uchrashuvi bo'lib o'tdi. Davlat rahbarlari bir-birini samimiy qutlar ekan, mamlakatlari-miz o'rtasidagi do'stlik, ko'p qirrali hamkorlik va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotganini alohida mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanni qabul qildi. Suhbat chog'ida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy va madaniy-gumanitar sohalardagi sheriklik istiqbollari ko'rib chiqildi. Xalqaro ahamiyatga molik, jumladan, O'zbekiston—Yevro-

pa Ittifoqi yo'nalishidagi sheriklikning dolzarb masalalari ham muhokama etildi.

Turkiy kengash sammiti doirasida Bokuda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti — Elboshi Nursulton Nazarboyev bilan uchrashdi.

Uchrashuvda ikki tomonlama munosabatlarga oid, shuningdek, global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar muhokama qilindi.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev chorvachilik va bog'dorchilik tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda chorvachilik tarmog'ida bajarilgan ishlar va kelgusidagi rejalarni muhokama etildi, aholini arzon go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlash borasida qilingan ishlar yetarli emas, deb baholandi.

Chorvachilik tarmog'ining dolzarb muammosi hisoblangan uzluksiz ozuqa-yem ta'minotini yo'lga qo'yish masalasi ham muhokama qilindi.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Metsenatlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**17–18-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi islohotlar, amalga oshirilayotgan

bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishish maqsadida Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurdi. Shavkat Mirziyoyev dastlab Hakim Termiziy maqbarasini ziyorat qildi.

Ulamolar bilan bo'lib o'tgan suhbatda Islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma Hakim Termiziyning ma'naviy-ma'rifiy merosini chuqur o'rganish hamda yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish haqida so'z yuritildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Angor tumanidagi «Angor–Surxon g'ururi» paxta-to'qimachilik klasteri dalasida paxta hosilini ko'zdan kechirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Denov tumanidagi Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugiga qarashli harbiy qismda bo'ldi. Davlatimiz rahbari harbiy qismdagi sharoitlar, yangi tashkil etilgan bo'linmalar, askarlar va harbiy xizmatchilarning o'quv faoliyati bilan tanishdi. Oliy Bosh Qo'mondonga muddatli harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligiga bag'ishlangan ko'rgazmali mashg'ulotlar namoyish etildi. Prezidentimiz harbiy texnika va qurol-aslahalar namunalarini ko'zdan kechirdi.

Harbiylar bilan muloqotda Prezidentimizga Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugiga qarashli harbiy qismlarni zamonaviy texnika va qurol-aslaha bilan ta'minlash, qo'shinlarning boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar,



harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish, mazkur qismda jangovar va o'quv-tayyorgarlik jarayonini avtomatlashtirishga doir loyihalar haqida ma'lumot berildi.

Prezident askar va ofitserlarning jangovar shayligini oshirish, yashash va dam olish sharoitini yaxshilash, ularni uy-joy bilan ta'minlash borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish lozimligini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev harbiylarning farzandlari uchun Denov tumanidagi Bog'i Eram mahallasida «Mehnat–farovon hayot» fermer xo'jaligi tomonidan qurilgan 150 o'rinli «Smart kids» nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari bog'chadagi sharoitlarni ko'zdan kechirdi, tarbiyachilar bilan muloqot qildi. Prezidentimiz bolalarga sovg'alar topshirdi.

Shu yerda Maktabgacha ta'lim vazirligi va «O'zavtosanoat» aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan mobil va modul bog'chalar taqdimoti o'tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev Denov tumanidagi loyiha qiymati 20 million dollar bo'lgan «Denov tekstil» paxta-to'qimachilik klasterida bo'lib, uning imkoniyatlari bilan tanishdi.

Shu yerda 2019–2021-yillarda viloyatda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, Denov shahri bosh rejasida hamda kelgusi ikki yilda Denov tumanini obod qilish bo'yicha loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Prezident bu boradagi bunyodkorlik ishlarini tezlashtirish, odam-

lar uchun har tomonlama qulay uy-joylar qurish zarurligini ta'kidladi.

Prezident Jarqo'rg'on tumani-dagi «Surxonsementinvest» xorijiy korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Shu yerda viloyatda sanoat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ichimlik va oqova suv tizimlarini yaxshilash, qurilish materiallari ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirishga qaratilgan loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Viloyatga biriktirilgan elchixonalar tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari haqida ham ma'lumot berildi.

Tashrifning ikkinchi kuni Termiz shahrida Surxondaryo viloyati va tumanlar hokimlari, sektorlar rahbarlari, turli soha va tarmoqlar mutasaddilari, faollar ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Termiz shahridagi Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markaziga tashrif buyurib, bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Prezidentimiz Termiz shahridagi pillani qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan «Surxon ipagi» korxonasi bo'ldi. Shu yerda ipakchilikni rivojlantirish loyihalari, viloyatning turizm salohiyati va uni rivojlantirishning qo'shimcha imkoniyatlari haqida ma'lumot berildi.

Prezidentimiz Termiz shahridagi «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi Surxondaryo viloyati boshqarmasi faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari oilaviy qadriyatlarini o'g'il-qizlarga yoshlik chog'idan to'g'ri tushuntirish, hozirgi oilaviy muammolar bo'yicha

ilmiy ishlar qilib, hayotga tatbiq etish, xotin-qizlar bilan ishlaydigan mutaxassislarining bilimini oshirish zarurligini ta'kidladi.

\* \* \*

**21-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-oktabr.** Poytaxtimizdagi muhtasham Xalqaro Kongress markazida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev yig'ilganlarni, butun xalqimizni ushbu tarixiy sana bilan tabriklab, o'zbek tilining taraqqiyoti va istiqbollari haqida nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi nutqi «Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli» sarlavhasi bilan matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**22-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda tashrif bilan bo'lib turgan Hindiston Respublikasi Gujarot shtati bosh vaziri Vijay Rupani boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari ko'rib chiqildi. Biotexnologiyalar va agroklasterlar, to'qimachilik, farmatsevtika sanoati, av-

tomobillar uchun butlovchi qismlar va kosmetika mahsulotlari ishlab chiqarish, qurilish, mehmonxona infratuzilmasini boshqarish kabi sohalarda va boshqa yo'nalishlarda qo'shma loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**22-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kreditorlarni huquqiy jihatdan himoya qilish kuchaytirilishi hamda tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish mexanizmlari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**22-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Valyutani tartibga solish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**23-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ona suti bilan oziqlantirishni qo'llab-quvvatlash hamda go'daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**23-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020—2030-yillarga mo'l-

jallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev sanoatni rivojlantirish, neft-gaz mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'molchilarga muntazam yetkazib berish borasidagi ishlar tahliliga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda mutasaddilar joriy yilning 9 oyida ishlab chiqarish hajmi, prognoz parametrlarining bajarilishi bo'yicha hisobot berdi.

Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga sanoat tarmoqlaridagi holatni doimiy ravishda tahlil qilib borish, muammolarni tezkorlik bilan bartaraf etish, hududlarning sanoat salohiyatini yanada oshirishga turtki beradigan tizim yaratish yuzasidan topshiriq berildi. Bunda kichik va o'rta biznes korxonalarini bilan ishlashga alohida ahamiyat qaratish zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda neft-gaz tarmog'idagi ishlar holati ham tahlil qilindi.

\* \* \*

**23-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyatining 70 yilligi munosabati bilan ishlab chiqarish ilg'orlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyati tashkil topganining 70 yilligi munosabati bilan tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**24-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari dastlab Toshkent metropolitenining Yunusobod yo'nalishi ikkinchi bosqichida olib borilayotgan qurilish ishlari ni ko'zdan kechirdi. Prezidentimiz «Turkiston» bekatida bo'lib, qurilish sifati va yo'lovchilar uchun qulayligiga alohida e'tibor qaratdi.

Shu yerda «Buyuk ipak yo'li» metro bekatidan «Toshkent traktor zavodi» avtoshohbekatigacha bo'lgan yangi yo'nalish, Samarqand xalqaro aeroportining yangi terminali loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Prezident Chilonzor tumanidagi «Orient keramik» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishib, mazkur korxonaning ishchilari bilan muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari ushbu jamiyat negizida barcha viloyatlarda kichik korxonalar tashkil etish, logistikaga qulay joylar ajratib, ularni keramik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi klaster tizimida ishlatish, mahsulot turini ko'paytirib, narxini tushirish evaziga eksport hajmini oshirish zarurligini ta'kidladi. Shu

yerda Toshkent shahrida sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbariga Chilonzor tumani janubi-g'arbiy sanoat hududida amalga oshirilgan loyihalar haqida ma'lumot berildi. Shavkat Mirziyoyev har bir loyihani o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo'yicha aniq vazifalarni belgilab berdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent metropolitenining Sergeli metro yo'nalishida olib borilayotgan qurilish ishlari bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev Sergeli yo'nalishining Chilonzor yo'nalishidagi «Olmazor» bekatiga bog'lanadigan qismida amalga oshirilgan qurilish ishlarini ko'zdan kechirdi. Sergeli tumanining rivojlanib borayotgani, ko'p qavatli yangi uylar qurilayotgani nuqtayi nazaridan bu metro yo'nalishi ulkan ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi. Yo'lovchilarning metropolitengacha yetib olishi va metroda harakatlanishi uchun yaratiladigan sharoitlar bilan qiziqdi.

Shavkat Mirziyoyev Yashnobod tumaniga tashrif buyurib, yer usti halqa metrosining qurilishi bilan ham tanishdi.

Davlatimiz rahbari yangi keltirilgan poyezdga chiqib, qurilishi yakunlangan «Do'stlik-2» va «Ohangaron» bekatlari oralig'ida yurib ko'rdi, stansiyalarda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

\* \* \*

**24-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-

kasi ichki ishlar idoralari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh xodimlarni mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**25-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev bank tizimini isloh qilish va banklarning investitsiyaviy faolligini oshirish borasidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda investitsiya mablag'laridan samarali foydalanish, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishga ko'maklashish, mijozlar va bank daromadlarini ko'paytirish borasidagi ishlar yetarli emasligi tanqid qilindi. Moliya vazirligi va Markaziy bankka Jahon banki bilan birgalikda bank sektorini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishni yakunlash vazifasi qo'yildi. Davlatimiz rahbari tijorat banklarining hozirgi holatini tahlil qilib, dolzarb chora-tadbirlar haqida to'xtalib o'tdi.

\* \* \*

**28-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev aholini uy-joy bilan ta'minlash va ipoteka bozorini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda ipoteka tizimiga bosqichma-bosqich bozor mexanizmlarini joriy etish, sohada

xususiy sektorning o'rnini oshirish masalalari muhokama qilindi.

Yig'ilishda qishloqlarda uy-joy qurish tizimini isloh qilish masalasiga ham e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**29-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**29-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida regbi sport turini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**30-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi. Muloqot avvalida davlatimiz rahbari qar-dosh Turkmaniston xalqiga joriy yil 10—11-oktabr kunlari Ashxobodda o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi sammitida ko'rsatilgan mehmondo'stlik uchun minnat-

dorlik bildirdi hamda Turkmanistonning MDHDagi raisligi muvaffaqiyatli o'tayotgani bilan yana bir bor tabrikladi.

Davlat rahbarlari ko'p qirrali O'zbekiston—Turkmaniston munosabatlarining holati va uni rivojlantirish istiqbollari muhokama qildilar, shuningdek, bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar nuqtayi nazaridan xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar. O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi vaqt sinovidan o'tgan mustahkam do'stlik va yaxshi qo'shniçilik rishtalari, avvalo, savdo, transport, qishloq xo'jaligi, energetika va boshqa tarmoqlarda o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish uchun mustahkam asos bo'layotgani qayd etildi.

\* \* \*

**1-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**1-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar Hukumat rahbarlari kengashining o'n sakkizinchi majlisida ishtirok etish uchun mam-lakatimizga tashrif buyurgan Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi Bosh vaziri Li Ketsyan, Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Dmitriy Medvedev, Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Asqar Mamin, Qirg'iziston Respublikasi Bosh vaziri Muhammadqaliy Abilg'aziyev, Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda, Belarus Respub-

likasi Bosh vaziri Sergey Rumas, Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o‘rinbosari, Tashqi ishlar vaziri Rashid Meredovni qabul qildi.

\* \* \*

**2-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Huquqiy monitoringning zamonaviy mexanizmlari asosida qonun hujjatlari ijrosining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev meva-sabzavotchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish va eksportini oshirish, aholi tomorqasidan samarali foydalanishni ta‘minlash masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazdi.

Prezidentimiz bir nechta yirik eksportyor klaster tashkil etish, qishloq xo‘jaligida qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish va daromadni oshirish, mahsulot ishlab chiqaruvchilarni aniq bozor, aniq moliyaviy manba bilan ishlaydigan tadbirkorga biriktirish lozimligini ta‘kidladi.

Majlisda xalqaro hamda mahalliy moliya tashkilotlaridan mablag‘lar jalb etish orqali gilos, o‘rik, anor, shaftoli, olxo‘ri, yong‘oq kabi mevalarga ixtisoslashgan yangi zamonaviy bog‘lar tashkil qilish hisobiga hosildorlikni keskin oshirish zarurligi ta‘kidlab o‘tildi.

Prezidentimiz bog‘dorchilik rivoji uchun, avvalo, ko‘chat zarurligi, shuning uchun har yili 20 million tup ko‘chat yetishtirishni yo‘lga qo‘yish va eksport qilish imkoniyati borligini qayd etdi. Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Bog‘dorchilik va

issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligiga manfaatdor tashkilotlar bilan birga kelasi yili o‘rik, gilos, shaftoli, xo‘raki va sanoatbop uzum, anor, yong‘oq, bodom ko‘chatlari yetishtirish plantatsiyalari tashkil etish vazifasi qo‘yildi.

Yig‘ilishda belgilangan chora-tadbirlar ijrosini samarali tashkil etish uchun har bir yo‘nalishga mutasaddi rahbarlar mas‘ul ekani ta‘kidlandi.

\* \* \*

**5-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasida vaqtincha bo‘lish qoidalarini buzganligi uchun javobgarligi liberallashtirishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlari o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**5-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**7-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**7-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jismoniy shaxslar to-

monidan shaxsiy ehtiyojlari uchun tovarlarni olib o'tish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi xavfsizlik organlari va maxsus xizmatlari rahbarlari kengashining Toshkentdagi yig'ilishida ishtirok etish uchun kelgan delegatsiyalar boshliqlarini qabul qildi. Prezidentimiz mehmonlarni qutlar ekan, O'zbekistonda MDH doirasidagi ko'p qirrali munosabatlarini, jumladan, zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi kurashish borasidagi hamkorlikni kengaytirishga muhim ahamiyat qaratilayotganini ta'kidladi.

Mehmonlar samimiy qabul uchun O'zbekiston Prezidentiga minnatdorlik bildirib, o'z mamlakatlari rahbarlarining salomi va ezgu tilaklarini yetkazdilar.

Uchrashuvda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning boshqa dolzarb masalalari ham ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**7-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yilda davlat budgetiga tushumlar prognozi ijrosini ta'minlash, tadbirkorlik va kichik biznesni joylarda yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlarini aniqlash va ishga solish bo'yicha ko'rilayotgan choralar samaradorligi hamda bu boradagi dolzarb vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari joylarda tadbirkorlar ishtirokida yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish quvvatlarini yaratishga kuchli turtki berish lozimligini ta'kidladi.

\* \* \*

**7-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qoraqalpog'iston Respublikasida chorvachilik tarmoqlarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**8-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko'lamini yanada kengaytirish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasi xodimlariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**11-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**12-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ba'zi davlat organlarining faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**13-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturining vazirlar darajasidagi konferensiyasi tadbirlarida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Takexiko Nakao boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

O'zaro hamkorlik istiqbollari har tomonlama ko'rib chiqildi. Mamlakatimizda irrigatsiya-drenaj va avtomobil yo'llari infratuzilmasini modernizatsiya qilish, jumladan, boshqaruv tizimini takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish, kadrlar tayyorlash va boshqa masalalarga doir uzoq muddatli strategik va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**13-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va ipakchilik tarmoqlarini yanada rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazdi.

— Hududlarimiz salohiyatidan to'g'ri foydalanib, qayerga nima ekish, qaysi chorva turini yetishtirish, qo'shimcha qiymat zanjiri

rini yaratish orqali bozorlarimizda go'sht, sut va tuxum mahsulotlarini ko'paytirish, narxlar barqarorligini ta'minlash va daromadni oshirish bo'yicha, afsuski, samarali tizim mavjud deb ayta olmaymiz, — dedi yig'ilish avvalida Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilishda mahsulot tannarxini kamaytirish va soha raqobatbardoshligini ta'minlash masalalari ham muhokama qilindi.

Videselektor yig'ilishida ipakchilik sanoatini rivojlantirish masalalari ham ko'rib chiqildi. Bu tarmoqda katta imkoniyatlar borligi ta'kidlandi. Qishloq xo'jaligi vazirligi, «O'zbekipaksanoat» uyushmasi, viloyat hokimlari va tegishli idoralar rahbarlariga tutzorlar tashkil etish uchun yer ajratish, eskilarini yangilash, suv tejoychi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**13-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida xorijiy investorlar kengashini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2020-yilda rasmiy sana-



larni nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik dasturining vazirlar darajasidagi konferensiyasida ishtirok etish uchun Toshkent shahrida bo‘lib turgan Jahon bojxona tashkiloti bosh kotibi Kunio Mikuriyani qabul qildi.

Uchrashuvda xalqaro standartlarni joriy etish asosida bojxona organlari salohiyatini oshirish, bojxona maskanlarini zamonaviy kompleks va uskunalar bilan jihozlash, huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish, xorijdagi yetakchi markazlarda mutaxassislar tayyorlash borasidagi hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlari muhokama qilindi.

\* \* \*

**15-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish, aholini dori vositalari bilan ta‘minlash borasidagi ishlar tahlili va galdagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev el-yurt salomatligini muhofaza qilishning eng ishonchli va samarali yo‘li — diyorimizda yetishtirilgan tabiiy toza, dorivor o‘simliklar asosida yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirishdan iborat ekaniga alohida e‘tibor qaratib, aholi va sog‘liqni saqlash

muassasalarini arzon hamda sifatli dori vositalari, tibbiyot buyumlari va texnikalari bilan ta‘minlash borasidagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Yig‘ilishda yana bir muhim masala — sog‘liqni saqlash muassasalarini arzon va sifatli dori-darmonlar bilan to‘liq ta‘minlash holati ko‘rib chiqildi. Bu borada shaffoflik va oshkoralikni ta‘minlash maqsadida endilikda davlat tibbiyot muassasalari uchun dorilar xaridi, ularni saqlash va yetkazib berish yangi tartibda amalga oshirilishi belgilandi.

\* \* \*

**15-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Neft va gaz geologiya-qidiruv ishlarini tashkil etish va olib borish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**18-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahrida Belarus—O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifi-

katsiyalar institutini tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**20-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi. Prezidentimiz dastlab Mirzo Ulug'bek tumanidagi Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkiga bordi.

Davlatimiz rahbari bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, xodimlar bilan muloqot qildi.

Soha rivojiga yanada keng sharoit yaratish maqsadida bu yerda yana yettita lot qurilib, IT-ofislar, biznes markazi, mehmonxona va boshqa binolar barpo etish rejalashtirilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu yangi bosqich qurilishiga ramziy tamal toshi qo'ydi.

Shavkat Mirziyoyev «O'zekspomarkaz» milliy ko'rgazmalar majmuasida o'tayotgan O'zbekiston sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi bilan tanishdi. Prezidentimiz yarmarkada namoyish etilayotgan mahsulotlarning xaridorligi, lokalizatsiya darajasi bilan qiziqdi. Mahalliyashtirishni kengaytirish, import bo'layotgan detallar ishlab chiqarilishini o'zlashtirish, sifatni ta'minlash orqali xaridor ortti-

rish zarurligini ta'kidladi. Shavkat Mirziyoyev korxonalar rahbarlari, tadbirkorlar bilan suhbatlashib, ularning takliflarini eshitdi. Shu asosda mutasaddilarga mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarayotgan korxonalarni qo'llab-quvvatlash, ularning yirik kompaniyalar bilan sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'yish, importni qisqartirish, ishchi o'rinlarini ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Shavkat Mirziyoyevga Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida tashkil etilgan elektron kooperatsiya portali — [www.cooperation.uz](http://www.cooperation.uz) haqida ham ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari investitsiya olib kelayotgan ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ko'paytirish, ichki bozorni mustahkamlash zarurligini ta'kidladi.

Prezidentimiz O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurdi.

— Bu markaz asrlar davomida xalqimizga xizmat qiladi, uning har bir naqshi tarixga muhrlanadi. Shuning uchun markazning bezagi, ma'no-mazmuni diniy va ilmiy jihatdan asoslangan, chuqur o'ylangan bo'lishi kerak. Odamlar ham o'qib, ilm oladigan, ham ilohiy tuyg'ularni yurakdan his qiladigan muhit yaratish zarur, — dedi davlatimiz rahbari.

Butun dunyodan diniy ulamolar, islomshunos va tarixchi olimlar ishtirokida xalqaro anjuman tashkil etib, fikrlarini o'rganish, takliflar ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**21-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda xalqaro tajriba asosida bu sohada butunlay yangi tizim joriy etish masalalari muhokama qilindi. Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Davlat statistika qo'mitasiga xalqaro tashkilotlar ekspertlarini jalb etib, iste'mol savati va yashash minimumini hisoblash tartibi hamda iste'mol me'yorlarini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, aholining ehtiyojmand qatlamini aniqlash va nafaqa to'lashning aniq mezonlarini joriy etish, ijtimoiy yordam oluvchilarning yagona reyestrini shakllantirish bo'yicha topshiriqlar berildi. Ijtimoiy himoya faqat nafaqa to'lash bilan kifoyalanmasdan, balki muhtojlarning «oyoqqa turishi»ga ko'maklashish lozimligi ta'kidlandi. Sog'liqni saqlash vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga nogironlik guruhlari bo'yicha kasblar klassifikatorini qayta ko'rib chiqish, ularning ishlashiga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish yuzasidan topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**21-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yadro fizikasi instituti ilmiy tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda tashrif bilan bo'lib turgan Italiyaning Lom-

bardiya viloyati gubernatori Attilio Fontana boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Uchrashuvda O'zbekiston va Italiya o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarni kengaytirish, jumladan, Italiya va Yevropa Ittifoqining yetakchi industrial, intellektual va madaniy markazlaridan biri bo'lmish Lombardiya bilan amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbolari ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**22-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida qishloq va shaharlarda aholini uy-joy bilan ta'minlashning yangi tizimini joriy etish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar muhokamasiga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda mutasaddi vazirlik va tashkilotlar rahbarlariga yangi tartibda quriladigan uy-joylar uchun yer maydonlarini tanlab, auksionga chiqarish, kreditning yuqori chegarasini hisoblash uchun uylarning bozor qiymati asosidagi o'rtacha narxini belgilash bo'yicha topshiriqlar berildi. Qishloqlarda ham uy-joy qurilishi tizimini isloh qilish, buyurtmachi funksiyasini «Qishloq qurilish invest» injiniring kompaniyasidan bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkazish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**26-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tatariston Respublikasi Prezidenti Rustam Minnixonov boshchiligidagi Rossiya delegatsiyasini qabul qildi.

Uchrashuvda Rossiya Federatsiyasi subyektlari orasida mamlakatimiz hududlari uchun yetakchi hamkorlardan biri bo'lgan Tatariston bilan aloqalarning bugungi bosqichidagi dolzarb masalalar va amaliy sheriklikni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

O'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlash, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, kooperatsiyani kengaytirish hamda qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, elektrotexnika va farmatsevtika tarmoqlari, axborot texnologiyalari, uy-joy kommunal xo'jalik, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida amaliy loyihalarni ilgari surish muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**26-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholining ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish va uning sifatini yaxshilash uchun O'zbekiston Respublikasining suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublika suv ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**26-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Zamonaviy maktab»larni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**28-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov amaliy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Turkmaniston Prezidentining O'zbekistonga amaliy tashrifi Ko'ksaroy qarorgohida davlat rahbarlarining uchrashuvi bilan boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalarini ko'rib chiqdilar va ularni kengaytirish istiqbollarini muhokama qildilar.

Uchrashuvda hududlar o'rtasida, shuningdek, madaniy-gumanitar sohada faol aloqalarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Prezidentlar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdi.

Muzokaralardan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov Turkmaniston rahbarining kitoblari — ilmiy asarlari ko'rgazmasi bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidentiga mamlakatimizda chop etilgan Gurbanguli Berdimuhamedov kitoblarining ilk

nusxalarini sovg'a qildi. Shundan so'ng Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovga O'zbekiston Fanlar akademiyasining Faxriy akademigi unvonini berishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ushbu qaror Turkmaniston Prezidentining ilm-fan sohalarini rivojlantirish, qardosh o'zbek va turkman xalqlari o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashdagi xizmatlariga ulkan hurmat ifodasi ekanini ta'kidladi.

Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, o'z navbatida, Prezident Shavkat Mirziyoyev va O'zbekiston Fanlar akademiyasiga ko'rsatilgan yuksak e'tibor uchun chuqur minnatdorlik bildirdi, bu Turkmanistonga hurmat-ehtirom ifodasi, mamlakatning fan va ta'lim sohalaridagi yutuqlari e'tirofi, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik mustahkamligidan dalolat ekanini ta'kidladi.

\* \* \*

**29-noyabr.** Toshkentdagi Ko'ksaroy qarorgohida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev dastlab sammit mehmonlari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti — Elboshi Nursulton Nazarboyev bilan uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari oliy martabali mehmonni samimiy qutlab, unga O'zbekistonning mintaqa mamlakatlari yetakchilari uch-

rashuvlarini o'tkazish tashabbusini qo'llab-quvvatlagani uchun yana bir bor minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuvda ikki tomonlama munosabatlarga oid, shuningdek, global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov bilan uchrashuvda davlat rahbarlari O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlari izchil mustahkamlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan mu-loqotda strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan ko'p qirrali O'zbekiston—Tojikiston hamkorligi rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan uchrashuvda tomonlar mamlakatlarimiz hamkorligining dolzarb masalalari va ularni kengaytirish istiqbollarini muhokama qildilar.

Shundan so'ng Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvi boshlandi. Suratga tushish marosimidan so'ng delegatsiyalar rahbarlarining tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti — Elboshi Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Turkmaniston Preziden-

ti Gurbanguli Berdimuhamedov ishtirok etdi.

Sammitda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlashdi.

Sammit yakunida Qo'shma bayonot qabul qilindi hamda Maslahat uchrashuvlariga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish reglamenti ma'qullandi.

Turkmaniston Prezidentining taklifiga binoan davlat rahbarlari Qozog'istonning Birinchi Prezidenti — Elboshi Nursulton Nazarboyevni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvining Faxriy raisi etib bir ovozdan sayladilar.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi kelasi yili Qirg'izistonda o'tkaziladi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari uchun brifingda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev muzokaralar an'anaviy do'stlik va o'zaro anglashuv ruhida o'tgani, davlat rahbarlarining mintaqada ishonch va yaxshi qo'shnichilik muhitini yanada mustahkamlashga bo'lgan intilishi va qat'iy siyosiy irodasining yaqqol ifodasi bo'lganini ta'kidladi.

Samarali muzokaralardan so'ng Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Ko'ksaroy qarorgohidagi Faxriy mehmonlar xiyoboniga ko'chatlar o'tqazdilar.

Kunning ikkinchi yarmida davlat rahbarlari Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasiga tashrif buyurdilar. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti haykali poyiga gulchambar qo'yib, uning yorqin xotirasiga hurmat bajo keltirdilar.

\* \* \*

**30-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki» unitar korxonasini aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Volontyorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Milliy axborot agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**2-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Issiqlik ta'minoti tizimini takomillashtirish va issiqlik ta'minoti korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahrining issiqlik ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**2-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yilda ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlarni jadalashtirish, bu boradagi maqsadli parametrlarni belgilash va ta'minlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilish

o'tkazdi. Unda turli sohalarda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar ko'rsatib o'tildi, tegishli rahbarlarning faoliyati keskin tanqid qilindi.

Davlatimiz rahbari ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tanarxini kamaytirish, shu orqali raqobatbardoshlikni oshirish 2020-yilgi eng ustuvor vazifa bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Tarmoqlar rahbarlari asosiy e'tiborni investitsiyalar samaradorligiga qaratishi lozimligi qayd etildi.

\* \* \*

**3-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasining poytaxti — Dushanbe shahri raisi Rustam Emomalini qabul qildi.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz poytaxtlari Toshkent va Dushanbe shaharlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlarini muhokama qilindi.

\* \* \*

**4-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**6-dekabr.** Rossiya Federatsiyasida chop etiladigan yetakchi nashrlardan biri — «Moskovskiy komsoles» gazetasida jurnalist Mixail Rostovskiyning O'zbekistonda kechayotgan islohotlarga bag'ishlangan «Узбекистан идёт на обгон» («O'zbekiston olg'a intilmoqda») nomli maqolasi e'lon qilindi.

\* \* \*

**6-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**6-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bola huquqlarining kafolatlari yanada kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**6-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kasaba uyushmalari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**7-dekabr.** Xitoy Xalq Respublikasida «Prezident Shavkat Mirziyoyev — O‘zbekistondagi islohotlar davrining me‘mori» nomli kitob nashr etildi. Pekindagi Xitoy xalqaro muammolar akademiyasida ushbu kitobning taqdimot marosimi bo‘lib o‘tdi.

\* \* \*

**7-dekabr.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligi munosabati bilan «O‘zbekiston» xalqaro anjumanlar saroyida tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqimizni ushbu qutlug‘ ayyom bilan muborakbod etib, Asosiy Qonunimizda belgilangan fuqarolarning huquq va manfaatlarini, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lidagi ustuvor yo‘nalishlar haqida ma‘ruza qildi.

\* \* \*

**9-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan klasterlar tashkil etish, meva-sabzavot yetishtirish sifati va eksporti hajmini oshirish masalalari muhokamasiga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari meva-sabzavotchilikda ham klaster tizimini yo‘lga qo‘yish zarurligini ta‘kidladi. Sohada ko‘p yillik tajribaga ega, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasi bor tadbirkorlarni bunga jalb qilish yaxshi samara berishi qayd etildi. Mutasaddilar-

ga mahsulot yetishtiruvchi bilan klaster korxonasi o‘rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlash, ikki tomonning ham manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari bo‘sh turgan yerlar, samarasiz bog‘ va tokzorlar o‘rnida hosildor plantatsiyalar tashkil etish, meva-sabzavotlarni eksportyorlar talabi asosida yetishtirish va eksportni kengaytirish asosiy vazifa bo‘lishi zarurligini ta‘kidladi.

\* \* \*

**9-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**9-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Budjet jarayoni takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**9-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Byurokratik to‘siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamo-yillarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risi-



da»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**11-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlik subyektlarini tugatish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**11-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish natijadorligi va bu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda 2020-yilda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish bo'yicha yangi vazifalar belgilandi.

Ishchi guruhlarga bir oy muddatda har bir korxonani to'liq xatlovdan o'tkazib, ularning rentabelligi, hozirgi quvvati va istiqbolini tahlil qilgan holda, 2020-yilga mo'ljallangan aniq reja va takliflar ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

\* \* \*

**12-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining joriy yilda kutilayotgan natijalarini ko'rib chiqish va 2020-yilda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash vazifalarini belgilashga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda yil yakuniga qadar qisqa vaqtda amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Yig'ilishda iqtisodiyotda 2020-yil uchun belgilangan asosiy rejalarni ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Moliya vazirligi va Markaziy bankka ushbu ko'rsatkichlarga erishishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni hozirdan to'g'ri baholab, barcha idoralar faoliyatini muvofiqlashtirib borish yuzasidan topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**12-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yaponiyaning Nagoya shahri meri Takasi Kavamurani qabul qildi.

Uchrashuvda avtomobilsozlik, shaharsozlik, to'qimachilik, yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar, turizm va boshqa yo'nalishlarda yaqin ishbilarmonlik aloqalarini yo'lga qo'yish imkoniyatlari muhokama qilindi.

Toshkent va Nagoya shaharlari o'rtasida imzolanishi kutilayotgan hamkorlik to'g'risidagi bitim, shuningdek, poytaxtimizda Yuqori texnologiyalar parkini tashkil etish loyihasini amalga oshirish, shubha-

siz, uzoq muddatli va o'zaro manfaatli sheriklikni yanada mustahkamlashga xizmat qilishi ta'kidlandi. Nagoya O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi hamkorlik uchun ko'priklar bo'lishiga ishonch bildirildi. Istiqbolli dastur va loyihalarni amalga oshirishni ilgari surish maqsadida «Yo'l xaritasi» ishlab chiqishga kelishib olindi.

\* \* \*

**13-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «1993-yil 22-yanvardagi Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam hamda huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Konvensiyaga doir Bayonnomani (Moskva, 1997-yil 28-mart) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**13-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bankrotlik to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**13-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining (YXHT DIIHB) Saylovlarni kuzatish bo'yicha missiyasi rahbari Kayetana de Zulueta Outramni qabul qildi.

Uchrashuvda hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari xususida batafsil fikr almashildi, milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish, saylov va boshqa sohalarda qo'shma tad-

birlar o'tkazish masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**13-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**17–20-dekabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abening taklifiga binoan rasmiy tashrif dasturidagi birinchi manzil – Nagoya shahriga keldi.

Davlatimiz rahbarining Yaponiyaga tashrifi dasturi 18-dekabr kuni tongda Aichi prefekturasi gubernatori Xideki Omura bilan uchrashuvdan boshlandi.

Uchrashuvda mamlakatimiz bilan Aichi prefekturasi o'rtasida ta'lim va madaniyat sohasida samarali muloqotlar yo'lga qo'yilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zbekiston tomonidan prefekturaning sherigi etib Toshkent viloyati belgilandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Nagoya shahri meri Takasi Kavamura bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muzokarada Nagoya meriyasi delegatsiyasining O'zbekistonga tashrifi natijasida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv so'ngida Toshkent shahar hokimligi va Nagoya meriyasi o'rtasida sheriklik to'g'risida bitim imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga rasmiy tashrifi doirasidagi navbatdagi muhim manzil Nagoya universiteti bo'ldi.

Davlatimiz rahbari universitet faoliyati bilan tanishdi, uning prezidenti Seyichi Matsuo bilan uchrashdi. Uchrashuvda bir necha Nobel mukofoti sovrindorlari va boshqa olimlar ishtirok etdi.

Seyichi Matsuning O'zbekiston ilm-fani rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotganini e'tiborga olib, yaqinda Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy kengashi uni universitetning faxriy rektori etib sayladi. Shuningdek, O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan professor Noyoriga faxriy akademik unvoni berildi.

Uchrashuvda Prezidentimiz Seyichi Matsuo va Ryoji Noyorini ushbu unvonlar bilan tabrikladi.

Nagoya universitetida Prezident Shavkat Mirziyoyevga faxriy doktor unvonini topshirishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda universitet rahbariyati, professor va o'qituvchilari, talabalari hamda Nobel mukofoti sovrindorlari, Yaponiyada tahsil olayotgan o'zbekistonlik yoshlar ishtirok etdi.

Prezidentimiz O'zbekiston — Yaponiya azaliy do'stligining ramzi sifatida mamlakatimizda o'zbek va yapon tillarida chop etilgan bir qancha kitob va albomlarni Nagoya universiteti kutubxonasiga taqdim etdi. Shu yerda Shavkat Mirziyoyev Nagoya shahrida ta'lim olayotgan va fan bilan shug'ullanayotgan vatan-doshlarimiz bilan uchrashdi. Davlatimiz rahbarining tashrifi doirasida Nagoya universitetida O'zbekiston — Yaponiya talabalarining akademik forumi tashkil etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev kunning ikkinchi yarmida Tokio shahriga keldi.

Shavkat Mirziyoyev Tokio shahridagi Akasaka qarorgohida Yaponiya Bosh vaziri o'rinbosari, Moliya vaziri Taro Asoni qabul qildi. Uchrashuvda investitsiyaviy, texnologik, moliyaviy va moliyaviy-texnik hamkorlikni kengaytirish, qishloq xo'jaligi, energetika va boshqa sohalarda qo'shma loyihalarni ilgari surish istiqbollari muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yaponiya parlamentining «O'zbekiston — Yaponiya» do'stlik ligasi vakillari bilan uchrashdi. Tadbir-da ushbu liganing qator a'zolari, jumladan, uning raisi — Yaponiya Bosh vaziri o'rinbosari, Moliya vaziri Taro Aso ishtirok etdi. Mu-loqot chog'ida ikki mamlakatning amaliy hamkorligini kengaytirish, O'zbekiston va Yaponiya xalqlari do'stligini mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tokio

shahrida Yaponiya ishbilarmon doiralari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi. Unda JETRO, JICA, JABIC, NEDO, JOGMEC, Mitsubishi, Itochu, Sumitomo, Marubeni, Isuzu kabi korporatsiya va kompaniyalar, moliyaviy tuzilmalar rahbarlari ishtirok etdi. Prezidentimiz Yaponiya kompaniyalari va moliyaviy tuzilmalarini O'zbekistonda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda faol ishtirok etishga taklif qildi.

Yaponiyaga tashrifning uchinchi kuni ushbu mamlakat parlamentining quyi palatasida uchrashuvdan boshlandi. Davlatimiz rahbari Vakillar palatasi raisi Tadamori Osima bilan O'zbekiston — Yaponiya parlamentlararo munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalarini muhokama qildi.

Davlatimiz rahbari Yaponiya parlamentining Maslahatchilar palatasi prezidenti Akiko Santo bilan uchrashdi. Parlamentlararo hamkorlikning bugungi holati, ayniqsa, joriy yilda qabul qilingan qo'shma memorandum doirasida ikki mamlakat qonun chiqaruvchi organlari o'rtasida faol muloqot olib borilayotgani yuksak baholandi.

Davlatimiz rahbari Yaponiya parlamenti Maslahatchilar palatasi sessiyalari o'tkaziladigan tarixiy zal bilan ham tanishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Tokiodagi Akasaka qarorgohida Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) prezidenti Siniichi Kitaokani qabul qildi. Uchrashuv avvalida Shavkat Mirziyoyev O'zbekistondagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash va ustuvor dastur-

larni ilgari surishga qaratilgan ko'p yillik hamkorlik uchun JICA rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Tokio shahrida dunyoga mashhur yaponiyalik arxitektor Tadao Ando O'zbekiston davlat san'at muzeyini rivojlantirish konsepsiyasiga doir takliflarini taqdim etdi. Davlatimiz rahbari ushbu loyihani muzey ishining zamonaviy talablari va me'morlikdagi ilg'or yechimlarni hisobga olgan holda tayyorlash yuzasidan o'z taklif va tavsiyalarini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga rasmiy tashrifi doirasidagi asosiy tadbirlar 19-dekabr kuni Tokioda bo'lib o'tdi. Kantey qarorgohida rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi. Davlatimiz rahbarini Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abe kutib oldi.

Shundan so'ng ikki mamlakat delegatsiyalari ishtirokida muzokara o'tkazildi.

Sindzo Abe O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng miqyosli islohotlarni yuksak baholadi va ularni to'liq qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Davlatimiz Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni jonlantirishga faol hissa qo'shayotgani ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev, Yaponiya hukumati rahbariga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, yapon xalqini «Reyva» davri boshlangani bilan tabrikladi. Yaponiya hukumatiga O'zbekistondagi islohotlar va iqtisodiy modernizatsiyani qo'llab-quvvatlayotgani, shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ko'maklashayotgani uchun minnatdorlik bildirildi.

Uchrashuvda konstruktiv siyosiy muloqotni davom ettirish yoʻnalishlari koʻrib chiqildi. Dolzarb xalqaro ahamiyatga molik masalalar boʻyicha tomonlarning yondashuvlari yaqinligi qayd etildi. Parlamentlararo aloqalar, jumladan, Yaponiya parlamentidagi Oʻzbekiston bilan doʻstlik ligasining faol ishtiroki doirasida jonlangani mamnuniyat bilan taʼkidlandi. Asosiy eʼtibor mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni qoʻllab-quvvatlashga qaratildi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi boʻldi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abe Oʻzbekiston bilan Yaponiya oʻrtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish toʻgʻrisidagi Qoʻshma bayonotni imzoladilar.

Ikki mamlakat hukumatlari oʻrtasida soliq va bojxona sohalaridagi hamkorlik, shuningdek, yirik investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish boʻyicha imzolangan bitimlar almashildi. Oʻzbekiston delegatsiyasi tashrifi doirasida iqtisodiyot, sanoat, turizm, ilmfan, innovatsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mehnat migratsiyasi, taʼlim va sport sohalarida, hududlar oʻrtasida hamkorlik boʻyicha oʻndan ziyod hujjat qabul qilindi.

Shundan soʻng ikki mamlakat yetakchilari ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-dekabr kuni Tokio shahrida

Yaponiya Imperatori Naruxito bilan uchrashdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashrifi sharafiga Yaponiya Imperatori Naruxito tomonidan qabul marosimi oʻtkazildi.

Davlatimiz rahbari Yaponiyadan MDHning norasmiy sammitida ishtirok etish uchun Rossiyaning Sankt-Peterburg shahriga joʻnab ketdi.

\* \* \*

**20-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligiga aʼzo mamlakatlar Davlat rahbarlari kengashining norasmiy majlisida ishtirok etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin kutib oldi. Ikki davlat rahbarlarining suhbatlari boʻlib oʻtdi, unda ikki tomonlama munosabatlar va mintaqaviy hamkorlik istiqbollari, xalqaro ahamiyatga molik masalalar muhokama qilindi.

MDH norasmiy sammitida Armaniston, Belarus, Moldova, Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston, Qirgʻiziston va Qozogʻiston rahbarlari ham ishtirok etdi. Koʻp tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalari, jumladan, 2020-yilda Hamdoʻstlikda Oʻzbekiston raisligining ustuvor yoʻnalishlari koʻrib chiqildi.

\* \* \*

**22-dekabr.** Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylovlar boʻlib oʻtdi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

oila a'zolari bilan birgalikda Mirzo Ulug'bek tumanidagi 162-saylov uchastkasiga tashrif buyurib, ovoz berishda ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari 162-saylov uchastkasiga kelgan odamlar bilan suhbatlashdi, birgalikda suratga tushdi. Birinchi marta ovoz bergan yoshlar, ota-onasi bilan kelgan bolalarning o'qishlariga rivoj tiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev xorijiy kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan ham muloqot qildi. Ular saylovlar ochiq, yuksak saviyada o'tayotganini, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligi oshganini ta'kidladi.

\* \* \*

**23-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha xalqaro konvensiyaga (Rim, 1951-yil 6-dekabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**23-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligidan kuzatuvchilar missiyasi boshchiligida mamlakatimizda bo'lib turgan MDH Ijroiya qo'mitasi raisi — Ijrochi kotibi Sergey Lebedevni qabul qildi.

Uchrashuvda, shuningdek, O'zbekistonning Hamdo'stlik mamlakatlari bilan ko'p tomonlama hamkorligi istiqbollari yuzasidan fikr almashildi. O'zbekistonning 2020-yilda MDHda raisligini samarali tashkil

etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**23-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Parlament assambleyasi (YXHT PA) raisi Georgiy Seretelini qabul qildi. Davlatimiz rahbari mamlakatimiz 2018-yilda ushbu tuzilmadagi ishtirokini qayta tiklaganidan buyon o'zaro munosabatlar sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarilgani va ijobiy sur'atlarda rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Uchrashuvda YXHTning O'zbekistondagi saylovlarni kuzatish bo'yicha uzoq va qisqa muddatli missiyalarining faoliyatiga qulay sharoitlar yaratilgani uchun minnatdorlik bildirildi.

\* \* \*

**24-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ba'zi davlat organlarining faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**24-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Birlashgan Millatlar Tashkilotining biometrik hujjatiga ega bo'lgan chet el fuqarolari uchun O'zbekiston Respublikasiga kirishda vizasiz rejimni belgilash va viza rejimini yengillashtirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**25-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev grant mablag'larini faol jalb etish va ulardan samarali foydalanish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Unda bu boradagi mavjud kamchiliklar ko'rsatib o'tildi.

Grant mablag'larini faol jalb etish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha navbatdagi dolzarb vazifalar muhokama qilindi. Har bir ustuvor soha va tarmoq bo'yicha yangi grant mablag'larini jalb etish yuzasidan topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**26-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri va viloyatida amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi yil arafasida Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi va muzeyni borib ko'rdi. Davlatimiz rahbari dastlab ulug' adib haykalining ochilish marosimida ishtirok etib, uning poyiga gul qo'ydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari oliy o'quv yurtlarining olimlari bu yerda dars o'tishi, taniqli yozuvchi va shoirlar

mahorat saboqlarini yo'lga qo'yishi, darslar zamonaviy metodika asosida olib borilishi zarurligini ta'kidladi.

– Bugun Turon kutubxonasi yana Eski shaharga qaytarilgani jaddid bobolarimiz ruhlarini shod etdi. Fitrat, Cho'lpon, Qodiriy, Munavvar qori kabi bobolarimiz bir paytlar imorat qurmagan, boylik ortirmagan, ne-ne mashaqqat bilan topgan mablag'iga kutubxona qurdirgan. Ular mana shu kutubxonani o'zlaridan haykal qilib ketgan, desak bu ham adolatdan bo'ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yozuvchi va shoirlar, adabiyotshunos olimlar, yosh ijodkorlar bilan suhbatda davlatimiz rahbari Eski shaharda Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi, adib muzeyi va kutubxona qurilgani ushbu go'shaga yana baraka qaytayotganidan dalolat ekanini qayd etdi.

Shu kuni O'zbekiston Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti hamda Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi harbiy qismda bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev bu yerda yaratilgan sharoitlar, o'quv-tarbiya jarayoni, zamonaviy o'qitish vositalari, shuningdek, o'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qay darajada joriy etilgani bilan tanishdi.

Tashrif chog'ida harbiy xizmatchilar, vazirlik va idoralar, Fanlar akademiyasi rahbariyati, texnika yo'nalishidagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari rektorlari bilan suhbat bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbariga harbiy qismda amalga oshirilgan qurilish ishlari, mudofaa tizimida aloqa tarmoqlarini modernizatsiya qilish, jangovar va o'quv tayyorgarlik jaryonlarini avtomatlashtirish bo'yicha loyihalar to'g'risida ma'lumot berildi. Davlatimiz rahbari turli nufuzli musobaqalarda Vatanimiz sharafini munosib himoya qilayotgan harbiy sportchilar bilan ham muloqot qildi. Shavkat Mirziyoyev harbiy qism ixtiyoridagi maxsus texnika va aloqa vositalarining namunalari bilan tanishdi.

\* \* \*

**27-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Muhammad Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktabda bo'lib, u yerdagi sharoit, asbob-uskunalar bilan tanishdi, o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz maktab konferensiyalar zalida yoshlar bilan uchrashuv o'tkazdi.

Yig'ilishni videokonferensaloqa shaklida mamlakatimizning barcha hududlaridagi yoshlar, mutasaddi rahbarlar kuzatib bordi.

Uchrashuvda yoshlar hayotidagi muammolar, dolzarb vazifalar muhokama qilindi.

Yoshlar ittifoqi negizida Yoshlar ishlari agentligi tashkil etish tashabbusi yig'ilganlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Ochiq muloqot tarzida o'tgan uchrashuvda yoshlar o'z fikr-mulohazalarini bildirdi. Davlatimiz rah-

bari ularning takliflari bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**28-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Navoiy viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi islohotlar, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va qurib bitkazilgan yangi sanoat majmualari bilan tanishish maqsadida ushbu viloyatga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyatida polivinilxlorid, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasi ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda ishtirok etdi.

Prezident ramziy tugmani bosib, korxonani ishga tushirdi.

Prezidentimiz «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyatida barpo etilayotgan ammiak va karbamid hamda azot kislotasi ishlab chiqarish korxonalari qurilishini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari korxonaning ishchi-muhandislari bilan suhbatlashdi.

Prezidentga «Navoiy» erkin iqtisodiy zonasida istiqbolda amalga oshiriladigan yangi loyihalar haqida ham ma'lumot berildi. Davlatimiz rahbari «National plast» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan sanoatning yangi tarmog'i PVXdan profil va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish jarayoni bilan tanishdi.

Prezidentga korxonalar loyihasining ikkinchi bosqichi haqida ma'lumot berildi. Shuningdek, iqtisodiy hududda «Green Line Profil» mas'uliyati cheklangan jamiya-



ti faoliyati ham davlatimiz rahbari e'tiborida bo'ldi.

Import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirib, aholini arzon va sifatli qurilish materiallari bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**30-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti — Elboshi Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Mamlakatlar yetakchilari kirib kelayotgan yangi — 2020-yil munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutlab, ezgu tilaklarini izhor qildilar. Ikki tomonlama munosabatlarining dolzarb masalalari va 2019-yilda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashildi, o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash istiqbollari muhokama qilindi.

\* \* \*

**30-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**30-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-

kasi farmatsevtika tarmog'ida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining «2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

\* \* \*

**31-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an bilan telefon orqali muloqot qildi. Davlat rahbarlari kirib kelayotgan Yangi yil bilan bir-birlarini samimiy qutladilar.

Muloqotda Prezidentlar bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlar siyosat, iqtisodiyot, transport kommunikatsiyalari, turizm, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa yo'nalishlardagi o'zaro manfaatli sheriklikni yanada mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladilar. Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**31-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning oxirgi ish kunida parlament palatalari rahbarlari, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralar mutasaddilari bilan uchrashib, yil yakunlarini sarhisob qildi, 2020-yilgi muhim vazifalarni belgilab berdi.

Davlatimiz rahbari bugun erishilgan natijalar hali marra emasligini, oldimizda aholining turmush sharoitini yanada yaxshilash, mamlakatimizning iqtisodiy qudratini oshirish, imkoniyatlardan kengroq foydalanish uchun 2020-yil sinov yili bo'lishini ta'kidladi. Yig'ilishda 2019-yilda yo'l qo'yilgan xatolardan to'g'ri xulosa chiqarib, 2020-yilga belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish, mas'ul ijrochilar va muddatlarni aniqlab olish zarurligi ta'kidlandi.

Belgilangan topshiriqlarni to'liq va sifatli amalga oshirish uchun barcha rahbarlar o'z tizimida quyiga tushib, xodimlar va resurslarni maksimal darajada safarbar qilishi shartligi ko'rsatib o'tildi.

\* \* \*

**31-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqini kirib kelayotgan yangi – 2020-yil bilan tabriklab, ezgu tilaklarini bildirdi.

# 2020-yil

**6-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat boji to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**6-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Usmonxon Alimovni qabul qilib, 70 yillik tavallud ayyomi bilan samimiy tabrikladi.

Davlatimiz rahbari muftiy Usmonxon Alimovning mamlakatimizda islom madaniyati va ilm-fanini rivojlantirish, muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyati va ezgu g'oyalarini, buyuk alloma va mutafakkirlarimizning bebaho ilmiy merosini tadqiq etish va xalqaro miqyosda keng targ'ib qilish ishiga qo'shgan munosib hissasi uchun unga «El-yurt hurmati» ordenini topshirdi.

\* \* \*

**7-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**7-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev qurilish sohasidagi islohotlarni yanada jadallashtirish bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda qurilish sohasidagi muammo va kamchiliklar keskin tanqid qilindi.

Davlatimiz rahbari sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish, uni zamonaviy asosda rivojlantirish bo'yicha muhim chora-tadbirlarni belgilab berdi.

\* \* \*

**8-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Davlat budjeti parametrlarini ijro etish va hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha joriy yilgi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va bu orqali budjet tushumlarini muntazam oshirib borish zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda joriy yil birinchi chorakda budjetga soliq tushumlarini ta'minlash uchun hokimlar boshchiligida, ularning iqtisodiy masalalar bo'yicha birinchi o'rinbosarlari, moliya va soliq idoralari tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar belgilab berildi.

Elektr energiyasi va tabiiy gaz iste'moli uchun qarzdorlikni qisqartirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Videselektorda yana bir muhim masala – yangi Soliq kodeksini hayotga to'liq tatbiq etish masalasi ham atroflicha muhokama qilindi.

Yig'ilishda qurilishni moliyalashtirish masalasiga ham to'xtalib o'tildi. Moliyalashtirish manbasi aniq bo'lmagan obyektlarda qurilishni boshlash va loyiha-smeta hujjatlarisiz qurilishni moliyalashtirish taqiqlanishi qayd etildi.

\* \* \*

**9-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat xizmatlari ko'rsatish samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatidagi faoliyatining ilk kunlaridan «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak» degan g'oyani ilgari surgan edi. Maqsad odamlarimizning og'irini yengil qilish, har qanday qulayliklar yaratishdan iborat.

Shu munosabat bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 12-dekabr kuni «Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmon imzolandi. Unga muvofiq, Adliya vazirligi huzurida Davlat xizmatlari agentligi tashkil etildi.

Davlat xizmatlari markazlari orqali «yagona darcha» tamoyili asosida 130 turdan ziyod xizmatlar taqdim etilmoqda. 2017-yilda

aholiga ko'rsatilgan xizmatlar soni 12 mingtani tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 13 milliondan oshgan.

Davlatimiz rahbari bu dastlabki qadamlar ekani, aholiga qulayliklarni yanada ko'paytirish zarurligini ta'kidladi.

Yig'ilishda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Adliya vazirligiga barcha idoralarning davlat xizmatlari bilan bog'liq axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

Xorijiy tajribani qo'llagan holda, odamlarga bir murojaat asosida qo'shimcha kompleks xizmatlar ko'rsatish hamda fuqaroning murojaatisiz ham unga kerakli xizmat turlarini taklif qilish mumkinligi qayd etildi.

Prezidentimiz tomonidan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda elektron raqamli imzo talab etiladigan xizmat turlari uchun shaxsni tasdiqlashning muqobil, xavfsiz va sodda usullarini joriy qilish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**10-yanvar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Vatan himoyachilari bayrami arafasida, Qurolli Kuchlar akademiyasiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari bu yerga 2017-yil yanvar oyida kelib, harbiy

ta'limni takomillashtirish, o'sha paytdagi Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti negizida mutlaqo yangi o'quv muassasasi tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi. Ko'p o'tmay, Prezidentning tegishli qarori qabul qilinib, bu yerda xorijning ilg'or texnologiyalari va zamonaviy o'quv vositalarini mujassam etgan Qurolli Kuchlar akademiyasi tashkil etildi. 2018-yil yanvarda Oliy Bosh Qo'mondon mazkur yangilangan ta'lim maskani faoliyati bilan tanishgan edi.

O'tgan yili bu yerda modernizatsiya ishlari davom ettirilib, yangi obyektlar qurildi. Kursantlarning o'qishi va jangovar mashg'ulotlar o'tashi, sport bilan shug'ullanishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi.

Prezidentimiz o'quv muassasasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha sa'y-harakatlar natijasi hamda foydalanishga topshirilgan zamonaviy ta'lim infratuzilmasi obyektlari bilan tanishdi.

Prezidentimiz kursantlarni mamlakatimiz hayotidagi muhim voqea – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 28 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bilan tabrikladi. O'quv xonalari, yotoqxonalar va suzish havzasidagi sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Shu kunning o'zida Qurolli Kuchlar akademiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida Xavfsizlik kengashining milliy armiyamizni yanada rivojlantirish va is-

loh qilish masalalariga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Xavfsizlik kengashi a'zolari, Qurolli Kuchlar, vazirlik va idoralar rahbarlari, videokonferensaloqa orqali esa hududlar rahbarlari, harbiy okrug va harbiy qismlar qo'mondonligi, jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi. Mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida axborot berildi.

Yig'ilishda Qurolli Kuchlarni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar sarhisob qilinib, vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimiyat organlarining milliy armiyamizni rivojlantirish va isloh qilish borasidagi faoliyatiga tanqidiy baho berildi.

Prezidentimiz 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida mamlakat hayotining boshqa sohalari bilan bir qatorda harbiy qurilish yo'nalishida keng miqyosli modernizatsiya ishlari amalga oshirilgani, bu bilan qisqa davrda aniq natijalarga hamda Qurolli Kuchlarimiz qiyofasi bo'yicha strategik yondashuvni shakllantirishga erishilganini ta'kidladi.

Aholini, avvalo, yoshlarni shunday ruhda tarbiyalash tizimini takomillashtirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga jalb qilish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha qo'shimcha topshiriqlar berildi.

Bundan tashqari, Qurolli Kuchlarni isloh qilish va rivojlantirishning

boshqa muhim yo‘nalishlari ko‘rib chiqildi.

Yig‘ilish yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash sohasida kelgusi ishlarni tashkillashtirish bo‘yicha vazifalar belgilandi.

\* \* \*

**10-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Vatan himoyachilari kuni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 28 yilligi munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Prezidentimiz Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘iga tashrif buyurdi.

Alisher Navoiy bobomiz nomi bilan ataluvchi O‘zbekiston Milliy bog‘ini adabiyot va ma‘naviyat bog‘iga aylantirish tashabbusi bundan uch yil ilgari Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan edi. 2017-yil fevral oyidagi tashrifi chog‘ida davlatimiz rahbari mazkur bog‘ni xalqimizning madaniy-ma‘rifiy saviyasini yuksaltiradigan, yoshlarimizda Vatanga muhabbat, adabiyotimizga hurmat tuyg‘usini kamol toptiradigan chinakam ijod va

ma‘naviyat maskaniga aylantirish yuzasidan tavsiyalar bergan edi.

Adiblar xiyobonida o‘zbek adabiyotining ma‘naviy-ma‘rifiy shajarasi sifatida yetuk adiblarimiz haykallarini o‘rnatish ko‘zda tutilgan.

Shavkat Mirziyoyev bu yerda olib borilayotgan ishlar, haykallar ko‘rinishiga oid loyihalar bilan tanishdi. Haykallar yonida lavhlar o‘rnatib hamda audioyozuvlar orqali har bir adib haqida qisqacha ma‘lumot berish, ularning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazish uchun qo‘shimcha sharoit yaratish zarurligini ta‘kidladi. Alisher Navoiy haykali gumbazini bezatish, hududni obodonlashtirish yuzasidan ko‘rsatmalar berdi.

Adiblar xiyoboni yonida Toshkent muzeyi tashkil etiladi. Muzey sobiq O‘zbekiston madaniyati va san‘ati ko‘rgazmasi binosida faoliyat boshlaydi. Ayni paytda mazkur binoni rekonstruksiya qilish yakunlanmoqda.

Davlatimiz rahbari muzey konsepsiyasiga oid loyihalar bilan tanihib, uning mazmun-mohiyatini boyitish bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirdi.

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i negizida zamonaviy va yuqori texnologiyali madaniyat va istirohat bog‘i ham barpo etilmoqda.

Prezidentimiz istirohat bog‘i qurilishini ham ko‘zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari istirohat bog‘ining yil davomida ishlashini ta‘minlash, odamlar oilaviy dam olishi uchun keng imkoniyat yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Shu yerda Toshkent shahri tumanlari hokimlari bilan shaharni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan eng muhim yo'nalishlar muhokama qilindi.

Tuman hokimlari investitsiyalar jalb etib, yangi loyihalarni ishga tushirish, tadbirkorlarga munosib sharoit yaratib, mahalliy budjetni mustahkamlash va odamlarning daromadlarini ko'paytirish yo'lida doim izlanishi zarurligi qayd etildi.

Ijtimoiy soha, qurilish va kommunal tarmoqlarni rivojlantirish, aholi va sayyohlar uchun qulayliklarni oshirish bo'yicha ham istiqboldagi muhim vazifalar belgilandi.

Shu kuni Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahridagi Xalq qabulxonasiga ham tashrif buyurdi.

Qabulxonada aholi bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot qilish, murojatlarni ko'rib chiqish uchun zamonaviy sharoitlar yaratilgan. Fuqarolarga qulay bo'lishi uchun sohaviy bo'limlar tashkil etilgan.

Davlatimiz rahbari Xalq qabulxonasida yaratilgan sharoitlarga yuqori baho berdi.

\* \* \*

**13-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev elektr energetikasi sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha joriy yilga mo'ljallangan asosiy vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoj qaysi manbalar hisobidan qoplanishi, Jahon banki va Osiyo taraqqiyot banki bilan

hamkorlikda ishlab chiqilgan «Yo'l xaritasi» ijrosi muhokama qilindi.

Prezidentimiz 2020-yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish, taqsimlash va yetkazib berish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarni to'liq, sifatli amalga oshirish zarurligini ta'kidladi.

Yig'ilishda tarmoq korxonalarida rentabellikni ta'minlash, energiya iste'moli uchun qarzdorlikni bartaraf etish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari elektr energiyasi ishlab chiqarish, taqsimlash va yetkazib berishda yo'qotishlarni kamaytirish masalasiga alohida ahamiyat qaratib, bu bo'yicha mutasaddilarga muhim topshiriqlar berdi.

Sohadagi islohotlarning keyingi bosqichida elektr energiyasining raqobatli ulgurji bozorini shakllantirish, generatsiya jarayoniga davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida investorlarni jalb qilish va bunda davlat ulushini bosqichmabosqich kamaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda sohani rivojlantirishning uzoq istiqbollari ham ko'rib chiqildi.

Mutasaddi tashkilotlarga Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda elektr energiyasi sohasida zamonaviy texnologiyalar bilan bevosita ishlaydigan o'rta va kichik bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha besh yillik dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**14-yanvar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar

Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 28 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan askar va serjantlar, ofitser va generallar, Qurolli Kuchlarimizning faxriylari, barcha yurtdoshlarimizga bayram tabrigi yo‘lladi.

\* \* \*

**14-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Notariat tizimi tubdan isloh qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yilda Birlashgan Arab Amirliklari va Yaponiyaga oliy darajadagi tashriflar yakunida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yig‘ilishda tashriflar natijalari bo‘yicha ishlab chiqilgan «yo‘l xaritalari»ga muvofiq 2020-yil uchun belgilangan chora-tadbirlarning to‘liq va sifatli ijrosini ta‘minlash zarurligini ta‘kidladi.

\* \* \*

**15-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida eksport, investitsiya va mahalliy lashtirishni kengaytirish masalalariga bag‘ishlangan videosektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga joriy yilgi eksport prognozi ijrosini to‘liq ta‘minlash bo‘yicha «yo‘l xaritasi» ishlab chiqib, mahsulotlarni qayerga, qachon eksport qilish va buni amalga oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgilash vazifasi qo‘yildi.

To‘qimachilik, meva-sabzavotchilik, charm-poyabzal, qurilish materiallari va avtomobil sanoati kabi yetakchi tarmoqlar salohiyatidan samarali foydalanish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Yig‘ilishda meva-sabzavotlar eksporti masalasi atroflicha muhokama qilindi.

Meva-sabzavot ekinlarini eksport talabidan kelib chiqib optimal joylashtirish, salohiyatli tashqi bozorlarda savdo uylari va dilerlik tarmoqlarini tashkil etish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Eksport faoliyati jozibadorligini oshirish uchun eksport va eksportoldi moliyalashtirish tizimini tashkil etish, tashish xarajatlarini qoplash mexanizmini kengaytirish borasida chora-tadbirlar belgilandi.

Videosektor yig‘ilishida investitsiyalarni jalb etish masalalari tahlil qilindi.

Yig‘ilishda tarmoqlar va hududlar rahbarlari bu borada amalga oshirishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar belgilab berildi. Tegishli vazirlik, idora va xo‘jalik birlashmalari rahbarlariga tarmoq loyihalarini o‘z vaqtida ishga tushirish bo‘yicha javobgarlik yuklandi. Hududlarda amalga oshiriladigan to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar ishtirokidagi



har bir loyihaga respublika idoralari rahbarlari mas'ul sifatida biriktirildi.

Mutasaddilarga galdagi loyihalar bo'yicha loyihaoldi ishlarini yakunlab, xorijiy investorlar bilan shartnomalar imzolash va ijrosini qat'iy nazoratga olish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Videoselektorda joriy yilda budget mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ijtimoiy va infratuzilmaviy loyihalar ijrosi ham muhokama qilindi.

Prezidentimiz investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, amalga oshirish va monitoring qilish, investitsiyalar samaradorligini baholashda muammolar saqlanib qolayotganini qayd etdi.

Mutasaddilarga xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda tarmoqlar va hududlar bo'yicha investitsiya strategiyasini ishlab chiqish, bunda jalb qilinayotgan investitsiyalar samaradorligi va iqtisodiy-ijtimoiy ta'sirini baholash, to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoyalarni yo'naltirish uchun yetakchi sohalarni belgilash vazifasi qo'yildi.

Investitsiya loyihalarini joylashtirishda birinchi navbatda infratuzilmaga ulanish imkoniyatlari va xarajatlariga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlandi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga mahalliyashtirish dasturi doirasidagi loyihalarning o'z vaqtida amalga oshirilishi bo'yicha shaxsiy nazorat o'rnatish topshirig'i berildi.

Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Savdo-sanoat palatasiga joylardagi mas'ullar bilan birgalikda Respublika sanoat yarmarkasi doirasida tuzilgan shartnomalar ijrosini to'liq va o'z vaqtida ta'minlash choralari ko'rish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**16-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri vazifasini bajaruvchi Sergey Lavrovni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida Prezidentimiz strategik sheriklik va ittifoqchilikka asoslangan ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanish sur'ati tobora ortib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Oliy darajadagi muloqot muntazamlilik kasb etgani, o'zaro almashinuvlar misli ko'rilmagan darajada faollashgani, ko'p qirrali hamkorlik, avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiya, energetika, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar, ta'lim sohalari va boshqa ustuvor yo'nalishlarda kengayib borayotgani shundan dalolat beradi.

Sergey Lavrov samimiy qabul uchun davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevga minnatdorlik bildirdi hamda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning samimiy salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi. Mamlakatlarimizning o'zaro hamkorligi bugungi darajaga erishishida ikki davlat rahbarlarining hal qiluvchi roli alohida qayd etildi.

Uchrashuvda O'zbekiston – Rossiya munosabatlarining dolzarb jihat-

lari ko'rib chiqildi, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**17-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Jahon banki vitse-prezidenti Siril Myuller boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalari va ustuvor yo'nalishlari muhokama qilindi.

\* \* \*

**17-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolarini tayinlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-yanvar.** Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi majlisi bo'lib o'tdi.

Unda hukumat a'zolari, markaziy idoralar rahbarlari, mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**20-yanvar.** Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining birinchi majlisi bo'lib o'tdi.

Majlisda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlari, mam-

lakatimiz va chet el ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**21-yanvar.** Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi.

Unda hukumat a'zolari, markaziy idoralar rahbarlari, mahalliy va chet el ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Qo'shma majlisda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**22-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**23-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-

kasida Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi tashkil etilgan «Yangi O'zbekiston» gazetasi jamoasiga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**24-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomani taqdim etdi.

Toshkent shahridagi Xalqaro kongress markazida bo'lib o'tgan anjumanda Oliy Majlis Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, vazirlik va idoralar rahbarlari, diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillari, nodavlat tashkilotlar faollari, jamoatchilik ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbarining taklifiga muvofiq, 2020-yil – mamlakatimizda «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb e'lon qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu Murojaatnomasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**27-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent xalqaro investitsiya forumini yuqori saviyada tashkil etish masalasi bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda ushbu anjumanni yuqori saviyada tashkil etish borasida aniq tashkiliy vazifalar belgilab be-

rildi. Xususan, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga tarmoq va hududlar rahbarlari bilan birga xorijiy investorlarga taklif etiladigan istiqbolli loyihalar bo'yicha taqdimot materiallari tayyorlash vazifasi qo'yildi.

Hududiy loyihalarni amalga oshirish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilar va xorijiy investorlar o'rtasida bevosita hamkorlik o'rnatishga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlandi.

Tashqi ishlar vazirligiga yetakchi xorijiy kompaniyalar, xalqaro moliya tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari vakillarini forumga jalb etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Anjuman o'tkaziladigan joylarni yuqori saviyada tayyorlash, uni ommaviy axborot vositalarida keng targ'ib etish va yoritib borish masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

\* \* \*

**27-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev sog'liqni saqlash sohasini va ilm-fan yo'nalishlarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda tibbiyot tizimini ilg'or xorijiy standartlar asosida tashkil etish, aholining sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishini yanada kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish xizmatini yanada yaxshilash, tug'ish yoshidagi ayollar tibbiy ko'rigini tizimli tashkil etish, kasallikka chalinganlarni sog'lomlashtirish bo'yicha aniq ish reja ishlab

chiqish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Tibbiyot muassasalarini ta'mirlash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalariga ham e'tibor qaratildi. Investitsiya dasturiga muvofiq, tibbiyot muassasalarini jihozlash uchun joriy yilda xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb qilish zarurligi qayd etildi.

Yig'ilishda sohada kadrlar ta'minoti, malakasi va salohiyati tanqid qilindi.

Prezidentimiz mutaxassislarni davlat buyurtmasi asosida manzilli tayyorlash, maqsadli kvotalarni tuman, qishloq va ish joyi ko'rsatilgan holda shakllantirish zarurligini ta'kidladi.

Tibbiyotda ilm-fanni rivojlantirish, ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda mutasaddilarga shu boradagi ishlarni tizimli tashkil etish, tub islohotlarni maktab ta'limidan boshlab ilmiy tadqiqot muassasalarigacha qamrab olish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev turizmni rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Tanqidiy tahlil ruhida o'tgan yig'ilishda amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Sayyohlikning an'anaviy turlari qamrovini kengaytirish bilan birga

yangi ko'rinishlarini ko'paytirish zarurligi ta'kidlandi.

Yo'lbo'yi turizm infratuzilmasini rivojlantirish, «turizm qishlog'i», «turizm ovuli» va «turizm mahallasi» loyihalarini amalga oshirish masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

«O'zbekkino» Milliy agentligiga xorijiy kinokompaniyalar bilan hamkorlikni rivojlantirish, yurtimizda suratga olish mexanizmlarini joriy etish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish masalalari ham muhokama qilindi.

Yig'ilishda joriy yilda Tokioda bo'lib o'tadigan Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev transport tizimini samarali tashkil etish borasidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda tranzit siyosatini butunlay qayta ko'rib chiqish Transport vazirligining eng muhim vazifalaridan biri ekani ta'kidlandi.

Temiryo'l tizimini tubdan isloh qilish, sohaga xususiy kapitalni keng jalb etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yangi aviakompaniyalar faoliyati uchun sharoit yaratish va parvozlar geografiyasini yanada kengaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Aholiga qulay va sifatli avto-transport xizmati ko'rsatishni ta'minlash maqsadida yo'nalishlar uchun

ochiq tenderlar o'tkazish, jamoat transportiga oid tarif va tartiblarni qayta ko'rib chiqib, raqamlashtirish lozimligi qayd etildi.

Mamlakatimizda avtomobil yo'llarining holatini yaxshilash masalasiga ham e'tibor qaratilib, xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda, tez fursatlarda Avtomobil yo'llarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Transport vazirligi huzuridagi nazorat organlarining ish uslubi eskicha ekani qayd etilib, ularning faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zarurligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «TASHKENT PHARMA PARK» innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasterini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-yanvar.** Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tavalludi kuni munosabati bilan xotira tadbirlari o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahridagi Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasiga tashrif buyurib, Birinchi Prezidentimiz haykali poyiga gulchambar qo'ydi.

Shu kuni Islom Karimov tug'ilib o'sgan va mangu orom topgan Samarqand shahrida ham xalqimizning buyuk farzandi tavallud kuni keng nishonlandi. Shundan so'ng Registon maydoni yaqinida o'rnatilgan Islom Karimov haykali poyiga gullar qo'yildi.

Qarshi shahrida ham buyuk Yo'l-boshchimiz haykali poyi gullarga burkandi.

Mamlakatimizning barcha hududlarida Birinchi Prezidentimiz tavallud kuniga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, xotira kechalari o'tkazildi.

\* \* \*

**31-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Olimlar ko'chasidagi ilmiy tadqiqot institutlariga tashrif buyurdi.

Mazkur hududda ilm-fanning turli yo'nalishlarida bir necha ilmiy tadqiqot instituti faoliyat olib boradi.

Yer qa'rini geologik o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tizimidagi 4 ta muassasa – Geologiya va geofizika instituti, Hidrogeologiya va muhandislik geologiyasi instituti, Mineral resurslar instituti, Neft va gaz konlari geologiyasi va qidiruvi instituti tomonidan olib boriladi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mazkur institutlar negizida yaxlit majmua – Geologiya fanlari universiteti tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu universitet kampusiga tamal toshi qo'ydi.

Davlatimiz rahbari shu yerda ilmiy tadqiqot institutlari xodimlari, olimlar, yosh tadqiqotchilar bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari Geologiya fanlari universiteti qurilishiga oid loyihalar bilan tanishdi. O'quv binolari va laboratoriyalarni chet el tajribasi hamda muayyan kasb yo'nalishlaridan kelib chiqib qurish, maydonlardan samarali foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasiga tashrif buyurib, olimlar, yosh tadqiqotchilar, ilmiy tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish tarmoqlari vakillari bilan uchrashdi.

Mamlakatimizda matematika, kimyo-biologiya va geologiya

ilmlarini rivojlantirish, kelgusi yillardagi taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash to'g'risida ochiq muloqot bo'ldi.

Davlatimiz rahbari sohadagi ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish maqsadida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni faollashtirish, bunga davlat maqsadli grantlari bilan birga xorijiy grantlarni ham jalbetish zarurligini qayd etdi.

Mutasaddilarga ilm-fan sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, unda o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ilm-fan, texnologik va innovatsion taraqqiyot asoslarini belgilash vazifasi qo'yildi.

Tanqidiy-tahlil ruhida o'tgan ochiq muloqotda ilm-fan yo'nalishlarida yechimini kutayotgan masalalar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari olimlar va yoshlar bildirgan takliflar yuzasidan mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**3-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo'lgan Amerika Qo'shma Shtatlari Davlat kotibi Maykl Richard Pompeoni qabul qildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev keyingi yillarda barqaror, tizimli tus olgan va o'zaro ishonchga asoslangan ko'p qirrali O'zbekiston – AQSH munosabatlari izchil rivojlanayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Maykl Pompeo O'zbekistonda olib borilayotgan demokratik yangilanishlar va iqtisodiy islohotlarning

natijadorligini yuksak baholadi. Yangi O'zbekiston rahbarining siyosati tufayli mintaqada ishonch, sheriklik va yaxshi qo'shnichilik muhitini shakllantirishda katta natijalarga erishilgani ta'kidlandi.

Uchrashuv so'ngida tomonlarning O'zbekiston Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasidagi strategik sheriklik va amaliy hamkorlik munosabatlarini har tomonlama mustahkamlash borasidagi intilishlari qat'iy ekani ta'kidlandi.

\* \* \*

**4-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishki sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev qishloq xo'jaligida klasterlar faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda Qishloq xo'jaligi vazirligiga klasterlar faoliyatini tashkil qilish, xorijiy ekspertlar

xulosasi asosida ekinlarni samarali joylashtirish, zarur urug'lik va ko'chatlarni tayyorlash, Moliya vazirligiga klasterlarni aylanma mablag'lar bilan ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda klasterlarning huquqiy maqomini belgilash, ularni tanlash, fermerlar bilan munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishning ochiq-oshkora mexanizmlarini joriy etish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Prezidentimiz klasterlarni tanlashda chuqur qayta ishlash darajasi va investitsiyalar hajmi, fermerlar bilan hisob-kitob qilishda mablag'ning yetarliligi asosiy mezon bo'lishi zarurligini ta'kidladi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Adliya vazirligiga klasterlar va fermerlarning majburiyatlarini aniq belgilab, ularning faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**5-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev tashqi iqtisodiy faoliyat tizimini isloh qilish bo'yicha ustuvor vazifalarga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Jahon bankining «Biznes yuritish» reytingida «Xalqaro savdo» yo'nalishi bo'yicha mamlakatimiz 190 ta davlat orasida 152-o'rinda qayd etilgan.

Yig'ilishda mazkur reytingda mamlakatimiz pozitsiyasini yaxshilash, jahon tajribasi asosida nazorat idoralarining ishini takomillashtirish masalalari muhokama qilindi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat jaryonini soddalashtirish uchun milliy

qonunchilikni bojxona, sanitariya-epidemiologiya, transport, standart, veterinariya, karantin yo'nalishlaridagi xalqaro kelishuvlarga uyg'unlashtirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Yig'ilishda kadrlar masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Bojxona institutida o'qitish jarayoni zamon talabiga javob bermasligi qayd etilib, uning faoliyatini tubdan takomillashtirish, shuningdek, veterinariya va karantin xodimlarini xalqaro andazalar asosida qayta tayyorlash muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**5-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qurilish-montaj ishlari sifatini tubdan yaxshilash va qurilishni nazorat qilish tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev neft-gaz sanoatidagi ishlar natijadorligi, tabiiy gaz va suyuq uglevodorodlar qazib olish hajmini oshirish bo'yicha joriy yilgi vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Unda neft-gaz sohasida joriy yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Korxonalarni modernizatsiya qilish ishlari yetarli emasligi, gaz yetkazib berishda yo'qotish ko'pligi hamda uzilishlarga yo'l qo'yilayotgani qayd etildi.

«O'zbekneftgaz» aksiyadorlik jamiyatiga har bir konning holatini tanqidiy tahlil qilib, tabiiy gaz qazib chiqarish hajmini oshirish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**10-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida gematologiya va transfuziologiya xizmatlarini rivojlantirish hamda onkogematologik va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga chalingan shaxslarni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev korrupsiyaga qarshi kurashish hamda jamoatchilik nazorati tizimlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda bu illatdan qutulish uchun korrupsiya darajasi yuqori bo'lgan sohalarda dastur ishlab chiqib, ijrosini tashkil etish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Mutasaddilarga xorijiy tajriba asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tuzilmani tashkil etishga doir hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan topshiriqlar berildi. Mazkur tuzilma nafaqat bu borada davlat siyosatini amalga oshirishi va muvofiqlashtirishi, balki korrupsiyaga qarshi kurashishda



barcha kuch va vositalarga ega bo'lishi kerakligi qayd etildi.

\* \* \*

**12-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbatda davlat rahbarlari ko'p qirrali O'zbekiston – Rossiya hamkorligi jadal rivojlanayotgani hamda strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari izchil mustahkamlanayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

2019-yilda o'zaro hamkorlikda salmoqli amaliy natijalarga erishilgani va barcha darajadagi muloqotlar sezilarli faollashgani alohida qayd etildi.

Muloqot chog'ida oliy darajadagi tadbirlar rejasi muhokama qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi kun tartibini tayyorlash, jumladan, tashrif doirasida navbatdagi hududlar va rektorlar anjumanlarini, media-forum va boshqa tadbirlarni o'tkazishga alohida e'tibor qaratildi.

Mamlakatimizning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga raisligi yilida O'zbekiston va Rossiya hamkorligi istiqbollari ko'rib chiqildi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**12-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustah-

kamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Prezidentimiz mahalla tizimidan xalq ham, davlat ham to'la rozi emasligini, bu sohada kamchilik va dolzarb masalalar ko'pligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari mahallalarda to'planib qolgan muammo va kamchiliklarga samarali yechim topish, tinchlik-osoyishtalikni asrab-avaylash yo'lida barcha sa'y-harakatlarni birlashtirish shartligini ta'kidladi. Ushbu ulkan sohaga mas'ul alohida davlat idorasi – Mahalla va oila masalalari vazirligini tashkil etish taklifi bildirildi.

Yig'ilishda mahalla institutining iqtisodiy-moliyaviy asoslarini mustahkamlash masalalari ham ko'rib chiqildi.

Moliya vazirligiga mahallalarni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy-moliyaviy asoslarini puxta ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Mutasaddi vazirlik va idoralarga mahallalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ular faoliyatiga zamonaviy axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Mutasaddilarga «Obod va xavfsiz mahalla» tamoyiliga asoslangan yangi tizimni joriy etish, mahallaga va qadriyatlarimizga hurmat tuyg'usini shakllantiradigan sahna asarlari va badiiy filmlar yaratish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Ichki ishlar vazirligiga profilaktika inspektorlariga yaratilgan sharoitlarni o'rganib, tayanch punktlarining moddiy-texnik bazasini

mustahkamlash vazifasi qo'yildi. Shu bilan birga, profilaktika inspektorlari faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqib, bu vazifaga munosib xodimlarni tayinlash bo'yicha topshiriq berildi.

Mahalla va oila masalalari bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish hamda amaliyotga joriy etish maqsadida «Oila» va «Mahalla ziyosi» markazlari negizida «Mahalla va oila» ilmiy tadqiqot institutini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari mahallalar milliy mentalitetimiz ko'zgusi ekanini, jamiyat hayotida katta o'rin tutishini ta'kidlar ekan, Navro'z bayramiga hamohang tarzda 22-mart sanasini «Mahalla tizimi xodimlari kuni» deb e'lon qilishni taklif etdi.

\* \* \*

**13-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini qo'riqlash va muhofaza qilish tizimini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan ishchi yig'ilish bo'lib o'tdi.

Tadbirda chegara qo'shinlari faoliyatining amaliy natijalari hamda mamlakatimiz Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan 2019-yil 27-avgust kuni o'tkazilgan yig'ilishda belgilangan vazifalar ijrosining borishi ko'rib chiqildi.

Zamonaviy avtomatlashtirilgan chegara nazorati tizimlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, Chegara qo'shinlari bo'linmalarining kuch

ishlalar, huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan o'zaro uyg'un hamkorligini yo'lga qo'yish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilarini professional tayyorlash sifatini oshirish, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ijtimoiy muhofaza qilish masalalari har tomonlama ko'rib chiqildi.

Markaziy Osiyo davlatlarining chegara idoralari bilan aloqalarni izchil rivojlantirish, turli xalqaro tashkilotlar bilan qo'shma tadbirlarni ko'paytirish hamda xorijiy sheriklar bilan chegaraoldi hamkorlikni faollashtirish yuzasidan erishilgan kelishuvlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Amalga oshirilayotgan ishlar tanqidiy tahlil qilinib, mutasaddi tuzilmalar rahbarlariga O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha aniq topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**13-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev axborot texnologiyalarini rivojlantirish, buning uchun zamonaviy infratuzilma yaratish masalasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki hamda uning filiallarini qurish, yuqori texnologiyali infratuzilmalar yaratish masalalari muhokama qilindi.

IT-akademiya, IT-laboratoriya, Koring markazi, Mobil ilovalar ishlab chiqish markazi, Masofaviy axborot texnologiyalari markazini barpo etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Davlat buyurtmasi asosida soha va tarmoqlar uchun zarur zamonaviy dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish mexanizmini yo'lga qo'yish taklifi bildirildi.

Jahondagi tendensiyalar bilan hamqadam bo'lib, yangi ishlanmalarni hayotga faol joriy etish, yetakchi texnoparklar bilan hamkorlikni rivojlantirish muhimligi qayd etildi.

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki xodimlari hamda xorijiy mutaxassislar uchun ko'p qavatli uylar, mehmonxona, sport majmualari barpo etish masalasiga ham e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**14-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida meva-sabzavotchilik klasterlarini samarali tashkil qilish, paxtachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirish hamda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla yetishtirish tizimidan bosqichma-bosqich voz kechish masalalari bo'yicha videoselektor yig'inishi o'tkazildi.

Videselektor yig'inishida mevasabzavotchilik va uzumchilik klasterlari faoliyatini samarali tashkil qilishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokama qilindi. Avvalo, tizimdagi shartnomaviy munosabatlarni to'g'ri shakllantirish, mahsulot yetishti-

ruvchi, qayta ishlovchi va eksportchining manfaati, majburiyati hamda javobgarligini aniq belgilash muhimligi ta'kidlandi.

Klasterlar takliflari asosida eksportbop ekinlarni joylashtirib, zarur urug'lik, ko'chat, mineral o'g'it, yoqilg'i masalasini hal qilish va ularning ta'minotini tizimli yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Joylarda klasterlar faoliyatini samarali tashkil etishga viloyatlar va tumanlar hokimlarining birinchi o'rinbosarlari shaxsan mas'ul etib belgilandi.

Paxtachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirish, davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla yetishtirish tizimidan bosqichma-bosqich voz kechish masalalari ham yig'ilishda atroflicha muhokama qilindi.

Yig'ilishda klasterlar faoliyatining samaradorligini oshirish va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasi ham atroflicha tahlil qilindi.

Videselektor yig'inishida g'alla hosilini g'amlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Videselektor orqali joylardagi klasterlar rahbarlari bilan muloqotda limonchilikni rivojlantirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Yer ajratish borasidagi muammolar ko'rib chiqildi. Sug'oriladigan maydonlarni talon-toroj qilishga chek qo'yish, har bir qarich yerdan xalq manfaati yo'lida samarali foydalanish zarurligi ta'kidlandi. Shundan kelib chiqqan holda, joylardagi mutasaddilarning mas'uliyati va javobgarligini oshirish yuzasidan tegishli vazifalar belgilab berildi.

\* \* \*

**14-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qoraqalpog‘iston tibbiyot institutini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**17-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlik faoliyatida litsenziyalash va ruxsatnomalar berish tartibini tubdan takomillashtirish bo‘yicha ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi.

Davlatimiz rahbari Adliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi va Biznesombudsman tarkibida bu borada tuzilgan ishchi guruh vazifalarining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi.

Davlatimiz rahbari litsenziya va ruxsatnomalar berish tartibi va muddatlarini ham qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta‘kidladi.

Yig‘ilishda Prezident Shavkat Mirziyoyev litsenziyalash jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni to‘liq joriy qilish zarurligini qayd etdi.

Ilg‘or xorijiy tajriba asosida barcha litsenziya talab qiluvchi faoliyat turlarida avtomatlashtirilgan risk-analiz tizimini va masofaviy nazoratni yo‘lga qo‘yish zarurligi qayd etildi.

\* \* \*

**18-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hukumatlararo qo‘shma komissiyaning navbatdagi yig‘ilishini

o‘tkazish uchun amaliy tashrif bilan mamlakatimizga kelgan Vengriya tashqi iqtisodiy aloqalar va tashqi ishlar vaziri Peter Siyyarto boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston va Vengriya o‘rtasidagi an‘anaviy do‘stlik va ko‘p qirrali sheriklik munosabatlari keyingi yillarda izchil rivojlanayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Peter Siyyarto samimiy qabul uchun O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlik va mintaqaviy, jumladan, Yevropa Ittifoqi bilan muloqot formatidagi sheriklikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**18-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotinqizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Limonchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirishga doir qo‘-

shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasi Turkiyaning Anqara shahrida turk tilida kitob shaklida chop etildi. Turkiya parlamentida mazkur nashr taqdimotiga bag'ishlangan anjuman tashkil etildi.

\* \* \*

**19–20-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'anning taklifiga binoan ushbu mamlakatga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari Anqara shahrida Anitkabir yodgorlik majmuasiga tashrif buyurib, Turkiya Respublikasining birinchi Prezidenti Mustafo Kamol Otaturk qabriga gulchambar qo'ydi.

Davlatimiz rahbari muzey bilan ham tanishdi, majmuaning faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozib qoldirdi.

Tashrifning asosiy tadbirlari Turkiya Respublikasi Prezidenti saroyida bo'lib o'tdi. Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Rejep Tayyip Erdo'g'an tor doirada uchrashuv o'tkazdi. Unda O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Samimiy ruhda o'tgan uchrashuvda ikki tomonlama siyosiy muloqot

va ko'p qirrali hamkorlikni mustahkamlashga intilish qat'iy ekani yana bir bor tasdiqlandi. Tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Davlatimiz rahbarining Turkiyaga tashrifi doirasida shu kuni Anqara shahrida Oliy darajadagi O'zbekiston – Turkiya strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an davlatimiz rahbarini tashrif bilan qutlab, mamlakatlarimiz parlamentlari, davlat idoralari va ishbiarmon doiralari o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanib borayotganidan mamnunligini bildirdi. Turkiya va O'zbekistonning qo'shma loyihalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz delegatsiyasiga ko'rsatilayotgan mehmondo'stlik va cheksiz hurmat uchun Turkiya rahbari va xalqiga tashakkur izhor etdi.

Muzokaralarda mamlakatlarimiz hamkorligiga oid barcha masalalar va ularning yechimlari, istiqboldagi asosiy vazifalar hamda qo'shma loyihalar kelishib olindi.

Shavkat Mirziyoyev Strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig'ilishini o'tkazish uchun Rejep Tayyip Erdo'g'anni O'zbekistonga taklif qildi.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'an Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi nati-

jalari to'g'risida Qo'shma bayonotni imzoladilar. Shuningdek, iqtisodiyot, savdo, texnologiyalar sohasiga oid hujjatlar imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari uchun o'tkazilgan brifingda Rejep Tayyip Erdo'g'an O'zbekiston Prezidenti tashrifidan mamnun ekanini bildirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston – Turkiya strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi do'stona aloqalar tarixida yangi sahifa ochgani, siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport, madaniy-gumanitar sohalarga oid ko'plab masalalar atroflicha muhokama qilinganini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-fevral kuni Anqara shahrida Turkiyaning yetakchi kompaniyalari va banklari rahbarlari bilan uchrashdi.

Uchrashuvda kelishuvlar va imzolangan bitimlarni keng ko'lamda amalga oshirish, savdo, innovatsiya, energetika, infratuzilmani rivojlantirish, transport, turizm, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati, boshqa tarmoqlarda qo'shma loyihalarni faol ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Anqara shahrida Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi.

Ochilish marosimida butun dunyodan ikki mingga yaqin mehmon – olimlar, yozuvchilar, ta'lim va madaniyat namoyandalari, davlat va jamoat arboblari qatnashdi. Shavkat Mirziyoyev Turkiya Prezi-

denti tomonidan taklif etilgan oliy darajadagi yagona mehmon bo'ldi.

Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Turkiya Prezidenti ushbu quvonchli ayyomda O'zbekiston Prezidenti rafiqasi bilan birga ishtirok etayotgani uchun tashakkur izhor etdi.

Shavkat Mirziyoyev dunyoda o'ta noyobbo'lgan «Usmon Mushafi»ning xattotlarimiz tomonidan ko'chirilgan nusxasi, Jaloliddin Rumiyning mashhur «Masnaviy» asari hamda Abu Bakr ar-Roziyning «Kasalliklar tarixi» asari qo'lyozmalarining faksimile nusxalari, «Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi tasviriy nusxalari» nomli kitob-albom, Yunus Emroshelrlarining o'zbek tiliga tarjimasijamlangan «O'lmas ko'ngul» deb nomlangan kitoblarni kutubxonagatuha qildi.

Shuningdek, Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasiga 350 dan ziyod turli mavzudagi kitoblar taqdim etildi.

Davlat rahbarlari rafiqalari hamrohligida Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasi faoliyati bilan tanishdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va rafiqasi mazkur mahobatli koshonaning birinchi faxriy mehmonlari bo'lishdi.

Noyob kitoblar ko'rgazmasi namoyish etildi. Turkiya Prezidenti davlatimiz rahbariga noyob kitoblardan birini sovg'a qildi. Davlat rahbarlari birgalikda O'zbekistondan keltirilgan kitoblar ko'rgazmasi bilan ham tanishdilar.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga tashrifi yakunlandi. Oliy darajadagi O'zbekiston – Turkiya muloqotining yangi formatiga asos solgan ushbu tashrif mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning muhim istiqbollarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasining tantanali ochilish marosimidagi nutqi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**21-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yil Toshkent shahrida amalga oshiriladigan qurilish va ijtimoiy loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari loyihalarining samaradorligi va ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratdi. Ularning belgilangan muddatlarda amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shuningdek, joriy yil Tokioda bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish masalalari bo'yicha ham davlatimiz rahbariga atroflicha ma'lumot berildi.

Jumladan, Olimpiadada ishtirok etadigan O'zbekiston sport delegatsiyasi uchun maxsus kiyimlar jamlanmasi dizayni ham taqdim etildi.

Davlatimiz rahbari tanlov ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan yurtimiz sportchilari va sport sh-qibozlari uchun liboslar dizayni va eskizlari yuzasidan o'z tavsiyalarini

bildirdi. Shuningdek, Tokioda bo'lib o'tadigan Olimpiadaga juda katta tayyorgarlik ko'rish bo'yicha mutasaddilarga aniq vazifalarni belgilab berdi.

\* \* \*

**24-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yaponiya va Koreya Respublikasi bilan ikki tomonlama investitsiyaviy va savdo-iqtisodiy hamkorlikning joriy holati va uni rivojlantirish istiqbollarini muhokama qilishga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda ushbu mamlakatlar bilan o'zaro savdo va investitsiya ko'rsatkichlari izchil oshib borayotgani ta'kidlandi. Erisilgan kelishuvlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish, investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish bo'yicha yangi takliflar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev oliy darajadagi tashriflar yakunida ishlab chiqilgan «yo'l xaritalari»da 2020-yilga belgilangan chora-tadbirlarning to'liq va sifatli ijrosini ta'minlash zarurligini ta'kidladi.

\* \* \*

**24-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kimyo sanoatini isloh qilish bo'yicha istiqbolli rejalar hamda joriy yilda amalga oshiriladigan asosiy vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Tanqidiy-tahliliy ruhda o'tgan yig'ilishda sohani isloh qilish, korxonalar samaradorligi va salohiyatini oshirish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Tarmoqdagi har bir korxonada faoliyatini tanqidiy tahlil qilib, mahsulotlar sifatini oshirish, energiya sarfini kamaytirish hisobiga tannarxni pasaytirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Kimyo sohasida yangi yo'nalishlarni rivojlantirish, xorijiy investorlarni keng jalb qilish zarurligi ta'kidlandi.

To'qimachilik, qurilish materiallari, avtomobilsozlik, iste'mol tovarlari, oziq-ovqat va farmasevtika uchun zarur xomashyo ishlab chiqarish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda ushbu tarmoqda ta'lim va ilm-fanni takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlash juda muhimligi ta'kidlandi.

Janubiy Koreya bilan hamkorlikda ilmiy tadqiqot instituti tashkil etish, Toshkent kimyo texnologiya institutida mutaxassisliklar va o'quv dasturlarini takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**24-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston – Qozog'iston ikkinchi hududlararo hamkorlik forumi doirasida mamlakatimizga kelgan Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Asqar Maminni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari keyingi yillarda mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarning rivojlanish sur'ati tobora ortib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Uchrashuvda, avvalo, savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport-kommunikatsiya, energetika va agrar tarmoqlarda, ta'lim, madaniyat sohalari va boshqa ustuvor yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv so'nggida keng ko'lamli O'zbekiston – Qozog'iston sherikligi doirasida yangi iqtisodiy kun tartibini shakllantirish bo'yicha «yo'l xaritasi»ni tayyorlashga kelishib olindi.

\* \* \*

**25-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish bo'yicha muhim vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Prezidentimizning 2018-yil 7-dekabrda farmoniga muvofiq, 2019–2025-yillarda Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hamda tegishli dastur tasdiqlandi.

Odamlar eng ko'p murojaat qiladigan shoshilinch va tez yordam yo'nalishida markazlashgan yaxlit tizim yaratildi. Tez yordam brigadalarining soni 818 tadan qariyb 2 mingtaga yetkazildi va aholiga yanada yaqinlashtirildi. Ixtisoslashgan avtomashinalar parki yangilandi.

Yig'ilishda ushbu vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari muhokama qilindi. Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hamda tegishli dastur tasdiqlandi.

Yig'ilishda ushbu vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari muhokama qilindi. Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hamda tegishli dastur tasdiqlandi.



lash sohasini moliyalashtirish tizimi tanqidiy tahlil qilindi.

Eskicha uslubda qolib ketgan tibbiyot kollejlari o'rnida Ibn Sino maktablari tashkil etib, dars va amaliyotni zamon talablari asosida o'tish zarurligi ta'kidlandi.

Joylardagi sog'liqni saqlash boshqarmalari byurokratik tuzilma bo'lib qolgani, hududiy darajada kasalliklarni tahlil qilish bo'yicha tizimli ishlar yo'qligi ko'rsatib o'tildi.

Davlatimiz rahbari kasalliklar profilaktikasi masalasiga alohida e'tibor qaratib, boshqaruv idoralari ishini aynan shunga yo'naltirish lozimligini ta'kidladi. Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng qaror toptirish, to'g'ri ovqatlanish va piyoda yurishning salomatlikka foydasini targ'ib etish muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Navoiy kon-metallurgiya kombinati» davlat korxonasini isloh qilish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Mazkur majmua mamlakatimizdagi eng yirik sanoat korxonasidir. Bu yerda oltin, uran, nodir metallar, qurilish va dastgohsozlik sanoati uchun zarur mahsulotlar, keng turdagi xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqariladi.

Yig'ilishda Navoiy kon-metallurgiya kombinatining tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish, korporativ oshkoralikni tatbiq etish, hisob-kitoblarni xalqaro standartlarga o'tkazish masalalari muhokama qilindi.

Kombinatining korporativ yevroobligatsiyalarini chiqarish masalasiga to'xtalib o'tildi.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Turkiya yetakchisini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga baxt-saodat va yangi zafarlar, Turkiya xalqiga esa farovonlik tiladi.

Prezident Rejep Tayyip Erdog'anning mamlakatni barqaror rivojlantirish, xalqaro maydondagi nufuzini oshirishdagi tarixiy o'rni alohida qayd etildi. Davlatlarimiz o'rtasidagi do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan katta hissasi yuksak baholandi.

Muloqot chog'ida ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish bo'yicha ikki tomonlama kelishuvlarni amalga oshirish masalalari batafsil ko'rib chiqildi.

Shuningdek, Prezidentlar mintaqaviy hamkorlik hamda xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o'tab bo'lgan harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda avvalo, har bir mahalla, tuman, shahar va viloyat darajasidagi haqiqiy sharoit va ahvolni tahlil qilish kerakligi qayd etildi. Buning uchun, birinchi yo'nalishda kambag'allikka oid real ahvol, ya'ni mahallalardagi daromadi kam oilalar soni haqida ma'lumot yig'ilishi, ikkinchi yo'nalishda tuman va shaharning salohiyati, tabiiy resurslari, yer va infratuzilma imkoniyatlari xaritasi tuzilishi belgilandi.

Iqtisodiyot va sanoat vazirligiga hokimlar bilan birgalikda yangi kichik sanoat zonalari uchun bo'sh yer maydonlarini aniqlab, infratuzilma bilan ta'minlash vazifasi yuklatildi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, Biznesombudsman, Savdo-sanoat palatasi hamda Bosh vazir qabulxonalari davlat va tadbirkor o'rtasidagi «ko'prik» vazifasini bajarishi, tadbirkorlik tashabbuslarining amalga oshishiga har tomonlama ko'maklashishi shartligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**28-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Mirzo Ulug'bek tumani Avayxon mahallasida bunyod etilayotgan ko'p qavatli uy-joylarni ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz xonadonlardan birini kirib ko'rdi, uylarning qurilish texnologiyasi va energiya tejamkorligiga e'tibor qaratdi.

Yangi mavzeda avtonom issiqlik stansiyasi qurish, imoratlarni ekspluatatsiya qiladigan va sifatli xizmat ko'rsatadigan zamonaviy shirkat tashkil etish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yili Toshkent mexanika zavodining ulkan hududi va binolaridan samarali foydalanish maqsadida tashkil etilgan Texnoparkka kelib, bu yerdagi loyihalar taqdimoti bilan tanishgandi.

Prezidentimiz Texnopark hududida ishga tushirilgan ilk loyiha – elektron gaz hisoblagichlar korxonasi faoliyati bilan tanishdi, mahsulotlar namunalari ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari Texnoparkda amalga oshirilayotgan galdagi loyihalar, ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan sanoat mahsulotlari bilan ham tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev Yashnobod tumanidagi Mudofaa vazirligiga qarashli Ma'naviyat va ma'rifat markazini borib ko'rdi.

Prezident markaz binosini rekonstruksiya qilib, undan maqsadli foydalanish, davlat-xususiy sheriklik asosida ko'ngilochar maskan tashkil etish zarurligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari shu yerdagi Aviasozlar sport majmuasini ham kirib ko'rdi. Uning hududini obodonlashtirish, sportsevarlarga qulayliklar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yashnobod tumani rahbarlari, mahalla raislari, tadbirkorlar, maktab va sog'liqni saqlash muassasalari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari tumanni obod va osoyishta, namunali hududga aylantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, kambag'allikka barham berish, ta'lim sifatini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, tinchlikni ta'minlash borasida bir qator topshiriqlar berdi.

Davlatimiz rahbari tumanda ishsizlikning oldini olish, kambag'allikka barham berish maqsadida «Yo'l xaritasi» ishlab chiqish haqida topshiriq berdi.

Uchrashuvda mahalla va oila tizimidagi uyg'un islohotlar, jumladan, yangi tashkil etilgan Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyati haqida so'z bordi. Jinoyat sodir etilishining oldini olish, ishsizlikka, kambag'allikka barham berishda mahallaning roli muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**2-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Xitoy

Kommunistik partiyasi Markaziy qo'mitasi Siyosiy byurosi a'zosi, Tashqi ishlar bo'yicha komissiya devonxonasi rahbari Yan Szechi boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Davlatimiz rahbari bugungi kunda O'zbekiston va Xitoyni do'stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlari yaqindan bog'lab turganini qayd etdi.

Yuqori martabali mehmon Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga samimiy qabul uchun minnatdorlik izhor qilib, XXR Raisi Si Szinpinning O'zbekiston Prezidenti nomiga yo'llagan shaxsiy maktubini topshirdi. Ushbu maktubda keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlikda yuksak darajaga erishilgani katta mamnuniyat bilan qayd etilgan hamda yangi turdagi koronavirus tarqalishiga qarshi kurashda ko'rsatilayotgan ko'mak uchun minnatdorlik bildirilgan.

Uchrashuvda ko'p qirrali O'zbekiston – Xitoy sherikligining dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Mamlakatimizda energetika, neft-gaz, kimyo, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida hamda infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha ustuvor loyihalarni birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirishni davom ettirish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**2-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev xalq ta'limi tizimidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda yangi turdagi maktablarni barpo etish, avvalgilarini bosqichma-bosqich zamon talablariga moslashtirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish masalalari muhokama qilindi.

Qurilish vazirligiga maktablarni zamonaviy arxitektura yechimlari asosida, energiya tejovchi va ilg'or texnologiyalarni qo'llagan holda barpo etish vazifasi topshirildi.

Xalq ta'limi va Moliya vazirliklariga amaldagi jihozlash holatini tanqidiy o'rganib, maktablarni zamonaviy laboratoriya, kompyuter texnikasi, sport anjomlari va boshqa zarur vositalar bilan jihozlash bo'yicha topshiriq berildi. Aniq fanlarni o'qitishda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish hamda interaktiv mashg'ulotlarga e'tiborni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda pedagog kadrlar bilimi va malakasini oshirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Pedagoglar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, metodik ta'minotni yangicha tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Bolalarni yoshligidan ma'nan va jismonan yetuk shaxs etib tarbiyalash maqsadida maktablarni badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda musiqa, tasviriy san'at va jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga yangi mazmun berish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**2-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro xususiy huquq bo'yicha Gaaga konferensiyasi Ustavini (Gaaga, 1951-yil 31-ok-

tabr) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mahalla tizimi xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2020-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiyaning «LUKOYL» kompaniyasi prezidenti Vagit Alekperovni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni qutlar ekan, jahonning yetakchi energetik korporatsiyalaridan biri va

O'zbekiston neft-gaz kompleksining muhim investori – «LUKOYL» bilan strategik sheriklikda sezilarli rivojlanishga erishilganini alohida ta'kidladi.

Uchrashuvda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Kompaniyaning korporativ boshqaruv va neft-gaz tarmog'ida raqamli texnologiyalarga o'tish borasidagi tajribasi va ilg'or yechimlarini jalb etish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston hududida geologiya-qidiruv sohasida hamda uglevodrod konlarini, jumladan, qazib olinishi qiyin bo'lganlarini o'zlashtirish borasida kooperatsiyani mustahkamlash imkoniyatlari muhokama qilindi.

\* \* \*

**5-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Suma Chakrabarti boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan amaliy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari batafsil ko'rib chiqildi.

YTTB prezidenti ushbu yetakchi xalqaro moliyaviy tashkilot O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar dasturiga har tomonlama ko'maklashishni davom ettirish hamda sheriklik ko'lamini tubdan kengaytirishga tayyor ekanini bildirdi.

Infratuzilmani modernizatsiya qilish, bank sohasi, to'qimachilik va sanoatning boshqa tarmoqlarini

rivojlantirish, kichik biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ustuvor loyihalarni ishlab chiqish va ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**6-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev atrof-muhitni asrash va chiqindilarni boshqarish tartibini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilishda 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi hamda 2019–2028-yillarda O'zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish strategiyasi ijrosi qoniqarsiz deb topildi.

Qurilish vazirligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga joriy yilda Toshkent, Samarqand va Andijon viloyatlarida, keyinchalik boshqa hududlarda ham qurilish chiqindisi poligonlari hamda chiqindini qayta ishlash loyihalarini ishga tushirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish, «Qizil kitob»ga kiritilgan hayvonlarni ovlaganlik uchun jazoni kuchaytirish bo'yicha takliflar bildirildi.

Ishlab chiqarish jarayonida ekologik normalarga rioya etish masalalari ham tahlil qilindi.

Sohada kadrlar siyosati keskin tanqid qilindi. Jumladan, malakali mutaxassislar va ilmiy tadqiqot ishlari yetishmasligi, birorta oliy o'quv yurtida ekologiya bo'yicha maxsus fakultet yo'qligi ko'rsatib o'tildi. Tadqiqotlarga grantlar ajratish, xorijda ilmiy xodimlar malakasini oshirish, sohaga innovatsion texnologiya va g'oyalarni jalb qilish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**6-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «G'alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilishi rejalashtirilgan investitsiya loyihalari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda har bir tumandagi istiqbolli loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Investitsiyalar jalb etib, zarurat bo'lsa, tashqi boshqaruvga berib, sanoatning yangi yo'nalishlarini yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**7-mart.** 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan poytaxtimizning «O'zekspomarkaz» milliy ko'rgazmalar majmuasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz xotin-qizlarini bayram bilan muborakbod etib, nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 6-mart kuni qabul qilingan «8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida»gi farmoniga muvofiq, Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi, sog'lom va barkamol avlod tarbiyasi, oila va jamiyat asoslarini mustahkamlash yo'lidagi munosib xizmatlari uchun bir guruh xotin-qizlar yuksak unvon, orden va medallar bilan mukofotlandi. 4-martdagi Prezident qaroriga binoan esa, yigirma sakkiz nafar faol qiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Bayram tadbirida ana shu yuksak mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.

Davlatimiz rahbarining ushbu tantanali tadbirdagi ma'ruzasi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**9-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiyaning yetakchi injiniring va qurilish kompaniyasi – «Renessans Xolding» prezidenti Erman Ilijak boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Ushbu uchrashuv Anqarada o'tkazilgan oliy darajadagi O'zbekiston – Turkiya muzokaralarining mantiqiy davomi bo'ldi.

Bugungi kunda «Renessans Xolding» kompaniyasi mamlakatimizda umumiy qiymati 2 milliard dollardan ziyod bo'lgan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Uchrashuvda ushbu loyihalar doirasidagi amaliy ishlarni jadallashtirish masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, Turkiya kompaniyasining dastlabki bosqichda Toshkent shahrida, keyingi bosqichlarda Samarqand va Farg'ona shaharlarida ilg'or xalqaro tajriba hamda texnologiyalarni jalb qilgan holda ko'p tarmoqli shifoxonalar tashkil etish borasidagi loyihaviy takliflari taqdimoti o'tkazildi.

Mazkur loyihalar davlat-xususiy sherikligi asosida amalga oshiriladi, shuningdek, turkiyalik hamkorlar shifoxonalarni boshqarish va yuqori malakali tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashda ishtirok etadi.

Bundan tashqari, muhim ijtimoiy obyektlarni rekonstruksiya qilishda, injiniring, loyihalashtirish va qurilish sohalarida hamkorlik imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**9-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi va Ozarbayjon Respublikasi bilan ikki tomonlama investitsiyaviy va savdo-iqtisodiy hamkorlikning joriy holati va rivojlanish istiqbollari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda ushbu mamlakatlar bilan qo'shma loyihalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish hamda investitsiya, savdo va

transport-logistika sohalaridagi ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha yangi takliflar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya va Ozarbayjonning yetakchi kompaniya va tashkilotlari bilan savdo va investitsiyaviy hamkorlikni faollashtirish, sheriklikning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**10-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sud ishlarini yuritish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**10-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bola huquqlarining qo'shimcha kafolatlari belgilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**10-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda qator sohalarda amalga oshiriladigan loyihalar taqdimoti bilan tanishdi. Taqdimot davomida raqamli texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

Dasturiy mahsulotlar uzluksiz va samarali ishlashi uchun infratuzilma zarurligi qayd etilar ekan, barcha davlat muassasalarini yuqori tezlikda ma'lumot uzatish tarmog'iga ulash, zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlash vazifasi qo'yildi.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy obyektlar qurilishiga doir taqdimotlar, shuningdek, Toshkent shahrida bunyod etiladigan muhtasham kutubxona, eski shahar hududini tarixiy ko'rinishdagi turistik savdo zonasiga aylantirish loyihalari bilan ham tanishdi. Prezidentimiz mazkur loyihalarni yanada takomillashtirish, aholi uchun keng qulayliklar yaratish yuzasidan o'z tavsiyalarini berdi.

Shavkat Mirziyoyev hududlarda barpo etiladigan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi komplekslarining namunaviy loyihalari bilan ham yaqindan tanishib, o'z tavsiyalarini berdi.

Shuningdek, ichki ishlar organlarining tashkiliy tizimini isloh qilishga, jumladan, mamlakat miqyosida va tumanlar kesimida kuch va vositalarni boshqarishning yangi mexanizmlariga bag'ishlangan taqdimot o'tkazildi.

\* \* \*

**11-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oliy darajali Do'stlik» ordenini ta'sis etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**11-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda jamoat

salomatligini ta'minlash tizimi samaradorligini oshirish muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda Sog'liqni saqlash vazirligi, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi hamda Sanitariya-epidemiologiya nazorati davlat inspeksiyasiga ilg'or xorijiy tajriba asosida aholi salomatligini yaxshilash, odamlarimizni sog'lom turmush tarziga o'rgatishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Aholi salomatligi profilaktikasi avvalo qishloqlardan boshlanishi va bunga javob beradigan yaxlit tizim bo'lishi kerakligi qayd etildi. Bu masalalarni chuqur tahlil qilib, aniq dasturlar asosida joylarda manzilli ish tashkil etish vazifasi qo'yildi.

Davlatimiz rahbari yana bir muhim masalaga e'tibor qaratdi – xastalik omillarini tahlil qilib, davolovchi shifokorlarga profilaktika yo'nalishida asoslangan tavsiya beradigan mutaxassislarni tayyorlash zarurligini ta'kidladi.

Yig'ilishda yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarni barvaqt aniqlash, hisobini yuritish, tahlil va statistikasini to'g'ri yo'lga qo'yish masalalari batafsil muhokama qilindi.

Yig'ilishda aholi salomatligini nazorat qilish tizimini ham qayta ko'rib chiqish zarurligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**12-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlar rivoji, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida Xorazm viloyatiga bordi.

Davlatimiz rahbari dastlab «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonasi



hududida joylashgan trikotaj mato va tekstil mahsulotlari ishlab chiqaradigan «Develop Textile» mas'uliyati cheklangan jamiyatining faoliyati bilan tanishdi.

Prezidentimiz bu kabi zamonaviy korxonalarni ko'paytirish orqali paxta xomashyosini qayta ishlashni yo'lga qo'yish, endilikda faqat tayyor mahsulot eksport qilish zarurligini qayd etdi.

Shavkat Mirziyoyev Yangiariq tumanidagi «Global Food Impeks» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan tashkil etilgan zamonaviy issiqxonani ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz issiqxona detallarini mahalliyashtirish, bozor talabidan kelib chiqib, qayta ishlashni yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Shu yerda viloyatda meva-sabzavotchilik, tomorqachilik, chorvachilik, baliqchilikni rivojlantirishga oid loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Prezident Yangiariq tumanidagi «Xorazm pilla xolding» korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Prezidentimiz Xiva shahridagi «Ichan qal'a» majmuasiga tashrif buyurib, Amir To'ra madrasasida amalga oshirilgan restavratsiya ishlari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari «Ichan qal'a»da xalqimizning bebaho madaniy merosi mujassam ekanini, Amir To'ra madrasasi kabi noyob obidalar ajdodlarimizning tarixiy o'ziga xosligini saqlash va kelajak avlodlarga asl holicha yetkazishda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari turizm loyihalari bilan tanishar ekan, Xivada xonlar shaharchasi barpo etish, bu yerda Xorazm xonlari tarixini ko'rsatish, xalqimiz va xorijiy sayyohlarga yetkazish lozimligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Xiva shahridagi Prezident maktabida yaratilgan sharoit bilan tanishdi. Virtual kimyo laboratoriyasi, musiqa xonasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz shu yerda Jizzax, Samarqand, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida tashkil etiladigan Prezident maktablarida o'quv jaryonlarini tashkil etish borasidagi rejalar bilan ham tanishdi.

Tashrifning ikkinchi kuni davlatimiz rahbari Urganch shahrida Xorazm viloyati va tumanlar hokimlari, mahalliy kengashlar deputatlari, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, tadbirkorlar, ziyolilar ishtirokida yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda Prezidentimiz Xorazm viloyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlarini ko'rsatib o'tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatiga ilgari kelganida Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi memorial bog'i tashkil etish bo'yicha ko'rsatma bergan edi. Shunga muvofiq loyiha taklifi tayyorlanib, bu galgi tashrif chog'ida namoyish qilindi.

Prezidentimiz haykal nusxasini sinchiklab ko'rib chiqdi. Mazkur yodgorlik mahobatli bo'lishi,

uzoqdan ham yaqqol ko'zga tashlanib turishi zarurligini ta'kidladi.

Bog' uchun mo'ljallanayotgan maydon mutasaddilar bilan muhokama qilindi. Loyihani qaytadan puxta ishlab chiqish, transport harakati uchun qulayliklarni inobatga olish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**12-mart.** Poytaxtimizdagi «Hyatt Regency» mehmonxonasida Ozarbayjonning xalqaro miqyosda nashr etiladigan «Tarixiy shaxslar» jurnali tomonidan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Yil odami» deb e'tirof etilishi munosabati bilan mazkur nashrning O'zbekistonga bag'ishlab chop etilgan maxsus soni taqdimot marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda vazirlik va idoralar vakillari, O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan xorijiy mamlakatlar elchilari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, keng jamoatchilik qatnashdi.

Taqdimot doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yil odami», deya qayd etilgan diplom O'zbekiston tomoniga tantanali tarzda topshirildi.

\* \* \*

**13-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**13-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shim-

cha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholini ro'yxatga olish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**16-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**17-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston – Turkmaniston do'stlik, yaxshi qo'sh-nichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash, shuningdek, ko'p qirrali hamkorlikni, avvalo, savdo-iqtisodiy, energetika va transport-kommunikatsiya soha-

larida kengaytirish masalalarini batafsil muhokama qildilar.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Koronavirus pandemiyasiga qarshi samarali kurashishni ta'minlash va uning ikki tomonlama aloqalarga salbiy ta'sirining oldini olish maqsadida hukumatlar darajasida yaqin hamkorlik qilish muhimligiga alohida e'tibor qaratildi.

Muloqot so'ngida Prezidentlar bir-birini hamda qardosh O'zbekiston va Turkmaniston xalqlarini kirib kelayotgan bahor, baxt-saodat va yangilanish ayyomi – Navro'z bilan samimiy qukladilar.

\* \* \*

**18-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Muloqotda epidemiologik vaziyat hamda har ikki mamlakatda koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo'yicha ko'riylayotgan keng ko'lamli choratadbirlar batafsil muhokama qilindi.

O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlari ikki tomonlama hamkorlikka doir va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalarni ham ko'rib chiqdilar. Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni o'z vaqtida amalga oshirish muhimligi alohida ta'kidlandi.

Muloqot so'ngida davlat rahbarlari yaqinlashib kelayotgan bahor, yangilanish va yasharish bayrami –

Navro'z munosabati bilan bir-birlarini samimiy tabrikladilar.

\* \* \*

**18-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mahalla va oila muammolarini o'z vaqtida aniqlash hamda hal etish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Ma'lumki, Prezidentning joriy yil 18-fevraldagi farmoni va qaroriga muvofiq, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi.

Yig'ilishda mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash, jinoyatchilikning oldini olish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha vazifalar muhokama qilindi.

Yig'ilishda ayollarning turmush sharoitini yaxshilash, daromad topishi uchun sharoit yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mahallalarning me'moriy qiyofasi va infratuzilmasini yaxshilash, bahorgi obodonlashtirish masalalariga ham to'xtalib o'tdi.

Davlatimiz rahbari mahallada ma'naviy-ma'rifiy ishlar samardorligini oshirish masalasiga ham e'tibor qaratdi. Madaniyat vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaziga mahallalarda kutubxona, madaniyat uylari, kino zallari, musiqa va san'at to'garaklari tashkil etish, kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Videosektor yig'ilishida mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash masalalari ham atroflicha muhokama qilindi.

Mutasaddilarga bu borada tashkiliy-huquqiy choralar ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**19-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida koronavirus pandemiyasining aholi turmush darajasi va iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Koronavirus tarqalishining oldini olish, shifoxonalarni dori, himoya va diagnostika vositalari bilan ta'minlash, karantin xarajatlarini o'z vaqtida moliyalashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiyaga karantinga olingan fuqarolar nazoratini ta'minlash yuklatildi.

Koronavirus ta'siri eng yuqori bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlariga soliq ta'tillari va kredit qarzlari bo'yicha imtiyozlar berish, budjet ssudalari ajratish yuzasidan vazifalar belgilandi.

Yig'ilishda aholini ijtimoiy himoyalash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo'mitasiga bozorlardagi narx-navoning o'zgarishini kuzatib borib, mavjud zaxiradan qo'shimcha mahsulotlarini savdoga chiqarish bo'yicha topshiriq berildi.

\* \* \*

**19-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining

iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida ikki mamlakat yetakchilari bir-birlarini hamda qardosh O'zbekiston va Qozog'iston xalqlarini bahor, yasharish va yangilanish bayrami – Navro'z bilan samimiy qutladilar.

Ushbu ayyom azaldan o'zaro ishonch, yaxshi qo'shnichilik va sheriklik rishtalari, mushtarak tarix, madaniyat va an'analar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan xalqlarimiz ma'naviy-madaniy yaqinligining ifodasi ekani alohida ta'kidlandi.

Mamlakatlarimizda koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish, shuningdek, uning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga hamda ko'p qirrali O'zbekiston – Qozog'iston munosabatlarning bugungi sur'atiga salbiy ta'sirini kamaytirish borasida ko'rilayotgan qat'iy chora-tadbirlar to'liq qo'llab-quvvatlandi.

Hukumatlar darajasida sa'y-harakatlarni samarali muvofiqlashtirish va yaqindan hamkorlikni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Muloqot chog'ida ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb jihatlari ham ko'rib chiqildi, mintaqaviy

hamkorlik va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**21-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston xalqiga Navro‘z tabrigi matbuotda e‘lon qilindi.

\* \* \*

**23-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Prezidenti Orif Alviy va Bosh vaziri Imron Xonni ushbu mamlakatning milliy bayrami – Pokiston kuni bilan tabrikladi.

\* \* \*

**26-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining jinoyat, jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishni kuchaytirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Yig‘ilishda aholini ijtimoiy va tibbiy muhofaza qilishni kuchaytirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar belgilandi.

Shifokorlarimizga amaliy yordam berish va ularning malakasini oshirish uchun xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, tibbiyot niqoblari ish-

lab chiqarishni oshirish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Tibbiyot va harbiy oliy o‘quv yurtlari talabalaridan iborat ko‘ngillilar jamoasini tuzib, yolg‘iz keksalar, boquvchisi yo‘q oilalarga hamda olis hududlarga oziq-ovqat, gigiyena va dori vositalari yetkazib berishni tashkil etish muhimligi ta‘kidlandi.

O‘zbekistonga olib kirilayotgan dori-darmonlar, substansiyalar, tibbiy texnika va boshqa zarur tovarlarni bojxona to‘lovlaridan, shu jumladan, qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Davlatimiz rahbari biznes vakillarining fikrini inobatga olgan holda, ularga yana qo‘shimcha yengilliklar berish zarurligini ta‘kidladi.

Yig‘ilishda yangi ish o‘rinlari yaratishni qo‘llab-quvvatlash orqali aholi daromadini oshirish va kambag‘allikni qisqartirish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratildi.

\* \* \*

**26-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasida koronavirus infeksiyasi keng tarqalishining oldini olishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishga jalb qilingan tibbiyot va sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlarini qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Afg‘oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G‘ani bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Ashraf G‘anini Afg‘oniston Prezidenti etib saylangani bilan tabrikladi hamda unga mamlakatda barqaror va izchil taraqqiyotni ta‘minlashda muvaffaqiyatlar tiladi.

Ashraf G‘ani O‘zbekiston koronavirusga qarshi kurashishda ko‘rsatayotgan amaliy ko‘magi uchun alohida minnatdorlik bildirdi.

Prezidentlar savdo-iqtisodiy, energetika va transport-kommunikatsiya sohalaridagi hamkorlikning dolzarb masalalarini ham ko‘rib chiqdilar, shuningdek, xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Afg‘onistonning barqaror taraqqiyotini ta‘minlash va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan qo‘shma infratuzilma loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish borasidagi sa‘y-harakatlarni faollashtirishga kelishib olindi.

\* \* \*

**27-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov telefon orqali muloqot qildi.

Muloqotda ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalari, jumladan, koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish bo‘yicha ko‘rilayotgan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Tegishli idora va tashkilotlarning yaqindan hamkorligida o‘zaro amaliy ko‘maklashish hamda, avvalo, chegaraoldi hududlardagi epidemiologik vaziyatni nazorat qilish borasida olib borilayotgan ishlar qayd etildi.

Pandemiyaning savdo-iqtisodiy, energetik, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi O‘zbekiston – Turkmaniston aloqalariga salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha faol qo‘shma chora-tadbirlarni davom ettirish muhimligiga alohida e‘tibor qaratildi.

Prezidentlar birgalikdagi sa‘y-harakatlar yuzaga kelayotgan barcha qiyinchilik va yangi xatarlarni muvaffaqiyatli yengish, O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik rish-talari, strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirdilar.

Davlat rahbarlari mintaqaviy hamkorlikka doir va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

\* \* \*

**27-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari qadimdan mintaqamizda keng nishonlanib kelayotgan, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik, tarix, madaniyat va an‘analar mushtarakligini ifoda etuvchi bahor va yangilanish bayrami – Navro‘z munosabati bilan

bir-birlarini samimiy qutlab, ezgu tilaklarini bildirdilar.

Davlat rahbarlari koronavirus infeksiyasi tarqalishi bilan bog'liq joriy epidemiologik vaziyatni muhokama qildilar.

Ushbu pandemiyaga qarshi samarali kurashish, shuningdek, uning oqibatlari ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarga salbiy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida harakatlarni yaqindan muvofiqlashtirish va o'zaro ko'makni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Prezidentlar, shuningdek, mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirishga doir hamda xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalarni muhokama qildilar.

\* \* \*

**27-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholining dori vositalari, tibbiy buyumlar, tibbiy texnika va eng zarur tovarlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida birodar davlatlar rahbarlari mintaqamizga kirib kelgan yangilanish va yasharish bayrami – Navro'z bayrami munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutlab, ezgu tilaklar bildirdi.

Prezidentlar ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalarini muhokama qildilar hamda sheriklikni, birinchi navbatda savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, bank-moliya, madaniyat va ta'lim sohalarida kengaytirishning istiqbolli yo'nalishlarini ko'rib chiqdilar.

Erishilgan kelishuvlar, shu jumladan mamlakatlarimiz poytaxtlari o'rtasida qabul qilingan «yo'l xaritasi»ni amalga oshirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida o'zaro manfaatli kooperatsiya loyihalarini ilgari surish bo'yicha qo'shma fond tashkil etishni jadallashtirish muhimligi qayd etildi.

Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga yo'l qo'ymaslik va mintaqada pandemiya oqibatlariga qarshi samarali kurashish maqsadida o'zaro hamkorlik va yaqindan muvofiqlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Tomonlar mamlakatlarimizda ko'rilayotgan birinchi navbatdagi preventiv choralar va epidemiologik vaziyatni nazorat qilish tadbirlarini to'liq qo'llab-quvvatladilar.

Koronavirusga qarshi kurashishda faol hamkorlikni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

Davlat rahbarlari, shuningdek, mintaqaviy hamkorlikka oid va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

\* \* \*

**3-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq vaziyat bo'yicha xalqqa murojaat qildi. Davlatimiz rahbarining ushbu murojaati matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**3-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan inqirozga qarshi kurashish sharoitida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilihi o'tkazildi.

Prezidentimiz korxonalarining izchil ishlashiga ko'maklashish, barcha imkoniyat va zaxiralarni to'liq safarbar etish zarurligini ta'kidladi.

Videselektor yig'ilishida eksport masalasiga ham to'xtalib o'tildi. Yuklarni temiryo'l orqali konteynerda tashish, stansiyalarda refrijerator seksiyalarini ko'paytirish zarurligi qayd etildi. Mutasaddilarga meva-sabzavotlar, to'qimachilik va elektrotexnika mahsulotlari, qurilish materiallari eksporti bo'yicha har bir korxonaga muammosini tezkor hal qilib borish yuzasidan toshiriqlar berildi.

Aholini zarur iste'mol tovarlari, oziq-ovqat, dori va gigiyena mahsu-

lotlari bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda davlat budjeti tushumlar prognozining bajarilishiga oid masalalar ham atroflicha muhokama qilindi.

\* \* \*

**4-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Neft-gaz tarmog'ining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Abu Dabi Amirlihi valiahi, Birlashgan Arab Amirliklari Qurolli kuchlari Oliy bosh qo'mondoni o'rinbosari Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbatda O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarga doir dolzarb masalalar, shuningdek, amaliy hamkorlikni savdo-iqtisodiy, investitsiya, bank-moliya, yoqilg'i-energetika, transport-kommunikatsiya va boshqa ustuvor sohalarida yanada kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Koronavirus infeksiyasining tarqalishiga yo'l qo'ymaslik va ushbu global xatarga qarshi samarali kurashish borasida mamlakatlari-mizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari pandemiya oqibatlarini yengib o'tishda ko'rsatilayotgan ko'mak uchun Birlashgan Arab Amirliklari rahbariyatiga minnatdorlik bildirdi.



Koronavirus tarqalishining ikki tomonlama hamkorlik sur'atiga, shu jumladan, bugungi kunda BAAning yetakchi kompaniya va banklari ishtirokida sanoat, infratuzilma, energetika, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalarga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida harakatlarni yaqindan muvofiqlashtirishni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

Tomonlar turli darajadagi sa'y-harakatlarni faol muvofiqlashtirish, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

\* \* \*

**7-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Metrologiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**8-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashishda joylardagi ishlar natijadorligi tahlili hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi bandligi va daromadini oshirishning muhim manbai bo'lgan

tomorqachilikni rivojlantirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ichki talabni to'liq ta'minlash, aholi daromadlari va farovonligini oshirish uchun katta rezerv va imkoniyatlar mavjudligini ta'kidladi.

Prezidentimiz bu yilgi murakkab vaziyatni hisobga olib, barcha tomorqalarda 2-3 marta ekin ekish va qo'shimcha hosil olish birinchi darajali vazifa bo'lishi zarurligini ta'kidladi.

Hozirgi sinovli davrda tomorqa yerlariga ekin ekmaslik, qarovsiz tashlab qo'yish yurtga va yerga nisbatan xiyonat deb baholanishi kerak. Shuning uchun tomorqadan samarali foydalanmayotgan xonadon egalari rasman ogohlantirilishi, undan keyin ham ekin ekmaganalarga yer solig'i oshirilgan stavkada qo'llanilishi ma'lum qilindi.

Bu borada mutasaddi rahbarlarga tegishli hujjatni qabul qilish topshirildi. Tomorqalar holatini dronlar orqali monitoring qilish hamda ulardan unumli foydalanish uchun har bir sektor kesimida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**9-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari mamlakatlarimiz va Markaziy Osiyo mintaqasidagi koronavirus tarqalishi

bilan bog'liq joriy epidemiologik vaziyat yuzasidan fikr almashdilar.

Koronavirusga qarshi samarali kurashish maqsadida muvofiqlashgan choralarni ishlab chiqish, o'zaro ko'maklashish, tegishli tibbiyot va boshqa aloqador xizmatlar o'rtasidagi yaqin muloqotlarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Pandemiyaning ikki tomonlama yaxshi qo'shniçilik va strategik shiriklik munosabatlarining rivojlanish sur'atiga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun oldindan chora ko'rish lozimligi alohida ta'kidlandi. Savdo-iqtisodiy, investitsiya, moliya va transport-kommunikatsiya sohalari, shuningdek, hududlararo hamkorlik, jumladan, poytaxt shaharlar Toshkent va Dushanbe o'rtasidagi almashinuvlar doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar bu boradagi ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab olindi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Tojikiston Prezidentlari mintaqaviy hamkorlikka oid va xalqaro ahamiyatga molik ayrim dolzarb masalalarni ham muhokama qildilar.

\* \* \*

**9-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev koronavirus pandemiyasi sharoitida bank tizimining barqaror ishlashini hamda iqtisodiyotga moliyaviy ko'makchi bo'lishini ta'minlash masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda banklarning barqaror ishlashini ta'minlash, bandlik va aholi daromadlarini saqlab qolish masalalari muhokama qilindi.

Jahon iqtisodiyotida boshlanayotgan inqiroz holatlarini hisobga olib, banklarning loyihalar portfelini tanqidiy ko'rib chiqish vazifasi qo'yildi. Ya'ni hali boshlanmagan, uzoq muddatli loyihalarni aniqlab, ularni joriy yilning o'zida samara berishni boshlaydigan yangi loyihalarga almashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Bu borada banklarga mablag'larni ustuvor ravishda kichik biznes subyektlariga yangi ish o'rinlari yaratish uchun hamda uy sharoitida o'zini o'zi band qilish uchun yo'naltirish tavsiya etildi.

Masofaviy xizmat ko'rsatish turlari va qamrovini kengaytirish bo'yicha ham vazifalar belgilandi.

\* \* \*

**10-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashining koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishda hamkorlikni kuchaytirish va sa'y-harakatlarni birlashtirish uchun videoanjuman tarzida o'tkazilgan navbatdan tashqari sammitida ishtirok etdi.

Prezidentimiz mamlakatimizda koronavirusga qarshi olib borilayotgan kurash tajribasi bilan o'rtoqlashdi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiya va talablariga muvofiq joriy etilgan karantin choralari to'g'risida so'zlab berdi.

Koronavirus infeksiyasi tarqalishining oqibatlariga qarshi samarali kurashish bo'yicha ta'sirchan amaliy choralar ko'rish maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan qator aniq takliflar ilgari surildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashining navbatdan tashqari sammitidagi nutqi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**10-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida paxtachilik va g'allachilikda klaster tizimini rivojlantirish, bahorgi agrotexnik ishlarni samarali tashkil qilish, hosildorlikni oshirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilish avvalida davlatimiz rahbari koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish borasidagi ishlarga alohida to'xtalib o'tdi.

Prezidentimiz endi barcha hokimlar, sektor rahbarlari agrar sohadagi rezervlarni safarbar qilib, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishi zarurligini ta'kidladi. Shundagina iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi yo'qotishlar o'rnini qisman to'ldirib, aholi bandligi va daromadini ta'minlash mumkin.

Klasterlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilg'or tajribalarni keng joriy qilish maqsadida Paxta yetishtiruvchi va qayta ishlovchi klasterlar uyushmasini tashkil qilish tashabbusi ma'qullandi.

Videosektor yig'ilishida g'allachilikka doir chora-tadbirlar ham muhokama qilindi.

Barcha sektor rahbarlari o'z hududida oziq-ovqat zaxirasini hisob-kitob qilib, ichki imkoniyatlarini kengaytirib borishi kerakligi aytiladi.

\* \* \*

**10-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbek tili bayrami

kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**10-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbatda davlat rahbarlari an'anaviy do'stona va samimiy ruhdagi ikki tomonlama alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni, birinchi navbatda savdo-iqtisodiy sohada kengaytirishning dolzarb masalalarini muhokama qildilar hamda ayrim mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Koronavirus infeksiyasining tarqalishiga qarshi kurashishda hamkorlikni davom ettirish va sa'y-harakatlarni birlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentlar ikki mamlakat o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga hamda O'zbekistonda Koreya tibbiyotining, jumladan, karantin tadbirlarini tashkil etish, kasalliklarni aniqlash va davolash, reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish, tibbiy kadrlar malakasini oshirish borasidagi ilg'or tajribasini samarali joriy etishga qat'iy intilishlarini qayd etdilar.

Muloqotda Prezidentlar mamlakatlarimiz o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy va ilmiy-innovatsion hamkorlikda erishilgan sur'atlarni saqlab qolish masalalariga batafsil to'xtaldilar.

Telefon muloqoti yakunida Prezident Mun Chje In Koreya Respublikasi birodar O'zbekistonga bugun dolzarb bo'lib turgan qiyinchiliklar va zamonaviy xatarlarni tez fursatlarda yengib o'tishda barcha zarur yordam va ko'makni ko'rsatishga tayyor ekanini yana bir bor bildirdi.

\* \* \*

**14-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida qishloq xo'jaligi tarmoqlarini yanada rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Mamlakatimizda ichki talabni to'liq ta'minlash bilan birga, eksportni oshirish uchun ham katta imkoniyatlar mavjud. Bu yil qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasi vakillari uchun katta sinov va keng imkoniyatlar yili bo'ladi. Pandemiya va karantin qancha vaqt davom etishidan qat'i nazar, aholining oziq-

ovqatga bo'lgan ehtiyoji kamaymaydi.

Yig'ilishda meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan 55 ta tuman, 86 ta klaster va 125 ta kooperativ bu borada yetakchi bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi, Bog'dorchilik hamda Uzumchilik agentliklari sabzavot, poliz va boshqa turdagi ekinlar ekilishini tashkil etish uchun mas'ul etib belgilandi.

Ichki ishlar vazirligiga karantin qoidalariga amal qilgan holda, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish bilan bog'liq avtotransport vositalarining erkin harakatlanishini ta'minlash bo'yicha topshiriq berildi.

Yig'ilishda urug'lik va mineral o'g'itlar ta'minoti muammosi ham tahlil qilindi. Pandemiya sharoitida urug'lik ta'minotida uzilishlar bo'lmasligi lozimligi aytib o'tildi.

Prezidentimiz endi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish bilan birga import qilinayotgan tovarlar o'rnini qoplash zarurligini ta'kidladi.

Ozuqa ishlab chiqaradigan korxonalar, qoramol boqish bo'yicha oilaviy kooperatsiyalarni ko'paytirish bo'yicha vazifalar qo'yildi. Har bir viloyatda naslli qoramol tayyorlash va sotishga mo'ljallangan xo'jaliklar tashkil etilishi belgilandi.

Yig'ilishda parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik, ipakchilik sohalarini rivojlantirish bo'yicha ham topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**15-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Koronavirus pande-

miyasi davrida O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti barqarorligini ta'minlash va birinchi navbatdagi tadbirlarni o'z vaqtida moliyalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi jamoatchilik palatasini tashkil etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida kimyo, agrotexnika va avtomobil sanoati korxonalarida ishlab chiqarish sur'atlarini ta'minlash hamda yangi loyihalarni amalga oshirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Kimyo sanoati mavjud quvvatlarni saqlab qolish bilan birga yangi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlarga ega. Ammo tarmoqdagi bugungi holatga yig'ilishda tanqidiy baho berildi.

Yig'ilishda texnikalarni o'z vaqtida sotish uchun xaridor bilan ishlash tizimini rivojlantirish, fermer va dehqonlarga bu borada kredit imtiyozlari berish zarurligi qayd etildi.

Avtosanoat mahsulotlari eksportini oshirish masalasiga ham to'xtalib

o'tildi. Ishlab chiqarishdan tortib, savdo va servis xizmatigacha bo'lgan barcha jarayonlarni raqamlashtirish orqali sifatni nazorat qilish, mahsulotga ishonchni oshirish, ochiq-oshkoralikni ta'minlash muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**17-aprel.** Toshkent viloyati Zangiota tumanida «Tashkent Pharma Park» innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmasevtika klasteri qurilishini boshlashga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tdi.

Unda videokonferensaloqa orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

Telemuloqot chog'ida davlatimiz rahbari bu yerda innovatsion va yuqori sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan dori-darmonlar, tibbiy mahsulot va texnik vositalar ishlab chiqarish, aholining bu boradagi talab va ehtiyojlarini ta'minlash, zamonaviy kadrlar tayyorlash, shuningdek, mamlakatimizda farmasevtika sohasini yanada rivojlantirish, samarali infratuzilma yaratishga qaratilgan loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish bo'yicha boshlangan ishlar va rejalar bilan tanishdi.

Qurilish maydonida bo'lib turgan mutasaddilar va loyihaga sarmoya kiritgan koreyalik hamkorlar innovatsion va yuqori texnologiyali ushbu klasteri muvaffaqiyatli ishga tushirish uchun barcha choralar ko'rilganini ma'lum qildi.

\* \* \*

**17-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev koronavirus pandemiyasiga

siga qarshi kurashishda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish masalalari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda xalqaro moliya institutlari pandemiya bilan kurash uchun sog'liqni saqlash sohasiga ajratayotgan mablag'larni tez fursatlarda va samarali o'zlashtirish lozimligi ta'kidlandi.

Islom taraqqiyot banki bilan kelishib, Toshkent viloyati Zangiota tumanida qurilayotgan shifoxona va Yuqori Chirchiq tumanidagi karantin hududini zamonaviy tibbiy texnikalar bilan jihozlash, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki va Jahon bankidan qo'shimcha mablag'lar jalb etib, tibbiy va ijtimoiy sohalarga yo'naltirish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish chora-tadbirlari uchun donor tashkilotlar bilan qo'shimcha grant kelishuvlari imzolash muhimligi qayd etildi.

Xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb qilishni jadallashtirish va o'z vaqtida o'zlashtirish bo'yicha vazifalar belgilandi.

\* \* \*

**20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev sanoat, qurilish va infratuzilma tarmoqlari korxonalarining to'liq ishlashini ta'minlash masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari yig'ilish avvalida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida to'xtalib o'tdi. Vaqtincha ishlayotgan va

yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni manzilli asosda oziq-ovqat va dori-darmon bilan ta'minlash ko'lamini yanada kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz xalqimizning tarixiy va ma'naviy qadriyatlarini, mehr-saxovat, oqibat va himmat kabi yuksak fazilatlarini inobatga olgan holda, «Saxovat va ko'mak» umumxalq harakatini yo'lga qo'yish tashabbusini ilgari surdi.

Ushbu tashabbus Savdo-sanoat palatasining joylardagi bo'limlari, banklar, ijtimoiy muhofaza idoralari hamkorligida amalga oshirilishi belgilandi.

Yig'ilishda qurilish materiallari bozori bilan bog'liq masalalar ham atroflicha muhokama qilindi.

Import o'rnini bosuvchi mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yevropa kengashi prezidenti Sharl Mishel bilan telefon orqali muloqot qildi.

Muloqotda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi, birinchi navbatda, siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar sohalarda ko'p qirrali hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Yevropa kengashi prezidenti O'zbekistonda koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash va pandemiyaning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga

salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha ko'rilayotgan mislsiz qat'iy chora-tadbirlarni yuksak baholadi va to'liq qo'llab-quvvatladi.

Suhbatda mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar ham alohida ko'rib chiqildi.

Telefon muloqoti chog'ida, shuningdek, xalqaro ahamiyatga molik qator masalalar hamda bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasi muhokama qilindi.

Muloqot yakunida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Yevropa kengashi prezidenti Sharl Mishel O'zbekiston va YI o'rtasidagi konstruktiv muloqot va keng ko'lamlilik hamkorlikni rivojlantirishga intilishlari qat'iy ekanini ta'kidladilar.

\* \* \*

**20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqalari bo'yicha vitse-prezidenti Siril Myul-lerni O'zbekiston Respublikasining «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlash to'g'risidagi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari muborak Ramazon oyi boshlanishi munosabati bilan samimiy qutlovlar almashib, bir-birlari va birodar xalqlarimizga sihat-salomatlik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

O'zbekiston Prezidenti hamkasbi va do'st Turkiya xalqini ushbu mamlakatda keng nishonlanadigan davlat bayrami – Milliy suverenitet va bolalar kuni bilan ham tabrikladi.

Muloqotda Shavkat Mirziyoyev va Rejep Tayyip Erdog'an yangi global xatar – koronavirus infeksiyasining shiddatli tarqalishiga qarshi kurashishda yaqindan hamkorlik qilish masalalariga alohida to'xtaldilar.

O'zbekiston va Turkiya Prezidentlari ikki tomonlama munosabatlarni batafsil muhokama qildilar.

Muloqotda mintaqaviy hamkorlik va xalqaro siyosatga doir qator dolzarb masalalar ham ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**22-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Doimiy propiska qilish hamda turgan joyi bo'yicha hisobga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida aholi bandligini ta'minlash va daromadi kes-

kin kamayishining oldini olish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda karantin cheklovlari sababli vaqtincha ishsiz qolgan fuqarolarni moddiy qo'llab-quvvatlash masalasi Samarqand va Namangan viloyatlarida amalga oshirilayotgan ishlar misolida muhokama qilindi.

Tadbirkor va fermerlar kambag'al oilalarga tomorqada ekin ekishga yordam berishi, takroriy ekin uchun o'z yeridan joy ajratishi, kasanchilikni yo'lga qo'yishda ko'maklashishi lozimligi ta'kidlandi.

Barcha tuman va shaharlarda ishsiz qolgan hamda ehtiyojmand aholini nomma-nom aniqlab, shakllantirilgan ro'yxatlar asosida «Saxovat va ko'mak» umumxalq harakati doirasidagi ishlarni manzilli yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Karantindan oldin ham ishsiz bo'lgan va kunlik daromad asosida yashab kelgan odamlarni faol mehnat orqali ish bilan ta'minlash zarurligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz belgilangan vazifalarni sifatli bajarish, odamlarni ham band, ham rozi qilish lozimligini ta'kidladi.

Yig'ilishda servis sohasini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda masofaviy o'quv kurslari tashkil etib, yoshlar va ayollarga hunar o'rgatish, o'z maktabiga ega hunarmand ustalar tajribasini televideniye orqali ommalashtirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**23-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev to'qimachilik sanoati barqarorligini ta'minlash, pandemiyaning sohaga ta'sirini yumshatish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda pandemiya davrida tarmoqni barqaror ishlatish uchun korxonalarni aylanma mablag' bilan ta'minlash masalasi ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda xomashyo yetishtirish va ishlab chiqarish zanjirida tannarxni kamaytirish masalasiga ham to'xtalib o'tildi. To'qimachilik korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishi uchun qulay sharoit yaratish masalalariga e'tibor qaratildi. Eksportchilar xarajatlarini subsidiya qilishni yanada kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**24-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida aholi bandligini ta'minlash va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini tiklash masalalari muhokamasiga bag'ishlangan navbatdagi videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlarida shu borada amalga oshirilayotgan ishlar ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda Sog'liqni saqlash vazirligi va ushbu viloyatlar hokimlariga kasallik yuqtirish xavfi yuqori, o'rta va past darajada bo'lgan tuman hamda faoliyat turlarini tahlil qilib, karantin cheklovlarini bosqichma-bosqich yumshatish bo'yicha Respublika maxsus komissiyasiga taklif kiritish topshirig'i berildi.

Prezidentimiz aholi bandligini ta'minlash uchun qurilishlarni da-



vom ettirishga ruxsat berilganini inobatga olib, mazkur viloyatlardagi obyektlarda belgilangan ishlarni jadallashtirish zarurligini ta'kidladi.

Kam ta'minlangan oilalarga qoramol, parranda va asalari uyasi tarqatib, kooperatsiya asosida aholi bandligini ta'minlash, mahsulot yetishtirishni ko'paytirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

G'alladan bo'shagan maydonlarning 50–60 foiziga fermer o'z ishchilari bilan ekin ekishi, qolgan qismini karantin sharoitida vaqtincha ishsiz qolgan va ko'makka muhtoj aholiga bo'lib berishni tashkil etish vazifasi yuklatildi.

\* \* \*

**27-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev geologiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va galdagi vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Majlisda bu borada amalga oshiriladigan ishlar hajmini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalari ko'rib chiqildi.

Sohaning investitsion jozibadorligini oshirish masalasi muhokama qilinar ekan, davlatimiz rahbari buning uchun xalqaro standartlarni joriy etish kerakligini ta'kidladi.

Yig'ilishda tashkil etilayotgan Geologiya fanlari universiteti qoshida

Geologiya muzeyini ochish va uning faoliyatini o'quv jarayoniga bog'lash yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**28-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-aprel kuni yuz bergan tabiiy ofat oqibatlarini ko'zdan kechirish, zarur chora-tadbirlar belgilash hamda aholi bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot qilish maqsadida Buxoro viloyatida bo'ldi.

Prezidentimiz vertolyotda Qorako'l va Olot tumanlaridagi holatni ko'zdan kechirdi. Olot tumani markazida mahalliy aholi vakillari, faollar bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbari kutilmagan tabiiy ofat – kuchli shamol odamlar turmushi, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarga salbiy ta'sir qilganini afsus bilan qayd etdi.

Davlatimiz rahbari sarosimaga tushmasdan har kungi yumushlarni davom ettirish muhim ekanini ta'kidladi. Tabiiy ofat oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etish, turar joylar va infratuzilma obyektlarini ta'mirlash, aholiga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi. Qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot tarmoqlari, jamoat xavfsizligi yuzasidan tezkor chora-tadbirlar belgilandi.

Davlatimiz rahbari Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida Bahouddin

Naqshband maqbarasini ziyorat qildi.

Muborak Ramazon kunlarida Alloh taolodan xalqimizga tinchlik-osoyshtalik, yurtimizni turli balofatlardan asrashini tilab duo qilindi.

Prezidentimiz muqaddas dinimizni, ulug' ajdodlarimizning bu yo'ldagi ilmiy merosini chuqur o'rganish bilan bog'liq muhim masalalarga ham alohida to'xtalib o'tdi.

Buxoro xalqaro aeroportida tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish, aholi, fermer va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha vazirlik va idoralar rahbarlariga topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**29-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev pandemiya davrida aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash va narx-navo barqarorligini saqlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazdi.

Davlat rahbari tadbir avvalida Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida yuz bergan tabiiy ofat va uning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari hamda koronavirus infeksiyasiga qarshi kurash doirasida keng jamoatchilikka murojaat qildi.

Yig'ilishda mahsulot yetishtirishni oshirish, strategik zaxiralarni shakllantirish masalalari muhokama qilindi.

Tumanlarda mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlari, oborotdan chiqqan yerlarni o'zlashtirish, meva-sabzavotchilik va chorvachilikdagi rezervlar aniq belgilab berilgan. Endi shu bo'yicha ishni tashkil etib, yetishmaydigan mahsulotni boshqa tumanlardan olish yoki ortiqchasini sotish lozimligi qayd etildi.

Mutasaddilarga donni bozor narxida sotib olish, donni qayta ishlovchi xususiy korxonalarni jalb qilgan holda saqlash va qayta ishlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat usulida qayta ishlashni ko'paytirish masalalari muhokama qilindi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga strategik zaxiralar nomenklaturasi va hajmlarini tanqidiy ko'rib chiqib, bu borada yangi tizim yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**30-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy o'quv yilini sifatli yakunlash, bitiruv va kirish imtihonlarini tashkil etish masalalari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda mazkur jarayonni sifatli tashkil etish bo'yicha topshiriqlar berildi. Ta'lim muassasalariga hujjatlar qabulini takomillashtirib, masofadan, onlayn shaklda, internet orqali hujjat topshirish imkoniyati-

ni yaratish zarurligi ta'kidlandi. Bu boradagi yangi tartib va afzalliklar haqida aholi batafsil xabardor qilindi.

Karantin tufayli ijtimoiy masofa tushunchasi hayotimizdan muhim o'rin egalladi. Shundan kelib chiqib, ta'lim muassasalarida, ayniqsa, maktablarda me'yorlarni qayta ko'rib chiqish zarurati ta'kidlandi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga oliy ta'lim muassasalariga reja va dasturlarni ish beruvchilar talabidan kelib chiqib mustaqil tasdiqlash vakolatini berish bo'yicha vazifalar yuklatildi.

\* \* \*

**1-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholining uy-joy sharoitini yaxshilash hamda ipoteka krediti bozorini yanada kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-2-may.** Sirdaryo viloyatidagi Sardoba suv ombori to'g'onining bir qismi o'pirilishi oqibatida suv oqimi aholi punktlari, kommunikatsiya tarmoqlari va qishloq xo'jaligi maydonlariga katta zarar yetkazdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev zudlik bilan voqea joyiga yetib keldi. Hukumat komissiyasi tashkil etilib, favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etish, aholini xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish va ularga har tomonlama yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Prezidentimiz Oqoltin tumanida aholi bilan uchrashib, jabrlangan har bir inson alohida e'tiborga olinishi, hamma uy-joy va oziq-ovqat bilan ta'minlanishini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Sardoba suv ombori to'g'oni ochilgan joyga borib, uni ko'zdan kechirdi. Hukumat komissiyasi va mutaxassislar bilan muhokama qilgan holda suv oqimini to'xtatish uchun zarur kuch va vositalar jalb qilindi.

2-may kuni Prezidentimiz yana Sardoba suv omboriga borib, to'g'onni tiklash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ko'rib chiqdi. Mutaxassislar bilan atroflicha muhokama qilgan holda, dambani mustahkamlash bo'yicha qator ko'rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari suv toshqiniga birinchi bo'lib duch kelgan Sardoba tumanidagi Navoiy nomidagi mahallaga bordi.

Prezidentimiz mahalla bo'ylab yurib, yuzaga kelgan ahvol bilan yaqindan tanishdi. Hududni puxta tozalab, dezinfeksiya qilish, qat'iy sanitariya-epidemiologik nazoratni ta'minlash, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini tez fursatlarda sifatli tiklash bo'yicha topshiriqlar berdi.

Shavkat Mirziyoyev suv chekinidan keyin o'z mahallasiga qaytgan odamlar bilan muloqotda bo'lib, talafot ko'rgan joylarda turmush sharoitlari tez kunlarda tiklanishi, aholiga har tomonlama ko'mak berilishini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari Oqoltin tumanidagi Shodlik mahallasi va

Mirzaobod tumanidagi Haqiqat mahallasi tutashgan hududda ham bo'ldi.

Guliston shahrida Prezidentimiz raisligida mutasaddi rahbarlar, huquq-tartibot idoralari mas'ullari, jamoatchilik vakillari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi.

Tadbirda Sardoba suv ombori to'g'onining kutilmaganda ochilishi va uning oqibatlari atroflicha tahlil qilindi, tegishli xulosalar chiqarildi.

Aholi salomatligini saqlash, talaft ko'rganlarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, ijtimoiy obyektlar va qishloq xo'jaligi maydonlarini tezroq tiklash bo'yicha dolzarb masalalar muhokama qilinib, zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Sardobadagi favqulodda hodisa sababli Guliston shahriga evakuatsiya qilingan odamlar bilan muloqot qilib, ulardan ko'ngil so'radi. Hech kim e'tibordan chetda qolmasligi, hammaga g'amxo'rlik ko'rsatilishini ta'kidladi.

\* \* \*

**2-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari Sardoba suv omboridagi favqulodda hodisa bilan bog'liq joriy vaziyatni hamda uning mamlakatlarimiz chegaroaldi hududlaridagi oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha yaqin hamkorlik ishlarini tashkil etish masalalarini batafsil muhokama qildilar.

Muloqotda O'zbekiston bilan Qozog'iston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi

qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash masalalariga hamda ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollariga alohida e'tibor qaratildi.

Ikki davlat Bosh vazirlari boshchiligidagi Hukumatlararo qo'shma komissiyaning faol ishini davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida, jumladan, Qustanay shahridagi qo'shma korxonada avtomobil ishlab chiqarishni kengaytirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, uchinchi mamlakatlar bozoriga chiqarish, zamonaviy transport-logistika infrazuzilmasini rivojlantirish va boshqa yo'nalishlar bo'yicha qator yangi dastur va loyihalarni tayyorlash hamda amalga oshirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Prezidentlar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

\* \* \*

**3-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Sirdaryo viloyatida bo'lib, Sardoba suv ombori hududida amalga oshirilayotgan tiklash-ta'mirlash ishlari bilan yaqindan tanishdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bajarilgan ishlarni sinchiklab ko'zdan kechirib, mutasaddi rahbarlar va mutaxassislariga zarur ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz Sardoba tumanidagi Qo'rg'ontepa mahallasini borib ko'rdi. Ushbu mahalla suv toshqiniga

birinchi bo'lib duch kelgan, odamlar tezkor ravishda xavfsiz joylarga ko'chirilgan edi.

Katta kuch va texnika vositalari, askarlar, boshqa sohalar xodimlari jalb qilinib, amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlar natijasida tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etilib, odamlar o'z uylariga qayta boshladi.

Davlatimiz rahbari shunday uylardan biriga kirib, xonadon egalari bilan hol-ahvol so'radi. Barcha qatori ularga ham moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatilishi, hech kim e'tibor va g'amxo'rlikdan chetda qolmasligini yana bir bor ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev qadrdon makoniga qaytgan mahalla aholisi bilan muloqot qildi.

Prezidentimiz Oqoltin tumanida ham bo'ldi. Mutasaddi xodimlar favqulodda hodisa yetkazgan zarar, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'riyotgan choralar haqida axborot berdi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga har bir xonadon egalari bilan gaplashib, ularning uy-joylarini ta'mirlash, yashash sharoiti mavjud xonadonlarga aholini qaytarish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Mirzaobod tumanida nuroniylar, mahalla oqsoqollari va faollari, jamoatchilik vakillari bilan uchra-shuv bo'ldi.

Aholi vakillari davlatimiz rahbariga shunday qiyin vaziyatda xalq bilan birga bo'lgani, qisqa vaqtda katta ishlar qilinib, hayot izga tushayotgani uchun minnatdorlik bildirdi.

Shu yerda hukumat a'zolari, mutasaddi rahbarlar bilan qishloq xo'jaligi

maydonlarini qayta foydalanishga kiritish, shikast yetgan yo'l va ko'priklarni ta'mirlash masalalari muhokama qilinib, chora-tadbirlar belgilandi.

\* \* \*

**4-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev yoqilg'i-energetika tarmog'ida samaradorlikni oshirish, energiya sarfini optimallashtirish masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda ommabop qishloq xo'jaligi texnikalari va yuk avtomobillarini gazga moslashgan holda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlandi.

Ko'p qavatli uylarni loyihalash va qurishda energiya tejoychi texnologiyalarni keng qo'llash, ijtimoiy soha obyektlarining energiya samaradorligini oshirishga xorijiy investitsiyalar jalb qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish, qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqib, jahon tajribasi asosida iste'molchilarga qo'shimcha shart-sharoit yaratish muhimligi ta'kidlandi. Sohaga to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar jalb qilish, viloyatlarda quyosh fotoelektr va shamol elektr stansiyalari qurishga doir masalalar ko'rib chiqildi.

Elektr energiyasi hamda tabiiy gaz sarfini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini yanada keng joriy etish masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

Karantin sababli yoqilg'i-energetika korxonalarida mablag' tan-

qisligi vujudga kelishini inobatga olib, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, aylanma mablag'larini ko'paytirish chora-tadbirlari belgilandi.

\* \* \*

**4-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'sh-nichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.

O'zbekiston va Qirg'iziston hukumatlarining koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashda yaqindan hamkorlik qilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Mamlakatlarimizda ushbu xavfli kasallik tarqalishining, avvalo, savdo-iqtisodiy aloqalarga salbiy oqibatlarini kamaytirish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar qo'llab-quvvatlandi.

Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining navbatdan tashqari sammitida qabul qilingan qarorlarga muvofiq tashkil etilgan sog'liqni saqlash va transport vazirliklari rahbarlarining ko'p tomonlama maslahatlashuvlari natijalari yuksak baholandi.

Prezidentlar O'zbekistonda Sardooba suv omboridagi favqulodda hodisa oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq masalalarni ham ko'rib chiqdilar.

Muloqot yakunida o'zaro tovar ayirboshlashning yuqori sur'atini saqlash, iqtisodiyotning turli tar-

moqlarida kooperatsiyani kengaytirish, ustuvor investitsiya va infrazuzilma, jumladan, mintaqaviy ahamiyatga molik loyihalarni ilgari surishga qaratilgan birgalikdagi ishlarni faol davom ettirishga kelishib olindi.

Suhbat chog'ida qator xalqaro masalalarga ham to'xtalib o'tildi.

\* \* \*

**4-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev o'tkazgan videoselektor yig'ilishida koronavirus infeksiyasiga qarshi kurash doirasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida yuz bergan favqulodda hodisalar yana bir bor muhokama qilindi.

Mamlakatimizda epidemiologik vaziyat ijobiy tomonga o'zgarayotgani bois karantin sharoiti bosqichma-bosqich yumshatila boshlagan edi. Bu ishlarni izchil davom ettirish maqsadida joylardagi vaziyat o'rganildi. Har bir tarmoq va hokimliklardan asoslangan takliflar olindi.

Yig'ilishda ushbu taklif va tahlillar asosida bundan buyon amalga oshiriladigan ishlar muhokama qilindi. Faoliyati tiklangan sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalariga qo'shimcha ravishda xizmat ko'rsatish subyektlari ham bosqichma-bosqich ishga tushirilishi belgilandi.

Respublika komissiyasiga xizmat ko'rsatish turlarini qaysi hududlarda va qanday shartlar asosida yo'lga qo'yishni belgilash topshirildi. Korxonalar barqaror ishlab ketishi uchun ularni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda karantin choralari yengillashtiriladigan hududlarni belgilash masalasi ham ko'rib chiqildi. Sog'liqni saqlash vazirligiga hokimliklar bilan birga har bir tuman va shaharning karantin darajasini belgilash, joylardagi vaziyat o'zgarishiga qarab, tezkorlik bilan karantin darajalarini yangilab borish vazifasi qo'yildi.

Oziq-ovqat xavfsizligiga yana bir bor e'tibor qaratilib, aholini asosiy turdagi mahsulotlar bilan uzluksiz ta'minlash, narx-navo barqarorligini saqlash chora-tadbirlari belgilandi.

\* \* \*

**5-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari ikki tomonlama yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalarini ko'rib chiqib, amaliy ham-

korlikni kengaytirish istiqbollarini muhokama qildilar.

Epidemiologik vaziyat rivojini nazorat qilish va koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Telefon muloqoti chog'ida O'zbekiston va Tojikiston Prezidentlari xalqaro ahamiyatga molik qator dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

\* \* \*

**6-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Muloqotda strategik sheriklik tamoyillariga asoslangan ko'p qirrali O'zbekiston – Turkmaniston munosabatlarining joriy holati va ularni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari savdo, energetika, transport va tranzit, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalaridagi amaliy hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani va idoralararo aloqalar samarali yo'lga qo'yilganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Hamkorlikka oid ustuvor loyihalarni, jumladan, ikki tomonlama Hukumatlararo komissiya faoliyati doirasida ilgari surish maqsadida birgalikdagi sa'y-harakatlarni faol davom ettirishga kelishib olindi.

Muloqotda, shuningdek, mamlakatimizda Sardoba suv omboridagi favqulodda vaziyat oqibatlarini bar-

taraf etish bilan bog'liq masalalarga to'xtalib o'tildi.

Koronavirus infeksiyasining tarqalishi bilan bog'liq epidemiologik vaziyat xususida ham fikr almashildi.

O'zbekiston va Turkmaniston yetakchilari xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlikka oid qator dolzarb masalalarni ham ko'rib chiqdilar.

\* \* \*

**6-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Eron Islom Respublikasi Prezidenti Hasan Ruhoniy bilan telefon orqali muloqot qildi.

Muloqot avvalida davlat rahbarlari muborak Ramazon oyi munosabati bilan samimiy qutlovlar almashib, bir-birlari va do'st xalqlarimizga koronavirusning global miqyosda tarqalishi bilan bog'liq bugungi murakkab davrda sihat-salomatlik va farovonlik tiladilar.

Ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalari, jumladan, savdo-iqtisodiy va transport kommunikatsiya sohalaridagi amaliy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari batafsil ko'rib chiqildi.

Prezidentlar pandemiyaning savdo amaliyotlari, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida amalga oshirilayotgan kooperatsiya loyihalari, eksport-import yuklarining tranzit tashuvlari uchun salbiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida tegishli vazirlik va idoralarga videoanjuanlar o'tkazib borishni davom ettirishni topshirdilar.

Muloqotda xalqaro hamkorlikka oid qator masalalar ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**6-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Andijon, Navoiy hamda Surxondaryo viloyatlari tuman va shaharlarining iqtisodiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda ushbu hududlarda sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish uchun barcha imkoniyatlar borligi ta'kidlanib, bu boradagi chora-tadbirlar belgilandi.

Davlatimiz rahbari shu kabi ko'plab imkoniyatlarni ko'rsatib o'tib, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

Yig'ilishda joylarda investitsion va turistik salohiyatni oshirish, servis xizmatlarini yaxshilash uchun infratuzilma obyektlarini rivojlantirish borasidagi holat tumanlar kesimida tahlil qilinib, xizmat ko'rsatishning barcha zaxiralarini hisob-kitob qilib, ularni ishga tushirishga tadbirkorlarni jalb etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda asosiy va bog'tok qator oralariga ekin ekish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirib, narx-navo barqarorligini ta'minlash masalalariga yana bir bor to'xtalib o'tildi.

\* \* \*

**7-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi



Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari yaqinlashib kelayotgan bayram – fashizm ustidan qozonilgan G‘alabaning 75 yilligi munosabati bilan bir-birlarini samimiy tabriklab, mamlakatlarimizning jasoratli faxriylariga, do‘st xalqlarimizga sog‘liq-omonlik va farovonlik tiladilar.

Muloqot chog‘ida O‘zbekiston va Rossiya Prezidentlari ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarining dolzarb masalalarini ko‘rib chiqdilar.

Ko‘p qirrali hamkorlik, avvalo savdo-iqtisodiy sohada izchil rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Prezidentlar bo‘lajak oliy darajadagi tadbirlarni puxta tayyorlash muhimligiga e‘tibor qaratdilar.

Muloqotda koronavirus infeksiyasi tarqalishi bilan bog‘liq vaziyat muhokama qilindi. Inqirozga qarshi kurashish, shu jumladan, aholiga manzilli yordam ko‘rsatish va ijtimoiy kafolatlarni kuchaytirish, biznesga har tomonlama ko‘maklashish, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash, cheklovlarni bosqichma-bosqich yumshatish borasida ikkala mamlakatda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston va Rossiya hukumatlari pandemiyaga qarshi samarali kurashish maqsadida sa‘y-harakatlarni o‘zaro muvofiqlashtirib borishi va yaqindan hamkorlikni davom ettirishi muhimligi ta‘kidlandi.

Davlat rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

\* \* \*

**7-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin bilan telefon orqali muloqot qildi.

O‘zbekiston va XXR yetakchilari ikki tomonlama hamkorlikka doir hamda xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalarni ko‘rib chiqdilar.

Davlat rahbarlari koronavirus infeksiyasiga qarshi davom etayotgan kurashning eng murakkab davrida ko‘rsatilgan o‘zaro ko‘mak va gumanitar yordamni katta mamnuniyat va minnatdorlik bilan qayd etdilar.

Ikki mamlakatning sog‘liqni saqlash va sanitariya-epidemiologiya nazorati sohasidagi idoralari o‘rtasida faol almashinuvlarni davom ettirishga kelishib olindi. Shuningdek, ko‘p qirrali, shu jumladan, siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliya, energetika, qishloq xo‘jaligi, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va boshqa muhim yo‘nalishlardagi hamkorlikning holati va uni kengaytirish istiqbollari batafsil muhokama qilindi.

Suhbat natijalariga ko‘ra ikki tomonlama oliy darajadagi tadbirlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish ishlari davom ettiriladi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy ahamiyatga molik qator dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar doirasida birgalikdagi sa‘y-harakatlarni muvofiqlashtirib borishga qat‘iy intilish tasdiqlandi.

Suhbat yakunida O'zbekiston va Xitoy yetakchilari do'stlik va har tomonlama strategik sheriklik ruhidagi keng ko'lamli hamkorlikni bundan buyon ham kengaytirishga tayyor ekanliklarini yana bir bor ta'kidladilar.

\* \* \*

**7-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Eksport faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash choratadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Muloqot avvalida davlat rahbarlari fashizm ustidan qozonilgan G'alaba kuni munosabati bilan bir-birlarini tabriklab, mamlakatlarimiz faxriylari va birodar xalqlariga tinchlik, sihat-salomatlik va farovonlik tiladilar.

Suhbat chog'ida Sardoba suv omboridagi favqulodda hodisa oqibatlarini bartaraf etish maqsadida chegaraoldi hududlarda yaqin hamkorlikni davom ettirishga alohida e'tibor qaratildi. Jabr ko'rgan tumanlarda aholiga manzilli yordam

ko'rsatish va infratuzilmani tiklash bo'yicha qilinadigan birinchi navbatdagi ishlar haqida kelishib olindi.

Prezidentlar koronavirus infeksiyasi tarqalishi bilan bog'liq joriy epidemiologik vaziyatni ham ko'rib chiqdilar. Pandemiya qarshi kurash, aholi va biznes uchun cheklovlarni bosqichma-bosqich yumshatish borasida mamlakatlarimizda ko'rilayotgan choralar qo'llab-quvvatlandi.

Muloqot chog'ida savdo-iqtisodiy sohada erishilgan kelishuvlarni tez fursatlarda amalga oshirish, jumladan, avtomobilsozlik, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, transport va logistika, boshqa tarmoqlarda istiqbolli loyihalarni tayyorlash va ilgari surish muhimligi qayd etildi.

Muloqot yakunida ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklikka asoslangan keng ko'lamli O'zbekiston – Qozog'iston hamkorligini yanada kengaytirishga intilish qat'iy ekani ta'kidlandi.

\* \* \*

**8-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyev Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'alabaning 75 yilligi munosabati bilan bir-birlarini samimiy tabriklab, ezgu tilaklar bildirdilar.

Muloqotda chegaraoldi hududlarda Sardoba suv omboridagi favqulodda hodisa oqibatlarini bartaraf etish

bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqildi. Aholiga zarur yordam ko‘rsatish, infratuzilma va kommunikatsiyalarni qayta tiklash borasida birgalikda amalga oshirilayotgan birinchi navbatdagi tadbirlar qo‘llab-quvvatlandi.

Mamlakatlarimizda koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash samarali kechayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Ushbu xavfli kasallikning oldini olish va davolashda vakolatli idoralarning yaqindan muvofiqlashuvi va hamkorligini davom ettirish muhimligi ta‘kidlandi.

Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyev ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini, avvalo, savdo-iqtisodiy sohada kengaytirish masalalariga alohida to‘xtal-dilar. Shuningdek, xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar hamda Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**8-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenkoning telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Davlat rahbarlari G‘alabani 75 yilligi munosabati bilan bir-birlarini tabrikladilar. Birodar xalqlarimizning Buyuk G‘alabaga erishishda beqiyos hissa qo‘shgani alohida qayd etildi.

Suhbatda O‘zbekiston va Belarus o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari ko‘rib chiqildi. Erishilgan kelishuvlarni

amalga oshirish va sheriklikning yangi yo‘nalishlarini ilgari surish maqsadida qo‘shma Hukumatlararo komissiya doirasidagi uchrashuvlarni, jumladan, videoanjuanlar shaklida davom ettirishga kelishib olindi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik qator dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida ko‘p tomonlama qo‘shma tadbir va dasturlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratildi.

\* \* \*

**9-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G‘alabani 75 yilligi munosabati bilan poytaxtimizda o‘tkazilgan bayram tadbirlarida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari Olmazor tumani barpo etilgan G‘alaba bog‘iga tashrif buyurib, dastlab «Matonat madhiyasi» yodgorlik majmuasiga gulchambar qo‘ydi.

Davlatimiz rahbari bog‘dagi «Shon-sharaf» muzeyi ekspozitsiyasi bilan tanishdi. Bu yerdagi eksponatlar Ikkinchi jahon urushidagi G‘alabaga katta hissa qo‘shgan xalqimizning jasoratini tarannum etishga, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilishini ta‘kid-ladi. Harbiy xizmatchi va kursantlarni, yoshlarni bu yerga olib kelib, ularda mardlik, fidoyilik ruhini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar berdi.

Davlatimiz rahbari bog‘dagi «Ko‘z yoshi» majmuasi bilan ham tanishdi. Ko‘z shaklidagi bu badiiy

majmuada urushning mudhishligi, millati va dinidan qat'i nazar, barcha odamlar birligi ifodalangan.

G'alaba bog'idagi amfiteatrda 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Marosimda urush va mehnat faxriylari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, harbiy xizmatchilar jam bo'ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'alabani 75 yilligi bilan barcha faxriylarni, butun xalqimizni tabrikladi.

Prezidentimiz G'alaba bog'ining faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozdi.

Bog'da Ikkinchi jahon urushi davridagi kompozitsiyalar installyatsiyasi, jumladan, temiryo'l vokzali, okoplar barpo etilgan, harbiy texnikalar, qurol-aslahalar ko'rgazmaga qo'yilgan. Davlatimiz rahbari ushbu texnikalarni ham ko'zdan kechirdi.

O'zbekiston Prezidentining tantanali tadbirdagi ma'ruzasi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

Davlatimiz rahbari shu kuni Toshkent shahridagi Chilonzor tumanida barpo etilgan ikkinchi perinatal markazni ham borib ko'rdi.

Prezidentimiz tibbiyot markazida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Askdoctor.uz onlayn poliklinika dasturi orqali shifokorlar bilan muvoqot qildi.

Masofaviy texnologiyalarni tuman shifoxonalari, qishloq poliklinika-

larida ham bosqichma-bosqich joriy etish, tibbiyot xodimlari va aholini undan foydalanishga o'rgatish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**11-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga davlat idoralari ma'lumotlar bazasini tasniflab, ularni idoralararo integratsion platformaga ulash, elektron hamkorlikning yagona texnologik talablarini joriy qilish vazifasi qo'yildi.

Pandemiya ta'sirini inobatga olib, eng zarur bo'lgan davlat xizmatlarini tezkor ravishda elektron shaklga o'tkazish muhimligi ta'kidlandi.

Davlat soliq qo'mitasiga savdo va xizmat ko'rsatish obyektlarini onlayn nazorat kassa mashinalariga o'tkazish, alkogol va tamaki mahsulotlarini markirovka qilish hamda elektron hisob-faktura tizimini joriy etish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda axborot texnologiyalari infratuzilmasini rivojlantirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Mutasaddilarga yer maydoni va suv hisobini yuritishning elektron tizimlarini ishlab chiqish, qishloq xo'jaligida ekinlarni joylashtirishdan tortib, sotuvgacha bo'lgan jarayonlarni to'liq raqamlashtirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**11-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublika hududlarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent shahri va Toshkent viloyatida doimiy propiska qilinishi lozim bo'lgan shaxslar – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari toifalarining ro'yxati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**13-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda karantin talablarini hushyorlikni oshirgan holda yanada yumshatish, iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich ishlatish, aholi bandligi va daromadlarini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda pandemiyaga qarshi kurashish hamda karantin sharoitida aholi va korxonalarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlarga to'xtalib o'tildi.

Prezidentimiz pandemiya sharoitida avvalgi berilgan imtiyozlarga qo'shimcha ravishda tadbirkorlar va aholini qo'llab-quvvatlash davom ettirilishini ta'kidladi.

Yig'ilishda yurtimizdagi epidemiologik vaziyat hamda hududlar rahbarlarining takliflaridan kelib chiqib, karantin talablarini yanada yumshatish masalalari muhokama qilindi. Xususan, «yashil» va «sariq» hududlarda sanitariya-gigiyena talablariga qat'iy amal qilgan holda xizmat ko'rsatish turlariga bosqichma-bosqich ruxsat berish mumkinligi belgilandi.

Videoselektor yig'ilishida karantin choralarini yumshatish, iqtisodiyot korxonalarini qayta tiklash borasidagi ishlar bu safar Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari misolida ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari qiyinchilikka duch kelayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularni ish bilan ta'minlash hudud rahbarlarining eng ustuvor vazifasi bo'lishi lozimligini ta'kidladi.

\* \* \*

**14-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga jinoyat protsessida ishtirok etuvchi fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**15-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Sirdaryo viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari viloyatga avvalgi safarlari chog'ida bu yerlik odamlarning hayotini nafaqat oldingi holatiga qaytarish, balki uni yanada yaxshilash, yangi uy-joylar, ijtimoiy obyektlar barpo etib, yangi ish o'rinlari yaratishni vazifa qilib qo'ygan edi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev dastlab Sardoba tumanida bo'lib, hududda olib borilayotgan ishlarni ko'zdan kechirdi. Ta'mirlanayotgan xonadonlarni kirib ko'rди, odamlar bilan suhbatlashdi.

Sardoba tumanida mahalliy aholi vakillari bilan uchrashuv bo'ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev suv omborida yuz bergan texnogen avariya juda katta sinov bo'lganini, Hukumat komissiyasi tashkil etilib, toshqin oqibatlarini bartaraf etishga barcha kuch va imkoniyatlar safarbar qilinganini yana bir bor qayd etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev shu kunning o'zida Mirzaobod tumanida ham bo'lib, favqulodda holatdan talafot ko'rgan joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni ko'zdan kechirdi.

Mutasaddilar bilan suhbatda qurilish-ta'mirlash ishlarini sifatli bajarish kerakligi, mahalliy, energiya tejankor va zamonaviy materiallardan foydalanish muhimligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari mirzaobodlik nuroniylar, mahalla faollari va xonadon egalari bilan uchrashdi.

Uy-joylar va infratuzilmani tiklash, elektr energiyasi, gaz, ichimlik suvi ta'minoti va yo'llarni ta'mir-

lash bo'yicha zarur choralar ko'rilayotgani aytilди.

Mirzaobodlik jabrdiydalarga ham Sardobada bo'lgani kabi tegishli sertifikat va pul mablag'li bank kartochkalari tarqatildi.

Davlatimiz rahbari bu yerda ham qurilishi rejalashtirilgan turar joylarning poydevoriga tamal toshi qo'ydi.

Prezidentimiz suv toshqinidan talafot ko'rgan Oqoltin tumanida ham bo'lib, aholi vakillari bilan uchrashdi.

Uy-joylar qurish va ta'mirlash, aholi salomatligini himoya qilish, infratuzilma obyektlari va qishloq xo'jaligi maydonlarini tiklash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida aytib o'tildi.

Suv toshqinidan aziyat chekkan oqoltinliklarga ham sertifikat va pul mablag'li bank kartochkalari topshirildi.

\* \* \*

**18-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**18-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilish avvalida davlatimiz rahbari koronavirus infeksiyasiga qarshi kurash ishlariga yana bir bor to'xtalib o'tdi.

Yig'ilishda tadbirkorlar huquqlari kafolatlari va mulk daxlsizligini ta'minlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi.

Mutasaddi idoralarga mulk daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, mulkni kompensatsiya qilish bo'yicha tadbirkorlar foydasiga chiqarilgan sud qarorlari ijrosini to'liq ta'minlashga doir ko'rsatmalar berildi.

O'zini o'zi band qilayotgan, qo'lida kasb-hunari bor odamlarga munosib sharoit yaratish maqsadida yangi tizim joriy etilishi belgilandi.

Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Adliya vazirligiga aniq hisob-kitob asosida, xususiy sektorga o'tkazish mumkin bo'lgan davlat xizmatlari ro'yxatini shakllantirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Karantin davrida ko'pgina tashkilotlar to'lov qobiliyatini yo'qotib, bankrotlik yoqasiga kelib qolishi mumkin. Shu sababli, korxonaga sanatsiya qo'llanilsa, uning soliq va boshqa to'lovlardan qarzdorligi karantin tugaganidan keyin undirishi mumkinligi belgilandi.

Prezidentimiz mahsulot, uskuna, xomashyo hamda aylanma mablag'lar uchun kredit olishda tadbirkorlarga o'rnatilgan barcha cheklovlar olib tashlanishi kerakligini ta'kidladi. Markaziy bankka kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik subyektlariga kredit berish shartlarini soddalashtirish bo'yicha topshiriq berildi.

Yig'ilishda tijorat banklari oldidagi vazifalarga ham to'xtalib o'tildi.

Prezidentimiz bank faoliyatiga mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatiga qarab baho berilishini alohida qayd etdi.

Yig'ilishda tadbirkorlar bilan ishlashda sustkashlikka yo'l qo'yan ayrim tuman va shahar hokimlarini vazifasidan ozod etish bo'yicha ko'rsatma berildi.

\* \* \*

**20-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'ydi. Xiyobonda amalga oshirilgan ishlar va yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Yozuvchi va shoirlar, ziyolilar bilan uchrashuvda milliy adabiyotimizni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor, galdagi muhim vazifalar haqida so'z bordi.

Adiblar xiyobonini adabiyot, ma'rifat va madaniyat maskaniga aylantirish, har bir adib haykalini muayyan oliy o'quv yurtiga birliktirib, bu yerda ochiq darslar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazish bo'yicha tavsiyalar berildi. Xiyobon bilangina cheklanib qolmasdan, adiblar ijodini chuqur o'rganish, ularning ibratli umr yo'li haqida kitoblar va filmlar yaratish, yangi asarlar yozish muhimligi ta'kidlandi.

Shu yerda oliy ta'lim muassalarining adiblar ijodini o'rganish bo'yicha taqdimotlari o'tkazildi. Davlatimiz rahbari xiyobon yonida tashkil etilgan kutubxonani ham ko'zdan kechirdi.

Ma'lumki, Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yil 11-yanvar kuni poytaxtimizdagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishuv chog'ida Toshkent shahri muzeyini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar bergan edi. Adiblar xiyoboni yonidagi bino rekonstruksiya qilinib, mazkur muzey shu yerda barpo etildi.

Toshkent shahri muzeyini ash-yoviy dalillar bilan boyitib, shahar sivilizatsiyasini to'la yuzaga chiqarish maqsadida ilmiy-tadqiqot instituti tashkil qilish, arxeologlarga sharoit yaratish, izlanishlar natijasi bo'yicha kitoblar chop etish zarurligi ta'kidlandi. Yoshlarni, o'quvchilarni bu yerga olib kelish, boshqa shaharlarda ham shunday muzeylar

tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Toshkentning Yashnobod tumanida Bolalar milliy tibbiyot markazi barpo etildi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ushbu muassasani ham borib ko'rdi.

Bolalar meditsinasi yo'nalishida innovatsion izlanishlar olib borish, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda murakkab jarrohlik amaliyotlari va yuqori texnologik muolajalarni tashkil etish, tibbiyot mutaxassislari malakasini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari klinikada yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Situatsion markazda bo'lib, viloyatlardagi va Janubiy Koreyadagi Pusan universitet mutaxassislari bilan muloqot qildi.

Ushbu markaz yonida kattalar uchun ham zamonaviy klinika hamda oliy o'quv yurti tashkil etish rejalashtirilgan. Mazkur muassasalar loyihasi taqdimot qilindi.

Davlatimiz rahbari Toshkent shahri Ohangaron shossesi va Maxtumquli ko'chasi kesishmasidagi yo'l o'tkazgichni ko'zdan kechirdi.

Toshkent shahrida amalga oshirilgan bunday ulkan bunyodkorlik loyihalari poytaxtimizning yanada rivojlanib, aholi yashashi uchun qulay shaharlardan biriga aylanib borayotganidan dalolat berishi qayd etildi.

\* \* \*

**20-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat boji to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar



kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**21-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ramazon hayitini nishonlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**21–22-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, odamlar hayoti bilan tanishish maqsadida Andijon viloyatiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari dastlab Oltinko'l tumanidagi «Ko'hna vodiy bahori» fermer xo'jaligida bo'lib, g'alla va g'o'za rivojini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari g'o'za qator oralariga soya ekish bo'yicha Andijon tajribasini yaratish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Shu yerda paxtachilik, g'allachilik va meva-sabzavotchilik klasterlari hamda chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari qayta jihozlangan avtobusda tashkil etilgan sayyor laboratoriya bilan ham tanishdi.

Prezidentimiz Andijon shahridagi «VBM tekstil grup» MCHJga qarashli eksportbop tayyor tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqaradigan zamonaviy korxonada ham bo'ldi.

Prezidentimiz mazkur korxonada mutaxassis va tikuvchilari bilan suhbatlashib, ishlab chiqarilgan tikuvchilik mahsulotlarini ko'zdan kechirdi.

Shu yerda viloyatda 2020–2021-yillarda amalga oshiriladigan investitsiya, tadbirkorlik va kichik biznes, hunarmandchilikni rivojlantirishga doir istiqbolli loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari Andijon shahrida qad rostlayotgan yangi uyjoylarni borib ko'rdi. 16 qavatli uydagi xonadonlardan birida bo'lib, oila bilan suhbatlashdi.

Tumanlardagi aholi zich joylarga ham kommunikatsiya olib borib, barcha sharoitlarga ega ko'p qavatli uylar qurish, zamonaviy qishloqlar bunyod etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari Andijon viloyatiga safari chog'ida Marhamat tumanidagi «Vodiy hamkor agrofirma» tomonidan tashkil etilgan quyunchilik klasteri bilan ham tanishdi. Shu yerda chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik korxonalarini salohiyati haqida ma'lumot berildi.

Shu yerda Ipoteka bank tomonidan Xitoy texnologiyasi asosida baliq yetishtirish loyihasi taqdim etildi. Mazkur loyiha davlatimiz rahbariga ma'qul bo'ldi. Baliqchilikda Andijon texnologiya-

sini barcha viloyatlarda ham amalga oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari Andijon viloyatiga safari chog'ida «Zamonaviy qishloq» loyihasi taqdimoti bilan tanishdi. Prezidentimiz bu borada Andijon tajribasini yaratish kerakligini ta'kidladi. Buning uchun alohida loyiha ishlab chiqish, «Zamonaviy qishloq»dagi uylarni boshqa turar joylarga nisbatan arzon qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shu yerda viloyatda kambag'allikni qisqartirish, ipoteka kreditlari asosida yakka tartibdagi uylarni qurish-ta'mirlash loyihalari muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon shahrida Digital City nomli texnopark bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari yoshlar bilan suhbatda ularni doimiy o'rganish, izlanishga chorladi.

Davlatimiz rahbari oliy o'quv yurtiga kirolmagan yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning qiziqish va layoqatini o'rganib, kasbga yo'naltirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Prezidentimiz tashrifning ikkinchi kuni Andijon shahrida viloyat va tumanlar hokimlari, iqtisodiyot tarmoqlari rahbarlari ishtirokida yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish, ish o'rinlari tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yig'ilishda Andijon viloyati aholisining turmush sharoitini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Davlatimiz rahbari viloyatdagi mehnat bozori talabini, hududdagi tadbirkorlik va qurilish infratuzilmasi sohalari tez sur'atlarda o'sayotganini inobatga olib, Andijon iqtisodiyot va qurilish institutini tashkil etish va joriy yildan qabulni amalga oshirish zarurligini ta'kidladi. Bundan tashqari, Toshkent davlat agrar universitetining filiali negizida Andijon qishloq xo'jaligi institutini tashkil etib, viloyatda agrar soha uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash yuzasidan vazifalar belgilab berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev shu kuni Xo'jaobod tumanidagi ko'p qavatli uylar qurilishini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari qurilish ishlaridagi kamchiliklarni ko'rsatib o'tdi. Bunday joylarda uylar bunyod etish mamlakatimizda yangi tajriba ekanini, ularni xalqaro standartlar asosida pishiq, sifatli qurish zarurligini ta'kidladi. Loyihani takomillashtirish, aholiga qulay transport yo'nalishlari tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**23-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqiga Ramazon hayiti tabrigi yo'lladi.

\* \* \*

**23-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari qutlug' Ramazon hayiti munosabati bilan o'zaro tabrik almashdilar, birbirlariga va qardosh xalqlarimizga baxt-saodat va farovonlik tiladilar.

Prezidentlar ikki tomonlama munosabatlar, kun tartibidagi masalalarga alohida to'xtaldilar. Zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi kurashishda yaqindan hamkorlik qilinayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Turkiya Prezidentiga pandemiyaga qarshi kurashda, shuningdek, Sardoba suv omboridagi favqulodda hodisa munosabati bilan ko'rsatilgan amaliy yordam uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Suhbatda ko'p qirrali O'zbekiston – Turkiya munosabatlarini, avvalo savdo-iqtisodiy, investitsiya va transport-kommunikatsiya sohalarida kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Savdo ko'rsatkichlari dinamikasini saqlash hamda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida O'zbekiston va Turkiyaning yetakchi kompaniya va banklari ishtirokidagi ustuvor investitsiya loyihalarini ilgari surish bo'yicha birgalikdagi ishlarni, shu jumladan, ikki tomonlama Hukumatlararo komissiya faoliyati doirasida davom ettirish zarurligi qayd etildi.

Muloqot yakunida mintaqaviy hamkorlik va xalqaro siyosatning qator dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**25-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev transport sohasining barqaror ishlashini ta'minlash va izchil rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda koronavirus pandemiyasi davrida yangicha sharoit va talablar asosida transport sohasining barqaror ishlashini ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

Yig'ilishda avtotransportda xalqaro yuk tashuvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash masalasiga ham e'tibor qaratildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda ichki yo'nalishlarda qatnaydigan avtobuslarni yangilash, bunday korxonalarni barqaror moliyaviy resurs bilan ta'minlash yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**26-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida investitsiya masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilish avvalida mamlakatimizda koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida alohida to'xtalib o'tildi.

Tadbirda Investitsiya dasturining joriy yil dastlabki to'rt oyidagi ijrosi tahlil qilinib, prognoz ko'rsatkichlarini so'zsiz bajarish, jumladan, yirik ishlab chiqarish quvvatlari, ijtimoiy va infratuzilma obyektlarini foydalanishga topshirish choratadbirlari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari qisqa vaqtlarda natija beradigan, ayniqsa, yangi ish o'rinlari yaratadigan va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan loyihalar bo'yicha ishlash lozimligini ta'kidladi.

Uy-joy kommunal xizmat vazirligi hamda Suv xo'jaligi vazirligiga Inqirozga qarshi kurashish jam-

g'armasidan moliyalashtiriladigan obyektlarda qurilishni jadallashtirish vazifasi yuklatildi.

Yig'ilishda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi loyihalar ham atroflicha tahlil qilindi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga «o'sish nuqtasi» bo'la oladigan axborot texnologiyalari, zargarlik, kimyo, elektr texnikasi, oliy ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga faol sarmoyalar jalb qilish bo'yicha alohida yondashuvlar ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

Yig'ilishda pandemiya sababli o'zlashtirilmay qolish ehtimoli bo'lgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar sohalar va hududlar kesimida ko'rib chiqildi. Bunday loyihalarning istiqbolini o'rganib, muddatlarini kechiktirish yoki o'rniga yangilarini kiritish mumkinligi qayd etildi.

Yig'ilishda, shuningdek, aholi daromadini oshirishga xizmat qiladigan kichik loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Mutasaddilarga, shuningdek, sanoati rivojlanmagan boshqa tumanlar bo'yicha imkoniyatlarni aniqlab, sanoat zonalari tashkil etish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**26-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mehr-saxovat» ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Salomatlik» ordenini ta'sis etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sog'lom turmush» medalini ta'sis etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish choratadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev turizm va davlat aktivlarini xususilashtirish sohalaridagi loyihalar taqdimoti, shuningdek, mamlakatimizda ichki turizmni tiklash va rivojlantirish borasidagi rejalar bilan tanishdi.

Prezidentimiz birinchi bosqichda «yashil» hududlar o'rtasida ichki turizmga ruxsat berish zarurligini ta'kidladi. Tog'li joylar va ko'l bo'ylarida yengil konstruksiyali dam olish maskanlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Ikkinchi bosqichda koronavirus kasalligi jilovlangan davlatlar ro'yxatini shakllantirib, ular bilan turizm aloqalarini bosqichma-bosqich tiklash kerakligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz bu sohaga qo'shimcha imtiyoz va preferensiyalar berish lozimligini ta'kidladi.

Taqdimotda davlat aktivlarini xusiyalashtirish, bo'sh turgan obyektlar va yer maydonlarini aniqlash hamda ulardan samarali foydalanish, davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvni joriy etishga doir rejalar haqida ma'lumot berildi.

Vazirlar Mahkamasiga xusiyalashtirish dasturini tasdiqlash vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**28-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash va iste'molchilar huquqini himoya qilish borasidagi ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga qat'iy o'tishi jarayonida raqobat masalasi prinsipial ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi.

Yig'ilishda korxonalarining bozordagi monopol mavqeyini aniqlash bo'yicha yondashuvlarni qayta ko'rib

chiqish, monopol tovarlar ro'yxatini keskin qisqartirishga qaratilgan «yo'l xaritasi»ni tasdiqlash vazifasi belgilandi. Raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi kurashish borasida mutlaqo yangi tizim yaratish lozimligi ta'kidlandi.

Iqtisodiyotda imtiyozlardan samarali foydalanish masalasiga ham to'xtalib o'tildi. Shuningdek, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish borasidagi ishlar ham batafsil tahlil qilindi.

Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi huzuridagi Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligining vakolatlarini kengaytirish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**29-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi uchun yaratilayotgan sharoitlar, fuqarolar hayotini yaxshilash, farovonligini oshirish yo'lida qilinayotgan ishlar bilan tanishish maqsadida poytaxtimizning Sergeli tumani va Toshkent viloyatining Zangiota tumanida bo'ldi.

Prezidentimiz dastlab Zangiota tumanida barpo etilayotgan ko'p tarmoqli maxsus shifoxona qurilishi bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari qabul bo'limi, karantin zonasi, laboratoriya va muolaja xonalarini sinchiklab ko'zdan kechirdi.

Videoaloqa orqali Qoraqalpog'iston va viloyatlardagi shifokorlar bilan muloqot bo'ldi. Telemeditsina bo'yicha kompleks tizim yaratish, tumanlardan viloyat kasalxonalariga, undan respublika markazlariga bog'lanish imkoniyatini yo'lga qo'yish, shu bilan birga, tibbiyot xodimlarini bu bo'yicha o'qitib, tajriba almashuvni kengaytirish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Prezidentimiz mazkur muassasada ish boshlaydigan tibbiyot xodimlari bilan suhbatlashdi.

Shu yerda viloyat va respublika tibbiyot muassasalari qamrovi hamda hamkorligi haqida taqdimot o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari Sergeli tumanida barpo etilgan 16 qavatli uyni borib ko'rdi.

Prezidentimiz shu uydagi Sharofiddin va Shahnoza Jo'raboyevlar xonadonida bo'lib, ular bilan suhbatlashdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Sergeli tumanida yangi foydalanishga topshirilgan 329-maktabni ham borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari maktab darsliklari saviyasi talabga javob bermasligi, o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy bilimlar asosida takomillashtirish zarurligini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Sergeli tumanidagi o'zgarish va islohotlar bilan tanishish jarayonida odamlarning farovonligini ta'minlash, boshqaruvni samarali tashkil etish maqsadida Toshkent shahar hokimligiga to'g'ridan to'g'ri bo'ysunadigan alohida Yangi hayot

kichik tumanini tashkil etish taklifini bildirdi.

Poytaxt aholisiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini vositachilarsiz, arzon narxda yetkazib berish choralari ko'rilmogda. Sergeli tumaniga Qashqadaryo viloyati birlashtirilib, viloyat fermerlari o'z mahsulotini olib kelib sotadigan savdo joyi ochildi.

Davlatimiz rahbari Tashabbus mahallasi hududidagi ana shunday savdo shoxobchasini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari «Madena collection» mas'uliyati cheklangan jamiyat faoliyati bilan ham tanishdi. Ishchi ayollar bilan suhbatlashdi. Ularning oilaviy va mehnat sharoitlari bilan qiziqdi.

Davlatimiz rahbari Sergeli tumanida barpo etilgan ekoparkni borib ko'rdi. Bog'da yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, manzarali daraxtlar va gul do'konlarini ko'zdan kechirdi.

Yangi ekoparkda Sergeli tumani mutasaddilari, aholi vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda Sergeli tumani uchun shakllantirilgan investitsiya loyihalari hamda ijtimoiy masalalar muhokama qilindi.

\* \* \*

**1-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev milliy statistika sohasini takomillashtirish chora-tadbirlari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda hududlar va tarmoqlar statistikasini o'zaro muvofiq shakllantirish, ularni yagona xalqaro statistika tizimi bilan uyg'unlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Ishsizlikni aniqlashni Xalqaro mehnat tashkiloti standartlariga to'liq moslashtirib, so'rov o'tkazish tartibini takomillashtirish va qamrovni kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Vazirlar Mahkamasi, Davlat statistika qo'mitasiga ta'lim, qishloq xo'jaligi, tashqi savdo, transport, qurilish, ekologiya, turizm va yana qator sohalar statistikasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Davlat idoralarining statistikasi shakllantirish jarayonini audit qilish bo'yicha ham ko'rsatma berildi.

Mutasaddilarga mehnat, energetika, qishloq xo'jaligi, ta'lim kabi sohalar bo'yicha xalqaro bazalarda mamlakatimiz ko'rsatkichlarini to'kis aks ettirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari aholini ro'yxatga olish statistikasi shakllantirishda asosiy manba ekani, bunga hozirdan puxta tayyorgarlik ko'rish kerakligini ta'kidladi.

Statistika qo'mitasida maxsus bo'linma tashkil etib, xorijlik ekspertlarni jalb qilish, qo'mita huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish instituti faoliyatini takomillashtirib, aholini ro'yxatga olishda qatnashadigan barcha mutaxassislarni o'qitish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda Jahon banki ekspertlari bilan birgalikda ishlab chiqilgan Statistika tizimini rivojlantirish strategiyasi taqdimoti o'tkazildi. Davlatimiz rahbari uni

takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**1-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari «Chashma» chegaraoldi hududida ro'y bergan hodisa bilan bog'liq masalalarni batafsil ko'rib chiqib, bunday vaziyat boshqa takrorlanmasligi uchun mukammal choralar qabul qilish muhim ekanini ta'kidladilar. Hukumat delegatsiyalari o'tkazgan muzokaralarning samarali natijalari mamnuniyat bilan qayd etildi.

Prezidentlar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Davlat rahbarlari O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va strategik sheriklik munosabatlarini qardosh xalqlarimiz farovonligi yo'lida yanada mustahkamlashda qat'iy ekanliklarini yana bir bor tasdiqladilar.

\* \* \*

**2-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida kambag'allik-

ni qisqartirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari asosiy maqsad kambag'al oilaning hech bo'lmaganda bitta a'zosini ish bilan ta'minlab, ularni muhtojlikdan chiqarish ekani, shuning uchun har bir oila, har bir fuqaroning muammosi bilan alohida shug'ullanish zarurligini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ishsizlik darajasi yuqori, infratuzilma tarmoqlari yetishmaydigan tumanlar, ayniqsa, chegaradosh hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha alohida yondashuv bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Bosh vazir o'rinbosarlariga mahalliy hokimliklar bilan birgalikda shunday tumanlarda aholi bandligini oshirish va yashash sharoitini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni to'liq ta'minlash va bozorlardagi narx-navo barqarorligini saqlash masalasiga ham to'xtalib o'tildi.

\* \* \*

**4-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrining Yakkasaroy tumanida yo'l va ko'prik loyihasi bilan tanishdi.

Keyingi uch yilda Toshkent shahrining Sergeli tumanida 460 ta ko'p qavatli uy foydalanishga topshirildi. Shu davrda bu yerga 100 mingdan ziyod aholi ko'chib kelib, jami aholi 276 ming nafardan oshdi. Buning natijasida, tabiiyki, infratuzilma tarmoqlariga yuklama ham ortdi.

Prezidentimiz Sergeli tumanini poytaxtimiz markazi bilan bog'lovchi yo'l va ko'prik loyihasi bilan tanishdi.

Shu yerda Toshkent shahrining transport konsepsiyasi taqdimoti o'tkazildi. Bu konsepsiya geoinformatsion tizim orqali shahardagi transport va yo'lovchilar oqimini tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan. Undan maqsad, avvalo, xavfsizlik, qulaylik va iqtisodiy samaradorlikdir.

Prezidentimiz piyodalar va velosipedlar harakatiga ko'proq sharoit yaratish zarurligini qayd etdi.

Transport konsepsiyasini Toshkent shahrining bitta tumanida aprobat-siya qilish, keyinchalik butun poytaxtimiz va boshqa shaharlarda joriy qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shu yerda Yakkasaroy tumanida ko'p qavatli savdo kompleksi, mehmonxona va turar joy qurish bo'yicha investitsiya loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari taqdimotlardan so'ng Sergeli tumanini poytaxt markazi bilan bog'laydigan va transport harakati uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'l o'tkazgichni ko'zdan kechirdi. Mutasaddilarga transport oqimiga qo'shimcha qulayliklar yaratish yuzasidan topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**5-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat Bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.



\* \* \*

**5-6-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, yirik loyihalar bilan tanishish maqsadida Farg'ona viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Qo'sh-tepa tumanidagi «Tursunov Yusufjon yeri» fermer xo'jaligida bo'lib, qishloq xo'jaligi sohasi mutasaddilari va qo'shtepalik fermerlar bilan muloqotda bo'ldi.

Shu yerda qishloq xo'jaligi va agrosanoat loyihalari taqdimoti o'tkazildi. Xususan, o'rmon xo'jaliklari va «Mehrigiyo» korxonasi hamkorligida dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash, tomorqachilikni rivojlantirish, suvdan oqilona foydalanish, tomchilatib sug'orishni keng joriy etish, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash kabi loyihalar taqdim etildi.

Prezidentimiz ekologik toza dori-darmonlar turini ko'paytirishda ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari bilan hamkorlikni kengaytirish lozimligini qayd etdi.

Shundan so'ng Prezidentimiz Toshloq tumanidagi «Uz-Segang» qo'shma korxonasi ish jarayoni bilan tanishdi.

Prezidentimiz bu korxonani doimiy xomashyo bilan ta'minlash masalasiga ahamiyat qaratdi. Buning uchun unga hududdagi bog'larni birlashtirish, yangi bog'lar va laboratoriya tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Farg'ona tumanida ishga tushirilgan «Ekokerama» mas'uliyati cheklangan jamiyati ham shunday.

Bu yerga tashrif chog'ida Prezident Shavkat Mirziyoyev yurtimiz foydali qazilmalarga boyligi, lekin ular asosida tayyorlanadigan materiallar katta miqdorda chetdan keltirilayotganiga e'tibor qaratdi.

Davlatimiz rahbari bu korxonani klasterga aylantirish, karyerlar ajratib berib, kamida 30 yillik xomashyo zaxirasi bilan ta'minlash zarurligini ta'kidladi.

Shu yerda Farg'ona viloyatida joriy yilda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Marg'ilondagi Hunarmandlar markazini borib ko'rdi.

Shu yerda viloyatda ipakchilik sohasida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari haqida ma'lumot berildi. Davlatimiz rahbari tarmoq korxonalariga yer ajratib, ish o'rinlarini ko'paytirish, odamlarga hozirgi qiyin sharoitga iqtisodiy yordam berish zarurligini ta'kidladi.

Prezidentimiz Farg'ona viloyatida kambag'al aholi bilan ishlash tizimi bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar bilan ham tanishdi. Vazirliklar va tijorat banklari tomonidan bu borada Toshloq tumani misolida loyihalar ishlab chiqilgan bo'lib, davlatimiz rahbari taqdimot chog'ida ayrim banklar hamon yangicha ishlashga o'tmaganini tanqid qildi.

Mutasaddilarga Toshloq misolida viloyatning barcha tumanlarida is-siqxonalar, parrandachilik, pilla-chilik, quyonchilik klasterlari tashkil etib, kambag'al oilalar bandligini ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Tashrifning ikkinchi kuni Farg‘ona shahrida viloyat va tuman hokimlari, soha va tarmoqlar rahbarlari, jamoatchilik vakillari bilan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari Farg‘ona shahridagi O‘zbekiston – Koreya xalqaro universitetida bo‘ldi.

Shavkat Mirziyoyev universitet rektori Pak Jun Xu va koreyalik o‘qituvchilar bilan suhbatlashdi. O‘quv dasturi va mazmuni, yoshlarning fanlarni o‘zlashtirishi bilan qiziqdi.

Mutasaddilarga Janubiy Koreya universitetlaridagi o‘quv dasturlari va soatlarini o‘rganib, mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimini qayta ko‘rib chiqish, talabalarni amaliyotga maksimal yo‘naltirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Farg‘ona viloyatiga tashrifi yakunlandi.

\* \* \*

**8-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi tizimida geologiya fanlari universiteti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida axborot texno-

logiyalari va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi islohotlar ijrosi bo‘yicha taqdimot o‘tkazildi.

Taqdimotda sohadagi maqsadlarga zamonaviy dasturchilar tayyorlashni jadallashtirish orqali erishish mumkinligi qayd etildi.

Mutasaddilarga xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda, tashkilotlarda ruxsat berish va qaror qabul qilish jarayonlarini elektron formatga o‘tkazish bo‘yicha konsepsiya ishlab chiqish topshirildi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga barcha hududlarda raqamli texnologiyalar bo‘yicha kamida 100 ta o‘quv markazi ochish vazifasi yuklatildi. Taqdimotda mutasaddilar mazkur IT parklar qurilishi, optik tolali liniyalar qamrovi, mobil internet tezligi va sifatini oshirish ishlari yuzasidan axborot berdi.

\* \* \*

**9-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Faxriy murabbiy» ordenini ta‘sis etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**9-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlashga doir dolzarb masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari yangicha yondashuv va instrumentlarni qo‘llash orqali iqtisodiyotda o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash uchun barcha imkoniyatlar borligini ta‘kidlab, shu boradagi asosiy yo‘nalishlarni ko‘rsatib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari Xitoy tajribasidan kelib chiqib, kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan qishloqlarga vazirlik va idoralarni biriktirib, muhtojlarga ko'maklashish tizimini yaratish, oilaviy tadbirkorlik va tomorqachilikni rivojlantirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Yig'ilishda sanoatni rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Ayrim tarmoqlarda xomashyoni chuqur qayta ishlash va qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishning yaxlit zanjiri yaratilmagani ko'rsatib o'tildi.

Kimyo, to'qimachilik, qurilish materiallari, avtomobilsozlik, elektr texnikasi hamda oziq-ovqat sanoatlariga alohida e'tibor qaratish, davlat korxonalarini isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Mamlakatimizda kichik biznes iqtisodiyotning o'sish nuqtasi etib belgilangan. Yig'ilishda tadbirkorlarga erkin raqobat muhitini yaratish uchun xususiy mulkchilikni himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini isloh etish zarurligi ta'kidlandi.

Yuqori texnologiyali tarmoqlarda kichik biznes hissasi kamligi qayd etilib, bunday subyektlarni davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Hududlarda kichik sanoat zonalarini tashkil etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**11-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Suma

Chakrabarti bilan videoaloqa orqali muzokara o'tkazdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari O'zbekiston Respublikasining Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan munosabatlarida keyingi yillarda yuksak darajaga erishilgani va samarali o'zaro hamkorlik amalga oshirilayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Prezidentimiz hamkorlikning amaliy natijalari haqida so'z yuritgan ekan, o'zaro ishonchni mustahkamlash va samarali hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan katta hissasi va bu boradagi faol sa'y-harakatlari uchun Suma Chakrabartiga samimiy minnatdorlik bildirdi.

Yetakchi xalqaro moliyaviy institut rahbari bunday shakldagi uchrashuvning tashkil etilgani uchun chuqur minnatdorlik bildirib, bank O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi islohotlar yo'lini va Markaziy Osiyodagi mintaqaviy siyosatni har tomonlama, shu jumladan, loyihalar portfeli va moliyaviy-texnik ko'mak hajmini kengaytirish orqali qo'llab-quvvatlashda qat'iy ekanini ta'kidladi.

Videomuloqot chog'ida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari batafsil ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**12-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Olmazor tumanida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi.

Prezidentimiz dastlab O'zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika institutiga tashrif buyurdi.

Prezidentimiz bu yerda yaratilgan qulayliklar bilan tanishdi. Ta'lim sohasi mutasaddilari, rektor va olimlar bilan muloqot bo'ldi. Muloqotda ta'lim sohasi mutasaddilari, olimlar, rektorlar O'zbekiston sharoitida matematika fanini o'qitish bo'yicha platforma yaratilgani, endi ta'lim muassasalari oldida jamiyatda ushbu fanning obro'sini yuksaltirish vazifasi turganini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Olmazor tumani Talabalar shaharchasida barpo etilgan Innovatsion rivojlanish vazirligining yangi binosini borib ko'rdi.

Prezidentimiz videoaloqa tizimi orqali vazirlikning Ilg'or texnologiyalar markazi mutaxassislari bilan muloqot qildi.

Prezidentimiz tibbiyotdagi innovatsiyalar, Yoshlar akademiyasi a'zolarining loyihalari, g'o'zaning vilt kasalligiga chidamli yangi navlarini yaratish, gen-nokaut texnologiyasi yordamida kartoshka va bug'doy hosildorligini oshirish, Koreya texnologiyasi asosida qishda qovun yetishtirishga mo'ljallangan issiqxona loyihalari bilan tanishdi. Vazirlik axborot xizmati, kutubxona, anjumanlar zalini ko'zdan kechirdi.

Toshkentdagi Talabalar shaharchasi hududida 6 ta 9 qavatli 216 xonadonga mo'ljallangan uy bunyod etildi. Davlatimiz rahbari Olmazor tumaniga tashrifi doirasida mazkur uylarda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi, xonadon egalari bilan suhbatlashdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasida xususiy

sektorni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida joylarda zamonaviy tibbiy muassasalar ishga tushirilmoqda. Olmazor tumanidagi «Nano Medical Clinic» ko'p tarmoqli tibbiyot klinikasi ana shunday subyektlardan biri.

Davlatimiz rahbari bu qurilish loyihasiga alohida e'tibor qaratdi. Har bir metr yerdan oqilona foydalanib, hamma jihatlar hisobga olingani, boshqa obyektlarni loyihalashtirishda buni o'rganish kerakligini ta'kidladi.

Shu yerda davlatimiz rahbariga xususiy tibbiyot tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, sog'liqni saqlash sohasiga axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish borasidagi rejalar haqida ham ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, Olmazor tumanidagi qandolat mahsulotlari va tez pishadigan ovqat ingredientlari ishlab chiqaradigan «ARDENT FOODS» mas'uliyati cheklangan jamiyat korxonasida bo'ldi. Bu yerda mahsulotlar turini ko'paytirib, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Prezident Olmazor tumanidagi «Next Generation Product» qo'shma korxonasi faoliyati bilan ham tanishdi.

Davlatimiz rahbariga shu yerda istiqboldagi loyihalar haqida ham ma'lumot berildi. Prezidentimiz mahsulotlar turini ko'paytirib, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mutasaddi rahbarlar ishtirokida

Olmazor tumani faollari, nuroniylar bilan uchrashuv o'tkazdi.

Tumanda kambag'allikni qisqartirish, investitsiya loyihalarini amalga oshirib, yangi ish o'rinlari tashkil etish, aholining turmush sharoitlarini yaxshilash masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**12-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2020–2021-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida xizmat ko'rsatish va ichki turizm sohasini rivojlantirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda soha salohiyatidan to'la foydalanilmayotgani ta'kidlandi. Joylarda maishiy uskunalarni ta'mirlash ustaxonalari, kimyoviy tozalash shoxobchalari, kompyuter dizaynerligi, buxgalteriya, reklama, pullik tibbiy xizmat kabi tadbirkorlik subyektlari kamligi ko'rsatib o'tildi.

Davlatimiz rahbari iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, aholining zamonaviy xizmatlarni o'rganishiga sharoit yaratish muhimligini ta'kidladi.

Bosh vazir o'rinbosariga hokimlar bilan birga har bir tuman va shahar kesimida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish topshirildi. Shu bilan birga, tarmoqni tartibga solish, undagi metodologiya

va statistika ma'lumotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish vazifasi qo'yildi.

Hududlar rahbarlari mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, xizmat ko'rsatish sohasida ko'p ish joyi yaratadigan va tez amalga oshiriladigan loyihalarni shakllantirishi zarurligi ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu yilgi bitiruvchilarni o'qish va ishga jalb etish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda «Ishga marhamat» mono-markazlari tashkil etish, yoshlarni kasbga va tadbirkorlik asoslariga o'rgatish maskanlari hamda mahalla guzarlarida o'quv kurslari ochish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda ichki turizmni rivojlantirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasiga vazirlik, idoralar va hokimliklar bilan birga yangi ichki turizm marshrutlari ochish, ko'chma dam olish maskanlarini ko'paytirish, tibbiyot va sog'lomlashtirish turizmni taraqqiy ettirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Hokimlar va sektor rahbarlariga sayyohlar boradigan barcha obyektlar, mehmonxona va ovqatlanish shoxobchalarida karantin qoidalariga qat'iy amal qilinishini ta'minlash yuklatildi.

\* \* \*

**17-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Nizolarni muqobil hal

etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat'iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat chog'ida ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik tamoyillariga asoslangan O'zbekiston – Qozog'iston amaliy hamkorligi izchil kengayib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro manfaatli aloqalarning ustuvor yo'nalishlarida qo'shma loyihalar amalga oshirilmogda.

O'ndan ortiq yangi loyihalarni amalga oshirish nazarda tutilayotgan sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash bo'yicha «yo'l xaritasi» ma'qullandi. Bo'lajak uchrashuv va tadbirlar rejasi yuzasidan ham fikr almashildi.

Muloqot so'ngida Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyev O'zbekiston va Qozog'iston xalqlariga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

\* \* \*

**22-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**23–24-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasiga bordi.

Kreml'da davlatimiz rahbarini Rossiya Prezidenti Vladimir Putin kutib oldi.

Suhbat chog'ida strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Prezidentlar keyingi yillarda ikki tomonlama aloqalar jadal rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar. O'zbekiston – Rossiya munosabatlarining dolzarb masalalarini batafsil ko'rib chiqdilar.

Ikki mamlakat hukumatlariga bo'lajak oliy darajadagi tashrifga puxta tayyorgarlikni davom ettirish, bunda yangi iqtisodiy dasturlar va ilg'or investitsiya loyihalariga e'tibor qaratish masalalari topshirildi.

Prezidentlar xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, bo'lajak uchrashuvlar rejasini, shu jumladan, MDH va ShHTning navbatdagi sammitlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish borasida kelishib oldilar.

Davlatimiz rahbari ertasi kuni fashizm ustidan qozonilgan Buyuk G'alabaning 75 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etdi. Bo'lib o'tgan paradda

O'zbekiston Qurolli Kuchlari vakillari ham ulug' ajdodlarga munosib tarzda ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrifi davomida Moskva shahrining Aleksandr bog'idagi «Noma'lum askar» yodgorligiga gul qo'ydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev insoniyat tinchligi uchun jon fido qilgan vatanparvar insonlarning xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Shavkat Mirziyoyev shu kuni O'zbekistonning Moskva shahridagi elchixonasi yaqinida joylashgan Islom Karimov xiyoboniga ham tashrif buyurdi.

Prezidentimiz buyuk davlat va siyosat arbobi, o'zbek xalqining ulug' va ardoqli farzandi, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti haykali poyiga gulchambar qo'ydi, uning yorqin xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Shavkat Mirziyoyev Islom Karimov xiyoboniga tashrifi chog'ida bu yerga yig'ilgan vatandoshlarimizni qutladi.

Davlat rahbarimizning Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrifi shu bilan yakuniga yetdi.

\* \* \*

**26-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Bo'g'uvchi, zaharli yoki boshqa shu kabi gazlar va bakteriologik vositalarning urushda qo'llanilishini taqiqlash to'g'risidagi Protokolga (Jeneva, 1925-yil 17-iyun) qo'shilishi haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26–27-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, yirik loyihalar bilan tanishish, aholi bilan muloqot qilish maqsadida Namangan viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Pop tumanidagi «Nuran uz» meva-sabzavotchilik klasteri faoliyati bilan tanishib, bog'ni ko'zdan kechirdi, shu yerda nuroniylar, qishloq xo'jaligi xodimlari bilan suhbatlashdi.

Shu yerda Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga oid loyihalar, istiqbolli rejalar muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari qishloq xo'jaligiga bunday yangicha yondashuv O'zbekistonning yangi qirralarini, yangi imkoniyatlarini amalda namoyon etadigan tizim bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Chortoq tumani Baland adir hududida issiqxonalar majmuasini barpo etish loyihasi bilan tanishdi. Bu issiqxonalarning afzallik jihatlari, mavjud sharoitlar haqida ma'lumot berildi.

Shu yerda viloyatda kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, «Golden Nats Namangan» agro tomorqa xizmati MChJ tomonidan intensiv bog'dorchilikni (yong'oq, bodom, olma va olcha) tashkil qilish, chorvachilik va sutni qayta ishlash loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Shavkat Mirziyoyev Uchqo'rg'on tumani Norin daryosi bo'yida joylashgan noyob – forel baliq turini ishlab chiqarish korxonasi «DB

Group Eco» faoliyati bilan tanishdi.

Shu yerning o'zida davlatimiz rahbari viloyatda qishloq xo'jaligining baliqchilik, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik, asarichilik, echkichilik tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Namangan shahridagi «Yuksalish» kichik sanoat zonasida amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbariga «Yuksalish» kichik sanoat zonasida «Flat Tile» mas'uliyati cheklangan jamiyatining kafel-keramika mahsulotlari ishlab chiqarish loyihasi taqdim etildi.

Prezident kichik sanoat zonasi hududidagi erkaklar kostumi, kurtka va palto ishlab chiqarishga ixtisoslashgan «Zamin kiyim sanoat» korxonasida amalga oshirilayotgan loyihalar bilan ham tanishdi.

Davlatimiz rahbari kichik sanoat zonasida faoliyat ko'rsatayotgan qator korxonalar mahsulotlari ko'rgazmasi bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev mutasaddilarga muhokama qilingan har bir mavzu bo'yicha chuqur tahlil asosida ko'rsatma va tavsiyalar berdi. Kichik sanoat zonasi hududidagi 100 dan ortiq korxonalar faoliyati ko'zdan kechirildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Namangan shahridagi «Orzu» mahalla fuqarolar yig'inida «Obod va xavfsiz mahalla» konsepsiyasi asosida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari 2017-yili viloyatga tashrifi chog'ida bu yerda

bo'lib, «Orzu» mahallasi misolida aholiga qulayliklar yaratish va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha butun mamlakatga namuna bo'ladigan tizim taqdimoti bilan tanishgan edi.

Davlatimiz rahbarining mahallaga bu galgi tashrifi yana bir xayrli tashabbusning boshlanishiga turtki berdi. Bu yerda xavfsiz mahalla va Namanganda «aqli shahar» loyihasini hayotga tatbiq etishga kiritildi.

Prezidentimiz mamlakatimizda yangilik bo'lgan loyiha – Namangan shahrining ijtimoiy-iqtisodiy geoaxborot monitoring va raqamli boshqaruv tizimi bilan tanishar ekan, eng katta masala jinoyatchilikni kamaytirishga erishish ekanini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari viloyatdagi yoshlar va jinoyatga moyil qatlamni sektorlar tomonidan nazoratga olish va shu orqali jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha hali tizimli ishlar qilinmayotganiga e'tibor qaratdi.

Shavkat Mirziyoyev viloyatga tashrifi doirasida Namangan shahridagi 155 gektarlik «Afsonalar vodiysi» madaniyat va istirohat bog'ida bajarilgan ishlar bilan tanishdi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezidentimiz ishtirokida Namangan shahrida viloyat va tuman hokimlari, soha va tarmoqlar rahbarlari, jamoatchilik vakillari bilan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz joylarda yutuqlar borligini, o'zgarishlar bo'layotganini, lekin bular hali ko'zlagan marralarimizga mos emasligini ta'kidladi.



Yig'ilishda Namangan viloyatida kambag'allikni qisqartirish, ta'lim muassasalari bitiruvchilarini kasbhunarga qamrab olish va aholi daromadlarini ko'paytirish bo'yicha hozirgi ahvol puxta tahlil qilinib, amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Yig'ilishda uy-joy va infratuzilma qurilishi, aholini ichimlik suv bilan ta'minlash, ta'lim, madaniyat sohalarini rivojlantirish, inqirozga qarshi xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb qilish, yangi korxonalarni barpo etish bo'yicha investitsiya loyihalarini ko'paytirish, eksportni kengaytirish yuzasidan vazifalar belgilandi.

Namangan viloyati nufusi yildan yilga kengayib bormoqda. Bu esa hududni demografik boshqarish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda qiyinchilik tug'dirmoqda. Shu munosabat bilan Prezident Namangan shahri tarkibida Davlatobod tumanini qayta tashkil etishni taklif qildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Namangan viloyatining ramziy darvozalaridan biri hisoblangan Namangan temiryo'l vokzalida amalga oshirilgan qurilish-rekonstruksiya ishlarini ko'zdan kechirdi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Namangan viloyatiga tashrifi yakuniga yetdi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**27-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligi va melioratsiya texnikalarini sinash va sertifikatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Muloqot chog'ida ikki tomonlama hamkorlikka doir va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

Prezidentlar O'zbekiston – Turkmaniston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari izchil mustahkamlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan ta'kidladilar.

O'zaro manfaatli amaliy hamkorlikni, birinchi navbatda savdo, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi, transport va tranzit tashuvlari, turizm sohalarida yanada kengaytirish zarurligi qayd etildi.

Davlat rahbarlari chegaraoldi hududlar o'rtasidagi faol aloqalarni davom ettirish, shuningdek, ta'lim va madaniy-gumanitar almashinuvlarni kengaytirish fikrini qo'llab-quvvatladilar.

Ikki tomonlama Hukumatlararo komissiya doirasida hamkorlik bo'yicha qo'shma dastur va loyihalarni ishlab chiqishga kelishib olindi.

Suhbat so'ngida davlat rahbarlari qardosh O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlarni har tomonlama rivojlantirish va mustahkamlashda ikkala tomon ham qat'iy ekanini yana bir bor tasdiqladilar.

\* \* \*

**30-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Yoshlariga bayram tabrigi yo'lladi.

Tabrik matni matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**30-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2007-yil 27-iyundagi Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasida hamkorlikdagi harbiy o'quvlarni o'tkazish to'g'risidagi Bitimga qo'shimchalar kiritish haqidagi Bayonnomani (Bishkek, 2019-yil 29-aprel) ratifikatsiya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**30-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**30-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida odil sudlovni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan video-selektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, bunday o'zgarishlar odamlarimizda haqiqat va adolatga bo'lgan ishonchni mustahkamlamoqda. Lekin xalq sud-huquq tizimidan rozi deyinshga hali asos yo'q.

Inson huquqlari markazi, Ombudsman, Toshkent davlat yuridik universitetiga «Inson qadr-qimmatini – eng oliy qadriyat» maxsus o'quv moduli bo'yicha barcha huquq-tartibot idoralari rahbar xodimlarini o'qitish vazifasi yuklatildi.

Mutasaddilarga ilg'or tajriba va xalqaro standartlar asosida sud tizimini «bir sud – bir instansiya» tamoyili asosida qayta ko'rib chiqish topshirig'i berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev sudyalarning adolatli qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazuvchi barcha omillarni, jumladan, Oliy sud raisi va Bosh prokurorning protest keltirish huquqini bekor qilish taklifini ilgari surdi.

Sudlar chiqarayotgan qarorlar faqat sud majlisida tekshirilgan dalillarga asoslanishi lozimligi ta'kidlandi. Ayrim sudyalarning tergov materiallariga bog'lanib qolgani, bu esa qonun, sud va davlat obro'siga putur yetkazishi qayd etildi. Odil sudlov xalqning ko'z o'ngida, ochiq-oshkora amalga oshirilib, adolat qaror topishi lozimligi ta'kidlandi.

Xususiy mulk qonun va sudning kafolatli himoyasida bo'lishi zarur. Xususiylashtirish natijalarini qayta ko'rib chiqishni bekor qilish, umuman, davlat idoralarining bunday tashabbus bilan chiqishiga yo'l qo'ymaslik va bu qonunda mustahkamlanishi zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Viloyat, tuman (shahar) hokimlari, barcha sektor rahbarlari o'z hududlarida ushbu talablarga qat'iy amal qilinishini ta'minlashi shartligi qayd etildi.

Advokatlik faoliyatini boshlashi uchun yosh mutaxassislardan 2 yil yuridik taj talab etishni bekor qilish, talabalikdan advokat yordamchisi sifatida amaliyot o'tash tartibini joriy etish zarurligi ta'kidlandi.

Sud faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bugungi davr talabidir. Joriy yil yakuniga qadar Oliy sudda yagona «Adolat» axborot tizimlari kompleksini ishga tushirish vazifasi yuklatildi.

Videosektor yig'ilishida navbatdagi muhim masala – korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi islohotlar muhokama qilindi.

\* \* \*

**30-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish va axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Geodeziya va kartografiya faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Vladimir Putinni muhim siyosiy tadbir – Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga tuzatishlar kiritish bo'yicha umummilliy ovoz berish jarayoni muvaffaqiyatli o'tkazilgani bilan samimiy tabrikladi.

Prezidentlar fashizm ustidan qozonilgan G'alabaning 75 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlarda O'zbekiston Respublikasi delegatsiyasining ishtiroki doirasida Moskva shahrida o'tgan ikki tomonlama uchrashuvning samarali natijalarini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Davlat rahbarlari O'zbekiston – Rossiya strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish borasida qat'iy ekanliklarini yana bir bor tasdiqladilar.

Bo'lajak oliy darajali tashriflar kun tartibidagi masalalarga, shuningdek, koronavirus infeksiyasi global miqyosda tarqalishining mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-

iqtisodiy aloqalarga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha o'zaro muvofiqlashgan chora-tadbirlarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratildi.

Muloqot chog'ida xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashildi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish masalalari ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**2-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz investitsion va tashqi savdo faoliyati prognoz ko'rsatkichlarining joriy yil I yarmidagi ijrosini muhokama qilish, shuningdek, Yaponiya, Koreya Respublikasi va Birlashgan Arab Amirliklari bilan ustuvor qo'shma loyihalarning borishini hamda savdo-iqtisodiy, investitsion va moliyaviy-texnik hamkorlikni kengaytirish istiqbollari ko'rib chiqishga bag'ishlangan videoanjuan tarzida yig'ilish o'tkazdi.

Majlisda amaldagi loyihalarni o'z vaqtida amalga oshirish hamda investitsion hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha yangi takliflar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yaponiya, Koreya Respublikasi va BAA bilan hamkorlik bo'yicha «yo'l xaritalari»ning 2020-yil uchun belgilangan chora-tadbirlarini to'liq va sifatli bajarish zarurligini ta'kidladi.

\* \* \*

**6-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev bank aktivlarida xusu-

siy sektor ulushini 15 foizdan 60 foizga oshirishga qaratilgan 2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasini amalga oshirish hamda mamlakat tijorat banklarining transformatsiya jarayonini jadallashtirish bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda ushbu maqsadga erishish uchun qator muhim masalalarni hal qilish lozimligi ta'kidlandi. Birinchi navbatda banklar transformatsiyasi jarayonini faollashtirish zarurligi qayd etildi.

Yig'ilishda banklarning kredit portfeli va loyihalar sifatini oshirish masalasi muhokama qilindi. Stress-testlar natijalariga ko'ra, muammoli kreditlar ulushi bir necha barobar ko'payishi mumkinligi, bu esa bank tizimi uchun jiddiy xatar ekani qayd etildi.

Yig'ilishda bank tizimida korrupsiyaga barham berish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari barcha tijorat banklari raislari korrupsiyaga chek qo'yish, komplaens-nazorat kabi ta'sirchan mexanizmlarni joriy qilish bo'yicha qat'iy choralar ko'rish lozimligini alohida ta'kidladi.

Davlat aktivlari bor tijorat banklarida hukumatdan olingan mablag'lar hissasi hamon yuqoriligi tanqid qilindi.

Prezidentimiz banklar moliyaviy resurslarni davlat yordami va ko'magisiz, mustaqil jalb qilishlari zarurligini qayd etdi.

\* \* \*

**6-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublika-

sining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari suhbat avvalida Nursulton Abishevich Nazarboyevni yubileyi bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sogʻlik, baxt-saodat va yangi zafarlar tiladi.

Elboshining zamonaviy Qozogʻistonni barpo etish, kuchli davlat boshqaruvi institutlari va milliy kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish, mamlakat raqobatbardoshligi, xalqaro nufuzini oshirishga va, eng muhimi, aholining yuksak turmush darajasini taʼminlashga qaratilgan samarali ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi tarixiy roli alohida qayd etildi.

Qozogʻistonning Birinchi Prezidenti mamlakatlarimiz oʻrtasidagi qardoshlik, yaxshi qoʻshnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga katta hissa qoʻshdi.

Bugungi kunda Oʻzbekiston va Qozogʻistonning koʻp qirrali hamkorligi izchil rivojlanishda davom etmoqda hamda savdo-iqtisodiy, investitsiya, energetika, qishloq xoʻjaligi, transport-logistika, taʼlim va boshqa ustuvor yoʻnalishlardagi aniq qoʻshma dastur va loyihalar hisobiga kengayib bormoqda.

Muloqot chogʻida yetakchilar ikki tomonlama va xalqaro ahamiyatga molik qator dolzarb masalalarni muhokama qildilar.

\* \* \*

**8-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ov qilish va ovchilik

xoʻjaligi toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**8-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida oʻtkazilgan videosektor yigʻilishida hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish va budjet tushumlarini soʻzsiz taʼminlash chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Prezident joylarda haligacha tadbirkorlarga yer va bino-inshootlar ajratishda koʻplab toʻsiqlar mavjudligini koʻrsatib oʻtdi. Bularni ochiq savdoga, elektron auksionga chiqarish jarayonlarini jonlantirish vazifasi qoʻyildi.

Davlatimiz rahbari budjet daromadlari ijrosini taʼminlash borasida koʻrilayotgan choralarning samarasini oshirish yuzasidan qator topshiriqlar berdi.

Yigʻilishda, shuningdek, kambagʻallikni kamaytirish boʻyicha olib borilayotgan ishlarga ham toʻxtab oʻtildi. Davlatimiz rahbari kamida 257 ming nafar muhtoj oilalar vakillarini ishga joylashtirish, 37 mingta xonadonga oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida kreditlar ajratish zarurligini qayd etdi.

\* \* \*

**8-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning COVID-19 davrida Mehnat munosabatlari boʻyicha global sammiti ishtirokchilariga murojaat yoʻlladi.

\* \* \*

**9-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Suma Chakrabartini

O‘zbekiston Respublikasining «Do‘stlik» ordeni bilan mukofotlash to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Energiyadan oqilona foydalanish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlar va xotin-qizlar bandligini oshirish, ularni daromad manbayi bilan ta‘minlash masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Yig‘ilishda davlatimiz rahbari yoshlar va xotin-qizlarning muammolarini hal etish muhimligini ta‘kidlab, bu borada alohida e‘tibor

qaratish zarur bo‘lgan yo‘nalishlarni ko‘rsatib o‘tdi.

Videoselektor yig‘ilishida IT-parklari masalasiga ham to‘xtalib o‘tildi. Har bir tuman va shahar Yoshlar ishlari bo‘limlari va oliy o‘quv yurtlari qoshida axborot texnologiyalariga o‘qitish markazlari tashkil etish bo‘yicha topshiriq berildi.

Videoselektor yig‘ilishida xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlash, ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Har bir tuman va shahar kesimida ayollar biznes loyihalari ro‘yxatini shakllantirib, oyma-oy moliyalashtirish, xotin-qizlar tadbirkorligi dasturi doirasida sod-dalashtirilgan kreditlar va grantlar ajratish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**15-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri va Toshkent viloyatida pandemiya bilan bog‘liq vaziyat muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazdi.

Yig‘ilishda Respublika maxsus komissiyasiga bu ikki hududda koronavirus tarqalishiga qarshi kurash va aholini davolash ishlariga aloqador barcha vazirlik va idoralar, yirik tibbiyot muassasalari rahbarlaridan iborat 24 soat ishlaydigan shtablar tashkil qilish ko‘rsatmasi berildi. Shuningdek, poytaxt va Toshkent viloyatidagi poliklinikalar huzuridagi mobil guruhlar sonini uch barobar ko‘paytirish vazifasi yuklatildi.

Zangiota tumanida yaqinda ish boshlagan shifoxonadagi joy sonini yana 1000 o'ringa ko'paytirish topshirig'i berildi.

Poytaxtimizda dori-darmon yetkazilishi va narxi barqarorligini ta'minlash, shoshilinch tibbiy yordam xizmati va koll-sentrlar ishini samarali tashkil etish, COVID-19 bilan ishlayotgan tibbiyot xodimlarini moddiy rag'batlantirish, kasallar uchun qo'shimcha o'rinlar tashkil etish, shuningdek, karantin hududlaridagi shaxslarni uy karantiniga bosqichma-bosqich o'tkazish masalalari ko'rib chiqildi, zarur choralar belgilandi.

Aholidan murojaatlar soni keskin ortib borayotganini hisobga olib, koll-sentrlar aloqa vositalari va operatorlari sonini kamida ikki barobarga oshirish lozimligi ta'kidlandi.

Toshkent shahar hokimligiga kamida 3 oylik dori-darmon va himoya vositalari zaxirasini shakllantirish vazifasi qo'yildi.

Koronavirus kasalligini davolash bilan bog'liq barcha jarayonlarga, jumladan, Toshkent shahridagi ishlarga mas'ullar birlashtirildi.

\* \* \*

**16-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev videoaloqa orqali neft-gaz kimyosi, elektr texnikasi va farmasevtika sanoatidagi yangi loyihalar taqdimoti hamda ushbu tarmoqlarni rivojlantirish ishlari bo'yicha hisobotlar bilan tanishdi.

Taqdimotda neft va gaz kimyosi tarmog'idagi ana shunday yangi loyihalar bo'yicha ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari yangi loyihalarni jadallashtirish va sifatli amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Yig'ilishda «O'zbekneftgaz» aksiyadorlik jamiyatining birinchi yarim yillikdagi faoliyati yakunlari ham muhokama qilindi.

Prezidentimiz ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash, mahalliyashtirish darajasini oshirib, importni qisqartirish, sohaga raqamli texnologiyalarni faol tatbiq etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish, uglevodorodlarni qazib olish hajmini ko'paytirish bo'yicha istiqbolli loyihalarga xorijiy investorlarni jalb qilish muhimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda farmasevtika va elektr texnikasi sanoatining rivojlanish holati, yuqori qo'shilgan qiymatga ega sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish, ushbu tarmoqlar eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan investitsiya loyihalarining borishi ham ko'rib chiqildi. Tegishli tarmoq, vazirlik va idoralar rahbarlarining hisobotlari eshitildi.

Davlatimiz rahbari farmasevtika va elektr texnikasi sanoatini rivojlantirish, ularning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, shuningdek, koronavirus pandemiyasi sharoitida barqaror ishlashini ta'minlash bo'yicha aniq vazifalarni qo'ydi.

\* \* \*

**17-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda

ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimini yaxshilash, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarini jadallashtirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilish avvalida koronavirus bilan bog'liq vaziyatga alohida to'xtalib o'tildi.

Davlatimiz rahbari aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash borasidagi loyihalarni amalga oshirish va xorijiy kreditlarni qaytarishdagi muammolarni ko'rsatib, yangi qurilgan suv tarmoqlaridan to'liq foydalanish, kelgusi yildan boshlab barcha loyihalarda ichimlik suvini xonadonlargacha ulash zarurligini ta'kidladi.

Prezident energiya tejamkor kichik loyihalarni amalga oshirish yaxshi samara berishini ta'kidladi.

Sohada investitsiyalarni o'zlashtirishda qoloqlikka yo'l qo'ymaslik uchun xalqaro moliya tashkilotlari mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha xaridlar ochiq o'tkaziladigan va ularning ijrosi muvofiqlashtirib, samarali monitoringi yuritiladigan yangi tizim joriy qilinishi belgilandi.

Gidroinshootlarda suv o'lchagichlar, iste'molchilarda hisoblagichlar o'rnatish qamrovini kengaytirib, ulardagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi raqamlashtirilgan markaz tashkil qilish bo'yicha topshiriq berildi.

Videosektor yig'ilishida uyjoylar, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash masalalari ham ko'rib chiqildi.

Shirkatlarning muammoli qarzдорligini qisqartirish, ko'p qavat-

li uylar boshqaruvini servis kompaniyalariga berish tajribasini kengaytirish muhimligi ta'kidlandi. Kuz-qish mavsumida uzoq hududlarga ko'mir va suyultirilgan gazni kafolatlangan tarzda yetkazib berish masalasiga ham to'xtalib o'tildi.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, takroriy ekinlarni ko'paytirib, ularni xarid qilish va g'amlash chora-tadbirlari belgilandi.

Kam ta'minlangan oilalar ahvoriga alohida e'tibor qaratish, «Saxovat va ko'mak» jamg'armasi mablag'lari hisobidan 30 mingta muhtoj oilani kuz-qish mavsumi uchun zarur oziq-ovqat va dori-darmon zaxirasi bilan ta'minlash yuzasidan topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**20-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun aholi, tadbirkorlik subyektlari, umumiy ovqatlanish, savdo va xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-iyul.** Toshkent shahri va poytaxt viloyatida pandemiya bilan bog'liq holat hamda uni barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar davlatimiz rahbari raisligidagi videosektor yig'ilishida ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz tadbir ishtirokchilariga murojaat qilar ekan, pandemiya bilan bog'liq vaziyat



murakkabligicha qolayotganini aytdi. Koronavirusga shubha bo'lgan barcha bemorlarni infeksiya mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarsiz, zotiljam va nafas yetishmovchiligining klinik belgilari mavjudligiga asoslangan holda davolash muassasalariga qabul qilinishi belgilandi.

Mutasaddilarga surunkali kasalliklarni davolashga ixtisoslashgan shifoxonalardagi koronavirusga chalingan bemorlarni boshqa joylarga, shu jumladan, xususiy klinikalarga ko'chirish orqali surunkali xastaligi bor bemorlarga malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishini qayta tiklash choralari ko'rish topshirig'i berildi.

Kasallik o'chog'ida o'z jonini garovga tikib, har bir kasalni o'lim yoqasidan olib chiqayotgan shifokorlarimizni davlat mukofoti bilan taqdirlash bo'yicha takliflar kiritish topshirig'i berildi.

Barcha sektor rahbarlari ish kunini ertalabdan o'z hududlarida kasalxonalardagi ahvolni o'rganish bilan boshlashi qat'iy belgilandi.

\* \* \*

**20-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda koronavirus infeksiyasi tarqalishini kamaytirish hamda iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Majlisda barcha hududlardagi ahvol, joylardagi muammolar ochiq muhokama qilindi.

Prezident mutasaddilarga vaziyatning haqiqiy holatini real vaqt rejimida nazorat qilib, yuzaga

kelayotgan muammolarni tezkor hal etib borish bo'yicha qat'iy topshiriq berdi.

Keskin sur'atlarda davom etayotgan pandemiyaning iqtisodiyotga ko'rsatayotgan ta'sirini avvaldan baholash va mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash, investitsion loyihalarni o'z vaqtida amalga oshirish, qishloq xo'jaligi, sanoat va qurilish sohasidagi prognozlarini bajarish, eksportni ko'paytirish, hududlarni kompleks rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijalari tahlil qilindi.

Shavkat Mirziyoyev har bir hududda takroriy maydonlar hisobiga sabzavot va poliz mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi qo'liqlarni qoplash, aholi xonadonlariga parranda tarqatish ishlarini jadallashtirish hamda chorvachilik, baliqchilik sohasida intensiv texnologiyalarni keng qo'llash, shuningdek, yil yakuniga qadar hududlar salohiyatini inobatga olgan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni 3-4 foizga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**20-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev arxitektura va qurilish sohasidagi islohotlar natijalariga oid taqdimot bilan tanishdi.

Yig'ilishda sohani takomillashtirish, shaffoflikni ta'minlash, ipoteka bozorini rivojlantirish ishlarini jadallashtirish uchun ilg'or tajribaga ega xorijiy kompaniyani jalb etish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Shaharsozlik qoida va normalari interaktiv ko'rinishga o'tkazilishi, loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha barcha jarayonlarni raqamlashtirish hamda ekspertiza xulosalarini yagona bazada saqlashni yo'lga qo'yish kerakligi qayd etildi.

Yig'ilishda mutasaddilar qurilish sohasini raqamlashtirish, ochiqlikni ta'minlash, shaharsozlik qoida va normalarini yangilash borasidagi ishlar bo'yicha taqdimot qildi.

\* \* \*

**21-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**21-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev yer hisobi va davlat kadastrlarini to'liq shakllantirish, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Prezident kadastr idoralarining eng asosiy vazifasi yerning hisobi va balansini yuritish bo'lishi kerakligini qayd etdi. Shuningdek, sun'iy yo'ldosh kanallarini ijaraga olish va signallarni qayta ishlash tizimini tashkil etishga ko'rsatma berildi.

Qishloq xo'jaligini boshqarishni raqamlashtirish, kelgusi yildan yer balansi va uning hisobini Milliy geoaxborot tizimida yuritish zarurligi qayd etildi. Yil yakuniga qadar qishloq xo'jaligi maydonlarini

elektron tanlov va auksion asosida ajratish tartibini joriy qilish, xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda yer toifalarini optimallashtirish bo'yicha topshiriq berildi.

«Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasining tuproq sifatini baholash, yerlarni rivojlantirish, ekinlarni joylashtirish bilan bog'liq vazifalarini, shuningdek, Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot institutini Qishloq xo'jaligi vazirligiga o'tkazish taklifi bildirildi.

Yig'ilishda shahar va qishloqlarda yerning haqiqiy qiymatini aniqlash hamda uning bozorini shakllantirish masalasiga ham to'xtalib o'tildi.

Sohaning kadrlar salohiyati pastligi, shu yo'nalishda xorijiy oliy o'quv yurti filialini tashkil qilish muhimligi, Italiyaning Piza universiteti hamda Moskva davlat geodeziya va kartografiya universiteti bilan hamkorlik o'rnatish kerakligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**23-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashishda fidoyilik ko'rsatgan yurtdoshlarimizdan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev qishloq va suv xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishga oid belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazdi.

Yig'ilish avvalida mamlakatimizda pandemiyaga qarshi qanday kurash olib borilayotganiga alohida to'xtalib o'tildi.

Yig'ilishda agrar soha rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan «Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalarni o'z ichiga olgan xizmatlar tizimi»ni yurtimizda ham joriy etib, ilm bilan ishlab chiqarishning o'zaro bog'liqligini ta'minlash muhimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda suvdan oqilona foydalanish masalalari haqida ham so'z yuritildi. Suv xo'jaligi vazirligi bu vazifalar ijrosini o'z vaqtida ta'minlashi, xalqaro ekspertlarni jalb qilib, yangicha uslubda ishlashi zarurligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz g'alla yetishtirish yakunlariga to'xtalib, shunday murakkab sharoitda ham dala mehnatkashlari omilkorlik bilan 6 million 400 ming tonnadan ortiq g'alla hosili yetishtirganini ta'kidladi. Buning uchun barcha fermer, dehqon va klasterlarga xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildirdi.

Videoselektorda, shuningdek, g'oz parvarishi bo'yicha agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish hamda takroriy ekinlar ekish masalalariga ham e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**24-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**24-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sud-

lov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qurbon haytini nishonlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev qator xorijiy davlatlar yetakchilari bilan telefon orqali muhoqot qildi.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeenbekov, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an, Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisining Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenko bilan suhbatlar bo'lib o'tdi.

Hamkor mamlakatlar yetakchilari davlatimiz rahbarini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, O'zbekiston Prezidenti va xalqiga mustahkam sog'lik, tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

Suhbatlar chog'ida ikki tomonlama munosabatlar va xalqaro siyosatning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Amaliy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari, zamonaviy tahdid va

xatarlarga qarshi kurashishda yaqin muvofiqlashuvni davom ettirish yuzasidan batafsil fikr almashildi.

\* \* \*

**25-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev tavallud topgan kuni munosabati bilan chin dildan tabriklab, samimiy qutlov va ezgu tilaklarini yo'llagan davlat va hukumat boshliqlariga, xorijiy siyosat va jamoat arboblari, xalqaro tashkilotlar rahbarlariga, ishbilarmon doiralar vakillariga, yurtimizdagi mahallalar va mehnat jamoalariga, turli kasb egalari bo'lgan barcha vatandoshlarimizga chuqur minnatdorlik izhor etdi.

\* \* \*

**27-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda xalqaro tashkilotlar ekspertlarini jalb qilgan holda, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo'yicha strategiya ishlab chiqish topshirig'i berildi.

Davlat rahbari yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda ehtiyot bo'lish, iqtisodiy faollikka zarar yetkazib qo'ymaslik, buning uchun davlat organlari, biznes va jamoatchilik hamjihatlikda ishlashi muhimligini ta'kidladi.

Soliq islohotlarini izchil davom ettirib, yashirin iqtisodiyotga yo'l qo'ymaydigan tizim joriy etish vazifasi qo'yildi. «Insofli soliq to'lovchi» tizimini shakllantirib, shu yil yakuniga qadar Toshkent

shahrida namuna sifatida amalga oshirishga ko'rsatma berildi.

Davlat xaridlari va investitsiya loyihalarida korrupsiyaga chek qo'yish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Moliya vazirligiga bu borada shaffoflikni ta'minlash, jamoat nazorati va raqobatni kuchaytirish maqsadida Davlat xaridlari axborot portalini ishga tushirish topshirildi.

Shuningdek, davlat organlari, korxonalar va hududlarda korrupsiya va yashirin iqtisodiyot reyting metodikasi ishlab chiqilishi belgilandi.

Yig'ilishda bojxona va soliq tizimiga doir masalalar ham ko'rib chiqildi. Inson omiliga chek qo'yish orqali kontrabanda va mahsulotlarning bojxona qiymatini sun'iy pasaytirish holatlari ustidan bojxona nazoratini kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

Davlat bojxona qo'mitasi va Davlat soliq qo'mitasiga import tovarlarining kirib kelishi, bojxonadan o'tkazilishi va sotilishi bo'yicha yagona bazani ishga tushirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Korrupsiya va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda asosiy kuch biznes va jamoatchilikdir. Shu bois jamiyatda bu illatlarga nisbatan nafrat tuyg'usini shakllantirish, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ularning salbiy oqibatlarini yoritib borish muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**27-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida

koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish, bu boradagi ishlarining samaradorligini, aholiga sifatli va o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatish qamrovini oshirish bo'yicha olib borilayotgan sa'y-harakatlar hisobotini tingladi.

Davlatimiz rahbari pandemiya sharoitida sog'liqni saqlash milliy tizimini qo'llab-quvvatlash, jumladan, poytaxtdagi sport majmualari negizida tashkil etilayotgan taqsimlash markazlari va yangi klinikalarni tibbiy xodimlar bilan ta'minlash, koronavirus bilan xastalangan shaxslarni samarali davolashga mamlakatimiz harbiylari, harbiy-tibbiy muassasalarning xizmatchilari va tibbiyot mutaxassislarini jalb qilish muhimligiga alohida e'tibor qaratdi.

Muhokama yakunida mutasaddi tuzilmalar rahbarlariga bu boradagi ishlarni tashkil etish bo'yicha aniq topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**28-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda koronavirus bilan bog'liq murakkab vaziyatni tartibga solish bo'yicha ko'rilayotgan choralar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda hududlarda dolzarb bo'lib turgan masalalar ko'rib chiqilib, qo'shimcha vazifalar belgilandi. Jumladan, respublika maxsus komissiyasiga joylardagi epidemiologik vaziyatni barqarorlashtirish va kasallarni davolashga amaliy yordam beradigan guruhlar tuzib, har bir hududga yuborish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Hokimliklarga koronavirusga ixtisoslashgan shifoxonalar tashkil etish, intensiv va reanimatsiya o'rinlarini ko'paytirish, ularni zarur tibbiy jihozlar va dori-darmon bilan ta'minlash vazifasi qo'yildi.

Davlatimiz rahbari og'ir kasallar ahvolini yengillashtiradigan tibbiy uskunalar ta'minoti masalasiga alohida to'xtaldi.

Yig'ilishda yosh bolalar, homilador ayollar, keksalar, nogironligi va surunkali kasalligi bo'lgan fuqarolar salomatligi ustidan tizimli monitoring olib borish muhimligi belgilandi.

Yig'ilishda eksport va investitsiya masalalari, budjet tushumlari prognozining bajarilishi, g'oz'a parvarishi va ekinlarni sug'orish ishlarining borishi ham ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**30-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga Qurbon hayiti tabrigi e'lon qilindi.

\* \* \*

**30-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Koronavirus pandemiyasi davrida ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-avgust.** Pandemiya keltirgan sinovli kunlarda xalqimiz og'ir judolikka uchradi. Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi Raisi – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining o'rinbosari, O'zbekiston Qahramoni Musa Erniyazov 2020-yil 31-iyul kuni vafot etdi. Marhum Nukus shahridagi «Shorsha baba» qabristoniga dafn etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu yerga tashrif buyurib, Musa Erniyazov qabrini ziyorat qildi. Marhum haqiga Qur'on tilovat qilindi.

Nukus shahrida O'zbekiston Qahramoni Musa Erniyazovning vafoti munosabati bilan ta'ziya marosimi bo'lib o'tdi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, marhumning oila a'zolariga, xalqimizga chuqur hamdardlik bildirdi.

Shavkat Mirziyoyev Musa Erniyazov qariyb 50 yillik faoliyati davomida ulkan rahbarlik qobiliyati, insoniy fazilatlarini bilan hurmat qozongani, Qoraqalpog'istonning iqtisodiy salohiyatini oshirish, shahar va ovullarni obod qilish, aholi turmushini yaxshilash uchun o'zini ayamay mehnat qilganini ta'kidladi.

\* \* \*

**3-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholiga davlat ijtimoiy

xizmatlari va yordam taqdim etish tartib-taomillarini avtomatlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida koronavirus tarqalishini jilovlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlili, pandemiya davrida ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Sog'liqni saqlash vazirligi, hokimlar va sektor rahbarlari koronavirus va pnevmoniyani davolash bo'yicha har tomonlama tayyor bo'lishi, har bir bemorga kerakli tibbiy yordam ko'rsatilishi, ularning holatidan kelib chiqib shifoxonaga yotqizilishi va davolanishi uchun shaxsan javobgar bo'lishi qayd etildi. Shuningdek, hududlarda COVID-19ga chalinganlarni qabul qilish va saralash bo'yicha markazlarni tashkil etgan holda, kichik shifoxonalarni o'z profiliga muvofiq boshqa turdagi va surunkali kasallarni davolashga qaytarish lozimligi aytiladi.

Shu bilan birga, moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar ro'yxatlarini to'g'ri va haqqoniy shakllantirish, ajratilgan mablag'larni adolatli tarqatish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi.

Davlat nozirlik organlariga mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi va to'lanishi yuzasidan doimiy nazorat o'rnatish, qonun buzilish holatlarining oldini olish topshirildi.

Yig'ilishda yordam pullariga muhtoj oilalar ro'yxati mahallalar kesimida adolatli tuzilib, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida tasdiqlanishi lozimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**5-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri va Toshkent viloyatining o'zaro chegaradosh tumanlari hududlarini o'zgartirish bo'yicha tayyorlangan loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Yangihayot tumani tashkil etilishi munosabati bilan Toshkent shahri tumanlari chegarasining o'zgarishi to'g'risida ham taqdimot qilindi. Shuningdek, Yangi hayot tumanida loyihalashtirilayotgan bunyodkorlik ishlari, tumanning ma'muriy markazini tashkil etishga oid takliflar ko'rib chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev takliflarni ma'qullab, Toshkent shahriining Bosh rejasini qayta ko'rib chiqish, shaharga qo'shimcha berilayotgan yer maydonlariga uylar, sanoat korxonalari, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarini oqilona joylashtirish, eng asosiysi, aholiga qulay shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi.

Mutasaddi rahbarlarga yuqoridagi masalalar yuzasidan tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini qisqa muddatda tayyorlab, mahalliy kengashlar va Oliy Majlisga ko'rib chiqish uchun kiritish bo'yicha topshiriq berildi.

\* \* \*

**5-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev energetika, transport,

kommunal xo'jalik va tibbiyot sohalarida davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Transport va logistika tarmog'i haqida gap ketar ekan, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar qoniqarli emasligi qayd etildi.

Kommunal xo'jalik sohasidagi loyihalar ham sinchiklab ko'rib chiqildi. Tarmoqda islohotlar deyarli ko'rinmayotgani, bu borada sustkashlikka yo'l qo'yilayotgani qayd etildi.

Mutasaddilarga har chorakda davlat-xususiy sheriklikdagi barcha loyihalarning ijrosini muhokama qilib, zarur choralarni belgilab borish vazifasi yuklatildi.

Keskin tanqidiy ruhda o'tgan taqdimot yakunida mutasaddilarga muhokama qilingan ishlarni tashkil etish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi.

Davlat-xususiy sheriklik bilan bog'liq masalalar Prezidentimizning shaxsan nazoratida bo'lishi qayd etildi.

\* \* \*

**6-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Jahon banki ishtirokida «Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish» loyihasini amalga oshirishga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi o'tkazdi.

Majlisda Jahon banki tomonidan ajratilgan 500 million dollar kredit mablag'larini o'zlashtirish bo'yicha shakllantirilgan loyihalar muhokama qilindi.

Yig'ilishda suv xo'jaligi, chorvachilik, karantin, kadastr, moliya,

soliq va boshqa tegishli idoralar ma'lumotlar bazasini ushbu tizimga integratsiya qilish muhimligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari har bir ilmiy tadqiqot muassasasi va markaz ilmiy ishlanmalarini sotadigan tijorat tashkilotiga aylanishi zarurligini ta'kidladi.

Prezident ajratilayotgan har bir dollarni uch dollarga aylantirish, imtiyozli kreditlarni qaytarish bo'yicha aniq hisob-kitob asosida ishlash zarurligini ta'kidladi.

Mutasaddilarga qisqa muddatda yerlarni ajratib, kelgusi yil bahorda bog'larni foydalanishga topshirish vazifasi yuklatildi. Zamonaviy agrologistika markazlari va komplekslarini tashkil qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**6-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yilda oliy ta'lim muassasalariga qabulni tashkil qilish va 2020/2021-o'quv yiliga tayyorlik ko'rish masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari kun tartibidagi masalalar yuzasidan qator vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, test imtihonlarini abituriyentlar va nazoratchilar uchun epidemiologik xavfsizlikni ta'minlash imkonini beradigan joyda o'tkazish kerakligi qayd etildi.

Mutasaddi vazirlik va idoralarga stadionlarni test sinovlariga puxta tayyorlash, ularning dislokatsiyasi bo'yicha abituriyentlarni to'liq xabardor qilish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari imtihonlarning sanasini Sog'liqni saqlash vazirligi va Sanitariya-epidemiologiya xizmatining epidemiologik vaziyat borasidagi xulosasidan kelib chiqqan holda belgilash, aholi salomatligi xavfsizligini ta'minlash lozimligini ta'kidladi.

Ta'lim jarayonini sifatli o'quv resurslari bilan boyitish uchun salohiyatli professor-o'qituvchilarni jalb etish muhimligi qayd etildi.

Yig'ilish yakunida davlatimiz rahbari rektorlar bilan muloqotda bo'lib, ular aytgan muammolarni hal etish va takliflarini amalga oshirish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**8-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2020–2021-yillarda Farg'ona viloyatining So'x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston quruvchilariga bayram tabrigi yo'lladi.

\* \* \*

**10-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qonun ijodkorligi hamda parlament nazorati jarayonlari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.



\* \* \*

**10-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sud-tergov faoliyatida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlash va xavfsizligini oshirish, ekologik osoyishtalikni ta‘minlash, chiqindilarni qayta ishlash tizimini takomillash-tirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Tanqidiy ruhda o‘tgan yig‘ilishda sohada muammolar hali ko‘pligi ko‘rsatib o‘tildi.

Yig‘ilishda xalqaro moliya tashkilotlaridan jalb etilgan mablag‘lar natijadorligi ham muhokama qilindi.

Mutasaddilarga bu mablag‘lar evaziga boshlangan loyihalarni jadal-lashtirib, qisqa muddatlarda foydalanishga topshirish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi. Davlatimiz rahbari sohani kamxarj va tejamkor texnikalar bilan ta‘minlash muhimligini ta‘kidladi.

Muhokamada ekologik nazoratni kuchaytirish masalasiga ham alohida e‘tibor qaratildi.

\* \* \*

**10-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Aleksandr Lukashenkoni bo‘lib o‘tgan Prezident saylovidagi ishonch-

li g‘alabasi bilan tabriklab, unga Belarusning barqaror taraqqiyoti va ravnaqini ta‘minlash yo‘lida yangi zafarlar tiladi.

Ikki tomonlama munosabatlar kun tartibidagi hamda mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi an‘anaviy yaqin hamkorlikka doir dolzarb masalalar ko‘rib chiqildi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston bilan Belarus o‘rtasidagi ko‘p qirrali aloqalar, avvalo savdo-iqtisodiy sohada amaliy hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Oliy darajadagi kelishuvlarni o‘z vaqtida amalga oshirish, ikki mamlakat yetakchi korxonalarining kooperatsiyasi bo‘yicha istiqbolli loyihalarni ilgari surish va madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini kengaytirish maqsadida o‘zaro muloqotni, jumladan, Hukumatlararo qo‘shma komissiya doirasida faollashtirishga kelishib olindi.

\* \* \*

**11-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida suv resurslaridan samarali foydalanish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish»

loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yoshlar 2020: global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari» mavzusidagi inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumi ishtirokchilariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**12-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda sanoatni rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chi-

qarishni kengaytirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari yig'ilish avvalida koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq vaziyatga to'xtalib o'tdi. Respublika maxsus komissiyasiga sanitariya talablariga amal qilish zarurligini aniq belgilash vazifasi qo'yildi. Epidemiologik vaziyat yaxshi bo'lgan davlatlardan kelgan shaxslarni karantinga olish va undan chiqarish tartibini yengillashtirish, pnevmoniyadan tuzalgan aholini reabilitatsiya qilish markazlarini tashkil etish bo'yicha topshiriq berildi.

Yig'ilishda eng avvalo, hududlar va tarmoqlar yaqin hamkorlikda ishlashi muhimligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari sanoat korxonalarida ishlab chiqarish marra-larini kafolatli ta'minlash va investitsiya loyihalarini yakunlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz sanoat klasterlarini yo'lga qo'yish masalasiga alohida ahamiyat qaratdi.

Bosh vazir o'rinbosariga ushbu tizimni yo'lga qo'yish, har bir hududda sanoat klasterlarini tashkil etish vazifasi yuklatildi.

Iqtisodiyot tarmoqlarini elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan barqaror ta'minlash, barcha loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Sanoat kooperatsiyasi va mahalliy lashtirish masalalari atroflicha muhokama etildi. Bu boradagi kamchiliklar viloyatlar kesimida tahlil qilinib, ularni hal etish choralari belgilandi.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan barcha tovarlarni ushbu kooperatsiya portaliga joylashtirish, uning maqomi va savdo hajmlarini keskin ko'tarish bo'yicha topshiriq berildi.

\* \* \*

**13-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev turizm salohiyatini kengaytirishga doir loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Taqdimotda sohada amalga oshirilgan ishlar va navbatdagi rejalar haqida axborot berildi.

Davlatimiz rahbari taqdimot davomida Bo'stonliq tumanida yaqin yillarda foydalanishga topshiriladigan loyihalar majmuasi bilan tanishib, ularni takomillashtirish bo'yicha takliflarini berdi.

Tog' yonbag'irlarida, o'rmon va suv fondi yerlarida yengil konstruksiyali ko'chma dam olish maskanlarini tashkil etish loyihasi ham muhokama qilindi.

Taqdimotda keyingi ikki yilda sayyohlik o'rinlari va xizmat turklarini ko'paytirish natijasida hududning turizm salohiyatini 2 barobar ortishini ta'minlash vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**17-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Odam savdosiga qarshi

kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**17-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xorazm viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarga munosib shart-sharoitlar yaratish va ular bilan tizimli ishlash yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilish avvalida koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq vaziyatga to'xtalib o'tildi.

Yig'ilishda xorijda mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizni ijtimoiy, huquqiy, moddiy va madaniy qo'llab-quvvatlash masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda hokimliklarga chet eldan qaytgan fuqarolarga kasbi, malakasi va rejasidan kelib chiqib, ish topishiga ko'maklashish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz elchixonalari o'zga davlatlardagi vatandoshlarimiz diasporalari bilan aloqalarni mustahkamlashi lozimligini alohida ta'kidladi. Yurtparvarlik, mehr-oqibat hissi

bilan xorijdagi fuqarolarimizga yordam berib kelayotgan shaxslarni e'tirof etish, davlat mukofotlari bilan taqdirlash bo'yicha takliflar bildirildi.

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligiga hokimliklar bilan birga xorijga ishlashga ketgan yurtdoshlarning oilasidan doimiy xabar olib, ota-onasining sog'lig'i, farzandlarining o'qishi va boshqa ehtiyojlariga ko'maklashish vazifasi qo'yildi.

Xorijda ishlab, malaka orttirib qaytgan fuqarolarning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash zarurligi ta'kidlandi. Shu maqsadda ular bilan manzilli ishlaydigan, moliyaviy qo'llab-quvvatlaydigan tizim yaratilishi belgilandi.

Mutasaddilarga o'zini o'zi band qilgan shaxslarni ro'yxatga olish va mehnat stajini hisoblash tizimini migrantlar uchun ham tatbiq etish bo'yicha ko'rsatma berildi.

\* \* \*

**20-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mutlaqo yangi tizim, tartib va yondashuvlar asosida iqtisodiy faollikni oshirish hamda har bir tuman va shaharga qo'shimcha zaxira yaratish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilish avvalida pandemiyani jilovlash doirasida olib borilayotgan ishlar muhokama qilindi. Yaqinlashib kelayotgan Mustaqillik bayramini nishonlash yuzasidan ko'rsatmalar berildi. Jumladan, korxonalar va tashkilotlarda ham bayram tadbirlari rejalashtirilgan taqdirda, ularni sani-

tariya normalariga qat'iy rioya etgan holda o'tkazish maqsadga muvofiqligi ko'rsatib o'tildi.

Yig'ilishda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha shahar va tumanlardagi qo'shimcha imkoniyatlar tahlil qilinib, ularni ishga solish choralari belgilandi.

Xomashyo olib kelish yoki eksportda qiynalayotgan korxonalarining transport-logistika masalalarini hal etish bo'yicha topshiriq berildi.

Qo'shimcha zaxiralarning sarflinishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish va bu borada mahalliy kengashlar faoliyatini yanada kuchaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda ishsiz yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalasiga alohida ahamiyat qaratildi. Bosh vazir o'rinbosariga ularni talab yuqori bo'lgan kasblar va tadbirkorlikka o'qitish, shu asosda biznesini yo'lga qo'yishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash tartibini joriy etish vazifasi yuklatildi.

\* \* \*

**21-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrining Bektemir tumanida bajarilayotgan ishlar, sanoat korxonalari faoliyati bilan tanishdi.

Prezident dastlab «Bektemir metall konstruksiyalari» mas'uliyati cheklangan jamiyati metallga qayta ishlov berish zavodiga bordi. Prezidentimiz ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirib, mutasaddilarga qo'shimcha ko'rsatmalar berdi.

Shundan so'ng Prezident tumanidagi «Binokor» mas'uliyati chek-

langan jamiyatining ishlab chiqarish maydoniga tashrif buyurdi.

Shu yerda 2020–2022-yillarda Toshkent shahri hamda Bektemir tumanida amalga oshiriladigan eksport va investitsiya loyihalari bo'yicha ma'lumot berildi.

Shundan so'ng, Shavkat Mirziyoyev tumandagi «Prof-Milk» qo'shma korxonasi faoliyati bilan tanishib, ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi. Korxonani barqaror xomashyo bilan ta'minlash, mahsulotlar turini ko'paytirib, yangi bozorlarni o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shu yerda «BARTEC TRADE» kompaniyasi tomonidan import o'rnini bosuvchi ehtiyot qismlar ishlab chiqarish loyihasi to'g'risida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari Bektemir tumandagi «Metal Processing» mas'uliyati cheklangan jamiyatda tayyorlanayotgan mahsulotlarni ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, Bektemir tumanidagi «Cooperation LAB» tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish markaziga tashrif buyurdi va markazning kooperatsiya aloqalariga oid taqdimotlar bilan tanishdi. Malakali konstruktor va olimlarni jalb qilib, yangi texnikalarni o'zlashtirish va buyurtma asosida yetkazib berish muhimligi ta'kidlandi.

Shavkat Mirziyoyev «Cooperation LAB» markazining o'zida hududlarda sanoat kooperatsiyasi va mahalliyashtirishni kengaytirish masalasi bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda shu kabi imkoniyatlarni ishga solib, lokalizatsiya va kooperatsiyani rivojlantirish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Elektr texnikasi, avtomobil sanoati va qishloq xo'jaligi o'rtasida kooperatsiya aloqalarini chuqurlashtirish masalalari tahlil qilinib, tegishli vazifalar belgilandi.

Prezident Bektemir tumani faollari bilan uchrashdi.

Unda tumanda yangi «o'sish nuqtalari»ni topish va aholi hayotini yaxshilash borasidagi rejalar aytib o'tildi.

Yoshlar va xotin-qizlar bandligini oshirish, kambag'allikni kamaytirish, uy-joyga muhtoj oilalarga uy ajratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Xizmat ko'rsatish sohasini keskin rivojlantirish, yangi ijtimoiy obyektlar barpo etish, kommunal tarmoqlarni qurish va ta'mirlash, uy-joy fondini kuz-qish mavsumiga tayyorlash masalalariga to'xtalib o'tildi.

Davlatimiz rahbari mahalla raislari, yoshlar yetakchilari bilan muloqot qildi. Uchrashuvdan so'ng mamlakatimizda ishlab chiqarilishi loyihalashtirilgan maxsus avtomobillarni ko'zdan kechirdi.

\* \* \*

**21-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-avgust.** Buxoro viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi, davlat

va jamoat arbobi Karim Jamolovich Kamolov koronavirus kasalligi tufayli 65 yoshida vafot etdi. Marhum Buxoro shahridagi «Hazrati Imom» qabristoniga dafn etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23-avgust kuni bu yerga tashrif buyurib, Karim Kamolov qabrini ziyorat qildi. Marhum haqiga Qur'on tilovat qilindi.

O'zining 47 yillik faoliyati davomida Karim Kamolov chinakam rahbarlik qobiliyati, insoniy fazilatlarini bilan ulkan hurmat qozongani, Buxoroning har tomonlama rivojlanishi va obod bo'lishiga katta hissa qo'shgan ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Buxoro shahrida Karim Kamolov xonadoniga kelib, uning rafiqasi va farzandlariga hamdardlik bildirdi, judolikni yengishda sabr-toqat tiladi. Davlatimiz rahbari marhumning elyurt farovonligi yo'lidagi xizmatlarini e'tirof etdi.

Shundan so'ng Bahouddin Naqshband maqbarasi ziyorat etilib, Qur'on tilovat qilindi.

\* \* \*

Prezident Shavkat Mirziyoyev Buxoro xalqaro aeroporti binosida mutasaddi rahbarlar ishtirokida yig'ilish o'tkazdi.

Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, jumladan, aholini ish bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, pandemiya sababli zarar ko'rgan iqtisodiyot tarmoqlarini tiklash masalalari batafsil ko'rib chiqildi.

«Temir daftar», «yoshlar daftari» va «ayollar daftari» tizimlarida

bajarilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Yig'ilishda investitsion loyihalar va eksport masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**24-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Torkunov Anatoliy Vasilyevichni O'zbekiston Respublikasining «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**25-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligi munosabati bilan chet el fuqarolari va xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizni mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mehr-saxovat» ko'krak

nishoni bilan mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev geologiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

Sohadagi ishlar natijadorligini oshirish, qonunchilik bazasini mustahkamlash hamda investitsiya salohiyatini yanada kengaytirish bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Geologiya qo'mitasiga sanoat kooperatsiyasi asosida yangi konlarni qidirish, topilgan resurslarni o'zlashtirish uchun xususiy sektorga berish amaliyotini yanada keng qo'llash bo'yicha topshiriq berildi.

Namangan tajribasi asosida har bir hududda geologik, ayniqsa, gidrogeologik qidiruvlar bo'yicha doimiy ekspeditsiyalar tashkil etish zarurligi aytiladi.

Foydalanishga berilgan yer qa'ri uchastkalarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish yuzasidan ko'rsatmalar berildi. Mutasaddilarga

belgilangan chora-tadbirlar bo'yicha «yo'l xaritasi» ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligi munosabati bilan fan, ta'lim, adabiyot, madaniyat, san'at va ommaviy axborot vositalari sohalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligi munosabati bilan koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashishda fidoyilik ko'rsatgan tibbiyot sohasi xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bo'stonliq tumanida boshqaruvning alohida tartibini joriy etish orqali turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev umumiy o'rta ta'lim

muassasalarida o'quv yiliga tayyorgarlik masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi avvalida koronavirus bilan bog'liq vaziyatga to'xtaldi.

Prezident haqiqiy holat bo'yicha raqamlarni yashirishga mutlaqo yo'l qo'ymaslik to'g'risida barcha rahbarlarni ogohlantirdi. Bunga urinish jinoiy javobgarlikkacha bo'lgan qat'iy choralarga olib kelishi mumkinligi ta'kidlandi.

Hokimlar, sektor rahbarlari hamda mutasaddi idoralar xodimlari har bir mahallada, jamoat joylari, transport va korxonalarda sanitariya talablari bajarilishi bo'yicha temir intizomni ta'minlashi zarurligi aytib o'tildi.

Koronavirusga chalingan bemorlarni dunyodagi eng ilg'or va ishonchli usullar bilan davolash uchun barcha choralar ko'rilayotgani, jumladan, hozirgi paytda Rossiya, Germaniya, Turkiya, Xitoydan yuqori malakali shifokorlar yurtimizda ish olib borayotgani ta'kidlandi.

Yig'ilishda ko'makka muhtoj oilalarga moddiy yordam berish masalasi ham ko'rib chiqildi.

Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, hokimlar hamda sektor rahbarlariga yordam pullarini muhtoj oilalarga adolatli, ochiq va to'g'ri yetkazib berish, hech kimni e'tiborsiz qoldirmaslik yuzasidan topshiriqlar berildi. Aholi bilan uchrashib, ushbu mablag'lar haqiqatda yordamga muhtoj bolalarning barkamol rivojlanishi va sog'lig'i uchun sarflanishi zarurligini tushuntirish vazifasi qo'yildi.

Shundan so'ng yig'ilishida pandemiya sharoitida ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha dolzarb choratadbirlar muhokama qilindi.

Xalq ta'limi vazirligiga otonalar hamda mahalliy kengashlar takliflaridan kelib chiqib, yangi o'quv yilini 14-sentabrdan boshlash, maktablarda harakatlar sxemasini ishlab chiqib, tajribadan o'tkazish bo'yicha topshiriq berildi.

Videodarslarni sifatli tayyorlash, bu jarayonga davlat va nodavlat telekanallarini faol jalb etish, uchta telekanalda doimiy efirga uzatib borish zarurligi qayd etildi.

Ta'lim muassasalaridagi tozalik va ozodalikni saqlash, sinfxonalar va atrofni dezinfeksiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Davlat rahbari jamiyatda o'qituvchi va ustozlarning obro'yini ko'tarishga e'tibor talab darajasida emasligini ta'kidladi.

O'qituvchi va shifokorlarning fidoyi mehnati, yuksak xulq-atvori namunasini namoyon etish maqsadida to'liq metrajli film va seriallar, ularning faoliyati haqida ko'rsatuvlar tashkil etish bo'yicha ko'rsatma berildi.

\* \* \*

**28-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**28-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'q-



qiz yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligi munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, mehnat faxriylari hamrohligida Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Birinchi manzil Toshkent metropolitenining Yunusobod yo'nalishi bo'ldi. Davlatimiz rahbari «Bodomzor» bekatidan yangi «Turkiston» bekatigacha poyezdda borib, amalga oshirilgan ishlarni ko'zdan kechirdi.

Shundan so'ng, Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrining Ahmad Donish ko'chasida amalga oshirilgan qurilish va obodonlashtirish ishlarini ko'rdi. Davlatimiz rahbari bu yerda mutasaddilarga yo'lsozlik sifati va ko'lamini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shu yerda Yunusobod tumani aholisi vakillari bilan samimiy mu loqot bo'lib o'tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev, Toshkentning Farg'ona yo'li ko'cha-

sida amalga oshirilayotgan ta'mirlash va obodonlashtirish ishlarini ham borib ko'rdi.

Toshkent yerusti halqa metro liniyasining birinchi bosqichi – «Do'stlik-2 – Qo'yliq» yo'nalishi qurib bitkazildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev bu yerga tashrif buyurib, jamoatchilik bilan birga poyezdda yurdi.

«Qo'yliq» bekatida keyingi bosqichlar qurilishi bo'yicha taqdimot o'tkazildi. Prezidentimiz aholiga qulaylik yaratish maqsadida yangi zamonaviy transport liniyasining qolgan bosqichlarini o'z muddatida foydalanishga topshirish, qurilish sifatiga e'tibor berish bo'yicha mutasaddilarga zarur topshiriqlar berdi.

Prezident Yashnobod tumanidagi Farg'ona yo'li ko'chasida, Qorasuv kanali bo'yida qurilayotgan «Assalom, sohill!» turar joy majmuasi bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari bunday uylar qurilishini zamonaviy texnologiyalar asosida, rivojlangan davlatlardagi kabi andazalarda davom ettirish kerakligini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev xorij tajribasi asosida qurilgan yengil konstruksiyali kottejlarni ham ko'zdan kechirdi. Bu uylar arzonligi, o'n kunda bitkazilishi bilan ajralib turadi, buyurtma asosida bir necha xil shaklda qurib beriladi. Bunday kottejlar, ayniqsa, tog'li va cho'l hududlari uchun juda mos keladi.

Mustaqillik bayrami arafasida yangi inshootlar, yirik ishlab chiqarish quvvatlari foydalanishga top-

shirilishi ezgu an'anaga aylangan. Yashnobod tumanidagi ko'p tarmoqli «Texnopark» ishlab chiqarish majmuasida «Samsung» brendi ostida maishiy sovutgichlar ishlab chiqarish korxonasining ochilishi ham qutlug' bayramimizga munosib to'yona bo'ldi.

Davlatimiz rahbariga boshqa loyihalar haqida ma'lumot berildi. Davlatimiz rahbari loyihalarni belgilangan muddatlarda, sifatli ishga tushirish bo'yicha topshiriqlar berdi. Jamoatchilik faollari bilan muloqotda sanoatni mahalliy lashtirish masalalari haqida gapirdi.

\* \* \*

**29-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**31-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Shahidlar xotirasi xiyoboniga tashrif buyurdi.

Majmuadagi ramziy qabr yonida qatag'on qurbonlari ruhlariga bag'ishlab Qur'on tilovat qilindi. Shu yerda nuroniylar, ulamo va ziyolilar bilan muloqot bo'ldi.

Davlatimiz rahbari qatag'onga uchragan yurtdoshlarimizning har biri bo'yicha izlanish, joylarga chiqib, qarindoshlari bilan uchrashib, nomlarini tiklash, qilgan ishlari haqida kitoblar chop etish, o'zlari yashagan mahallalar va maktablarga nomlarini qo'yib, xotirasini abadiylashtirish zarurligini ta'kidladi.

Marosimda koronavirus kasalligidan vafot etgan insonlar xotirasiga bag'ishlab ham Qur'on tilovat qilindi. Bemorlarning tezroq sog'ayishini Allohdan so'rab, duo o'qildi.

Shu kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Mustaqillik maydoniga tashrif buyurib, Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gulchambar qo'ydi.

\* \* \*

**31-avgust.** Ko'ksaroy qarorgohida O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Unda senatorlar, deputatlar, davlat va jamoat tashkilotlari mas'ullari, ilmfan, madaniyat sohasi fidoyilari, nuroniylar va yoshlar ishtirok etdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bayram nutqini so'zladi.

Davlatimiz rahbarining O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**2-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov haykali poyiga gulchambar qo'yib, uning yorqin xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasida Qur'on tilovat qilindi.

Islom Karimovning Samarqand va Qarshi shaharlaridagi haykallari poyiga ham gullar qo'yildi.

\* \* \*

**2-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-

kasida pillachilik va qorako'pchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o'rmon xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha islohotlar natijadorligi tahliliga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda bu borada hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko'pligi ta'kidlanib, kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilandi. Sohada xususiy sektorni jalb qilgan holda o'rmon yerlarini o'zlashtirish, yilqichilik, chorvachilik, urug'chilik, ko'chatchilik, turizmni keng yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi.

O'rmon fondi yerlarini o'zlashtirishga ham subsidiya va imtiyozlar joriy etish, xususan, sug'orish nasoslari xarid qilish, quduqlar qazish ishlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash muhimligi ta'kidlandi.

Xususiy sektorni jalb qilgan holda o'rmon fondi yerlarida asalarichilik, chorvachilik va parrandachilik loyihalarini amalga oshirish, bandlikni ta'minlab, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash chora-tadbirlari belgilandi.

Yig'ilishda o'rmon xo'jaligi bo'yicha ilm-fanni rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratildi.

Sohada kadrlar salohiyatini oshirish, o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha ham ko'rsatmalar berildi.

Qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida bo'lgani kabi o'rmon xo'jaligini rivojlantirish uchun ham xalqaro tashkilotlar mablag'larini jalb qilib, yirik investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**7-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev xorijiy davlatlar va hukumatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar rahbarlari, taniqli siyosat va jamoat arboblari mamlakatimiz mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan qutlovlar yo'llagani uchun ko'p millatli xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildirdi.

\* \* \*

**9-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «G'alaba bog'i» yodgorlik majmuasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laonli ta'minlashga doir

chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalq deputatlari Kengashlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida elektr energiyasi va tabiiy gazni hisobga olish hamda nazorat qilish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda elektr energiyasi hamda tabiiy gazni hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini to'liq joriy etish masalalari muhokama qilindi.

Energetika vazirligiga har bir tuman, shahar kesimida hisoblagichlarni yetkazib berish, o'rnatish va tizimga ulash ishlarini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish topshirig'i berildi.

Viloyat, tuman va shahar hokimlariga hududlarda ishchi guruhlar tuzib, mahalla raislari bilan birgalikda aholiga hisoblagichlar o'rnatishni tashkil etish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tezkorlik bilan hal etish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**15-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining o'rinbosari Aleksey Overchukni qabul qildi.

Uchrashuvda koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashishda yaqin va samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgani alohida ta'kidlandi.

Rossiya Hukumati Raisining o'rinbosari Aleksey Overchuk uchrashuv o'tkazish imkoniyati uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi hamda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin va Hukumati Raisi Mixail Mishustinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston – Rossiya strategik sheriklik munosabatlari kun tartibini yangi mazmun bilan boyitish maqsadida hamkorlikdagi ustuvor dastur va loyihalarni jadallashtirish muhimligi ta'kidlandi. Shuningdek, mamlakatimizning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorligi va MDH doirasidagi yaqin muloqotlarni davom ettirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**15-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi ishtirokida «Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya va modernizatsiya qilish» loyihasini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida suv xo'jaligida tejamkor texnologiyalarni jo-

riy etish va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Videoselektorda suv xo'jaligidagi ishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va tumanlar kesimida tanqidiy tahlil qilinib, galdagi muhim vazifalar muhokama etildi.

Sug'orish me'yorlarini hisoblash metodikasini BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) talablariga moslashtirish, suv hisoblagichlar o'rnatgan iste'molchilarni rag'batlantirish yuzasidan vazifalar belgilandi.

«O'zbekbaliqsanoat» uyushmasiga kollektor suvlarida baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha topshiriq berildi.

Namangan tajribasi asosida gidrogeologik qidiruvlarni kengaytirib, yerosti suvlaridan samarali foydalanish zarurligi qayd etildi.

Yig'ilishda suv xo'jaligi sohasida fan va ta'limni rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat qaratildi. Irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini barpo etish hamda rekonstruksiya qilish ishlariga ilmiy xodimlarni birlashtirish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**18-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimini takomillashtirish, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarini jadalashtirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilish avvalida davlatimiz rahbari koronavirus bilan bog'liq vaziyatga to'xtalib o'tdi.

Yig'ilishda Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligiga kelgusi yil uchun mo'ljallangan 28 ta yangi loyihani mahalliy kengashlar bilan kelishish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, joriy yilda yakuniga yetkaziladigan 360 ta loyihani qabul qilib olish bo'yicha topshiriq berildi.

Yig'ilishda mamlakat bo'ylab 27 ta tumanda ichimlik suvi bilan ta'minlash ishlari tanqid qilindi.

Videoselektor yig'ilishida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha obyektlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash masalasi ham muhokama qilindi.

Vazirlar Mahkamasiga tuman va shaharlardagi haqiqiy holatdan kelib chiqib, kuz-qishga tayyorgarlik yuzasidan Toshkent shahrining 12 ta tumani, Qoraqalpog'iston va har bir viloyat bo'yicha alohida-alohida qaror qabul qilish topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Toshkent shahri tumanlariga, Bosh vazirning birinchi o'rinbosari viloyatlarga shu masalalar bo'yicha mas'ul etib birlashtirildi.

\* \* \*

**21-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev o'simliklar karantini sohasidagi islohotlar natijadorligi tahliliga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari sohada amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha taqdimot bilan tanishib, navbatdagi vazifalarni ko'rsatib o'tdi.

Yangi eksport bozorlari topib, mahsulotlarni hozirgi narxidan 3-4 baravar qimmatroq sotish imko-

niyati borligi aytili. Tovarlarini xalqaro fitosanitariya talabi asosida tayyorlash uchun mahsulot yetishtiruvchi, qadoqlovchi va eksport qiluvchi har bir korxonaga karantin inspektorlarini biriktirish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Litva, Latviya, Ukraina, Ozarbayjon, Misr, Qatar, Mongoliya, Afg'oniston va boshqa davlatlar bilan muzokara o'tkazib, gilos, anor, uzum, qovun kabi meva-sabzavotlar eksporti uchun tadbirkorlarga yo'l ochib berish vazifasi belgilandi. «Daladan eksportgacha» tamoyili bo'yicha to'liq ishlashni ta'minlash zarurligi qayd etildi.

Sohaning ilmiy salohiyatini oshirish, xalqaro sertifikatlash tizimini tatbiq etish bo'yicha yirik ilmiy markaz tashkil etish taklifi ilgari surildi. Fan bilan amaliyot uyg'unligini ta'minlash, eksportchi korxonalar mutaxassislariga xalqaro fitosanitar talablarni tushuntirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**21-sentabr.** O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining agrar va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari O'ktam Barnoyev 20-sentabr kuni og'ir xastalik tufayli vafot etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'zilyali xonadonga tashrif buyurdi. Qur'on tilovat qilindi.

O'ktam Barnoyevning deyarli butun faoliyati qishloq va suv xo'jaligi bilan bog'liq bo'ldi. U ushbu sohadagi islohotlarini amalga oshirishda asosiy ijrochilardan biri edi. Bu yo'lda barcha bilim, tajriba

va kuchini safarbar qildi. Agrar tarmoqni diversifikatsiya qilish, bazor mexanizmlari va kooperatsiya tizimini joriy etish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, hosildorlikni oshirib, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi.

Davlatimiz rahbari marhumning onasi, rafiqasi va farzandlariga hamdardlik bildirib, sabr-toqat tiladi va marhumning oilasi, farzandlari doimiy e'tiborda bo'lishini ta'kidladi.

\* \* \*

**22-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida tarmoq va hududlarda raqamli iqtisodiyot hamda elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Videoselektor yig'ilishida bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, joriy yil yakuni va 2021-yil birinchi choragiga mo'ljallangan loyihalar muhokama etildi.

Joriy yil yakuni bo'yicha har bir tarmoq va hudud rahbari raqamli iqtisodiyot sohasida keskin o'zgarish qilishi zarurligi qayd etildi.

Prezident bu yangilanishlarni odamlar o'z hayotida, byurokratiya va korrupsiya kamaygani misolida, davlat xizmatlarini ko'rsatish tezlashganida sezishi lozimligini ta'kidladi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga joriy yilda belgilangan 14 tumanda ijtimoiy muassasalarni to'liq raqamlashtirib, qolgan hududlar uchun namuna qilish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Yig'ilishda sanoat tarmoqlarida amalga oshiriladigan loyihalarga alohida e'tibor qaratildi.

Prezident barcha loyihalarga mas'ullarni belgilab, ularni muddatida, sifatli bajarish, xalqaro moliya tashkilotlari mablag'larini yo'naltirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**22-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida identifikatsiya ID-kartalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**23-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev videoanjuman shaklida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi ishida ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasi tarixida ilk marotaba o'zbek tilida nutq so'zlab, xalqaro hamjamiyat e'tiboriga mintaqaviy va global ahamiyatga ega dolzarb masalalar yuzasidan o'z nuqtayi nazarini hamda O'zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini taqdim etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu videoanjumandagi ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**24-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tabiiy gaz nazorati va

hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish» loyihasini amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Videoselektor yig'ilishida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimi tahlillari asosida joylardagi muammolarni hal etish, ko'rsatkichlari nisbatan past bo'lgan hududlarga ko'maklashish choralari muhokama qilindi.

Yig'ilishda yangi korxonalar tashkil etish, borlarini qo'llab-quvvatlash masalalari ko'rib chiqildi.

«Temir daftar»ga kiritilgan oilalarning tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish, banklar tomonidan mablag' berilgan, lekin xomashyo, energiya resursi yoki logistika kabi sabablarga ko'ra to'xtab qolgan loyihalarni ishga tushirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Tijorat banklari tadbirkorlarning biznesdagi natijalariga qarab ularga «imtiyozli xizmatlar paketi»ni taklif qilishi muhimligi aytili.

Davlat soliq qo'mitasiga barcha viloyatlarda ishni shunday tashkil etib, mahalliy budjetlarni mustahkamlash yuzasidan ko'rsatma berildi.

Yig'ilishda bu yil kutilayotgan budjet taqchilligini imkon qadar qisqartirish uchun qo'shimcha tu-

shumlarni ta'minlash chora-tadbirlari muhokama qilindi. Hududlarning soliq salohiyatini tahlil qilib, qo'shimcha daromadlarni aniqlash, budjet tashkilotlarining pullik xizmatlardan daromadlarini ko'paytirish va bino-inshootlaridan samarali foydalanish muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**25-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyevning amaliy uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuv Qozog'iston tomonining taklifiga binoan Turkiston viloyatining O'zbekiston bilan chegaradosh hududidagi Sariag'ash shahrida o'tkazildi.

Ikki mamlakat yetakchilari O'zbekiston – Qozog'iston strategik sheriklik munosabatlarining bugungi holati va istiqbollarini muhokama qilib, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Ikki tomonlama savdo hajmini oshirish va tovar ayirboshlashning o'zaro kelishilgan ko'rsatkichlariga erishish uchun qulay sharoitlar shakllantirishni davom ettirish, qabul qilingan qo'shma «Yo'l xaritasi» doirasida sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi va transport sohalarida kooperatsiya bo'yicha ustuvor loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashish, hududlararo aloqalar va gumanitar almashinuvlarni qo'llab-quvvatlash muhimligi qayd etildi.

Shuningdek, mintaqaviy sheriklikni, jumladan, 2019-yil noyabr oyida Toshkent shahrida o'tka-

zilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining ikkinchi Maslahat uchrashuvi yakunida erishilgan keli-shuvlar asosida ilgari surish masalalariga to'xtalib o'tildi.

Bundan tashqari, MDH doirasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqildi.

Suhbat chog'ida Shavkat Mirziyoyev va Nursulton Nazarboyev qardosh O'zbekiston va Qozog'iston xalqlari o'rtasida yaxshi qo'shni-chilik rishtalari va har tomonlama aloqalarni mustahkamlashda doimo qat'iy ekanliklarini yana bir bor ta'kidladilar.

\* \* \*

**28-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Lazgi» xalqaro raqs festivalini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlash va metrologiya tizimidagi islohotlar natijadorligi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda shu paytgacha bajarilgan ishlar natijadorligi tahlil qilinib, galdagi muhim masalalar ko'rib chiqildi.

Prezident «O'zstandart» agentligining xalqaro standartlash va metrologiya tashkilotlaridagi ishtirokini faollashtirish muhimligini ta'kid-ladi.

Sohaga doir ilm-fan va ta'limni rivojlantirish masalalariga ham e'tibor qaratildi. Kelgusi yildan Toshkent davlat texnika universiteti



bilan energiya samaradorligi, Kimyo-texnologiya instituti bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlari genetikasi, To'qimachilik instituti bilan sintetik tolalar, Ilg'or texnologiyalar markazi bilan hamkorlikda biologik faol qo'shimchalar yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borish muhimligi aytiladi.

Shuningdek, O'zbekiston milliy metrologiya institutida qurilish materiallari, suv tejoychi hamda axborot texnologiyalari bo'yicha kafedralar tashkil etilishi belgilandi. Innovatsion rivojlanish vazirligi ilmiy ishlanmalarga grantlar ajratadi.

\* \* \*

**28-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Byurokratik to'siqlar yanada qisqartirilishi hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillari joriy qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**29-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlardan va o'rmon fondi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**29-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-sentabr.** Toshkentdagi Xalqaro kongress markazida 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, ustozlarni ushbu ayyom bilan qutladi.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilanganini qayd etdi.

Prezidentimiz har bir rahbar o'z hududidagi, ayniqsa, qishloqlardagi maktablar holatidan doimiy xabardor bo'lishi, u yerdagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etishi lozimligini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu anjumandagi ma'ruzasi «O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir» sarlavhasi bilan matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**30-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ma'rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta’lim-tarbiya tizimida alohida o‘rnak ko‘rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Soliq maslahati sohasini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengесining navbatdan tashqari sessiyasida ishtirok etish, hududdagi bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish maqsadida Nukus shahriga tashrif buyurdi.

Nukus shahrida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengесining navbatdan tashqari sakkizinchi sessiyasi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida koronavirus pandemiyasi butun dunyoda bo‘lgani kabi yurtimizga ham yo‘qotishlar olib kelgani, lekin hayot davom etishi, shu sharoitga munosib bo‘lib, to‘g‘ri yo‘l topish zarurligini ta’kidladi.

Sessiyada hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Yig‘ilishda kelgusi 3 yilga mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlar belgilandi.

Davlatimiz rahbari Nukus shahrida barpo etilgan opera va baxshichilik maktab-internati bilan tanishdi. Maktab-internatning 150 o‘rinli zamonaviy konsert zali va sinfxonalarini ko‘zdan kechirdi.

Prezidentimiz Nukus shahridagi «Qoraqalpoq baliq sanoat» mas‘uliyati cheklangan jamiyat faoliyati bilan ham tanishdi.

Shu yerda qishloq xo‘jaligi tarmoqlaridagi loyihalar taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Davlatimiz rahbari chorvachilikda oilaviy kooperatsiyalarni yo‘lga qo‘yib, parrandani ko‘paytirib, go‘sht narxini arzonlashtirish choralari ko‘rish muhimligini ta’kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Nukus shahrida ko‘p qavatli turar joylar va IT-park qurilishini ko‘zdan kechirdi.

Prezident yangi uyning shourumida bo‘lib, ularda yaratiladigan sharoitlar bilan tanishdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev qurilish jarayonini ko‘zdan kechirar ekan, Toshkent shahridagi har qanday istiqbolli yangiliklar Nukus shahrida bo‘lishi kerakligini, har bir tumanlardagi ko‘chalarni zamonaviy shaklga keltirish va odamlarga qulaylik yaratish lozimligini ta’kidladi.

\* \* \*

**5-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**5-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Prezidentlar ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnihilik rishtalari, tarix, madaniyat va an'analar musharakligiga asoslangan strategik sheriklik munosabatlarining bugungi darajasini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Koronavirus tarqalishi bilan bog'liq murakkab davrda pandemiya oqibatlarini yengib o'tishda o'zaro yordam ko'rsatilmoqda. Tojikiston tomoni ushbu xavfli kasallikka qarshi kurashda ko'rsatilgan amaliy yordam uchun minnatdorlik bildirdi.

Davlat rahbarlari bo'lib o'tgan qator ikki tomonlama tadbirlarning samarali natijalarini yuqori baholadilar. Xususan, Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi majlisi hamda biznes-forum, ilmiy-amaliy konferensiya, parlament a'zolari va ziyolilar uchrashuvlari muvaffaqiyatli o'tkazildi, qo'shma ishlab chiqarish quvvatlari va ijtimoiy obyektlar ochildi.

O'zbekiston va Tojikiston Prezidentlari ikki mamlakat hukumatlariga keng ko'lamlil hamkorlikni kengaytirish hamda bo'lajak sammitning yangi kun tartibini har tomonlama puxta tayyorlash bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni ishlab chiqishga topshiriq berdilar.

Xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**5-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev milliy pochta tizimini isloh qilish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari pochta tizimini rivojlantirish uchun uni daromad keltiradigan sohaga aylantirish zarurligini ta'kidladi. Xususiyl operatorlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, qo'shimcha xizmatlarni taqdim etish orqali pochta bo'limlari daromadini oshirish mumkinligi aytili.

Shuningdek, yil yakunigacha milliy onlayn savdo maydonchasini joriy etish bo'yicha topshiriq berildi. Bu tizim orqali tadbirkorlar ishlab chiqargan mahsulotini respublika bo'yicha savdoga chiqaradi, milliy operator ularni manziliga yetkazib beradi. Bunda «O'zbekiston pochta» xaridor va sotuvchi o'rtasida kafil bo'ladi. Shu maqsadda kelgusi yili Toshkent shahrida logistika markazini tashkil etish zarurligi qayd etildi.

Mutasaddilarga bosma nashrlarni qo'llab-quvvatlash uchun matbuot tarqatish tizimini rivojlantirish, davriy nashrlarga onlayn obuna xizmatini yo'lga qo'yish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**6-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In bilan telefon orqali muloqot qildi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya yetakchilari mamlakatlarimiz o'rtasidagi alohida strategik sheriklik maqomidagi ikki tomonlama

munosabatlarning holati va ularni yanada rivojlantirish istiqbollarini batafsil ko'rib chiqdilar, shuningdek, xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashdilar.

O'zbekiston Prezidenti pandemiya-ga qarshi samarali kurashni tashkil etish, ushbu kasallikni profilaktika qilish va davolash bo'yicha ilg'or tajribani joriy etishga Koreya Respublikasi tomonidan ko'rsatilgan amaliy ko'mak uchun hamkasbiga minnatdorlik bildirdi.

Suhbat chog'ida bo'lajak oliy darajali uchrashuvlarning kun tartibini tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, Prezidentlar savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik, o'zaro tovar ayirboshlashni kengaytirish va kooperatsiyani kuchaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish, jumladan, zarur huquqiy bazani mustahkamlash va ishbilarmonlik tashabbuslarini ilgari surishga ko'maklashish masalalarini ko'rib chiqdilar.

Muloqot so'ngida Prezidentlar ikki xalq o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik rishtalariga asoslangan serqirra munosabatlarni yanada mustahkamlash hamda keng ko'lamli amaliy hamkorlikni ilgari surish borasida qat'iy ekanliklarini yana bir bor tasdiqladilar.

\* \* \*

**7-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Muloqot chog'ida O'zbekiston – Rossiya strategik sheriklik va itifofchilik munosabatlarini yanada

mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi, xalqaro va mintaqaviy kun tartibi yuzasidan fikr almashildi.

Pandemiya oqibatlariga qaramay, o'zaro tashriflar amalga oshirila yotgani, O'zbekiston bilan Rossiya-ni yetakchi kompaniya va korxonalarini o'rtasidagi investitsiyaviy hamkorlik ko'lami va tovar ayirboshlash hajmi kengayib bora-yotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Ta'lim va madaniy almashinuvga doir muhim dasturlar amalga oshirilmoqda.

Davlat rahbarlari ikki mamlakat vazirlik va idoralari darajasida, shu jumladan, joriy oyda bo'lib o'tadigan Hukumatlararo komissiya-ni navbatdagi majlisi doirasida yaqindan muvofiqlashuv va hamkorlikni davom ettirish muhimligini ta'kidladilar. Bunda, avvalo, ko'p qirrali munosabatlarning ustuvor dastur va loyihalarini, biznes va hududlar kooperatsiyasini kuchaytirish bo'yicha uzoq muddatli «yo'l xaritasi» tayyorlashni jadal-lashtirish nazarda tutiladi.

Davlat rahbarlari, shuningdek, mintaqada yuzaga kelayotgan vaziyatni muhokama qildilar, bo'lajak tadbirlar rejasini ko'rib chiqdilar.

\* \* \*

**7-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat chog'ida ikki mamlakat hamkorligining dolzarb masalalari muhokama qilindi. Mintaqadagi vaziyat yuzasidan fikr almashildi,

bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlar rejasi ko'rib chiqildi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi strategik sheriklik va ko'p qirrali munosabatlarni mustahkamlash, Markaziy Osiyoda barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash borasida qat'iy ekanliklarini ta'kidladilar.

\* \* \*

**7-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Davlat rahbarlari ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalari, ishonch va strategik sheriklik tamoyillariga asoslangan ikki tomonlama munosabatlarning holati va ularni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qildilar.

Koronavirus tarqalishi oqibatlarini tez fursatda yengib o'tish maqsadida O'zbekiston va Qozog'iston hukumatlari darajasida yaqindan muvofiqlashuv va faol almashinuvlar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash ko'rsatkichlarini oshirishga qaratilgan qo'shma dastur va loyihalarni ilgari surish, tadbirkorlar va hududlarning yangi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali kooperatsiyani kengaytirish, shuningdek, madaniy-gumanitar tadbirlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratildi.

Mintaqadagi voqealar rivoji yuzasidan ham fikr almashildi. O'zbekiston va Qozog'iston Prezi-

dentlari Qirg'izistondagi vaziyat ushbu mamlakat Konstitutsiyasi va milliy qonunchiligi normalariga muvofiq tez fursatda barqarorlashishiga umid bildirdilar.

\* \* \*

**8-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoyishga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari ikki tomonlama munosabatlar kun tartibidagi dolzarb masalalarni batafsil ko'rib chiqdilar. Xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlik yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik va qardoshlik rishtalari, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashga qaratilgan faol muloqotni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Koronavirusning global miqyosda tarqalishi oqibatlarini samarali yengib o'tish maqsadida amaliy hamkorlik bo'yicha, eng avvalo, savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika, tranzit, qishloq xo'jaligi va boshqa muhim tarmoqlardagi loyihalarni ilgari surish zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari 2019-

yil noyabr oyida Toshkent shahrida o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvida qabul qilingan qarorlar va erishilgan kelishuvlar ijrosining borishini muhokama qildilar.

Tizimli va barqaror tus olayotgan ushbu muhim format doirasida sermahsul muloqot olib borilayotgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi.

Mintaqadagi ko'p tomonlama hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida xavfsizlik, iqtisodiyot, innovatsiyalar, transport, fan, ta'lim, turizm va madaniyat sohalari ko'rsatib o'tildi.

Davlat rahbarlari Qirg'iz Respublikasidagi voqealar rivojiga alohida to'xtaldilar. Ushbu mamlakatdagi vaziyat Qirg'iziston Konstitutsiyasiga muvofiq holda tez fursatda barqarorlashishi zarurligi qayd etildi.

\* \* \*

**8-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida jamiyatda ayollar va yoshlarning rolini oshirish hamda bandligini ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda yoshlar va xotinqizlar bilan ishlash tizimi Xatirchi tumani va Yangiyer shahri misolida muhokama qilindi.

Mutasaddilarga ushbu tizimning namunaviy shaklini ishlab chiqib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va har bir viloyatning bittadan shahar va tumanida, ya'ni 28 ta hududda sinovdan o'tkazish vazifasi qo'yildi.

Sektor rahbarlari va mutasaddi idoralar vakillariga har bir mahalladagi holatni o'rganish, yoshlar va ayollar bilan birma-bir muloqot qilib, ehtiyojlarini, qiziqishlarini aniqlash hamda shu asosda manzilli choralar ko'rish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda «ijtimoiy shartnoma» tajribasini keng qo'llash muhimligi aytiladi. Bunda, avvalo, fuqaro kasb o'rganishi, ishga joylashishi, o'zini o'zi band qilishi uchun davlat tomonidan moddiy va ijtimoiy ko'mak ko'rsatiladi.

«Daftar»lar bilan ishlashda nodavlat notijorat tashkilotlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish lozimligi qayd etildi.

Yig'ilishda mo'ljaldagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun ularni barqaror moliyaviy manbalar bilan ta'minlash masalasi ham ko'rib chiqildi.

Yoshlar va ayollar bandligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligiga Kasb va lavozimlar klassifikatorida oliy ma'lumot talab qiladigan mutaxassisliklar va lavozimlarni qisqartirish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**12-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Tojikiston yetakchisini Prezident saylovidagi ishonchli g'alabasi bilan tabriklab, unga birodar tojik xalqi farovonligi

va ravnaqi yo'lidagi faoliyatida muvaffaqiyatlar tiladi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston – Tojikiston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Davlat rahbarlari o'rtasida erishilgan kelishuvlarni o'z vaqtida amalga oshirish, Hukumatlararo komissiya qarorlarini bajarish hamda bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlar uchun yangi kun tartibini ishlab chiqish muhimligi alohida ta'kidlandi.

Mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

Prezidentlar Qozog'iston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikasi davlat rahbarlarining Qirg'iz Respublikasidagi vaziyat yuzasidan qo'shma bayonoti qabul qilinganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Muloqot so'ngida mamlakatlaringimiz o'rtasidagi uzoq muddatli va keng ko'lamlil hamkorlikni rivojlantirishga ikkala tomonning ham intilishi qat'iy ekani ta'kidlandi.

\* \* \*

**12-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda sohaga oid qonunchilikni takomillashtirib, intellektual mulk himoyasini kuchaytirish, har bir idora va tarmoqqa ilmiy yutuqlarni olib kirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari mahalliy tovar belgilarini xalqaro ro'yxatdan

o'tkazish masalasiga alohida e'tibor qaratdi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga mahalliy brendlarning xalqaro ro'yxatdan o'tishini ko'paytirish, ularning xalqaro bozorga chiqishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yuridik universitet hamda joylardagi huquqshunoslik fakultetlarida tadbirkorlar uchun intellektual mulkni yaratish va himoya qilish bo'yicha o'quvlar tashkil etilishi belgilandi.

Tadbirkorlar mahsulotlarini brendga aylantirish dasturi va elektron maydonchasini ishlab chiqib, hududlarda brendlar yarmarkasi o'tkazish zarurligi qayd etildi.

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Intellektual mulk agentligiga mamlakatimizda ro'yxatga olingan ko'ngilochar saytlar, radio va telekanallarni o'rganib, mualliflar manfaatlarini ta'minlash vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**13-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'simlik karantini bo'yicha davlat xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Sirdaryo viloyatiga keldi. Davlatimiz rahbari dastlab Mirzaobod tumanidagi «Haqiqat» mahallasiga tashrif buyurdi.

Ilgari bu joylardagi ko'p uylarda tabiiy gaz yo'q edi. Endi gaz, suv, elektr energiyasi va boshqa kommunikatsiyalar bilan ta'minlangan. Yana bir muhim tomoni – yangi uy egalarning avvalgi hovlilari ham o'zlarida qoldi.

Davlatimiz rahbari o'sha qiyin kunlarda butun xalqimiz jipslashib harakat qilganiga katta e'tibor qaratdi. Ko'p qavatli uylar shinam, hovlilari obod. Bu mahalla Yangi O'zbekiston, deb nomlangan.

Davlatimiz rahbari shundan so'ng Oqoltin tumanidagi «Nurafshon orzu bo'stoni» fermer xo'jaligi dalasida bo'lib, paxta hosilini ko'zdan kechirdi.

Shu yerda klasterlar rahbarlari va fermerlar bilan muloqot bo'ldi. Paxtani qayta ishlab, xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirib, qo'shimcha qiymat yaratish muhimligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari Sirdaryo viloyatining Oqoltin tumanidagi «Yangi Toshkent» mahallasini borib ko'rdi. Bu yerda 130 ta kottej ta'mirlanib, kommunikatsiya tarmoqlari tiklangan. Yangi mahalla guzari, savdo va maishiy xizmat shoxobchalari, kutubxona, sport majmuasi, ichki yo'llar qurilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev qurilish va obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirdi. Aholi bilan suhbatlashdi.

Mahallada «Nafis liboslar» tikuvchilik korxonasi ham tashkil etildi. Unda 50 nafardan ziyod xotin-qiz ish boshladi. Prezidentimiz ular bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari oilaviy poliklinikaga kirib, sog'liqni saqlash xodimlari bilan suhbatlashdi. Tibbiyot bilan sport hamohangligini kuchaytirib, odamlarni sog'lom turmush tarziga odatlantirish, aholining umrini uzaytirish masalalari yuzasidan so'z yuritildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Sardoba tumanidagi «Sardoba Oqsaroy tekstil» korxonasi faoliyati bilan tanishdi. Davlatimiz rahbari bu yerda faoliyat boshlagan xotin-qizlarni yangi uy va ish joylari bilan tabrikladi.

Shu yerda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish, yengil sanoatda qo'shimcha qiymat zanjirini yaratish bo'yicha loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari 15-may kuni Sardoba tumanida bo'lganida «Do'stlik» mahallasida yangi uylar qurilishiga tamal toshi qo'ygan edi. Qisqa vaqtda bu yerda 1 ming 480 xonadonli 37 ta turar joy qurib bitkazildi.

Prezident bu galgi tashrifi chog'ida mazkur zamonaviy mavzeni ko'zdan kechirdi.

Shavkat Mirziyoyev «Do'stlik» mahallasida sirdaryolik faollar, suv toshqinidan jabrlangan odamlar bilan uchrashdi. Davlatimiz rahbari so'zining avvalida viloyat ahli bilan shunday obodlikda, yorug' yuz bilan ko'rishib turganidan xursandligini bildirdi.



Uchrashuvda suv toshqinidan jabr ko'rgan Sardoba, Oqoltin va Mirzabod tumanlari aholisining yashash sharoitlarini yaxshilash, uy-joylar qurish va ta'mirlash, aholi salomatligini himoya qilish, infratuzilma obyektlarini tiklash, yangi ish joylari yaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida aytib o'tildi.

Mutasaddi vazirliklar viloyat faollariga bu borada bajarilgan ishlar va rejalashtirilgan loyihalar haqida taqdimot qildi.

\* \* \*

**14-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasi bilan hamkorlikdagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar loyihalar ijrosini tanqidiy ko'rib chiqish, yangi o'sish nuqtalarini belgilashga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda Prezidentimiz bu davlatlar bilan hamkorlik bo'yicha imkoniyatlar ko'pligi, lekin hozirgi natijalar yetarli darajada emasligini ta'kidladi. «Yo'l xaritalari» ijrosi oqsayotgani, ish tizimli olib borilmayotganini jiddiy tanqid qildi.

Xitoy va Janubiy Koreya bilan keng qamrovli hamkorlikni yo'lga qo'yish, yangi yo'nalishlar topish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish, ularning ijrosini nazorat qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Mutasaddilarga barcha qo'shma loyihalarni tanqidiy ko'rib chiqqan holda, ularni tezlashtirish va belgilangan muddatlarda sifatli amalga oshirish bo'yicha yangilangan «yo'l

xaritalari» tayyorlash hamda kelgusi yil uchun yangi istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**15-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**15-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sarimsoqqiyoz hamda to'qsonbosdi usulida sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilishni ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida davlat kadastrlarini yuritishning yangi tizimini samarali tashkil etish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda yangi tizim asosida ishni tashkil etish uchun birinchi galda yer hisobini joyiga qo'yib, to'liq shakllantirib olish zarurligi ta'kidlandi.

Qurilishdan bino-inshootning kadastr jildini tayyorlashgacha bo'lgan bosqichlarda undiriladigan to'lovlar asosligini o'rganib, ularni kamaytirish va jarayonlarni soddalashtirish bo'yicha topshiriq berildi.

Yig'ilishda yer uchastkasiga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazmaslik yoki yerlarni o'zboshimchilik bilan egallab olish muammosiga ham to'xtalib o'tildi.

Sohadagi islohotlarni samarali amalga oshirish uchun Kadastr agentligining barcha bo'g'inlarini malakali kadrlar bilan to'ldirish, yangi tizim mazmuni va tartibi bo'yicha o'qitish muhimligi ta'kidlandi. Joylardagi kadastr bo'limlarining moddiy-texnik ta'minoti va mehnat sharoitlarini yaxshilash yuzasidan ham ko'rsatma berildi.

\* \* \*

**16-oktabr.** «Ko'ksaroy» qarorgohida xorijiy davlatlarning mamlakatimizga yangi tayinlangan elchilaridan ishonch yorliqlarini qabul qilishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari, Eron Islom Respublikasi, Ukraina, Italiya Respublikasi, Isroil Davlati, Pokiston Islom Respublikasi va Hindiston Respublikasining mamlakatimizdagi favqulodda va muxtor elchilari Said al-Qamziy, Hamid Nayrobodiy, Nikolay Doroshenko, Agostino Pinna, Zexavit Ben Xillel, Said Ali Asad G'iloniy va Manish Prabxatdan yorliqlarni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari elchilarni O'zbekistondagi diplomatik faoliyatini boshlagani bilan samimiy tabriklab, ularga ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish borasidagi sharaflari va mas'uliyatli vazifada katta muvaffaqiyatlar tiladi.

Tadbirda davlatimiz rahbari diplomatlarga murojaat qilar ekan, tegishli xorijiy sheriklar bilan ikki tomonlama aloqalarning

asosiy yo'nalishlari va istiqbol larini qayd etdi.

Suhbat chog'ida elchilar davlatimiz rahbariga samimiy qabul uchun minnatdorlik izhor etib, O'zbekiston bilan sheriklikda sifatli yangilanishga erishish hamda munosabatlar kun tartibini yangi va aniq mazmun bilan boyitishga bor kuch-g'ayratini safarbar qilishini qayd etdilar.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va ichki bozorda narx-navo barqarorligini saqlash chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, narx-navo barqarorligini saqlash masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Har bir hududda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha alohida jamg'armalar tashkil etilishi belgilandi.

Import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari narxini arzonlashtirish maqsadida yirik xorijiy ishlab chiqaruvchilarning mahalliy birjadagi ishtirokini kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Toshkent shahrining har bir tumaniga respublikaning muayyan viloyatini biriktirib, qishloq xo'jaligi mahsulotlari rastalari va dala do'konlari tashkil etish muhimligi qayd etildi.

Viloyat, tuman, shahar hokimlari va sektor rahbarlari o'z hududida yaratilgan tizim, bozordagi shart-sharoitlar va narx-navo bo'yicha xalqqa hisobot berishi zarurligi aytiladi.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Mirzo Ulug‘bek va Yunusobod tumanlarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishdi.

Birinchi obyekt Mirzo Ulug‘bek tumanidagi Geologiya fanlari universiteti bo‘ldi. Davlatimiz rahbari shu yerda ilmiy-tadqiqot institutlari rahbarlari bilan suhbatlashdi.

Shavkat Mirziyoyev ushbu dargohda yaratiladigan sharoitlar bilan qiziqib, qurilish sifatli, laboratoriyalar yuqori texnologiyali bo‘lishi kerakligini ta’kidladi.

Prezidentimiz poytaxtimizdagi Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkida ham bo‘ldi. Majmua shou-rumida qurilishi boshlangan binolar, ularda bo‘ladigan sharoitlar haqida ma’lumot berildi. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning o‘quvchilari ishtirokida yaratilgan dasturiy mahsulotlar namoyish etildi.

Davlatimiz rahbari Qoraqalpog‘istonning Bo‘zatov tumanidagi IT-markazda saboq olayotgan bolalar bilan videokonferensaloqa orqali muloqot qildi.

Mutasaddilarga Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktab bilan hududlardagi axborot texnologiya maktablari integratsiyasini ta’minlash, yoshlarning zamonaviy texnologiyalarga qiziqishini to‘g‘ri yo‘naltirib, yetuk mutaxassislar etib tayyorlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizning Yunusobod tumanida barpo etilayotgan Toshkent Arxitektura-qurilish institutining yangi binosini borib ko‘rdi.

Davlatimiz rahbari institut yonidagi 8-avtobus saroyini ham kirib ko‘rdi. Bu avtoparkni boshqa joyga ko‘chirib, zamonaviy shart-sharoitlar yaratib berish, uning o‘rnida qurilish materiallari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etish taklifi bildirildi.

Arxitektura-qurilish institutining murabbiylari, ilmiy-tadqiqot markazi mutaxassislari va ularning oilalari uchun ijtimoiy obyektlar ham barpo etilishi aytiladi.

Davlatimiz rahbari poytaxtimizda barpo etilayotgan «Temurbeklar maktabi» harbiy-akademik litseyi va Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasining yangi binolari bilan tanishdi. Davlatimiz rahbariga «Temurbeklar maktabi» faoliyati, o‘quv jarayoni, qurilayotgan yangi bino va inshootlar haqida ma’lumot berildi.

Prezidentimiz maktabda onatili va tarix fanlaridan tashqari, xorijiy tillarni mukammal o‘qitish zarurligini ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘quvchilarga yurtimiz tarixi va milliy qadriyatlarimizni chuqur o‘rgatish, darslarga har bir fan bo‘yicha yetakchi pedagoglarni jalb etish muhimligini ta’kidladi.

\* \* \*

**19-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev maslahatchi Suma Chak-

rabarti ishtirokida mamlakatimizda islohotlar dasturini uzoq muddatli istiqbolda davom ettirishning strategik yoʻnalishlarini koʻrib chiqdi.

Chuqur va har tomonlama tahlil asosida, ilgʻor xalqaro amaliyot va tajribani hisobga olgan holda, Oʻzbekistonda yangi oʻsish nuqtalarini aniqlash va yangilanishlarni samarali davom ettirishni taʼminlashga alohida eʼtibor qaratildi.

Xususan, mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va boshqaruv kadrlari sifatini tubdan oshirish, respublikada investitsiya va ishbilarmonlik muhitini takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlari koʻrib chiqildi.

\* \* \*

**19-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yilga moʻljallangan davlat budjeti parametrlari muhokamasiga bagʻishlangan videosektor yigʻilishi oʻtkazildi.

Yigʻilishda makroiqtisodiy barqarorlik va belgilangan budjet tushumlarini toʻliq taʼminlash chora-tadbirlari muhokama qilindi. Mutasaddilarga ushbu vazifalar boʻyicha topshiriqlar berildi.

Yigʻilishda kambagʻallikni qisqartirish, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash hamda aholi bandligini taʼminlash masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Yangi ish oʻrinlari ochish va aholini tadbirkorlikka jalb qilish hisobiga kam taʼminlanganlar sonini qisqartirish zarurligi taʼkidlandi.

Yana bir muhim masala – moliyaviy intizom va nazoratni kuchaytirish. Moliya vazirligiga tashkilotlarda ichki audit tizimini mustahkamlash, noqonuniy xarajatlar va kamomadlarga yoʻl qoʻymaslik boʻyicha koʻrsatmalar berildi.

Bosh vazir oʻrinbosarlariga keyingi yil uchun markazlashgan, xorijiy va xususiy investitsiya dasturlarini shakllantirish vazifasi qoʻyildi.

\* \* \*

**20-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-oktabr – Oʻzbek tili bayrami kuni munosabati bilan Oʻzbekiston xalqiga bayram tabrigi yoʻlladi.

\* \* \*

**20-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholi bandligi toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**20-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy

tashrif bilan kelgan Amerika Qo'shma Shtatlari Qurolli kuchlari Markaziy qo'mondonligi qo'mondoni general Kennet Makkenzini qabul qildi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston – AQSh munosabatlari va mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalari muhokama qilindi. Xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar hamda global xatarlarga qarshi kurashish mavzulariga alohida e'tibor qaratildi.

Afg'onistonda tinchlik jarayoni ni qo'llab-quvvatlash hamda ushbu mamlakatning iqtisodiy tiklanishiga amaliy ko'mak ko'rsatish yuzasidan fikr almashildi.

Ikki tomonlama harbiy va harbiy-texnik hamkorlik masalalari ham ko'rib chiqildi.

General Makkenzi O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga uchrashuv uchun samimiy minnatdorlik bildirib, AQSh mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlash, keng ko'lamlı hamkorlikni kengaytirish borasida qat'iy ekanini ta'kidladi.

\* \* \*

**21-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Eksport faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida sanoat tarmoqlaridagi 9 oylik natijalar va yil yakunigacha bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar muhokamasi bo'yicha video-selektor yig'ilishi o'tkazildi.

Avval neft-gaz tarmog'idagi ishlar tahlil qilindi. Qoloqlikka yo'l qo'ygan korxonalar faoliyati tanqidiy baholanib, rahbarlarning lavozimlariga loyqlik masalasi ko'rib chiqildi. Yil yakuni bilan tabiiy gaz qazib olishni ko'paytirish, ichki bozorga qo'shimcha gaz yetkazib berish bo'yicha topshiriqlar berildi.

«O'zavtosanoat» boshqaruviga o'tgan qishloq xo'jaligi mashinasozligi tarmog'ida traktor va seyalkalar ishlab chiqarish 2 barobar kamaygani ko'rsatib o'tildi. Xalqaro ekspertlar bilan birga avtomobil sanoatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Davlatimiz rahbari qurilish materiallari, elektr texnikasi va yengil sanoatda hali ishlatilmagan zaxiralar mavjudligini qayd etib o'tdi.

Yig'ilishda hududiy sanoat korxonalarida mavjud rezervlardan foydalanib, qo'shimcha ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalalari ham muhokama qilindi.

Tegishli vazirlik va hokimliklarga qoloqlikka yo'l qo'yilgan loyihalardagi muammolarni bartaraf etish, import o'rnini bosuvchi yangi istiqbolli yo'nalishlarni o'rganib, mahalliyashtirish dasturiga kiritish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda ishlab chiqarishni kengaytirish orqali eksport hajmini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**22-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Harbiy tibbiyot sohasida kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini tashkil

etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh xodimlarni mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev elektr energetikasi korxonalarini transformatsiya qilish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda transformatsiyaning yangi bosqichi, ya'ni stansiyalarni modernizatsiya qilish, energiya tejamlilikni oshirish, tannarxni pasaytirish va istiqbolda elektr energiyasining raqobatli bozorini yaratish kabi muhim chora-tadbirlar muhokama qilindi.

«O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari», «Hududiy elektr tarmoqlari», «Issiqlik elektr stansiyalari» hamda «O'zbekgidroenergo» aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy hisobotlarni jahon standartlari asosida tayyorlash tizimiga o'tish kerakligi ta'kidlandi.

Sohaga ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish, «raqamli trans-

formatsiya»ni amalga oshirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda yangi loyihalarning ijrosiga ham e'tibor qaratildi. Xususan, Jizzax, Samarqand va Surxondaryoda quyosh, Buxoro va Qoraqalpog'istonda shamol, Sirdaryo va Surxondaryoda issiqlik elektr stansiyalarini barpo etish bilan bog'liq loyihalarni jadallashtirish, ularga davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalar yo'naltirish muhimligi aytili.

\* \* \*

**26-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev qurilish sohasidagi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda bunyodkorlik ko'lami kengaydi. Ayniqsa, ko'p qavatli uylar qurilib, aholining eng muhim talabi qondirilmoqda. Xususan, joriy yilda qishloqlarda 12 mingdan ziyod, shaharlarda 18 mingdan ortiq ko'p qavatli turar joy barpo etildi.

Sardoba suv omboridagi hodisadan keyin Sardoba hamda Mirzaobod tumanlarida qisqa muddatda 86 ta besh qavatli uy qurib bitkazildi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga ushbu tajribadan foydalanib, loyihalarni takomillashtirish, turar joylarni aholi uchun yanada arzon qilish bo'yicha ko'rsatmalar bergan edi.

Shunga muvofiq, besh qavatli uylar loyihasi qayta ko'rib chiqilib, xonadonlarning joylashuvi va xonalarning ichki maydoni maqbullashtirildi. Qurilish materiallari loyihaga mos o'lchamda ishlab chiqariladi, isrof bo'lmaydi. Hovli va

yo'laklarga sensorli elektr chiroqlari qo'yiladi. Bu kabi tejamkor choralar natijasida uylarning narxi o'rtacha 30 foizgacha arzonlashadi.

Prezidentimiz ushbu loyihani ma'qullab, bunday turar joylarni aholi zich joylashgan barcha tumanlarda qurish zarurligini ta'kidladi.

Yana bir loyiha Toshkent davlat texnika universiteti hududida zamonaviy o'quv-amaliy kompleksi barpo etishga qaratilgan.

Dunyo tajribasidan ma'lumki, ko'plab mashhur ilmiy muassasalar universitetlar ichida joylashgan. Rejalashtirilayotgan majmua ham shu hududdagi Toshkent davlat texnika universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti hamda Turin politexnika universitetidagi jami 36 ming talaba, 2 mingdan ziyod professor-o'qituvchilar uchun shunday markaz bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Bu yerda bir paytda 500 ta startap rezidentlari, 120 ta ishlab chiqarish korxonasini joylashtirish mumkin bo'ladi.

Toshkent shahrida aholini arzonlashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash chora-tadbirlari haqida ham ma'lumot berildi.

Joriy yil 2-oktabr kuni Qoraqalpog'istonga safar chog'ida Nukus shahrini obodonlashtirish, aholining dam olishi uchun sharoitlarni kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan edi. Shu maqsadda shaharning istiqboldagi zamonaviy markazini barpo etish bo'yicha loyiha ishlab chiqildi. Unga muvofiq, ko'chalarni kengaytirish va ko'kalamzorlashtirish, ko'llar va

istirohat bog'lari tashkil etish, savdo va maishiy xizmatlarni ko'paytirish nazarda tutilgan.

Prezidentimiz ushbu loyihalar bilan tanishib, ularni takomillashtirish bo'yicha qator ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**27-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadalashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid choratadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**27-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi milliy mudofaa vaziri, armiya generali Hulusi Akarni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari mehmonni samimiy qutlar ekan, ko'p asrlik do'stlik va birodarlik rishtalariga asoslangan hamda keyingi uch yilda birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgan O'zbekiston – Turkiya strategik sheriklik munosabatlari har tomonlama jadal rivojlanib boryotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz o'rtasidagi harbiy va harbiy-texnik hamkorlik holati va istiqbollari ko'rib chiqildi, shuningdek, keyingi yillarda mudofaa sohasida amalga oshirilgan

qo'shma tadbirlar yakunlari sarhisob qilindi.

O'zbekiston va Turkiya mudofaa idoralari o'rtasida o'rnatilayotgan amaliy hamkorlikning muhim yo'nalishlari sifatida harbiy kadrlarni o'qitish bo'yicha dasturlarni amalga oshirish, ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalari o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish, qo'shin bo'linmalarini tayyorlash bo'yicha tajriba almashish belgilandi.

Mintaqadagi zamonaviy xatarlar va xavfsizlikka tahdidlarga qarshi birgalikda kurashishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Turkiya milliy mudofaa vaziri harbiy va harbiy-texnik sohalarda keng ko'lamlı hamkorlikka tayyor ekanini ta'kidladi.

\* \* \*

**28-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish hamda davlat aktivlarini xususiy- lashtirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda shu boradagi muhim yo'nalishlar ko'rsatib o'tildi. Avvalo, tadbirkorlarga taklif etiladigan korxonalarining har biriga alohida yondashish, ularni soddalashtirilgan tartibda savdoga chiqarish kerakligi ta'kidlandi.

Mutasaddilarga korxonalarni xususiy- lashtirishdan avval «diagnostika» qilish, auditdan o'tkazish va hisob-kitobini to'g'rilash bo'yicha manzilli dastur ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Davlat loyiha institutlarini transformatsiya qilish masalalariga to'xtalib o'tildi.

Oliy Majlis palatalariga Prezident farmoni mohiyatini keng targ'ib qilib, xususiylashtirish jarayonlarini halol va ochiq-oshkora o'tishida parlament nazoratini o'rnatish tavsiya qilindi. Shuningdek, xususiylashtirish hamda davlat mulkini boshqarishga oid qonun loyihalarini ishlab chiqish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**29-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**30 oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda bugungi modernizatsiya jarayonlari, islohot va o'zgarishlar natijadorligi maktab ta'limiga, yangi avlod kadrlarini yetishtirish masalasiga borib taqalayotgani qayd etildi. Ta'lim sohasidagi muammolar, ularni hal etish, ta'lim sifatini oshirishga oid vazifalar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari, avvalo, maktablarda o'quv yuklamasi va



daralar sonini qayta ko'rib chiqish, o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish zarurligini ta'kid-ladi.

Yig'ilishda pedagog kadrlar mala-kasini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. O'qituvchilar toifasini belgilash tartibini ham tub-dan qayta ko'rib chiqish lozimligi ta'kidlandi.

Maktablarda zamonaviy boshqa-ruvni joriy qilish masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

Oliy ta'lim sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va qamrovni oshirish, har bir hududda kamida bittadan nodavlat oliy bilim yurti tashkil qilish muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**30-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Pre-zidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan Seul shahrida videoanjuman shaklida o'tgan Shimoliy iqtisodiy hamkorlik ikkinchi xalqaro forumida ishtirok etdi va nutq so'z-ladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu videoanjumandagi ma'ruzasi mat-buotda chop etildi.

\* \* \*

**30-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sog'lom turmush tar-zini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda gidro-

meteorologiya xizmati faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda sohada xizmat ko'rsa-tishni bosqichma-bosqich tijoratlash-tirish yuzasidan taqdimot o'tkazildi.

Yig'ilishda meteorologiya xizma-tining moddiy-texnik ta'minotidagi kamchiliklar atroflicha ko'rib chiqil-di. Gidrometeorologiya xizmati mar-kaziga kelgusi yilda har bir vilo-yatda qo'shimcha agrometeorologiya postlari tashkil etish bo'yicha top-shiriq berildi.

Sohada ilm-fanni rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirish ma-salalariga ham e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**4-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respub-likasi davlat soliq qo'mitasi huzu-rida fiskal institutini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga bi-noan Shanxay shahrida «CIIE – 2020» Import mahsulotlari uch-inchi Xitoy xalqaro ko'rgazmasining ochilish marosimi ishtirokchilariga videoaloqa orqali murojaat yo'lladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu marosimdagi nutqi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**5-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jamoat xavfsizligini ta'minlashga doir qonun hujjatlari yanada takomillashtirilishi muno-

sabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**6-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inini takomillashtirish hamda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalardagi tibbiy xizmat tizimi, shifokorlar va o'rta tibbiyot xodimlarining vazifa va funksiyalarini to'liq qayta ko'rib chiqish zarurligini aytdi.

Yig'ilishda kadrlar masalasi atroflicha ko'rib chiqildi. Prezident shifokorlarga munosib sharoitlar yaratish orqali ularni eng quyi bo'g'in – qishloq vrachlik punkti va oilaviy poliklinikalarga jalb qilish zarurligini ta'kidladi.

Shifokorlarga bo'lgan ehtiyojlarni mahallalar kesimida aniqlab, tibbiyot oliy o'quv yurtlarida kvotani oshirish, ipoteka asosida qurilayotgan uy-joylarni, avvalo, birlamchi bo'g'in shifokorlari uchun ajratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Pandemiyaning birinchi kunlaridan boshlab bu kurashga 100 mingdan ziyod tibbiyot xodimlari safarbar etilgani, ular o'zlarini ayamasdan, jonlarini garovga qo'yib, haqiqiy qahramonlik ko'rsatayotgani e'tirof etildi.

\* \* \*

**7-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasi xodimlariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**10-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining videoanjuman shaklida o'tgan navbatdagi majlisida ishtirok etdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin raisligida o'tgan majlisda, shuningdek, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Imron Xon, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi, Bosh vaziri Sadir Japarov, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi ishtirok etdilar.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrish sammit ishtirokchilariga videomurojaat yo'lladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutq so'zlar ekan, Shanxay hamkorlik tashkiloti o'z taraqqiyotining prinsipial jihatdan yangi bosqichida turganini alohida ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari yaxshi qo'sh-nichilik, teng huquqlilik, o'zaro ishonch va manfaatlarni hisobga olish an'analarini asrash va ko'paytirishga chaqirdi.

Prezidentimiz tomonidan Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan qator dolzarb tashabbuslar ilgari surildi.

Sammit yakunida ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashining Moskva deklaratsiyasi qabul qilindi hamda tashkilot doirasidagi o'zaro manfaatli ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan hujjatlar to'plami imzolandi.

O'zbekiston tashabbusi bilan sammitda ShHTga a'zo davlatlar rahbarlarining Raqamli iqtisodiyot sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bayonoti qabul qilindi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**10-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Qoraqalpog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Videoselektor yig'ilishida belgilangan chora-tadbirlarning Taxta-ko'pir, Bo'zatov, Shumanay tumanlaridagi ijrosi ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari yangi korxonalar tashkil etib, aholini ish bilan ta'minlash, oilalarni kambag'allikdan olib chiqishga ko'maklashish muhimligini ta'kidladi.

Yig'ilishda Qoraqalpog'iston tuman va shaharlari qiyofasini yangilash, yo'llar va uy-joylar qurish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Nukus shahrini renovatsiya qilish, zamonaviy infratuzilma obyektlari qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar ko'rib chiqildi.

Sog'liqni saqlash sohasi haqida so'z borar ekan, qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalarni to'liq raqamlashtirish, tibbiyot brigadalari tashkil etib, aholini skrining tekshiruvlaridan o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Maktablarda darslarni yangi metodika asosida tashkil etish, pedagoglarni shu bo'yicha malakasini oshirish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**11-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Afg'oniston Islom Respublikasi Milliy yarashuv oliy kengashi Raisi Abdulla Abdullani qabul qildi.

Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlik hamda Afg'onistondagi mojaroni tinch yo'l bilan hal etishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari keyingi yillarda O'zbekiston - Afg'oniston munosabatlarini rivojlantirishda erishilgan sur'atni katta mamnuniyat bilan ta'kidladi. Amaliy hamkorlikni kengaytirish, savdo, iqtisodiyot, investitsiyalar, transport va logistika, energetika, ta'lim va boshqa muhim yo'nalishlarda ustuvor loyihalarni ilgari surish borasidagi sa'y-harakatlar alohida qayd etildi.

O'zbekiston Afg'onistonda mintaqaviy ahamiyatdagi infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etishga tayyor ekani ta'kidlandi.

Abdulla Abdulla samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, O'zbekistonning afg'onlararo tinchlik muzokaralarini boshlashga hamda xalqaro hamjamiyatning Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha faoliyatini birlashtirishga xizmat qilgan sa'y-harakatlarini yuksak baholadi.

Mehmon O'zbekiston tomonidan ko'rsatilayotgan doimiy ko'mak uchun minnatdorlik bildirdi hamda mamlakatimizning Afg'onistonni mintaqaviy savdo-iqtisodiy jarayonlarga jalb etishga qo'shayotgan hissasini alohida qayd etdi.

Muzokaralar chog'ida mintaqaviy va xalqaro siyosatning tomonlarni qiziqtirgan masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**11-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat chog'ida davlat rahbarlari ikki tomonlama munosabatlar va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi o'zaro manfaatli amaliy hamkorlik «yo'l xaritasi»ga kiritilgan ustuvor tarmoqlardagi iqtisodiy kooperatsiya loyihalarini yanada ilgari surish muhim ekani ta'kidlandi.

Hududlar va biznes darajasida faol muloqotlarni davom ettirish, shuningdek, madaniy-gumanitar almashinuvlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentlar Markaziy Osiyo mintaqasidagi vaziyatning rivojlanishi yuzasidan, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, shu jumladan, MDH va ShHT doirasidagi muloqotni kengaytirish bo'yicha fikr almashdilar.

Bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasi ham ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**11-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining sakkizinchi qurultoyi ishtirokchilariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**1–13-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtisodiyotni tiklash va rivojlantirish, odamlar hayotini yaxshilash borasidagi ishlar bilan tanishish maqsadida Qashqadaryo viloyatiga bordi.

Davlat rahbari viloyatga safarini Shahrisabz tumanidagi «Oqsaroy Vortex» mas'uliyati cheklangan jamiyatda sintetik aralashmali ip va mato ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishishdan boshladi.

Shu yerning o'zida Qashqadaryo viloyatida 2020–2022-yillarda amalga oshiriladigan investitsiya rejalari, paxta tolasini qayta ishlash darajasini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qarshi shahridagi Davlat xizmatlari markazi va IT-texnopark faoliyatini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari Qarshi shahrida qashqadaryolik o'qituvchi va murabbiylar, tibbiyot xodimlari bilan suhbatlashdi. Uchrashuvda ta'lim va tibbiyot sohalaridagi islohotlarning ahamiyati, joylarda amalga oshirish choralari haqida so'z bordi.

Shavkat Mirziyoyev Qarshi shahrida ochilgan Korxonalarni sog'lomlashtirish va xususiylashtirish klinikasini borib ko'rdi.

Shu yerda Shahrisabz, G'uzor, Nishon va Dehqonobod tumanlarini rivojlantirishning «o'sish nuqtalari» bo'yicha taqdimot o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari shu tizimda ishlarni davom ettirib, har bir hududning «o'sish nuqtalari»ni ishga solib, qo'shimcha mablag'lar hisobidan ijtimoiy muammolarni hal qilish, uylar, yo'llar qurish, kam ta'minlangan oilalarga ko'maklashish zarurligini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qarshi shahridagi Yoshlar markazida bo'lib, sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Shu yerda qashqadaryolik yoshlar bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda yoshlar muammolarini hal qilish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ochiq muloqot bo'ldi.

Davlatimiz rahbari tashrifning ikkinchi kuni Qarshi shahrida viloyat faollari, mahalliy kengash deputatlari, vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirokida yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda mavjud imkoniyatlar tahlil qilinib, Qashqadaryoni kompleks rivojlantirish va aholining hayot sharoitini yaxshilashga doir ustuvor yo'nalishlar muhokama qilindi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Qarshi shahrining Navo mahallasida qurilayotgan yangi turar joylarni ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari uylarning qurilish texnologiyasi va sifatiga e'tibor qaratdi. Yong'in xavfsizligini, kommunal xizmatlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha ko'rsatmalar berdi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qashqadaryo viloyatiga safari yakunlandi.

\* \* \*

**16-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev geologiya sohasini modernizatsiya qilish, investitsiyalar jalb etish hamda geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, davlat korxonalarini isloh qilish bo'yicha keyingi davrdagi asosiy vazifalar muhokama qilindi.

Soha uchun malakali kadrlar tayyorlash, ilm-fanni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. «O'zgeorangmetLITI» institutiga ilg'or tajribaga ega xorijiy kompaniya jalb qilinishi belgilandi.

\* \* \*

**17-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida sud hujjatlari ijro etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda sud hujjatlarini ijro etish holati tuman va shaharlar misolida ko'rib chiqildi. Qarzdorliklarni qisqartirish bo'yicha mamlakat darajasida alohida, viloyat va tumanlar miqyosida alohida tizimda ish olib borilishi belgilandi.

Sud hujjatlarini ijro etish samaradorligini oshirish bo'yicha Bosh prokuror rahbarligida Respublika kengashi va viloyat hokimlari boshchiligida hududiy kengashlar tuzilib, ularga viloyat prokurorlari o'rinbosar etib birlashtirilishi belgilandi.

Vidoselektor yig'ilishida joylarda qishga tayyorgarlik ishlari ham tanqidiy ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**17-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev qurilish sohasiga oid loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Ma'lumki, Imom Buxoriy yodgorlik majmuasini rekonstruksiya qilish va kengaytirish rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbari Samarqand viloyatiga tashrifi chog'ida bu ishlarni har tomonlama chuqur o'ylab loyihalashtirish zarurligini ta'kidlagan edi. Shu asosda loyiha qayta ko'rib chiqilib, takomillashtirildi. Unga ko'ra, katta masjid, to'rtta minora va keng ayvonlar qurish, xiyobon, uning atrofida mehmonxonalar

hamda boshqa infratuzilma obyektlari barpo etish ko'zda tutilgan.

Prezidentimiz taqdimot bilan tanishar ekan, ziyoratchi va boshqa sayyohlar uchun qulayliklarni kengaytirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Tadbirda O'zbekiston davlat san'at muzeyining yangi binosi loyihasi ham muhokama qilindi.

Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi buyurtmasi bilan dunyoga mashhur yapon me'mori Tadao Ando tomonidan ishlabchiqilgan loyihaga muvofiq, muzeyning mavjud binosi yonida aylana shaklida 3 qavatli yangi inshoot qad ko'tarishi ko'zda tutilgan.

Surxondaryo viloyatida ham shu kabi ishlar rejalashtirilgan. Xususan, Termiz shahrining Beruniy ko'chasida Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, masjid, mehmonxona, turar joylar, mahalla guzari va ko'plab tadbirkorlik subyektlari joylashgan. Mazkur markaziy ko'chaning yangi loyihasi ko'ra, rekonstruksiya va qurilish ishlari amalga oshiriladi. Denov tumanining Nurli manzil va Lochin mahallalarida energiyatejamkor ko'p qavatli uylar, ijtimoiy muassasalar barpo etilishi ko'zda tutilgan.

Taqdimotda Toshkent shahrida amalga oshiriladigan bunyodkorlik ishlari haqida ham ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari Toshkent shahridagi Temurbeklar maktabi qurilishiga doir taqdimot bilan ham tanishdi va zarur ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**20-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va sanoat korxonalari faoliyati bilan tanishdi.

Birinchi obyekt Yashnobod tumanidagi Texnopark bo'ldi. Prezident lift va eskalatorlar, forma va qoliplar, suv nasoslari, sanoat konditsionerlari va sovutish tarmoqlari korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari sanoat konditsionerlari va sovutish tarmoqlari ishlab chiqarish korxonasi faoliyati bilan ham tanishdi.

Shu yerda Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizda faoliyat olib borayotgan tibbiyot xodimlari va pedagoglar bilan muloqot qildi. Uchrashuvda ta'lim va tibbiyot sohalaridagi islohotlarning ahamiyati, ularni quyi tizimda amalga oshirish choralari haqida suhbatlashildi.

Davlatimiz rahbari Mirzo Ulug'bek tumanidagi Respublika ko'p tarmoqli tibbiyot markazi qurilishini borib ko'rdi.

Prezident Qoraqalpog'iston va viloyatlarda quriladigan klinikalarni ushbu markaz bilan bog'lash muhimligini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markaziga tashrif buyurdi.

Prezident yangi bo'linmalar qurilishini ko'zdan kechirdi. Bu shifoxona ilmiy markaz ekaniga alohida urg'u berib, malakali xizmat qamrovini kengaytirish zarurligini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizdagi bunyodkorliklar bilan tanishish jarayonida «O'zbekfilm» kinostudiyasiga ham tashrif buyurib, bu yerda amalga oshirilgan ishlar va kelgusi rejalar bilan tanishdi.

Prezidentimiz shu yerda kino san'ati faxriylari, rejissyorlar, soha mutasaddilari bilan suhbatlashdi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkentning Chilonzor tumanini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish masalalari muhokamasi yuzasidan mahalla raislari, yoshlar, mutasaddilar ishtirokida yig'ilish o'tkazdi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish, yo'l va kommunal tarmoqlarni ta'mirlash, tibbiyot va ta'lim sohalarida yangi islohotlarni joriy etish, jinoyatchilikni qisqartirish bo'yicha dolzarb vazifalar belgilandi.

Davlatimiz rahbari yig'ilishga kelgan yoshlarning fikrlarini tingladi. Ularning barcha takliflarini qo'llab-quvvatlab, ijrosi bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Poytaxt tumanlarida «loyihalar fabrikasi» tashkil etilib, yoshlarning biznes tashabbuslarini amalga oshirishga ko'maklashish zarurligi qayd etildi.

\* \* \*

**23-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida yo'l-transport infratuzilmasini rivojlantirishga oid konsepsiya taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari yo'lovchi tashish xizmatlaridan aholi mutlaqo

norozni ekanini ta'kidladi. Shu bois mavjud infratuzilmani yaxshilab, jamoat transporti harakatining tezligi va aholi uchun qulayligini ta'minlash vazifasi qo'yildi. Jamoat transporti tizimida yangi boshqaruv uslubini joriy etish, metropoliten, avtosaroylar va yo'nalishli taksi korxonalarini bir-biriga bog'lash, axborot texnologiyalari asosida ularning o'zaro integratsiyasini ta'minlash kerakligi ta'kidlandi.

Mutasaddilarga Toshkent shahar jamoat transportini yagona tizim asosida tartibga solish, moliyalashtirish va tabaqalashgan tariflarni belgilash bo'yicha vazifalar qo'yildi. Tirbandlik kuzatilayotgan ko'p qatorli yo'llarning bir qismini jamoat transporti uchun ajratish, markaziy ko'chalarda parkomatlar tashkil etish bo'yicha topshiriqlar berildi. Shu bilan birga, piyodalar va velosipedlar yo'lakchalarini ko'paytirish muhimligi qayd etildi.

«Toshshahartransxizmat» jamiyatini to'liq transformatsiya qilish, Transport universiteti faoliyatini takomillashtirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Jamoat transporti tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalasiga ham e'tibor qaratildi.

Toshkentdagi tajriba asosida boshqa shaharlarda ham yo'l-transport tizimini qayta ko'rib chiqib, markaziy ko'chalarni namunaviy tarzda o'zgartirish, xususan, Samarqandda jamoat transportini optimalashtirish, aholi va turistlar uchun qulay sharoit yaratish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**23-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Kasaba uyushmalari kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**24-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Genom bo'yicha davlat ro'yxatiga olish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**24-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi hamda xizmatlar va servis sohasini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda hokimlar va sektor rahbarlarining asosiy vazifasi va zimmasiga olgan majburiyati – yangi ish o'rinlari yaratib, ehtiyojmand oilalarni «temir daftar»dan chiqarish borasidagi ishlar natijadorligi ko'rib chiqildi.

Xalq bankiga xotin-qizlar tadbirkorligi uchun loyihalar tayyorlab, ularga o'z biznesini yo'lga qo'yishni o'rgatish topshirig'i berildi. Bunda bank xodimlari ayollar bilan mijozbay, mahallabay, tumanbay bevosita ishlashi zarurligi ko'rsatib o'tildi. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligiga tadbirkorlarga har tomonlama ko'mak berish bo'yicha «biznespatronaj» tizimini yo'lga qo'yish topshirildi.



Yig'ilishda joylarda infratuzilmani yaxshilash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Har bir viloyat, tuman va shahar hokimi o'z hududida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturini tuzib, so'zsiz amalga oshirishi kerakligi belgilandi. Bu borada namunaviy loyihalar ishlab chiqib, moliyalashtirishga ko'maklashish uchun tijorat banklari hududlarga birlashtirildi. Barcha tumanlar kesimida aniq vazifalarni o'z ichiga olgan hukumat qarori qabul qilish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**25-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev neft-gaz kimyo sanoatidagi istiqbolli loyihalar holatiga oid taqdimot bilan tanishdi. Taqdimotda mazkur loyihalar ijrosining borishi, bu boradagi xalqaro kelishuvlar natijalari yuzasidan axborot berildi.

Davlatimiz rahbari ularni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish uchun xorijiy hamkorlar va investorlar bilan ishlarni jadallashtirish kerakligini ta'kidladi.

Xomashyo bazasini mustahkamlash, ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxini tushirib, ichki va tashqi bozorda raqobatdoshligini oshirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, elektr tarmoqlarida yo'qotishlarni ancha qisqartirish va uzilishlarning oldini olish, tarmoq korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida energetika sohasini raqamlashtirish ishlarini tezlashtirish vazifasini qo'ydi.

\* \* \*

**25-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Jahon bankining xalqaro taraqqiyot uyushmasi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida «Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish» loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi hayotini yaxshilash masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda har bir tuman va shaharning «o'sish nuqtalari»ga aslanib, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish bo'yicha loyihalarni mijozbay ishlab chiqish zarurligi ta'kidlandi. Mutasaddilarga sanoat past darajada rivojlangan tumanlar

uchun qo‘shimcha loyihalar ishlab chiqish, mavjud zaxiralarni samarali ishga solish vazifasi qo‘yildi.

«Temir daftar»ga kiritilgan oilalarni kambag‘allikdan chiqarish choralari muhokama qilindi. Kichik biznesni rivojlantirish, yoshlar va ayollarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish muhimligi ta’kidlandi.

Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, ichimlik suvi tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish, avtomobil yo‘llarini ta’mirlashga oid masalalar ko‘rib chiqildi. Ijtimoiy masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga har bir investitsiya loyihasining holatini joyiga chiqib, tanqidiy tahlil qilish, muammolarni samarali hal etish vazifasi qo‘yildi.

\* \* \*

**27-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev elektrotexnika va farmatsevtika sohalarida investitsiya loyihalarini jadallashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish masalalari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Yig‘ilishda elektrotexnika tarmog‘ining drayver yo‘nalishlarini

aniqlab olish kerakligi qayd etildi, farmatsevtika tarmog‘idagi loyihalar ijrosi tanqidiy muhokama qilindi, sohalar rivojga oid muhim vazifalar belgilab berildi.

\* \* \*

**30-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Joriy yilning dekabr oyida videoanjuman shaklida o‘tkazilishi rejalashtirilgan davlatimiz raisligidagi MDH sammitiga tayyorgarlik ko‘rish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekiston va Rossiya Prezidentlari koronavirus pandemiyasining tarqalishi oqibatida kelib chiqqan global inqiroz sharoitida ham ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalar barqaror sur‘at bilan rivojlanib bora-yotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Prezidentlar xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, bo‘ljajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

\* \* \*

**30-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan geolog» faxriy unvonini ta’sis etish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**30-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda jamoat transportini rivojlantirish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Yig'ilishda har bir hududdagi bittadan tuman va shahar misolida muhokama qilindi.

Prezidentimiz qishloqdan tuman markazigacha hamda u yerdan viloyat markazigacha bo'lgan transport xizmatlari ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish zarurligini ta'kidladi.

Yurtimizda ishlab chiqarilayotgan avtobuslarning narxi xorijnikiga nisbatan yuqori ekani, shu bois mahalliy lashtirish darajasini oshirib, avtobus va mikroavtobuslar narxini tushirish muhimligi ta'kidlandi.

Transport universiteti faoliyatini sohadagi islohotlar bilan uzviy bog'lash, professor-o'qituvchi va talabalarni bu jarayonga keng jalbetish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Aholi talabidan kelib chiqib, yangi yo'nalishlar ochish, mavjudlarini qayta ko'rib chiqish, avtobus bekatlarini rekonstruksiya qilish, bunga xususiy sektorni jalb qilish zarurligi ta'kidlandi. Bu boradagi chora-tadbirlar ijrosi joylarga chiqqan holda o'rganib borilishi, xalq deputatlari kengashlarida har uch oyda transport tizimi rahbarlarining hisobotlari eshitilib, aniq vazifalar qo'yilishi belgilandi. Soha-ga oid qonunlarning bugungi kun talabiga javob bermaydiganlarini takomillashtirish zarurligi qayd etildi.

\* \* \*

**1-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyevning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Nursulton Nazarboyev va qardosh Qozog'iston xalqini Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti kuni bilan samimiy qutladi.

Elboshining zamonaviy Qozog'istonni barpo etish va izchil rivojlantirish, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishdagi tarixiy roli, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan katta hissasi alohida qayd etildi.

Ikki mamlakat yetakchilari O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi strategik sheriklik, o'zaro ishonch va qo'llab-quvvatlash prinsiplariga asoslangan ko'p qirrali munosabatlarning bugungi darajasini yuqori baholadilar.

Telefon orqali muloqot chog'ida xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zbekiston va Qozog'iston yetakchilarining suhbatini har doimgi dek samimiy va do'stona ruhda o'tdi.

\* \* \*

**1-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Qozog‘istonning ko‘p millatli xalqini davlat bayrami – Birinchi Prezident kuni bilan samimiy qutlab, tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladi.

Suhbat chog‘ida O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi. Amaliy hamkorlikka oid qo‘shma loyiha va dasturlarni, avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar sohalarda ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

Prezidentlar xalqaro kun tartibini, jumladan, shu oyda O‘zbekiston Respublikasi raisligida bo‘lib o‘tadigan MDH sammitiga tayyorgarlik ko‘rish masalalarini ham muhokama qildilar. Hamdo‘stlik va boshqa mintaqaviy hamda global tuzilmalar doirasidagi yaqin muloqotni davom ettirishga tayyor ekanliklarini ta’kidladilar.

Suhbat so‘ngida qardosh mamlakatlarimiz o‘rtasidagi keng ko‘lamli hamkorlikni rivojlantirishga ikki tomonning ham intilishi qat’iy ekani tasdiqlandi.

\* \* \*

**1-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta’sirini yumshatish bo‘yicha choratadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Afg‘oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G‘ani bilan telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Ikki tomonlama munosabatlarning joriy holati va istiqbollari, mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko‘rib chiqildi.

Suhbat avvalida Prezident Ashraf G‘ani Afg‘onistonning ko‘p millatli xalqi nomidan O‘zbekiston rahbariga afg‘onlararo tinchlik jarayonini har tomonlama qo‘llab-quvvatlayotgani hamda ushbu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, shu jumladan, koronavirusga qarshi kurashish davrida amaliy yordam ko‘rsatayotgani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Prezidentlar ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik sur’ati ortib borayotganini alohida mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Muloqot so‘ngida davlat rahbarlari O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasida do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va keng ko‘lamli sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga intilish qat’iy ekanini yana bir bor tasdiqladilar.

\* \* \*

**2-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo‘lib turgan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining o‘rinbosari Dmitriy Kozak boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Oliy darajadagi samarali muloqot tufayli O‘zbekiston – Rossiya ko‘p

qirrali hamkorligi keyingi yillarda jadal sur'at bilan rivojlanayotgani, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari mustahkamlanib borayotganini davlatimiz rahbari katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Dmitriy Kozak O'zbekiston Prezidentiga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Bo'lajak ikki tomonlama va ko'p tomonlama formatdagi uchrasuvlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish masalalari ko'rib chiqildi. Ushbu tadbirlar kun tartibini aniq amaliy mazmun bilan boyitishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, xalqaro siyosatning ayrim jihatlarini yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**2-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Qahramoni va Xalq shoiri Abdulla Oripov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov tavalludining 80 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ilm-fan va innovatsiyani rivojlantirish borasida oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, tarmoq va hududlar oldidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda oliy ta'lim muassalarida ilmiy tadqiqotlar darajasi o'ta past, ilm va innovatsiya masalalari bo'yicha mas'ul prorektorlar umuman ishlamayotgani qayd etildi. Ilm-fan bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash, ilmiy institutlarga buyurtmalarni shakllantirish bo'yicha dolzarb yo'nalishlar ko'rsatib o'tildi.

Hududlarda xususiy urug'chilik korxonalari tashkil etish, chet eldan bozor bop navlarni olib kelib, mahalliy sharoitlarga moslashtirgan holda, urug' brendlari yaratish zarurligi ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev energetika tarmog'idagi muammolarga alohida e'tibor qaratdi.

Ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikda Muborak, Sho'rta va Gazli konlarida yo'ldosh gazlardan elektr energiyasi olish bo'yicha loyihalar ishlab chiqish zarurligi qayd etildi.

Xorijiy klinikalar bilan hamkorlikda Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida jigar, buyrak, ilik transplantatsiyasini, Respublika kardiologiya markazida yurak bilan bog'liq innovatsion amaliyotlarni yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlandi.

Ilm-fanni ishlab chiqarish bilan bog'lash uchun texnoparklar imkoniyatidan keng foydalanish lozimligi aytilib, bu borada oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari va Innovatsion rivojlanish vazirligiga tegishli ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**3-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**3-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Resurs soliqlari va mol-mulk solig'ini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-dekabr.** Poytaxtimizning Yangi hayot tumanida Toshkent metallurgiya zavodi foydalanishga topshirildi. Shu munosabat bilan o'tkazilgan marosimda O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Shundan so'ng Toshkent metallurgiya zavodi faoliyatiga start beruvchi ramziy tugma bosildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Toshkent metallurgiya zavodidagi texnologik jarayon bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari zavodning shourumida ham bo'lib, bu yerda ishlab chiqariladigan mahsulotlar namunalarini ko'zdan kechirdi. Esdalik uchun daraxt ko'chati ekildi.

Davlatimiz rahbarining ushbu marosimdagi ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**4-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent metallurgiya zavodining ochilishiga bag'ishlangan tantanali tadbirlar doirasida Rossiya Federatsiyasi sanoat va savdo vaziri Denis Manturov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda ustuvor qo'shma dastur va loyihalarning borishi ko'rib chiqildi, amaliy hamkorlikni kengaytirish borasidagi rejalar muhkama qilindi.

\* \* \*

**5-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qoraqalpog'iston Respublikasida suv resurslaridan samarali foydalanish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sudyalarning chinakam

mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat tomonidan tartibga solinadigan sohalarga xususiy sektorni jalb etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 28 yilligi munosabati bilan davlatimiz tomonidan olib borilayotgan gumanistik siyosatning amaliy tasdig'i sifatida «Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan, qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi farmonni imzoladi.

\* \* \*

**7-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 28 yillik bayrami munosabati bilan O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi yo'lladi.

\* \* \*

**9-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida turizm va sport sohalarida amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusi yildagi vazifalar muhokamasi yuzasidan videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilishda koronavirus pandemiyasi sharoitida yondashuvlarni qayta ko'rib chiqib, mamlakatimizning turizm salohiyatini tiklash hamda rivojlantirish chora-tadbirlari muhokama qilindi. Kelgusi yildan xalqaro aviaqatnovlarni bosqichma-bosqich tiklash, yangi reyslarni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatma berildi. Milliy aviakompaniyada chiptalar narxini arzonlashtirish vazifasi qo'yildi.

Davlatimiz rahbari ziyorat turizmida targ'ibot va ilmiy yondashuv yetishmayotganini ta'kidladi. O'zbekistonning chet ellardagi elchixonalari bilan birga bu boradagi ishlarni kengaytirish muhimligi qayd etildi. Ziyorat turizmi bo'yicha salohiyatli davlatlar fuqarolari uchun viza tizimini soddalashtirishga doir takliflar bildirildi.

Yig'ilishda aholini ommaviy sportga keng jalb qilish masalalari ham muhokama qilindi.

Prezidentimiz joylarda sport infratuzilmasini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Xususiy sport inshootlari, vorkaut, mini-futbol, badminton, stritbol maydonlari va fitnes zallari barpo etishga tadbirkorlarni jalb qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**11-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining videoanjuman shaklidagi yig'ilishida ishtirok etdi.

Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko raisligida

o'tgan tadbirda kengashning Faxriy Raisi, Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Talant Mamitov va Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan ishtirok etdi.

Sammit kun tartibiga muvofiq O'zbekiston Respublikasiga YOII huzuridagi kuzatuvchi davlat maqomini berish masalasi ko'rib chiqildi, shuningdek, birlashma doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb jihatlari muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida O'zbekistonning kuzatuvchi maqomini olish to'g'risidagi murojaati qo'llab-quvvatlangani uchun samimiy minnatdorlik bildirib, YOIIning xalqaro nufuzi tobora ortib borayotgani, tashkilotning xorijiy mamlakatlar bilan amaliy hamkorlik geografiyasi keng ekanini alohida ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari mamlakatlirimiz iqtisodiyotlarining ulkan salohiyatidan to'liq hajmda foydalanish, savdo munosabatlaridagi to'siq va g'ovlarni birgalikda bartaraf etish, o'zaro sa'y-harakatlar bilan yangi bozorlarni shakllantirishga chaqirdi.

Davlatimiz rahbari so'zining yakunida barcha sohalarda o'zaro sheriklikni rivojlantirish mamlakatlirimizning milliy manfaatlariga javob berishi, teng huquqlilik, o'zaro foyda va manfaatlarni hisobga olish

prinsiplariga asoslangan bo'lishi lozimligini alohida ta'kidladi.

Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining yig'ilishi yakunida YOII-ga a'zo mamlakatlar yetakchilari O'zbekiston Respublikasiga tashkilot huzuridagi kuzatuvchi davlat maqomini berish to'g'risida bir ovozdan qaror qabul qildilar.

\* \* \*

**11-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi bilan videoanjuman shaklida uchrashuv o'tkazdi.

Sammit kun tartibidan siyosiy muloqotni yanada kengaytirish, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnik, ta'lim, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash masalalari o'rin oldi. Shuningdek, jahondagi vaziyat hamda mintaqaviy hamkorlik istiqboli yuzasidan fikr almashildi.

Bosh vazir Narendra Modi davlatimiz rahbarini O'zbekistonning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga saylangani bilan samimiy tabriklab, ushbu yutuq mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlarning xalqaro e'tirofi ekanini ta'kidladi.

Muzokaralar chog'ida davlat yetakchilari siyosiy sohada tizimli, ishonchga asoslangan muloqotni davom ettirish, jumladan, ikki mamlakat tashqi siyosat idoralarining muntazam maslahatlashuvlarini o'tkazish va ular o'rtasidagi hamkorlikning o'rta muddatli dasturini qabul qilish muhimligini qayd



etdilar. Parlamentlararo hamkorlikni faollashtirish taklifi ilgari surildi.

Savdo-iqtisodiy aloqalarda asosiy maqsad sifatida yaqin yillarda tovar ayirboshlash hajmini 1 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo'yildi.

O'zaro savdo hajmi ortishi uchun qulay sharoit yaratish, bu yo'ldagi texnik to'siq va cheklovlarni bartaraf etish borasida birgalikda ishlashga kelishib olindi.

Samarali transport yo'laklari va logistika infratuzilmasini shakllantirish, aviaqatnovlarni tiklash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shavkat Mirziyoyev va Narendra Modi, shuningdek, Andijon viloyati va Gujarat shtatining muvaffaqiyatli sherikligi misolida hududlararo aloqalarni kengaytirishga kelishib oldilar.

Sammit davomida xavfsizlik va barqarorlikka tahdid solayotgan zamonaviy xatarlarga qarshi kurashishning dolzarb masalalari ham muhokama qilindi. Yaqindan muvofiqlashuv va axborot almashinuvini davom ettirish muhimligi qayd etildi. Tomonlar Afg'onistondagi vaziyatni tez fursatda tinch yo'l bilan tartibga solish borasidagi xalqaro sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlashlarini bildirdilar.

Sammit yakuni bilan tomonlar O'zbekiston Respublikasi va Hindiston Respublikasi o'rtasidagi yaqin do'stlik va mustahkam sheriklik to'g'risida qo'shma bayonot qabul qildilar.

Bundan tashqari, uchrashuv doirasida iqtisodiyot, innovatsiyalar, moliyaviy-texnik ko'mak, bojxona

ishi va savdoni texnik tartibga solish, kadrlar tayyorlash va qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga doir qator ikki tomonlama hujjatlar imzolandi.

\* \* \*

**11-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Ozarbayjon Prezidentini Tog'li Qorabog'da harbiy harakatlar yakunlangani bilan samimiy tabriklab, birodar mamlakatning do'st xalqiga tinchlik va ravnaq tiladi. Tomonlar Janubiy Kavkazning butun hududida xavfsizlik va barqarorlik ta'minlanishiga umid bildirdilar.

Suhbatda ko'p qirrali O'zbekiston – Ozarbayjon munosabatlarining bugungi holati va ularni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

Suhbat yakunida O'zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlari global va mintaqaviy tuzilmalar doirasidagi yaqin muloqotni qo'llab-quvvatlashga kelishib oldilar, shuningdek, bo'lajak oliy darajadagi ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasini ko'rib chiqdilar.

\* \* \*

**11-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Turkmaniston yetakchisi va qardosh turkman xalqini ushbu

mamlakat Betarafligining 25 yilligi bilan samimiy muborakbod etib, tinchlik, farovonlik, taraqqiyot va ravnaq tiladi.

Muloqot chog'ida ikki tomonlama hamkorlikka oid va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

Prezidentlar O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishilgani va bugun ular jadal sur'atda rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Savdo, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo'jaligi, energetika, transport va tranzit, hududlararo rishtalar va gumanitar dasturlar kabi muhim sohalardagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

Davlat rahbarlari jahondagi vaziyat yuzasidan fikr almashdilar, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi an'anaviy yaqin muloqotlarni va o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirishga kelishib oldilar.

Prezidentlar mintaqaviy hamkorlik istiqbollari alohida to'xtaldilar, shuningdek, bo'lajak MDH sammitiga tayyorgarlikni muhokama qildilar.

\* \* \*

**11-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan O'zbekiston qishloq xo'jaligi xodimlariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**12-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mahallabay tizimda yo'lga qo'yilgan islohotlarning odamlar hayotidagi ifodasini ko'rish, navbatdagi rejalarni belgilash, qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalarini faoliyati bilan tanishish maqsadida Xorazm viloyatiga tashrif buyurdi.

Dastlab davlat rahbari Xonqa tumanidagi innovatsion issiqxonani borib ko'rdi. Issiqxonada Niderlandiyaning «Kubo» kompaniyasida ishlab chiqarilgan «Ultra clima» nou-xau texnologiyasi keltirib o'rnatilgan.

Shu yerda qishloq xo'jaligida amalga oshiriladigan loyihalar taqdimoti o'tkazildi. Tumanlarni ixtisoslashtirish, yangi yerlarni o'zlashtirish, yomg'irliq sug'orish tizimini joriy qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangiariq tumanidagi «Yantex Invest» korxonasida gazlama ishlab chiqarish loyihasi bilan tanishdi.

Prezident yangi korxonadagi to'quv jarayonini ko'zdan kechirdi. Shu yerda Xorazm viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mahallabay ishlash bo'yicha yangi tizimni yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi.

Prezidentimiz islohotlarni eng quyi bo'g'inga yetkazishda mahal-

laning vazifalari nimadan iborat ekanini mahalla raislari tugul tuman hokimlari ham yaxshi tushunmasligini tanqid qildi.

Mutasaddilarga ushbu tizimni hayotga tatbiq etish, Davlat boshqaruvi akademiyasi tomonidan mahalla raislarini shu bo'yicha o'qitish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Urganch shahridagi texnoparkka tashrif buyurdi.

Bu yerda zarur muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari mavjud. «Oq oltin mega tekstil» mas'uliyati cheklangan jamiyati texnoparkda amalga oshirilgan birinchi loyiha. Davlatimiz rahbari korxonada faoliyati bilan tanishdi, bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ko'zdan kechirdi, mutaxassis va tikuvchilar bilan suhbatlashdi.

Shu yerda Xiva shahri va Gurlan tumani misolida infratuzilmani yaxshilab, turizm va tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish loyihalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Urganch shahridagi «UzXCMG» qo'shma korxonada amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi.

Prezident qo'shma korxonadagi ishlab chiqarish jarayonini ko'zdan kechirdi. Mutaxassislar bilan ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi tarmoqlarni tashkil etish va buning uchun hamkor vazirliklar bilan birgalikda zamonaviy texnikalarni ishga tushirish borasidagi loyihalar haqida suhbatlashdi, zarur topshiriqlar berildi.

Shu yerda hududdagi turli ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulotlari taqdimoti o'tkazildi.

Tashrifning ikkinchi kuni Urganch shahrida viloyat faollari va tarmoqlar mutasaddilari ishtirokida yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishda viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalar tanqidiy ko'rib chiqildi.

Prezident yig'ilishda xorazmlik yoshlar bilan alohida suhbatlashdi. Har birini eshitib, takliflari bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Urganch shahrining Xonqa ko'chasida bunyod etilayotgan yangi uylarni borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari uyning shourumini kirib ko'rdi. Mebellar, muhandislik tarmoqlarining sifatiga e'tibor qaratdi. Ko'p qavatli uylarga malakali xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Shu yerda Xorazmda amalga oshiriladigan bunyodkorlik ishlari, xususan, Urganch shahrida yangi uylar, «Binary» xalqaro universiteti uchun yangi bino barpo etish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, ko'prik qurish, kommunal xizmatlarni yaxshilash bo'yicha loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyatiga tashrifi yakunlandi.

\* \* \*

**14-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida qish mavsumiga tayyorgarlikda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni hal etish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Majlisda sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish, energiya resurslari ta'minotini yaxshilash choralari muhokama qilindi.

Davlat rahbari gaz eksportini qisqartirib, avvalo, aholi ehtiyojlarini ta'minlash yuzasidan ko'rsatma berdi. Joylarda tabiiy gaz va ko'mir ta'minotida noqonuniy harakatlarga yo'l qo'yilayotgani bilan bog'liq e'tirozlar ham borligi qayd etildi.

Yig'ilishda yana bir dolzarb masala – aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash vazifalari atroflicha muhokama qilindi. Narx-navoning oshishi keskin tanqid qilindi. Buning oldini olish bo'yicha qator topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**17-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Hududlarda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining videoanjuman shaklidagi majlisi bo'lib o'tdi.

Sammit ishida Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Moldova Respublikasi Prezidenti Igor Dodon, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchisi Talant Mamitov, MDH Ijroiya qo'mitasi raisi – Ijrochi kotibi Sergey Lebedev va Hamdo'stlik Parlamentlararo assambleyasi kengashi raisi Valentina Matviyenko ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida O'zbekiston Respublikasi bu yil Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga raislik qilishdek sharaflil va mas'uliyatli vazifani ilk bor o'z zimmasiga olganini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev tashkilot doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga doir qator takliflarni ilgari surdi.

Davlat rahbarlarining nutqlarida iqtisodiyot, transport, xavfsizlik, gumanitar sohalarda aloqalarni chuqurlashtirish, MDHda tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Sammit yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, pandemiya oqibatlarini bilan bog'liq barcha qiyinchiliklarga qaramay, birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali Hamdo'stlik yangi voqelikka samarali moslashishga qodirligini namoyish etdi.

\* \* \*

**21-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Prezidentlar ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarida yuqori darajaga erishilganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Davlat rahbarlari sanoat kooperatsiyasi bo'yicha yangi loyihalarni ilgari surish uchun Hukumatlararo qo'shma komissiya ishini faollashtirish lozimligini ta'kidladilar.

Madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi faol muloqotlarni davom ettirishga, bunda ikki xalq taniqli san'at va fan arboblarning keng ishtirokida mamlakatlarimizda qo'shma tadbir va forumlar tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidentining Xalqaro tinchlik va ishonch yili doirasida yuqori darajadagi Ashxobod konferensiyasini o'tkazish tashabbusini qo'llab-quvvatladi. Bo'lajak tadbirda O'zbekiston Respublikasining delegatsiyasi ishtirok etishi to'g'risida kelishuvga erishildi.

Suhbat yakunida Prezidentlar kirib kelayotgan Yangi yil bilan bir-birlarini samimiy qutlab, mamlakatlarimizning qardosh xalqlariga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

\* \* \*

**21-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga (Kioto, 1973-yil 18-may, 1999-yil 26-iyunda qabul qilingan o'zgartirishlar bilan) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**23-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mulkdorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatlari yanada kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**23-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev investitsiyalar va tashqi savdo sohasidagi ishlar natijadorligi hamda 2021-yilga mo'ljallangan asosiy vazifalar muhokamasi bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari investitsiyalar jalb qilish, o'zlashtirish va eksport prognozlarini ta'minlash, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun aniq, manzilli choralar ko'rish zarurligini ta'kidladi.

Bunda asosiy drayver sohalar bo'lgan kimyo, energetika, mashinasozlik, geologiya, elektrotexnika, farmatsevtika va yengil sanoat tarmoqlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Mutasaddilarga eksport shartnomalarini tuzish, Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan eksportoldi moliyalashtirish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**25-dekabr.** Poytaxtimizdagi muhtasham «Humo Arena» muz saroyida O'zbekiston yoshlari forumi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Oliy Majlis Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari vakillari, iqtidorli yoshlar jam bo'ldi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar yoshlari maxsus studiyalar orqali forumda onlayn ishtirok etdi.

Tadbirda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, mamlakatimizda birinchi bor o'tkazilayotgan ushbu anjuman bilan barchani tabrikladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu tantanali tadbirdagi ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**25-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**25-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respub-

likasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-dekabr.** Bu yilgi pandemiya keltirgan qiyin vaziyatda ham mamlakatimizdagi bunyodkorlik ishlari aslo to'xtab qolmadi. Mustaqillik bayrami arafasida Toshkent yer usti metrosining birinchi bosqichi bitkazilgan edi. Uning yana bir muhim bo'g'ini – Sergeli yo'nalishi ishga tushirildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu transport obyektni borib ko'rdi. Shu yerda davlat va jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan muloqot bo'ldi.

Davlatimiz rahbari jamoatchilik vakillari bilan birga poyezdda yurib, yo'lovchilar uchun yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Poytaxtimizda aholi zich yashaydigan Qoraqamish, Ibn Sino, Toshkent traktor zavodi mavzalarida jamoat transporti tizimini yaxshilash, avtobus yo'nalishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yer usti metrosi tagidagi sport maydonchasi ham ko'zdan kechirildi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Sergeli tumani Qipchoq ko'chasida qurilgan ko'prikn borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari obyektning sifati, shaharda transport tizimini

yaxshilashdagi ahamiyatiga alohida e'tibor qaratdi.

Shu yerda Turkiyaning «Kalyon» kompaniyasi bilan hamkorlikda poytaxtimizdagi avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish, transport va yo'lovchilar harakati uchun qulayliklarni oshirish loyihalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**28-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning qator farmonlariga muvofiq, Vatanimiz mustaqilligining 29 yilligi arafasida bir guruh yurtdoshlarimiz faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlangan edi.

Ko'ksaroy qarorgohida mukofotlarni topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari mukofotlangan barcha vatandoshlarimizga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**29-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomani taqdim etdi.

Poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida bo'lib o'tgan tadbirda Oliy Majlis Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, davlat tashkilotlari rahbarlari, jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Prezidentimiz karantin talablariga rioya qilib yashagan va mehnat qilgan olijanob xalqimizga, o'ta xavfli virus bilan kecha-yu kunduz mardona kurashgan jonkuyar shifokorlarga, qiyin damda yordamga muhtoj aholiga ko'mak bergan tadbirkorlar, xorijiy hamkorlarga minnatdorlik bildirdi.

Ma'lumki, Prezidentimiz taklifi bilan 2020-yil mamlakatimizda Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e'lon qilingan edi.

Murojaatnomada davlatimiz rahbari bu haqda alohida to'xtalib o'tdi.

Davlatimiz rahbari yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini bilimli va bunyodkor yoshlar bilan birgalikda barpo etish, ana shu muhim yo'nalishlarda boshlagan ishlarni davom ettirish va yangi, yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida – 2021-yilga mamlakatimizda Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili, deb nom berishni taklif etdi. Prezidentimizning ushbu taklifi tadbir ishtirokchilari tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**30-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti vazifasini bajaruvchi Talant Mamitov bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat chog'ida Prezidentlar mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik,

strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga bundan buyon ham qat'iy intilishlari va bu borada birgalikdagi sa'y-harakatlarni davom ettirishlarini tasdiqladilar.

Telefon muloqotlari har doimgidek samimiy, ochiq va do'stona ruhda o'tdi.

\* \* \*

**30-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**30-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Budjet jarayoni takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**31-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining «2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**31-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari kirib kelayotgan yangi 2021-yil munosabati bilan bir-birlarini samimiy tabriklab, mamlakatlarimizning birodar xalqlariga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

Prezidentlar koronavirusning global miqyosda tarqalishi va jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'siri bilan bog'liq murakkab sharoitda O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik va ko'p qirrali sheriklikni izchil rivojlantirishga erishilganini alohida ta'kidladilar.

Davlat rahbarlari O'zbekiston – Turkiya munosabatlarining butun salohiyatini samarali ishga solish va keng ko'lamli hamkorlikni rivojlantirish lozimligini qayd etdilar.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi. 2021-yilgi ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasi ko'rib chiqildi, ularga puxta tayyorgarlik ko'rish bo'yicha birinchi galdagi choralar belgilab olindi.

\* \* \*

**31-dekabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga Yangi yil tabrigi e'lon qilindi.



# 2021-yil

**11-yanvar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Markaziy harbiy okrugning artilleriya brigadasini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari askarlarning o'quv mashg'ulotlarini ko'zdan kechirdi. Harbiy bilim va ko'nikmalarni maktab davridanoq to'g'ri yo'lga qo'yish, harbiy bilim yurtlari bilan harbiy okruglar o'rtasidagi aloqani kuchaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Shavkat Mirziyoyev harbiy qismdagi tibbiyot punktini kirib ko'rdi. Bu yerda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga malakali xizmat ko'rsatilmoqda.

Mudofaa vazirligining zaxirasi sifatida har biri 500 o'rinli ikkita mobil gospital tashkil etish bo'yicha topshiriq berildi. Shundan so'ng davlatimiz rahbari «Forish» tog' poligonida Mudofaa vazirligi qo'shinlarining jangovar tayyorgarligi bilan tanishdi.

Poligon hududida qurilgan obyektlar haqida dastlab joy maketi orqali ma'lumot berildi. Davlatimiz rahbari harbiylar yotoqxonasi, suzish havzasi, sport zalidagi sharoitlar bilan tanishdi. Markaziy va Sharqiy harbiy okruglarning regbi bo'yicha terma jamoalari musobaqasini kuzatdi.

Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni harbiy xizmatchilar bilan bir dasturxon atrofida samimiy suhbatlashdi. Iste'dodli askarlar baxshichilik san'atidan namunalar ijro etdi.

Davlatimiz rahbari «Forish» tog' poligonida qo'shinlar ixtiyoridagi zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnikalarni ko'zdan kechirdi.

Shundan so'ng Markaziy harbiy okrug qo'shinlarining shartli dushmani yo'q qilish bo'yicha jangovar mashg'ulotlari, harbiy muhandislik amaliyotlari namoyish qilindi.

Shu yerda shaxsiy tarkib bilan muloqot bo'ldi. Prezidentimiz ke-yingi yillarda harbiy sohada amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar natijasida mustaqilligimiz, hududiy daxlsizligimizning ishonchli qalqoni bo'lgan milliy armiyamiz yildan yilga takomillashib, askar va ofitserlarning bilimi, kuch-qudrati va salohiyati oshib borayotganini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari harbiylarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan tabrikladi.

Prezident qo'shinlarning jangovar qobiliyati va tayyorgarligini muntazam oshirib borish yuzasidan mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari Toshkentga qaytib keldi.

\* \* \*

**11-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Dastlab 2021-yilda tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan yirik investitsiya loyihalari to'g'risida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, oqilona joylashtirish, sanoat infratuzilmasini yaxshilash, klaster va texnoparklar tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari taqdimot qilingan loyihalarni belgilangan muddatlarda va sifatli, zamon talablariga mos ravishda amalga oshirish bo'yicha qator topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**11-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qirg'iz Respublikasining saylangan Prezidenti Sadir Japarov bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Sadir Japarovni bo'lib o'tgan Prezident saylovidagi ishonchli g'alabasi hamda Qirg'iziston Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha referendumning muvaffaqiyatli o'tkazilgani bilan tabrikladi.

O'z navbatida, Sadir Japarov O'zbekiston Prezidenti va ko'p millatli xalqiga zamonaviy xatarlarni yengib o'tishda va koronavirus pandemiyasi oqibatlariga qarshi kura-

shishda qardosh Qirg'izistonga ko'rsatilayotgan ko'mak uchun minnatdorlik bildirdi.

Telefon muloqoti chog'ida ikki tomonlama munosabatlar va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston – Qirg'iziston ko'p qirrali hamkorligini rivojlantirish borasida avval erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish muhim ekani alohida ta'kidlandi.

Hukumatlararo komissiyalar ishini faollashtirish, shuningdek, hamkorlikning muhim yo'nalishlari bo'yicha qator tadbirlar o'tkazishga kelishib olindi.

Xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy tuzilmalar doirasida aniq va konstruktiv muloqotni davom ettirish va o'zaro qo'llab-quvvatlashdan ikki tomon ham manfaatdor ekani ta'kidlandi.

\* \* \*

**11-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Olis hududlardagi budjet tashkilotlariga malakali mutaxassislarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Namangan viloyatining Kosonsoy, Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida meva-sabzavotchilik va uzumchilikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi

Qurolli Kuchlari tashkil topganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni arafasida Qurolli Kuchlar akademiyasiga tashrif buyurdi.

Davlat rahbari o'quv muassasasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va u yerda yaratilgan ta'lim infratuzilmasi obyektlari, shuningdek, Qurolli Kuchlarimizning zamonaviy qurol va harbiy texnika namunalari hamda milliy mudofaa sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan tanishdi.

Shundan so'ng Akademiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni raisligida Qurolli Kuchlar va harbiy-ma'muriy sektorlar faoliyatining 2020-yil yakunlari hamda kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Xavfsizlik kengashi a'zolari, Qurolli Kuchlarning rahbar va qo'mondonlik tarkibi, joylardagi davlat hokimiyati organlari rahbarlari hamda jamoat tashkilotlari vakillari ishtirok etdi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini yanada oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar, Qurolli Kuchlarni rivojlantirish yo'lidagi sa'y-harakatlar va ularning natijalari batafsil sarhisob qilindi. Vazirlik va idoralar hamda joylardagi davlat hokimiyati organlarining ushbu yo'nalishdagi faoliyatiga tanqidiy baho berildi.

Majlisda davlatimiz rahbari Qurolli Kuchlarni rivojlantirish va mamlakat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash hamda bu borada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or innovatsiyalarni keng tatbiq etish bo'yicha muhim ko'rsatmalar berdi.

Harbiy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda harbiy ilmni rivojlantirish borasida Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan harbiy mojarolar va zamonaviy jang amaliyotlarini hamda milliy harbiy san'at tarixini chuqur o'rganib, qo'shinlarning tayyorgarlik usul va uslublarini yanada takomillashtirish vazifasi qo'yildi.

Tadbir yakunida davlatimiz rahbari Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, birinchi navbatda, xalqimizning xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan yangi O'zbekistonni barpo etishning bosh talabi ekanini ta'kidladi.

\* \* \*

**12-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-yanvar.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar

Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan askar va serjantlar, ofitser va generallar, Qurolli Kuchlarimizning faxriylari, barcha yurtdoshlarimizga bayram tabrigi yo'lladi.

\* \* \*

**13-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mashinasozlik tarmog'ini transformatsiya qilish va sohada raqobatni rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Mazkur tarmoq mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi yo'nalishlaridan bo'lib, bugungi kunda bir qator kompaniyalar O'zbekistonda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish va investitsiyalar olib kirish istagini bildirmoqda. Shu bois, davlatimiz rahbari lokalizatsiya darajasidan kelib chiqib, ishlab chiqaruvchilar uchun bir xil sharoitlar joriy etish bo'yicha ko'rsatma berdi. Bunda, avtomobillarni sanoat usulida yig'ish, yiliga 50-60 mingta hamyonbop avtomashina va elektromobillar ishlab chiqarishga investitsiya kiritish zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda qishloq xo'jaligi mashinasozligini isloh qilish masalasi ham atroflicha muhokama etildi. Tarmoqda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha vazifalar belgilandi.

\* \* \*

**14-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmonlariga muvo-

fiq, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhi harbiy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlangan edi. Ana shu yuksak mukofotlarni topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni yig'ilganlarni, barcha harbiylarni, ularning oila a'zolarini bayram bilan muborakbod etdi.

Marosimda Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, bojxona tizimi va ichki ishlar organlari xodimlari ishtirok etdi.

Oliy Bosh Qo'mondon yig'ilganlar timsolida bugun joylarda yuksak davlat mukofotlarini qabul qilib olayotgan barcha harbiy xizmatchilarni samimiy tabrikladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev unvon to'g'risidagi guvohtonmalarni, orden va medallarni tantanali ravishda topshirdi. Vatan himoyachilariga sihat-salomatlik, zimmasidagi olijanob vazifalarni samarali ado etishda ulkan zafarlar tiladi.

\* \* \*

**14-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yer uchastkalarini

noqonuniy olib qo‘yganlik uchun javobgarlik kuchaytirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, korxonalar faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab shahar markazidagi Islom Karimov ko‘chasida Oliy Majlis Senati uchun hozirlanayotgan 6 qavatli binoning rekonstruksiya ishlarini ko‘zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari poytaxtimizning Chilonzor tumanida ishga tushirilgan «Gold Moon Tashkent» mas’uliyati cheklangan jamiyatga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari korxonadagi ishlab chiqarish jarayonini ko‘zdan kechirib, xodimlar bilan muloqot qildi.

Prezidentimiz respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazidagi qurilish ishlari bilan ham tanishdi.

Hududlarda faoliyat yuritayotgan shifokorlarni ushbu markazda o‘qitib, malakasini oshirish, davolanish uchun moddiy imkoniyati yo‘q bemorlarni davlat himoyasiga olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari Yunusobod tumanidagi «Yangibog‘» mahalla fuqarolar yig‘inida bo‘ldi.

Shu yerda Yunusobod tumanidagi mahallalar faollari bilan muloqot bo‘ldi.

Ko‘p qavatli uylarga sifatli xizmat ko‘rsatuvchi boshqaruv kompaniyalari tashkil etish, ichki yo‘llarni ta‘mirlash, maishiy xizmatlarni ko‘paytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri tumanlarining hokim va sektor rahbarlari, Yunusobod tumani mahalla raislari, yoshlar bilan muloqot qildi.

Yig‘ilishda mahalla raislari o‘z hududidagi muammolarni bartaraf etish, sharoitlarni yaxshilash, yangi korxonalar tashkil qilish bo‘yicha takliflarini aytdi. Davlatimiz rahbari bu bo‘yicha tegishli mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**18-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida islohotlar samarasini har bir inson o‘z hayotida his etishi uchun hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta‘minlash lozimligini ta‘kidlagan edi. Shu bois Adliya vazirligiga qabul qilingan hujjatlarni mas’ullarga yetkazish, amaliyotda qo‘llashga ko‘maklashish va nazorat

qilish bo'yicha yangi tizim joriy etish vazifasi topshirilgan edi.

Prezident huzurida o'tkazilgan yig'ilishda amaldagi holat tahlili va ilg'or xorijiy tajribadan kelib chiqib, samarali ijro tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda 4 bosqichli samarali ijro tizimini tashkil etish choralari muhokama qilindi. Bular ijroni loyiha bosqichida rejalashtirish, ijroni tashkil etish va ko'maklashish, ijroni baholash, ijroni nazorat qilishdir.

Prezidentimiz qabul qilinayotgan hujjatlar xalq manfaatiga qaratilganini, shuning uchun ularning mazmunini aholiga yetkazish zarurligini ta'kidladi.

Mutasaddilarga joylarga chiqib, qarorlar ijrosi yuzasidan manzilli va tematik o'rganishlar o'tkazish bo'yicha topshiriq berildi.

\* \* \*

**19-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda qayd etilganidek, ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etmoqda. Shuning uchun Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi ishini tanqidiy o'rganib chiqib, faoliyatini tubdan takomillashtirish zarurligi aytiladi.

Prezidentimiz ushbu markazning «Ma'naviyat targ'ibotchisi» o'quv

muassasasi negizida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutini tashkil etish taklifini bildirdi.

Bundan buyon Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi barcha hududiy kengashlarning, vazirlik, idora va tashkilotlarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini muvofiqlashtirib borishi belgilandi.

Hududlar markazida namunaviy loyiha asosida ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini barpo etish, mahalliy budjetlar hisobidan sohaga qo'shimcha shtatlar ajratish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Mutasaddilarga O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

O'zbek tilining davlat tili maqomini kuchaytirish, yurtimizda va xorijda uni o'rganish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yuzasidan ko'rsatma berildi.

Milliy g'oya targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatda adabiyot va kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida «Ijod» jamoat fondi negizida Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash fondi tashkil etilishi qayd etildi.

Shu yildan boshlab ma'naviyat va ma'rifat sohasi ixtisosliklarini fanlar klassifikatoriga kiritish, bu yo'nalish bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**20-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida»gi

O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**21-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'rmon xo'jaligi sohasida ilm-fanni rivojlantirish va ilmiy tadqiqot ishlarini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**21–22-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlar rivoji, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida Buxoro viloyatiga keldi.

2020-yil 27-aprel kuni Buxoro viloyatining qator tumanlari tabiiy ofatdan zarar ko'rgan edi. Bu galgi safar chog'ida Prezident bu yerda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari qamrovini ko'zdan kechirdi. Xususan, Olot, Qorako'l, Jondor, Romitan, Peshku va Shofirkon tumanlarida 45 mingta uy, 204 ta ko'p qavatli turar joy ta'mirlangan. Mingdan ortiq ijtimoiy soha va tadbirkorlik obyektlari, yo'llar, elektr, gaz va aloqa tarmoqlari tiklangan.

Davlatimiz rahbariga hududlarda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishga oid loyihalar taqdim qilindi. Shuningdek, Olot va unga qo'shni tumanlarda amalga oshirishi rejalashtirilgan arxitektura-qurilish, xususan, tuman markaziy ko'chalarini rekonstruksiya qilish, aholi uchun zamonaviy ko'p qavatli uylar qurish loyihalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Olot tumani markazida

Olot, Qorako'l, Jondor va Shofirkon tumanlari faollari, mahalla raislari bilan uchrashdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Buxoro tumanidagi «Buxoro Varnet» majmuasining yangi imkoniyatlari bilan tanishdi.

Shu yerda 2021-yil uchun Buxoro viloyatida agrar va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish bo'yicha taqdimot o'tkazildi.

Buxorodagi «BCT Cluster» paxta-to'qimachilik klasteri O'zbekistondagi qaldirg'och klaster hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari klasterga qarashli «Bukhara Cotton Textile» to'qimachilik korxonasi bordi. Korxonada o'zida paxta yetishtirishdan tortib, uni chuqur qayta ishlashgacha bo'lgan barcha texnologik zanjirlarni to'liq birlashtirgan.

Prezident korxonadagi ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishdi, tayyor mahsulot namunalarini ko'zdan kechirdi.

Shu yerda 2021–2022-yillarga mo'ljallangan Buxoro viloyatida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari, yoshlar bandligini ta'minlash rejalari taqdimoti o'tkazildi.

Yoshlarni kasbga yo'naltirish, tadbirkorlikka o'qitish, biznesi va hunarmandchiligini ochishga ko'maklashib, bandligini oshirish choralari muhokama qilindi.

Shavkat Mirziyoyev Buxoro shahridagi davlat xizmatlari markazi va IT-Parkni borib ko'rdi.

Prezidentimiz buxorolik yoshlarning salohiyatini yuksak baholab, bu soha mamlakatimiz taraqqiyoti uchun juda muhim ekanini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari IT-Parkdagi yoshlar bilan esdalik uchun suratga tushdi.

Prezidentimiz 22-yanvar kuni erta tongda Bahouddin Naqshband maqbarasini ziyorat qildi. O'tganlar xotirasiga Qur'on tilovat qilindi.

Buxoro shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda joylardagi muammo va imkoniyatlarni mahalla darajasida o'rganish, aholi bandligi va daromadini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi ish tizimi joriy etilishi ta'kidlandi.

Sessiyada infratuzilmani rivojlantirish, ichimlik suvi va oqova tarmog'ini yaxshilash, yo'llar qurish va ta'mirlash bo'yicha ham vazifalar belgilandi.

Prezidentimiz Buxoro shahrining Nizomiy mahallasida qurilgan zamonaviy uylarni borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari xalqimiz mana shunday zamonaviy sharoitlarda yashashga munosib ekanini ta'kidladi.

Shu yerda Buxoro viloyatida avtomobil yo'llari qurish va ta'mirlash, eski ko'p qavatli uylar qiyofasini yangilash rejalari haqida axborot berildi.

Shu bilan Prezidentimizning Buxoro viloyatiga safari yakunlandi.

\* \* \*

**25-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni Podshohligi investitsiyalar vaziri Holid al-Falih boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston – Saudiya ko'p qirrali munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlik jadal rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Vazir Saudiya kompaniyalarining investitsiya loyihalari qo'llab-quvvatlanayotgani va ularning mamlakatimizda samarali faoliyat yuritishi uchun yaratilgan qulay sharoitlar uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Muzokaralar chog'ida amaliy hamkorlikning aniq loyihalari muhkama qilindi.

Energetika, neft-gaz, gaz-kimyovo kimyo, sanoat, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida, sog'liqni saqlash, farmatsevtika sohalari va boshqa yo'nalishlarda, shu jumladan, davlatxususiy sheriklik prinsiplarini joriy qilish asosida yangi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

\* \* \*

**25-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev sanoat va logistika sohasiga oid investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni sifatli amalga oshirish uchun ularni ekspertizadan o'tkazish bo'yicha topshiriq berdi. Bu tizimni tarmoqlar va hududlar kesimida ham tatbiq etib, investitsiya loyihalarining tayyorlanishi va bajarilishini baholab borish, quyi bo'g'indagi mutaxassislariga ko'maklashish zarurligini ta'kidladi.



\* \* \*

**26-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yilda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, 2021-yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti kamida 5 foiz o'sishi maqsad qilingan. Biroq global iqtisodiyotdagi noaniqlik uzoq davom etishi mumkinligi iqtisodiy o'sishning qo'shimcha zaxiralarini topish va safarbar qilishni talab etmoqda.

Shu bois Prezidentimiz barcha darajadagi rahbarlarga o'z sohasi bo'yicha mahallalardagi holatni o'rganish, «o'sish nuqtalari»ni aniqlab, ularni rivojlantirish vazifasini qo'ymoqda.

Yig'ilishda shu boradagi chora-tadbirlar va ularni amalga oshirish mexanizmi muhokama qilindi. Iqtisodiy kompleks vakillarini mahallaga tushirib, vertikal tizimni, barcha organlar faoliyatini o'zaro muvofiq yo'lga qo'yish kerakligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda investitsiya loyihalari ijrosiga ham to'xtalib o'tildi. Joriy yilgi Investitsiya dasturi doirasida 1 ming 752 ta obyekt uchun qariyb 18 trillion so'm budjet mablag'lari ajratilgan. Bu mablag'lardan oqilona foydalanish, loyiha hujjatlarini puxta ishlab chiqish va qurilishlar sifatini ta'minlash bo'yicha qat'iy ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**27-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlar band-

ligini ta'minlash va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan video-selektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda yoshlar bilan ishlash bo'yicha yangicha tizimni joriy etish borasidagi dolzarb vazifalar muhokama qilindi.

Yoshlar bandligini ta'minlash omillaridan biri ularni talab etilayotgan kasb bo'yicha ixtisoslashtirishdir. Yig'ilishda shu paytgacha ishsiz aholi va bo'sh ish o'rinlari o'zaro uyg'unlikda ko'rib chiqilmagani tanqid qilindi.

Tadbirkorligini boshlamoqchi bo'lgan yoshlarning mini-texnologiya va uskunalar xarid qilishi uchun subsidiya ajratish, kredit olishda sug'urta to'lovi bo'yicha ko'maklashish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, qobiliyatini yuzaga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratish masalalari ham muhokama qilindi.

Musiq va san'at maktablari, madaniyat markazlari, muzeylar qurish hamda ta'mirlash orqali ularda yoshlar qamrovini 30 foizga yetkazish maqsadi belgilandi.

Yig'ilishda yoshlarning ijtimoiy masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda 129 ta oliy o'quv yurtida 500 mingdan ortiq talaba o'qiyotgani, lekin ular yotoqxon bilan yetarlicha ta'minlanmagani ko'rsatib o'tildi. Mutasaddilarga talabalar uylarini ko'paytirish bo'yicha topshiriq berildi.

\* \* \*

**28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Intellectual mulk ob-

yektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje In bilan videoan- juman shaklida uchrashuv o'tkazdi.

Muzokaralar kun tartibidan O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik va alohida strategik sheriklik rishtalarini rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari o'rin oldi.

Oliy, kasb-hunar va maktabgacha ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniy meros obyektlarini raqamlashtirish va restavratsiya qilish sohalaridagi hamkorlikning joriy va istiqbolli dasturlari ko'rib chiqildi.

Prezidentlar O'zbekiston hududlarida Janubiy Koreya yetakchi universitetlarining filiallari va kadrlarni professional tayyorlash bo'yicha qo'shma markazlar soni ortib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Iqtisodiy sohada O'zbekiston va Koreya hukumatlari va idoralari darajasida yo'lga qo'yilgan samarali ishlar qayd etildi. Prezidentlar investitsiya loyihalarini ilgari surish va yuzaga keladigan masalalarni tezkor hal qilish maqsadida ushbu muloqotlarni davom ettirish topshirig'ini berdilar.

Sammit chog'ida global va mintaqaviy ahamiyatga ega masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Prezidentlar do'stlik va keng ko'lamli sheriklik aloqalarini mustahkamlash, birodar mamlakatlarimiz va

xalqlarimiz farovonligi yo'lida o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishda qat'iy ekanliklarini yana bir bor tasdiqladilar.

\* \* \*

**29-yanvar.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurib, bu yerda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Markaz ekspozitsiyalari bo'yicha xalqimiz fikrini ham o'rganish, shu maqsadda tanlov e'lon qilib, eng yaxshi g'oya va takliflarni aks ettirish zarurligi ta'kidlandi.

UNESCO, ISESCO kabi xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlar bilan hamkorlikni rivojlantirish muhimligi qayd etildi.

Markaz uchun malakali gid-tarjimonlar tayyorlash, ularning mamlakatimizda islom dini yoyilishi va ilm-fan rivoji bo'yicha ixtisoslashtirish vazifasi qo'yildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Islom sivilizatsiyasi markazining qurilish jarayonini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari har bir yo'lak va xonaga kirib, ularni pardoqlash va jihozlashga oid loyihalarni ko'rdi. Markazning ichki va tashqi ko'rinishi, naqshlari yuzasidan tavsiyalar berildi. Xonalarni ko'plab sayyohlar, delegatsiyalar kelishi, xalqaro konferensiyalar o'tkazilishini inobatga olib zamonaviy jihozlash, ekspozitsiyani turli yoshdagi insonlarga mos holda tayyorlash zarurligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari shu yerda olimlar, ziyolilar, nuroniylar va mahalla raislari bilan suhbatlashdi.

\* \* \*

**30-yanvar.** O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tavallud topgan kun. Har yili bu sanani nishonlash, marhumni xotirlash ezgu an'anaga aylangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev shu kuni Toshkent shahridagi Islom Karimov haykali poyiga gulchambar qo'yib, Birinchi Prezidentimiz xotirasiga hurmat ko'rsatdi.

Qur'on oyatlari tilovat qilindi. Islom Karimovning ezgu ishlari, olijanob insoniy fazilatlari yodga olindi.

Islom Karimov tug'ilib o'sgan va mangu orom topgan Samarqand shahrida ham xalqimizning buyuk farzandi tavallud kuni keng nishonlandi.

Qarshi shahrida ham buyuk Yo'l-boshchimiz haykali poyi gullarga burkandi.

Mamlakatimizning barcha hududlarida Birinchi Prezidentimiz tavallud kuniga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, xotira kechalari o'tkazildi.

\* \* \*

**1-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev investitsiya sohasiga doir avvalgi topshiriqlar ijrosi va yangi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari ushbu loyihalar avvalo ish o'rinlari yaratish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Iqtisodiy kompleks idoralari ishni mahallalar darajasida tashkil etishi, tijorat banklari joylarda yuqori

samarali loyihalarni amalga oshirib, ayniqsa, yosh tadbirkorlarga keng yo'l berishi kerakligi qayd etildi.

Taqdimotda Toshkent shahrining Yangihayot tumanida tashkil etilgan sanoat zonasi hududida istiqbolli loyihalarni amalga oshirish rejalari ham tanishtirildi.

\* \* \*

**2-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Afg'oniston Islom Respublikasining delegatsiyasi – mamlakat tashqi ishlar vaziri Muhammad Hanif Atmar va Prezident Administratsiyasi rahbari Muhammad Shokir Korgarni qabul qildi.

Uchrashuvda ko'p qirrali O'zbekiston – Afg'oniston hamkorligini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari ikki tomonlama munosabatlarning bugungi sur'atini saqlab qolish va avval erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish muhim ekanini alohida ta'kidladi.

O'zbekistonning Afg'onistonda tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan qat'iy sa'y-harakatlari uchun chuqur minnatdorlik bildirildi.

Toshkent shahrida yetakchi xalqaro moliyaviy institutlar rahbarlari ishtirokida o'tgan Transafg'on temiryo'lini qurish loyihasi bo'yicha uch tomonlama ishchi guruh birinchi yig'ilishining samarali yakunlari yuksak baholandi.

Uchrashuvda tomonlar ushbu loyihani tez fursatda tayyorlash va amalga oshirishni boshlash, qabul qilingan «yo'l xarita»si asosida xorijiy hamkorlar va salohiyatli

investorlarni faol jalb qilish muhim ekanini ta'kidladilar.

\* \* \*

**2-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi Abdul Razzoq Dovudni qabul qildi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari yuzasidan fikr almashildi.

Abdul Razzoq Dovud O'zbekiston Prezidentiga uchrashuv tashkil etilgani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi hamda Pokiston Bosh vaziri Imron Xonning salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Maslahatchi Afg'oniston hududi orqali Markaziy va Janubiy Osiyoni eng qisqa yo'l bilan bog'laydigan, Pokistonning dengiz portlariga chiqishni va ularning infratuzilmasi samarali ishga solinishini ta'minlaydigan temiryo'l qurish loyihasini ilgari surish to'g'risidagi tashabbus Pokistonda yuksak baholanib, qo'llab-quvvatlanayotganini qayd etdi.

Avtomobil va havo transportida yuk tashishlarni rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish, preferensial savdo to'g'risidagi bitimni tayyorlash, bojxona ishi sohasida tajriba almashish, ishbilarmonlar o'rtasidagi muloqotni faollashtirish va ishbilarmonlik tadbirlarini o'tkazish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

\* \* \*

**2-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizdagi siyosiy partiyalar rahbarlari bilan uchrashdi.

Ochiq muloqot chog'ida partiyalarning jamiyatimiz siyosiy-ijtimoiy hayotidagi o'rni va rolini oshirish masalalari, bugungi kunda ular oldida turgan asosiy vazifalar haqida atroflicha fikr almashildi.

Davlat va jamiyat hayotiga doir keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda, xalqimiz huquq va manfaatlarini himoya qilishda siyosiy partiyalarning o'rni kattaligi ta'kidlandi.

Uchrashuvda ijtimoiy sohalar, ayniqsa, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish masalalariga alohida to'xtalib o'tildi. Siyosiy partiyalar o'z deputatlari orqali joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy muam-molarni o'rganishi, ularning yechimi bo'yicha takliflar berishi, ayniqsa, ta'sirchan Parlament va jamoatchilik nazoratini olib borishi muhimligi qayd etildi.

Muloqot jarayonida siyosiy partiyalar faoliyati bugungi zamon talablaridan kelib chiqqan holda, chuqur tahlil qilinib, ularning ishini takomillashtirish va samarasini oshirish bo'yicha fikr-mulohazalar, amaliy takliflar bildirildi.

\* \* \*

**2-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini

«Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko'rsatishni yanada rivojlantirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-5-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishish maqsadida Farg'ona viloyatiga keldi.

Birinchi manzil – Oltiariq tumanidagi «Fayzli bog'lar sari» uzumchilik kooperatsiyasi bo'ldi.

Shu yerda Farg'ona viloyatida qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshiriladigan loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari jurnalistlar bilan jonli muloqot qildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Rishton tumanida qurilgan Xalqaro kulolchilik markazida O'zbekiston xalq ustasi Alisher Nazirov ustaxonasida bo'ldi. Ko'rgazmaga qo'yilgan kulolchilik buyumlarini ko'zdan kechirdi.

Prezident taniqli kulollar Muzaffar Saidov va Sharofiddin Yusupov xonadoniga ham kirib, ular bilan samimiy suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari Xo'ja Rushniy maqbarasini ziyorat qildi.

Shu yerda viloyatda «mahallabay» tizimi asosida yoshlar va ayollarni ish bilan ta'minlash, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi. Bag'dod tumani misolida uch bo'g'inli «mahallabay» ishlash tizimi taqdimot qilindi.

Prezident ushbu tizimni butun mamlakatimizga joriy etish bo'yicha topshiriq berdi. O'z uyida tikuvchilik sexi ochib, mahalla xotinqizlarini ish bilan ta'minlagan uchko'priklik ayollar, nodavlat o'quv markazlari rahbarlari bilan muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Farg'ona tumanining Log'on qishlog'ida erkaklar, ayollar va bolalar poyabzallari ishlab chiqarishga mo'ljallangan «Vodiy-Shoes» mas'uliyati cheklangan jamiyat faoliyati bilan ham tanishdi.

Prezident shu yerdagi to'qimachilik korxonasini ham kirib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari xomashyoni qayta ishlashni yanada kengaytirib, tayyor mahsulotlar turini ko'paytirish, eng muhimi, bozor topish zarurligini ta'kidladi.

Shu yerda Farg‘ona viloyatida 2021–2022-yillarda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti o‘tkazildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 6-mayda Farg‘ona viloyatida bo‘lganida toshdan qog‘oz ishlab chiqarish loyihasi taqdimot qilingan edi. Bugungi kunda ushbu loyiha Farg‘ona shahrida «Fergana stone paper» korxonasi bo‘lib amalga oshdi.

Xitoydan noyob texnologiya olib kelinib, yiliga 9 ming tonna qog‘oz tayyorlash quvvatiga ega bo‘ldi. Prezident tashrifi arafasida ushbu korxonada sinov rejimida ishga tushirildi.

Davlatimiz rahbari ish jarayonini, qog‘oz sifatini ko‘rdi.

Prezidentimiz Farg‘ona viloyatida ishlab chiqarilayotgan import o‘rnini bosuvchi sanoat mahsulotlarini ham ko‘zdan kechirdi.

Tashrifning ikkinchi kuni Farg‘ona shahrida xalq deputatlari viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo‘lib o‘tdi.

Sessiyada Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so‘zladi.

Xalq deputatlari sessiyasidan so‘ng Prezident kutilmaganda Farg‘ona shahridagi «Shodiyona» mahallasiga bordi. Mahalla oralab yurib, aholi bilan uchrashdi.

Kutilmagan tashrifdan xursand bo‘lgan odamlar davlatimiz rahbariga sihat-salomatlik, xalqimizga tinchlik-farovonlik tilab duolar qildi.

Sohibqiron Amir Temur ko‘chasi bo‘ylab yurilib, uy-joylar, savdo shoxobchalari ko‘zdan kechirildi.

Shavkat Mirziyoyev mahalla idorasiga kirib, mahalla raisi va maslahatchilar bilan suhbatlashdi. Aholining yashash sharoiti, hududdagi muammolarni so‘radi. Ularni hal etish bo‘yicha mutasaddilarga ko‘rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbari Farg‘ona shahri Mustaqillik mavzesida bunyod etilgan 2 ta 16 qavatli yangi turar joyini ko‘zdan kechirdi. Yong‘in xavfsizligini, kommunal xizmatlar barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha mutasaddilarga qo‘shimcha ko‘rsatmalar berdi.

Shu yerda Farg‘ona shahar Mustaqillik massividagi ko‘p qavatli uylarning ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suv tizimlarini qurish, 20 xonadonga mo‘ljallangan 5 qavatli 1 podyezdli uylar qurish kabi qator loyihalar taqdimoti o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari Farg‘ona tumani Ilg‘or mahallasiga borib, ichki yo‘llarni arzon qurishga oid andazalarni ko‘zdan kechirdi.

Prezident bu ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlab, ularni muhandislik jihatidan takomillashtirish, xomashyo zaxiralari va zarur texnikalarni aniq hisob-kitob qilib, eng ma‘qulini tanlash kerakligini ta‘kidladi.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Farg‘ona viloyatiga tashrifi yakunlandi.

\* \* \*

**8-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon va Toshkent viloyatlaridagi investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Taqdimotda ushbu loyihalarning istiqbollari, moliyalashtirish manbalari va infratuzilma masalalari yuzasidan ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni ish o'rinlariga talab yuqori bo'lgan mahallalarda joylashtirish, davlat-xususiy sheriklik asosidagi korxonalarni ko'paytirib, bandlikni oshirish muhimligini ta'kidladi.

Prezident sanoatga ilm va innovatsiyalarni faol jalb etish, mahsulotlar sifatiga alohida e'tibor qaratib, xaridorgirligini ta'minlash zarurligini ta'kidladi. Toshkent viloyatining transport va turizm salohiyatidan oqilona foydalanib, xizmat ko'rsatishni rivojlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

\* \* \*

**8-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Saylov qonunchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**8-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi O'zbekis-

ton Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**9-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qorako'lchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili» Davlat dasturi ijrosini samarali tashkil etish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Videoselektor yig'ilishida Davlat dasturidagi ikkita katta yo'nalish – iqtisodiyot hamda ijtimoiy sohalarga oid vazifalar haqida so'z bordi.

\* \* \*

**10-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G'ani bilan telefon orqali muloqot qildi.

Ikki tomonlama munosabatlar va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Prezident Ashraf G'ani davlatimiz rahbariga Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, ushbu mamlakat iqtisodiyotini tiklash masalalarida ko'rsatilayotgan har

tomonlama ko‘mak uchun birodar Afg‘oniston xalqi nomidan samimiy minnatdorlik bildirdi.

Davlat rahbarlari O‘zbekiston, Afg‘oniston va Pokiston hamda yetakchi xalqaro moliyaviy institutlarning yuqori darajadagi vakillari ishtirokida o‘tgan Transafg‘on transport yo‘lagini qurish loyihagini ilgari surish bo‘yicha uch tomonlama ishchi guruhning birinchi yig‘ilishi muvaffaqiyatli bo‘lganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Ushbu loyihani amalga oshirishni, jumladan, texnik hujjatlarni tayyorlashni va qurilish ishlarini boshlash muhim ekani ta’kidlandi.

Shuningdek, ko‘p qirrali O‘zbekiston – Afg‘oniston munosabatlarini, jumladan, neft-gaz tarmog‘i, ta’lim sohasi, texnik ixtisosliklar bo‘yicha malakali afg‘onistonlik kadrlarni tayyorlash borasida kengaytirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligiga bag‘ishlab joriy yil mart oyida Hirot shahrida o‘tkaziladigan bayram tadbirlarida O‘zbekiston delegatsiyasi ishtirok etishi yuzasidan kelishuvga erishildi.

Bo‘lajak oliy va yuqori darajadagi tadbirlar va muloqotlar rejasi yuzasidan ham fikr almashildi.

Prezidentlar «Yo‘l xaritasi» va ustuvor investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini doimiy monitoring qilish va samarali ilgari surish maqsadida qo‘shma hukumat guruhini shakllantirish topshirig‘ini berdilar.

O‘zbekiston va Afg‘oniston yetakchilarining telefon orqali muloqoti har doimgidek ochiq, konstruktiv va do‘stona ruhda o‘tdi.

\* \* \*

**10-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqlar do‘stligi kunini belgilash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**11-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqandning turizm salohiyatini, shu jumladan, ziyorat turizmini rivojlantirishga doir taqdimot bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari taqdimot bilan tanishib, transport, yo‘l va kommunikasiya tarmoqlarini rivojlantirish, Samarqand shahrini obodonlashtirish, savdo va xizmatlarni kengaytirish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**11-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat aktivlarini xususlashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.



\* \* \*

**11-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat xizmatchilari va mutaxassislarni xorijda tayyorlash hamda ularning salohiyatini yanada oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining muddatli harbiy xizmatga navbatdagi chaqiruvi hamda belgilangan xizmat muddatini o'tab bo'lgan muddatli harbiy xizmatchilarni Qurolli Kuchlar rezerviga bo'shatish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**12-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasiga tashrif buyurdi.

Dastlab bosh boshqarmaning axborot multimedia markazi faoliyati bilan tanishib chiqildi.

Davlatimiz rahbari bunday axborot markazi har bir boshqarmada bo'lishi

kerakligini, tizimdagi o'zgarishlarni xalqqa yetkazib, aholining ogohligini oshirish zarurligini ta'kidladi.

Prezident Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasi tizimida foydalanilayotgan maxsus texnika va vositalarni ko'zdan kechirdi. Tashrif chog'ida Toshkent shahar ichki ishlar bosh boshqarmasining shonsharaf muzeyi ochildi, davlatimiz rahbari uni kirib ko'rdi.

Shu yerda jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikni jilovlash ishlarini bevosita mahallalarda tashkil etish, profilaktika inspektorlarining bu boradagi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha yangi tizim loyihasi taqdimot qilindi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining kengaytirilgan hay'at yig'ilishida ishtirok etdi.

Yig'ilishda ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi yo'nalishidagi ishlari tanqidiy muhokama qilindi.

Tartib-intizom, qonunlarga hurmat, aholining osoyishtaligi, eng avvalo, mahallada to'g'ri yo'lga qo'yilishi zarurligi ta'kidlandi.

Ichki ishlar idoralarining barcha bo'g'inida qog'ozbozlik va byurokratiyani keskin kamaytirib, ish yuritishni raqamlashtirish vazifasi qo'yildi.

Soha uchun professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish, profilaktika inspektorlari va

tergovchilarning bilimini oshirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**15-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatining investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Taqdimotda ushbu loyihalarning iqtisodiy samaradorligi, moliyalashtirish manbalari va infratuzilma masalalari muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatining salohiyati bundan ancha katta ekanini, ko'plab yirik loyihalarni amalga oshirish mumkinligini ta'kidladi. To'qimachilikda mahalliyashtirishni chuqurlashtirib, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi o'zlashtirilayotgan yerlarda talab yuqori meva-sabzavotlar yetishtirib, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, yer osti ma'danlarini o'zlashtirishga xorijiy investitsiyalar jalb etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**17-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18–19-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev sanoat korxonalari, qishloq xo'jaligi loyihalari, bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishish, mahallalardagi sharoitni o'rganish maqsadida Namangan viloyatiga bordi.

Tashrif dasturiga muvofiq ilk manzil Yangiqo'rg'on tumani bo'ldi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yili iyun oyida viloyatda bo'lganida Kosonsoy, Chortoq, Yangiqo'rg'on tumanlarini bog'dorchilikka ixtisoslashtirish yaxshi samara berishini aytgan edi. Shunga muvofiq, ushbu tog'li tumanlarda zamonaviy bog' va tokzorlar tashkil etilmoqda.

Ulardan biri – Yangiqo'rg'ondagi «Sura General Investments» mas'uliyati cheklangan jamiyatining bog'i. Bu yerda Birlashgan Arab Amirliklarining 3 million dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyasi hisobiga 103 gektar maydonda intensiv bog' barpo etildi. Italiyadan ko'chat olib kelinib, 48 gektarga gilos, 26 gektarga o'rik, 22 gektarga shaftoli, 7 gektarga olxo'ri ekildi.

Prezidentimiz bog'ning iqtisodiy samaradorligi bilan qiziqdi. Bu yerda meva hosildorligi oddiy usuldagiga nisbatan 3 marta yuqori.

Davlatimiz rahbari yosh dehqonlar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz intensiv bog' investori bilan muloqotda bo'ldi.

Shu yerda Namangan viloyatida qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshiriladigan loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari Chust tumani-dagi «Chust textile» xususiy korxonasini borib ko'rdi. Fabrikaning ikkita majmuasida 1 ming 300 kishi mehnat qilmoqda.

Prezident korxonadagi ish jarayonini, tayyor mahsulotlarni ko'zdan kechirdi.

Shu yerda Namangan viloyatida amalga oshiriladigan yirik investitsiya loyihalari taqdimoti bo'lib o'tdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Namangan shahridagi «Dashtbog'» kichik sanoat zonasida bo'ldi.

Dashtbog'dagi majmua yaqinda tashkil etilganiga qaramay, korxonalar birin-ketin ishga tusha boshladi. Masalan, «Dream liner tekstil» mas'uliyati cheklangan jamiyatida maxsus kiyimlar va erkaklar ko'y-lagi tikish yo'lga qo'yildi. Bu yerda mahalliy aholi vakillaridan 120 nafari ishlamoqda.

Shavkat Mirziyoyev ular bilan muloqotda bo'ldi.

Shu yerda Namangan viloyatida yo'l, transport, qurilish va kommunal infratuzilmani rivojlantirish chora-tadbirlari muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari Axsikent yodgorligini ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish loyihasiga alohida e'tibor qaratdi.

Prezident «Dashtbog'» kichik sanoat zonasidagi korxonalarni ko'rganidan keyin, mahalladagi sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Nuroniylar mahalla tizimiga e'tibor natijasini o'z hayotlari misolida so'zlab berdi. Ijtimoiy muammolar hal bo'lib, turmush sharoiti yaxshilanayotganini aytdi.

«Dashtbog'» mahallasi idorasi, Davlat xizmatlari markazi filiali ko'zdan kechirildi.

Prezident Namangan shahridagi «Art soft holding» shirkatining ilmiy-amaliy malaka oshirish markazi hamda «Ishga marhamat» monomarkazi faoliyati bilan tanishdi.

Prezidentimiz markazda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, murab-

biylar, kasb o'rganayotgan yoshlar bilan suhbatlashdi.

Shavkat Mirziyoyev shu yerda ommaviy axborot vositalari vakillariga intervyu berdi.

Monomarkazda Namangan viloyatida «mahallabay» ishlash tizimini tashkil etish yuzasidan taqdimot o'tkazildi.

Tashrifning ikkinchi kuni Namangan shahrida xalq deputatlari viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiyada Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbari aholi bandligi va daromadini oshirish, kambag'allikni qisqartirish birinchi muhim vazifa ekanini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari yoshlar bilan alohida suhbatlashdi. Ular aytgan takliflarni, biznes-rejalarini qo'llab-quvvatlab, mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berdi.

Xalq deputatlari viloyat kengashining sessiyasidan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Namangan shahrining «Bunyodkor» mahallasini borib ko'rdi.

Davlat rahbari mahalla raisi va maslahatchisi bilan muloqotda bo'lib, mutasaddilarga zarur muhandislik tarmoqlaridan tortib, mahalladagi sharoitlarni yaxshilash bo'yicha ko'rsatma berdi.

Prezident Namangan shahridagi 26-Mehribonlik uyida bo'ldi. Sharoitlarni ko'zdan kechirib, bu yerda tarbiyalanayotgan bolalar bilan suhbatlashdi.

Prezident «Saxovat» uyini ham borib ko'rdi. Uning binosi 1982-yilda qurilgan.

Nuroniylar yurtimizga tinchlik-farovonlik tilab duolar qildi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Namangan viloyatiga safari yakuniga yetdi.

\* \* \*

**22-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida ishtirok etdi.

Kengashga 47 davlat a'zo. Qariyb 150 mamlakatdan davlat va hukumat rahbarlari, tashqi ishlar vazirlari, yuqori darajadagi vakillar qatnashgan anjuman ishtirokchilari orasida birinchi bo'lib O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga so'z berildi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida O'zbekistonning demokratik yangilanishlar jarayonini yanada chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari, mamlakatimiz tomonidan BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi bilan hamkorlikda bajarilishi rejalashtirilgan bir qator dolzarb masalalarga e'tibor qaratdi. Jumladan, O'zbekistonda majburiy mehnat, ayniqsa, bolalar mehnati bilan bog'liq mavjud muammolarni bartaraf etish borasida amalga oshirilgan, xalqaro jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan ishlarga alohida to'xtaldi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi nutqi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**22-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Navoiy viloyatida hamda

gidroenergetika tarmog'ida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni sifatli, ilmiy yondashgan holda amalga oshirish, zamonaviy texnologiyalarni jalb etib, qo'shimcha qiymat yaratish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarib, eksportga yo'naltirish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Taqdimotda sohani transformatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham ma'lumot berildi.

Prezident loyihalarni yana bir bor qayta ko'rib chiqib, sifat jihatidan takomillashtirish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**22-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksini tasdiqlash haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**22-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sog'liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qishloq xo'jaligiga

mo'ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida qishloq va suv xo'jaligi sohasida joriy yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda ekinlarni har bir tumanning o'ziga xosligi, mahallalarda tarixan shakllangan dehqonchilik ko'nikmalari, suv ta'minotidan kelib chiqib joylashtirish zarurligi qayd etildi.

Lalmi va yaylov yerlarni foydalanishga kiritish, bu orqali doimiy va mavsumiy ish o'rinlari yaratish muhimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligini oshirish masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

Davlatimiz rahbari sohada ilm-fan va axborot texnologiyalarini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratdi.

Videoselektor yig'ilishida suvdan tejab foydalanish masalalari ham muhokama qilindi.

Suv xo'jaligi vazirligiga 3 mingdan ziyod nasoslarni ta'mirlash va yangilash, nasos stansiyalarida elektr energiyasi va suv sarfini «onlayn» monitoring qilish tizimini joriy etish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikni rivojlantirish chora-tadbirlariga ham to'xtalib o'tildi.

\* \* \*

**24-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021–2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatida amalga oshiriladigan bunyodkorlik loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Ulardan biri – Toshkent viloyatining Qibray tumanida, «Toshkent-Sharqiy» aerodromi yaqinida 155 gektarlik bog' barpo etish loyihasi. Uni ishlab chiqishda dunyo megapolislaridagi mashhur parklarning landshafti, qulayliklari o'rganilgan. Bu bog' faqat daraxtzor, buta va gullardan iborat o'ziga xos dendropark bo'lishi ko'zda tutilgan. Bu poytaxtimiz ekologiyasiga katta ta'sir ko'rsatadigan, aholi va mehmonlar sayr qiladigan «yashil hudud» bo'ladi.

Mazkur bog'ning yonida Olimpiya shaharchasi qurilishi rejalashtirilmoqda. Ma'lumki, Osiyo Olimpiya kengashining qaroriga ko'ra, 2025-yilda Yoshlar o'rtasidagi Osiyo o'yinlari Toshkentda o'tkaziladi. Unda qit'amizdagi 45 ta mamlakat yoshlari 20 ga yaqin sport turi bo'yicha bahslashadi.

Aytish joizki, bunday nufuzli xalqaro musobaqa O'zbekiston tarixida birinchi marotaba o'tkaziladi. Davlatimiz rahbari bu mam-

lakatimizga ko'rsatilgan katta ishonch ekanini, ushbu musobaqaga hozirdan boshlab puxta tayyorgarlik ko'rish kerakligini ta'kidladi.

Shu maqsadda 160 gektar maydonda Olimpiya shaharchasi qurish bo'yicha loyiha ishlab chiqilgan. Chirchiq daryosining 5 kilometrdan ziyod qismida qirg'oqlarni tartibga keltirib, eshkak eshish bo'yicha musobaqalar uchun zarur sharoit yaratish mo'ljallangan. Uning bo'ylarida esa 270 gektarlik park barpo etilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, Qibray tumanining ushbu hududida 2 ta universitet, shifoxona, ekspozitsiya, savdo va ko'ngilochar markaz binolari joylashtirilishi nazarda tutilmoqda.

Prezident loyihalarni sifat va qulaylik jihatidan takomillashtirish, inshootlarni qurishda jahondagi eng ilg'or tajribalarni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**25-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respub-

likasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2021-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdo'g'anning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari suhbat avvalida Turkiya Prezidentini tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog'lik va katta muvaffaqiyatlar hamda birodar turk xalqiga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladi. Prezident Erdo'g'anning zamonaviy Turkiyaning barqaror taraqqiyotini ta'minlash, xalqaro maydonda mamlakat nufuzini oshirishdagi roli alohida qayd etildi.

Suhbatda ikki tomonlama va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Savdo, sanoat, energetika, infrazuzilma, transport, qishloq xo'jaligi sohalaridagi qo'shma loyihalar, ta'lim va madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarining ijrosi ko'rib chiqildi.

Davlat rahbarlari ta'lim, kine-matografiya, madaniyat va turizm sohalarida qator ahamiyatli loyihalarni amalga oshirish muhim ekanini ta'kidladilar.

Shuningdek, bo'lajak oliy va yuqori darajadagi ikki va ko'p tomonlama tadbir va muloqotlar rejasi muhokama qilindi, jumladan,

Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining bo'lajak sammitiga tayyorgarlikning borishi ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**26-fevral.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida xotin-qizlarning muammolarini hal qilish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalalari muhokamasi yuzasidan videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda ayollarni ish bilan ta'minlash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga tibbiy va psixologik yordam qamrovini kengaytirish, oilaviy ajralishlarning oldini olish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Hokimlar va sektor rahbarlariga «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlar muammolarini hal qilish, tikuvchilik, hunarmandchilik, kasanachilik, parrandachilik va ekin maydonlaridan yer ajratish orqali ularning bandligini ta'minlash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini kengaytirish, jismoniy tarbiya va raqs to'garaklarini ko'paytirish zarurligi qayd etildi. Ayollarning mamlakatimiz bo'ylab sayohatlarini, sanatoriylarda davolanishini tashkillashtirish yuzasidan ko'rsatma berildi.

Yolg'iz ayollarning farzandlarini maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilish va to'lovlarini qoplash borasida ham yengilliklar beriladigan bo'ldi.

Videosektor yig'ilishida xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralar belgilandi.

\* \* \*

**1-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Sirdaryo viloyatining investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Prezident loyihalar ijrosida sifat va muddatga alohida e'tibor qaratish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish yuzasidan ko'rsatmalar berdi. Sirdaryo viloyatining Toshkent shahriga yaqinligi, temiryo'l infratuzilmasidan foydalanib, logistikani rivojlantirish, qo'shni davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirish zarurligini ta'kidladi.

\* \* \*

**2-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev o'zining iqtisodiy taraqqiyot, samarali boshqaruv va xalqaro hamkorlik masalalari bo'yicha maslahatchisi Suma Chakrabartini qabul qildi.

Uchrashuvda maslahatchi Chakrabartining O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan strategiyasini tayyorlash, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, mamlakatimizning xorijiy sheriklar bilan o'zaro manfaatli munosabatlarini kengaytirish borasidagi taklif va tavsiyalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari «yo'l xaritasi» va ustuvor yo'nalishlar bo'yicha boshqa muhim konseptual hujjatlarni birgalikda puxta tayyorlashni davom ettirish va keyinchalik ularni amalga oshirish zarurligini ta'kidladi.

Investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, davlat ulu-

shi mavjud korxonalarni transformatsiya qilish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Eslatib o'tamiz, Suma Chakrabarti O'zbekiston Prezidentining maslahatchisi etib tayinlanishidan avval sakkiz yil davomida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti lavozimida faoliyat yuritgan.

\* \* \*

**2-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Elektrotexnika sanoatini yanada rivojlantirish va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida uy-joy qurilishi va ipoteka bozorini rivojlantirish chora-tadbirlari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Prezident aholining barcha qatlamlarini uy-joy bilan ta'minlash, bu borada tanlash imkoniyatini kengaytirish zarurligini ta'kidladi.

Yig'ilishda qurilish ishlarining moliyaviy manbalari ham ko'rib chiqildi.

Fuqarolarga yakka tartibda uy qurish va rekonstruksiya qilish uchun ham kredit ajratilishi belgilandi.

Yig'ilishda og'ir turmush sharoitidagi oilalarni ijtimoiy ijara asosida uy bilan ta'minlash masalalariga ham to'xtalib o'tildi. Buning uchun hududlarga mingta kvartira sotib olish uchun mablag' ajratilishi qayd etildi.

Mutasaddilarga bu boradagi tartibni ishlab chiqish va eng muhtoj oilalar ro'yxatini shakllantirish bo'yicha topshiriq berildi.

Davlatimiz rahbari qurilish sifati masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Har bir loyiha ipoteka veb-portaliga joylashtirilishi va barcha uchun ochiq e'lon qilinishi, uylarning bo'lajak egasi sifatini nazorat qilish imkoniga ega bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**3-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazruiy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda ko'p qirrali O'zbekiston – BAA hamkorligini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari oliy darajada, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot, investitsiya va moliya sohalarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish borasida ikkala tomonning faol sa'y-harakatlarini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Vazir Suhayl al-Mazruiy davlatimiz rahbariga BAA Prezidenti Shayx Xalifa Ol Nahayon, Abu-Dabi Amirligi valiahdi, BAA Qurolli Kuchlari Oliy bosh qo'mondoni o'rinbosari Shayx Muhammad Ol Nahayon va BAA Bosh vaziri, Dubay amiri Shayx Muhammad Ol Maktumning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi, shuningdek, mamlakatimizda BAA investorlarining faoliyati har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani uchun minnatdorlik bildirdi.



Suhbatda xususiy investitsiyalarni jalb qilgan holda, shu jumladan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash, Amirliklar bozori va uchinchi mamlakatlarga yetkazish bo'yicha agrosanoat tarmog'ida qo'shma loyihalarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Muqobil energiyadan foydalanish sohasida, energetika va boshqa muhim infratuzilma obyektlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy mehxona majmualarini barpo etish bo'yicha yirik loyihalarni faol ishlab chiqish va amalga oshirishni davom ettirishga, shuningdek, yangi ishbilarmonlik tashabbuslari doirasida investitsiyalar portfelini kengaytirish va moliyaviy-texnik ko'mak dasturlarini ro'yobga chiqarishga kelishib olindi.

Bundan tashqari, ta'lim sohasida samarali hamkorlikni kengaytirish hamda Birlashgan Arab Amirliklarining yetakchi tashkilotlari ishtirokida boshqaruv sohasida milliy kadrlarni tayyorlash muhim ekani ta'kidlandi.

\* \* \*

**3-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyati erkinligi, huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (IHT) videoanjuan shaklida o'tgan 14-sammiti ishida ishtirok etdi.

Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an raisligida o'tgan tadbirda Afg'oniston Prezidenti Ashraf G'ani, Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Eron Prezidenti Hasan Ruhoniy, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayev, Pokiston Bosh vaziri Imron Xon, shuningdek, IHT bosh kotibi Hadi Sulaymonpur, mintaqaviy tuzilmalar rahbarlari ham ishtirok etdi.

Sammit kun tartibiga muvofiq COVID-19 pandemiyasidan keyingi davrda ushbu nufuzli tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti hududi – bu tarixi, dini, madaniyati va qadriyatlarini mushtarak, ulkan

salohiyatga ega bo'lgan mintaqa ekanini alohida ta'kidladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi nutqi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**4-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-mart.** 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida tashkil etilgan tantanali tadbirda Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz xotin-qizlarini bayram bilan muborakbod etib nutq so'zladi.

Prezident xotin-qizlarning barcha sohalardagi faolligi, ayniqsa, pandemiya sharoitida aholi salomatligini asrash va bolalarni o'qitishdagi fi-doyiligini alohida ta'kidladi.

Davlat rahbarining nutqi xalqimizga, ayniqsa, yosh yigit-qizlarga murojaat, da'vat ham bo'ldi.

Prezident qaroriga ko'ra, yigirma sakkiz nafar faol qiz Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Tantanali bayram tadbirida ushbu yuksak mukofotlar o'z egalariga topshirildi.

Shuningdek, joylarda o'zining kasb sohasida katta natijalarga erishgan, davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etib kelayotgan 297 nafar opa-singillarga «Mo'tabar ayol» ko'krak nishonlari berildi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida mo'tabar onalar, opa-singillarimiz, dilbar qizlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish nafaqat vazifa, balki insoniy burch ekanini alohida ta'kidladi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizdagi Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionatini borib ko'rdi. Yotoqxon va davolash xonalarida yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari muassasada yashayotgan faxriylar bilan suhbatlashdi.

Videokonferensiya tarzida o'tgan uchrashuvda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar, ijtimoiy muassasalar rahbarlari ham ishtirok etdi. Mamlakatimizdagi «Saxovat» va «Muruvvat» uylaridagi sharoitlarni, tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash masalalari muhokama qilindi.

\* \* \*

**9-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi

tashqi ishlar vaziri Mavlud Chavush-o'g'li boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston – Turkiya ko'p qirrali munosabatlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari oliy darajadagi muntazam muloqotlar mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtalari va strategik sheriklikni yanada mustahkamlash, o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish va uni aniq mazmun bilan boyitishga xizmat qilayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Tashqi ishlar vaziri Mavlud Chavusho'g'li samimiy qabul uchun O'zbekiston Prezidentiga minnatdorlik bildirdi hamda Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning salomi va samimiy tilaklarini yetkazdi.

Suhbat chog'ida o'tgan yil fevral oyida Anqara shahrida bo'lib o'tgan Strategik hamkorlik kengashining davlat rahbarlari darajasidagi birinchi yig'ilishida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish hamda navbatdagi samitni mamlakatimizda o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Savdo-iqtisodiy sohada hamkorlikni kengaytirish, jumladan, Turkiyaning yetakchi kompaniyalari ishtirokida mamlakatimizda yangi investitsiya loyihalarini tayyorlash va amalga oshirish muhimligi qayd etildi.

Faol hududlararo muloqotni rivojlantirish, qo'shma ta'lim va madaniy-gumanitar dasturlarni ilgari surishdan ikkala mamlakat ham manfaatdor ekani ta'kidlandi.

Xalqaro siyosat va mintaqaviy sheriklik, jumladan, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi doirasidagi hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashildi.

\* \* \*

**9-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qoraqalpog'iston Respublikasida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Taqdimotda, avvalo, Prezidentning «2020–2023-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ijrosi doirasida muhandislik va yo'l infratuzilmasini rivojlantirish, mahalla va ovullarda turmush sharoitlarini yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari xorijiy tajribani tatbiq etgan holda, naslli chorvachilik va baliqchilikni rivojlantirish zarurligini ta'kidladi. Resurslarni to'la ishga solib, qayta ishlashni chuqurlashtirish, aholiga doimiy daromad manbayi yaratish chora-tadbirlari yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**11-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Abu-Dabi Amirlihi valiahdi, Birlashgan Arab Amirliklari Qurolli Kuchlari Oliy bosh qo'mondoni o'rinbosari Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayonning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Abu-Dabi valiahdini tavallud kuni bilan samimiy muborakbod etib, do'st Amirliklar xalqiga farovonlik, muvaffaqiyatlar va ravnaq tiladi.

Muloqot chog'ida mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

2019-yil mart oyida Birlashgan Arab Amirliklariga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrifda erishilgan kelishuvlarni ro'yobga chiqarishga alohida e'tibor qaratildi.

Energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi, moliya, infratuzilma yo'nalishlarida yirik qo'shma loyihalarni, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalaridagi qator muhim dasturlarni amalga oshirishni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**11-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yilqichilik va ot sportini yanada rivojlantirish hamda zamonaviy beshkurash va polo sport turini ommalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-12-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.

Ko'ksaroy qarorgohida oliy darajadagi O'zbekiston - Qirg'iziston

sammitining asosiy tadbirlari o'tkazildi.

Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng O'zbekiston va Qirg'iziston Prezidentlarining tor doiradagi muzokarasi bo'lib o'tdi.

Ochiq va do'stona ruhda o'tgan uchrashuvda davlat rahbarlari O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasidagi munosabatlarning bugungi holatini yuqori baholadi. Siyosiy, savdo-iqtisodiy va transport sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishning keng ko'lamli masalalarini muhokama qildi.

Prezidentlar ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosida mustahkamlab borish, avval qabul qilingan hujjatlarni amalga oshirish yo'lida qat'iy ekanini tasdiqladi. Barcha sohalaridagi hamkorlikni izchil kengaytirish uchun oliy va yuqori darajadagi siyosiy muloqotni muntazam davom ettirishga kelishib olindi.

Markaziy Osiyoga tegishli barcha masalalar mintaqa davlatlarining o'zi tomonidan, o'zaro foyda va manfaatlarni hurmat qilish tamoyili asosida hal etilishi muhimligi ta'kidlandi.

Xalqaro maydonda, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Mushtaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi aloqalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha ham yakdil fikr bildirildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov muzokaralarni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida davom ettirdilar.

Davlat rahbarlari o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish strategik sheriklikning ustuvor yo'nalishi ekanini ta'kidladi. Savdo aylanmasini diversifikatsiya qilish va nomenklaturasini kengaytirish orqali kelgusi yillarda uning hajmini ikki barobar ko'paytirish imkoniyati borligi qayd etildi.

Uchrashuvda hududlararo hamkorlikni yana faollashtirib, erishilgan kelishuvlar ijrosini ta'minlash, chegaraldi viloyatlarni kompleks rivojlantirish, davlat chegarasidan o'tkazish punktlarida aholi uchun qulay sharoitlar yaratish zarurligi ta'kidlandi.

Tomonlar Markaziy Osiyodagi suv-energetika resurslaridan kompleks va oqilona foydalanish tarafdori ekanini yana bir bor tasdiqladi. Bu yo'nalishdagi hamkorlikning uzoq muddatli barqaror mexanizmlarini ishlab chiqishga kelishildi. O'zbekiston Qirg'izistonda gidroenergetika loyihalarini amalga oshirishda qatnashishga tayyorligini bildirdi.

Uchrashuvda xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona munosabatlar va o'zaro anglashuvni mustahkamlashning muhim omili bo'lgan madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik masalalari ham ko'rib chiqildi.

Fan, ta'lim, madaniyat, sport va turizm kabi sohalarda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha yakdil fikr bildirildi. Davlat rahbarlari madaniy

almashinuvlar ikki xalq o'rtasida o'zaro tushunish va do'stona munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidlab, madaniyat kunlari va boshqa gumanitar tadbirlarni qayta tiklashga kelishib oldilar.

Muzokaralar yakunlangach, imzolangan hujjatlarni almashish marosimi bo'lib o'tdi.

O'zbekiston va Qirg'iziston Prezidentlari Qo'shma bayonot qabul qildilar. Umuman, tashrif doirasida ko'p qirrali O'zbekiston – Qirg'iziston sherikligining deyarli barcha yo'nalishlarini qamrab olgan 22 ta hujjat imzolandi.

Qariyb 50 ta qo'shma loyihani amalga oshirish nazarda tutilgan Sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va chuqurlashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi, O'zbekiston – Qirg'iziston Investitsiya fondini tashkil etish to'g'risidagi bitim, elektr energiyasini o'zaro yetkazib berish, Qirg'izistonda gidroenergetika obyektlarini qurish sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi hujjatlar shular jumlasidan.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda Prezident Shavkat Mirziyoyev muzokaralar ishonch muhitida o'tgani, tomonlar o'zaro hurmat va manfaatlarni hisobga olish tamoyillari asosida keng miqyosli vazifalarni hal qilishga tayyor ekanini qayd etdi.

Davlat rahbarlari savdo va bojxona ishi, investitsiyalar, sanoat kooperatsiyasi, transport, suvdan foydalanish, energetika, ekologiya sohalarida ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash, mudofaa idoralari o'rtasidagi, terrorizm va diniy

ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlikni, madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirish zarurligini qayd etdilar.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Sadir Japarov Ko'ksaroy qarorgohidagi Faxriy mehmonlar xiyoboniga ko'chat o'tqazdi. Bu O'zbekiston va Qirg'iziston xalqlari do'stligining, davlatlararo munosabatlarda yangi davr boshlanganining ramzi bo'ldi, deyish mumkin.

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Toshkent shahridagi texnoparkka tashrif buyurdi.

Qirg'iziston Prezidentiga texnoparkdagi korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar – maishiy texnikalar, elektron gaz hisoblagichlar, liftlar, suv nasoslari, sanoat konditsionerlari va sovitish tarmoqlari haqida ma'lumot berildi.

Davlat rahbarlari O'zbekistonning sanoat, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik mahsulotlari ko'rgazmasi bilan tanishdi.

O'zbekiston xalqi nomidan Qirg'iziston xalqiga yurtimizda ishlab chiqarilayotgan tez tibbiy yordam mashinalari sovg'a qilindi. Sadir Japarov qardoshlik va yaxshi qo'sh-nichilik munosabatlari, doimiy ko'magi va qo'llab-quvvatlashi uchun minnatdorlik bildirdi.

\* \* \*

**12-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Germaniya Federal kansleri Angela Merkel bilan video-

anjuman shaklida muzokara o'tkazdi.

O'zbekiston va Germaniya yetakchilarining uchrashuvi kun tartibidan jahonda murakkab epidemiologik vaziyat oqibatida inqirozli hodisalar kuchayishi sharoitida mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari o'rin oldi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda yangi demokratik yangilanishlar siyosatini og'ishmay qo'llab-quvvatlayotgani hamda yurtimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga moliyaviy-texnik jihatdan ko'maklashish dasturini kengaytirayotgani uchun GFR hukumatiga minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuvda qo'shma loyihalar, ishbilarmonlarning aloqalari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, yetakchi nemis kompaniyalari va bank institutlarining O'zbekistondagi faoliyatini kengaytirishga kelishib olindi.

Kooperatsiyaning yangi yo'nalishlarini, eng avvalo, industrial klasterlar, raqamlashtirish va «yashil» iqtisodiyotni rivojlantirish masalalarini muhokama qilish, qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi loyihalarni ilgari surish maqsadida joriy yilning may oyida O'zbekiston – Germaniya ishbilarmonlar kengashining navbatdagi uchrashuvini o'tkazish rejalashtirildi.

Tomonlar mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi masalasida hamda Yevropa Ittifoqi bilan konstruktiv muloqot doirasida, shu jumladan, Kengaytirilgan she-

riklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimni tayyorlashni tez fursatda yakunlash bo'yicha hamkorlikni davom ettirishga ahdlashib oldilar.

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va gender tenglik kabi ustuvor yo'nalishlarda hamkorlikni mustahkamlash muhim ekani ta'kidlandi.

Gumanitar almashinuvlar sohasida O'zbekistonda nemis tilining o'rganilishini kengaytirish va bu borada tegishli davlat dasturini qabul qilish tashabbusi qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Prezidenti va Germaniya Kansleri xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar hamda global va mintaqaviy tuzilmalar doirasidagi hamkorlik yuzasidan ham fikr almashdilar.

Mamlakatimizning Markaziy Osiyoda do'stlik, yaxshi qo'shni-chilik, ishonch va sheriklik munosabatlarini mustahkamlash borasidagi siyosati qo'llab-quvvatlandi. Afg'onistondagi tinchlik jarayoniga ko'maklashish, shu maqsadda transport va energetika sohalarida mintaqaviy infratuzilma loyihalarini ilgari surish borasida ko'rilayotgan sa'y-harakatlar yuksak baholandi.

Muzokaralar yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev Federal kansler Angela Merkelni O'zbekiston Respublikasiga tashrif bilan kelishga taklif qildi.

O'zbekiston va Germaniya yetakchilarining uchrashuvi har doimgidek ochiq va konstruktiv muhitda, ishchan va do'stona ruhda o'tdi.

\* \* \*

**15-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbatda ko'p qirrali O'zbekiston – Qozog'iston munosabatlarini yanada kengaytirish, mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shni-chilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Pandemiyaning salbiy oqibatlarini tez fursatda yengib o'tish maqsadida iqtisodiy sohadagi hamkorlikni jadallashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Buning uchun o'zaro savdo hajmini oshirish, qabul qilingan «yo'l xaritasi» doirasida sanoat kooperatsiyasi bo'yicha qo'shma loyihalarni ilgari surish hamda chegaraoldi tumanlarda samarali transport kommunikatsiyalari va logistika infratuzilmasini rivojlantirish muhim ekani ta'kidlandi.

Bundan tashqari, sog'liqni saqlash, farmatsevtika va ta'lim sohalarida hukumatlar, manfaatdor idora va tashkilotlar darajasida faol almashinuvlarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi. Bo'lajak ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasi ko'rib chiqildi.

O'zbekiston va Qozog'iston Prezidentlarining telefon orqali muloqoti har doimgidek ishchan va do'stona ruhda o'tdi.

\* \* \*

**15-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ekologik audit to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**15-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryo viloyatida hamda elektr energiyasi tarmog'ida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni bir-biriga yaqin, ixcham joylashtirib, kommunikatsiya xarajatlarini kamaytirish, hududiy korxonalarni yirik sanoat tarmoqlari bilan bog'lash bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Har bir loyiha zamirida aholini ish bilan ta'minlash masalasi yotgani uchun ularga mablag'larni tezroq ajratish zarurligini ta'kidladi.

Taqdimotda joriy yilda elektr energetikasi sohasida amalga oshiriladigan loyihalar ham ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz bu loyihalarning iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy ahamiyatini alohida ta'kidlab, ularni sifatli bajarish, elektr energiyasi ta'minoti barqarorligini oshirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**16-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «LUKOYL» kompaniyasi prezidenti Vagit Alekperovni qabul qildi.

Uchrashuvda Vagit Alekperov davlatimiz rahbariga mamlakatimizda Rossiyaning yetakchi neft-gaz kompaniyasi ishtirokidagi ustuvor

investitsiya va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar amalga oshirilishining borishi to'g'risida batafsil ma'lumot berdi.

Suhbat chog'ida pandemiya oqibatlarini yengib o'tish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Qo'shma loyihalarning samaradorligini oshirish va «LUKOYL» kompaniyasi bilan strategik hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan idoralararo ishchi guruh tuzish va «yo'l xaritasi»ni qabul qilishga kelishib olindi.

\* \* \*

**17-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyevning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida ikki mamlakat yetakchilari yaqinlashib kelayotgan bahor ayyomi – Navro'z munosabati bilan bir-birini samimiy qutlab, qardosh xalqlarimizga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish, savdo sohasidagi qo'shma loyihalarni ilgari surish, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va transport infratuzilmasini rivojlantirish, hududlararo aloqalar va gumanitar almashinuvlarni faollashtirishga alohida e'tibor qaratildi.



Turkiy kengashning bo'lajak sammitiga tayyorgarlik ko'rish masalalari ham muhokama qilindi.

Muloqot har doimgidek ochiq, samimiy va do'stona ruhda o'tdi.

\* \* \*

**17-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasining Favqulodda va muxtor elchisi Vladimir Tyurdenevni mamlakatimizdagi diplomatik missiyasi yakunlangani munosabati bilan qabul qildi.

Davlatimiz rahbari Rossiyaning O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonasiga 11 yildan ortiq vaqt mobaynida rahbarlik qilib kelayotgan elchi Vladimir Tyurdenevning ikki tomonlama do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlash, mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishga qo'shgan shaxsiy hissasini alohida qayd etdi.

Elchining faol ishtiroki va ko'magida turli darajalarda tizimli muloqot va samarali aloqalar yo'lga qo'yilgani ta'kidlandi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston Prezidenti Rossiya elchisini davlatlararo munosabatlarni chuqurlashtirish va har tomonlama aloqalarni rivojlantirishga qo'shgan katta hissasi, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik rishtalari va o'zaro anglashuvni mustahkamlashdagi faol ishtiroki uchun O'zbekiston Respublikasining Faxriy yorlig'i bilan taqdirladi.

\* \* \*

**17-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yuqori likvidli va mo-

nopol tovarlarni sotish jarayonlariga bozor mexanizmlarini joriy etishni davom ettirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-19-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, yirik korxonalar faoliyati bilan tanishdi, aholi bilan muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari dastlab Chinoz tumani suv xo'jaligida amalga oshirilayotgan ishlarni ko'zdan kechirdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Chinoz tumanidagi «Eshonobod» mahallasini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari shu yerda mahallaning turli millatga mansub vakillari bilan suhbatlashdi.

Muloqotda Chinoz tumanidagi o'zgarishlar, imkoniyatlar haqida ham gapirildi.

Mahallada davlat xizmatlari markazi shoxobchasi, bank filiali, tibbiyot punkti, tikuvchilik korxonasi ham tashkil etilgan.

Davlatimiz rahbari «Qo'jakent tekstil grup» korxonasidagi ish jarayonini ko'zdan kechirdi.

Mutasaddilarga tadbirkorlarga ko'maklashib, bino va mablag'lar ajratib, bunday kichik korxonalarni ko'paytirish va 3 ming nafar xotinqizni ish bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatma berildi.

Prezidentimiz shu yerda ommaviy axborot vositalari vakillari bilan muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumanidagi

«TST Sluster» klasteri tomonidan bunyod etilgan sholini qayta ishlash zavodi faoliyati bilan tanishdi.

Shu yerda viloyatda qishloq xo'jaligi va to'qimachilikni rivojlantirish bo'yicha loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Chirchiq – Toshkent viloyatining eng yirik beshta shahridan biri. Poytaxtga yaqinligi, ishlab chiqarish korxonalari ko'pligi aholi soni va uy-joyga bo'lgan talab ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Shaharning «Shodlik» mahallasida qurilgan 4 ta 16 qavatli uy aholining o'sib borayotgan talabini ta'minlashga qaratilgan.

Ushbu uylar qisqa muddatda qurib bitkaziladi. Zilzilabardoshligi yuqori, zamonaviy Hi-Tech usulida bunyod etilgan. Yo'laklari keng, har bir yo'lakka ikkitadan lift o'rnatilgan.

Bu – Toshkent viloyatida qurilgan dastlabki 16 qavatli uylar bo'lib, Chirchiq shahriga yangi qiyofa baxsh etgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev qurilishning borishi bilan tanishdi. Shu yerda Chirchiq shahrini rivojlantirish bo'yicha bosh reja muhokama qilindi. Yangi turar joylar qurish, eski uylarni renovatsiya qilish, bo'sh turgan binolardan samarali foydalanib, Toshkent shahridagi ayrim ishlab chiqarish korxonalarini shu yerga ko'chirish hamda yangi loyihalarni joylashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Prezident Chirchiq shahar issiqlik ta'minot korxonasini ham borib ko'rdi.

Shu yerning o'zida viloyatda elektr energiyasi, issiqlik, ichimlik

suvi ta'minoti hamda shaharlarda kommunal xizmatlarni yaxshilash bo'yicha rejalar taqdimoti o'tkazildi.

Prezident Chirchiq shahriga tashrifi chog'ida «Iftixor» mahallasiga kirib ko'rdi. Ko'p qavatli uylarda yashayotgan odamlar bilan suhbatlashdi.

Davlat rahbarining mahallalarni aylangani bu gal ham aholining ko'nglini ko'tardi. Odamlar ochiq yuz bilan Prezidentga peshvoz chiqdi. Kimdir salomlashishga, kimdir o'z muammosini aytishga oshiqdi.

Prezidentimiz «Lola» mahallasida ham bo'ldi. Davlatimiz rahbari mahalla raisi, nuroniylar hamrohligida 35-uydagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilaga kirib, hol-ahvol so'radi.

Prezident yo'l-yo'lakay mehnat faxriylari bilan ham samimiy suhbatlashdi. Ular mamlakatimizdagi tinchlik-osoyishtalik, Chirchiq shahridagi o'zgarishlardan mamnun ekanini aytib, duolar qildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yuqori Chirchiq tumanidagi «Yevro Global Invest» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

Shu yerda 2021–2022-yillarda Toshkent viloyatida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Nurafshon shahrida 19-mart kuni xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo'lib o'tdi.

Sessiyada Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi va nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbari kon-metal-lurgiya, energetika, to'qimachilik, kimyo, elektrotexnika, farmatsevtika, qurilish materiallari sanoati, qishloq xo'jaligi va turizm viloyat iqtisodiyotida asosiy drayver bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Nurafshon shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik loyihalari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbariga Nurafshon shahrining Bosh rejasiga muvofiq amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumot berildi.

Toshkent viloyatida madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot o'tkazildi.

Prezident maktab va bog'chalarni qurish bilan birga ta'lim mazmunini boyitish, endi qamrovdan sifatga o'tish kerakligini ta'kidladi. Aholi kelishiga qulay joyda zamonaviy shifoxona tashkil etib hamda uni klinik baza qilib, malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha topshiriq berdi.

\* \* \*

**21-mart.** Toshkent shahridagi «Humo Arena» majmuasida Navro'z shodiyonasi bo'lib o'tdi.

Bu yerga deputatlar va senatorlar, hukumat a'zolari, fan, madaniyat, san'at, sport namoyandalari, tadbirkorlar, tabarruk otaxon-u onaxonlar, turli sohalarda fidoyilik bilan mehnat qilayotgan yurtdoshlarimiz, yoshlar, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy davlatlar elchixonalari va xalqaro tashkilotlar vakillari tashrif buyurdi.

Tantanali tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari ko'p millatli xalqimizni Navro'z bayrami bilan tabriklab, koronavirus tufayli dunyoda ko'p narsa o'zgarayotgani, lekin xalqimizning ona tabiatga muhabbati, azaliy qadriyatlarga ehtirom va sadoqati o'zgarmagani, aksincha, bunday olijanob xislatlarimiz yanada ortib, Navro'zi olam biz uchun tobora ardoqli bo'lib borayotganini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Navro'zga bag'ishlangan tantanali marosimdan so'ng, bayram saylida ishtirok etdi. Sayilga kelgan yurt-doshlarimiz bilan suhbatlashib, ularni tabrikladi.

Davlatimiz rahbari milliy madaniyat markazlari, folklor-etnografik jamoalar chiqishlarini kuzatdi. Yosh ijrochilarga doim o'qish va izlanishda bo'lish kerakligini ta'kidlab, ijodiy muvaffaqiyatlar tiladi.

Yurtboshimizning ushbu tantanali anjumandagi nutqi matbuotda e'lon qilindi.

\* \* \*

**21-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda ilk bor nishonlanayotgan kasb bayrami munosabati bilan O'zbekiston Mahalla tizimi xodimlari va faollariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**23-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish, bu borada byuro-

kratik to‘siqlarni qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqaro konsultantlar – Alfred Guzenbauer, Aleksandr Kvasnevskiy va Shtefan Fyuleni qabul qildi.

Uchrashuvda mamlakatimizni isloh qilish va institutsional jihatdan rivojlantirishning dolzarb masalalari yuzasidan ochiq va konstruktiv fikr almashildi.

Mehmonlar O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanishlar dasturini yuqori baholadilar va to‘liq qo‘llab-quvvatladilar. Ayniqsa, koronavirus pandemiyasi bilan bog‘liq murakkab sharoitlarda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning yutuqlari va aniq natijalari, shuningdek, O‘zbekistonning global va mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashuvi sari sezilarli sa‘y-harakatlari alohida qayd etildi.

Konsultantlarning O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning uzoq muddatli strategiyasini tayyorlash, davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, mamlakatimizning xorijiy sheriklar bilan o‘zaro manfaatli munosabatlarini kengaytirishga doir tavsiyalari ko‘rib chiqildi.

Yurtimizda investitsiya muhitini yaxshilash va uning shaffofligini oshirish, bozor mexanizmlarini keng joriy etish va raqobat muhitini shakllantirish, bank-moliya sohasi va kapital bozorini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Konsultantlar, shuningdek, iqtisodiyotning izchil transformatsiya qilinayotgani va xorijiy kapital uchun ochiqligi ortayotgani tufayli Yevroittifoq mamlakatlari bilan investitsiya va innovatsiyalar borasidagi hamkorlikni kengaytirish uchun katta imkoniyatlar shakllanayotganini qayd etdilar.

O‘zbekiston bilan YI o‘rtasidagi hamkorlikning bugungi yuksak darajasini saqlash, o‘zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlash va amaliy mazmun bilan boyitish, kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimni tez fursatda qabul qilish hamda mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilishini qo‘llab-quvvatlash masalalari ustuvor ahamiyatga ega ekanini ta’kidlandi.

\* \* \*

**23-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Taqdimotda turizm, energetika, charm-sanoat, zargarlik, qurilish sohasiga doir loyihalar ham ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari mazkur rejalarni ma’qullab, shu bilan birga qo‘shimcha loyihalarni shakllantirish vazifasini qo‘ydi. Mahallalarda «o‘sish nuqtalari»ni topib, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, ularga ishsiz aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni joylashtirish, o‘zini o‘zi band qiladigan tashabbuskorlarni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**24-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida joriy yilda amalga oshiriladigan ishlar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda shu boradagi amaliy ishlar muhokama qilindi.

Yig'ilishda aholi bandligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Sog'liqni saqlash vazirligiga «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlariga kirgan aholi punktlarining «tibbiy xaritasi»ni shakllantirish vazifasi qo'yildi.

Sektor rahbarlari o'z hududida bajarilayotgan ishlar bo'yicha mahalliy kengashlarda hamda ommaviy axborot vositalari orqali aholiga hisobot berishi zarurligi aytiladi.

\* \* \*

**25-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, «Saxovat» va «Muruvvat» internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ma'naviyat va ijodni

qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-mart – Xalqaro teatr kuni munosabati bilan O'zbekiston teatr san'ati xodimlariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**26-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha qo'shma komissiya-ning navbatdagi yig'ilishi ishida ishtirok etish uchun Toshkentda bo'lib turgan Qirg'iz Respublikasi Bosh vaziri Ulukbek Maripovni qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston-Qirg'iziston do'stlik, yaxshi qo'sh-nichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash maqsadida yaqinda bo'lib o'tgan oliy darajadagi sammitda qabul qilingan kelishuvlarni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish muhim ekanini alohida ta'kidladi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston Prezidenti tovar ayirboshlash hajmini oshirish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish, sanoat, energetika,

qishloq va suv xo'jaligida muhim kooperatsiya loyihalarini ilgari surish, Taraqqiyot fondi faoliyatini tez fursatda yo'lga qo'yish hamda hududlararo va madaniy-gumanitar almashinuvlarni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

«Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston» temir yo'lini qurishni tez fursatda boshlash hamda Andijon-O'sh-Saritosh-Irkeshtom multimodal yo'lga bo'ylab yuk tashishlar hajmini oshirishning dolzarb ahamiyati qayd etildi.

Uchrashuv yakunida Qirg'iz Respublikasi Bosh vaziri ikki mamlakat davlat rahbarlari o'rtasida erishilgan hamda keng ko'lamli O'zbekiston-Qirg'iziston hamkorligini izchil rivojlantirishga qaratilgan kelishuvlarni so'zsiz amalga oshirishga bor sa'y-harakatini yo'naltirishga tayyor ekanini ta'kidladi.

\* \* \*

**29-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kimyo sanoati tarmog'ida amalga oshirilayotgan loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik subyektlari talab etayotgan mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha yangi-yangi loyihalar shakllantirish zarurligi ta'kidlandi.

Taqdimotda kimyo korxonalaridagi davlat ulushini qisqartirish, ularni transformatsiya qilish, sohaga korporativ boshqaruv va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini joriy etish borasidagi ishlar yuzasidan ham ma'lumot berildi.

«O'zkimyosanoat» aksiyadorlik jamiyati tuzilmasini o'zgartirish,

malakali kadrlar tayyorlash yuzasidan vazifalar qo'yildi.

Tadbirda ichimlik suvi tarmoqlari va avtomobil yo'llari holati bo'yicha o'tkazilgan xatlov natijalari ham ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari xalqaro tajribani qo'llab, qurilishni arzon lashtirish, ekspluatatsiya sifatini ta'minlash, ajratilgan mablag'lar manzilli va samarali ishlatilishini nazorat qilish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**29-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari Ko'ksaroy qarorgohida bo'lib o'tdi. Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Viktor Orban tor doirada uchrashuv o'tkazdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mehmonni mamlakatimizga tashrifi bilan qutlab, bu tashrif ikki davlat o'rtasidagi aloqalarda yangi davrni boshlab berishini ta'kidladi.

Muzokarada siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnik va madaniy-gumanitar sohalardagi munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

Tomonlar O'zbekiston – Vengriya munosabatlarini o'zaro ishonch va keng doiradagi umumiy manfaatlarga asoslangan strategik sheriklik darajasiga ko'tarishga tayyor ekanligini tasdiqladi. Uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlash, o'zaro

manfaatli yangi sohalarni ishga solish, ishbilarmon doiralar va hududlar o'rtasidagi aloqalarni qo'llab-quvvatlashga kelishib olindi.

Tomonlarni qiziqtirgan xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan fikr almashildi. Tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha qarashlar va yondashuvlar umumiy ekani tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban muzokaralarni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida davom ettirdilar.

So'nggi to'rt yilda ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro savdo aylanmasi hajmi salkam uch barobarga o'sgan. Murakkab pandemiya sharoitiga qaramay, o'tgan yili ham bu ijobiy dinamika saqlab qolingan.

Muzokarada ikki tomonlama hamkorlik bobida hali ishga solinmagan juda katta imkoniyatlar borligi ta'kidlandi. Shu bois asosiy e'tibor savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va moliyaviy aloqalarni yanada rivojlantirish masalalariga qaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatlarimiz o'rtasidagi tovar ayirboshlashni ko'paytirish, savdo hajmi muvozanatini tenglashtirish, zarur mahsulotlarni o'zaro yetkazib berishni ko'paytirish muhimligini ta'kidladi.

Bu borada Budapeshtda tashkil etilayotgan O'zbekiston – Vengriya savdo uyi imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligi qayd etildi.

Sanoat kooperatsiyasi – hamkorlikning yana bir ustuvor yo'nalishidir. Vengriyaning ilg'or taj-

ribasi asosida O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, kimyo va mashinasozlik sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirishga kelishib olindi.

Davlatimiz rahbari ikki mamlakat hududlari o'rtasida sheriklik aloqalarini o'rnatish, har yili Mintaqalar forumini o'tkazish taklifini bildirdi.

Vengriya atom energetikasi, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, mevalarni saqlash va qayta ishlash, baliqchilik hamda urug'chilik sohalaridagi ilg'or tajriba va texnologiyalar bilan almashishga tayyorligini bildirdi.

Uchrashuvda madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni rivojlantirish masalalariga ham katta e'tibor qaratildi.

Mamlakatlarimiz sog'liqni saqlash, ilm-fan va ta'lim bo'yicha tajriba almashib kelmoqda. Joriy o'quv yilida o'zbekistonlik talabalar uchun Vengriyadagi oliy o'quv yurtlarida 100 dan ortiq grant ajratilgan. 2021-yilda Toshkentda Debretsen universiteti ish boshlaydi.

Mutasaddilarga muzokaralarda erishilgan kelishuvlar ijrosini to'liq ta'minlash uchun «yo'l xaritasi» ishlab chiqish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Muzokaralar yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev va Bosh vazir Viktor Orban O'zbekiston Respublikasi bilan Vengriya o'rtasidagi strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani imzoladilar.

Shuningdek, tashrif doirasida ko'p qirrali sheriklikni kengaytirishga

qaratilgan 10 dan ortiq hujjat imzolandi.

Marosimda ikki mamlakat vazirliklari rahbarlari imzolangan hujjatlarni almashdilar.

Tashrif doirasida O'zbekistonda Debretsen universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish to'g'risidagi bitim ham imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda Prezident Shavkat Mirziyoyev so'nggi yillarda Vengriya bilan munosabatlar faol rivojlanib, sifat jihatidan yuqori bosqichga ko'tarilganini ta'kidladi.

Bosh vazir Viktor Orban O'zbekiston Prezidenti sa'y-harakatlari tufayli ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar jadal rivojlanayotganini qayd etdi.

Madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish, jumladan, ta'lim sohasida aloqalarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Fan, madaniyat va sport sohalaridagi aloqalarni faollashtirishga ham kelishib olingani ma'lum qilindi.

O'zbek olimi Isoq Ibrohim vengriyalik mashhur Herman Vamberining do'sti va shogirdi bo'lgan, salkam o'ttiz yil Budapeshtda yashab, ilmiy faoliyat olib borgan. U mashhur vengr yozuvchisi Aran Yanoshning «Ajoyib ohuning hikoyati» asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ushbu asar yaqinda davlatimiz rahbarining so'zboshisi bilan Toshkentda nashr etildi.

Davlatimiz rahbari o'zbek va vengr xalqlari o'rtasidagi tarixiy do'stlikning yorqin ifodasi bo'lgan ushbu kitobni Vengriya Bosh vaziri Orbanga taqdim etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Bosh vazir Viktor Orban Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanida tashkil etilgan O'zbekiston – Vengriya Kartoshkachilik ilmiy markaziga tashrif buyurdilar.

Ushbu ilmiy muassasa Vengriya qishloq xo'jaligi va tabiiy fanlar universiteti bilan hamkorlikda Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi negizida tashkil etilgan.

Shavkat Mirziyoyev va Viktor Orban bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Ilmiy markazda «in vitro», o'simliklar patologiyasi, kartoshkani saqlash fiziologiyasi, sifat nazorati bo'yicha laboratoriyalar tashkil etilgan. Namunalar tayyorlash, yetishtirish va saqlash xonalari zamonaviy jihozlangan. Markaz faoliyatini yo'lga qo'yish uchun Vengriyadan ilmiy xodimlar tashrif buyurgan.

Davlatimiz rahbari mutaxassis va mutasaddilar bilan muloqot qildi. Kadrlar tayyorlashni kengaytirish, dehqon va fermerlarni bu yerda o'qitib, sohadagi yutuqlarni barcha hududlarga yetkazish zarurligini ta'kidladi.

Mehmonlar fermerlar uchun tashkil etilgan agroxizmatlar markazi, yurtimiz qishloq xo'jaligida qo'llanilayotgan texnika va texnologiyalarni ham ko'zdan kechirdi.

\* \* \*

**30-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiri-



tish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**31-mart.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining videoanjuan shaklida o'tgan norasmiy sammitida ishtirok etdi.

Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev raislik qilgan tadbirda Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi, Turkiy kengashning Faxriy raisi Nursulton Nazarboyev, Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban va Turkiy kengash bosh kotibi Bag'dod Amreyev qatnashdi.

Tadbirda tashkilot doirasida iqtisodiyot, savdo, transport sohalaridagi ko'p qirrali amaliy hamkorlikni hamda madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida mustahkam tarixiy rishtalar, mushtarak til, madaniyat va ma'naviy qadriyatlar asosida shakllangan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmiga aylanib borayotganini alohida ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari turkiy tilli mamlakatlar o'rtasida sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va yirik sarmoyaviy loyihalarni amalga oshirish ustuvor vazifalardan biri

ekani, Turkiy kengash doirasida Investitsiya jamg'armasi va Taraqqiyot bankini tashkil etish va ishga tushirish bo'yicha amaliy ishlarini jadallashtirish zarurligini ta'kidladi.

O'zbekiston Prezidenti mintaqamizning ulkan strategik ahamiyatga ega transport va tranzit salohiyatidan yanada unumli foydalanishga, Osiyodagi global bozorlarga chiqish imkoniyatini kengaytirish maqsadida Markaziy Osiyo hududida transport yo'laklarini, shuningdek, Ozarbayjon va Turkiya orqali Yevropa bozorlariga eltuvchi yo'nalishlarni rivojlantirish, logistika infratuzilmasini kengaytirish bo'yicha yirik loyihalarni birgalikda amalga oshirishga chaqirdi.

Shavkat Mirziyoyev Turkiy kengashga a'zo mamlakatlardagi muqaddas qadamjolar bo'ylab «Tabarruk ziyorat» loyihasini amalga oshirish, shu maqsadda Ziyorat turizmini rivojlantirish dasturini qabul qilish tashabbusini bildirdi.

Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning turkiy dunyo ma'naviy-ma'rifiy hayotiga qo'shgan beqiyos hissasini inobatga olib, davlatimiz rahbari fan, ta'lim, adabiyot, san'at, ijtimoiy sohalardagi yutuqlar hamda turkiy dunyo birligini mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlarni rag'batlantirish maqsadida Turkiy kengash doirasida Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotni ta'sis qilishni taklif etdi.

O'zbekiston Prezidentining tashabbuslari sammit ishtirokchilari tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlandi.

Oliy darajadagi uchrashuv yakunida Turkiston deklaratsiyasi qabul qilinib, unda norasmiy sammitda erishilgan asosiy kelishuvlar aks etdi.

\* \* \*

**1-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida aholi salomatligini saqlash va koronavirusga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Ma'lumki, 2020-yil 12-noyabrda davlatimiz rahbarining birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish to'g'risida farmoni, tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlash bo'yicha qarori qabul qilingan edi.

Yig'ilishda ushbu vazifalar ijrosi haqida so'z bordi.

Prezidentning 12-noyabrdagi yana bir qaroriga ko'ra, Sirdaryo viloyatida sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish bo'yicha tajriba-sinov o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari bu tajribani tizimli davom ettirib, barcha hududlarda joriy etish bo'yicha ko'rsatma berdi. Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarining vertikal ish tizimini takomillashtirib, ularni oilaviy shifokor punktlari bilan bog'lash zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda kadrlar masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq vaziyatga alohida to'xtaldi.

Bosh vazirga koronavirusga qarshi kurashish bo'yicha hududiy shtablar faoliyatini kuchaytirish, tun-u kun ishlaydigan «koll-markaz»lar va mobil brigadalar faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriq berildi. Dori-darmon va himoya vositalarining kamida 3 oylik zaxirasini shakllantirish, hududlarda 60 ta kislorod stansiyasini ishga tushirib, reanimatsiya va intensiv davolash bo'limlarini kislorod bilan uzluksiz ta'minlash vazifasi qo'yildi.

Fuqarolarni yashash manzili bo'yicha emlash kuni va joyi haqida xabardor qilib borish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**1-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**1-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tomorqa xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**1-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Obod qishloq» va

«Obod mahalla» dasturlarini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Andijon viloyati Asaka tumanini obodonlashtirish va arxitektura qiyofasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Eron Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Muhammad Javad Zarifni qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan Eron o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-logistika va boshqa sohalaridagi hamkorlikning bugungi ahvoli va ularni rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

Uchrashuvda iqtisodiy hamkorlik masalalariga, savdo aloqalarini rivojlantirish va yangi kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy siyosatning tomonlarni qiziqtirgan dolzarb jihatlari, jumladan, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va Afg'onistonda tinchlik jarayonini ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Eron tashqi siyosiy idorasi rahbari O'zbekistonning Afg'oniston bo'yicha tinchlik muzokaralariga

ko'maklashish, ushbu mamlakatni mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikka jalb etish borasidagi sa'y-harakatlarini yuqori baholadi.

\* \* \*

**5-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqaro «Innoprom» sanoat ko'rgazmasida ishtirok etish uchun Toshkent shahrida bo'lib turgan Rossiya Federatsiyasi sanoat va savdo vaziri Denis Manturov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi keng ko'lamlı amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish, strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Denis Manturov davlatimiz rahbariga ikki mamlakatning yetakchi sanoat kompaniyalari va bank-moliya institutlari ishtirokida yirik kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha birgalikda amalga oshirilayotgan ishlarning natijalari to'g'risida ma'lumot berdi.

Suhbat chog'ida biznes va hududlar darajasidagi ko'p qirrali sheriklikni mustahkamlash, iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi hamkorlikni kengaytirish va yangi loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**6-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi parlamentining Milliy Assambleya Spikeri Pak Byon Sok boshchiligidagi delegatsiyasini qabul qildi.

Suhbat chog'ida ikki tomonlama munosabatlar va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi do'stlik va alohida strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashda parlamentlar muhim o'rin tutayotgani ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari faol almashinuvlar davom etayotgani, keng ko'lamli O'zbekiston – Koreya hamkorligi jadal rivojlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Pak Byon Sok samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, O'zbekiston Prezidentiga Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda global iqtisodiy vaziyat murakkab bo'lib turgan bir paytda o'zaro savdo hajmi saqlab qolinishiga erishilayotgani ta'kidlandi.

Milliy Assambleya Spikeri va deputatlari mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish borasidagi faol sa'y-harakatlar uchun, shuningdek, Seulning Koreya yarim orolidagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etish borasidagi harakatlari, Yangi shimoliy siyosatni amalga oshirish doirasidagi mintaqaviy tashabbuslari qat'iy qo'llab-quvvatlanayotgani uchun O'zbekiston Prezidentiga samimiy tashakkur izhor etdilar.

«Koreya Respublikasi – Markaziy Osiyo» hamkorlik forumi doirasidagi yaqin muloqotni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

Sog'liqni saqlash, ta'lim, ilm-fan va madaniyat, gumanitar almashinuv sohalaridagi qo'shma dasturlarni amalga oshirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**6-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Milliy antidoping agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish hamda suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliya-

tini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kino san'ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Muborak Ramazon oyini munosib tarzda o'tkazish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash borasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilishda hokimlar va sektor rahbarlariga o'z hududida tadbirkorlikning ahvoli ko'rsatib o'tildi.

Tadbirkorlik uchun yer va binolar ajratish masalasi ham muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari aholi bandligini ta'minlash uchun ularga o'zi yashaydigan mahallada sharoit yaratib berish zarurligini ta'kidladi.

Tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

\* \* \*

**9-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «II Xalqaro baxshichilik san'ati festivaliga tayyorgarlik ko'rish va baxshichilik san'atini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Taqdimotda yil yakuniga qadar amalga oshirilishi mo'ljallangan loyihalar to'g'risida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bilan chegaralanmasdan, qo'shimcha loyihalarni ko'paytirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va hajmini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Taqdimotda, shuningdek, Andijon shahri yaqinida qurilishi rejalashtirilgan «Yangi Andijon» turar joy

massivining bosh rejasi haqida ham ma'lumot berildi.

Prezident loyiha bilan tanishib, uy-joylarni puxta va sifatli loyihalashtirish, uni amalga oshirishda mahalliy mutaxassislarning salohiyatidan unumli foydalanish, unda imkon qadar ko'proq yashil hududlar, bog' va xiyobonlar tashkil etilishini, aholining dam olishi va mehnat qilishi uchun qulay sharoitlarni nazarda tutish bo'yicha topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**13-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

– Eng muhim vazifa, avvalo, yoshlar bandligini ta'minlash, munosib daromad olishi uchun ularga sharoit yaratib berish. Bu boradagi eng katta imkoniyat va zaxiramiz – tadbirkorlik, ayniqsa, kichik va o'rta biznesdir, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shundan kelib chiqib, mutasaddilarga yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash borasidagi imkoniyatlarni yanada kengaytirish va bandligini ta'minlash bo'yicha yangi mexanizm joriy etish vazifasi qo'yildi. Bu tizimda xalqqa ham, tashkilotlarga ham ma'qul bo'ladigan bir qancha imtiyozlar belgilanadi.

Yig'ilishda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalariga ham e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda «Barkamol avlod» bolalar markazlari bor-yo'g'i 175

ming nafar yoshni qamrab olgan, xolos. Shu bois ushbu muassasalar imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, har bir maktabda ularning tarmoq filiallarini tashkil etish orqali qamrovni oshirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Turli festival va musobaqalar o'tkazib, yoshlarni sport, madaniyat va san'atga qiziqtirish, nufuzli xalqaro tanlovlarga olib chiqish izchil davom ettiriladi.

Davlatimiz rahbari har bir oliy o'quv yurti yon-atrofidagi mahallalar uchun ma'naviyat markazi, madaniyat o'chog'i bo'lishi kerakligi, bu borada rektorlarning o'rni umuman sezilmayotganini ta'kidladi.

\* \* \*

**13-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy

tashrif bilan bo'lib turgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (YXHT) amaldagi raisi, Shvetsiya Qirolligi tashqi ishlar vaziri Ann Linde boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda mamlakatimizning YXHT bilan konstruktiv sherikligini rivojlantirish, O'zbekiston bilan Shvetsiya o'rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari YXHT bilan samarali muloqotning bugungi darajasini mamnuniyat bilan qayd etdi hamda Shvetsiyaning tashkilotga raisligining ustuvor yo'nalishlarini qo'llab-quvvatladi.

Suhbatda O'zbekiston Prezidenti YXHT bilan ko'p qirrali sheriklikni, avvalo, mamlakatimizda muhim ichki siyosiy tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik doirasida kengaytirishning asosiy yo'nalishlariga alohida to'xtaldi.

O'zbekiston tashkilotning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi va Parlament assambleyasi bilan sermahsul muloqotni davom ettirishdan manfaatdor ekani qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti Shvetsiya bilan ikki tomonlama munosabatlarning istiqbollari haqida so'z yuritarkan, ta'lim sohasida hamkorlik qilish, Shvetsiya yetakchi kompaniyalarining innovatsiyalari va investitsiyalarini mamlakatimizga jalb etish, savdo va kooperatsiya

aloqalarini kengaytirishni muhim yo'nalishlar sifatida qayd etdi.

Shvetsiyada O'zbekistonning diplomatik missiyasini tashkil etish mamlakatlarimiz o'rtasidagi va umuman skandinav davlatlar bilan hamkorlikning mavjud salohiyati va keng imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

YXHTning amaldagi raisi, Shvetsiya tashqi ishlar vaziri ili qabul va ochiq suhbat uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Ann Linde O'zbekistonda yangi bosqichda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash borasidagi siyosatni yuqori baholadi va qo'llab-quvvatladi.

YXHT doirasidagi qo'shma tashabbuslar qo'llab-quvvatlanayotgani hamda Shvetsiya bilan amaliy hamkorlikni rivojlantirish masalalariga yuksak e'tibor qaratilayotgani uchun minnatdorchilik bildirildi.

\* \* \*

**14-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Imron Xonning videoanjuman shaklidagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Kun tartibidan ko'p qirrali O'zbekiston - Pokiston sherikligining dolzarb masalalari, shu jumladan, konstruktiv siyosiy muloqotni rivojlantirish, savdo, investitsiyalar, transport va tranzit sohalaridagi amaliy hamkorlikni, hu-

dudlar o'rtasidagi almashinuvlarni kengaytirish, madaniy-gumanitar hamkorlik dasturlarini ilgari surish masalalari o'rin oldi.

Keyingi yillarda oliy va yuqori darajadagi muntazam muloqotlar ikki tomonlama munosabatlarning jadal rivojlanishiga, ularni aniq mazmun bilan boyitishga xizmat qilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Jumladan, birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan Transafg'on temir yo'lini qurish bo'yicha strategik loyiha amalga oshirilmoqda. Ta'lim, madaniyat va turizm sohasidagi ikki tomonlama hamkorlik ham kengaymoqda.

Onlayn-uchrashuvda O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi sheriklik va amaliy hamkorlikni kengaytirishning asosiy vazifalari batafsil ko'rib chiqildi va birinchi galdagi choralar belgilab olindi.

Konstruktiv siyosiy muloqotni, parlamentlararo hamda xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasidagi yaqin aloqalarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratildi.

Transport va tranzit sohasidagi ustuvor loyihalarni ilgari surish, tovar ayirboshlashni ko'paytirish va ishlab chiqarish kooperatsiyasini kuchaytirish uchun qulay sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish, jumladan, imtiyozli savdo to'g'risida bitim va iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida hamkorlik borasida «yo'l xaritasi»ni qabul qilish, qo'shma ishbilarmonlik forumlarini o'tkazish yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

Ikki mamlakat yetakchilari Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan tez fursatda hal etish masalalariga alohida to'xtaldilar. Ushbu mamlakatning jadal iqtisodiy tiklanishiga qaratilgan sa'y-harakatlar qo'llab-quvvatlandi.

Uchrashuv yakunida Qo'shma bayonot qabul qilindi hamda standartlashtirish va metrologiya, qishloq xo'jaligi hamda boshqa sohalarda qator muhim hujjatlar imzolandi.

\* \* \*

**15–16-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlardagi o'zgarishlar, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari belgilash maqsadida Samarqand viloyatida bo'ldi.

Prezidentimizning viloyatdagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishuvi Samarqand xalqaro aeroportidan boshlandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yili Samarqand viloyatiga tashrifi chog'ida Imom Buxoriy yodgorlik majmuasini kengaytirish zarurligini ta'kidlagan edi. Shunga muvofiq, majmuaning yangi loyihasi ishlab chiqildi. Prezident huzurida bir necha bor taqdimot qilinib, takomillashtirildi. Jahon tajribasi ham o'rganildi.

2021-yil muborak Ramazon kunlarida ushbu ziyoratgohning qurilishi boshlandi. Shu munosabat bilan bu yerda nuroniylar va ziyolilar bilan uchrashuv bo'ldi.

Qur'on oyatlaridan o'qilib, duo qilindi.

Davlatimiz rahbari majmuada amalga oshirilayotgan ishlarni ko'zdan kechirdi.



Davlatimiz rahbari Samarqand shahrida O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov qabrini ziyorat qildi. Marhumning haqiga Qur'on tilovat etildi.

Samarqand – qadimiy shahar. Uning tarixiy qiyofasini saqlash muhim bo'lganidek, aholining o'sib borayotgan ehtiyoji uchun sharoit yaratish ham kerak. Shu bois shahar chekkasidagi Qorasuv mavzesida ko'p qavatli zamonaviy uy-joylar bunyod etilmoqda.

Davlatimiz rahbari bu yerda barpo etilayotgan uy-joylar va infratuzilma tarmoqlarining sifatiga alohida e'tibor qaratdi. Quruvchi tashkilotning sifat uchun mas'uliyati va javobgarligini yanada kuchaytiradigan mexanizm ishlab chiqish zarurligini ta'kidladi.

Shu yerda Samarqand shahri Bosh rejasi va shahar hududini kengaytirish loyihalari taqdimoti o'tkazildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand tumanida barpo etilayotgan turizm markazi qurilishini ko'zdan kechirdi.

Prezidentimizga mazkur yangi sayyohlik markazi imkoniyatlari, sayyohlarga ko'rsatiladigan xizmatlar haqida ma'lumot berildi. Davlatimiz rahbari markaz boshqaruvini samarali tashkil etish, turizm sohasida mutaxassislar tayyorlash bo'yicha topshiriqlar berdi.

Shu yerda Samarqandning turizm infratuzilmasini rivojlantirish loyihalari taqdimot qilindi.

Samarqand shahrida ilk bor gastronomik ko'cha, Samarqand tumani «Konigil» mahalla fuqarolar yig'i-

nida yurtimizdagi birinchi turizm qishlog'i tashkil etildi.

Davlatimiz rahbari mazkur turistik markazni shahar bilan bog'laydigan yo'l o'tkazgichni borib ko'rdi, Usta Umar Jo'raqulov va Afrosiyob ko'chalarida amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Shundan so'ng Shavkat Mirziyoyev «Urgut» erkin iqtisodiy zonasidagi korxonalar faoliyati bilan tanishdi.

Prezidentimiz iqtisodiy zona hududidagi «Kamalak Tekstil» korxonasi faoliyati bilan tanishdi. Urgut tumanining Mergancha massivida joylashgan ushbu shirkatda gilam va tafting, kovrolin mahsulotlari, sintetik ip va sun'iy chim ishlab chiqarilmoqda.

Mahalliyashtirishni kengaytirish, boshqa tumanlarda ham shunday korxonalar tashkil etib, ish o'rinlarini ko'paytirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Prezident «Sam elektro servis» mas'uliyati cheklangan jamiyati mahsulotlarini ham ko'zdan kechirdi.

«Urgut» erkin iqtisodiy zonasida ayni paytda qiymati 90 million dollarlik 29 ta loyiha bo'yicha qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda. Mazkur loyihalar ishga tushirilishi natijasida yana 2 mingdan ziyod yangi ish o'рни yaratiladi.

Davlatimiz rahbari iqtisodiy zona imkoniyatlaridan samarali foydalanish, yangi va istiqbolli loyihalarni ko'paytirish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Shu yerda samarqandlik nuroniylar bilan muloqot bo'ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand viloyati Jomboy tumanidagi «Sag Agro» mas'uliyati cheklangan jamiyatining «In vitro» laboratoriyasini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari yosh mutaxassislar bilan suhbatlashdi.

Shu yerda viloyat qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari pavloniya daraxti yetishtirishni ko'paytirish, bu borada Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish, zarur mablag' ajratish bo'yicha topshiriq berdi.

16-aprel kuni Shavkat Mirziyoyev ishtirokida viloyat faollari yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Vatanimiz mustaqilligining 30 yilligi nishonlanadigan joriy yilda Samarqand viloyatida yuqori natijalarga erishish uchun hozirdan marrani baland olib, aniq belgilash lozimgiligini ta'kidladi. Shu jihatdan viloyatni kompleks rivojlantirish, aholi hayotini yaxshilash bo'yicha eng muhim yo'nalish va vazifalar, sanoat, transport logistikasi, turizm va boshqa sohalardagi «o'sish nuqtalari» belgilab olindi.

Kunning ikkinchi yarmida Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahrida ochilgan ko'p tarmoqli tibbiyot markazi faoliyati bilan tanishdi.

«Zarmed praktiksha hospital group» nomli ushbu qo'shma korxonada O'zbekiston va Hindiston hamkorligida tashkil etilgan. Qo'sh-

ma korxonaning dastlabki loyihasi bo'lgan mazkur tibbiyot markazi uchun 8,5 million AQSH dollari sarflangan.

Mutasaddilarga Samarqandda xususiy tibbiyot universiteti va klinikadan iborat tibbiyot klasterini tashkil etish, xorijda ishlab yurgan samarqandlik shifokorlarni ishga taklif etish uchun viloyat hokimligida jamg'arma tuzib, ularni imtiyozli uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Samarqand filialida davolanayotgan O'zbekiston Qahramoni, Oliy Majlis Senati a'zosi Hasan Normurodovni borib ko'rdi.

Shavkat Mirziyoyev fidoyi mehnat faxriysiga mustahkam sog'lik va bardamlik, uzoq umr tiladi.

Shu bilan Prezidentning Samarqand viloyatiga tashrifi yakunlandi.

\* \* \*

**19-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Uzbekistan airways» hamda «Uzbekistan airports» aksiyadorlik jamiyatlarini transformatsiya qilish chora-tadbirlari taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari aeroportlar infratuzilmasini rivojlantirish, yo'lovchi va yuk tashish hajmini har yili oshirib borish, hududlardagi aeroportlarda ketring va boshqa xizmatlarni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ikkinchi jahon uru-

shu qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat xaridlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**22-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda xizmat ko'rsatish sohasi yo'nalishlarini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda Prezident har bir loyiha ijrosini nazoratga olib, tadbirkorlarga ko'maklashish, shu bilan birga, yangi loyihalarni shakllantirib borish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Har bir hududning o'ziga xosligidan kelib chiqib, xizmatlarni kengaytirish, yangi xizmat turlarini yo'lga qo'yish, ilg'or tajribalar va namunaviy loyihalarni joriy etish bo'yicha yangi metodologiya yaratish zarurligi ta'kidlandi. Buning uchun, O'zbekiston milliy banki huzurida xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha loyiha-tahliliy markazi tashkil etiladi va barcha viloyatlardagi filiallarida uning bo'limlari ochiladi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni moliyaviy ta'minlash masalasiga alohida to'xtaldi.

Xizmat ko'rsatishda eng muhim masala – bu manzilni to'g'ri tanlash. Shu bois Qurilish vazirligiga viloyat hokimlari bilan birga, savdo va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan ko'chalar hamda markazlarning joyini tanlab, loyhasini ishlab chiqish, lotlarga bo'lib, tanlov asosida savdoga chiqarish topshirildi.

Ko'p tarmoqli shifoxonalar va uning atrofida xususiy sheriklik asosida tibbiyot klasterlari, oliy o'quv yurtlari hududida xorijiy tillar, tayyorlov va kasbga o'rgatish kurslari tashkil etish bo'yicha ham topshiriqlar berildi.

**23-aprel.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Bangladesh Xalq Respublikasi elchisi Muhammad Jahongir A'lam, Chexiya Respublikasi elchisi Vatslav Yilek, Misr Arab Respublikasi elchisi Amira Fahmiy, Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi elchisi Demiya Zuhayr Haddod, Turkiya Respublikasi elchisi Olgan Bekar, Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi rahbari Sharlott Adrian va Rossiya Federatsiyasi elchisi Oleg Malginovdan ishonch yorliqlarini qabul qilib oldi.

Tadbir avvalida davlatimiz rahbari yangi tayinlangan elchilarni mamlakatimizdagi diplomatik missiyasi boshlangani bilan samimiy tabrikladi.

O'zbekiston xorijiy mamlakatlar va xalqaro tuzilmalar bilan konstruktiv muloqotni yanada rivojlantirish, o'zaro manfaatli hamkorlik va amaliy sheriklikni kengaytirishga muhim ahamiyat qaratayotgani ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari yangi elchilar vakillik qilayotgan mamlakatlar bilan keng ko'lamli va uzoq muddatli hamkorlikning istiqbollariga alohida to'xtalib o'tdi.

Davlatimiz rahbari so'zining yakunida diplomatik vakolatxonalar rahbarlariga ularning O'zbekiston bilan do'stlik rishtalari va ko'p qirrali hamkorlikni mustahkamlash yo'lidagi mas'uliyatli va sharafli faoliyatiga katta muvaffaqiyatlar va zafarlar tiladi.

O'zbekiston Prezidenti yangi tayinlangan elchilar bilan qisqa suhbatlar o'tkazdi.

**23-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizdagi diplomatik missiyasini yakunlayotgan Tojikiston Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Sodiq Imomiyini qabul qildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarida bugungi kunda ikki birodar mamlakat yetakchilarining siyosiy irodasi va qat'iy harakatlari tufayli yuksak darajaga erishilganini alohida ta'kidladi.

Bugungi kunda ikki tomonlama hamkorlik barcha yo'nishlarni qamrab olgan va jadal rivojlanishda davom etmoqda, aniq mazmun bilan boyimoqda.

Davlatimiz rahbari ikki tomonlama munosabatlarning bugungi yuksak darajasiga erishishdagi katta xizmatlari va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan shaxsiy hissasi uchun elchi Sodiq Imomiyini O'zbekiston Respublikasining Faxriy yorlig'i bilan taqdirladi.

Diplomat uning mamlakatimizdagi faoliyati yuksak baholangani va har tomonlama qo'llab-quvvatlangani uchun O'zbekiston Prezidentiga chuqur minnatdorlik bildirdi.

Sodiq Imomiy mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi birodarlik munosabatlarini mustahkamlash yo'lidagi maqsad va vazifalarni so'zsiz amalga oshirishga bundan buyon ham bor kuch-g'ayratini qaratishini ta'kidladi.

\* \* \*

**23-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va sanoat korxonalari faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab «Hududiy elektr tarmoqlari» aksiyadorlik jamiyatining Elektr energiyasini hisobga olishni avtomatlashtirish markazi faoliyati bilan tanishdi.

Shu yerda Elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish loyihasi haqida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari markazdagi situatsion xonani ham kirib ko'rdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Yashnobod tumanidagi Texnoparkdagi yangi korxonalar faoliyati bilan tanishdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Yashnobod tumanidagi «Parvoz» mahallasida bo'lib, aholi hayoti bilan tanishdi.

Mahallada 9 ta xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati faoliyat yuritardi. Joriy yil yanvarida «Shinam uy-joy» boshqaruv servis kompaniyasi tashkil etilgach, ko'p qavatli uylarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilandi.

Davlatimiz rahbari ushbu kompaniya binosini ko'zdan kechirdi.

Prezident kompaniya binosidan samarali foydalanish, bu yerda shirkat faoliyatiga kirmaydigan, lekin odamlarni qiziqtiradigan xizmat turlarini yo'lga qo'yish bo'yicha tavsiyalar berdi.

Prezident ko'p qavatli uylar hovlisida o'ynayotgan bolalarga ezgu tilaklar bildirdi.

Mutasaddilarga poytaxtimizdagi barcha 524 ta mahallani shunday obod qilish, buning uchun har biriga mablag' ajratib, loyihalarini tasdiqlash bo'yicha topshiriq berildi.

Shu yerda nuroniylar, jamoatchilik vakillari bilan samimiy suhbat bo'ldi.

\* \* \*

**26-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sanitariya-epidemiologiya xizmati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev ko'p kvartirali uylarni boshqarish tizimini takomillashtirishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 37 ming 402 ta ko'p qavatli uy, ularda 1 million 300 mingdan ortiq xonadon bor. Bu uylarning 68 foiziga shirkatlar, 24 foiziga boshqaruv kompaniyalari xizmat ko'rsatadi, 8 foiz uylar esa mulkdorlar tomonidan umuman boshqarilmaydi.

Davlatimiz rahbari ko'p qavatli uylarda yashovchi odamlarni qiynab kelayotgan bu masalaga e'tibor qaratib, xizmat ko'rsatish tizimini yaxshilash bo'yicha mutasaddilar oldiga vazifa qo'ygan edi.

Shunga muvofiq, chet ellik mutaxassislarni jalb etgan holda joylarga chiqilib, aholi va shirkatlar vakillari

bilan fikrlashilib, muammolar chuqur o'rganildi. Xorij tajribasi asosida ko'p kvartirali uylarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Hisob-kitoblarning shaffofligini ta'minlash maqsadida boshqaruv tashkilotlari va shirkatlarning elektron reyestrini yuritish, har bir ko'p qavatli uyga alohida shaxsiy hisob raqam ochish, uyning xizmat ko'rsatish hududini aniq belgilash, mulkdorlarga hisobot berish tartibini takomillashtirish, hisob-kitoblarga billing tizimini joriy qilish mo'ljallangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev sohani tubdan takomillashtirib, xizmat ko'rsatish bo'yicha zamona-viy tizim yaratish yuzasidan topshiriqlar berdi. Ko'p qavatli uylarni qurishdan oldin xizmat ko'rsatishni o'ylash, turar joylar fondi va hududini oqilona saqlash kerakligini ta'kidladi.

Ta'mirlanadigan uy-joylar qamrovini kengaytirish, boshqaruv kompaniyalari va shirkatlar uchun malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha ham ko'rsatmalar berildi. Moliya vazirligiga belgilangan chora-tadbirlar uchun mablag' ajratish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**27-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**27-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev erkin iqtisodiy zonalar

va kichik sanoat zonalarida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Mutasaddilarga zarur mablag'larni ajratish va maqsadli ishlatilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Yig'ilishda Prezident Shavkat Mirziyoyev endigi eng muhim masala erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalaridagi loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirish ekanini ta'kidladi.

Joriy yilda erkin iqtisodiy zonalarda umumiy qiymati 1,1 milliard dollar bo'lgan 332 ta loyiha, kichik sanoat zonalarida umumiy qiymati 9,5 trillion so'm bo'lgan 1 ming 800 ta loyiha ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Bu loyihalar yurtimizda sanoatni yanada rivojlantirish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim omil bo'lishi qayd etildi.

\* \* \*

**28-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2021-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo'ldi.

Ashxobod xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o'rinbosari – tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov kutib oldi.

Ashxobod shahrida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Turkmaniston yetakchisiga otasi Malikguli Berdimuhamedovning vafoti munosabati bilan O'zbekiston xalqi va shaxsan o'z nomidan yana bir bor chuqur hamdardlik bildirdi.

Turkmaniston Prezidenti hamdardlik uchun tashakkur izhor etib, birodar o'zbek xalqi va uning yetakchisi ushbu musibatli damlarda dalda bo'layotganini yuksak baholashi va qadrlashini alohida qayd etdi.

Muzokaralar chog'ida O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.

Shu bilan bir qatorda savdo, investitsiyalar, sanoat kooperatsiyasi bo'yicha, eng avvalo transport, energetika, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq va suv xo'jaligi sohalarida mavjud salohiyatni yanada to'liq ishga solish zarurligiga e'tibor qaratildi.

Xalqaro transport va tranzit yo'lagini yaratish to'g'risidagi Ashxobod bitimini bundan buyon ham birgalikda ilgari surish, shuningdek, Xitoy – Markaziy Osiyo – Janubiy Kavkaz – Turkiya multimodal marshrutining samarali ishlatilishini ta'minlash va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish borasidagi hamkorlikni davom ettirishga tomonlar tayyor ekani ta'kidlandi.

Muzokaralarda xalqlarimiz yaqinligining eng muhim omili sifatida madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash dolzarb ekani yana bir bor qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti Turkmaniston rahbariga uning xalqlarimiz o'rtasidagi birodarlik munosabatlarning navbatdagi yorqin ramzi sifatida Ashxobod shahrida «Toshkent» bog'ini tashkil etish tashabbusi uchun alohida minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston va Turkmaniston yetakchilari ikki mamlakat xalqlarining ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnihilik rishtalarini yanada mustahkamlash yo'lida o'zaro ishonch va hurmat tamoyillari asosidagi strategik sheriklik munosabatlarini izchil mustahkamlashda qat'iy ekanliklarini tasdiqladilar.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov «Turkmanboshi ruhi» majmuasiga tashrif buyurdi.

Turkmanistonning birinchi Prezidenti Saparmurat Niyozov maqbarasi ziyorat etildi. O'tganlar haqiga Qur'on suralari tilovat qilindi.

Majmua yaqinida Turkmaniston Prezidentining otasi Malikguli Berdimuhamedov xotirasiga bag'ishlab iftor dasturxonini yozildi. Tadbirda ikki mamlakat muftiylari, ulamolar, yoshullilar va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari so'zining avvalida Malikguli otaning vafoti munosabati bilan xalqimiz nomidan chuqur ta'ziya bildirdi. Marhumning

ibratli hayoti, samarali faoliyati, savobli ishlari yodga olindi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonga amaliy tashrifi yakunlandi.

\* \* \*

**29-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Muloqotda ikki tomonlama va xalqaro kun tartibining dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Keyingi yillarda O'zbekiston – Xitoy do'stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarida yuksak darajaga erishilgani, mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

«Bir makon, bir yo'l» tashabbusi doirasidagi samarali muloqot, shu jumladan, mintaqada muhim infratuzilmaviy loyihalarni, ular qatorida «XXR – Qirg'iziston – O'zbekiston» avtomobil va temir yo'llarini qurish loyihasini ilgari surish ishlari davom etayotgani qayd etildi. O'zbekistonning Markaziy va Janubiy Osiyo o'zaro bog'liqligini mustahkamlash bo'yicha taklifi qo'llab-quvvatlandi.

Yetakchilar savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va moliyaviy hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida to'xtaldilar.

Murakkab sharoitlarga qaramasdan, pandemiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish va joriy yil boshidan o'zaro savdoning 33 foizga

o'sishini ta'minlashga erishilgani ta'kidlandi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston va Xitoy yetakchi korxonalarining turli tarmoqlardagi kooperatsiyasini kuchaytirish, shuningdek, iqtisodiyotning yuqori texnologik tarmoqlaridagi loyihalarni ilgari surishda o'zaro ko'maklashish zarurligini qayd etdilar. Keng ko'lamli savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik bo'yicha o'rta muddatli qo'shma dasturni tayyorlash va qabul qilish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Mamlakatimiz yetakchi bank-moliya institutlarining Xitoy Davlat taraqqiyot banki va Eksimbanki, Ipak yo'li fondi bilan hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar doirasidagi sherikligining bugungi darajasi yuksak baholandi.

Parlamentlararo aloqalarni davom ettirish, ikki mamlakat hududlari o'rtasidagi faol almashinuvlarni qayta tiklash, madaniy-gumanitar sohada hamkorlik dasturlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Suhbat chog'ida xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar, shu jumladan, «Xitoy – Markaziy Osiyo» formatidagi hamkorlik yuzasidan ham fikr almashildi.

Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasidagi ko'p tomonlama munosabatlar va amaliy hamkorlikni kengaytirish, mamlakatimizda ushbu tashkilotning sammitini o'tkazish masalalari muhokama qilindi. SHHT Muloqot guruhining Afg'onistondagi tinchlik jarayoniga ko'maklashish va ushbu mamlakatni iqtisodiy tiklashdagi muhim o'rni qayd etildi.



Yetakchilar bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini ko'rib chiqdilar hamda rejadagi XRR Raisining O'zbekiston Respublikasiga tashrifiga keng ko'lamlı hamkorlikni rivojlantirish, ko'p asrlik mustahkam do'stlik rishtalari va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashda muhim tarixiy ahamiyat kasb etadigan voqea sifatida puxta tayyorgarlik ko'rish muhim ekanini qayd etdilar.

O'zbekiston Prezidenti va XRR Raisining telefon orqali muloqoti har doimgidek, ochiq, do'stona va o'zaro ishonch ruhida o'tdi.

\* \* \*

**29-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**29-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholini ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga doir choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**29-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festivalini o'tkazish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Boksni yanada rivoj-

lantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda bo'lib turgan YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi direktori Matteo Mekachchi boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan DIIHB o'rtasidagi konstruktiv muloqot va samarali sheriklikni rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari ikki tomonlama hamkorlik rivojida keyingi yillarda jiddiy oldinga siljishga erishilganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Byuroning keng ko'lamlı missiyasi ilk bor mamlakatimizdagi Prezident va parlament saylovlarini kuzatishda ishtirok etdi.

DIIHBning tavsiyalarini implementatsiya qilishda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksini qabul qilish va takomillashtirish doirasida muvaffaqiyatli hamkorlik olib borilgani ta'kidlandi.

Byuro ekspertlari Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiya hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqishga jalb etilgan edi.

O'zbekiston DIIHB bilan, eng avvalo, inson huquqlari, so'z, din va e'tiqod erkinligi, gender tenglik, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlarning huquqiy bazasini ilg'or xalqaro amaliyot asosida mustahkamlash borasida

uzoq muddatli va samarali sheriklikni davom ettirishdan manfaatdor ekani ta'kidlandi.

YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi direktori Matteo Mekachchi samimiy qabul hamda ochiq va mazmunli suhbat uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

\* \* \*

**30-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari Tojikiston – Qirg'iziston chegarasidagi vaziyatning rivojlanishini muhokama qildilar.

O'zbekiston Prezidenti yuzaga kelgan vaziyatni tez fursatda hal qilish va uning keskinlashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha Tojikiston va Qirg'iziston tomonlari erishgan kelishuvlarni qo'llab-quvvatladi.

Mavjud barcha masalalar do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va sheriklik munosabatlari ruhida, faqat muzokaralar va maslahatlashuvlar yo'li bilan hal qilinishi muhim ekani ta'kidlandi.

Tojikistonga bo'lajak oliy darajadagi tashrifga tayyorgarlikning borishi ham ko'rib chiqildi. Mamlakatlarimiz bosh vazirlarining Xo'jand shahrida o'tkazgan amaliy uchrashuvining samarali natijalari mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasida uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan keng ko'lamli hamkorlikning yangi «o'sish nuqtalari»ni

birgalikda aniqlash muhimligi alohida ta'kidlandi.

\* \* \*

**30-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbatda mintaqaviy hamkorlik va ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalar ko'rib chiqildi.

Prezidentlar Qirg'iziston – Tojikiston chegarasida yuzaga kelgan vaziyatni va uni tez fursatda hal qilishni muhokama qildilar. Qirg'iziston va Tojikiston tomonlari vaziyatni barqarorlashtirish va uning yanada keskinlashishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan kelishuvlarga erishgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yuzaga kelayotgan barcha bahsli masalalar ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, ishonch va sheriklik ruhidagi muloqot asosida hal qilinishi zarur ekani ta'kidlandi.

Davlat rahbarlari joriy yil mart oyida Toshkent shahrida o'tgan sammit yakunida qabul qilingan qo'shma qaror va kelishuvlarni amalga oshirish masalalariga alohida to'xtaldilar.

Qabul qilingan majburiyatlarni so'zsiz bajarish va ustuvor loyihalarni ilgari surish maqsadida faol almashinuvlarni davom ettirish va hamkorlikni kengaytirish muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**30-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fuqaro aviatsiyasi korxonalarini transformatsiya qilish va qo'llab-quvvatlash chora-

tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-aprel.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlarda mahalliy sanoatni rivojlantirish chora-tadbirlari muhokamasi bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Majlisda mahalliy sanoatni rivojlantirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish masalalari muhokama qilindi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga mahalliy sanoatning har bir yo'nalishi, xususan, qurilish materiallari, to'qimachilik, ipakchilik, farmatsevtika, elektrotexnika, charm-poyabzal, zargarlik, chinni buyumlari, mebelsozlik, oziq-ovqat sanoati kabi tarmoqlar bo'yicha hududlar kesimida alohida dasturlar ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Yig'ilishda sanoat tarmoqlari uchun malakali mutaxassislar tayyorlash masalasiga ham alohida to'xtalib o'tildi. Chunki joylarda zamonaviy muhandis va texnologlar yetishmasligi tadbirkorlarga qiyinchilik tug'dirmoqda.

Shu bois Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga hududlar ehtiyojidan kelib chiqib, xorijiy oliygoxlar bilan hamkorlikda muhandis va texnologlar tayyorlashni kengaytirish yuzasidan topshiriq berildi.

\* \* \*

**1-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatining Qibray tumanida barpo etilayotgan bog' hududiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan poytaxtimiz yaqinida ulkan manzarali bog' barpo etilmoqda. 25-fevral kuni ushbu bog' loyihasi muhokama qilingan edi.

Shu munosabat bilan bu yerga parlament va hukumat a'zolari, Toshkent shahri jamoatchiligi, nuroniyalar, ilm-fan va san'at vakillari, sportchilar, yoshlar yig'ildi.

Mustaqilligimizning 30 yilligiga bag'ishlangan Istiqlol majmuasi ham shu yerda barpo etiladi.

Prezidentimiz bu majmuaning tarixiy-g'oyaviy ahamiyatini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu bog' O'zbekistonning yangi qiyofasini, ulkan salohiyatini, ko'pmillatli xalqimizning jipsligi va ahilligini namoyon etadigan majmua bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Shuni hisobga olib, bu muhtasham boqqa «Yangi O'zbekiston» deb nom berishni taklif etdi. Yig'ilganlar bu taklifni qo'llab-quvvatladi.

Davlatimiz rahbari jamoatchilik bilan birga yangi boqqa ko'chatlar o'tqazdi.

\* \* \*

**1-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov telefon orqali muloqot qildilar.

Suhbatda kuni kecha o'tgan muloqotlar davomi sifatida ikki davlat rahbarlari Qirg'iziston - Tojikiston chegarasidagi vaziyatning rivojlanishini muhokama qildilar.

O'z vaqtida ko'rilgan va o'zaro muvofiqlashgan sa'y-harakatlar tufayli davlat chegarasi qismidagi

vaziyatni barqarorlashtirishga erishilgani va uning keskinlashishiga yo'l qo'yilmagani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston va Qirg'iziston yetakchilari Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha masalalarni birodar mamlakatlar va xalqlar o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va sheriklik munosabatlarini mustahkamlash maqsadida konstruktiv va ishonchga asoslangan muloqot orqali birgalikda hal qilish borasida qat'iy ekanliklarini yana bir bor ta'kidladilar.

\* \* \*

**3-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik jarayoniga oid taqdimot bilan tanishdi.

Yaponiya poytaxti Tokio shahrida bo'lib o'tadigan mazkur nufuzli musobaqaga sportchilarimizni tayyorlash uchun keng sharoit yaratilgan edi. Yuqori malakali mutaxassislar jalb qilinib, yuzlab o'quv-mashg'ulotlar tashkil etildi. Bugungi kungacha sportchilarimiz yozgi Olimpiya o'yinlariga 41 ta, Paralimpiya o'yinlariga 16 ta yo'llanma olgan.

Taqdimotda Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik holati tanqid qilinib, qoniqarsiz deb baholandi. May-iyul oylaridagi musobaqalarda yana yo'llanmalarni qo'lga kiritish uchun sportchilar va ularning jamoasini qo'llab-quvvatlash zarurligi ta'kidlandi. Sportchilarga xizmatlarni kuchaytirish, ularni har

tomonlama rag'batlantirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Federatsiyalar faoliyatini takomillashtirib, jalb qilingan malakali sport menejerlari bilan birga olimpiadachilarning jismoniy, tibbiy va psixologik holatini yaxshilash uchun har bir sport turi bo'yicha alohida dasturlar ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**4-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash jarayonini sod-dalashtirish hamda pensiya va nafaqalarni yetkazib berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Samarqand viloyatida eksperiment tariqasida mahallabay ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**6-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish

chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda tizimdagi muammolar atroflicha tahlil qilinib, ustuvor vazifalar belgilandi.

Davlatimiz rahbari o'qituvchilarga munosib sharoit yaratish, malakasiga qarab ularni rag'batlantirish zarurligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari chet tillari bo'yicha eng yaxshi maktablarni aniqlash uchun Prezident sovrinini ta'sis etish taklifini bildirdi.

Maktabgacha ta'lim vazirligiga UNISEF bilan hamkorlikda 7 yoshgacha bo'lgan bolalarga chet tillarini o'qitish bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqib, joriy etish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda oliy ta'lim tizimida mutaxassislar tayyorlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda oliygohlardagi 78 foiz professor-o'qituvchilarning chet tilini bilish darajasi qoniqarsiz ahvolda ekani ko'rsatib o'tildi.

Har bir vazirlik, idora, davlat kompaniyalari va yirik xususiy korxonalarda til o'rganishni qo'llab-quvvatlash, haftaning bir kunini belgilab, xorijiy tillarni o'rganish uchun sharoit yaratish zarurligi ta'kidlandi.

Til o'rgatuvchi videodarslar, film va ko'rsatuvlar yaratish, elektron dasturlar ishlab chiqish bo'yicha ham topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**7-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlat rahbarlari fashizm ustidan qozonilgan G'alabaning 76 yilligi munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutlab, ezgu tilaklarini izhor qildilar.

Yelkama-yelka turib birga qahramonona jang olib borgan va front ortida fidokorona mehnat qilgan xalqlarimizning buyuk jasorati minnatdor avlodlar yodida abadiy saqlanib qolishi alohida ta'kidlandi.

O'zbekiston – Rossiya strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Rossiyaning yetakchi kompaniya va banklari ishtirokida O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida yirik kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

O'zaro savdoni ko'paytirish bo'yicha birgalikda qo'shimcha choralar ko'rish zarurligi alohida ta'kidlandi.

Parlamentlararo almashinuvlar kengaymoqda, ta'lim va madaniy-gumanitar almashinuv bo'yicha muhim dasturlar amalga oshirilmoqda.

Muloqotda Prezidentlar xalqaro kun tartibi hamda mintaqaviy hamkorlik, shu jumladan, MDH, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasidagi sheriklikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashdilar. Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi.

Telefon orqali muloqot har doimgidek samimiy, do'stona va ishchan ruhda o'tdi.

\* \* \*

**7-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublika-

sining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Yetakchilar G'alaba kuni va yaqinlashib kelayotgan muborak Ramazon hayiti bilan bir-birlarini samimiy tabriklab, birodar xalqlarimizga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

Suhbatda O'zbekiston – Qozog'iston ko'p qirrali hamkorligining dolzarb masalalari muhokama qilindi, Markaziy Osiyodagi vaziyat yuzasidan fikr almashildi.

Turli darajalardagi faol va samarali ikki tomonlama muloqotlar tufayli hamkorlik ijobiy sur'atda rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Joriy yil boshidan tovar ayirboshlash hajmi 28 foizga o'sdi. O'tgan oyda chegaraoldi hududlardan birida Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha xalqaro markaz qurilishi boshlandi.

Ustuvor investitsiya va infrazuzilma loyihalarini birgalikda tayyorlash va amalga oshirish, jumladan, Uchquduq – Qizilo'rda avtomobil va temir yo'llari hamda Turkiston – Toshkent tezyurar temir yo'lini qurish ishlari olib borilmoqda.

Ikki mamlakat hududlari yaqindan hamkorlik qilmoqda, madaniy-gumanitar almashinuv borasidagi muhim dasturlar davom ettirilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti va Elboshi birodar xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalari, ishonch va sheriklik ruhidagi aloqalarni mustahkamlash maqsadida keng ko'lamli va o'zaro manfaatli

hamkorlikni yanada kengaytirish muhim ekanini alohida ta'kidladilar.

\* \* \*

**7-may.** Mamlakatimiz jamoatchiligi og'ir judolikka uchradi. Davlat va jamoat arbobi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, taniqli olim va pedagog Rustam Qosimov og'ir kasallikdan so'ng vafot etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'ziyali xonadonga tashrif buyurib, marhumning farzandlari va yaqinlariga hamdardlik bildirdi.

Davlatimiz rahbarining ko'ngil so'rashi og'ir damda marhumning oilasiga hamdardlik, katta dalda bo'ldi.

Qur'on oyatlari tilovat etilib, duo qilindi.

Prezidentimiz marhumning ezgu ishlarini yodga oldi.

Marhumning oilasi doimiy e'tiborda bo'lishi ta'kidlandi.

\* \* \*

**9-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Olmazor tumanidagi G'alaba bog'iga tashrif buyurdi.

Atrof bayramona bezatilgan. Qurolli Kuchlar tizimiga kiruvchi vazirlik va idoralarning rahbarlar tarkibi saf tortgan. Harbiy orkestr ijrosida «Xotirlash kuyi» yangradi.

Prezident «Matonat madhiyasi» yodgorlik majmuasiga gulchambar qo'ydi.

G'alaba bog'idagi amfiteatrda 9 may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 76 yilligi bilan barcha faxriylarni, butun xalqimizni tabrikladi.

Davlatimiz rahbari Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi bayram ishtirokchilari, nuroniylar bilan videoaloqa orqali muhoqot qildi.

Shavkat Mirziyoyev tadbirga kelgan urush va mehnat faxriylari bilan salomlashib, hol-ahvol so'radi. Ularga sihat-salomatlik, uzoq umr tiladi. Keksalar mamlakatimizga tinchlik-osoyishtalik, xalqimizga farovonlik tilab duolar qildi.

Prezident nuroniylar bilan birga bayramga bag'ishlangan konsert dasturini tomosha qildi.

Shavkat Mirziyoyev Shon-sharaf muzeyidagi yangi ekspozitsiya bilan tanishdi.

Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari haqidagi ma'lumotlarning elektron bazasini yaratish, kitoblar chop etish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**10-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ramazon hayitini nishonlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi islohotlar natijadorligiga oid taqdimot bilan tanishdi.

Taqdimotda sohadagi muammolar va ularning yechimlari muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari sohani yanada rivojlantirish, aholiga qulayliklarni oshirish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Xorijiy tajriba asosida, shu yil yakunigacha davlat xizmatlari markazlari orqali ko'rsatiladigan xizmatlar sonini 200 taga yetkazish vazifasi qo'yildi. Barcha 716 ta davlat xizmatini inventarizatsiya qilib, ularning muddatlari, to'lov miqdorlari, shartlari va boshqa talablarini soddalashtirish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Idoralararo integratsiya darajasini oshirish, buning uchun davlat xizmatlariga to'lovlarning 20 foizini tashkilotlarning axborot texnologiyalari tizimini rivojlantirishga yo'naltirish, qog'oz shaklidagi arxiv hujjatlarini raqamlashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Elektron raqamli imzo bilan ishlash tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari portalining mobil ilovasini rivojlantirish, nogironligi bo'lgan shaxslarga to'lovlarda chegirma berish choralari belgilandi.

\* \* \*

**11-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining moddiy ta'minotini yanada kuchaytirish choratadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbir-

lari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqiga Ramazon hayiti tabrigi yo'lladi.

\* \* \*

**12-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Prezidentlar ikki tomonlama munosabatlarning dolzarb masalalarini batafsil muhokama qildilar. Koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq murakkab sharoitda ko'p qirrali hamkorlik izchil rivojlanib borayotgani ta'kidlandi.

Davlat rahbarlari sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi, infratuzilma, transport, turizm, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarida qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishning borishi ko'rib chiqildi.

Telefon muloqoti chog'ida yetakchilar xalqaro siyosat masalalari yuzasidan fikr almashdilar.

Prezidentlar Sharqiy Quddusdagi vaziyatning keskin tus olishi munosabati bilan chuqur xavotirda ekanliklarini bildirdilar. Falastin-Isroil muammosi xalqaro huquq normalariga muvofiq, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashi tomonidan avval qabul qilingan rezolutsiyalar asosida tinch yo'l bilan hal etilishi lozimligi qayd etildi.

Turkiy kengash, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik

tashkiloti va boshqa tuzilmalar doirasidagi sheriklikka alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston va Turkiya Prezidentlarining muloqoti har doimgidek o'zaro ishonch ruhida, ochiq va do'stona o'tdi.

\* \* \*

**12-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yaponiya Bosh vaziri Yosixide Suga bilan telefon orqali muloqot qildi.

O'zbekiston - Yaponiya strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

2019-yil dekabr oyida Yaponiyaga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrifdan so'ng amaliy hamkorlikda, ochiq va samarali muloqotda yuksak natijalarga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlatimiz rahbari yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan kompleks islohotlar dasturini faol qo'llab-quvvatlayotgani hamda koronavirusga qarshi kurash va pandemiyaning iqtisodiy oqibatlarini yengib o'tishda ko'rsatilgan yordam uchun Yaponiya Bosh vaziri va Hukumatiga samimiy minnatdorlik bildirdi.

Yaponiya Bosh vaziri, o'z navbatida, yangilanishlarni yanada ilgari surish, zamonaviy sanoat va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish maqsadida O'zbekistonga moliyaviy-texnik ko'makni kengaytirishga tayyor ekanini ta'kidladi.



Yaponiya tomoni Toshkent Koreya yarim orolini yadroviy quroldan xoli hududga aylantirish va o'g'irlangan yapon fuqarolarini qaytarish masalasini muttasil qo'llab-quvvatlayotgani uchun alohida minnatdorlik bildirdi.

Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va moliyaviy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Prezidenti JISA agentligi, Yaponiyaning yetakchi kompaniyalari va bank-moliya institutlari bilan samarali sheriklikni yuksak baholadi. O'tgan yilda global inqiroz va karantin cheklovlariga qaramay, yaponiyalik sarmoyador va mutaxassislar bilan birgalikda To'raqo'rg'on IES qurilishi, Navoiy IESni kengaytirishning ikkinchi bosqichi, «Navoiyazot» korxonasida ammiak va karbamid ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologik quvvatlarni ishga tushirish kabi ustuvor loyihalar amalga oshirildi.

O'zaro savdo va investitsiyalar hajmini oshirish uchun qulay shartsharoitlar yaratish muhim ekani alohida ta'kidlandi.

Davlat rahbarlari qo'shma biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali vositalarini joriy etish tashabbusini ma'qulladi.

Shuningdek, xalqaro kun tartibi, mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalari yuzasidan fikr almashildi. Tomonlar «Markaziy Osiyo – Yaponiya» formatidagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga tayyor ekanliklarini qayd etdi.

O'zbekiston va Yaponiya yetakchilarining telefon orqali muloqoti har doimgidek ochiq, do'stona va ishchan ruhda o'tdi.

\* \* \*

**12-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida hududlar va tarmoqlarda iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha birinchi chorakdagi ko'rsatkichlar tahlili hamda joriy yilgi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Murakkab pandemiya sharoitida davlatimiz tomonidan iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlar har tomonlama qo'llab-quvvatlangani natiijasida iqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va ish o'rinlarini saqlab qolishga erishildi.

Jumladan, birinchi chorakda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 3 foizga, sanoat 3,8 foizga, qishloq xo'jaligi 3,1 foizga o'sgan. Davlat budjeti daromadlari prognozga nisbatan qariyb 2 trillion so'mga ko'paygan. Eksport hajmi yanvar-aprel oylarida 3,2 milliard dollarni tashkil etgan.

Yig'ilishda ayrim tarmoq va hududlardagi sustkashliklar ko'rsatib o'tildi.

Davlatimiz rahbari birinchi yarim yillikdagi qoloqliklarni bartaraf etish, qo'shimcha zaxiralarni topib, amalda ishga solish kerakligini ta'kidladi.

Yig'ilishda davlat korxonalarini transformatsiya qilish masalasiga ham e'tibor qaratildi. «Hudud-gazta'minot», «O'zdonmahsulot»,

«Agroservis», «Agrolizing» korxonalarida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Investitsiya va eksport masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Prezident mutasaddilarga har bir investitsiya loyihasi ijrosini qat'iy nazoratga olib, korxonalar ishga tushirilishini jadallashtirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Prezident ajratilgan kredit resurslarining samaradorligi va qaytini borasidagi kamchiliklarni tanqid qildi.

Mutasaddilarga muammoli korxonalarni aniqlab, ularga «yashirin iqtisodiyot»dan chiqish uchun sharoit yaratish, kreditlarni manzilli va maqsadli ajratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Davlat soliq qo'mitasiga tadbirkorlarning fikr va e'tirozlarini inobatga olib, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarni ro'yxatga olish, soliqlarni hisoblash tizimini yanada takomillashtirish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**12-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Psixiatriya yordami to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**12-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Muborak Ramazon hayitini nishonlash arafasida xalqimizga xos mehr-oqibat, ezgulik, xayr-saxovat kabi olijanob fazilatlarining yorqin ifodasi sifatida «Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushay-

mon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o'tayotgan hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan 100 nafar fuqaro afv etildi.

\* \* \*

**14-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qo'shma Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizga amaliy tashrif bilan kelgan Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzodani qabul qildi.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi ko'p qirrali amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish, do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari ikki mamlakat yetakchilarining siyosiy irodasi va qat'iy sa'y-harakatlari tufayli o'zaro hamkorlikda erishilgan hozirgi yuksak darajani katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

Qohir Rasulzoda O'zbekiston Prezidentiga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmonning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda savdo, mashinasozlik, energetika, qazib olish sanoati, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, transport, turizm va sog'liqni saqlash sohalaridagi istiqbol-

li loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, hududlar va biznes darajasidagi faol muloqotlar hamda madaniy-gumanitar almashinuv dasturlari davom ettiriladi.

Suhbat chog'ida Tojikiston Bosh vaziri ikki davlat rahbarlarining bo'lajak sammitiga birgalikda har tomonlama tayyorgarlik ko'rishga, shuningdek, birodar mamlakatlirimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi keng ko'lamli sheriklikni mustahkamlashga bor kuch-g'ayratini qarashini ta'kidladi.

\* \* \*

**14-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Ramazon hayitining ikkinchi kunida Toshkent shahridagi shifo maskanlarida bo'lib, u yerda davolanayotgan bemor bolalar holidan xabar oldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Respublika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga bordi.

Bu markaz aholiga gematologik va transfuziologik yordam ko'rsatish, shunday kasalliklarning oldini olish va ularni davolash, gematologiya sohasida ilmiy izlanishlar olib borishga ixtisoslashgan.

Prezident markazning sharoitlarini ko'zdan kechirdi. Markazda 3 ta bino bo'lib, 260 ta o'ringa ega. Hozirgi kunda bu yerda 210 nafar bemor davolanmoqda. Shundan 42 nafari bolalardir.

Davlatimiz rahbari ushbu shifoxona uchun yangi bino barpo etish, unda Rossiyaning D.Rogachyov nomidagi tibbiy tadqiqot markazi

tajribasi asosida bolalar onkogematologiyasi markazi tashkil qilish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Prezident shifoxonada davolanayotgan bolalar va ularning onalari bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga tashrif buyurdi.

Markazda 10 ta davolash korpusi bo'lib, 370 ta o'ringa ega. Bu yerda yiliga 9 mingdan ortiq bemorga statsionar, 43 ming nafariga ambulator tartibda xizmat ko'rsatilmoqda.

Davlatimiz rahbari markazda davolanayotgan bolalar va ularning otanalari bilan suhbatlashdi. Bolalarning orzu-niyatlari bilan qiziqdi, ularga dalda berdi.

Prezident bolalar va ularning ota-onalari bilan birga suratga tushdi. Davlatimiz rahbari nomidan bolalarga sovg'alar topshirildi.

Shu yerda onkologiya tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Prezident markazning hozirgi imkoniyatlari yetarli emasligini ta'kidlab, Toshkent tibbiyot akademiyasi klinikasining bo'sh turgan hududida Respublika onkologiya markazining yangi binolarini barpo etish bo'yicha topshiriq berdi.

Ikkinchi asosiy masala – davolash sifatini oshirish. Shu maqsadda joylardagi onkologiya va gematologiya shifoxonalarini ta'mirlab, zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, malakali mutaxassislarni jalb qilish vazifasi belgilandi.

Videselektordan so'ng, davlatimiz rahbari Toshkent tibbiyot akademiyasi hududiga borib, Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi binosi uchun mo'ljallangan joyni ko'rdi. Yangi binoni Janubiy Koreya tajribasi va loyihasi asosida qurish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shu kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrining Uchtepa tumanidagi «Tepaqo'rg'on» mahallasi hayoti bilan tanishdi.

«Tepaqo'rg'on» mahallasi ham shu tarzda obod qilingan. Bu yerda 30 ta ko'p qavatli uy bor, 6 ming 150 nafar aholi yashaydi. Ikkita 100 o'rinli maktabgacha ta'lim muassasasi, bitta ixtisoslashtirilgan maktab-internat faoliyat yuritmoqda.

40 ta kichik biznes subyektida mahalliy yoshlar va ayollar ishlamoqda. Yaqinda bu yerda yana bir ishlab chiqarish korxonasi – «Euroasia print» bosmaxonasi qurib bitkazildi. Unda 60 dan ortiq ish o'rni yaratildi. Shavkat Mirziyoyev ushbu korxonadagi ish jarayonini ko'zdan kechirdi.

Shu yerda Toshkent shahrida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, ish o'rinlarini ko'paytirish rejalari taqdimoti o'tkazildi.

Mahalla ahli bilan suhbatda nuroniylar Ramazon oyi ro'zasini shukronalik bilan tutganini, yurtimizga tinchlik-farovonlik so'rab duolar qilganini aytishdi.

Davlatimiz rahbari xorijiy tillarni o'rgatish markazi faoliyati bilan ham tanishdi.

\* \* \*

**17-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Qozog'iston Prezidentining birodar mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan katta hissasi qayd etildi.

Muntazamlik kasb etgan va ishonchga asoslangan oliy darajadagi muloqotlar ko'p qirrali O'zbekiston – Qozog'iston munosabatlarining jadal sur'at bilan rivojlanishiga xizmat qilayotgani ta'kidlandi.

Suhbatda ikki tomonlama va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar ko'rib chiqildi. Avval erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi hamkorlikning barcha ustuvor yo'nalishlarda yanada kengayishiga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

\* \* \*

**17-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlash va metrologiya milliy tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda sanoatni rivojlantirish, mahsulotlar sifatini oshirish, jahon bozorlariga chiqish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, ishlab chiqarishda, eksport va import jarayonlarida standartlar bilan bog'liq yana ko'plab vazifalar bor. Ayrim tartib-

taomillar tadbirkorlarga qiyinchilik tug'dirmoqda.

Taqdimotda shu masalalarni hal etish, sohadagi tartiblarni takomillashtirish bo'yicha takliflar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga sanitariya-epidemiologik xulosa olinadigan mahsulotlar ro'yxatini maqbullashtirish, qo'shimcha muvofiqlik sertifikatini talabini bekor qilish masalasini ko'rib chiqish bo'yicha topshiriq berdi.

Import mahsulotlar sinovi bojxona rasmiylashtiruv jarayonida amalga oshirilib, bunga 60 kungacha vaqt ketmoqda. Shu bois bu boradagi hujjatlarni kamida 30 kun oldin bojxona elektron dasturiga joylashtirish tizimini yo'lga qo'yish vazifasi belgilandi.

Sohani takomillashtirishda jahon tajribasidan foydalanilmoqda. Jumladan, Yevropada faqatgina 28 turdagi xavfi yuqori bo'lgan mahsulot majburiy sertifikatlanadi, qolgan barcha turdagi tovarlar muvofiqligi deklaratsiyalash orqali tasdiqlanadi.

Taqdimotda shunday tizimni tajriba-sinov tariqasida amaliyotga kiritish zarurligi qayd etildi. Dastlabki bosqichda 800 ga yaqin mahsulot turi bo'yicha deklaratsiyalash tartibi joriy etiladi.

Xalqaro talablar bilan uyg'unlashmagan qolgan 11 mingta milliy standart o'rniga xalqaro standartlarni qabul qilish hamda 2023-yildan barcha korxonalarni ushbu standartlarga o'tkazish bo'yicha ko'rsatma berildi.

«O'zstandart» agentligi tizimidagi 20 ta sinov laboratoriyasi faoliyatini xalqaro darajada tashkil etib, birinchi navbatda oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, elektr texnikasi, yengil sanoat, gigiyena va parfumeriya mahsulotlari hamda qurilish materiallarining xalqaro standartlarga muvofiqligini baholashni yo'lga qo'yish muhimligi ta'kidlandi.

Yevropa Ittifoqining «GSP+» tizimi doirasidagi imtiyozlardan keng foydalanish uchun korxonalariga xalqaro sertifikatlar olishda ko'maklashish kerakligi qayd etildi.

Jahon savdo tashkilotining Savdodagi texnik to'siqlar hamda Sanitariya va fitosanitariya choralari to'g'risidagi bitimlari normalaridan kelib chiqib, ushbu sohalarga mas'ul idoralarning vakolatlarini aniq belgilash vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**18-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo'lib turgan Jahon banki prezidentining o'rinbosari Anna Berde boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston va Jahon banki guruhi o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish, mamlakatimizda va umuman mintaqada barqaror taraqqiyotni ta'minlash maqsadida amaliy hamkorlik darajasini oshirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Bankning har tomonlama ko'magi bilan mamlakatimizda bozor islohotlari va ijtimoiy yangilanishlar

dasturini amalga oshirish davom etayotgani ta'kidlandi.

Uchrashuvda O'zbekistonning Jahon banki bilan yangi besh yillik Sheriklik dasturini puxta tayyorlash va qabul qilishga kelishib olindi.

Jahon banki prezidenti o'rinbosari Anna Berde Bank mamlakatimizdagi iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni yuksak baholashi va ularni amalga oshirishda zarur ko'mak ko'rsatishda davom etishini ta'kidladi.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan Jahon banki bilan ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha taklif etilgan yangi kun tartibi to'liq qo'llab-quvvatlandi.

Uchrashuv yakunida hamkorlikning yuksak sur'atlarini qo'llab-quvvatlash, O'zbekiston va Jahon banki o'rtasidagi strategik sheriklikka doir ustuvor dastur va loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishni jadallashtirish maqsadida doimiy muloqotlar va samarali almashinuvlarni davom ettirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

\* \* \*

**18-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda sohadagi eng muhim vazifalarni bajarishning amaliy jihatlari muhokama qilindi.

Prezident surunkali kasalliklarni birlamchi bo'g'inda davolash, ayniqsa, yurak-qon tomir va oshqozon-ichak xastaliklari profilaktikasini kuchaytirish muhimligini ta'kidladi.

Birlamchi bo'g'inda davolash zarur bo'lgan kasalliklar bo'yicha bepul tibbiy xizmatlar paketi joriy etilishi belgilandi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan hamkorlikda oilaviy shifokorlar malakasini oshirish, «Qishloq shifokori» dasturi doirasida olis va chekka hududlarga mutaxassislarni jalb qilish kerakligi qayd etildi. Oilaviy shifokor punkti va poliklinikalarda shtatlar normativi, shifokorlar va o'rta tibbiyot xodimlarining malaka talablari, jihozlash standartlarini takomillashtirish vazifasi qo'yildi.

Davlatimiz rahbari ixtisoslashgan markazlar bilan viloyat, tuman va shahar shifoxonalarini samarali bog'lab, malakali tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish zarurligini ta'kidladi.

Yig'ilishda onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Avvalo, ularni sog'lom turmush tarziga o'rgatish, bolalarning to'g'ri ovqatlanishini yo'lga qo'yish muhimligi ta'kidlandi. Har bir hudud bo'yicha tahlillardan kelib chiqib, maqsadli skrininglar o'tkazish vazifasi qo'yildi.

Viloyatlarda Perinatal va Skrinining markazlari yagona klaster sifatida birlashtirilib, tumangacha tushadigan bo'g'in tashkil qilinishi qayd etildi.

\* \* \*

**18-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Rossiyskiye jelezniye dorogi» kompaniyasi («RJD» OAJ) bosh direktori – boshqaruvi raisi Oleg Belozyorovni qabul qildi.

Temiryo‘l aloqalari sohasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikning yangi yo‘nalishlari hamda butun mintaqaning tranzit salohiyatini samarali ishga solishga qaratilgan muhim infratuzilmaviy loyihalarni ilgari surish yo‘llari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari ikki mamlakat temiryo‘l ma‘muriyatlari o‘rtasida, shu jumladan, xalqaro tarmoq tuzilmalari doirasida an‘anaviy yaqin va sermahsul ishbilarmonlik aloqalari qaror topganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Pandemiya sharoitida, keng rivojlangan va o‘zaro integratsiyalashgan transport kommunikatsiyalari, eng avvalo temiryo‘llar koronavirus oqibatlariga muvaffaqiyatli qarshi kurashish hamda O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning jadal sur‘atini saqlab qolishga xizmat qilgani ta’kidlandi.

Amaliy sheriklikni kengaytirish, jumladan, mamlakatimizda temiryo‘llar tizimini takomillashtirish bo‘yicha hamkorlik qilish, yuk tashishlar hajmini ko‘paytirish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tashish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, yo‘lovchi poyezdlarining qatnovini qayta tiklash va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Xalqaro moliyaviy institutlarni jalb qilgan holda «Mozori Sharif – Kobul – Peshovar» temiryo‘lini qurish loyahasini birgalikda ilgari surish masalasi ham ko‘rib chiqildi.

Loyihani har tomonlama tayyorlash, shu jumladan, texnik hujjatlarni ishlab chiqish va qurilishni tez fursatda boshlashga qaratilgan ishlarda ishtirok etish yuzasidan kelishuvga erishildi.

«RJD» rahbari Oleg Belozyorov tarmoq kompaniyalari temiryo‘llar sohasidagi sheriklikning ustuvor vazifalarini amalga oshirishda keng ko‘lamda hamkorlik qilishga tayyor ekanini ta’kidladi.

\* \* \*

**21-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev videoanjuman shaklida o‘tgan Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig‘ilishida ishtirok etdi.

O‘zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi huzuridagi kuzatuvchi davlat maqomini ushbu tashkilotning 2020-yil 11-dekabrda sammitida olgan edi.

O‘tgan davrda Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum va uni amalga oshirish bo‘yicha uch yillik chora-tadbirlar rejasi imzolandi. Mamlakatimiz vakillari YOIning ko‘p tomonlama tadbirlarida ishtirok etmoqda. Joriy yil aprel oyida Toshkent shahrida birlashmaning Sanoat siyosati bo‘yicha kengashi yig‘ilishi va xalqaro «Innoprom» ko‘rgazmasi o‘tkazildi.

Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev

raisligida o'tgan Oliy kengashning navbatdagi yig'ilishida kengash Faxriy Raisi, Qozog'istonning Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev, Armaniston Respublikasi Bosh vaziri vazifasini bajaruvchisi Nikol Pashinyan, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, YOII huzuridagi kuzatuvchi davlat – Kuba Prezidenti Migel Bermudes va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi Hay'ati Raisi Mixail Myasnikovich ham ishtirok etdi.

Tadbir kun tartibidan iqtisodiyotning turli tarmoqlarida amaliy hamkorlik qilish hamda YOII faoliyatini takomillashtirishga doir dolzarb masalalar o'rin oldi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida hal etilishi o'zaro muvofiqlashgan yondashuvlarni talab etuvchi eng muhim vazifalarga alohida to'xtaldi.

Epidemiologik vaziyatning barqarorlashuvi va aholini emlash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarni hisobga olib, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi muntazam havo va temiryo'l qatnovini qayta tiklash taklif etildi.

Bundan tashqari, O'zbekistonning YOII soliq va bojxona ma'muriyatchiligi, sanoat, mehnat migratsiyasi va turizm bo'yicha raqamli platformalariga ulanish imkoniyati ko'rib chiqilmoqda, shuningdek, boshqa qator ustuvor yo'nalishlar borasida hamkorlik qilish imkoniyatlari o'rganilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti so'zining yakunida mamlakatimizning kuzatuvchi davlat sifatida Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorligida aniq va sezilarli natijalarga erishish muhim ekanini yana bir bor ta'kidladi.

\* \* \*

**24-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarda maktabgacha ta'lim muassasalari qamrovini kengaytirish masalalari muhokamasi yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilishda sohadagi kamchiliklar ko'rsatib o'tildi. Ularni bartaraf etish, maktabgacha ta'lim qamrovi va sifatini oshirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari asosiysi ta'lim-tarbiya mazmuni ekanini ta'kidlab, oilaviy bog'chalarga o'quv qo'llanma va metodik materiallarni bepul yetkazib berish vazifasini qo'ydi.

Olis hududlarda maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirishning yana bir manbasi – davlat-xususiy sheriklik asosidagi bog'chalardir. Bugungi kunda bunday muassasalarda bir bola uchun 50 foiz xarajatlar subsidiya qilib kelinmoqda.

Yig'ilishda ushbu subsidiya miqdorini 75 foizga yetkazish, xususiy bog'chalarning elektr energiyasi va tabiiy gaz to'lovining 50 foizini davlat budjetidan qoplash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Davlat tomonidan yangi bog'chalar qurish ishlari ham davom ettirilmoqda. 2021–2022-yillarda 23 ta tumanning olis va chekka



hududlarida 50 ta maktabgacha ta'lim muassasasi barpo etish rejalashtirilgan. Buning uchun qamrov darajasi eng past va bolalar soni 250 tadan oshgan 50 ta mahalla tanlab olingan.

Prezidentimiz ushbu bog'chalarni ilg'or xorijiy tajriba asosida qurish, zamonaviy jihozlar va qo'llanmalar bilan ta'minlash yuzasidan topshiriqlar berdi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining 12 ming nafar xodimini o'qitish va malakasini oshirish bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil qilinishi qayd etildi.

\* \* \*

**24-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz maktablarning bitiruvchilariga tabrik yo'l-ladi.

\* \* \*

**25-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev o'simliklarni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Majlisda o'simliklarni himoya qilish bo'yicha yangi tizim tashkil etish, hududlarda bu boradagi xizmatlarni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

O'simliklarni himoya qilish sohasida xususiy sektorni qo'llab-

quvvatlash masalasiga ham to'xtalib o'tildi. Tadbirkorlar xarid qiladigan laboratoriya jihozlari va boshqa uskunalar bo'yicha kredit foizining asosiy stavkadan oshgan qismi budjetdan qoplab berilishi hamda Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan 50 foizgacha bo'lgan qismiga kafillik ajratilishi qayd etildi.

Prezident sohada ilm-fanni rivojlantirish va kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratdi. O'simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot institutining moddiy-texnika bazasini yaxshilab, malakali kadrlar va xorijiy mutaxassislarni jalb qilish zarurligini ta'kidladi.

Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallarida soha mutaxassislarni tayyorlash tizimini kuchaytirish, ilmiy salohiyatni oshirish va zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari bilan ta'minlash bo'yicha hukumat qarori ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Yurtimizda ishlayotgan chet ellik agronomlarni jalb qilib, qishloq xo'jaligi kollejarida o'rta bo'g'in mutaxassislarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriq berildi.

Shaharlardagi mevali va manzarali daraxtlar, buta hamda gullarni himoya qilish xizmatlarini kengaytirish zarurligi ham aytib o'tildi.

\* \* \*

**27-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholiga gematologiya va onkologiya xizmatlarini ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo‘lib turgan Rossiya Federatsiyasi sog‘liqni saqlash vaziri Mixail Murashko boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasida sog‘liqni saqlash sohasidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari bugungi xavf-xatarlar ilg‘or xalqaro tajriba asosida samarali sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish naqadar muhim ekanini yana bir bor ko‘rsatganini alohida ta’kidladi. Pandemiya qarshi kurashishda ko‘rsatilgan ko‘mak, jumladan, aholini emlashda amalga oshirilayotgan samarali hamkorlik uchun minnatdorlik bildirildi.

Ustuvor yo‘nalishlarda, jumladan, onkologiya, gematologiya, virusologiya, nefrologiya, transplantologiya, farmakologiya va boshqa sohalardagi qo‘shma dastur va aniq loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. «Elektron sog‘liqni saqlash» tizimini joriy qilish va telemeditsinani keng rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

Yuqori malakali tibbiyot xodimlarini tayyorlash borasidagi yaqin sheriklikni davom ettirish, jumladan, Toshkent shahrida Rossiyaning yetakchi N.I. Pirogov nomidagi tibbiyot universiteti filiali faoliyatini tez fursatda tashkil etish, shuningdek, Rossiyaning yetakchi klinikalari negizida vrachlar almashish va

ularning malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Sog‘liqni saqlash vaziri Mixail Murashko mamlakatimizda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini tubdan yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yuksak baholab, Rossiya o‘zbekistonlik sheriklar bilan sog‘liqni saqlash sohasidagi keng ko‘lamli tizimli hamkorlikni rivojlantirish hamda tibbiyotning turli sohalarida zamonaviy bilimlar va ilg‘or tajriba bilan bo‘lishishga tayyor ekanini ta’kidladi.

\* \* \*

**28-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ko‘p qavatli uy-joylar barpo etish va ularga xizmat ko‘rsatish tizimini takomillastirish masalalari muhokamasi yuzasidan videosektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Yig‘ilishda ko‘p qavatli uylarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va uy-joy fondini yangilash borasidagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Viloyat markazlari, shuningdek, Nukus, Chirchiq va Angren shaharlarida ayrim mavzularni, tajriba tariqasida, malakali boshqaruv-servis kompaniyalariga berish zarurligi ta’kidlandi.

Yangi qurilgan 3 mingta ko‘p kvartirali uylarga xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilmagani ko‘rsatib o‘tilib, ular uchun boshqaruv kompaniyalari tashkil qilish zarurligi ta’kidlandi.

Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi huzurida uylarni ta’mirlashni moliyalashtirish bo‘yicha

maxsus jamg'arma tashkil etilishi belgilandi. Uning mablag'lari teng ulushlarda respublika va mahalliy budjet hisobidan shakllantiriladi.

Yig'ilishda issiqliq tizimini modernizatsiya qilish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Hududlarni obod qilish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha bajarilayotgan ishlarga ham to'xtalib o'tildi.

Prezidentimiz bu boradagi ishlar ijrosini tanqid qilib, mutasaddilarga qoloqlikni bartaraf etish va loyihalarni sifatli bajarish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**30-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan Seul shahrida videoanjuman shaklida o'tgan «Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030» ikkinchi xalqaro sammiti ishida ishtirok etdi.

Sammitda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish, Yevropa Kengashi Raisi Sharl Mishel va Yevropa Komissiyasi Raisi Ursula fon der Lyayen, Germaniya Kansleri Angela Merkel, Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron, Buyuk Britaniya Bosh vaziri Boris Jonson, XXR Davlat kengashi Bosh vaziri Li Ketsyan, AQSh Prezidentining iqlim masalalari bo'yicha maxsus vakili Jon Kerri, XVF boshqaruvchi direktori Kristalina Georgiyeva, Yashil o'sish global instituti raisi Pan Gi Mun va IHTT bosh kotibi Anxel Gurriya qatnashdi.

O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida «yashil» tiklanish sohasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlarning muhim yo'nalishlarini qayd etdi hamda bu boradagi xalqaro hamkorlikning istiqbollari yuzasidan o'z nuqtayi nazarini bayon qildi.

Davlatimiz rahbari «yashil» va barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan samarali qarorlar qabul qilish uchun butun xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirish zarurligini alohida ta'kidladi.

Mintaqamizda iqlim o'zgarishlari, bug'lanish darajasini oshiruvchi gazlar va atmosfera ifloslanishi muammolari ta'sirida transchegaraviy daryolar oqimi va biologik xilmaxillik qisqarayotgani munosabati bilan jiddiy xavotir bildirdi.

O'zbekiston Parij bitimi doirasida 2030-yilga qadar parnik gazlarini atmosferaga chiqarishni qisqartirish bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishga sodiq ekanini ta'kidlandi.

Prezidentimiz ushbu muhim sohada amaliy hamkorlikni kengaytirish maqsadida O'zbekiston «P4G» sherikligiga qo'shilish hamda uning to'laqonli ishtirokchisiga aylanishga tayyor ekanini bildirdi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**31-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev turizm, shahar infratuzilmasi, sanoat sohalaridagi loyihalar hamda Alisher Navoiy maqbarasini

ta'mirlash va tiklash borasida amalga oshirilayotgan ishlar taqdimoti bilan tanishdi.

Loyihalardan biri Chirchiq daryosi bo'yida turli infratuzilma obyektlari barpo etishga oid. Mazkur daryoning Toshkent shahridan o'tgan qismi 16 kilometrni tashkil etadi. Loyihaga ko'ra, daryo o'zani qisqartirilib, qirg'oqlari obodonlashtiriladi. Buning evaziga ochiladigan maydonlarda zamonaviy uyjoylar, dam olish maskanlari, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish inshootlari qurilishi rejalashtirilgan.

Yana bir loyiha Toshkent xalqaro aeroportidan shahar markaziga o'tishdagi ko'prikn kengaytirishga qaratilgan. Ushbu yo'l o'tkazgich 1967-yilda qurilgan. Poytaxtimiz rivojlanishi va transportlar soni oshishi bilan uni rekonstruksiya qilish ehtiyoji paydo bo'ldi. Shu bois ushbu ko'prikn Kichik halqa yo'li bilan kesishgan joyida aylanma shaklidagi yo'l o'tkazgich qurish rejalashtirilgan. Uning uzunligi 650, eni 30 metr bo'lishi mo'ljallangan.

Shuningdek, davlatimiz rahbariga poytaxtimizdagi Texnoparkda amalga oshirilishi rejalashtirilgan investitsiya loyihalari taqdim qilindi.

Milliy bog' hududida barpo etilayotgan «Magic City» madaniyat va istirohat bog'ining ikkinchi bosqichi doirasida amalga oshiriladigan ishlar to'g'risida ham ma'lumot berildi. Loyiha konsepsiyasiga muvofiq, bog' hududida sun'iy ko'l tashkil etiladi va uning atrofida mamlakatimizning tarixiy va diqqatga sazovor maskanlariga bag'ishlangan tematik shaharcha quriladi.

Prezidentimiz buyuk shoir va mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy maqbarasini ta'mirlash va tiklash, uning atrofini obodonlashtirish loyihasiga alohida e'tibor qaratdi.

Afg'onistonning Hirot shahridagi Alisher Navoiy maqbarasi majmuasida qurilish va obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish imkoniyatlarini o'rganib chiqish vazifasi Prezidentimizning 2020-yil 19-oktabrdagi «Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida»gi qarorida belgilangan edi.

Ushbu topshiriq ijrosini ta'minlash doirasida mamlakatimiz mutaxassislari afg'onistonlik hamkasblari bilan birgalikda maqbarani joyida o'rgandi. O'rganishlar natijasida an'anaviy me'morchilik, san'at va bezak elementlaridan foydalanган holda maqbarani ta'mirlash va tiklash loyihasi ishlab chiqildi.

Taqdim etilgan loyihaga ko'ra, maqbaraning kirish va qolgan yo'laklariga Hazrat Navoiyning hikmatli so'zlari bitilgan kitob ko'rinishidagi belgilar qo'yiladi hamda dekorativ o'rindiqlar o'rnatiladi.

Kirish qismida sakkiz burchakli masjid bunyod etiladi. Kirish peshtog'idan hovli qismining chap va o'ng tomonida yopiq uslubda ayvonlar barpo etiladi. Maqbaraning tashqi ko'rinishiga bezak beriladi. Gumbaz, maqbara oldi va yon qismlari mayolika elementlari bilan ishlanadi. Majmua hududi ko'kalamzorlashtiriladi.

Davlatimiz rahbari loyihalar bilan tanishib, mutasaddilarga ularni

sifatli amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**31-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «IJRO.GOV.UZ» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**31-may.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**1-2-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlar iqtisodiyoti, aholi turmush sharoiti bilan yaqindan tanishish, istiqboldagi rejalarni belgilash maqsadida Surxondaryo viloyatida bo'ldi.

Prezidentimiz viloyatga tashrifini dastlab Sherobod tumanidan boshladi. Bu yerda Birlashgan Arab Amirliklarining «Masdar» kompaniyasi bilan hamkorlikda quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishiga tamal toshi qo'yish marosimi bo'ldi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda viloyat faollari, nuroniylar, yoshlar, videokonferens-aloqa orqali Osiyo taraqqiyot banki va Birlashgan Arab Amirliklarining «Masdar» kompaniyasi rahbariyati ishtirok etdi.

Loyiha doirasida mazkur kompaniya tomonidan 601 gektar may-

donda quvvati 457 MVt bo'lgan quyosh fotoelektr stansiyasi quriladi. Uni amalga oshirish uchun «Masdar» kompaniyasi 260 million dollar investitsiya jalb qiladi. Stansiyaning yillik ishlab chiqarish hajmi 1,04 milliard kVt/soatni tashkil etadi. Natijada, yiliga 340 million kub metr tabiiy gaz tejalib, 300 ming xonadon elektr energiyasi bilan ta'minlanadi.

Shavkat Mirziyoyev quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishi munosabati bilan uning poydevoriga kapsula qo'ydi.

Tashrif davomida Prezidentimiz «Sardorbek Sultonbek» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan Sherobod tumanining «Bo'ston» mahallasida tashkil etilgan anorzorni ko'zdan kechirdi.

43 gektar yerda 30 ming donadan ziyod anor ekilgan. «Qozoqi» navli anorning bir donasi 1 kilogrammdan ziyod tosh bosishi mumkin. Ko'chatlar bu yildan hosilga kirdi. Yiliga ming tonnadan ziyod mahsulot olish mo'ljallangan.

Shu yerda Toshkent davlat agrar universitetining Termiz filiali tadqiqotchilari bilan muloqot bo'ldi.

Surxondaryoda qishloq xo'jaligini innovatsion yo'naltirish bo'yicha institut tashkil etish, anor bilan birga limon, xurmo yetishtirishni ko'paytirish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari tumanning «Kattabog'» mahallasida anorchilik bilan shug'ullanayotgan Abdurahmon Karimov xonadonida ham bo'lib, aholi turmushi va tomorqalardan

foydalanish holati bilan tanishdi. Mahalla ahli, nuroniylar bilan samimiy suhbatda bo'ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Sherobod tumanidagi zamonaviy issiqxonani ko'zdan kechirdi.

«Sherobod agro impeks» mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli ushbu 29 gektarlik issiqxonada pomidor, bodring, bulg'or qalampiri, baqlajon kabi mahsulotlar yetishtirilib, shundan 10 gektari gidroponika usulida. Issiqxona uchun jihoz va asbob-uskunalar Janubiy Koreya davlatidan keltirilgan. 200 ta ish o'rni yaratilgan. Bir gektar yerdan o'rtacha 100 tonna hosil yetishtirish mo'ljallangan.

Suhbat chog'i mahsulot hajmini ko'paytirish orqali uning tannaxsini arzonlashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Bu yerda «Sherobod anor impeks» korxonasi ham tashkil etilgan. 5 million dollarlik mazkur loyiha natijasida anorni qadoqlash va qayta ishlash yo'lga qo'yilgan. Uskunalar Janubiy Koreya va Sloveniyadan keltirilgan. Korxonada 6 ming tonna qadoqlash, 2 ming tonna anor sharbati ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bu yerda 70 kishi ish bilan ta'minlangan.

Sherobod tumanida bir yilda qariyb 30 ming tonna anor yetishtiriladi. Korxonada uchun anor aholi va bog'dorchilik xo'jaliklaridan sotib olinadi. Shundan 8 ming tonnasi eksportga chiqarilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Angor tumanidagi «Angor Surxon g'ururi» klasterida bo'lib, g'alla va g'oz rivojini ko'zdan kechirdi.

Klasterning umumiy yer maydoni 11 ming gektardan ziyod. Mavjud maydonning 4 ming 870 gektarida g'alla yetishtirilmoqda. Klasterda sabzavot va dukkakli ekinlar ham parvarishlanmoqda. Mingga yaqin kishining bandligi ta'minlangan. Davlatimiz rahbari kombayn boshqarib, g'alla o'rdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Termiz tumanidagi «Ayritom» chegara bojxona postini borib ko'rdi.

Ma'lumki, bu inshoot O'zbekiston bilan Afg'oniston o'rtasidagi yagona o'tkazish punktidir. Mazkur bojxona posti shunga yarasha zamonaviy qilib qayta qurildi. Chegara bojxona posti «Raqamli O'zbekiston – 2030» dasturi doirasida eng zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan. Masalan, «Z-Portal» rusumli ko'rik majmuasi avtotransport vositalarini uch tomondan suratga olish imkoniyatiga ega. Bu bir soatda 200 tagacha avtotransportni o'tkazish imkonini beradi. Yurtimizdagi boshqa bojxona postlarida bunday quvvat soatiga 20 ta. Umuman, chegara bojxona postida bir kecha-kunduzda 2 ming nafargacha yo'lovchiga xizmat ko'rsatilishi mumkin.

Yana bir o'ziga xos jihati, «Ayritom» chegara bojxona posti universal bo'lib, biryo'la uch xil – poyezd, avtotransport va fuqarolarga xizmat ko'rsatiladi. Shu bois, o'tkazuvchanlikni tezlashtirish va foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida yagona daracha tamoyili joriy etilgan. Xavfsizlikni ta'minlash uchun «Adani» va «Rapiscan» rusumli qurilmalar, videokuzatuv tizimi o'rnatilgan.

Davlatimiz rahbari shu yerda omaviy axborot vositalari vakillariga intervyu berdi.

«Ayritom» chegara bojxona posti yonida Termiz xalqaro savdo markazi barpo etilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mazkur xalqaro savdo markazi bosh rejasi asosida amalga oshiriladigan ishlar bilan ham tanishdi.

Davlatimiz rahbari markaz binolarini yengil konstruksiyalardan qurish, viloyat tadbirkorlarini bu yerda ishlashga va eksport faoliyatiga jalb qilish, chet ellik ishbilarmonlar uchun barcha qulayliklar yaratish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Termiz xalqaro savdo markazini 2022-yilda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari Termiz shahridagi «Afghan bazar carpets» korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Ma'lumki, Surxondaryoda qo'y ko'p boqiladi. Lekin uning juni deyarli qayta ishlanmaydi. Shu bois Pillachilik va qorako'lchilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan Afg'oniston tajribasi asosida jundan gilam to'qish yo'lga qo'yilmoqda.

Prezident bu loyihani ma'qullab, afg'onistonlik ishbilarmonlar bilan hamkorlikni kengaytirish, jundor qo'y zotlarini ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shavkat Mirziyoyev korxonada ishlayotgan xotin-qizlar bilan mu-loqot qildi.

Majmuada «Silk road tex» korxonasi ham tashkil etiladi. Unda ipakli mato va tayyor mahsulotlar, sport va yo'l sumkalari hamda ipakli gilam ishlab chiqarilishi

rejalashtirilgan. Yiliga 2 million dollardan ziyod eksport maqsad qilingan.

Davlatimiz rahbari 2-iyun kuni Hakim at-Termiziy maqbarasini ziyorat qildi.

Yaratgandan yurtimizga tinchlik-farovonlik tilab duolar qilindi. Ziyolilar bilan suhbatda alloma bobolarimizning ma'rifiy merosini chuqur o'rganish, yoshlarni bilimli va fazilatli insonlar etib tarbiyalash haqida so'z yuritildi.

Termiz shahrida Surxondaryo viloyati mahalliy kengash deputatlari, tadbirkor va fermerlar, nuroniylar, yoshlar, jamoatchilik faollari ishtirokida yig'ilish bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev viloyatni kompleks rivojlantirish, «mahallabay» tizimda aholi hayotini yaxshilash bo'yicha ustuvor vazifalarni ko'rsatib o'tdi.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy infrazuzilmani rivojlantirish masalalariga ham alohida to'xtaldi.

Prezidentimiz viloyatning milliy qadriyatlarini yanada rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratdi. Xonadonlarda qorabayir otlar, do'ppilar, do'mbira bo'lishi o'zgacha fayz berishi aytiladi. Surxondaryoda chavandozlik maktabini tashkil etish topshirig'i berildi. Kelgusi yil yilqichilik, do'mbira, do'ppi kabi milliy qadriyatlarimiz bo'yicha Navro'z sayli Surxondaryo viloyatida bo'lishini ta'kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Termiz shahrida qurilgan ko'pqa-vatli uylarni borib ko'rdi.

Ushbu 9 qavatli uylarda 208 ta xonadon bor. Bu yerga ilk oilalar ko'chib kela boshladi. Ularning ayrimlari xonadonlarni davlat tomonidan berilgan imtiyozlar asosida olgan.

Davlatimiz rahbari shunday ikki oila – Nargiza Rahimova hamda Farrux Egamovning xonadonlarida bo'lib, ular bilan suhbatlashdi.

Umuman, bu yil Surxondaryo viloyatida 3 ming 500 kvartirali ko'p qavatli uylar quriladi. 1 ming 460 ta oilaga ipoteka uchun subsidiya beriladi.

Shu bilan Prezidentimizning Surxondaryoga tashrifi yakuniga yetdi.

\* \* \*

**2-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida bo'lib o'tgan boks bo'yicha Osiyo chempionatida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilgan O'zbekiston terma jamoasiga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**2-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvi ni tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**3-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Ikki tomonlama va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Savdo va logistika, sanoat kooperatsiyasi sohaslarida, zamonaviy transport kommunikatsiyalari va turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha ustuvor loyihalarni ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Yetakchilar Markaziy Osiyoda do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, shuningdek, Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etish masalalari yuzasidan fikr almashdilar. Shuningdek, bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlar rejasi ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**3-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev yer munosabatlarini takomillashtirish masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari yer resurslarini talon-toroj qilish, o'zboshimchalik bilan egallash borasidagi kamchiliklarni keskin tanqid qilib, yerni bozor aktiviga aylantirish, uning iqtisodiy qiymatini belgilash va moliyaviy oborotga kiritish bo'yicha ishlarni jadallashtirish, yer ajratish va undan foydalanish sohasida davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarurligini ta'kidladi.

Yig'ilishda yer sohasidagi qonunchilik bo'yicha mavjud ahvol va ilg'or xorijiy tajribani o'rganish



asosida ishlab chiqilgan takliflar ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda yer ajratilishi va undan foydalanilishi ustidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari sohada qonun ustuvorligini ta'minlash shart ekaniga yana bir bor urg'u berib, mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

\* \* \*

**4-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo'lib turgan Qozog'iston Respublikasi Parlamenti Senati Raisi Maulen Ashimbayevni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari oliy darajadagi muntazam va samarali muloqotlar tufayli O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari bugun yuksak darajaga chiqqanini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Uchrashuvda mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish va kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Pandemiya oqibatlarini birgalikda yengib o'tish maqsadida hukumatlar, hududlar va tadbirkorlar darajasida faol almashinuvlar davom etmoqda. Joriy yil boshidan tovar ayirboshlash hajmi 40 foizga oshdi. Mashinasozlik, to'qimachilik sanoati, transport, turizm va iqtisodiyotning boshqa sohalarida yirik kooperatsiya loyihalari tayyorlanmoqda va amalga oshirilmoqda. Madaniy-gumanitar sohadagi dasturlar qayta tiklandi.

O'zbekiston va Qozog'iston parlamentlari ikki tomonlama hamkorlikning istiqboldagi kun tartibini shakllantirishda faol ishtirok etishi, hududlar ma'muriyatlari va ishbilarmon doiralarni keng jalb qilgan holda yangi tashabbuslar va aniq loyihalarni ilgari surish, shuningdek, dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar bo'yicha hamkorlik va o'zaro muvofiqlashuvni kuchaytirish muhim ekani alohida ta'kidlandi.

\* \* \*

**4-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko'maklashish asoslari to'g'risidagi 187-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 2006-yil 15-iyun) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respubli-

kasi Madaniyat va san'at xodimlari kunini belgilash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**7-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**7-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat-xususiy sheriklik asosida hududlarda zamonaviy issiqxona xo'jaliklarini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida qishloq xo'jaligi va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta'minlash hamda oziq-ovqat mahsulotlari hajmini ko'paytirish masalalari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Mutasaddilarga yer olgan aholiga urug' va ko'chatlar yetkazib berish, yetishtirilgan mahsulotlarni sotib olishni moliyalashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda parranda sanoatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yangi mexanizmlar belgilandi.

Mutasaddilarga ushbu tartib va imtiyozlarni joriy qilish, mavjud korxonalarining to'liq quvvatlarga chiqishiga ko'maklashish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Xususiy sheriklik asosida mahallalarda mini-inkubator va mahsulotlarni saqlash uchun muzlatkichlar tashkil etish, xonadonlarda parranda yetishtirishni kengaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini qayta tashkil etib, sharoitimizga mos, naslli parranda zotlarini yaratish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**8-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev madaniyat va ma'rifat sohalariga oid loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Ulardan biri – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida bunyod etiladigan zamonaviy kutubxonadir. Loyihaga ko'ra, bu yerda 3 qavatli kutubxon qurilib, atrofida yashil hudud barpo etiladi. Binoning birinchi qavatida san'at va axborot texnologiyalari, ikkinchi qavatda tarix, filologiya va dinga taalluqli, uchinchi qavatda ijtimoiy fanlarga oid adabiyotlar jamlanadi. Ushbu kutubxon adabiyot, ilm-fan va san'atning turli yo'nalishlariga oid bosma va elektron nashrlar, elektron hujjatlar, jami 1,5 milliondan ortiq kitoblar fondini qamrab oladi.

Davlatimiz rahbari kutubxonani qurishda shaharsozlikning ilg'or tajri-

balarini qo'llash, keluvchilarga qulay sharoitlar yaratish zarurligini ta'kidladi.

Navbatdagi loyihalar ham madaniyat rivojiga qaratilgan. Jumladan, Urganch shahrida Muhammad al-Xorazmiyning yangi haykalini va uning atrofida xiyobon barpo etish rejalashtirilgan.

Prezidentning 2020-yil 2-dekabr-dagi qaroriga muvofiq, joriy yilda O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov tavalludining 85 yilligi nishonlanadi. Ushbu sana munosabati bilan Toshkent shahrida san'atkor haykalini o'rnatish belgilangan.

Taqdimotda bu borada Badiiy akademiya tomonidan tanlab olingan haykal eskizlari ko'zdan kechirildi. Haykallar o'rnatiladigan xiyobonlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

\* \* \*

**9-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qatar Davlati Bosh vaziri o'rinbosari, tashqi ishlar vaziri shayx Muhammad bin Abdulrahmon Ol Soniy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda ko'p qirrali O'zbekiston – Qatar munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari ikki tomonlama hamkorlik sur'ati keyingi yillarda jadallashib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Xususan, yuqori darajadagi tashriflar va siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazildi, tovar ayirboshlash ko'rsatkichlari o'smoqda. Ishbilarmonlik va tu-

rizm sohalaridagi almashinuvlarni rag'batlantirish maqsadida Qatar fuqarolari O'zbekistonda bo'lishi uchun viza tartibi soddalashtirildi.

Suhbatda davlatimiz rahbari birinchi navbatda savdo, investitsiyaviy, innovatsiyaviy, moliyaviy-texnik sohalarda, shuningdek, Havo qatnovi to'g'risidagi hukumatlararo bitimga muvofiq – transport sohasida amaliy sheriklikni yo'lga qo'yish va kengaytirish muhim ekanini ta'kidladi.

Qo'shma investitsiya jamg'armasini tashkil etish, Qatarining yetakchi kompaniyalari va bank-moliya institutlarini jalb qilgan holda sanoat tarmoqlarida zamonaviy ishlab chiqarishlarni ishga tushirish, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha istiqbolli loyihalarni tez fursatda tayyorlash va ilgari surish muhimligi qayd etildi.

Bundan tashqari, ta'lim, fan, madaniyat va ziyorat turizmi sohalarida almashinuv dasturlarini amalga oshirishdan ikki mamlakat ham manfaatdor ekani ta'kidlandi.

Xalqaro siyosatga doir va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. Qatar tashqi siyosiy idorasi rahbari O'zbekistonning Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga va ushbu mamlakatning iqtisodiy tiklanishiga ko'maklashish borasidagi faol sa'y-harakatlarini yuksak baholadi va qo'llab-quvvatladi.

\* \* \*

**10–11-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

Dushanbe xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon kutib oldi.

Dushanbe shahridagi «Qasri Mil-lat» qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi, ikki mamlakat davlat madhiyalari yangradi.

Prezidentlar bir-biriga rasmiy delegatsiya a'zolarini tanishtirdi. Faxriy qorovul tantanali marsh bilan davlat rahbarlari oldidan o'tdi.

Shundan so'ng Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmonning tor doiradagi uchrashuvi boshlandi. Unda davlat rahbarlari O'zbekiston va Tojikiston strategik sherikligi va ko'p qirrali hamkorligining barcha jihatlarini ko'rib chiqdilar, siyosiy muloqotni yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratdilar.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash, xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasida hamkorlik qilish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuvda tovar ayirboshlash hajmini oshirish, ikki mamlakat hududlari salohiyatini samarali ishga solish, iqtisodiyotning turli

tarmoqlarida sanoat kooperatsiyasini tashkil etish bo'yicha aniq takliflar ilgari surildi. Shuningdek, parlamentlararo aloqalar, madaniy-gumanitar almashinuv, barqarorlik va xavfsizlikka nisbatan tahdid va xatarlarga qarshi kurashish borasidagi hamkorlikni mustahkamlash masalalariga to'xtalib o'tildi.

Ikki davlat rahbarlari muzokarlarni kengaytirilgan tarkibda davom ettirdilar.

Muzokaralarda rasmiy delegatsiyalar a'zolari, ikki mamlakat vazirliklari va yirik kompaniyalari, chegaradosh viloyatlar rahbarlari ishtirok etdi.

O'zbekiston va Tojikiston yetakchilarining siyosiy irodasi va birgalikdagi sa'y-harakatlari tufayli birodar mamlakatlarning munosabatlari teng huquqli va o'zaro manfaatli amaliy hamkorlikning sifat jihatidan yangi darajasiga ko'tarilgani qayd etildi.

Tomonlar strategik sheriklikni kengaytirishda qat'iy ekani va bu borada aniq choralarni ko'rishga tayyorligini ta'kidladilar.

Muzokaralarda savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish, transport sohasidagi va hududlar o'rtasidagi sheriklikni rivojlantirish, energetika yo'nalishidagi ulkan salohiyatni samarali ishga solish, madaniy-gumanitar almashinuvlarni davom ettirish, zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston mamlakatlarimiz hududlari va ye-

takchi korxonalarining sanoat kooperatsiyasini kengaytirishdan manfaatdorligini ta'kidladi.

Transport va tranzit tashishlar sohasidagi hamkorlik ham strategik yo'nalishdir. O'zbekiston Prezidenti mamlakatlarimiz tranzit salohiyatidan samarali foydalanish, shaharlar o'rtasidagi havo qatnovlarini kengaytirish va avtobus qatnovlarini tiklashni taklif etdi.

Shavkat Mirziyoyev ikki mamlakat viloyatlari va tumanlari kesimida to'g'ridan to'g'ri tizimli muloqotni yo'lga qo'yish muhim ekanini ta'kidladi.

Ikki mamlakatning ulkan gidroenergetika salohiyatidan va suvdan samarali foydalanish masalalari bo'yicha konstruktiv va o'zaro manfaatli muloqotni davom ettirish masalalari muhokama qilindi.

Yetakchilar an'anaviy faol гуманитар almashinuvlarni davom ettirishga kelishib oldilar. Davlatimiz rahbari diplomatik munosabatlarimiz o'rnatilganining 30 yilligiga bag'ishlangan qo'shma madaniy tadbirlar dasturini amalga oshirish, shuningdek, ikki mamlakat yoshlari festivalini tashkil etish, Dushanbe va Toshkentda zamonaviy o'zbek va tojik adabiyotining tanlangan asarlari – antologiyalarini nashr etishni taklif etdi.

Muzokaralarda zamonaviy xatar va tahdidlarga qarshi kurashish sohasida, ayniqsa, Afg'onistonda yuzaga kelayotgan vaziyat asnosida hamkorlikni kuchaytirish muhim ekani qayd etildi.

Tomonlar BMT, MDH, SHHT, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqti-

sodiy hamkorlik tashkiloti, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi kabi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasida hamkorlikni davom ettirish va bir-birini qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanini tasdiqladilar.

Prezident Emomali Rahmon Tojikiston birodar O'zbekiston bilan hamkorlikda erishilgan bugungi yuksak darajani qadrlashini, bunda Prezident Shavkat Mirziyoyevning katta hissasi borligini alohida ta'kidladi. Muzokaralar chog'ida kelgusi ishlar uchun rejalar belgilab olingani, ularning natijalari ikki mamlakat strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish uchun yangi omil bo'lib xizmat qilishini qayd etdi.

Kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralar yakunlangach, O'zbekistonning Samarqand viloyati va Tojikistonning Xatlon viloyatida barpo etilgan ijtimoiy obyektlarning rasman ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon ramziy tugmani bosib, ularning faoliyatiga start berdilar.

Muzokaralar yakunida hujjatlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Emomali Rahmon Qo'shma bayonot imzoladilar.

Davlat rahbarlari huzurida tashrif doirasida imzolangan O'zbekiston – Tojikiston investitsiya kompaniyasini tashkil etish to'g'risida, sanoat va yangi texnologiyalar sohasida, tog'-kon sanoatida hamkorlik to'g'risida, Zarafshon daryosida GES qurish loyihasi bo'yicha qo'shma aksiyadorlik jamiyati tashkil etish to'g'risida, Yuklar

tranziti to'g'risidagi bitimlar, shuningdek, Diplomatik vakolatxonalar uchun yer maydonlarini o'zaro taqdim etish to'g'risidagi bitimga o'zgartirishlar kiritish, Fuqarolarning o'zaro qatnovlari to'g'risidagi bitimga qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi bayonnomalar, ikki mamlakat tashqi siyosiy idoralari o'rtasidagi hamkorlik dasturi va qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» almashildi.

Umuman, energetika, transport, avtomobilsozlik, elektrotexnika, tog'kon va yengil sanoat, fan, ta'lim, sport va boshqa sohalarni qamrab olgan jami 35 ta hujjat imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari uchun brifingda Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon muzokaralar har doimgidek ochiq, ishonchli va do'stona ruhda o'tganini ta'kidladilar.

Tojikiston bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini yanada mustahkamlash – O'zbekiston tashqi siyosatining bosh va o'zgarmas ustuvor yo'nalishi, – dedi davlatimiz rahbari. – Biz ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishning barcha masalalarini diqqat bilan ko'rib chiqdik. Shuni qayd etmoqchiman: hech bir yo'nalish e'tibordan chetda qolmadi.

Prezidentlar madaniyat, fan, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalaridagi almashinuvlarni faollashtirishga kelishib oldilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Dushanbe shahridagi «Do'stiy» maydonida Ismoil Somoniy haykali poyiga gullar qo'ydi.

So'ng «Ko'hi Borbad» san'at saroyida O'zbekiston va Tojikiston

san'at ustalari ishtirokida konsert bo'lib o'tdi.

Tadbirda Tojikiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ulkan xizmatlari uchun Tojikistonning yuksak mukofoti – I darajali «Zarrintoj» ordeni bilan mukofotlash to'g'risidagi farmoni o'qib eshittirildi. Ordenni davlatimiz rahbariga Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon tantanali ravishda topshirdi.

Davlatimiz rahbari yuksak e'tibor uchun minnatdorlik bildirib, ushbu mukofot katta hurmat va ishonch ifodasi, xalqlarimiz o'rtasidagi yaxshi qo'shnichilik rishtalarini mustahkamlash borasidagi birgalikdagi sa'y-harakatlar e'tirofi ekanini ta'kidladi.

Prezidentimiz ikki mamlakat san'at ustalarining bunday konsertlari xalqlarimiz o'rtasidagi abadiy va samimiy do'stlikni ifodalovchi yaxshi an'anaga aylangani, san'at xalqlarni yaqinlashtirishda muhim o'rin tutishini ta'kidladi.

– Tinchlik va osoyishtalikni asrash, kelajak avlodlar uchun mamlakatlarimizning barqaror va izchil taraqqiyotini ta'minlash – umumiy burchimiz, – dedi O'zbekiston Prezidenti.

Prezidentimiz tashrif doirasida 11-iyun kuni Dushanbedan Xo'jandga keldi.

Oliy martabali mehmonni Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon kutib oldi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon bilan birgalikda Xo'jand shahri yaqinidagi «Arbob» madaniyat saroyiga tashrif buyurdi. Bu yerda So'g'd viloyati jamoatchiligi vakillari, ziyolilar, nuroniylar bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tojikiston peshvosi Emomali Rahmon O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy irodasi bilan ikki mamlakat o'rtasida ishonch va do'stlik muhiti yaratilganini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari yig'ilganlarga chuqur hurmatini bildirib, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikni qadrlash, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish haqida nutq so'zladi.

Prezidentlar «Arbob» madaniyat saroyini ko'zdan kechirdilar. Ushbu majmua 1959-yilda barpo etilgan. U tojik xalqi uchun tarixiy ahamiyatga ega. O'tgan asrning 90-yillari boshida bu yerda mamlakat mustaqilligiga doir muhim qarorlar qabul qilingan. Bu yerda 1992-yilda – Tojikiston taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan pallada Emomali Rahmon davlat rahbari lavozimiga kirishgan.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon hamrohligida «Qayroqqum gilamlari» korxonasini borib ko'rdi.

Qayroqqum gilamlari Sharq an'analari aks ettiruvchi jozibadorligi va naqshlari bilan mashhur. Shu bilan birga, avangard uslubida gilamlar to'qish yo'lga qo'yilgan. Yuqori sifati tufayli korxonah mahsulotlari

turli xalqaro mukofotlarga sazovor bo'lgan.

Navbatdagi obyekt tomon yo'l olar ekan, davlat rahbarlarining kotteji Qayroqqum suv ombori yonida to'xtadi. Prezidentlar suv omborini ko'zdan kechirib, suhbatlashdi.

Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon So'g'd viloyati Bobojon G'afurov tumanidagi «Vaxdati millat» bog'iga tashrif buyurdi.

So'g'd viloyati Sirdaryo bo'yida joylashgan bo'lib, dehqonchilik uchun juda qulay. Bu yerda mevasabzavotchilik rivojlangan. Tojikistonda yetishtiriladigan jami qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qariyb 43 foizi So'g'd viloyati hissasiga to'g'ri keladi.

Prezidentlar bog'da tashkil etilgan Tojikiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari ko'rgazmasi bilan tanishdi. Mevasabzavotlarni o'zaro yetkazib berish, saqlash va eksport qilish bo'yicha soha mutasaddilariga ko'rsatmalar berildi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga rasmiy tashrifi yakunlandi. Xo'jand xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon kuzatdi.

\* \* \*

**14-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev sog'liqni saqlash va kommunal xizmat sohasidagi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari loyihalarni ma'qullab, ularni takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Shuningdek, taqdimotda tijorat banklari tomonidan shakllantirilgan loyihalar ham ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**14-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Hukumat ishlari bo'yicha vaziri Muhammad bin Abdulloh al-Gargaviy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Unda ko'pqirrali O'zbekiston-BAA munosabatlarini yanada kengaytirish va amaliy hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari oliy darajadagi kelishuvlarning amalga oshirilishi natijasida mamlakatlarimizning o'zaro manfaatli va samarali hamkorligida erishilgan bugungi darajani yuqori baholadi.

Uchrashuvda muqobil energetikani rivojlantirish va energetika obyektlarini modernizatsiya qilish,

zamonaviy agrosanoat klasterlarini tashkil etish, tadbirkorlikka oid tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun investitsiya kompaniyasi faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha loyihalar hamda qator muhim ijtimoiy dasturlar izchil amalga oshirilayotgani alohida qayd etildi.

Davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirish va malakali mutaxassislar tayyorlash, Toshkent shahrida ochilgan Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar akseleratori ofisining faoliyatini tashkil etish borasida birgalikdagi ishlarni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

Vazir Muhammad al-Gargaviy BAA investorlarining mamlakatimizdagi faoliyatiga ko'rsatilayotgan har tomonlama ko'mak uchun, shuningdek, O'zbekiston Dubay shahridagi «Ekspo-2021» butunjahon ko'rgazmasini qo'llab-quvvatlayotgani va unda ishtirok etishga tayyorligi uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Amirliklar tomoni O'zbekiston Prezidentining Orolbo'yi mintaqasida ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududini yaratish tashabbusini amalga oshirish doirasida yangi loyihaviy taklifini taqdim etdi.

Uchrashuv yakunida Amirliklarning davlat boshqaruvi sohasidagi, uzoq muddatli yangilanishlar dasturini shakllantirish va innovatsion taraqqiyot yo'lga o'tish borasidagi ilg'or tajribasini keng joriy qilishga qaratilgan qo'shma «yo'l xaritasi»ni qabul qilish yuzasidan kelishuvga erishildi.



\* \* \*

**16-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tatariston Respublikasi Prezidenti Rustam Minnixonov boshchiligidagi Rossiya delegatsiyasini qabul qildi.

Unda mamlakatimiz hududlarining Tatariston bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yanada kengaytirishning amaliy jihatlari Toshkent viloyati misolida ko'rib chiqildi.

Ustuvor yo'nalishlarda kooperatsiya bo'yicha qo'shma loyiha va dasturlarni samarali ilgari surish uchun keng imkoniyatlar mavjud ekani alohida ta'kidlandi. Bo'lib o'tgan ikki tomonlama ishbilarmonlar forumining samarali natijalari ham buni yana bir bor tasdiqladi.

Qo'shma industrial park tashkil etish, kimyoviy, metall, elektrotexnika mahsulotlari va turli uskunalari, qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologik korxonalar barpo etish, qo'shma tadqiqotlar o'tkazish, raqamlashtirish va innovatsion yechimlarni joriy qilish loyihalari shular jumlasidan.

Uchrashuvda talab yuqori bo'lgan sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'zaro yetkazib berishni ko'paytirish maqsadida keng savdologistika tarmog'ini rivojlantirish zarurligi qayd etildi.

Bundan tashqari, shaharsozlik, uy-joy kommunal xo'jalik va obodonlashtirish sohasini boshqarish, transport kommunikatsiyalari va infratuzilmasini takomillashtirish borasida hamkorlik qilish va shu sohalardagi ilg'or texnologiyalarni

o'rganish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Madaniy-gumanitar va ta'lim sohalaridagi faol almashinuvlar ham davom ettiriladi.

Uchrashuv yakunida qo'shma «yo'l xarita»lari asosida muhim yo'nalishlar bo'yicha amaliy shiriklik loyihalarini ilgari surish yuzasidan kelishuvga erishildi.

\* \* \*

**16-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida oliy ta'lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag'irlangan videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari sohadagi ustuvor vazifalarni samarali bajarish uchun oliy ta'lim muassasalariga akademik va tashkiliy-boshqaruv bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilishi ta'kidlandi.

Oliy ta'lim muassasalari rektorlariga kafedralar huzurida ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etib, ularni o'quv-laboratoriya jihozlari va zarur texnika bilan ta'minlash vazifasi qo'yildi. Har bir kafedraning tarmoq korxonalari bilan hamkorligini yo'lga qo'yish, o'qituvchilarning korxonalarda amaliy tadqiqotlar o'tkazishiga sharoit yaratish zarurligi ta'kidlandi.

Oliy ta'lim yo'nalishlari bilan zamonaviy ehtiyojlar o'rtasida uzilish juda katta ekani tanqid qilindi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 40 mingta, sanoatda 38 mingta, qurilishda 12 mingta, qishloq xo'jaligida 10 mingta, aloqa va axborot texnologiyalarida 4 mingta

oliy ma'lumot talab etadigan bo'sh ish o'rinlari bor. Lekin bitiruvchilar son jihatidan ham, malaka bo'yicha ham bu talabni qondira olmaydi.

Oliy ta'lim muassasalarining ilmiy salohiyati masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Ma'lumki, xalqaro tajribada ilmiy salohiyat 70 foizdan kam bo'lsa, bunday universitet nufuzli hisoblanmaydi. Yurtimizda bu ko'rsatkich juda past. Misol uchun, 24 ta oliy o'quv yurtining ilmiy salohiyati 25 foizga ham bormaydi, 19 tasida birorta professor va fan doktori yo'q. So'nggi 30 yilda atigi 208 nafar professor-o'qituvchi xorijsida ilmiy daraja olgan.

Shu bois, Prezidentimiz kelgusi yildan doktoranturaga kvotalar sonini 2 baravar ko'paytirish, keyingi yillardan har yili 50 foizga oshirib borishga ko'rsatma berdi.

Oliy ta'lim muassasalarida byurokratiya va korrupsiya xavfi ko'pligi, bunga chek qo'yish uchun o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishni to'liq raqamlashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Yotoqxonalar o'rinlari sonini oshirish masalasiga ham to'xtalib o'tildi.

Yig'ilishda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga ta'lim yo'nalishlari va kasblar ro'yxatini tasdiqlash, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash, oliy o'quv yurtlari boshqaruviga malakali kadrlarni jamlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**16-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini

ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kamondan otish sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-18-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlardagi o'zgarishlar, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish, istiqboldagi rejalarni belgilash maqsadida Andijon viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Izboskan tumanining «Qo'g'ay» mahallasidagi «Sohib omad barakasi» klasterining «And gold» tikuvtrikotaj fabrikasi faoliyati bilan tanishdi.

Qiymati 2 million 500 ming dollar bo'lgan loyiha doirasida yangi bino qurilib, zamonaviy uskunalar keltirib o'rnatilgan. Korxonalar yiliga 3 million 500 ming dona tayyor trikotaj ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Korxonada 830 nafar xotin-qiz ishli bo'ldi. Prezidentimiz ular bilan suhbatlashdi.

Shu yerda Andijon viloyatida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish chora-tadbirlari taqdimot qilindi.

Davlatimiz rahbari Paxtaobod tumanidagi innovatsion issiqxonani ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari Andijonda metall konstruksiyalar korxonasi tashkil etib, chetdan sotib olinayotgan materiallarni mahalliyashtirish, xususan, issiqxona detallarini ishlab chiqarish bo'yicha topshiriq berdi. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti viloyatda agrar sohani innovatsion rivojlantirishga akselerator bo'lishi kerakligi ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Izboskan tumanidagi «Rustamjon Zamin rivoji» fermer xo'jaligi dasida g'alla hosilini ko'rdi.

Davlatimiz rahbari g'allaning navi, hosildorligi bilan qiziqdi.

Shu yerda viloyat fermerlari, yoshlar vakillari bilan muloqot bo'ldi.

Uchrashuvda qishloqlarda sanokatni rivojlantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, xonadonlarda parandachilik, tomorqachilikni kengaytirish masalalari haqida so'z bordi.

Davlatimiz rahbari Izboskan tumanidagi «Urganji» mahallasida bo'lib, aholi hayoti bilan tanishdi.

Dastur bo'yicha guzardagi bino qayta rekonstruksiya qilinib, otalar choyxonasi, oziq-ovqat do'koni, sartaroshxona, «Street Workout» sport maydonchasi, «Raqamli mahalla» IT-markazi bunyod etildi. IT-markazida bolalar kompyuter savodxonligi, kibersport, dasturlash kabi amallarni bajarishni o'rgan-yapti.

Shavkat Mirziyoyev shu yerlik Qurbonali O'rinboyev xonadonida bo'lib, yashash sharoitini ko'zdan kechirdi. Mahalla vakillari bilan dildan suhbat bo'ldi.

Nuroniylar yurtimizga tinchlik, xalqimizga farovonlik tilab, duo qildi.

Aholi zich joylashgan Andijon viloyatida uy-joy masalasi dolzarb. Shu bois Prezidentimiz viloyatga avvalgi tashrifi chog'ida Andijon tumanidagi adirliklarda yangi shahar qurish tashabbusini ilgari surgan edi.

17-iyun kuni ushbu yangi shahar qurilishiga tamal toshi qo'yish marosimi bo'ldi. Unda nuroniylar, yoshlar, jamoatchilik faollari ishtirok etdi.

Prezidentimiz bu qurilishni xalqimiz bunyodkorligini namoyon etadigan tarixiy voqea deb atadi.

Davlatimiz rahbari Andijon Zahiriddin Muhammad Bobur voyaga yetgan zamin ekani, andijonliklar bilimi va matonati bilan katta ishlarga qodirligini ta'kidladi.

Shundan so'ng Prezidentimiz yangi shahar qurilishiga tamal toshi qo'ydi.

Davlatimiz rahbari Andijon shahridagi «Dinar group» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan tashkil etilgan tikuvchilik korxonasini borib ko'rdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon viloyati Bosh jome masjidini borib ko'rdi.

Qur'on oyatlaridan tilovat etilib, duo qilindi.

Shu yerda ulamo va imom-xatiblar bilan muloqot bo'ldi.

Tashrifning ikkinchi kuni Andijon shahrida viloyat va tumanlar hokimlari, davlat idoralari rahbarlari, mahalliy kengash deputatlari, jamoatchilik faollari ishtirokida yig'ilish bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Andijon viloyatining bugungi holatiga baho berib, uni har tomonlama rivojlantirish vazifalari haqida so'zladi.

Davlatimiz rahbari Izboskan tumanida o'zi bilan uchrashgan Umidaxon Usmonova o'z xonadonida yetarli sharoit yo'qligiga qaramasdan, hatto uyining mehmonxonasida paranda boqib, aholiga tarqatib kelayotganini alohida ta'kidladi.

Yig'ilishda Umidaxon Usmonovani «Mehnat shuhrati» ordeni bilan taqdirlash to'g'risidagi Prezident farmoni o'qib eshittirildi. Davlatimiz rahbari fidoyi ayolga yuksak mukofotni tantanali ravishda topshirdi.

Yig'ilishda viloyat aholisining turmush sharoitlarini yaxshilash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari yig'ilishdan so'ng Andijon shahridagi bunyodkorlik ishlari va yangi loyiha taqdimoti bilan tanishdi.

Dastlab Bobur nomidagi Andijon viloyati axborot-kutubxona markaziga borildi.

Kutubxona fondini boyitish uchun mablag' ajratish, uni maktab va oliy o'quv yurtlari bilan samarali bog'lash, bu yerda Andijon tarixi, Bobur, Cho'lpon, Muhammad Yusuf kabi shoirlar ijodi bo'yicha tanlovlar o'tkazish zarurligi ta'kidlandi.

Shavkat Mirziyoyev Andijon shahrining Bobur ko'chasida quriladigan ko'prik loyihasi bilan tanishdi. Uning qurilishi natijasida masofa 5 kilometrga, vaqt sarfi esa 25 foizga qisqarib, Andijon ahlining necha yillik orzu-niyatlari amalga oshadi.

Davlatimiz rahbari loyihani ma'qullab, tegishli mablag' ajratish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatma berdi.

Prezidentimiz Andijon tumanidagi «Andijon gullar bog'i»ni borib ko'rdi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Andijon viloyatiga tashrifi yakunlandi.

\* \* \*

**19-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi faoliyatini tashkil etish hamda sohani innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Toshkent xalqaro kino-festivalini qayta tiklash va o'tkazish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**21-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublika hududlarida mebelsozlik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2021/2022-o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda global parlamentlararo hamkorlik xalqaro forumida ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo‘lib turgan Parlamentlararo ittifoq Bosh kotibi Martin Chungongni qabul qildi.

Unda mamlakatimizning ushbu nufuzli xalqaro tashkilot bilan sherikligini yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ilgari surish va demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquqlarini himoya qilish va gender tenglikni ta‘minlash, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash kabi ustuvor yo‘nalishlarda konstruktiv muloqotni davom ettirish va yaqin hamkorlikni rivojlantirish muhimligini ta‘kidladi.

O‘zbekiston ittifoq ishidagi ishtirokini 2017-yilda qayta tiklagani va bugungi kunda uning ijroiya tuzilmalarida to‘laqonli qatnashayotganini ta‘kidlash joiz. Bu yil Oliy Majlis tomonidan Parlamentlararo ittifoq bilan ko‘p qirrali munosabatlarni mustahkamlash to‘g‘risida alohida hujjat qabul qilindi.

O‘z navbatida, Bosh kotib Martin Chungong mamlakatimizda

parlamentarizmni rivojlantirishdagi sezilarli yutuqlarni qayd etdi hamda O‘zbekistonning bu boradagi global tashabbuslarini yuqori baholadi va qo‘llab-quvvatladi.

Ilg‘or xorijiy tajribani keng almashish va ko‘p tomonlama hamkorlikning katta salohiyatini ro‘yobga chiqarish maqsadida qator xalqaro tadbirlarni birgalikda tayyorlash va o‘tkazish yuzasidan kelishuvga erishildi.

\* \* \*

**23-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmonning telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Davlat rahbarlari O‘zbekiston – Tojikiston strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish hamda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishning dolzarb masalalarini muhokama qildilar.

Joriy yilning 10-11-iyun kunlari Tojikistonga amalga oshirilgan oliy darajadagi tashrif yakunlari bo‘yicha erishilgan kelishuvlar va imzolangan bitimlarni amalga oshirish muhimligi qayd etildi. Savdo, sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi, transport va iqtisodiyotning boshqa sohalarida qo‘shma kooperatsiya loyihalarini va madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini qabul qilingan «yo‘l xarita»lariga muvofiq ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy xavfsizlik masalalari yuzasidan fikr almashdilar hamda Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta‘minlash va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash maqsadida yaqin muloqot

va sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishni davom ettirish zarurligini ta'kidladilar.

Shuningdek, bo'lajak ko'p tomonlama, shu jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasidagi tadbirlar jadvali ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**23-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yangi O'zbekiston» universitetida ta'lim jarayonini tashkil etishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Barcha hududlarda Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etildi. Bu yoshlarning bilim va salohiyatini aniqlash, ularni to'g'ri yo'naltirish bilan birga xalqimiz orasida katta intilish to'lqinini ham paydo qildi.

Davlatimiz rahbari bilimli yoshlarni mamlakatimizning «oltin fondi» deb atagan edi. Bu yil ana shunday yoshlarning yangi avlodi maktablarni bitirmoqda. Endi ularni yurtimizda o'qitish, yoshlar uchun eng zamonaviy sharoitlar yaratish maqsadida Prezidentimiz tashabbusi bilan «Yangi O'zbekiston» universitetiga asos solinmoqda.

Bu universitet davlat oliy ta'lim muassasasi shaklida tashkil etiladi. Uning asosiy vazifalari – nufuzli xorijiy o'quv yurtlarining ta'lim dasturlari asosida yuksak kasbiy bilim va malakalarga ega bo'lgan istiqbolli kadrlar tayyorlash, talabalarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, buning uchun har tomonlama qulay muhitni shakllantirishdir.

Shu maqsadda yangi universitetda ta'lim jarayoni dunyoning eng nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi. Masalan, qabul imtihonlari Kembrij universiteti bilan hamkorlikda o'tkaziladi. Massachusetts texnologiya instituti hamda Myunxen texnika universiteti bilan birgalikda o'quv reja va dasturlar ishlab chiqiladi. Shuningdek, ular ta'lim sifatini nazorat qilish, laboratoriya va kutubxonalarni to'ldirishga ko'maklashadi.

Universitetda 5 ta – muhandislik, tabiiy fanlar, boshqaruv, agrotexnologiyalar va axborot texnologiyalari fakultetlari bo'ladi. Darslar o'zbek va ingliz tillarida olib boriladi. Kredit-modul tizimi joriy etilib, o'qish davlat granti va to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi. Ushbu ta'lim maskanining o'quv binosi va kampuslari ham zamonaviy, xalqaro BREEAM sertifikatlariga mos bo'ladi.

Davlatimiz rahbari universitetda qabul va ta'lim jarayonini xalqaro standartlar darajasida tashkil etish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini samarali yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Taqdimotda, shuningdek, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ham muhokama qilindi.

\* \* \*

**23-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yangi O'zbekiston» universitetini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida investitsiya va eksport sohalaridagi ishlar natijadorligi, yil yakunigacha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan video-selektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda investitsiyalarning natijadorligi chuqur tahlil qilindi.

Prezidentimiz tarmoq va hudud rahbarlarining asosiy vazifasi investitsiyaviy faollikni kuchaytirish bilan birga, ularning samaradorligini oshirish bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga viloyat hokimlari bilan birga, har bir tuman va shaharda sanoat bo'yicha ishga solinmagan imkoniyatlarni aniqlab, manzilli investitsiya loyihalarini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Yig'ilishda bo'sh turgan binolardan samarali foydalanish masalasiga ham e'tibor qaratildi. Oxirgi yillarda 11 mingta shunday korxonalar faoliyati tiklangani aytib o'tildi.

Davlat tashqi qarzi ishtirokidagi loyihalar samaradorligini oshirish lozimligi alohida ta'kidlandi. Tenderlar ochiq-oshkoraligini ta'minlash va loyihalarni maqbullashtirish orqali mablag'larni iqtisod qilish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yig'ilishda eksport bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining bajarilish holati ham muhokama qilindi. Bu boradagi imkoniyatlarni to'liq ishga solish, bozor konyunkturasi tufayli yuzaga kelgan qoloqliklarni boshqa tarmoqlar va qo'shimcha mahsulotlar

eksporti hisobiga qoplash muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**25-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, korxonalar faoliyati bilan tanishdi.

Bir yil oldin davlatimiz rahbari Sergeli tumanini poytaxtimiz markazi bilan bog'lovchi yo'l va ko'priklarning loyihasi bilan tanishgan edi. O'tgan yili 26-dekabr kuni ushbu yo'lning muhim qismi bo'lgan Qipchoq ko'chasidagi ko'priklarni ochildi. Bugungi kunda ushbu ko'priklardan Cho'ponota ko'chasigacha yangi yo'l va yo'l o'tkazgichlar barpo etilmoqda.

Kichik halqa yo'li va Salar kanali ustida qurilayotgan ko'priklarning uzunligi 788 metr, chiqish-tushish qismi bilan hisoblaganda 950 metr bo'ladi.

Davlatimiz rahbari dastlab ushbu ko'priklarni borib ko'rdi.

Ushbu ko'priklardan Qipchoq ko'chasigacha 6 kilometr yo'l qurilmoqda. Toshkent halqa avtomobil yo'li bilan kesishgan joyda tunnel bo'ladi. Shu tariqa, poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi Cho'ponota ko'chasi va Sergeli tumanidagi Qipchoq ko'chasi samarali bog'lanadi. 6 qatorli yangi ko'priklarni va yo'l soatiga 12 mingtagacha avtotransportni o'tkazish quvvatiga ega bo'ladi. Natijada Sergeli tumaniga transport qatnovi tirbandligi 50 foizga, harakat vaqti 20-25 daqiqaga kamayadi.

Yo'l bo'ylariga energiya tejamkor yoritgichlar o'rnatiladi. Bo'sh maydonlarda «yashil hududlar» barpo etilib, piyodalar yo'lagi va veloyo'lakchalar tashkil etiladi.

Shu yerda Toshkent viloyatining Qibray tumanidagi Yangi O'zbekiston ko'chasida yo'l bo'yi infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi taqdimoti o'tkazildi.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari poytaxtimizning Yangi hayot tumanidagi «Dentafill Plyus» mas'uliyati cheklangan jamiyati faoliyati bilan tanishdi.

«Dentafill Plyus» mamlakatimizdagi dori vositalari va tibbiy anjomlar ishlab chiqarayotgan yetakchi farmatsevtik korxonalaridan biri.

Bu korxonada 2019-yilda ishga tushirilgan. Shveysariya, Germaniya, Turkiya, Xitoy, Yaponiya, Malayziya va Janubiy Koreyadan eng zamonaviy uskunalari keltirib o'rnatilgan. Bugun bu yerda 20 dan ortiq farmakologik guruhga mansub 172 dan ziyod dori vositasi va tibbiyot buyumlari ishlab chiqarilmoqda. Yillik quvvat 60 million dona.

Prezident korxonada ishlab chiqarilgan dori vositalarini ko'zdan kechirdi.

Bu korxonaga Toshkent farmatsevtika instituti talabalarini jalb etib, nazariyani amaliyot bilan mutanosib olib borish zarurligi ta'kidlandi.

Prezidentimizga Toshkent viloyatining Zangiota tumanida «Tashkent Pharma Park» innovatsion farmatsevtika klasteri qurilishining

borishi haqida ham ma'lumot berildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari jurnalistlar bilan muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Sergeli tumanidagi Saxovat mahallasi hayoti bilan tanishdi.

Mahalla hududi 18 gektar bo'lib, 2016-yilda tashkil etilgan. 41 ta ko'p qavatli uyda 6 ming nafardan ziyod aholi yashaydi. Bu yerda bitta maktab va ikkita maktabgacha ta'lim muassasasi bor.

Prezidentimiz bunyodkorlik ishlari ko'zdan kechirdi.

Mahalla ahli bilan suhbatda bugungi o'zgarishlar, tinchlik-osoyishtalikning qadri haqida muloqot bo'ldi.

Davlatimiz rahbari joriy yilning 31-may kuni Chirchiq daryosi bo'yini obodonlashtirishga oid loyiha taqdimoti bilan tanishgan edi.

Prezident bu yerdagi qurilish jarayonini ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari bu hudud shahar ekologiyasi uchun muhimligini ta'kidlab, ko'proq daraxtlar ekish, aholi uchun rekreatsion joylarni ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shu yerda Toshkent shahri va tumanlari hokimlari, sektor rahbarlari, mahalla raislari bilan yig'ilish bo'ldi.

Ajratilgan mablag'larni to'g'ri yo'naltirib, tadbirkorlikni rivojlantirish, ish o'rinlarini ko'paytirish choralari belgilandi.

Yig'ilishda ijtimoiy masalalarga ham alohida e'tibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari nuroniylar va faollarning takliflari asosida mahallalarni obodonlashtirish, yo'l va



suv tarmoqlarini ta'mirlash, tibbiy xizmatlarni yaxshilash bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi. Yoshlarni kasbga yo'naltirish, sport musobaqalari va to'garaklarga jalb etish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**25-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2021-yilda Tokio shahrida (Yaponiya) bo'lib o'tadigan XXXII yozgi Olimpiya va XVI Paralimpiya o'yinlarida O'zbekiston sport delegatsiyasining ishtirokini ta'minlash hamda olimpiya sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**28-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan

mamlakatimizda bo'lib turgan Turkiya Respublikasi vitse-prezidenti Fuat Oktayni qabul qildi.

Ikki mamlakat amaliy hamkorligini yanada kengaytirish hamda yetakchi korxonalar va kompaniyalarning yangi kooperatsiya loyihalarini ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston – Turkiya do'stlik, ishonch va strategik sheriklik munosabatlarida oliy darajadagi muntazam va sermahsul muloqot tufayli erishilgan bugungi darajani yuksak baholadi.

Uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikning rivojlanish sur'ati va pandemiya oqibatlarini yengib o'tish borasida ko'rilayotgan choralar alohida ta'kidlandi. Xususan, yil boshidan turli darajalardagi almashinuv va muloqotlar faollashdi, o'zaro savdo hajmi va qo'shma investitsiya loyihalari soni muttasil o'tib bormoqda. Bugun bo'lib o'tgan qo'shma Hukumatlararo komissiyaning tadbirlari va biznes vakillari ishtirokidagi ishbilarmonlik dasturi yakunlari mamnuniyat bilan qayd etildi.

Toshkent shahrida o'tadigan Strategik hamkorlik kengashi ikkinchi yig'ilishining kun tartibini har tomonlama tayyorlash muhim ekani ta'kidlandi. Bular, eng avvalo, tovar ayirboshlash hajmi va kooperatsiya ko'lamini oshirish, Preferensial savdo to'g'risidagi bitimni qabul qilish, qo'shma sanoat zonasini tashkil etish, Turkiyaning ilg'or tajribasi, bilim va texnologiyalarini faol jalb qilgan holda raqamlashtirish, ta'lim va iqtisodiyotning boshqa

tarmoqlaridagi dasturlarni ilgari surish masalalaridir.

Mintaqaviy sheriklik va xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlikning dolzarb jihatlari yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**28-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mis ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish hamda sanoat klasterini tashkil etish masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda ushbu strategik vazifani amalga oshirish choralari ko'rsatib o'tildi.

Avvalo, rangli va noyob metallar uchun geologiya-qidiruv ishlarini kengaytirish bo'yicha 5 yillik dastur ishlab chiqish muhimligi ta'kidlandi.

Sohada loyiha va muhandislik xizmatlarini rivojlantirish uchun yetakchi xalqaro kompaniyalarni jalb etgan holda, zamonaviy loyiha institutini tashkil qilish vazifasi qo'yildi.

Yurtimizda tog'-kon uskunalari va jihozlarini ishlab chiqarishni hamda ularga servisni yo'lga qo'yish zarurligi qayd etildi.

Noyob metallar va qotishmalar birlashmasida metall qotishmalar tayyorlash, «O'zeltexsanoat» korxonalarida maishiy texnika, kompyuter, akkumulyator batareyalar, elektromobillarning butlovchi qismlari kabi yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Innovatsion rivojlanish vazirligiga soha korxonalarining faoliyatini ilmiy-tadqiqot va amaliy innovatsiya ishlari bilan uzviy bog'liqlikda

rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish topshirildi.

Malakali mutaxassislarni jamlab, mis sanoati klasterini tashkil etish bo'yicha chet el tajribasini chuqur o'rganish, xalqaro kompaniyani jalb qilgan holda, geologiya va konmetallurgiya sohasini rivojlantirishda strategik yo'nalishlarni belgilash bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**28-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**28-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mard o'g'lon» davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yoshlar kuni munosabati bilan yurtimizning faol va tashabbuskor yosh avlod vakillaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-iyun.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat chog'ida ikki tomonlama va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Oliy darajadagi muntazam va sermahsul muloqotlar tufayli O'z-

bekiston va Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari izchil mustahkamlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zaro savdo hajmini oshirish, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa tarmoqlarda kooperatsiyani kengaytirish, madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish borasida birgalikdagi sa'y-harakatlarni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

Yetakchilar joriy yilda Turkmanistonda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvini tashkil etish masalalariga alohida to'xtaldilar. Bo'lajak ko'p tomonlama tadbir dasturini puxta tayyorlashga kelishib olindi.

Prezidentlar xalqaro kun tartibi yuzasidan ham fikr almashib, Afg'onistondagi, jumladan, ushbu mamlakat shimoliy chegaraoldi hududlaridagi harbiy-siyosiy vaziyatning rivojlanishini muhokama qildilar.

\* \* \*

**30-iyun.** Yoshlar kuni munosabati bilan Toshkent shahridagi Botanika bog'ida O'zbekiston yoshlari va talabalari forumi tashkil etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mazkur forumga tashrif buyurdi.

Forum o'tayotgan Botanika bog'i bayramona bezatilgan. Yoshlarning ilm-fan, texnologiyalar, adabiyot, san'at kabi sohalarda erishayotgan natijalarini aks ettiruvchi ko'rgazma va namoyishlar hududlari tashkil qilingan.

Davlatimiz rahbari ushbu ko'rgazmalar bo'ylab yurib, yoshlarning ixtirolari, mahorati, badiiy chiqishlarini ko'zdan kechirdi. Ular bilan suhbatlashib, o'qish va izlanishlariga muvaffaqiyatlar tiladi.

Prezident bayram tadbiri maydoniga kelib, barcha yigit-qizlarni Yoshlar kuni bilan tabrikladi.

Davlatimiz rahbari yurtimiz bo'ylab 6 millionga yaqin g'ayrati baland, intiluvchan o'g'il-qizlar ishtirokida «Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!» shiori ostida o'tkazilgan festivallar – barcha yoshlarimiz uchun yetuklik va haqiqiy vatanparvarlik ko'rigi bo'lganini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari yoshlar bilan uchrashuvidagi ma'ruzasida ularning bandligini ta'minlash, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, san'at va sport bilan shug'ullanish, yosh oilalarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29-iyundagi farmoniga muvofiq, o'zining ijodiy va intellektual salohiyati, tanlagan kasb yo'nalishi va ijtimoiy hayotda erishgan muhim natijalari bilan turli sohalarda yurtimiz ravnaqiga, uning xalqaro obro'e'tiborini yuksaltirishga munosib hissa qo'shayotgan, tengdoshlariga o'rnak va namuna bo'lib kelayotgan faol yoshlar orden va medallar bilan mukofotlangan edi.

Tadbirda davlatimiz rahbari ushbu mukofotlarni o'z egalariga tantanali ravishda topshirdi.

Mukofotlanganlar yuksak ishonch va e'tibor, yoshlarga yaratilayotgan

imkoniyatlar uchun Prezidentimizga minnatdorlik bildirib, o'qish va intilishda faol davom etishi, yanada katta natijalarga erishib, davlatimiz ishonchini oqlashini ta'kidladilar.

Davlatimiz rahbari forumga yig'ilgan yigit-qizlar bilan muloqot qildi. Yoshlarning fikr va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab, ular bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**1-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida davlat aktivlarini xususiylashtirish sohasidagi ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda xususiylashtirish jaryonini samarali tashkil etish, aukSIONDA qatnashish tartiblarini soddalashtirish va ishtirokchilar sonini ko'paytirishga qaratilgan vazifalar muhokama qilindi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga davlat korxonalari hamda banklarning asosiy faoliyatga xos bo'lmagan va bo'sh turgan obyektlarni to'liq qaytadan xatlovdan o'tkazib, ularni xususiylashtirishga tayyorlash bo'yicha topshiriq berildi.

Faoliyat yuritmayotgan yoki zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni moliyaviy sog'lomlashtirish va modernizatsiya qilish bo'yicha takliflar muhokama qilindi.

\* \* \*

**1-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «N.I.Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev qishloq xo'jaligi mashinasozligi hamda kimyo sanoatidagi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Taqdimotda qishloq xo'jaligi mashinasozligi klasterini tashkil etish, quvvatlardan foydalanish va mahalliyashtirish darajasini oshirish chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Toshkent shahrida joylashgan tarmoq korxonalarini Chirchiq shahriga ko'chirish va ularning negizida qishloq xo'jaligi mashinasozligi klasterini tashkil etish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz mahalliyashtirish borasidagi ishlarni davom ettirib, texnikalar narxini arzonlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shu bilan birga, mahalliy texnikalarni sotib olishi uchun fermer xo'jaliklari va klasterlarga yengillik yaratish zarurligi ta'kidlandi.

Xalqaro tajribani o'rganib, qishloq xo'jaligi texnikasiga servis xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha ham topshiriqlar berildi.

Taqdimotda kimyo klasterlari tashkil etishga oid loyihalar ham ko'rib chiqildi.

Taqdimotda poytaxtimizning Ulug'bek shaharchasida ilmiy kimyo klasterini tashkil etish bo'yicha olib

borilayotgan ishlar haqida ham ma'lumot berildi.

\* \* \*

**5-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston – Tojikiston munosabatlarining ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalarni ko'rib chiqdilar hamda mintaqaviy hamkorlik yuzasidan fikr almashdilar.

Mintaqamizda Afg'oniston yo'nalishidagi ahvolning yomonlashishi va keskinlikning kuchayishi bilan bog'liq vaziyatning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Yaqin idoralararo muvofiqlashuvni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

Shuningdek, Prezidentlar bo'lajak oliy darajadagi tadbirlarni, shu jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvini o'tkazish rejasini ko'rib chiqdilar.

\* \* \*

**5-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Xalqaro kun tartibining dolzarb jihatlari yuzasidan ham fikr almashildi.

Davlat rahbarlari mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik, eng avvalo savdo-iqtisodiy sohadagi

sheriklikning bugungi sur'atini mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Prezidentlar Afg'onistonning shimoliy hududlaridagi ahvol yomonlashishi munosabati bilan Markaziy Osiyodagi vaziyatning rivojiga alohida to'xtalib o'tdilar. O'zbekiston va Rossiyaning vakolatli idora va tashkilotlari o'rtasidagi muntazam muloqotlarni davom ettirishga va yaqindan hamkorlik qilishga kelishib olindi.

\* \* \*

**5-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**6-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizga tashrif bilan kelgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi Raisi Volkan Bozkirni qabul qildi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi, O'zbekistonning BMT va uning ixtisoslashtirilgan muassasalari bilan ko'p qirrali hamkorligini kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, global va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, bugungi kunning yangi tahdid va xatarlariga qarshi kurashish, shu jumladan, koronavirus pandemiyasi oqibatlarini yengib o'tish kabi ustuvor yo'nalishlarda mamlakatimiz hamda tashkilot institut

va tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlik yuqori darajada ekanini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Bosh Assambleyaning joriy sessiyasi raisi Volkan Bozkirov xalqaro maydonda, eng avvalo, BMTda O'zbekistonning nufuzi ortib borayotgani, davlatimiz rahbarining global va mintaqaviy tashabbuslari xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotganini alohida ta'kidladi.

Uchrashuvda mamlakatimiz va Markaziy Osiyo mintaqasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish, gender tenglik va yoshlarni qo'llab-quvvatlashning dolzarb jihatlari bo'yicha sheriklik munosabatlarini, shu jumladan, parlamentlararo hamkorlik doirasida ilgari surish, atrof-muhitni muhofaza qilish, vaktsinalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va boshqa masalalar ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari, Afg'onistondagi vaziyatni tinch yo'l bilan tartibga solish masalalariga to'xtalib o'tildi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston va BMT institutlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha yaqin va samarali muloqotni davom ettirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

\* \* \*

**6-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat chog'ida Nursulton Nazarboyevning zamonaviy Qozog'istonni

barpo etish va mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishdagi alohida o'rni, O'zbekiston – Qozog'iston yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash hamda mintaqada barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlashga qo'shayotgan katta his-sasi alohida qayd etildi.

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va logistika, turizm sohalaridagi ustuvor loyihalarni, madaniy-gumanitar sohadagi qo'shma dasturlarni ilgari surish muhim ekani ta'kidlandi. Shuningdek, mintaqaviy kun tartibi, eng avvalo, Afg'onistonda keskinlashayotgan vaziyat yuzasidan fikr almashildi.

Bo'lajak ikki va ko'p tomonlama tadbirlar rejasi, shu jumladan, Qozog'istonning Birinchi Prezidenti Faxriy raislik qilayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvini o'tkazish masalasi ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**6-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublika oliy ta'lim muassasalariga talabalikka qabul qilingan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida uzum yetishtirish, uni sanoat usulida qayta ishlashni rivojlantirish hamda hududlarda ekoturizmni yo'lga qo'yish

chora-tadbirlari yuzasidan video-selektor yig'ilishi o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari yurtimizda azaldan uzumchilik an'anasi bo'lgani, uni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar borligini ta'kidladi.

Yig'ilishda uzumchilikni keng ko'lamda rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Avvalo, tog'oldi tumanlarida yirik uzumchilik plantatsiyalarini tashkil etish zarurligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda sohaga ilm va innovatsiyalarni keng joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Innovatsion rivojlanish vazirligiga xorijiy tajriba asosida uzumning hosildor, danaksiz, sovuqqa va kasalliklarga chidamli yangi navlarini yaratish bo'yicha topshiriq berildi.

Davlatimiz rahbari uzumni qayta ishlash va tayyor mahsulotga aylantirishning to'liq siklini yaratish uchun vinochilik klasterlari tashkil etish kerakligini ta'kidladi. Ularga uzumni qayta ishlash, mayiz quritish va qadoqlash uskunalarini sotib olish uchun moliyaviy imtiyozlar beriladigan bo'ldi. Shuningdek, tabiiy vinolarga nisbatan aksiz solig'i bekor qilinishi belgilandi.

Eksport imkoniyatlari tahlil qilinarkan ekan, joriy yilda xo'raki uzum eksportini 200 million dollarga, mayizbop uzum eksportini 130 million dollarga, tabiiy uzum vinosi eksportini 50 million dollarga yetkazish mumkinligi aytiladi.

Yurtimiz uzum navlarining milliy brendini yaratib, xorijda targ'ib etish, salohiyatli bozorlar bilan fitosanitar kelishuvlarga erishish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Uzumzorlarda enoturizm uchun zarur infratuzilma yaratish chora-tadbirlariga ham to'xtalib o'tildi.

\* \* \*

**8-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublikada mavjud yaylovlardan unumli foydalanish, ipak va junni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston bog'i hududida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Toshkent shahri yaqinida barpo etilayotgan manzarali bog' nafaqat istirohat va ma'naviyat maskani, balki bir necha ming yillik buyuk davlatchiligimiz tarixini ko'rsatadigan majmua bo'ladi.

Bog' hududida «Istiqlol» majmuasi qurilmoqda. U O'zbekistonning yangi qiyofasini namoyon etadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu yerdagi qurilish ishlarini ko'zdan kechirdi.

Yana bir gektardan ziyod maydonda 5 ming o'rinli ochiq amfiteatr barpo etilmoqda. Kelgusida bu yerda umumxalq bayramlari, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkaziladi. Majmua zamonaviy yoritish va akustika tizimlari bilan jihozlanadi. Ayni paytda uning poydevori quyilib, sahnaning temir sinchlari o'rnatilgan.

Davlatimiz rahbariga «Istiqlol» majmuasi va amfiteatr qurilishi haqida ma'lumot berildi.

Bog'da, shuningdek, 6 gektarlik sun'iy ko'l, sport maydonchalari, bolalar o'yingohi, sokin hudud va favvoralar barpo etiladi. Bugungi kunda ular quriladigan maydonlar tayyorlanib, sug'orish va oqova tizimlari barpo etilayotir.

Prezidentimiz boqqa ekiladigan manzarali daraxt ko'chatlarini ham ko'rdi.

\* \* \*

**9-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev sport ta'limini rivojlantirish va Olimpiya zaxiralarini tayyorlash masalalariga doir taqdimot bilan tanishdi.

Taqdimotda sport ta'limi tizimini tubdan yaxshilash, zamonaviy dastur va metodikalarni joriy etish, muassasalarning moddiy-texnik bazasini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari Olimpiya zaxiralarini kollejlari hamda jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari infratuzilmasini yaxshilab, sport ta'limini takomillashtirish, o'quvchi va talabalar sonini oshirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Sohadagi ta'lim muassasalarining Paralimpiya bo'limlariga 10 foizgacha qo'shimcha kvota ajratilishi hamda ota-onalar tomonidan to'lov tartibi bekor qilinishi belgilandi. Shuningdek, qizlar uchun kvotani ko'paytirish orqali Xalqaro olimpiya qo'mitasining gender tenglikka doir tamoyillari ta'minlanadi.

Seleksiya ishlarini kuchaytirish, bu jarayonda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlab, korrupsiya holatlariga barham berish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Olimpiya zaxiralarini kollejlari o'quvchilarni qabul qilish, iqtidorli sportchilarni saralash va musobaqalar tashkil etish bo'yicha elektron platformani ishga tushirish vazifasi qo'yildi.

Prezidentimiz Olimpiya zaxiralarini kollejlari sport federatsiyalari bilan uzviy bog'lash, iqtidorli yoshlarni o'stirishda promouter, skaut, agent kabi mutaxassislar faoliyatini keng qo'llash va bu yo'nalishlarni rivojlantirish muhimligini ta'kidladi.

Sportchilarning jismoniy, tibbiy va psixologik holatini hamda farmakologik ta'minotini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berildi. Sportchilarni tayyorlash va o'quv muassasalarini boshqarish tizimini ilmiy asoslangan ravishda rivojlantirish zarurligi aytiladi.

2021–2022-o'quv yilidan boshlab, sport maktablarida davlat buyurtmasi asosida razryadli va unvonli sportchilarni tayyorlash yo'lga qo'yilishi belgilandi.

Murabbiylar etishmayotgan sport turlari bo'yicha malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish, ularga mahalliy murabbiy va talabalarni biriktirib, tajribasini o'rganish kerakligi qayd etildi.

Sport ta'limi muassasalarini qurish va ta'mirlash, zamonaviy jihozlar va sport adabiyotlari bilan ta'minlash bo'yicha ham ko'rsatmalar berildi.

Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik masalalariga ham



e'tibor qaratildi. Sportchilarimiz Yaponiya poytaxti Tokio shahrida bo'lib o'tadigan ushbu nufuzli musobaqaga jami 126 ta yo'llanmani qo'lga kiritgan.

Davlatimiz rahbari sportchi va murabbiylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yaxshi natijalarga erishishi uchun barcha sharoitlarni yaratish zarurligini ta'kidladi. Shu bilan birga, 2024-yili Fransiyada bo'lib o'tadigan Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlikni hozirdan boshlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**13-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raqamli texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlariga oid taqdimot bilan tanishdi.

Taqdimotda davlatimiz rahbari loyihalarni jadallashtirish, hududlarda elektron xizmatlar qamrovini kengaytirish bo'yicha zarur ko'rsatmalar berdi.

Mutasaddilarga vazir portali, viloyat, tuman va shahar hokimlari portallarini shakllantirish, ulardagi ma'lumotlarni muntazam tahlil qiladigan tizim yaratish bo'yicha topshiriq berildi.

«Aloqabank» aksiyadorlik tijorat bankiga mijozlar uchun barcha xizmatlarni mujassamlashtirgan yagona platforma yaratish, axborot texnologiyalari sohasidagi startap loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash vazifasi qo'yildi.

Davlat va xo'jalik organlari xodimlarining raqamli texnologiyalar bo'yicha savodxonligini oshirish muhimligi qayd etildi.

\* \* \*

**13-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qurbon hayitini nishonlash to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**15-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Imron Xon rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Tashrifning asosiy tadbirlari Ko'ksaroy qarorgohida bo'lib o'tdi.

Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Imron Xon tor doirada muzokara o'tkazdi.

Prezidentimiz oliy martabali mehmonning O'zbekistonga ilk tashrifi ikki tomonlama sheriklikning yangi davrini boshlab berganini ta'kidladi.

Pokiston Bosh vaziri O'zbekistonda bo'lib turganidan mamnunligini aytib, bu pandemiya boshlanganidan

buyon uning ilk xorijiy tashrifi ekanini ta'kidladi.

Uchrashuvda asosiy e'tibor ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy muloqotni mustahkamlash va savdo-iqtisodiy hamkorlikni, ayniqsa, investitsiyalar va yirik mintaqaviy infratuzilma loyihalarini amalga oshirish yo'nalishida mustahkamlash masalalariga qaratildi.

Uchrashuvda siyosiy maslahatlashuvlarni, oliy va yuqori darajadagi muloqotni doimiy o'tkazib borishga kelishib olindi. Aloqalarni keng ko'lamda rivojlantirish uchun Strategik hamkorlik dasturini ishlab chiqish taklifi bildirildi.

O'zbekiston va Pokiston Afg'onistonning yaqin qo'shnilari sifatida u yerda barqarorlik o'rnatilishidan manfaatdor ekanini ta'kidlandi. Bu mintaqada transport yo'laklarini barpo etish, savdo-iqtisodiy aloqalarni jadal rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi.

O'zaro savdo aylanmasini ko'paytirish, buning uchun kargo-aviaqatnovlarini yo'lga qo'yish, ikki tomonlama imtiyoz va preferensiyalar berish masalalari muhokama qilindi.

Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, harbiy-texnikaviy hamkorlikni mustahkamlashga doir masalalar ham ko'rib chiqildi.

Imron Xon samimiy qabul va mehmondo'stlik uchun minnatdorlik bildirib, davlatimiz rahbarini Pokistonga tashrif bilan borishga taklif etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri

Imron Xon muzokaralarni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida davom ettirdilar. Unda siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport va tranzit, turizm sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston bilan Pokiston o'rtasidagi an'anaviy do'stlik va ko'p qirrali amaliy hamkorlik mustahkamlanib bora-yotgani, har ikkala mamlakatning taraqqiyotga erishish yo'lidagi islohotlari ham bir-biriga hamohang va o'xshash ekanini ta'kidladi.

Tomonlar mamlakatlarimiz o'rtasidagi sheriklikni kengaytirish va rivojlantirishda intilishlari qat'iy ekani va bu borada aniq choralarni ko'rishga tayyorligini qayd etdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatlarimiz savdo-iqtisodiy sohada hali ishga solinmagan katta salohiyatga ega ekani, o'zaro savdo hajmini 4-5 barobar ko'paytirish uchun sharoit borligini ta'kidladi.

Qishloq xo'jaligi, mashinasozlik va qurilish, farmatsevtika va kimyo, yengil sanoat va boshqa ustuvor sohalarda kooperatsiyalarni tashkil etish masalalariga e'tibor qaratildi. Ushbu sohalardagi loyihalar yaqin hamkorlikda amalga oshirilsa, O'zbekiston va Pokiston iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar ochiladi.

Muzokarada bunday loyihalarni har tomonlama rag'batlantirish va tez fursatlarda amalga oshirish uchun barcha zarur yordam va imtiyozlarni berishga kelishib olindi.

Uchrashuvda ikki mamlakat boshqa viloyatlarini ham o'zaro

hamkorlik aloqalari bilan bog'lash zarurligiga e'tibor qaratildi. 16-iyundan Toshkent va Lahor o'rtasida aviaqatnov tiklandi. Yangi havo yo'nalishlarini yo'lga qo'yish yuk tashishlarning kengayishi va o'zaro turizmning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston va Pokiston Afg'onistondagi salbiy vaziyatning avj olishiga yo'l qo'ymaslik uchun birgalikdagi sa'y-harakatlarni ishga solishga, afg'onlarning tinchlik muzokaralarini qayta tiklashda ko'maklashishga tayyorligi qayd etildi.

Xavfsizlik sohasida qo'shma guruh tuzish, uning ilk majlisini Toshkentda o'tkazish taklifi bildirildi.

Uchrashuvda madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish, mushtarak ma'naviy merosimizni birgalikda o'rganish, ilm-fan, ta'lim, madaniyat va sport sohalaridagi hamkorlikni kuchaytirish masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

Muzokaralar yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev va Bosh vazir Imron Xon O'zbekiston Respublikasi bilan Pokiston Islom Respublikasi o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani imzoladilar.

Tashrif doirasida imzolangan 8 ta hujjat almashildi. Tranzit va savdo to'g'risidagi hamda Ishbilarmonlar va sayyohlik guruhlari uchun viza tartiblarini soddalashtirish to'g'risidagi hukumatlararo bitimlar ular orasida alohida ahamiyatga ega.

Shuningdek, Mudofaa vazirliklari o'rtasida harbiy ta'lim sohasida

hamkorlik to'g'risida protokol, 2021–2026-yillarga mo'ljallangan Madaniy almashuv dasturi, davlat chegarasidan olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalari haqida oldindan axborot almashish to'g'risida bayonnoma, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan Pokiston diplomatik xizmat akademiyasi o'rtasida anglashuv memorandumini mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni yangi, yanada yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Tashrif doirasida Hukumatlararo komissiya majlisi hamda O'zbekiston – Pokiston biznes forumida umumiy qiymati 500 million AQSH dollaridan ziyod bo'lgan shartnomalar imzolangani ma'lum qilindi.

O'zbekiston va Pokiston yetakchilarining muzokaralari yakunlari bo'yicha ommaviy axborot vositalari vakillari uchun brifing o'tkazildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Pokiston Bosh vaziri Imron Xonning rasmiy tashrifini davlatlararo munosabatlar tarixida yangi sahifa ochadigan muhim siyosiy voqea, deb baholadi.

O'zaro ishonch va ochiqlik, samimiy va amaliy ruhda o'tgan samarali muzokaralarda sheriklikning yangi imkoniyatlari ko'rib chiqilib, «o'sish nuqtalari» belgilangani qayd etildi. So'nggi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi to'rt barobar o'sgani, kelgusida ushbu raqamlarni yana to'rt-besh barobarga oshirish bo'yicha kelishib olingani ta'kidlandi.

Tranzit va savdo to'g'risidagi bitim rejalashtirilgan ulkan maq-

sadlarga erishishga xizmat qiladi. Qishloq xo'jaligi, urug'chilik va chorvachilik, mashinasozlik va qurilish, farmatsevtika va kimyo, yengil sanoat va boshqa ustuvor sohalarda yangi qo'shma loyihalarni amalga oshirish, hududlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqalar o'rnatishga kelishilgani ma'lum qilindi.

«Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar» temiryo'li qurilishi masalasi ham atroflicha ko'rib chiqilgani qayd etildi.

Xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni kengaytirishga kelishib olingani aytili. Tomonlar nufuzli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasida bir-birini qo'llab-quvvatlashni davom ettirishini tasdiqladilar.

Shuningdek, turizm va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik istiqbollari to'xtalib o'tildi.

\* \* \*

**15-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar» mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Ashraf G'ani bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muzokaralarda mintaqaviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash sohasidagi hamkorlik istiqbollari ko'rib chiqildi.

Ikki mamlakat yetakchilari afg'on mojarosini harbiy yo'l bilan hal qilishning imkoni yo'qligini yana bir bor ta'kidlab, inklyuziv afg'onlararo muzokaralar tez fursatda qayta

tiklanishining tarafdori ekanliklarini qayd etdilar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Afg'onistonda barqaror tinchlikka erishilishiga faol ko'maklashishga tayyorligini tasdiqladi.

Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash barobarida, Afg'onistonning tranzit salohiyatini kengaytirishga qaratilgan qo'shma transport va energetika infratuzilmasi loyihalarini, xususan, «Termiz – Mozori-Sharif – Kobul – Peshovar» temiryo'li va yangi «Surxon – Puli-Xumri» elektr uzatish liniyasini barpo etish loyihalarini yanada ilgari surish muhim ekani ta'kidlandi.

Prezidentlar ikki tomonlama va mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish, erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish borasida qat'iy ekanliklarini qayd etdilar.

\* \* \*

**15-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda rasmiy tashrif bilan bo'lib turgan Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi a'zosi, tashqi ishlar vaziri Van Ini qabul qildi.

Unda O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi do'stlik va har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. O'zbekistonning Markaziy va Janubiy Osiyo bog'liqligini rivojlantirish borasidagi tashabbusi yuksak baholandi va qo'llab-quvvatlandi, Toshkent shahrida o'tkaziladigan konferensiya muvaffaqiyatli bo'lishiga ishonch bildirildi.

Uchrashuvda oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, jumladan, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnik, madaniy-gumanitar sohalar va ko'p qirrali hamkorlikning boshqa yo'nalishlarida qo'shma dastur va loyihalarni ilgari surish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Pandemiya qarshi kurashda yaqindan hamkorlikni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

\* \* \*

**15-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublikada o'simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-iyul.** Toshkent shahrida «Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar» mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan anjumanda Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti, Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlarining tashqi ishlar vazirlari, jami 44 ta mamlakat va 30 ga yaqin xalqaro tashkilot delegatsiyalari, nufuz-

li xorijiy ilmiy-tadqiqot va tahlil markazlari rahbarlari ishtirok etdi.

Konferensiyani O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ochib, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari o'rtasidagi tarixiy yaqinlik, uni bugungi kunda o'zaro ishonch va manfaatdorlik asosida mustahkamlashning ahamiyati haqida nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida tarixiy aloqalarni tiklash muhimligini, sa'y-harakatlarni birlashtirish fursati kelganini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyo bilan Janubiy Osiyoni samarali va xavfsiz bog'laydigan transport-logistika infratuzilmasini barpo etish masalasiga alohida e'tibor qaratdi.

Savdo, tranzit va bojxona jaryonlarini raqamlashtirish, bu borada qo'shma harakatlar strategiyasini qabul qilish zarurligi qayd etildi.

Butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi ham dolzarb bo'lib bormoqda. Shu bois, Prezidentimiz BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti shafeligida mintaqa mamlakatlari qishloq xo'jaligi vazirlarining uchrashuvini o'tkazib, qo'shma dastur ishlab chiqish taklifini ilgari surdi.

Mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, terrorizm, ekstremizm va transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlariga ham to'xtalib o'tildi. Ekologiyani asrash, «yashil» iqtisodiyotni rivojlantirish dolzarbligini qayd etildi.

Markaziy va Janubiy Osiyoning turizm salohiyatidan keng foydalanish maqsadida turoperatorlarning yagona

platformasini shakllantirish, Jahon sayyohlik tashkiloti ishtirokida mintaqada turizmni yanada rivojlantirish bo'yicha fikrlar bildirildi.

Ilmiy va madaniy-gumanitar almashinuvlarni ko'paytirish do'stlik va ishonchni mustahkamlashda muhim o'rin tutishi ta'kidlandi. Shu yo'nalishda UNESCO shafeligida Termiz shahrida Markaziy va Janubiy Osiyoning tarixiy merosiga bag'ishlangan xalqaro forum o'tkazish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari ilm-fan, texnologiya va innovatsiya sohalaridagi hamkorlikka ham alohida ahamiyat qaratdi. Qo'shma tadqiqot va tajriba almashish dasturlarini rag'batlantirish, olim va tadqiqotchilar uchun yengillashtirilgan viza tartibini joriy qilish muhimligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**16-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar» mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirok etgan xorijiy mamlakatlar tashqi ishlar vazirlari, hukumatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazdi.

Yevropa komissiyasi vitse-prezidenti, Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili Jozep Borrel bilan muloqotda ko'p qirrali O'zbekiston - YI hamkorligining

dolzarb masalalari muhokama qilindi. Uchrashuvda keyingi yillarda O'zbekiston va YI sherikligi jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Ko'p qirrali hamkorlikni, eng avvalo inson kapitali va demokratik yangilanishlar, biznes, investitsiya va innovatsiyalarni ilgari surish, «yashil» taraqqiyot, ekologiya, madaniy almashinuv va boshqa yo'nalishlarda yanada kengaytirish muhim ekani ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrovni qabul qildi. Ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Afg'onistondagi vaziyat keskinlashishi sharoitida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish masalasi ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari Hindiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Subramanyam Jayshankarni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston - Hindiston strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari oliy darajadagi muntazam muloqotlar davomida erishilgan kelishuvlarga muvofiq izchil rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Uchrashuvda ikki mamlakat hududlarini faol jalb qilgan holda investitsiyalar, innovatsiyalar, savdo, biznes, logistika, axborot texnologiyalari, sog'liqni saqlash va boshqa ustuvor yo'nalishlarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish muhimligi ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari – tashqi ishlar vaziri Muxtor Tleuberdini qabul qildi.

O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Bo'lajak oliy darajadagi tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish, shuningdek, ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy kooperatsiya loyihalari va o'zaro manfaatli hamkorlik dasturlarini ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisining o'rinbosari, tashqi ishlar vaziri Rashid Meredovni qabul qildi.

Oliy darajadagi muntazam muloqotlar tufayli ko'p qirrali O'zbekiston – Turkmaniston yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari izchil mustahkamlanib borayotgani alohida ta'kidlandi. Joriy yilning 6-avgust kuni «Avaza» milliy turizm zonasida o'tkaziladigan Markaziy Osiyo mamlakatlari davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuviga tayyorgarlikning borishi muhokama qilindi. Afg'onistonda qaror topayotgan murakkab vaziyat yuzasidan fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari Tojikiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Sirojiddin Muhriddinni qabul qildi.

Uchrashuvda ikki davlat o'rtasida qabul qilingan «yo'l xaritasi» asosida iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi ustuvor loyihalarni va madaniy-gumanitar almashinuv

dasturlarini ilgari surish masalalari muhokama qilindi. Mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar – Afg'onistondagi vaziyat hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilari va Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitlariga tayyorgarlik ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi raisining o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya vaziri Aqilbek Japarovni qabul qildi. Unda ikki tomonlama va mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashildi. Sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi, transport va logistika sohalaridagi ustuvor kooperatsiya loyihalarini tez fursatda amalga oshirish, qo'shma investitsiya kompaniyasi faoliyatini tashkil etish muhim ekani ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi tashqi ishlar vaziri Mavlud Chavusho'g'lini qabul qildi. Uchrashuvda ko'p qirrali O'zbekiston – Turkiya munosabatlarining dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari Turkiya bilan munosabatlarning samarali va jadal ruhini mamnuniyat bilan qayd etdi. Ikki mamlakat yetakchilarining muntazam muloqoti do'stlik va strategik sheriklik rishtalarini mustahkamlash, ikki tomonlama hamkorlikni aniq mazmun bilan boyitishga xizmat qilishi ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Saudiya Arabistoni Podshohligi tashqi ishlar vaziri shahzoda Faysal bin Farxon Ol Saudni qabul qildi.

Davlatimiz rahbari ikki tomonlama aloqalar jadal rivojlanayotgani –

o‘zaro muloqot faollashib, ilk yirik investitsiya loyihalari, eng avvalo energetika sohasidagi loyihalar ilgari surilayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Saudiya tomoni O‘zbekiston Prezidentining Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqaviy bog‘liqligini kuchaytirish borasidagi o‘z vaqtida ilgari surilgan muhim xalqaro tashabbuslarini, shuningdek, Afg‘onistondagi vaziyatni tinch yo‘l bilan hal qilishga ko‘rsatilayotgan har tomonlama ko‘makni yuksak baholashi va qo‘llab-quvvatlashini ta’kidlandi.

O‘zbekiston Prezidenti Kuvayt Davlatining tashqi ishlar vaziri, Vazirlar Mahkamasi ishlari bo‘yicha davlat vaziri shayx Ahmad Nosir al-Muhammad as-Sabohni qabul qildi.

Uchrashuvda amaliy hamkorlikni, eng avvalo savdo, investitsiya va innovatsiyalar, moliya, oziq-ovqat xavfsizligi, axborot texnologiyalari, ta’lim va boshqa sohalardagi aloqalarni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi. Ikki tomonlama Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishini o‘tkazish hamda diplomatik munosabatlar o‘rnatilganining 30 yilligi doirasida qo‘shma tadbirlar dasturini tayyorlashga kelishib olindi.

Davlatimiz rahbari Ozarbayjon Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari Shaxin Mustafoyev bilan uchrashuv o‘tkazdi. O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, mamlakatlarimizning an‘anaviy yaqin va do‘stona munosabatlarini yanada

mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Suhbat chog‘ida ikki tomonlama amaliy hamkorlikni kengaytirish, eng avvalo savdo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va logistika loyihalarini ilgari surish hamda madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini amalga oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidentining maslahatchisi Elizabet Shervud-Rendall boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Ikki tomonlama kun tartibining dolzarb jihatlarini va xalqaro siyosat masalalari ko‘rib chiqildi. Davlatimiz rahbari keyingi yillarda O‘zbekiston – AQSh strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlari jadal sur‘at bilan rivojlanib boryotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Uchrashuvda konstruktiv siyosiy muloqotni davom ettirish masalalari, shuningdek, ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlarini, shu jumladan, pandemiyaga qarshi kurashish va aholini emlash, AQSHning yetakchi kompaniya va banklari ishtirokida qo‘shma investitsiya loyihalarini ilgari surish muhokama qilindi. Afg‘onistonda yuzaga kelgan vaziyat yuzasidan batafsil fikr almashildi.

Prezidentimiz BMT Bosh kotibi o‘rinbosari, Yevropa iqtisodiy komissiyasi (YIK) Ijrochi kotibi Olga Algayerovani qabul qildi.

Davlatimiz rahbari BMT institutlari bilan keyingi yillarda sifat



jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgan sheriklik jadal rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Tashkilot mamlakatimizdagi islohotlarga ko'maklashayotgani uchun minnatdorlik bildirildi. Mamlakatimizning global maydondagi nufuzi ortib borayotgani, xalqaro hamjamiyat O'zbekiston yetakchisining, shu jumladan, Markaziy va Janubiy Osiyo bog'liqligini kuchaytirish bo'yicha tashabbuslarini keng qo'llab-quvvatlayotgani ta'kidlandi.

Ijrochi kotib Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida e'lon qilish bo'yicha BMT Bosh Assambleyasining rezolutsiyasi qabul qilinganini hamda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun BMT Maxsus komissiyasidagi (SPEKA) raisligini yuksak baholadi.

Uchrashuvda O'zbekiston va YIK o'rtasida Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va pandemiya oqibatlarini yengib o'tish borasida, jumladan, iqtisodiyot, savdo va transport, innovatsiyalar, ekologiya va boshqa sohalar bo'yicha o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Bangladesh Xalq Respublikasi tashqi ishlar vaziri Abul Kalom Abdul Mo'min bilan uchrashuvda ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va mintaqa kun tartibidagi masalalar yuzasidan fikr almashildi. O'zbekiston Prezidentining Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari bog'liqligini rivojlantirish borasidagi tashabbusi har tomonlama qo'llab-quvvatlandi.

\* \* \*

**16-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston xalqiga Qurbon hayiti tabrigi e'lon qilindi.

\* \* \*

**19-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish orqali qishloq xo'jaligi infratuzilmasini yaxshilash masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilishda bajariladigan ishlar belgilandi.

Suv xo'jaligi vazirligiga yil yakuniga qadar uskunalar xaridi bo'yicha tenderlarni yakunlab, qurilishni boshlash yuzasidan topshiriq berildi.

Loyiha doirasida 40 ming gektar yerni foydalanishga qaytarish va 315 ming gektarda suv ta'minotini yaxshilash maqsad qilingan.

Bosh vazir o'rinbosari va viLOYAT hokimlariga suv ta'minoti yaxshilanadigan maydonlarda yuqori daromadli mahsulotlar ekish va shu asosda 80 ming nafar aholining doimiy bandligini ta'minlash bo'yicha dastur qabul qilish vazifasi qo'yildi.

Prezidentimiz loyiha bilan qamrab olinadigan yerlarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etib, suv

sarfini 40 foizga qisqartirish va qo'shimcha 20 ming gektar yerni foydalanishga kiritish mumkinligini ta'kidladi.

Nasos stansiyalariga texnik xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarning malakasini oshirish, o'quv kurslari va amaliy seminarlar tashkil etish zarurligi qayd etildi.

Mutasaddilarga loyiha ustidan tizimli nazorat o'rnatish, mablag'larning natijadorligini ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi. Yangilanadigan har bir nasos stansiyasini klasterlarga bog'lab, loyihalarning boshidan oxirigacha ularning ishtirokini ta'minlash muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**22-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yanigicha tashkil qilish chora-tadbirlari bo'yicha videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Majlisda aholi murojaatlari bilan ishlashning bugungi holati vazirlik va hududlar kesimida muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari odamlarni murojaat qilishga majbur etayotgan muammolarni mahallaning o'zida

bartaraf qilish kerakligini ta'kidladi. Buning uchun viloyat, tuman va shahar hokimlari bir haftada ikki kunni fuqarolarni qabul qilishga ajratishi, shuningdek, hokimliklarda kunlik qabul yo'lga qo'yilishi belgilandi.

Aholi to'g'ridan to'g'ri tun-u kun murojaat qilishi uchun hokimlarning virtual qabulxonasi va ijtimoiy tarmoqlarda alohida sahifalarini tashkil etish vazifasi qo'yildi.

Joriy yilning 6 oyida Xalq qabulxonalariga bandlik va tadbirkorlik masalalari bo'yicha kelib tushgan 100 mingta murojaatni to'liq hokimlik kuchi bilan hal qilish mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Eng ko'p murojaatlar elektr energiyasi va gaz ta'minoti, bandlik, uy-joy, yer, tibbiy xizmat va xalq ta'limi masalalari bo'yicha bo'layotgani qayd etilib, ularni hal qilish choralari ko'rib chiqildi.

Endi murojaatlarning barchasi yagona elektron bazada jamlanib, Xalq qabulxonalari har chorakda davlat organlarining ochiq reytingini shakllantirishi belgilandi. Barcha vazirlik va idoralar, hokimliklarda murojaatlarni ro'yxatga olish, ularni ko'rib chiqish va natijasini nazorat qilish bo'yicha Yagona onlayn platforma yaratiladi. Shuningdek, aholi murojaatlarida ko'tarilayotgan masalalarni hal etish bo'yicha vazirlik, idora va hudud rahbarlarining hisobotini Senatda har chorakda, mahalliy hokimliklar hisobotini esa mahalliy Kengashlarda har oyda eshitib borish amaliyoti yo'lga qo'yiladi.

\* \* \*

**23-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fazoviy ma'lumotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**24-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev qator xorijiy davlatlar yetakchilari bilan telefon orqali muloqot qildi.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an, Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev, Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenko, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan suhbatlar bo'lib o'tdi.

Ular davlatimiz rahbarini tavalud kuni bilan samimiy tabriklab, O'zbekistonning ko'p millatli xalqiga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

Rossiya Prezidenti Vladimir Putin Shavkat Mirziyoyev atoqli davlat arbobi, o'z mamlakatining haqiqiy yetakchisi sifatida yurtdoshlarining haqli hurmat-e'tirofiga va xalqaro maydonda yuksak obro'ga sazovor bo'lganini ta'kidladi.

Prezidentimizning mamlakatlari-miz o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini,

turli yo'nalishlarda sermahsul ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qo'shgan shaxsiy hissasi beqiyos ekani qayd etildi. Birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan Rossiya – O'zbekiston aloqalarining butun ko'lami yanada kengayishiga ishonch bildirildi.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgani, eng avvalo, o'zaro tovar ayirboshlash barqaror ortib borayotgani, iqtisodiyot tarmoqlarida qo'shma kooperatsiya loyihalari va madaniy-gumanitar almashinuv dasturlari muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an bilan suhbatda ikki tomonlama kun tartibining dolzarb masalalari yuzasidan batafsil fikr almashildi.

Prezidentimizning qat'iy rahbarligida O'zbekiston o'z mintaqasida erishayotgan peshqadamlik rolini tobora mustahkamlab borayotganini Turkiya katta mamnuniyat bilan kuzatayotgani va buni qo'llab-quvvatlashi alohida ta'kidlandi.

Davlat rahbarlari bo'lajak tadbirlar rejasini ko'rib chiqdilar hamda joriy yil yakuniga qadar mamlakatimizda oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining ikkinchi yig'ilishini o'tkazishga puxta tayyorgarlik ko'rish muhim ekani ta'kidladilar.

Qozog'istonning Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev bilan muloqotda O'zbekiston – Qozog'iston strategik sheriklik va keng ko'lamlı hamkorlik munosa-

batlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Ustuvor yo'nalishlarda qo'shma loyiha va dasturlarning amalga oshirilishini davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

Bugun O'zbekiston o'z davlatchiligini jipslashtirish va mustahkamlash, o'z xalqi farovonligini oshirish yo'lida yuksak cho'qqilarni zabt etayotgani ta'kidlandi. Shu munosabat bilan Nursulton Nazarboyev yurtimiz Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida bundan buyon ham shiddatli rivojlanishi va katta maqsadlarga erishishda davom etishiga ishonch bildirdi.

Rossiya Federatsiya Kengashi Raisi Valentina Matviyenko bilan suhbatda O'zbekiston – Rossiya strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Matviyenko xonim Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qarorlar qabul qilishdagi vazmin yondashuvi va samarali davlat siyosatini amalga oshirayotgani tufayli O'zbekistonda va uning tashqarisida haqli hurmat-e'tibor qozonganini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalarini ko'rib chiqdilar.

Turkmaniston yetakchisi mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi muvaffaqiyatlari, xalqaro maydonda ortib borayotgan nufuzi bilan e'tirof qilinayotgan

O'zbekistonning zamonaviy tarixi aynan Shavkat Mirziyoyev nomi bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidladi.

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev bilan suhbatda davlat rahbarlari ikki mamlakat o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash, eng avvalo, ularni yangi loyiha va dasturlar bilan boyitish muhim ekanini ta'kidladilar.

Prezidentimiz davlat va xalq manfaatlari yo'lidagi tinimsiz xizmati, siyosiy donishmandligi va irodasi bilan yurtdoshlarimiz orasida yuksak obro'ga va xalqaro hamjamiyatda beqiyos hurmatga sazovor bo'lgani alohida qayd etildi.

Qozog'iston rahbari O'zbekiston Shavkat Mirziyoyev yetakchiligida barqaror taraqqiyot va ravnaqni ta'minlash, xalqimiz farovonligini oshirish, Toshkentning xalqaro maydondagi imijini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar yo'lini davom ettirayotganini ta'kidladi.

Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon «Mamlakatingizda keyingi yillarda ro'y berayotgan keng ko'lamli yangilanishlar Sizning nomingiz bilan bog'liq. Tojikiston – O'zbekiston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga ham salmoqli hissa qo'shyapsiz, – deb qayd etdi.

Prezident Sadir Japarov Shavkat Mirziyoyevning oqilona va chuqur o'ylangan rahbarligi tufayli

O'zbekiston Respublikasi aholisining turmush darajasi yuksalgani, mamlakat iqtisodiyoti yanada taraqqiy etayotganini ta'kidladi.

Qirg'iziston rahbari Shavkat Mirziyoyevning Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlikning mustahkamlanishiga qo'shayotgan shaxsiy hissasini yuksak baholadi.

\* \* \*

**24-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Elektron onlayn-auksionni o'tkazish tartibini soddalashtirish, uning shaffofligini oshirish hamda ishtirokchilar huquqlarining ishonchli himoyasini kafolatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev madaniyat, tibbiyot, savdo va xizmat ko'rsatish inshootlari qurilishiga oid loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Avval xabar berilganidek, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida zamonaviy kutubxona barpo etilishi rejalashtirilgan edi.

Taqdimotda kutubxona loyihasi batafsil ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbariga onkologiya va gematologiya shifoxonalarini tashkil etish bo'yicha qilinayotgan ishlar to'g'risida ham ma'lumot berildi.

Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi alohida markaz sifatida ajratilib, kelgusi yildan boshlab Respub-

lika ixtisoslashtirilgan gematologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazidan mustaqil tarzda faoliyat yuritadi. Bu ikki markaz Toshkent shahri Chilonzor tumani Arnasoy ko'chasida yangi qurilgan zamonaviy binolarga joylashtiriladi.

Taqdimotda ushbu markazlarni yangi binolarga ko'chirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar qayd etib o'tildi. Shuningdek, bu yerda bakteriologik, virusologik laboratoriyalar va vivariy uchun binolar qurilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi farmoniga muvofiq, «Termiz» erkin iqtisodiy zonasi hududida Termiz xalqaro savdo markazi tashkil etilmoqda. Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida uning bosh rejasini ko'zdan kechirgan edi.

Markaz uchun Termiz tumanidan 26-gektar maydon ajratilib, qurilish ishlari boshlab yuborilgan. Korpuslarning birinchi qavatida savdo nuqtalari, ikkinchi qavatida yengil ishlab chiqarish korxonalari joylashtirilishi ko'zda tutilgan.

Tadbirda Toshkent shahrida davlat obyektlaridan samarali foydalanish, Namangan viloyatida yo'l bo'ylarida savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalari tashkil etish borasidagi rejalar ham muhokama qilindi.

\* \* \*

**26-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini yanada

yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**28-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahridagi 21-Mehribonlik uyida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Prezidentimiz poytaxtimizdagi Mehribonlik uyiga tashrifi davomida ushbu muassasa faoliyati misolida ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan muhim vazifalarni belgilab berdi.

Mamlakatimizdagi 16 ta Mehribonlik uyining 4 tasi Toshkent shahrida joylashgan. 21-sonli Mehribonlik uyi 1992-yili tashkil etilgan bo'lib, 3 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan 122 nafar o'g'il-qiz tarbiyalanmoqda. Ularning 47 nafari yetim, 75 nafari ijtimoiy yetim bolalardir.

Muassasada tarbiyalanuvchilarning bilim olishi, oila muhitini his etib ulg'ayishi va mustaqil hayotda o'z o'rnini topishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Prezidentimizning 2019-yil 11-fevraldagi «Yetim bolalar va otanasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, Mehribonlik uyida Ro'zg'or akademiyasi tashkil etilgan. Bu akademiya bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash uchun mashg'ulotlar olib boriladi.

Davlatimiz rahbari bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi,

bolalarning mashg'ulotlarini ko'zdan kechirdi.

Prezident muassasa tarbiyalanuvchilari bilan muloqot qildi.

Mehribonlik uyida sharoitlar yaxshi. Lekin bolalar bilan yakka tartibda ishlash, ularni kasbga yo'naltirish talab darajasida emas. Tarbiyalanuvchilarning 18 yoshdan keyingi mustaqil hayoti, oliy ma'lumot olishi va bandligiga ko'maklashuvchi mas'ul idora yo'q.

Shu bois davlatimiz rahbari barcha Mehribonlik uylari va maxsus maktab-internatlarni O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi mas'ulligiga o'tkazish taklifini bildirdi.

Mamlakatimizda Mehribonlik uylari va 4 ta Bolalar shaharchasida 1 ming 823 nafar o'g'il-qiz yashab, o'qimoqda. 86 ta maxsus maktab-internatda 21 ming 363 nafar bola tarbiyalanmoqda. Ushbu muassasalar, sinov tariqasida, Milliy gvardiya mas'ulligiga o'tkazilishi belgilandi.

Bolalarga ixtisoslashgan ta'lim berish va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha metodika yaratish vazifasi qo'yildi. Mehribonlik uylari va maxsus maktab-internatlarni fan, san'at va sport tashkilotlari bilan bog'lab, tarbiyalanuvchilarning qobiliyatini rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**28-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida nogironligi bo'lgan, ota-ona qaramog'idan mahrum va yetim bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kengaytirish hamda ijtimoiy nafaqalar-

ni takomillashtirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Mamlakatimizda 13 ta Bolalar uyida 560 nafar, 16 ta Mehribonlik uyi va 4 ta Bolalar shaharchasida 1 ming 823 nafar, 86 ta maxsus maktab-internatda 21 ming nafar o'g'il-qizlar tarbiyalanmoqda. Bundan tashqari, 79 ming nafar bolalar homiylik, vasiylik va oila patronati qaramog'iga olingan.

Yig'ilishda mazkur muassasalar-dagi yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, uy va ish bilan ta'minlanish darajasi tahlil qilindi.

Davlatimiz rahbari Mehribonlik uylaridagi bolalarni oilaga yaqin muhitda tarbiyalash, bilim va ma'naviyatli, vatanparvar insonlar etib voyaga yetkazish zarurligini ta'kidladi. Unga ko'ra, 16 ta Mehribonlik uyi va 4 ta Bolalar shaharchalaridagi yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi mas'ul bo'ladi. Buning uchun qo'mondon o'rinbosari lavozimi joriy etilib, alohida boshqarma tashkil etiladi.

Oliy va o'rtamaxsusta'lim vazirligi, Turizm va sport vazirligiga har bir Mehribonlik uyi va Bolalar shaharchasiga oliy o'quv yurti hamda sport maktablarini biriktirish vazifasi qo'yildi.

Bundan tashqari, sharoiti og'ir bo'lgan Mehribonlik uylari Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi va viloyat hokimliklari tomonidan otaliqqa olinadi.

Prezidentimiz Mehribonlik uylari bitiruvchilarini davlat tomonidan

qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari o'rniga Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya tashkil etilishi, hududiy komissiyalarga esa viloyat hokimlari rahbarlik qilishi belgilandi.

\* \* \*

**28-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sudlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**28-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Olmaliq kon-metallurgiya kombinati konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi ishlar bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari dastlab «Yoshlik-1» konini borib ko'rdi.

Prezidentimizga konning salohiyati, uni o'zlashtirish bo'yicha qilinayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 3-mis boyitish fabrikasi qurilishining boshlanishiga bag'ishlangan marosim bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari rangli metallar sanoatini rivojlantirishga qaratilgan rejalarga ham to'xtalib o'tdi.

Prezidentimiz chet ellik investorlar uchun imkoniyatlar yanada kengaytirilishini ta'kidladi. Shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida Toshkentda geologiya fanlari bo'yicha Italiyaning Piza universiteti filiali ochiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 3-mis boyitish fabrikasi qurilishiga tamal toshi qo'ydi.

Davlatimiz rahbari Olmaliq konmetallurgiya kombinatining 3-mis boyitish fabrikasi quruvchilari uchun yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Prezident bu yerda yotoq o'rinlarini ko'paytirish, bunday ixcham, shinam majmualarni boshqa zavodlarda ham tashkil etish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Davlatimiz rahbari Olmaliq shahridagi «Jurabek laboratories» qo'shma korxonasi faoliyatini ko'zdan kechirdi.

\* \* \*

**29-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi «Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida»gi maxsus rezolyutsiyasini amalga oshirish choralari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston xalqiga Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan bayram tabrigi yo'lladi.

\* \* \*

**30-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqlar do'stligi kuni munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimizni mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**30-iyul.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**2-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida issiqlik ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish loyihasi taqdimoti bilan tanishdi.

Taqdimotda, avvalo, issiqlik ta'minoti xizmatlarini xususiy sheriklik asosida tashkil etish metodologiyasini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Prezidentimiz taklif etilayotgan loyihani Toshkent shahridagi mavzelerdan birida namuna sifatida joriy etib, samaradorligini tajribadan o'tkazish, har tomonlama chuqur o'ylab, qaror qabul qilish zarurligini ta'kidladi.

\* \* \*

**2-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Zaytun moyi va zay-



tun mevasi to'g'risidagi xalqaro bitimga (Jeneva, 2015-yil 9-oktabr) O'zbekiston Respublikasining qo'shishi haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**2-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**3-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yilning birinchi yarmidagi iqtisodiy natijalar tahlili hamda yil yakuniga qadar hududlar va tarmoqlarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videosektor yig'ilishi o'tkazildi.

Birinchi yarim yillikda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 6,2 foizga o'sgani qayd etildi. Bunga, asosan, sanoat 8,5 foiz, investitsiyalar 5,9 foiz va xizmatlar hajmi 8 foizga oshgani hisobiga erishilgan. Inflatsiya darajasi 10,9 foizni tashkil etgan.

Shu davrda jami 200 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Bu sohadagi yuqori o'sish sur'atlari kon-metallurgiya, to'qimachilik va elektr energiyasi tarmoqlarida, Qashqadaryo, Sirdaryo, Jizzax, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida kuzaatilgan.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uchun zarur moliyaviy resurslar ajratilgan bo'lsa-da, hali joylarda kutilgan natija bo'lmayotganini ta'kidladi.

Investitsiya loyihalarining samaradorligi ham ko'rib chiqildi. Jumladan, hududiy investitsiya dasturlari doirasida birinchi yarim yillikda 5 ming 246 ta loyiha amalga oshirilgan. Lekin ularning sanoat o'sishida o'rni sezilmayotgani, bunga mas'ul hokim o'rinbosarlari korxonalar bilan yaqindan ish olib bormayotgani qayd etildi.

Hisobot davrida mamlakatda jami 53 mingta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 14 foiz oshgan.

Yig'ilishda 9 oy va yil yakuni bo'yicha iqtisodiy o'sishni ta'minlash chora-tadbirlari muhokama qilindi.

Ikkinchi yarim yillikda yirik tarmoq korxonalarida 86 trillion so'mlik, hududlarda 142 trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi bunda muhim omil bo'ladi.

Bosh vazir o'rinbosarlariga ishga tushirilgan loyihalarni joyiga chiqqan holda, batafsil o'rganib, to'liq quvvatda ishlashiga ko'maklashish bo'yicha topshiriq berildi.

Davlatimiz rahbari aholining oziq-ovqat mahsulotlariga talabi oshib borayotgani, ishlab chiqarish hajmi o'sayotgan talabni qondirishi zarurligini ta'kidladi.

Ikkinchi yarim yillikda mahsulot yetishtirish va qayta ishlash hajmini oshirish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda xizmatlar sohasi tahliliga ham alohida e'tibor qaratildi.

Yig'ilishda bu boradagi ishlarni davom ettirib, yil yakuniga qadar sohada 415 mingta yangi ish o'rni tashkil etish mumkinligi aytiladi. Bo'sh turgan bino va yer maydonlarini tadbirkorlarga berish, o'zini o'zi band qilishni qo'llab-quvvatlash bu borada katta imkoniyat ekani qayd etildi.

Transport vazirligiga yangi yo'nalishlar tashkil etib, jamoat transporti yetib bormagan 1 ming 113 ta mahallani qamrab olish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Har bir tarmoq va hudud bo'yicha 9 oy hamda yil yakuniga mo'ljallangan aniq rejalar ishlab chiqib, ijrosini ta'minlash vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**4-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublika hududlarida gulchilik va ko'chatchilik sohalarini yanada rivojlantirish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekistonda yilqichilik, ot sporti, zamonaviy beshkurash va poloni 2025-yilgacha rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Chavandozlar maktablari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Surxondaryo viloyatida qorabayir zotli otlarni yetishtirish va ommalashtirish hamda ot sporti turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-6-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning taklifiga binoan Turkmanboshi shahrida bo'ldi.

6-avgust kuni Turkmanboshi shahri yaqinidagi «Avaza» milliy sayyohlik zonasida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchinchi Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov raislik qilgan sammitda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayev, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, shuningdek, BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, Markaziy Osiyo uchun preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markaz rahbari Natalya German ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida umumiy siyosiy iroda va birgalikdagi sa'y-harakatlar natijasida bugun mintaqamiz yaxshi qo'shnihilik, o'zaro manfaatli hamkorlik va barqaror taraqqiyot mako-

niga aylanib borayotganini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari dolzarb masalalar yuzasidan o'z nuqtayi nazarini bayon etib, qator takliflarni ilgari surdi.

Bugungi voqelik Markaziy Osiyoda iqtisodiy hamkorlikning yangi modelini shakllantirish bo'yicha qat'iy qadamlarni taqozo etayotgani ta'kidlandi.

Mintaqa ichidagi savdoni kengaytirish zarurligi, to'laqonli erkin savdo rejimiga o'tish maqsadida mavjud to'siqlarni bartaraf etish muhim ekani qayd etildi. Buning uchun mamlakatlarimiz tadbirkorlari va hududlari o'rtasidagi bevosita aloqalarni rag'batlantirish, investitsiya va iqtisodiy forumlarni muntazam o'tkazib borish lozimligi ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Savdo-iqtisodiy hamkorlikning umumiy yo'nalishlari to'g'risidagi bitimni qabul qilish fursati kelganini aytdi.

Sanitariya talablariga rioya qilgan holda transport qatnovlarini to'liq tiklash muhim ekani qayd etildi.

O'zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo mamlakatlarining Elektr energetikasi muvofiqlashtiruvchi kengashini faollashtirish, uning mandati va vakolatlarini kengaytirish hamda mamlakatlarning kengashdagi vakillik darajasini oshirishni taklif qildi.

Davlatimiz rahbari mintaqamamlakatlari qishloq xo'jaligi vazirlarining muntazam uchrashuvlarini o'tkazish tashabbusini qo'llab-quv-

vatlab, birinchi yig'ilish kun tartibiga oziq-ovqat xavfsizligini monitoring qilish bo'yicha mintaqaviy tizimni joriy etish masalasini kiritish taklifini bildirdi.

Pandemiyaga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish va o'zaro yordam ko'rsatish masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

Davlatimiz rahbari mintaqaning ekologik muammolari hamisha diqqat markazida bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Mamlakatlarimizning iqlim o'zgarishlariga moslashishiga, resurs tejoychi texnologiyalarning yana keng joriy etilishiga xizmat qiladigan «Markaziy Osiyo uchun «yashil» kun tartibi» mintaqaviy dasturini ishlab chiqishni taklif qildi.

Davlatimiz rahbari kelgusi yilda O'zbekistonda Markaziy Osiyo yoshlari forumini o'tkazishni taklif etdi. Bu mamlakatlarimiz hukumatlari va yoshlari o'rtasida ishonch va do'stlikni mustahkamlash, interfaol muloqotni yo'lga qo'yish uchun platforma shakllantirishda muhim qadam bo'ladi.

O'zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyoning madaniy merosiga bag'ishlangan festivallar, madaniyat va kino kunlarini o'tkazish, birgalikda kitoblar nashr qilish muhim ekanini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari turizm xizmatlarining doirasini qamrab oladigan «Bir sayohat – butun mintaq» qo'shma dasturini amaliy ro'yobga chiqarish taklifini ilgari surdi.

Mintaqaviy hamkorlik jarayonlariga barqaror tus berish, shu maqsadda «xalq diplomatiyasi», par-

lamentlar, fuqarolik jamiyati institutlari va media sohasi salohiyatidan yanada keng foydalanish muhim ekani qayd etildi.

Parlamentarizmning roli ortib borayotganini hisobga olib, Prezidentimiz Toshkent shahrida Mintaqaviy parlament forumini o'tkazishni taklif etdi.

O'z nutqini yakunlar ekan, davlatimiz rahbari Maslahat uchrashuvining natijalari Markaziy Osiyodagi birodar xalqlarning ko'p qirrali sherikligini yanada mustahkamlashga munosib hissa qo'shishiga ishonch bildirdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi doirasida Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov bilan uchrashuv o'tkazdi.

Mamlakatimiz yetakchisi Turkmanistonning «Avaza» milliy sayyohlik zonasida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi yuqori darajada tashkil etilganini, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda bu yana bir muhim bosqich bo'lishini ta'kidladi.

O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalarini, mintaqaviy va xalqaro darajadagi aloqalarni muhokama qildilar.

Savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish, Janubiy Osiyo va Janubiy Kavkaz yo'laklari orqali yangi tashqi bozorlarga chiqish, shu

jumladan, Ashxobod bitimiga muvofiq xalqaro transport va tranzit yo'lagini yaratish istiqbollari muhokama qilindi.

Muloqotda madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish masalalariga ham e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan muzokara o'tkazdi.

Energetika sohasidagi hamkorlik, xususan, Qambarota-1 gidroelektr stansiyasini birgalikda qurish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari «O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy» temiryo'li strategik ahamiyatga ega ekani, uni qurish bo'yicha muzokaralarni jadallashtirish muhimligini ta'kidladi.

Qirg'iziston Prezidenti O'zbekistonning mintaqada samarali va o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash borasidagi amaliy sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Davlatimiz rahbarining Markaziy va Janubiy Osiyo hamkorligini rivojlantirish borasidagi tashabbuslari mintaqamizning qardosh xalqlari manfaatlariga xizmat qilishini ta'kidladi.

Uchrashuvda mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi doirasida Turkmanboshi shahrida ushbu mamlakatlarning milliy sanoat mahsulotlari ko'rgazmasi tashkil etildi. Mintaqa davlatlari rahbarlari mazkur ko'rgazmani borib ko'rdilar.

«Made in Uzbekistan» ekspozitsiyasida mamlakatimizning oziq-ovqat, to'qimachilik, avtomobilsozlik, charm-poyabzal, elektr texnikasi, kimyo, farmatsevtika, zargarlik va qurilish materiallari kabi sanoat tarmoqlari salohiyati namoyish etildi.

Ko'rgazmadan Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston hamda Turkmaniston mahsulotlari ham o'rin olgan.

Prezidentlar mahsulotlar sifatini ko'zdan kechirib, o'zaro tovarlar yetkazib berish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdilar.

«Avaza» milliy sayyohlik zonasida Markaziy Osiyo xalqlarining milliy taomlari festivali va tantanali konsert bo'lib o'tdi.

Prezidentlar dastlab milliy taomlar namunalarini ko'zdan kechirdi.

So'ng Markaziy Osiyo mamlakatlari san'at ustalari ishtirokida tantanali konsert dasturi namoyish etildi. Folklor-etnografik ansambllar va estrada xonandalarining chiqishlari zamonaviy sahna bezaklari bilan uyg'unlashib, ajib manzara hosil qildi. Milliy kuy-qo'shiq va raqslar xalqlarimiz birligi, madaniy yaqinligini yaqqol namoyon etdi.

Sammit doirasida «Avaza» milliy turistik zonasida Markaziy Osiyo mamlakatlari Iqtisodiy forumi bo'lib o'tdi. Forum ishi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy, energetika va kimyo, transport-logistika sohalarida hamkorlik bo'yicha tematik sessiyalar shaklida tashkil etildi. Har bir sessiyada ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishning bu-

gungi holati va istiqbollari muhokama etildi. Shuningdek, forum doirasida ikki tomonlama uchrashuv va muzokaralar o'tkazilib, ko'plab kelishuvlar imzolandi.

Shuning bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Turkmanistonga tashrifi yakunlandi.

\* \* \*

**9-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev iste'molchilarni neft va gaz resurslari bilan barqaror ta'minlash masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Joriy yilning birinchi yarmida tabiiy gaz qazib olish va suyultirilgan gaz ishlab chiqarish bo'yicha erishilgan natijalar tanqidiy muhokama qilindi.

Prezident soha mutasaddilariga iste'molchilar manfaatlarini yuqori qo'yish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga tabiiy gaz, suyultirilgan gaz hamda neft mahsulotlarini zarur miqdorda yetkazib berish yuzasidan aniq ko'rsatmalar berdi.

Iqtisodiyotning o'sish sur'atlari va yangi gaz-kimyo loyihalari ishga tushirilishi inobatga olinib, kelgusi 5 yilda tabiiy gazga bo'lgan talab ortishi hisob-kitob qilingan. Davlatimiz rahbari bu yillar uchun zarur tabiiy gaz resurslarini shakllantirish maqsadida hozirdan aniq rejalarni ishlab chiqish, energetika sohasini raqamlashtirish kerakligini ta'kidladi.

Buning uchun sohada geologiya-qidiruv ishlarini jadallashtirish va mineral xomashyo bazasini kengaytirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**9-avgust.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan uchrashuviga tayyorgarlikning bori-shi bo'yicha yig'ilish o'tkazildi.

Tadbirkorlardan 13 ming 500 dan ortiq taklif va mulohazalar kelib tushgan. Bu borada tuzilgan respublika shtabi a'zolari ularni birma-bir o'rganib, har kuni muhokama qilib bordi. Tadbirkorlar ko'targan 12 mingdan ziyod shaxsiy masalalarning yarmidan ko'pi o'z vaqtida hal etilgan.

Yig'ilishda joriy yilning yetti oyida ajratilgan kreditlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 35 foizga o'sib, 92 trillion so'mni tashkil qilgani ta'kidlandi. Shunga qaramay, tijorat kreditlari bo'yicha foiz stavkalari va muddati qisqaligi tadbirkorlar uchun eng dolzarb masala ekani ayon bo'lmoqda. Murojaatlarning 42 foizi shu sohaga oid.

Prezidentimiz iqtisodiyotga uzoq muddatli resurslarni olib kelish, dollarlashuv darajasini kamaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Ikkinchi dolzarb masala yer va bino ajratish bilan bog'liq. Bunday murojaatlar 21 foizni tashkil etgan. Tadbirkorlarga bu borada imkoniyatlarni kengaytirish uchun hududlarga ishchi guruhlar yuborib, joriy yil 1-sentabrdan auksion savdolariga chiqariladigan yer maydonlari va binolar ro'yxatini shakllantirish vazifasi qo'yildi.

Xususiy mulkni huquqiy himoya qilish, litsenziya va ruxsatnomalar olish bo'yicha mingga yaqin muro-

jaatlar kelib tushgani bu yo'nalishda tizimli muammolar saqlanib qolganini ko'rsatmoqda. Shuningdek, murojaatlardan infratuzilmaga ulanish borasida ham ko'plab muammolar borligi ma'lum bo'lmoqda.

Soliq va bojxona sohalari, imtiyoz va preferensiyalardan foydalanishga oid masalalar ham tahlil qilindi.

Davlatimiz rahbari har bir murojaatni alohida nazoratga olib, ularga to'liq yechim topish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**9-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Transport to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**9-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**10-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyatida sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Joriy yilning birinchi yarmida viloyatda qariyb 7 trillion 700 milliard so'mlik mahsulotlar tayyorlanib, o'sish 4,6 foizni tashkil etgan. Lekin bu mamlakatimizdagi o'rtacha ko'rsatkichdan past. Shu bois, yil yakunigacha jami 18 trillion so'mlik tovarlar ishlab chiqarib, yillik 8,5 foiz o'sishga erishish mo'ljallangan. Buning uchun yangi loyihalarni amalga oshirish, kam quvvatda ishlayotgan yoki to'xtab qolgan korxonalarni qo'llab-quvvatlash, bo'sh turgan binolardan samarali foydalanish orqali hududiy sanoatni rivojlantirish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Shuningdek, transport-logistika, xizmatlar, qishloq xo'jaligi, qurilish sohalari ustuvor yo'nalish etib belgilangan.

Yig'ilishda ushbu sohalarda amalga oshiriladigan istiqbolli loyihalar taqdimot qilindi.

Yig'ilishda viloyatning barcha tuman va shaharlaridagi imkoniyatlar ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari Toshkent viloyatida imkoniyatlardan to'g'ri foydalanilmayotganini qayd etib, sanoat

tarmoqlarida yangi loyihalarni ko'paytirish, qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish muhimligini ta'kidladi. Yil yakuni bilan hududiy sanoat hajmini 40 foizga oshirish vazifasi qo'yildi.

Mavjud zavodlar faoliyatini kengaytirish, sanoati rivojlanmagan tumanlarda korxonalar tashkil etish, yo'l bo'yi xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**11-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatida ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash hamda Toshkent shahrida xizmatlar sohasida yangi ish o'rinlari tashkil etishga doir loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Loyihaga ko'ra, «To'palang» suv omborining quyi qismida bosimni so'ndirish, suvni tozalash va tarqatish inshootlari quriladi.

Davlatimiz rahbari loyihani ma'qullab, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha ko'rsatma berdi. Qurilish ishlarini «Obod qishloq» dasturi bilan uyg'unlashtirish, suv ta'minoti bo'yicha davlat-xususiy sheriklikni yo'lga qo'yish zarurligini ta'kidladi.

Servis iqtisodiyotda ham, ijtimoiy hayotda ham katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining shu yil 11-maydagi «Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida bu sohani iqtisodiyotda muhim drayverga aylantirish va 2023-yilga qadar xizmatlar hajmini ikki baravarga oshirish maqsadi belgilangan. Shun-

ga muvofiq, 2021–2023-yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni tasdiqlash vazifasi qo'yilgan.

Bu borada Toshkent shahrining imkoniyatlari juda katta. Xususan, joriy yilning iyun–dekabr oylarida xizmatlar sohasida 415 mingta ish o'rni yaratish mo'ljallangan. Bu reja yangi tadbirkorlik subyektlari va tun-u kun ishlaydigan savdo-konilochar ko'chalar tashkil etish, o'zini o'zi band qilish, birinchi qavat va yerto'lalarni ijaraga berish orqali amalga oshiriladi.

Prezidentimiz bu tajribani mamlakatimizning boshqa hududlarida ham tatbiq etish bo'yicha topshiriq berdi. Qonunchilikka o'zgartirish kiritib, xizmat ko'rsatuvchilarga moliyaviy yengilliklar berish orqali ular faoliyatini rasmiylashtirish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**11-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Rasmiy statistika to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**11-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**11-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Vatandoshlar» jamoat fondini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**12-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tokio shahrida bo'lib o'tgan XXXII yozgi olimpiya o'yinlarida yuqori natijalarga erishgan sportchi va murabbiylardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev XXXII yozgi Olimpiya o'yinlarida ishtirok etgan sportchi va murabbiylar bilan uchrashdi.

Tadbirda Milliy Olimpiya qo'mitasi va sport federatsiyalari rahbarlari, sportchilarning ota-onalari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ham qatnashdi.

Davlatimiz rahbari barchani O'zbekiston milliy terma jamoasining ulkan g'alabasi bilan tabrikladi.

Ushbu Olimpiya o'yinlari 23-iyuldan 8-avgustgacha Yaponiya poytaxti Tokio shahrida bo'lib o'tdi. Unda 17 ta sport turi bo'yicha 71 nafar vakilimiz qatnashdi. Olimpiyachilarimiz 3 ta oltin va 2 ta bronza medalni qo'lga kiritib, 200 dan ziyod davlat orasida umumjamoahisobida 32-o'rinni egalladilar. Shu tariqa, mamlakatimiz Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida ikkinchi, Markaziy Osiyoda esa birinchi o'ringa ega bo'ldi. Shuningdek, atletlarimiz 3 ta Olimpiya rekordini yangilab, jahon sporti tarixida yorqin sahifa ochdi.

Jamoamizga ilk oltin medalni 19 yoshli taekvondochi Ulug'bek Rashitov keltirdi. U bunday muvaffaqiyatga erishgan yurtimizdagi



eng yosh sportchi bo'ldi. Og'ir atletikachi Akbar Jo'rayev umumiy hisobda 430 kilogramm tosh ko'tarib, Olimpiya rekordini o'rnatdi va Vatanimizga ikkinchi oltin medalni keltirdi. Mohir bokschi Bahodir Jalolov, Prezidentimizga bergan va'dasining ustidan chiqib, eng og'ir vazn toifasida Olimpiya o'yinlari g'olibi bo'ldi.

Yurtimiz yakkakurashlar maktabining umidli vakillari – dzyudochi Davlat Bobonov va erkin kurashchi Bekzod Abdurahmonov bronza medal-larini qo'lga kiritdilar.

Prezidentimiz ushbu sportchilarning ota-onalari va murabbiylariga alohida rahmatlar aytdi.

Davlatimiz rahbari dunyo miqyosida shuhrat qozongan qahramon sportchimiz Oksana Chusovitina haqida alohida to'xtalib o'tdi. U sport gimnastikasi bo'yicha ketma-ket 8 marta Olimpiya o'yinlarida qatnashgan. Bu jahon sporti tarixida noyob hodisa bo'lib, Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan. Shu bois uning ishtiroki Tokio Olimpiadasining muhim voqealaridan biri sifatida e'tirof etildi.

Yurtimizda Olimpiya o'yinlarining g'oliblari 200 ming AQSh dollaridan, kumush medal sohiblari 100 ming va bronza medal egalari 50 ming AQSh dollaridan mukofot puli bilan taqdirlanishi belgilab qo'yilgan.

Davlatimiz rahbari sportchilarni muhosasiz kurashlarga tayyorlashda murabbiylarning xizmatlari katta ekanini alohida ta'kidladi. Shu bois, Olimpiada chempionlarining murabbiylari 40 ming AQSh dolla-

ridan, bronza medal sohiblarining ustozlari 20 ming AQSh dollaridan mukofotlanishi aytili.

Olimpiya o'yinlariga yo'llanma olish va unda ishtirok etishning o'zi ham bir muvaffaqiyat. Buning uchun sportchi ko'p yillar davomida mashg'ulot olib boradi, o'zini shunga bag'ishlaydi. Shuni hisobga olib, bunday sportchilarning har biri 5 ming AQSh dollari miqdoridagi pul mukofoti bilan rag'batlantirilishi ma'lum qilindi.

Tadbirda 2024-yilda Parijda bo'ladigan Olimpiya o'yinlariga tay-yorgarlik borasidagi vazifalar ham ko'rsatib o'tildi. Avvalo, sport me-nejmenti bo'yicha xalqaro kom-paniyani jalb etgan holda, sohaning har bir bo'g'inini auditdan o'tkazish, uning natijalari asosida jismoniy tarbiya va sportni hamda sport federatsiyalari boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish vazifasi qo'yildi.

Sport bo'yicha ta'lim sifatini yaxshilash, zamonaviy metodika va amaliyotlarni joriy etish, iqtidorli sportchilarni saralash va tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Olimpiya zaxiralari kollejlarda qabul kvotalarini butunlay qayta ko'rib chiqish va ularda ta'lim ti-zimini takomillashtirish bo'yicha topshiriq berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezi-dentining 12-avgustdagi farmoniga muvofiq, Tokio shahrida bo'lib o'tgan XXXII yozgi Olimpiya o'yinlarida yuqori natijalarga erishgan sportchi va murabbiylardan bir guruhi faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlandi.

Tadbirda ana shu yuksak mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**15-avgust.** Xalqimiz og'ir judolikka uchradi. O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Usmonxon Alimov og'ir xastalik tufayli vafot etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'ziyali xonadonga tashrif buyurib, marhumning oila a'zolariga hamdardlik bildirdi.

Davlatimiz rahbarining tashrifi, hamdardlik so'zlari og'ir judolikka uchragan ko'ngillarga taskin bo'ldi.

Marhumning haqiga duo qilindi.

Prezidentimiz muftiyning ezgu ishlarini yodga oldi.

\* \* \*

**16-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Yer uchastkalarini ajratish va ulardan foydalanish, shuningdek yerlarni hisobga olish va davlat yer kadastrini yuritish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**17-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**17-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer bilan telefon orqali muloqot qildi.

Unda ko'p qirrali O'zbekiston – Germaniya munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi hamda mintaqaviy hamkorlikning eng muhim jihatlari muhokama qilindi.

Afg'onistondagi vaziyatning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu mamlakatdagi harbiy-siyosiy keskinlikning kuchayishi mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik holatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin ekani ta'kidlandi.

Afg'on muammosining tinch yo'l bilan hal etilishiga ko'maklashish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarni yaqindan muvofiqlashtirish hamda mintaqadagi vaziyat yuzasidan muntazam siyosiy maslahatlashuvlar olib borish to'g'risida kelishuvga erishildi.

\* \* \*

**17-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning «Yangi O'zbekiston» gazetasi bosh muharririning savollariga javoblari «Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, real imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda» sarlavhasi ostida ushbu gazetada chop etildi.

\* \* \*

**18-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Germaniya Federal

Kansleri Angela Merkel bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbatda yetakchilar ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalarni ko'rib chiqdilar hamda Afg'onistondagi voqealarning rivojlanishi nuqtayi nazaridan mintaqadagi joriy vaziyat yuzasidan fikr almashdilar.

Ushbu mamlakatda keskinlik va zo'ravonlikning avj olishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, afg'on mojarosini siyosiy yo'l bilan tartibga solishni xalqaro hamjamiyat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalarida ikki mamlakatning pozitsiya va yondashuvlari mos ekani alohida ta'kidlandi.

Fuqarolarni Afg'onistondan aviatsiya transportida O'zbekiston hududi orqali tranzit yo'li bilan Germaniyaga evakuatsiya qilish bo'yicha gumanitar operatsiyalarni amalga oshirishda yaqindan muvofiqlashuvni va faol idoralararo hamkorlikni davom ettirish muhim ekani qayd etildi.

Mintaqadagi vaziyatning yanada rivojlanishi bo'yicha oliy va yuqori darajadagi muntazam aloqalarni davom ettirishga kelishib olindi.

\* \* \*

**19-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatda ishbilarmonlik muhitini rivojlantirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan tadbirkorlarning bir guruhiga minnatdorchilik bildirish to'g'risida»gi farmoyishga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Avtomobil transportida

yuk tashuvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-avgust.** Xalqaro anjumanlar saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqoti bo'lib o'tdi.

Bunday shakldagi uchrashuv Vatanimiz tarixida ilk bor o'tkazildi. Unda yangi O'zbekistondagi islohotlar va o'zgarishlarga befarq bo'lmay, tashabbus va faollik ko'rsatayotgan tadbirkorlardan 600 nafari bevosita ishtirok etgan bo'lsa, 1 ming 800 nafari hududlarda, 8,5 ming nafari tuman va shahar studiyalarida, jami 10 mingdan ortiq ishbilarmonlar qatnashdi.

Tadbirda, shuningdek, Oliy Majlis Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, barcha vazirlik va idoralar mutasaddilari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari avvalo azm-u shijoatli va fidoyi tadbirkorlar xalqimizga madadkor bo'layotgani uchun ularga minnatdorlik bildirdi.

Prezidentimiz o'z nutqida tadbirkorlarni o'ylandirayotgan muammolarni hal qilishga qaratilgan 7 ta muhim yo'nalishni ko'rsatib o'tdi. Birinchi yo'nalish – biznesni moliyalashtirish, ikkinchisi – soliq tizimini takomillashtirish va biznesga soliq yukini kamaytirish, uchinchisi – yer ajratish, to'rtinchisi – infratuzilma, beshinchisi – eksportyor korxonalarini qo'llab-quvvat-

lash, oltinchisi – transport-logistika, yettinchisi – sohadagi tartib-taomillarni soddalashtirish masalalariga qaratildi.

Davlatimiz rahbari har bir yoʻnalish boʻyicha dolzarb vazifalarni koʻrsatib, yangi tashabbuslarni ilgari surdi.

Prezidentimiz bunday muloqotlarni anʼanaga aylantirib, har yili tashkil etish, 20-avgustni mamlakatimizda «Tadbirkorlar kuni» deb eʼlon qilish taklifini bildirdi. Bu takliflar keng qoʻllab-quvvatlandi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi nutqi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**20-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Intellectual mulk obyektlarining huquqiy muhofazasi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**23-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**23-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning telefon orqali muloqoti boʻlib oʻtdi.

Davlat rahbarlari Oʻzbekiston – Tojikiston strategik sheriklik va

koʻp qirrali hamkorlik munosabatlari kun tartibidagi dolzarb masalalarni koʻrib chiqdilar.

Qoʻshni Afgʻonistondagi vaziyatning rivojlanishi nuqtayi nazaridan mintaqaviy hamkorlik masalalariga alohida eʼtibor qaratildi.

Oʻzbekiston va Tojikiston Prezidentlari mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni taʼminlashning amaliy jihatlari yuzasidan faol idoralararo aloqalarni davom ettirish muhim ekanini taʼkidladilar.

\* \* \*

**23-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkilotining Afgʻonistondagi vaziyatga bagʻishlab video-anjuman shaklida oʻtkazilgan navbatdan tashqari sessiyasida taklif etilgan mehmon sifatida ishtirok etdi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon raisligida oʻtgan yigʻilishda Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozogʻiston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirgʻiz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan va KXShT bosh kotibi Stanislav Zas qatnashdi.

Sessiyada qoʻshni Afgʻonistonda yuzaga kelayotgan vaziyat hamda mintaqadagi barqarorlikka tahdid solayotgan xavf-xatarlarga qarshi koʻrilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan batafsil fikr almashildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti uchrashuv ishtirokchilarini

mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga ko'maklashish, shu jumladan, Afg'oniston bilan Davlat chegarasini ishonchli qo'riqlash va himoya qilish borasida olib borilayotgan tadbirlar to'g'risida xabardor qildi.

Mamlakatimiz yetakchisi mintaqa davlatlarining aloqador tuzilmalari bilan Afg'oniston borasida samarali hamkorlik va tezkor axborot almashinuvi yo'lga qo'yilganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Sammit yakunida mintaqadagi vaziyat yuzasidan o'zaro maslahatlashuvlar va muntazam axborot almashishni davom ettirishga kelishib olindi.

\* \* \*

**23-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan qurilish va obodonlashtirish loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Prezidentimiz o'tgan yili 16-oktabr kuni Davlat xavfsizlik xizmati akademiyasi va Temurbeklar maktabining qurilishini ko'zdan kechirgan edi. Bugunga kelib u qurib bitkazilgan. Akademiyaning mavjud binolari rekonstruksiya qilingan.

Davlatimiz rahbari 2020-yil 31-yanvar kuni Geologiya fanlari universiteti qurilishiga tamal toshi qo'ygan edi. Shundan buyon bu yerda juda katta hajmdagi ishlar bajarildi. 6 ta ko'p qavatli imorat barpo etilib, 4 tasi rekonstruksiya qilindi.

Yunusobod tumanida Toshkent Arxitektura-qurilish instituti uchun yangi bino qurilmoqda. 5 qavatli ikkita o'quv majmuasi, 8

qavatli ma'muriy bino va 4 qavatli yotoqxona qad ko'tarmoqda. Ularni shu yil oktabrda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

Ta'lim sohasidagi ulkan loyihalardan biri – bu «Yangi O'zbekiston» universiteti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23-iyundagi qaroriga muvofiq tashkil etilgan mazkur ta'lim maskani joriy o'quv yilining o'zidayoq ilk talabalarni qabul qildi. Shu bois, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining ayrim binolari ajratilib, zamonaviy ta'mirlandi.

Kelgusida «Yangi O'zbekiston» universiteti uchun zamonaviy o'quv kampusi bunyod etiladi. Bu borada xalqaro standartlar asosida loyiha ishlab chiqilib, dastlabki ishlar boshlab yuborilgan.

Prezidentimiz 2019-yilda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabga tashrifi chog'ida ushbu maktab yonida IT-park filialini tashkil etish, unga yoshlarni jalb qilib, tajriba oshirishi uchun keng sharoitlar yaratish bo'yicha ko'rsatma bergan edi.

Hozirda ushbu bino qurib bitkazilib, zamonaviy jihozlanmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasida ham ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazida kardiojarrohlik, transplantologiya va neyro-qon-tomir jarrohligi bo'limlari uchun yangi bino qurilmoqda. Buning natijasida mazkur murakkab amaliyotlar uchun zamonaviy sharoit yaratiladi, yiliga qo'shimcha 3 ming bemorga yuqori texnologik tibbiy

yordam ko'rsatiladi. Ushbu yangi majmua qurilishi shu yil sentabrda yakunlanadi.

Mudofaa vazirligining avvalgi klinik hospitali o'tgan asrning qirqinchi yillarida qurilgan, eskicha tartibda ishlab kelayotgan edi. Davlatimiz rahbari 2018-yilda u yerga borib, shifoxonani rekonstruksiya qilish va zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, boshqaruvda zamonaviy menejmentni joriy etish bo'yicha topshiriqlar bergan edi. Shu asosida katta hajmdagi qurilish va ta'mirlash ishlari bajarilmoqda.

«Xavfsiz shahar» boshqaruv situatsion markazi, savdo va xizmat ko'rsatish majmualari, sanoat korxonalari, yo'l va ko'priklar qurilishining borishi bo'yicha ham ma'lumot berildi.

\* \* \*

**23-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi» esdalik nishoni bilan mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**23-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xalqaro kulolchilik forumi va kulolchilik mahsulotlari ko'rgazma-savdosini o'tkazish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ekologik holatni yaxshilash, daraxtlar muhofazasini samarali tashkil etish va yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda sohadagi muammolar tanqidiy muhokama qilindi. Ekologik holatni yaxshilash, yashil hududlarni kengaytirish bo'yicha muhim vazifalar belgilandi.

Bu yil kuz oylarida avtomobil yo'llari, dala chetlari, barcha aholi maskanlarida 55 million dona, kelgusi yil bahor mavsumida 70 million dona tut, pavlovniya, chinor, eman, yong'oq, jiyda, terak kabi mevali va manzarali daraxtlar ekish vazifasi qo'yildi.

Daraxtlarni parvarishlash uchun har bir mahallaga bittadan, tuman va shahar obodonlashtirish bo'limlariga kamida 5 nafardan ishchi birlashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Hokimlarga shaharlar va tumanlar markazlaridagi 4 ming 500 kilometr ichki irrigatsiya tarmoqlarini tiklash bo'yicha topshiriq berildi. Aholini sifatli ko'chatlar bilan ta'minlash maqsadida har bir hududda «Yashil zamin» jamg'armalari tashkil etilishi belgilandi.

Mutasaddilarga ko'chatchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar uchun tanlov asosida yer ajratish, «Yashil zamin» jamg'armasi hisobidan aholiga mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini bepul tarqatish bo'yicha ko'rsatma berildi. Shaharlarda yashil hudud va jamoat parklari tashkil qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Mutasaddilarga barcha istirohat bog'laridagi daraxtlarni to'liq xatlovdan o'tkazib, jamoat parklarini ko'paytirish bo'yicha topshiriq berildi. Ta'kidlanganidek, istirohat bog'larining 70 foizi yashil hudud bo'lishi kerak va ularda bino-

inshootlar qurilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Toshkent shahrining har bir tumanida bittadan sayilgoh, ko‘p qavatli uylar joylashgan mahallalarning har birida yashil hududlar tashkil qilish zarurligi qayd etildi. Shuningdek, 60 kilometr kanallar bo‘yi, 250 kilometr piyodalar yo‘laklari atrofiga manzarali daraxtlar ekish kerak. Toshkent shahar hokimiga shu borada qator topshiriqlar berildi.

Daraxtlarni kesishga moratoriy 2024-yilga qadar uzaytiriladi va javobgarlik keskin kuchaytiriladi. Yashil hudud va jamoat parklaridagi daraxtlarni kesish qat‘iyan taqiqlanadi.

Toshkent shahri va viloyatlar markazida ekologiya politsiyasi tashkil etiladi. Uning zimmasiga ekologiya sohasidagi qonunbuzarliklar, jumladan, daraxtlarni ruxsatsiz kesish, chiqindilarni nojoiz joyga tashlash, brakonyerlik kabi holatlarga qarshi kurashish vazifalari yuklatiladi.

Chiqindilarni yig‘ish va qayta ishlash masalasiga ham to‘xtalib o‘tildi. Bu borada davlat-xususiy sheriklik yo‘lga qo‘yilgan joylarda tartib yaxshilangan.

Ilm va innovatsiyalar har bir sohada zarur. Lekin bugungi kunda Ekologiya qo‘mitasi tizimidagi 2 mingdan ortiq xodimlarning atigi 10 foizi mutaxassis hisoblanadi. Shu bois, qo‘mita huzuridagi ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini takomillashtirish, olimlar va kadrlar tayyorlashni rivojlantirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

\* \* \*

**24-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Qahramoni» unvonini berish to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz yilligi munosabati bilan fan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, sport, adabiyot, madaniyat, san‘at sohalari va ommaviy axborot vositalari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Mamlakatimizda madaniyat va san‘at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari sohasini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan bir guruh marhum ijodkorlarni mukofotlash to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘muriyatchiligini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-avgust.** Xorijiy davlatlarning mamlakatimizga yangi tayinlangan elchilari tomonidan ishonch yorliqlarini topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rumuniya elchisi Daniel Kristian Chobanu, Polsha Respublikasi elchisi Radoslav

Gruk, Tojikiston Respublikasi elchisi Abdujabbor Rahmonzoda, Shveysariya Konfederatsiyasi elchisi Konstantin Obolenskiy va Germaniya Federativ Respublikasi elchisi Tilo Klinnerdan ishonch yorliqlarini qabul qilib oldi.

Davlatimiz rahbari yangi tayinlangan elchilarni Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi keng miqyosli demokratik yangilanishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davom etayotgan muhim tarixiy davrda mamlakatimizda diplomatik missiyasini boshlagani bilan samimiy tabrikladi.

Amalga oshirilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida so'z yuritar ekan, Prezidentimiz xorijiy hamkor mamlakatlar, avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlar va ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganini alohida qayd etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti so'zini yakunlar ekan, diplomatik vakolatxonalar rahbarlariga ularning O'zbekiston Respublikasi bilan do'stlik va ko'p qirrali hamkorlikni mustahkamlash yo'lidagi mas'uliyatli va sharaflil faoliyatiga katta muvaffaqiyatlar tiladi.

\* \* \*

**25-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Mahmud Qurayshiyini qabul qildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari ja-

dal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Joriy yilning iyul oyida Toshkent shahrida o'tgan oliy darajadagi muzokaralar strategik sheriklik prinsiplariga asoslangan ikki tomonlama hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi.

Tashqi ishlar vaziri Mahmud Qurayshiy Pokiston Bosh vaziri Imron Xonning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi hamda O'zbekiston yetakchisiga mintaqada barqarorlik va ravnaqni ta'minlash borasidagi faol sa'y-harakatlari uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuvda oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Afg'onistondagi vaziyat rivojiga alohida e'tibor qaratildi. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash jihatlarini yuzasidan yaqin idoralararo aloqalar va almashinuvlarni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi. Shuningdek, «Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar» temiryo'lini qurish loyihasini birgalikda yanada ilgari surishga intilish qat'iy ekanligi tasdiqlandi.

\* \* \*

**25-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Polsha Respublikasi Prezidenti Anjey Duda bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Yetakchilar ikki tomonlama kun tartibidagi dolzarb masalalarni, shu jumladan, siyosiy muloqotni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish, madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini ilgari surish, shuningdek,



xalqaro tashkilotlar doirasidagi samarali sheriklikni davom ettirish masalalarini ko'rib chiqdilar.

Davlat rahbarlari Afg'onistondagi voqealarning rivojlanishi nuqtayi nazaridan mintaqadagi joriy vaziyat yuzasidan ham fikr almashdilar.

Polsha Prezidenti fuqarolarni Afg'onistondan mamlakatimiz hududi orqali Polshaga evakuatsiya qilish bo'yicha gumanitar operatsiyalarni amalga oshirishga ko'rsatilayotgan har tomonlama ko'mak uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Afg'on muammosini tinch yo'l bilan hal qilish maqsadida yaqindan hamkorlikni davom ettirishga kelihib olindi.

\* \* \*

**25-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Umumiy ovqatlanish va turizm sohalarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**25-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz yilligi munosabati bilan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Botir Zokirovni «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlash to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**26-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz yilligi munosabati bilan bir guruh chet el fuqarolarini mukofotlash to'g'risida»gi farmoni imzoladi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi yirik sanoat quvvatlarini ishga tushirish, shuningdek, mavjud korxonalar faoliyati bilan tanishib, aholi bilan muloqot qilish maqsadida Navoiy viloyatida bo'ldi.

Vatanimiz mustaqilligining 30 yillik bayrami arafasida Navoiy viloyati Karmana tumanida mam-lakatimizdagi ilk quyosh fotoelektr stansiyasi ishga tushirildi.

Shu munosabat bilan o'tkazilgan marosimda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi.

Bu yerda 110 million dollar investitsiya o'zlashtirilib, 300 mingta quyosh panellari o'rnatildi. Uning quvvati 100 megavatt.

«Nur Navoiy solar» nomli ushbu loyiha Birlashgan Arab Amirligining «Masdar» kompaniyasi tomonidan amalga oshirildi. Prezidentimiz mazkur davlat bilan o'zaro hamkorlik yildan yilga rivojlanib borayotganini alohida ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari fotoelektr stansiyasi qurilishida ishtirok etgan xorijiy investorlar, barcha quruvchi va mutaxassislariga minnatdorlik bildirdi.

Prezidentimiz iqtisodiyot, jumladan, energetikani rivojlantirishga qaratilgan rejalarni ham aytib o'tdi. Shu bilan birga, bugungi kunda past kuchlanishli tarmoqlarning 66 foizi, podstansiyalarning 74 foizi va transformator punktlarining 50 foizdan ko'prog'i eskirgan. Shu bois, kelgusi besh yilda jami 70 ming kilometr past kuchlanishli elektr tarmoqlari, 22 ming dona transformator va 100 dan ortiq podstansiyalar yangilanishi qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ramziy dastakni harakatga keltirib, quyosh fotoelektr stansiyasini ishga tushirdi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyatiga tashrif buyurdi. Bu yerda bir yo'la ikkita zavod – azot kislotasi hamda ammiak va karbamid ishlab chiqarish korxonalarining ochilish marosimi bo'ldi.

Davlatimiz rahbari ramziy tugmani bosib, azot kislotasi hamda ammiak va karbamid korxonalarini ishga tushirdi.

Muhim tomoni – bu korxonalar orqali «Navoiyazot» va «Elektr kimyo zavodi» negizida yirik, o'zaro integratsiya qilingan kimyo klasterini tashkil etish rejalashtirilgan. Davlatimiz rahbari ushbu klaster salohiyati, istiqbolini, bu sohadagi ulkan loyihalar uchun malakali mutaxassislar tayyorlash zarurligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari polivinilxlorid ishlab chiqarish loyahasining ikkinchi bosqichi qurilishiga tamal toshini qo'ydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Navoiy viloyatiga tashrifi chog'ida olis Tomdi tumaniga ham bordi. Navoiy kon-metallurgiya kombinatining texnologiya chiqindilarni qayta ishlash korxonasi faoliyati bilan tanishib, odamlar bilan suhbatlashdi.

Prezidentimiz korxonalar jamoasi, tom-dilik faollar, yoshlar bilan suhbatlashdi.

Shu yerda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida amalga oshirilayotgan loyihalar taqdimoti ham o'tkazildi.

Davlatimiz rahbari jurnalistlar bilan ham muloqotda bo'lib, bugun ishga tushirilgan korxonalarining iqtisodiy samaradorligi, sanoat so-

hasidagi rejalar haqida soʻzlab berdi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Navoiy viloyatiga tashrifi yakunlandi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozogʻiston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Qozogʻiston Prezidentiga Jambil viloyati Boyzoq tumanida roʻy bergan fojiali voqea oqibatida insonlar qurbon boʻlgani munosabati bilan chuqur hamdardlik bildirdi. Oʻzbekiston Qozogʻistonga favqulodda hodisa oqibatlarini bartaraf etishda zarur koʻmak koʻrsatishga tayyor ekani taʼkidlandi.

Oʻzbekiston – Qozogʻiston munosabatlarining dolzarb masalalari koʻrib chiqildi. Koʻp qirrali hamkorlik ijobiy surʼat bilan rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Savdo, sanoat, qishloq xoʻjaligi, transport va logistika, turizm sohalarida kooperatsiya loyihalarini, madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini ilgari surish muhim ekani taʼkidlandi.

Prezidentlar, shuningdek, mintaqa kun tartibi, avvalo, Afgʻonistondagi vaziyatning keskinlashishi yuzasidan fikr almashdilar. Markaziy Osiyoda xavfsizlikni taʼminlash masalalarida yaqindan hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

\* \* \*

**27-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev eng ulugʻ, eng aziz

bayramimiz – Vatanimiz mustaqilligi eʼlon qilinganining oʻttiz yilligini nishonlash arafasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan gumanistik siyosatning amaliy tasdigʻi sifatida «Jazo muddatini oʻtayotgan, qilmishiga chin koʻngildan pushaymon boʻlgan va tuzalish yoʻliga qatʼiy oʻtgan bir guruh shaxslarni afv etish toʻgʻrisida»gi Farmonni imzoladi.

\* \* \*

**28-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Yevropa kengashi Prezidenti Sharl Mishel bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida Yevrokengash Prezidenti davlatimiz rahbari va Oʻzbekiston xalqini mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligi bilan samimiy muborakbod etib, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar qatʼiy qoʻllab-quvvatlanayotgani taʼkidlandi. Unda koʻp qirrali Oʻzbekiston – Yevroittifoq hamkorligining dolzarb masalalari koʻrib chiqildi.

Oʻzbekistonga «Preferensiyalar bosh tizimi plus» benefitsiari maqomi taqdim etilgani ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, oʻzaro savdo hajmini oshirish va YI mamlakatlarining yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi investitsiya loyihalarini ilgari surishga, shuningdek, moliyaviy-texnik koʻmak dasturini kengaytirishga xizmat qilishi mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bo'lajak oliy darajadagi sammitning kun tartibini ishlab chiqish, shu jumladan, Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimni tuzishga tayyorgarlik ko'rish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Afg'onistondagi ahvolning keskinlashishi ta'sirida mintaqadagi vaziyatning rivojlanishi yuzasidan ham fikr almashildi. Yevrokengash Prezidenti fuqarolarni evakuatsiya qilish bo'yicha insonparvarlik operatsiyalarini o'tkazishda ko'rsatilgan amaliy ko'mak uchun O'zbekiston yetakchisiga samimiy minnatdorlik bildirdi.

\* \* \*

**30-avgust.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga muvofiq, mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan ko'plab vatandoshlarimiz faxriy unvonlar, orden va medallar bilan taqdirlangan edi.

Ko'ksaroyda ushbu mukofotlarni topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yig'ilganlarni, avvalo, Mustaqillik bayrami bilan tabriklab, ularga o'zining yuksak ehtiromini bildirdi.

Prezident istiqbol yillarida mustaqil fikrli, zamonaviy dunyoqarashli yangi avlod voyaga yetganini, ular davlatimizning tayanchi va kelajagi ekanini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari «O'zbekiston Qahramoni» unvoni bilan taqdirlangan ilg'or fermer, seleksioner olim Muhammad Ahmedovni, matematik olim, akademik Shavkat Ayupovni,

atoqli adabiyotshunos, tarjimon va publitsist Ibrohim G'afurovni, xalq artisti Munojot Yo'lchiyevani alohida tabrikkladi.

Fidoi shifokorlarimiz o'z jonini xavf ostiga qo'yib, xalqimiz salomatligi uchun har kuni, har daqiqada kurashmoqda. Mard va jasur harbiylarimiz tinchlik-osoyishtalik yo'lida sadoqat bilan xizmat qilmoqda. Omilkor tadbirkorlar, dehqon va fermerlar, ishchi-muhandislar mamlakatimiz taraqqiyotiga katta hissa qo'shmoqda. Ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohasi vakillari katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Navqiron yoshlarimiz xalqimizga haqiqiy tayanch va suyanch bo'lib maydonga chiqmoqda.

Prezidentimiz ularni yuksak mukofotlar bilan qutlab, ezgu tilaklarini izhor etdi.

Shu kunlarda joylarda ko'plab vatandoshlarimiz «O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligi» esdalik nishonini qabul qilib olmoqda. Davlatimiz rahbari ularni ham xalqimiz nomidan samimiy tabrikkladi.

Shundan so'ng mukofotlar tan-tanali ravishda topshirildi.

Mukofotlanganlar yuksak e'tibor uchun davlatimiz rahbariga minnatdorlik bildirdi.

\* \* \*

**30-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev qator xorijiy davlatlar yetakchilari bilan telefon orqali muloqot qildi.

Jumladan, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Abu-

Dabi Amirligi valiahdi, Birlashgan Arab Amirliklari Qurolli Kuchlari Oliy bosh qo'mondoni o'rinbosari Muhammad Ol Nahayon, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron, Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer bilan suhbatlar bo'lib o'tdi.

Ular davlatimiz rahbari va O'zbekistonning ko'p millatli xalqini mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligi bilan dildan qutlab, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilaklarini izhor etdilar. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va demokratik yangilanishlarning yangi dasturini amalga oshirishdagi yutuqlar, yurtimizning mustahkamlanib borayotgan xalqaro nufuzi alohida qayd etildi.

Ikki tomonlama hamkorlik va mintaqaviy sheriklik masalalari muhokama qilindi. Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlik doirasidagi qo'shma kooperatsiya loyihalarini o'z vaqtida amalga oshirish muhim ekani ta'kidlandi.

\* \* \*

**31-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**31-avgust.** Prezident Shavkat Mirziyoyev poytaxtimizdagi Shahidlar xotirasi xiyoboniga tashrif buyurdi.

U yerda jamoatchilik vatanimiz fidoyilari, milliy istiqlol yo'lida qurbon bo'lgan ajdodlarimiz xotirasini yod etish uchun yig'ildi. Qur'on tilovat etilib, o'tganlar haqiga duo qilindi. Elga osh tortildi.

Bu yil Shahidlar xotirasi xiyobonida bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi binosi rekonstruksiya qilindi.

Davlatimiz rahbari ushbu muzeyni kirib ko'rdi. U yerda yaratilgan sharoitlar, tarixiy hujjatlar bilan tanishdi.

Tarixchi olimlar jalb etilib, zulm qurboni bo'lgan barcha insonlarni aniqlash va nomlarini tiklash bo'yicha katta ishlar boshlandi. Chet ellardagi arxiv va muzeylar, kutubxona va fondlar bilan ham hamkorlik yo'lga qo'yilib, ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilmoqda. Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Fanlar akademiyasi va boshqa tashkilotlarning arxivlaridan yangi-yangi ma'lumotlar topilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlarda qatag'on qurbonlariga bag'ishlangan muzeylar tashkil etildi. Ularda rasmiy materiallar bilan birga oilaviy arxivlarda saqlanib qolgan ko'plab tarixiy hujjatlar, noyob suratlar to'planmoqda. Qatag'on qurbonlarining nomlari, ularning hayoti va faoliyati viloyatlar, tumanlar kesimida aniqlanmoqda. Bu ma'lumotlar asosida ko'p jildlik «Qatag'on qurbonlari» kitobi nashrga tayyorlanayapti.

Prezidentimiz bunday katta ilmiy asarlar bilan birga maktab o'quv-

chilari uchun sodda tilda, kichik-kichik kitoblar chiqarish zarurligini ta'kidladi. Buning uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarga Tarix institutining ilmiy xodimlarini biriktirib, har bir hududdagi jadid bobolarimiz, qatag'on qurbonlari nomini tiklab borish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Davlatimiz rahbari tarixni o'rganish va o'rgatish vazifalari haqida gapirdi.

Haqiqatni tiklash borasidagi yana bir qadam – shu yil 25-avgust kuni O'zbekiston Oliy sudi tomonidan 115 nafar qatag'on qurboni oqlandi. Prezidentimiz bu qarorni olqishladi.

Xiyobondagi ramziy qabr yonida nuroniylar, ulamo va ziyolilar bilan muloqot bo'ldi. Davlatimiz rahbari ajdodlar xotirasi, bugungi mustaqillik va tinchlik qadri haqida gapirdi.

Dunyoda bo'layotgan voqealarga ogoh ko'z bilan qarash, tinchlik-osoysishtalikning qadriga yetish muhimligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**31-avgust.** Istiqlolimizning o'ttiz yilligiga bag'ishlab bunyod etilgan «Yangi O'zbekiston» bog'i va Mustaqillik monumentining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Ushbu boqqa joriy yil 1-may kuni ilk ko'chatlar ekilgan edi. Tarixchi olimlar, ijodkor ziyolilar, nuroniylar va yoshlar bilan maslahatlashib, «Yangi O'zbekiston» majmuasining g'oyaviy va me'moriy yechimlariga alohida e'tibor qaratildi.

Bog'ning markaziy qismida muhtasham badiiy obida – Mustaqillik monumenti barpo etildi.

Ma'lumki, el-yurtimiz o'zining qadimiy o'tmishi davomida shonli voqealarni, turli sinov va qiyinchiliklarni, zafarli davrlar bilan birga, fojiali kunlarni ham boshidan kechirgan. Mustaqillik monumentida bular badiiy aks ettirilgan.

Yodgorlik yurtimizda yangi O'zbekistonni – uchinchi Renessans poydevorini yaratish g'oyasi bilan uyg'un holda barpo qilingani ayniqsa ahamiyatlidir. Unda milliy davlatchiligimizning ramzi bo'lgan Sohibqiron Amir Temur saltanatining moviy gumbazi, yulduzlar olamiga qarab yuksalgan Mirzo Ulug'bek rasadxonasi, dunyo ilm-fani va sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan ulug' mutafakkir bobolarimizning eng nodir ilmiy kashfiyotlari o'zining bor mahobati va shukuhi bilan ko'z oldimizda yaqqol namoyon bo'lib turibdi.

Tinchlik va erkinlik, ezgulik va farovonlik timsoli bo'lgan, ko'kda mag'rur parvoz qilayotgan Humo qushi tasviri monumentning eng yuqori qismida – bamisoli uning gultoji bo'lib o'rin egallagan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev jamoatchilik vakillari bilan birga Mustaqillik monumentini ochdi. Majmua poyiga gullar qo'yildi.

\* \* \*

**31-avgust.** O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik tantanasi «Yangi O'zbekiston» bog'ida o'tkazildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq soʻzlab, butun xalqimizni mustaqillikning 30 yillik bayrami bilan tabrikladi.

Davlatimiz rahbari Oʻzbekiston mustaqilligini eʼlon qilib, tariximizning eng murakkab va ogʻir davrlarida mamlakatimizni boshqargan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovni, uning rahbarligida amalga oshirilgan ulkan ishlarni esga oldi.

Tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi ishlarning ahamiyati qayd etib oʻtildi.

Prezidentimiz bayram tadbirida qatnashgan xorijiy davlatlar elchilari, xalqaro tashkilotlar vakillari va chet ellik sheriklarni ham qutlab, ezgu tilaklarini bildirdi.

Mamlakatimizdagi islohotlar muqarrar tus olgani, xalqimiz ularni qoʻllab-quvvatlab, faol ishtirokchisiga aylangani taʼkidlandi.

\* \* \*

**1-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay Amirlihi hokimi Muhammad bin Roshid Ol Maktum bilan telefon orqali muloqot qildi.

Amirliklar Vitse-prezidenti davlatimiz rahbari va Oʻzbekiston xalqini mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligi bilan samimiy qutlab, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik, katta muvaffaqiyatlar va ravnaq tiladi.

Ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qi-

lindi, 2019-yil mart oyida Birlashgan Arab Amirliklariga oliy darajadagi tashrif yakunlari boʻyicha erishilgan kelishuvlarning bajarilishi holati koʻrib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, energetika, transport-kommunikatsiya va boshqa sohalardagi amaliy hamkorlikning natijalari mamnuniyat bilan qayd etildi. Masdar kompaniyasi bilan birgalikda Oʻzbekistondagi birinchi quyosh fotoelektr stansiyasi muvaffaqiyatli qurilgani va ishga tushirilgani taʼkidlandi.

Birgalikdagi saʼy-harakatlar bilan taʼlim va gumanitar almashinuv dasturlari faol ilgari surilmoqda. Mamlakatimizda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish borasidagi tadbirlar doirasida Toshkent shahrida Hukumat akseleratori ofisi oʻz ishini boshladi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**1-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdogʻan bilan telefon orqali muloqoti boʻlib oʻtdi.

Prezidentlar ikki tomonlama hamkorlik yuzasidan fikr almashdilar. Joriy yil boshidan oʻzaro savdo koʻrsatkichlari ikki barobar oʻsgani va 240 dan ortiq qoʻshma korxonalar tashkil etilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Mamlakatlarimiz yetakchi kompaniyalarining kooperatsiyasi kuchayib bormoqda, jumladan, energeti-

ka, sanoat, qishloq xo'jaligi, infrazilma, turizm va boshqa sohalarda muhim investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Qo'shma ta'lim va madaniy-gumanitar dasturlar muvaffaqiyatli joriy qilinmoqda. Xususan, shu yilning avgust oyida turkiyalik yetakchi mutaxassislar Toshkent va Samarqand shaharlaridagi arxitektura-qurilish institutlariga rahbar bo'ldilar.

Yetakchilar bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini, shu jumladan, Strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig'ilishiga tayyorgarlik masalalarini ko'rib chiqdilar.

Afg'onistondagi harbiy-siyosiy ahvol keskinlashishi ta'sirida mintaqadagi vaziyatning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi. Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalari yuzasidan aloqalar va ko'p tomonlama muloqotni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

\* \* \*

**2-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning qaroriga muvofiq, Islom Karimov vafot etgan sanasi Xotira kuni sifatida belgilangan. Bu kunda jamoatchilik yig'ilib, Birinchi Prezidentimizni yod etish ezgu an'anaga aylangan.

Davlatimiz rahbari 2-sentabr kuni Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasiga tashrif buyurdi. Birinchi Prezidentimiz haykali poyiga gulchambar qo'yib, uning xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Qur'on tilovat qilindi.

O'tganlarni yaxshiliklari bilan eslash – ezgu fazilat. Ajdodlar hurmatini joyiga qo'ygan insonning o'zi ham hurmatga loyiq.

Shavkat Mirziyoyev istiqbolimizning 30 yillik bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimda Islom Karimov O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilib, tariximizning eng murakkab va og'ir davrlarida davlatimizni boshqarganini ta'kidladi.

\* \* \*

**2-sentabr.** Poytaxtimizda Islom taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 46-yillik yig'ilishi bo'lib o'tdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu anjumanga tashrif buyurdi.

Tadbir avvalida Qur'oni karim oyatlaridan tilovat qilindi.

Davlatimiz rahbari mehmonlarni qutlab, O'zbekistonning mazkur bank bilan hamkorligi, istiqboldagi muhim masalalar haqida nutq so'zladi.

Prezidentimiz O'zbekiston zamini asrlar davomida islom olamining buyuk va noyob madaniyati, ilmfani va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti markazlaridan biri bo'lganini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari koronavirus pandemiyasining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini yengib o'tish masalalariga to'xtaldi. Mamlakatimizda inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralarni o'z vaqtida qo'llab-quvvatlagani uchun Islom taraqqiyot bankiga minnatdorlik bildirdi.

Shavkat Mirziyoyev mintaqamizdagi ekologik muammolarni qayd



etib, bank boshqaruvchilari e'tiborini Birlashgan Millatlar Tashkiloti sha'feligida tuzilgan Trast jamg'armasi hamda Orolbo'yi mintaqasida tashkil etilayotgan ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududini qo'llab-quvvatlash masalalariga qaratdi.

Mintaqamizda savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlarning o'zaro bog'liqligini kuchaytirish, yangi transport yo'laklarini rivojlantirish borasidagi ishlar qayd etib o'tildi.

Shuningdek, mintaqaviy ahamiyatga ega investitsion va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish zarurligi qayd etildi.

\* \* \*

**2-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida o'tayotgan Islom taraqqiyot banki (ITB) Boshqaruvchilar kengashining 46-yillik yig'ilishi doirasida mamlakatimizda bo'lib turgan Islom taraqqiyot banki prezidenti Muhammad bin Sulaymon Al-Jassirni qabul qildi.

O'zbekiston yetakchisi Muhammad Al-Jassirni ITB prezidenti lavozimiga saylangani bilan tabrik-ladi.

Ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari ITB bilan sheriklikning izchil kengayib borayotganini yuksak baholab, Bank O'zbekistondagi keng ko'lamli islohotlarning yangi dasturini qo'l-

lab-quvvatlayotgani va uni ilgari surishga muhim hissa qo'shayotganini alohida qayd etdi.

Bugungi kunda amaliy hamkorlik portfeli transport, uy-joy kommunal infratuzilma, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, sog'liqni saqlash, ta'lim, tadbirkorlik va boshqa ustuvor yo'nalishlarni qamrab olgan qiymati 2,5 milliard dollardan ortiq bo'lgan 30 ta loyihadan iborat.

Uchrashuvda ko'p qirrali sheriklikni kengaytirish istiqbollari alohida e'tibor qaratildi. Bu borada 2022-2025-yillarga mo'ljallangan yangi hamkorlik dasturini tez fursatda qabul qilish va amalga oshirish hamda Toshkent shahrida ITBning to'laqonli vakolatxonasini ishga tushirish, moliyalashtirish instrumentlari samaradorligini oshirish muhim ekani ta'kidlandi.

Yangi tashkil etilayotgan O'zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish jamg'armasi faoliyati xususiy tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlar farovonligini oshirish uchun samarali mexanizm bo'lib xizmat qilishiga umid bildirildi.

O'zbekiston va ITB o'rtasidagi strategik sheriklik va keng ko'lamli hamkorlikni rivojlantirish maqsadida o'zaro yaqindan ishlash va faol muloqotlarni davom ettirishga kelishib olindi.

\* \* \*

**6-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev farmatsevtika tarmog'ida

amalga oshirilgan ishlar hamda istiqboldagi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Prezidentimiz bu loyihalarning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlab, ularni jadallashtirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Taqdimotda mahalliy dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz yurtimizdagi dorivor o'simliklarni chuqur qayta ishlash orqali eksportni 15 million dollarga yetkazish va 5 mingdan ortiq aholini ish bilan ta'minlash mumkinligini ta'kidladi. Mutasaddilarga shu yo'nalishdagi klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yib, ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Bunda dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun yer maydonlarini ajratish, urug'chilikni rivojlantirish, agronomlarni tayyorlash, dorivor o'simliklarni qayta ishlash hamda iste'mol bozorlarini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratish topshirildi.

Taqdimotda biofarmatsevtik dori vositalarini o'zlashtirish istiqbollari ham muhokama qilindi. Shu bois Prezidentimiz onkologik, gormonal, qon preparatlari, vaksinalar kabi innovatsion biotexnologik dori vositalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Sog'liqni saqlash tizimida davlat xaridlari orqali mahalliy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish, xalqaro standartlar asosida tayyorlanayotgan mah-

sulotlarni sertifikatsiyalashni sod-dalashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Ilm-fan va sanoat korxonalarini kooperatsiyasini rivojlantirish, zamonaviy bilimlarga ega malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Sohani yanada rivojlantirish borasida alohida dastur tayyorlash vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**7-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Eksportchi korxonalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**8-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari birodar Tojikiston Prezidenti va xalqini mustaqillikka erishilganining 30 yilligi bilan samimiy muborakbod etib, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik, katta muvaffaqiyatlar va ravnaq tilaklarini izhor etdi.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy sohadagi

shiriklikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Prezidentlar joriy yilning 16-17-sentabr kunlari Dushanbe shahrida o'tkaziladigan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisi tadbirlariga tayyorgarlikning borishini ko'rib chiqdilar.

ShHTning bo'lajak sammiti doirasida yetakchilar ikki tomonlama va mintaqa kun tartibidagi masalalar bo'yicha alohida uchrashuv o'tkazishi yuzasidan kelishuvga erishildi.

\* \* \*

**9-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tokio shahrida bo'lib o'tgan XVI Yozgi paralimpiya o'yinlarida yuqori natijalarga erishgan sportchi va murabbiylardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**9-sentabr.** Toshkent shahrida Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining X syezdi bo'lib o'tdi.

Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan saylangan 1 ming 200 ga yaqin delegat qatnashdi.

Syezdda shu yil 24-oktabr kuni bo'lib o'tadigan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida qatnashish uchun partiyadan nomzod ko'rsatish masalasi muhokama qilindi.

Anjuman qatnashchilari bu saylov muhim siyosiy voqea ekani, Prezidentlikka keng bilim va katta tajribaga ega, azm-u shijoatli va qat'iyatli, yetakchi shaxs nomzodini ilgari surish zarurligini qayd etdi.

Partiya elektorati fikrlarini inobatga olgan holda, Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining syezdi O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga butun faoliyatini xalqimiz farovonligiga bag'ishlab kelayotgan, murakkab davrda mamlakatimizni rivojlantirishga qodir bo'lgan, o'zining insoniy fazilatlari va rahbarlik qobiliyati bilan yurt-doshlarimiz hurmati va mehrini qozongan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev nomzodini ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga nomzod Shavkat Mirziyoyev o'z saylovoldi dasturining asosiy yo'nalishlari haqida ma'ruza qildi.

Ushbu nutq «**Yangi O'zbekiston – inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlatdir**» sarlavhasi ostida matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**10-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev XVI Paralimpiya o'yinlarida ishtirok etgan sportchi va murabbiylar bilan uchrashdi.

Tadbirda Milliy parolimpiya qo'mitasi va sport federatsiyalari rahbarlari, parolimpiyachilarning otanolari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ham qatnashdi.

Ma'lumki, mazkur musobaqa 24-avgustdan 5-sentabrgacha Yaponiya poytaxti Tokio shahrida bo'lib o'tdi. Unga yoshlarimiz 8 ta sport turi bo'yicha 55 ta yo'llanmani qo'lga kiritgan edi. Bu shu paytgacha yurtimiz sportidagi eng yuqori ko'rsatkichdir. Parolimpiyachilarimiz yuksak matonat va mahorat ko'rsatib, 8 ta oltin, 5 ta kumush va 6 ta bronza medaliga sazovor bo'lishdi. Yana bir e'tiborli tomoni, shu 19 ta medalning 11 tasini sportchi qizlarimiz qo'lga kiritdi. Umumiy hisobda mamlakatimiz terma jamoasi 160 dan ziyod davlatlar o'rtasida o'n oltinchi, Osiyo qit'asi hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida to'rtinchi, Markaziy Osiyoda esa birinchi o'rinni egalladi.

Marosimda Prezidentimiz barchani sportchilarimizning ana shu ulkan g'alabasi bilan muborakbod etdi.

Davlatimiz rahbari musobaqada g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilarni nomma-nom e'tirof etib, ularning murabbiylari va ota-onalariga tashakkur aytdi.

Kelgusi o'quv yilidan boshlab, O'zbekiston Milliy parolimpiya qo'mitasi qoshida Parolimpiya sport turlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash institutini tashkil etish vazifasi qo'yildi.

Parolimpiyachilarning salomatligini mustahkamlash, jismoniy va ruhiy tayyorgarligini oshirish maqsadida ularni Respublika sport tib-

biyoti ilmiy-amaliy markaziga biriktirish, dori-darmon bilan ta'minlash muhimligi ta'kidlandi.

Bu yo'nalishni qishki sport turlari bo'yicha ham rivojlantirish, «Amirsoy» tog'-chang'i sport majmuasi hamda «Humo-Arena» muz saroyi bazalarida parolimpiyachilar uchun sharoit yaratish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Milliy parolimpiya qo'mitasi tarkibida «Matonat maktabi» tashkil etish taklifini bildirdi.

Parolimpiyachilarning hayotini, yutuq va zafarlarini keng targ'ib qilish zarurligi ham aytib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq, Tokio shahrida bo'lib o'tgan XVI yozgi Parolimpiya o'yinlarida yuqori natijalarga erishgan sportchi va murabbiylardan bir guruhi faxriy unvonlar, orden va medallar bilan mukofotlandi.

Tadbirda ana shu yuksak mukofotlar tantanali ravishda topshirildi.

\* \* \*

**10-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida axborot texnologiyalari sohasida salohiyatli kadrlar tayyorlash va iqtidorli yoshlar bilan tizimli ishlash masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida Birlashgan Arab Amirliklari bilan hamkorlikda «Bir million dasturchi» loyihasi amalga oshirilmoqda. Hozirgacha bu loyiha doirasida 567 ming o'g'il-qiz

bepul saboq oldi. E'tiborlisi, ularning 79 foizi maktab o'quvchilaridir.

Tadbir avvalida Birlashgan Arab Amirliklarining hukumat ishlari bo'yicha vaziri Muhammad bin Abdulloh al-Gergaviy videoaloqa orqali ushbu loyihaning ahamiyati haqida o'z fikrlarini bildirdi.

Yig'ilishda axborot texnologiyalari bo'yicha ta'lim sharoitlarini yaxshilash va qamrovini kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari loyihani har bir maktabga yetkazish, zarur hollarda ularni qo'shimcha kompyuterlar bilan ta'minlash, bolalarni o'qishga keng jalb etish muhimligini ta'kidladi.

Shuningdek, bunday o'quvlar joylardagi Yoshlar markazi, «Ishga marhamat» mono-markazlari negizida ham tashkil etilishi aytiladi.

Yana bir yangilik – joriy yil 1-oktabrdan boshlab barcha hududlarda 14 ta IT-texnikum faoliyati yo'lga qo'yiladi. Ularda dasturiy injiniring, axborot xavfsizligi va telekommunikatsiya kabi yo'nalishlar bo'yicha 8 mingga yaqin o'quvchi tahsil oladi. Yig'ilishda ushbu texnikumlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalariga ham to'xtalib o'tildi.

Prezident va ijod maktablari hamda ixtisoslashgan maktablarda ta'lim-tarbiya sifatini oshirish masalalari ham muhokama qilindi.

Bugungi kunda 4 ta Prezident maktabida 576 nafar, 3 ta ixtisoslashgan va 9 ta ijod maktabida 1 ming 500 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda.

Davlatimiz rahbari tarbiya jaryonida milliy qadriyatlar, vatan-

parvarlik ruhi asosiy ahamiyat kasb etishi zarurligini ta'kidladi. O'quvchilarni mamlakatimiz tarixi, madaniyati va san'ati bilan kengroq tanishtirish, harbiy xizmatchilar ishtirokida vatanparvarlik darslari tashkil etish muhimligi qayd etildi.

Ixtisoslashgan maktab o'quvchilarini axborot texnologiyalari mutaxassisliklariga yo'naltirish, ijod maktablarida veb-dizayn, kompyuter grafikasi, tasviriy va raqamli san'at, audiovizual asarlarni yaratish, tarjimonlik, jurnalistika va aktyorlik mahorati kabi to'garaklar tashkil etish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Prezident maktablariga investitsion va innovatsion yo'nalishlarni joriy qilish bo'yicha yangi tizim tashkil etiladi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligi xorijdan o'quv dasturlari, adabiyotlar va jihozlar, malakali pedagoglar va moliyaviy grantlar jalb qilishga ko'maklashadi. Shuningdek, xorijiy maktablar bilan o'qituvchi va o'quvchilarni almashish dasturlari amalga oshiriladi.

\* \* \*

**13-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev xirurgiya xizmatini transformatsiya qilishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Yurtimizda yiliga o'rtacha 750 mingta jarrohlik amaliyoti bajariladi. Jahon tibbiyoti yutuqlari o'rganilib, zarur sharoitlar yaratilayotgani natijasida respublika markazlarida qilinadigan operatsiyalar turi 350 taga, viloyat markazlarida 130 taga, tuman shifoxonalarida 60 taga yetdi. 32 ta shifoxonada zamonaviy

endovaskular xirurgiya bo'limlari tashkil etilgan.

Akademik V.Vohidov nomidagi respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bu yo'nalishdagi asosiy muassasadir. Hududlarda uning 14 ta filiali faoliyat yuritmoqda.

Taqdimotda ushbu markazning tibbiy-ilmiy salohiyati, hududlarda o'tkazilgan ko'riklar natijalari haqida ma'lumot berildi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar Sirdaryo viloyati Oqoltin tumanidagi shifoxona misolida ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari tumanlararo markazlarda qilinadigan jarrohlik amaliyotlari turini 79 taga, viloyat darajasida 168 tagacha yetkazish mumkinligini ta'kidlab, buning uchun zarur sharoit yaratish bo'yicha mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

Bugun eng kerakli yo'nalishlardan biri – organlar transplantatsiyasi. Keyingi yillarda bu sohaga alohida e'tibor qaratilib, huquqiy-tashkiliy asoslar yaratilmoqda. Xususan, Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazida kardiojarrohlik, transplantologiya va neyro-qon-tomir jarrohligi bo'limlari uchun yangi bino qurilmoqda.

Yurtimizda 500 nafar bemor jigar, 1 ming 500 nafar kishi buyrak transplantatsiyasi amaliyotiga muhtojligini bildirmoqda. Jarrohlik bo'limlarining jihozlanishi talab darajasida emasligi, malakali mutaxassislar yetishmasligi, immunogenetik tekshiruvlar laboratoriyasi yo'qligi soha rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bois Respublika xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazini transplantologiyaga yo'naltirib, immunogenetik laboratoriya va simulatsion markaz tashkil etish, Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlarida buyrak transplantatsiyasini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari ilg'or texnologiyalar asosida tashxislash, operatsiya qilish va davolash bo'yicha mutaxassislar tayyorlash, chet ellardagi yetakchi tibbiyot muassasalariga malaka oshirishga yuborish zarurligini ta'kidladi.

Moliya vazirligiga bu maqsadlar uchun zarur mablag' ajratish, transplantolog jarrohlarga ish haqini tabaqalashtirilgan tarzda to'lash tizimini joriy qilish vazifasi qo'yildi.

\* \* \*

**13-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Afg'onistonda vujudga kelayotgan vaziyatni hisobga olgan holda

mintaqa kun tartibidagi masalalar yuzasidan fikr almashildi. Shuningdek, Prezidentlar bo'ljak oliy darajadagi uchrashuvlar rejasini ko'rib chiqdilar.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Xalqaro moliya korporatsiyasi boshqaruvchi direktori Maxtar Diop boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari tarkibida XMK ham faoliyat ko'rsatuvchi Jahon banki guruhi bilan samarali hamkorlik izchil rivojlanayotgani va strategik sheriklik mustahkamlanib borayotganini alohida ta'kidladi.

Ochiq va konstruktiv muloqot, hamkorlikni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishga o'zaro intilishi tufayli O'zbekistonda Jahon banki ishtirokidagi qo'shma loyihalarning portfeli 5 milliard dollarga yetgan hamda mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha ustuvor sohalari va tarmoqlarini qamrab olgan.

O'tgan davrda Korporatsiya amaliyotlarining hajmi uch barobar ortib, qariyb 200 million dollarni tashkil etdi.

Bugungi kunda davlat-xususiy sheriklik tizimini rivojlantirish, transport sohasini modernizatsiyalash, bank sektorini transformatsiya qilish, mikromoliyalash institutlarini isloh qilish, to'qimachilik tarmog'iga xalqaro standartlarni joriy etish va boshqa yo'nalishlarda muhim loyihalar amalga oshirilmoqda.

Muzokaralar chog'ida sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi islo-

hotlarni qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, sohada boshqaruv tizimini takomillashtirish va jarayonlarni raqamlashtirishga doir dastur va loyihalarda XMKning ishtirokini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik sohasida, biznesni moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini, davlat korxonalarini xususiyashtirish va davlat-xususiy sheriklik tizimini rivojlantirishdagi ilg'or tajribani joriy etish borasida hamkorlik qilish, shuningdek, O'zbekistonda «yashil texnologiyalar»ni tatbiq etish, shu jumladan, energetika va qishloq xo'jaligidagi innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash muhim ekani ta'kidlandi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev ikki tomonlama hukumatlararo komissiyalarning tadbirlari doirasida mamlakatimizda bo'lib turgan Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o'rinbosari Esenmirat Orazgeldiyevni qabul qildi.

Ko'p qirrali O'zbekiston – Turkmaniston hamkorligini yanada kengaytirishning amaliy jihatlari ko'rib chiqildi.

Oliy darajadagi muntazam muloqotlar birodar mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shni-chilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash, ularni aniq mazmun bilan boyitishga xizmat qilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonda o'tkaziladigan sammitga puxta

va har tomonlama tayyorgarlik ko‘rish, eng avvalo, mazmunli kun tartibini shakllantirish, shuningdek, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida sanoat kooperatsiyasi loyihalari va madaniy-gumanitar almashinuv dasturlarini ilgari surish muhim ekanini ta’kidladi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati organlari xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**14-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**15-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Markaziy Osiyo – jahon sivilizatsiyalari chorrahasida»

xalqaro madaniyat forumi ishtirokchilariga tabrik yo‘lladi.

\* \* \*

**15-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlik subyektlari uchun ma‘muriy va soliq yukini yanada kamaytirish, biznesning qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**16-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Sudga murojaat qilish uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi va fuqarolik protsessiga soddalashtirilgan ish yuritish tartibi joriy etilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**16-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi sammitida ishtirok etish uchun Dushanbe shahriga keldi.

Davlatimiz rahbari sammit doirasida Tojikiston Prezidenti, Pokiston Bosh vaziri, Eron Prezidenti bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.

Prezident Emomali Rahmon bilan muloqotda ko‘p qirrali O‘zbekiston – Tojikiston munosabatlari yanada rivojlantirish hamda mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.



Oliy darajada erishilgan kelishuvlarga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini va madaniy-gumanitar hamkorlik dasturini amalga oshirish maqsadida faol muloqot va almashinuvlarni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi. Afg'onistonda vujudga kelayotgan vaziyat yuzasidan ham fikr almashildi.

Davlatimiz rahbari Tojikistonning ShHTdagi sermahsul raisligi davrida erishilgan natijalarni yuksak baholadi.

Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Imron Xon bilan muzokarada ikki mamlakat yetakchilarining joriy yil iyul oyida Toshkent shahrida o'tgan sammitida O'zbekiston va Pokistonning ko'p qirrali hamkorligini rivojlantirish bo'yicha erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi. Samarali ish-bilarmonlik almashinuvlarini kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirish borasida birgalikdagi ishlarni davom ettirish muhim ekani ta'kidlandi.

Uchrashuvda Afg'onistonda vujudga kelayotgan holatdan kelib chiqib mintaqadagi vaziyat yuzasidan fikr almashildi. Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalarida yaqindan hamkorlikni davom ettirishga kelishib olindi.

Eron Islom Respublikasi Prezidenti Ibrohim Raisiy bilan suhbatda amaliy hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Savdo-iqtisodiy aloqalar sur'atini davom ettirish va yangi «o'sish nuqtalari»ni aniqlash maqsadida qo'shma Hukumatlararo

komissiya ishini faollashtirishga kelishib olindi.

Bundan tashqari, «yo'l xaritasi» asosida sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish istiqbollari hamda ikki mamlakat tranzit salohiyatini samarali ishga solish imkoniyatlari va kolatli idoralar darajasida puxta o'rganiladi.

Davlat rahbarlari mintaqa kun tartibidagi masalalarni, shu jumladan, Afg'onistonda vujudga kelayotgan vaziyatdan kelib chiqqan holda ko'rib chiqdilar.

\* \* \*

**17-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining yubiley majlisida ishtirok etdi.

Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon raisligida o'tgan majlisda ShHTga a'zo davlatlar yetakchilari – O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi, Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, XXR Raisi Si Szinpin, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Pokiston Bosh vaziri Imron Xon va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin ishtirok etdi.

Tashkilot huzuridagi kuzatuvchi davlatlardan Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Eron Prezidenti Ibrohim Raisiy va Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux, faxriy mehmon sifatida Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov qatnashdi.

Shuningdek, tadbirda Shanxay hamkorlik tashkiloti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengash hamda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti ijroiya organlarining rahbarlari ishtirok etdi.

Sammit kun tartibiga muvofiq, ShHTning o'tgan 20 yildagi faoliyatining asosiy yakunlari hamda ko'p qirrali hamkorlikning istiqboldagi ustuvor vazifalari muhokama qilindi. Global va mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida bugungi xalqaro munosabatlarda Shanxay hamkorlik tashkilotining roli oshib borayotganini ta'kidledi.

Davlatimiz rahbari ishtirokchilar e'tiborini ShHT kun tartibida turgan dolzarb masalalarga qaratdi hamda ularni hal etish yuzasidan aniq takliflarni ilgari surdi.

O'zbekiston yetakchisi umumiy xavf-xatar va tahdidlarga o'z vaqtida va birgalikda javob qaytarish, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, ShHT makonida do'stlikni mustahkamlash va madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish zarurligini ta'kidledi.

Afg'onistonda vujudga kelayotgan vaziyatdan xavotir bildirildi. Ushbu mamlakatdagi vaziyatni siyosiy yo'l bilan hal etish masalalarini keng muhokama qilish maqsadida Prezidentimiz kuzatuvchi davlatlar va

muloqot bo'yicha sheriklarni jalb qilgan holda «ShHT – Afg'oniston» formatida yuqori darajadagi uchrashuvlarni muntazam o'tkazish taklifini bildirdi. Birinchi shunday uchrashuvni Toshkentda o'tkazish mumkinligi aytili.

ShHT doirasida ko'p qirrali sheriklikni yanada kengaytirish maqsadida tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasida Uzoq muddatli yaxshi qo'shnichilik, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani amalga oshirish bo'yicha 2023–2027-yillarga mo'ljallangan kompleks dasturni tayyorlash va qabul qilish taklifi bildirildi.

O'zbekiston Prezidenti savdo to'siqlarini bartaraf etish, texnik reglamentlarni yaqinlashtirish, bojxona tartib-taomillarini raqamlashtirish hamda o'zaro bozorlarga chiqishni yengillashtirishni nazarda tutadigan Mintaqa ichidagi savdoni rivojlantirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi.

O'zbekiston yetakchisi transport bog'liqligini rivojlantirish bo'yicha ShHT strategiyasining qabul qilinishi mamlakatlarimiz tranzit salohiyatini to'liq ishga solish hamda «Sharq – G'arb» va «Shimol – Janub» yo'laklari tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidledi.

Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarni faollashtirish maqsadida sammit ishtirokchilarining e'tibori SHHT makonida ichki ishlar va jamoat xavfsizligi vazirlarining

uchrashuvlarini qayta tiklash muhim ekaniga qaratildi.

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev kibermakondagi zamonaviy tahdid va xatarlarga munosib javob qaytarish uchun ShHTning axborot xavfsizligi sohasidagi ekspertlar forumini ta'sis etish to'g'risida tashabbus bilan chiqdi.

O'zbekiston yetakchisi yana bir dolzarb mavzu – yuqumli kasalliklarni profilaktika qilish va davolash, koviddan keyingi reabilitatsiya sohalaridagi hamkorlik, vaksinatsiya to'g'risidagi sertifikatlarni o'zaro tan olish masalalariga to'xtaldi.

Prezidentimiz o'z so'zining yakunida uchrashuv ishtirokchilarini 2022-yil sentabr oyida O'zbekistonda o'tadigan ShHTning navbatdagi sammitiga taklif etdi.

Majlis yakunida ShHTning 20 yilligi bo'yicha Dushanbe deklaratsiyasi qabul qilindi, tashkilot doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan 30 ta hujjat imzolandi.

O'zbekiston Prezidenti Afg'onistondagi vaziyat bo'yicha o'tkazilgan «Shanxay hamkorlik tashkiloti – Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma tashkiloti» formatidagi uchrashuvda ham ishtirok etdi.

Shu bilan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasiga tashrifi yakuniga yetdi.

Davlatimiz rahbarining ushbu sessiyadagi ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**17-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston poytaxti

Dushanbe shahrida Afg'onistondagi vaziyat bo'yicha o'tkazilgan «Shanxay hamkorlik tashkiloti – Kollektiv xavfsizlik to'g'risidagi shartnoma tashkiloti» formatidagi uchrashuvda ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi nutqi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**17-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev II Xalqaro baxshichilik san'ati festivali ishtirokchilariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**18-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Islom taraqqiyot banki va OPEK xalqaro taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida «Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**20-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Unda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Ko'p qirrali hamkorlikning bugungi sur'ati mamnuniyat bilan qayd etildi. Jumladan, o'zaro savdo va yuk tashishlar hajmi ortib bormoqda, aviaqatnovlar to'liq tiklandi, iqtisodiyotning turli tar-

moqlarida kooperatsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda, hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni yanada ko'paytirish muhim ekani ta'kidlandi.

Afg'onistondagi vaziyatni hisobga olgan holda xalqaro va mintaqa kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

\* \* \*

**20-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'lim, madaniyat va tibbiyot sohalaridagi bunyodkorlik loyihalari taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 23-iyundagi qaroriga muvofiq «Yangi O'zbekiston» universitetiga asos solingan edi. Qarorda universitet uchun zamonaviy o'quv kampusi bunyod etilishi belgilangan. Shu maqsadda turkiyalik muhandislar bilan birgalikda loyiha ishlab chiqilgan. Tadbirda ushbu loyihaning asosiy jihatlari, bo'lajak binoda yaratiladigan sharoitlar haqida ma'lumot berildi.

Taqdimotda yangi kutubxona loyihasi ham ko'rib chiqildi. Bu ma'naviyat uyi Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i hududida barpo etiladi. Uning tashqi ko'rinishi yurtimizdagi qadimiy obidalarga uyg'un tarzda loyihalashtirilgan. Ulkan kitob fondini saqlash, mutolaa, madaniy hordiq chiqarish, turli tadbirlar o'tkazish bilan bog'liq barcha jihatlar inobatga olingan.

Davlatimiz rahbari shu yil 14-may kuni Respublika onkologiya va

radiologiya tibbiyot markaziga borib, sharoitlarni ko'zdan kechirgan edi. Ushbu markaz uchun yangi bino qurish vazifasi qo'yilib, Toshkent tibbiyot akademiyasi klinikasi hududidan yer ajratildi.

Davlatimiz rahbari qurilishlarni xalqaro standartlar asosida, sifatli amalga oshirish, binolarga xizmat ko'rsatadigan texnik xodimlarni hozirdan tayyorlab borish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**20-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**21-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 76-sessiyasining yuqori darajadagi umumsiyosiy munozaralarida videomurojaat bilan chiqdi.

Davlatimiz rahbari xalqaro hamjamiyatga mintaqa va global kun tartibidagi dolzarb masalalar, BMTning zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi birgalikda chora ko'rishdagi roli yuzasidan o'z nuqtayi nazarini taqdim etdi hamda Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan va ortga qaytmas tus olgan chuqur demokratik islohotlarning mazmuni-mohiyatini ochib berdi.

Prezidentimizning ushbu sessiya-dagi ma'ruzasi matbuotda chop etildi.

\* \* \*

**21-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlardagi ijtimoiy islohotlarning borishi, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Nukus shahridagi «Shorsha baba» qabristoniga borib, ko'p yillar Qoraqalpog'iston Jo'qorg'i Kengesi Raisi lavozimida ishlagan Musa Erniyazov maqbarasini ziyorat qildi, Qur'on tilovat etildi.

So'ngra davlatimiz rahbari Bo'zator tumaniga kelib, «Yoshlik» mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Juginis Jumanazarov xonadonida mehmon bo'ldi.

Davlatimiz rahbari oilaning turmush tarzi, ular timsolida butun bo'zatorliklarning yashash sharoitlari bilan qiziqdi.

Xonadondan chiqishda bo'zatorlik ekologlar, mahalliy aholi vakillari bilan muloqot bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev Bo'zatorda qoraqalpog'istonlik saylovchilar bilan uchrashdi.

Yurtboshimiz Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti huzuridagi bolalar klinikasini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari bundan to'rt yil oldin uning qurilishiga tamal toshi qo'ygan edi. Klinika stasionar sharoitda yiliga 3 ming 600 nafar, ambulator tarzda 22 ming 400 nafar bemorga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega. Bu yerda tug'ma va

surunkali kasalligi bor bolalarga yuqori texnologiyalar asosida tashxis qo'yiladi va davolanadi.

Shifoxonada 300 ga yaqin kishi ishlaydi. Professor-o'qituvchilar va tibbiyot xodimlari Janubiy Koreya, Yaponiya, Avstriya, Rossiya kabi mamlakatlardagi ilg'or klinikalarda tajriba orttirib kelgan.

Prezidentimiz bu yerda davolanayotgan bolalarni ko'rib, ularning onalari bilan suhbatlashdi.

Institutda tibbiy ta'lim, ilm-fan va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun zamonaviy sharoitlar yaratilgan.

Davlatimiz rahbari shu yerda amaliyot o'tayotgan institut talabalari bilan ham muloqot qildi. Tibbiy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalari bo'yicha dars soatlarini ko'paytirish zarurligi ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Nukus shahrida o'tayotgan Yoshlar festivaliga tashrif buyurdi.

Uchrashuvda yoshlarga keng imkoniyat yaratishga qaratilgan ishlar izchil davom ettirilishi ta'kidlandi. Jumladan, 55 ta yangi maktab, 187 ta maktab uchun qo'shimcha o'quv binolari qurilib, 135 ta maktab kapital ta'mirlanishi aytili.

Prezidentimiz kelgusi besh yilda oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 50 foizga yetkazilishi, buning uchun Qoraqalpog'istonda mamlakatimiz va xorijiy universitetlarning 6 ta nufuzli oliy o'quv yurtlari filiallari tashkil etilishini ta'kidladi. Shuningdek, kelgusi besh yilda har bir shahar va tumandagi Yoshlar markazlari va umumta'lim maktablarida 100

mingdan ziyod yoshlar chet tillari va IT texnologiyalariga o'qitiladi. Qo'shimcha 6 ming o'rinli yangi yotoqxonalar qurib bitkaziladi.

Yoshlar Prezident tashrifini olishlar bilan qo'llab-quvvatladi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi yakuniga yetdi.

\* \* \*

**22-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ochiq budjet» axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**22-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Xorazm viloyatida bo'ldi.

Dastlab Amudaryoda qurilayotgan ko'prik ko'zdan kechirildi. Ushbu loyihaning qiymati 174 million dollar bo'lib, uning evaziga 80 kilometrlik temiryo'l va Amudaryo ustida 413 metr uzunlikdagi ko'prik barpo etiladi.

Shundan so'ng Prezidentimiz Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi majmuasining qurilish jaryonini ko'zdan kechirdi.

Majmua shaharning Al-Xorazmiy va Islom Karimov ko'chalari kesishmasidagi qariyb 8 gektar maydonda barpo etilmoqda. Bronza-

dan Jaloliddin Manguberding ot ustida qilich tutib turgan haykali yasalgan. Uning asosi bilan birga jami balandligi qariyb 25 metr bo'lib, uzoqdan ham ko'rinib turadi.

Davlatimiz rahbari majmua mazmunini boyitish, sharoitlarini yaxshilash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz Al-Xorazmiy ko'chasi bo'ylab qurilgan yerosti yo'lini ham ko'zdan kechirdi.

Kengligi 17 metr, balandligi 5 metr bo'lgan ushbu tunnel soatiga 3,5 ming avtomobilni o'tkazish quvvatiga ega bo'ladi. Ta'kidlash joizki, yerosti avtomobil yo'li qurilishi viloyatlari ichida ilk bor Xorazmda amalga oshirilmoqda.

Qurilish ishlari bitgach, hudud obodonlashtirilib, manzarali daraxtlar ekiladi, favvoralar barpo etiladi. Piyodalar va velosiped yo'laklari, turizm xizmatlari tashkil etiladi.

Majmuani ekspluatatsiya qilishni to'g'ri yo'lga qo'yish, bu yerda bayram tadbirlari, festivallar o'tkazish uchun ham sharoit yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Prezident korteji Xiva tumani «Shomoxulum» mahallasida to'xtadi. Davlatimiz rahbari bu yerda yashovchi Komil Rahimov xonadoniga kirib, aholining yashash sharoitlari bilan qiziqdi.

Shavkat Mirziyoyev Xiva shahrida Xorazm viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashdi.

Prezidentimiz Xiva gilam kombinati faoliyati bilan tanishdi.

Korxonaga Germaniya, Belgiya, Avstriya, Shveysariya, Italiya, Fran-

siya va Turkiyadan energiya te-  
jovchi uskunalar keltirib o'rna-  
tilgan. Bu yerda polipropilen ip,  
gilam va boshqa mahsulotlar ish-  
lab chiqarilmoqda. Ular AQSH,  
Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qir-  
g'iziston, Turkmaniston va Tojikis-  
tonga eksport qilinmoqda.

Davlatimiz rahbari korxonadagi  
ishlab chiqarish jarayonini va shou-  
rumni ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz mahsulot turlarini  
ko'paytirish, boshqa tumanlarda  
ham shunday korxonalar tashkil  
etish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Shu bilan Shavkat Mirziyoyev-  
ning Xorazm viloyatiga safari ya-  
kuniga yetdi.

\* \* \*

**24-sentabr.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev «Velosportni rivojlan-  
tirishga doir kompleks chora-tad-  
birlar to'g'risida»gi qarorga imzo  
chekdi.

\* \* \*

**24-sentabr.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev hududlardagi ijtimoiy-  
iqtisodiy islohotlarning borishi, yi-  
rik loyihalar bilan tanishish, xalq  
bilan muloqot qilish maqsadida  
Samarqand viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab  
Hazrati Xizr majmuasiga tashrif bu-  
yurib, Islom Karimov maqbarasini  
ziyosat qildi.

Birinchi Prezidentimiz qabriga  
gul qo'yilib, Qur'on tilovat qilin-  
di. Shundan so'ng Shavkat Mirzi-  
yoyev Samarqand yoshlar markazida  
viloyat saylovchilari vakillari bilan  
uchrashdi.

Uchrashuv yakunlangach, Prezi-  
dentimiz Payariq tumanidagi Imom  
Buxoriy majmuasida amalga oshi-  
rilayotgan qurilish jarayonlari  
bilan tanishdi. Prezidentimiz quri-  
lish ishlarini o'z vaqtida va sifatli  
amalga oshirish, bu yerda mahal-  
liy va xorijlik ziyoratchilar uchun  
har tomonlama qulay sharoit yara-  
tish yuzasidan mutasaddilarga top-  
shiriqlar berdi.

Shavkat Mirziyoyev Samarqand  
shahridagi «Sharq tongi» mahallasida  
bo'ldi. U yerda qariyb 3 ming aholi  
istiqomat qiladi. Oilalar, asosan,  
tadbirkorlik va hunarmandchilik bi-  
lan shug'ullanadi.

Davlatimiz rahbari shu mahallada  
yashovchi Abdunabi Abdunasimov  
xonadoniga kirib, ularning yashash  
sharoitlari bilan qiziqdi.

Davlatimiz rahbari ushbu xona-  
dondan chiqqanida nuroniylar, ma-  
halla faollari bilan samimiy suhbat  
bo'ldi.

Shu bilan Prezident Shavkat  
Mirziyoyevning Samarqand viloya-  
tiga tashrifi yakuniga yetdi.

\* \* \*

**27-sentabr.** Prezident Shavkat  
Mirziyoyev hududlardagi bunyod-  
korlik ishlari, mahallalar hayoti  
bilan tanishish, xalq bilan muloqot  
qilish maqsadida Namangan vilo-  
yatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Na-  
mangan shahri Davlatobod tuma-  
nidagi «Yuksalish» sanoat shahar-  
chasida bo'lib, «Glass expo» mas'-  
uliyati cheklangan jamiyati faoliyati  
bilan tanishdi.

Prezidentimiz korxonadagi ish jarayoni, mahsulotlar namunalari ko'rdi.

Shu yerda tadbirkorlar bilan mu-loqot bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev hududda amalga oshirilgan bunyodkorlik ish-larini ko'zdan kechirdi.

Oxirgi uch-to'rt yilda mahalla ulkan bunyodkorlik maydoniga ay-langan. Bu yerda 71 ta ko'p qavatli uy foydalanishga topshirilgan. Tad-birkorlarga zamonaviy sharoitlar yaratish, aholini ish bilan ta'minlash maqsadida mazkur hududda «Yuk-salish», «Yoshlar» va «Kushon» ki-chik sanoat zonalarini tashkil etilgan. «Yoshlar» kichik sanoat zonasida umumiy qiymati 804 milliard so'mlik 60 ta loyiha, «Kushon» hududida 1,6 trillion so'mlik 129 ta loyiha joylashtirilgan.

Shavkat Mirziyoyev «Yuksalish» shaharchasida namanganlik saylov-chilar bilan uchrashdi.

Yurtboshimiz shu kuni «Yan-gi Namangan» shaharchasi loyihasi bilan tanishdi.

Mazkur loyiha uchun Davlatobod tumanining «Yuksalish» hamda To'raqo'rg'on tumanining «Yetti-kon» mahallalari hududidan 1 ming 371 gektar yer ajratilgan. U yerda 410 ta ko'p qavatli uy, 7 ta maktab, 4 ta bolalar bog'chasi, shuningdek, ko'plab infratuzilma inshootlari barpo etilishi rejalashtirilgan. Loyi-haning ikkinchi bosqichi 2022–2024-yillarga mo'ljallangan.

Davlatimiz rahbariga mazkur bosh reja haqida ma'lumot berildi. Unga ko'ra, ikkinchi bosqichda 30 ming xonadondan iborat 16 va 24 qavatli

uyalar, maktab va bog'chalar, shifo-xona, sport majmualari, masjid, kutubxona, IT-park, mehmonxona, biznes markazi, savdo va ser-vis obyektlari qad rostlaydi. Shu-ningdek, 95 gektar yerda «Yangi O'zbekiston bog'i» barpo qilinadi.

Shavkat Mirziyoyev mazkur bog' loyihasi taqdimoti bilan ham ta-nishdi.

2022-yilda qurib bitkaziladigan majmuada Namangan ramzi bo'lgan gullar bog'i, sun'iy ko'l, favvoralar, 1 ming 500 o'rinli amfiteatr, avtoturargoh, savdo shoxobchalari tashkil etiladi.

Loyihaning 2024–2026-yillarga mo'ljallangan uchinchi bosqichi ham bor. Mazkur «aqlli» shaharcha to'liq qurib bitkazilganda aholiga shu yer-ning o'zida yashashi, ishlashi va dam olishi uchun barcha qulayliklar yaratiladi. Natijada 2026-yilga bo-rib Namangan bir million aholi istiqomat qiladigan yirik shaharga aylanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev avval Namangan shahridagi «Saxo-vat» uyini borib ko'rib, nuroniylar uchun yangi bino qurilishiga va'da bergan edi. Shundan so'ng bu yer-da ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. 120 o'rinli yangi «Saxovat» uyi binosi, 4 ta kottej qurildi. Ziyoratlarga borish uchun «Saxovat» uyiga Prezident sov-g'asi – «Isuzu» avtobusi ham berilgan.

Davlatimiz rahbari nuroniylar bilan dildan suhbatlashdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Na-mangan viloyatiga tashrifini yakun-lab, Farg'onaga jo'nab ketdi.



\* \* \*

**28-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlardagi bunyodkorlik ishlari, mahallalar hayoti bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Farg'ona viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab Bag'dod tumaniga kelib, bu yerdagi bunyodkorlik ishlarini ko'zdan kechirdi. Shu yerda mahalla faollari, bag'dodlik nuroniylar bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari mahalladagi yangi uylardan biriga ko'chib kelgan Abduqahhor ota va Oyzoda aya xonadonida bo'lib, ko'pni ko'rgan bu insonlar bilan yoshlar tarbiyasi, tinchlik va shukronalikning ahamiyati haqida samimiy suhbat bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev Bag'dod tumanida Farg'ona viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbari Bag'dod tumani «Guliston» mahallasida bunyod etilgan Madaniyat markazida san'at namoyandalari vakillari bilan suhbatlashdi.

Qo'qon teatrida adabiy muhitni yaxshilash, poytaxtdan iste'dodli rejissorlarni jalb qilib, asarlar saviyasini oshirish muhimligi ta'kidlandi.

Prezident shu mahalladagi is-siqxonani ham borib ko'rdi. Bu yerda «Yoshlar daftari»ga kirgan 500 nafar yigit-qiz ish bilan ta'minlangan.

Davlatimiz rahbari ularning dehqonchiligi, daromadi va rejalari bilan qiziqdi. Yoshlar issiqxonada asosan limonchilik bilan shug'ullanayotgani,

qator oralariga bodring, pomidor, qalampir, sabzavotlar ekib, daromad olayotgani, buning samarasida oilasi «Yoshlar daftari»dan chiqqani haqida so'zlab berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qo'shtepa tumaniga borib, g'o'zani tomchilatib sug'orish texnologiyasini ko'zdan kechirdi.

Shu yerning o'zida davlatimiz rahbari ommaviy axborot vositalari vakillari bilan muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Qo'shtepa tumanidagi «Namuna» mahallasida bo'lib, aholi hayoti bilan tanishdi. Bu yerda istiqomat qilayotgan oilalarning asosiy daromadi uzumchilikdan. Shuningdek, mebelsozlik, do'p-pido'zlik, chevarlik, chorvachilik, asalarichilik va quyon boqish bilan ham shug'ullanishadi.

Shavkat Mirziyoyev shu yerlik usta dehqon Jumaboy Ismoilov xonadonida bo'ldi.

Prezident kelgusida mahalla tizimiga yanada keng imkoniyatlar berilishi, bu joylardagi muammolarni manzilli hal etish va aholini ijtimoiy himoya qilishda muhim omil bo'lishini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari Farg'ona viloyatiga tashrifini yakunlab, Andijonga jo'nab ketdi.

\* \* \*

**29-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami munosabati bilan O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**29-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlardagi bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Andijon viloyatida bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev dastlab Andijon tumanida viloyat saylovchilari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Shundan so'ng Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasini borib ko'rdi. Klinikani to'liq rekonstruksiya qilib, uning negizida vodiy aholisi uchun kardiologiya, neyroxirurgiya, ko'z kasalliklari va urologiya bo'yicha murakkab operatsiyalar o'tkazadigan tibbiyot markazi tashkil etishga ko'rsatma berdi.

Prezident shifokorlar bilan suhbatlashdi.

Shu yerda Andijon viloyatida sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar haqida ma'lumot berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon shahridagi «Yangi avlod» xususiy maktabi faoliyati bilan tanishdi.

Mazkur umumta'lim maktabi «bog'cha – maktab – universitet» bo'g'inidan iborat ta'lim klasterining ilk bosqichidir. Maktab chet tillariga ixtisoslashtirilgan bo'lib, ingliz, xitoy, arab tillari chuqurlashtirilgan tarzda o'qitiladi.

Prezident maktab o'quvchilari bilan suhbatda ularning intilishlarini qo'llab-quvvatladi.

Shu yerda maktabgacha ta'lim muassasasi va universitet barpo etish loyihasi taqdimot qilindi. Unga ko'ra, maktab yonida 150 o'rinli bog'cha, 500 o'rinli axborot texnologiyalari universiteti qurilishi rejalashtirilgan. Shu tariqa bog'cha, maktab va universitet ta'lim klasteriga aylanadi.

Davlatimiz rahbari xususiy ta'lim istiqbollari bilan qiziqdi. Bunday maktablarga xorijdan o'quv dasturlari va uskunalar olib kelishda bojxona imtiyozlari berish yuzasidan mutasaddilarga topshiriq berdi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Andijon viloyatiga tashrifi yakuniga yetdi.

\* \* \*

**30-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida o'tgan xalqaro iqtisodiy forum doirasidagi tadbirlarda ishtirok etish uchun mamlakatimizda bo'lgan Jahon banki, «Rothschild&Co» kompaniyasi va VTB banki delegatsiyalarini qabul qildi.

Jahon banki vitse-prezidenti Anna Byerde bilan uchrashuvda O'zbekiston va ushbu yetakchi xalqaro moliya instituti o'rtasidagi strategik sheriklikning ustuvor loyihalarini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Jahon bankining 4,8 milliard dollarlik moliyaviy resurslarini jalb etgan holda amalga oshirilayotgan 26 ta loyiha hamkorlik portfelini tashkil etadi. Kambag'allikka qarshi

kurashishning metodologik asoslarini tayyorlash, xususiyl sektorning investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash, davlat korxonalari islohotini davom ettirish va O'zbekistonda quyosh energetikasini rivojlantirish bo'yicha birgalikdagi ishlarning natijalari ko'rib chiqildi.

Suhbat chog'ida hamkorlikning yangi besh yillik dasturini tayyorlash va qabul qilish yuzasidan kelishuvga erishildi. Bu borada kambag'allikni qisqartirish, ta'lim va ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlash, raqamlashtirish va «yashil» iqtisodiyotga o'tish, davlat korxonalari transformatsiyasini davom ettirish, hududlarda industriallashtirishni tezlashtirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish, qishloq xo'jaligini, shu jumladan, innovatsiyalar va tomchilatib sug'orish texnologiyasini keng joriy qilish orqali jadal rivojlantirish kabi strategik yo'nalishlar ustuvor masalalar sifatida belgilab olindi.

Jahon banki vakillarining mintaqada tadbirkor-ayollar muloqoti bo'yicha yangi ko'p tomonlama platformani shakllantirish borasidagi tashabbusi qo'llab-quvvatlandi. Bo'lajak tadbir va muloqotlar rejasi ko'rib chiqildi, qo'shma loyihalarni jadallashtirishning birinchi galdagi choralari kelishib olindi.

«Rothschild&Co» kompaniyasi kuzatuv kengashi raisining o'rinbosari baron Erik de Rotshild boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda ushbu nufuzli xalqaro konsalting va investitsiya kompaniyasi bilan mamlakatimizdagi yangi iqtisodiy islohotlar dasturi

doirasidagi ustuvor loyihalarni ilgari surishda o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. «Coca-Cola Uzbekistan» korxonasidagi davlat ulushini xorijiy investorga sotish bo'yicha kelishuvni amalga oshirish jarayonida muvaffaqiyatli hamkorlik qilingani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, davlat korxonalarini xususiylashtirish, bank sektorini isloh qilish, vinochilikni rivojlantirish masalalarida yuqori malakali konsultatsiya xizmatlarini jalb qilish hamda gumanitar almashinuv dasturlarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar alohida qayd etildi.

«VTB» banki prezidenti – boshqaruvi raisi Andrey Kostin bilan uchrashuvda mamlakatimiz korxonalarining Rossiyadagi eng yirik bank institutlaridan biri bilan o'zaro manfaatli investitsiyaviy va moliyaviy hamkorligini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Forum doirasida Navoiy konmetallurgiya kombinatining loyihalari uchun 1 milliard dollarlik kredit liniyasini ajratish to'g'risida birinchi bitim imzolanganini mamnuniyat bilan qayd etildi. Bundan tashqari, industriallashtirish va infratuzilmani modernizatsiya qilish loyihalarini amalga oshirish va moliyalashtirishni kengaytirishdagi mavjud imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi.

\* \* \*

**30-sentabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Umumiy harbiy majbu-

riyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Davlat kotibining birinchi o'rinbosari Uendi Sherman boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Uchrashuvda O'zbekiston – AQSh strategik sherikligini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Uendi Sherman davlatimiz rahbariga AQSh Prezidenti Jozef Bayden, vitse-prezidenti Kamala Xarris va Davlat kotibi Entoni Blinkening samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Amerika tomoni mamlakatimizning suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini, shuningdek, yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanishlar va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar dasturini qat'iy qo'llab-quvvatlashi alohida ta'kidlandi.

Tomonlar keyingi yillarda O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik jadal sur'atda rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdilar. Ikki mamlakat o'rtasidagi Strategik sheriklik muloqotining joriy yil oxirigacha Vashington shahrida bo'lib o'tadigan birinchi yig'ilishining kun tartibini puxta tayyorlash muhim ekani ta'kidlandi.

Siyosat va xavfsizlik, savdo, investitsiya va innovatsiyalar, qish-

loq xo'jaligi, energetika, ta'lim, sog'liqni saqlash, gumanitar almashinuvlar kabi ustuvor yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdorlik bildirildi. Mintaqaviy, shu jumladan, «AQSh – Markaziy Osiyo» muloqoti hamda Savdo va investitsiyalar bo'yicha hadli bitim kengashi doirasidagi hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Afg'onistonda vujudga kelgan vaziyat yuzasidan batafsil fikr almashildi. O'zbekistonning afg'on xalqiga ko'maklashish hamda qo'shni mamlakatda uzoq muddatli tinchlik o'rnatilishi va uning iqtisodiy tiklanishiga xizmat qiladigan loyihalarni ilgari surish borasidagi sa'y-harakatlari yuksak baholandi.

\* \* \*

**4-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**4-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Xirurgiya xizmatini

transformatsiya qilish, hududlarda jarrohlik amaliyotlari sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**4-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**5-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlatimiz rahbari Tojikiston Prezidentini tavallud kuni bilan samimiy qutlab, unga mustahkam sog'lik, farovonlik va yangi muvaffaqiyatlar, birodar Tojikiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi. Zamonaviy Tojikistonning davlat qurilishi sohasida va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi yutuqlari, mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzi izchil ortib borayotgani alohida ta'kidlandi.

Prezidentlar O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlari mustahkamlanib borayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

Siyosiy iroda va birgalikdagi sa'y-harakatlar tufayli mamlakatlarimiz o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarildi va aniq mazmun bilan bo'yidi.

Faol aloqalar va almashinuvlar davom etmoqda, o'zaro savdo hajmi barqaror ortib bormoqda, mashinasozlik, energetika, elektrotexnika, tog'-kon, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda muhim kooperatsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Hududlar darajasida va ishbilarmonlar o'rtasida sheriklik kengaymoqda.

Davlat rahbarlari imzolangan bitimlar va erishilgan kelishuvlarni keng ko'lamda amalga oshirish muhim ekanini ta'kidlab, qo'shma hukumatlararo komissiya faoliyati doirasida yaqindan hamkorlik va muvofiqlashuvni davom ettirish vazifasini qo'ydilar.

Suhbat chog'ida xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar, shu jumladan, qo'shni Afg'onistonda vujudga kelayotgan vaziyat yuzasidan fikr almashdilar.

\* \* \*

**4-5-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi.

Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Prezident Shavkat Mirziyoyev kutib oldi.

Gurbanguli Berdimuhamedov davlatimiz rahbari hamrohligida Mustaqillik maydoniga tashrif buyurib, Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gul qo'ydi.

5-oktabr kuni Ko'ksaroy qarorgohida Turkmaniston Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi.

Marosimdan so'ng Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhamedov tor doirada uchrashuv o'tkazdilar.

Turkmaniston Prezidenti mehmondo'stlik uchun minnatdorlik bildirib, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar yuksak darajaga yetganini qayd etdi.

Uchrashuvda davlat rahbarlari ko'p asrlik do'stlik, yaxshi qo'sh-nichilik, strategik sheriklik, o'zaro ishonch va qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan ikki tomonlama munosabatlarning bugungi darajasini yuksak baholadilar. Yetakchilar O'zbekiston – Turkmaniston ko'p qirrali hamkorligida mavjud masalalarning butun doirasini muhokama qilib, konstruktiv siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklikni kengaytirish, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdilar.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedovning muzokaralari ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokidagi kengaytirilgan tarkibda davom etdi.

Uchrashuvda birgalikdagi sa'y-harakatlar tufayli birodar mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar sifat jihatidan yangi, strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgani alohida ta'kidlandi.

Davlat rahbarlari keyingi yillardagi o'zaro savdo sur'atini mamnuniyat bilan qayd etib, tovar ayirboshlash hajmini yanada ko'paytirish uchun mavjud barcha resurs

va imkoniyatlarni ishga solishga kelishib oldilar.

O'zbekiston Prezidenti tegishli «yo'l xaritasi»ni tayyorlashni taklif qildi.

Tomonlar transport sohasida va tranzit yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni faollashtirishga kelishib oldilar. Ashxobod bitimini birgalikda ilgari surish hamda Turkmanboshi dengiz portining noyob imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish muhim ekani ta'kidlandi.

Ikki mamlakat hududlaridagi imkoniyatlarni yanada to'liq ishga solish muhim ekani qayd etildi. Hamkorlikning yangi mexanizmi – Hududlararo forum o'tkazishni yo'lga qo'yish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash va o'zaro anglashuvni kuchaytirishning muhim omili bo'lgan madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik masalalari ham muhokama qilindi.

Madaniyat va kino kunlari, teatrlar va musiqiy jamoalarning ijodiy safarlari, olimlarning uchrashuvlarini va shu kabi boshqa tadbirlarni tashkil etish xalqlarimiz yanada yaqin bo'lishiga xizmat qiladi. Shu ma'noda, Toshkent xalqaro kinofestivalini «Ipak yo'li durdonasi» nomi bilan qayta tiklash tashabbusi Turkmaniston tomonidan qo'llab-quvvatlangani ta'kidlandi.

Muzokaralarda Afg'onistonda tinchlik va barqarorlik butun Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror taraqqiyot garovi ekani ta'kidlandi.

Prezidentlar xalqaro maydonda, shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy til-li davlatlar hamkorlik kengashi va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida yaqin muloqotni davom ettirish va tashabbuslarni birgalikda ilgari surishga kelishib oldilar.

Muzokaralar yakunlangach, huj-jatlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi. Transport, tranzit tashishlar, suvni tejoychi texnologiyalar, ad-liya, ijtimoiy himoya, statistika, o'simliklar karantini va himoya-si, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlikni yanada kengaytirishga doir muhim hujjatlar imzolandi. Umuman, tashrif doirasida ko'p qirrali O'zbekiston – Turkmanis-ton hamkorligining deyarli barcha yo'nalishlarini qamrab oluvchi jami 23 ta hujjat imzolandi.

Ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda Prezident Shavkat Mirziyoyev muzokaralar samarali va sermazmun bo'lganini, davlat rahbarlari ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishning bar-cha yo'nalishlarini muhokama qil-ganlarini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston – Turkmaniston munosabatlari, ay-niqsa, savdo-iqtisodiy sohada ijobiy sur'at bilan rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Prezident Gurbanguli Berdi-muhamedov muzokaralar natijalari-dan mamnun ekanini bildirdi, ikki

tomonlama hamkorlik masalalari-ning keng doirasi yuzasidan ishonchli va konstruktiv fikr almashilganini ta'kidladi.

Gurbanguli Berdimuhamedov Shavkat Mirziyoyevga Turkmaniston delegatsiyasiga ko'rsatilgan sami-miy mehmondo'stlik va do'stona qabul uchun minnatdorlik bildirdi.

Turkmaniston Prezidenti Gurban-guli Berdimuhamedov davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham-rohligida Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasiga borib, Birinchi Prezidentimiz hay-kaliga gul qo'ydi. Bu marhum yo'l-boshchimiz xotirasiga hurmat, xalq-larimiz o'rtasidagi mehr-oqibat ifo-dasi bo'ldi.

Shuning bilan Turkmaniston Prezidentining mamlakatimizga ras-miy tashrifi yakunlandi.

Toshkent xalqaro aeroportida Gurbanguli Berdimuhamedovni Pre-zidentimiz Shavkat Mirziyoyev kuzatib qo'ydi.

\* \* \*

**6-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtat-lari Kongressi Vakillar palatasining kongressmenlar Don Beykon, Dug Lamborn, Troy Nels va Avgust Pflyugerdan iborat delegatsiyasini qabul qildi.

Uchrashuvda ikki mamlakat o'rta-sidagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chi-qildi.

Davlatimiz rahbari parlamentlar darajasidagi faol aloqalar va sama-rali almashinuvlarni, ular O'zbe-

kiston – AQSh strategik sheriklik munosabatlarini jadal rivojlantirishga katta hissa qo‘shayotganini yuksak baholadi.

Kongressmenlar Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanishlar strategiyasi mamlakat barqaror taraqqiyotining muhim omili ekani hamda uning xalqaro maydondagi obro‘si sezilarli darajada yuksalishiga xizmat qilganini alohida ta’kidladilar.

Shuningdek, Afg‘onistondagi insonparvarlik operatsiyalari qo‘llab-quvvatlangani uchun samimiy minnatdorlik bildirildi.

Suhbat chog‘ida parlamentlararo yo‘nalish bilan bir qatorda AQSh delegatsiyasi a‘zolari vakillik qilayotgan yetakchi shtatlar – Nebraska, Kolorado va Texas bilan hamkorlik bo‘yicha loyiha va dasturlar muhokama qilindi. Innovatsiyalar va sanoat texnologiyalari, IT sohasi, qishloq xo‘jaligi, «yashil» energetika, sog‘liqni saqlash va ta’limda kooperatsiyani yo‘lga qo‘yish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuv yakunida qo‘shma «Yo‘l xaritasi»ni tayyorlash va ish-bilarmonlik missiyalarining o‘zaro tashriflarini tashkil etish yuzasidan kelishuvga erishildi.

\* \* \*

**6-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Geologiya-qidiruv ishlarini yanada rag‘batlantirish va yer qa‘ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**7-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Rossiya yetakchisini tavallud kuni bilan samimiy muborakbod etib, unga mustahkam sog‘lik, farovonlik va katta muvaffaqiyatlar, do‘st Rossiya xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va bardavom ravnaq tiladi.

Prezident Vladimir Putinning zamonaviy Rossiyani barpo etishdagi tarixiy roli hamda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shayotgan shaxsiy hissasi qayd etildi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Hamkorlik barcha yo‘nalishlarda jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo hajmi va sanoat kooperatsiyasi ko‘lami muttasil oshib bormoqda, jumladan, O‘zbekiston va Rossiyaning yetakchi korxonalar va banklari ishtirokida yangi loyihalar amalga oshirilmoqda. «Sputnik V» vakinasini birgalikda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Prezidentlar bo‘lajak ko‘p tomonlama tadbirlar rejasini ko‘rib chiqdilar. Xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan, shu jumladan, Afg‘onistondagi vaziyatning rivoj-



lanishi nuqtayi nazaridan fikr almashildi.

\* \* \*

**7-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlardagi bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Sirdaryo viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari dastlab poli-propilen mahsulotlari ishlab chiqaruvchi «Sirdaryo mega lyuks» mas'uliyati cheklangan jamiyat faoliyati bilan tanishdi.

Yettita korpusdan iborat ulkan korxonada izchil rivojlanib bormoqda. Korxonada 2 mingdan ortiq kishi ish bilan ta'minlangan. Rossiya, Isroil, Belarus, Ukraina, Qozog'iston kabi 14 ta mamlakatga eksport yo'lga qo'yilgan.

Prezidentga istiqboldagi loyihalar haqida ham ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari loyihalarning iqtisodiy samaradorligi bilan birga ijtimoiy jihatiga ham alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi.

Zarur mablag' yo'naltirib, ishlab chiqarish hajmini ikki barobar oshirish, kelgusida ishchilar uchun uy-joylar barpo etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Sirdaryo tumani «Shirin» mahallasida yashovchi Doniyor Yo'ldoshev xonadonida bo'lib, oilaning turmush sharoitlari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari bu sa'y-harakatlarni ma'qullab, mana shunday obod xonadonlar ko'payishi kerakligini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev Sirdaryo tumanida viloyat saylovchilari vakillari bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbari Guliston shahriining «Yangi hayot» mahallasida bo'ldi.

Bu yerda 2019–2020-yillarda 14 ta ko'p qavatli uy qurilgan. Bugungi kunda yana 7 ta 9 qavatli uy qurilishi boshlangan. Ulardagi 504 ta xonadondan 100 tasi kam ta'minlangan oilalarga imtiyozli ravishda beriladi. Yoshlar mehnat guzari, stadion, bolalar maydonchalari quriladi.

Prezidentimiz yangi mavzeda xizmatlarni ko'paytirish, tadbirkorlik subyektlari tashkil etib, bu yerda yashovchilarni ish bilan ta'minlash muhimligini ta'kidladi.

Shu yerda mahalla nuroniylari bilan samimiy muloqot bo'ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Guliston shahrida qurilayotgan Tadbirkorlar va hunarmandlar markazini borib ko'rdi.

Bu yerda tadbirkorlikka qiziqqan insonlarga huquqiy maslahatlar berib, biznesini boshlashiga ko'maklashish, yoshlarga hunar o'rgatish yo'lga qo'yiladi, mahsulotlar ko'rgazmalari o'tkaziladi.

Davlatimiz rahbari shu yerda ommaviy axborot vositalari vakillari bilan muloqot qildi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Sirdaryo viloyatiga tashrifi yakunlandi.

\* \* \*

**8-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylardagi bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan

tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Surxondaryo viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari o'z safarini buyuk alloma Hakim at-Termiziy maqbarasini ziyorat qilishdan boshladi.

Shavkat Mirziyoyev Termiz shahrida surxondaryolik saylovchilar bilan uchrashuv o'tkazdi. Shundan so'ng Prezidentimiz Termiz shahridagi 9-ixtisoslashtirilgan maktab-internatini borib ko'rdi.

Prezident ushbu muassasa o'rnida 1 ming 500 o'rinli zamonaviy maktab barpo etish maqsadga muvofiqligini ta'kidladi.

Davlat rahbari ushbu maktab o'qituvchilari bilan suhbatlashdi.

Shu yerda Surxondaryo viloyatida umumta'lim tizimini rivojlantirish choralari muhokama qilindi. Surxondaryo viloyatida 96 ming qo'shimcha o'quvchi o'rni yaratish rejalashtirilgan. Buning uchun 21 ta yangi maktab va 358 ta maktablarda yangi binolar quriladi, 116 ta maktab mukammal ta'mirlanadi. Axborot texnologiyalari, matematika, kimyobiologiya fanlariga ixtisoslashgan 19 ta maktab tashkil etiladi.

Prezident Termiz shahridagi «Guliston» mahallasida bo'ldi.

So'nggi yillarda bu yerda yangi uylar, savdo va maishiy xizmat shoxobchalari, bolalar o'yingohlari barpo qilindi. Hovlilarda yashovchilar yerdan unumli foydalanib, dehqonchilik, chorvachilik, parrandachilik bilan shug'ullanadi.

Davlatimiz rahbari shu yerlik Saydulla Mirzayev xonadoniga ki-

rib, oilaning yashash sharoitlari bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari Termiz shahrinin «Manguzar» mahallasida qurilgan zamonaviy ko'p qavatli uylarni ham ko'zdan kechirdi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning Surxondaryo viloyatiga tashrifi nihoyasiga yetdi.

\* \* \*

**11-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylardagi bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Qashqadaryo viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari safarini Qarshi tumanidagi Abu Muin Nasafiy maqbarasini ziyorat qilishdan boshladi. Qur'on tilovat etildi, Yaratgandan yurtimizga tinchlik, farovonlik tilab duo qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan alloma maqbarasi obod va ulkan ziyoratgohga aylantirildi. Davlatimiz rahbari ushbu bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi, yangi masjid va muzeyni kirib ko'rdi.

Shavkat Mirziyoyev alloma asarlari bugungi kunda ham dolzarbligini, ularning mag'zini xalqimizga, yoshlarga yetkazish kerakligini ta'kidladi. Shu maqsadda Qarshi davlat universiteti qoshida Abu Muin Nasafiy nomida ilmiy markaz tashkil etish taklifini bildirdi.

Shavkat Mirziyoyev Qarshi shahridagi Prezident maktabida qashqadaryolik saylovchilar vakillari bilan uchrashdi.

Mamlakatimizda ixtisoslashtirilgan ta'limning yangi tizimi – Prezident maktablari tashkil etildi. Joriy yilda Qarshi shahrida ham shunday maktab foydalanishga topshirildi.

Davlatimiz rahbari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi chog'ida ushbu muassasani ko'zdan kechirdi.

168 o'rinli maktab binosi va yotoqxonalar Prezident maktablari standartida asosida qurilgan. Fan xonalari, laboratoriyalar, sport zallarida eng zamonaviy sharoitlar yaratilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'quvchilar bilan suhbatlashdi.

Prezident maktabi bilan viloyatdagi boshqa maktablar o'rtasida tajriba almashinuvni yo'lga qo'yish, shu asosida aniq fanlarni o'qitish metodologiyasini yangilash zarurligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari Qashqadaryo viloyati Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari shu yerda jurnalistlarning savollariga javob berdi.

Shu bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev Qashqadaryo viloyatiga tashrifini yakunlab, Buxoroga jo'nab ketdi.

\* \* \*

**12-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlardagi bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Buxoro viloyatida bo'ldi.

Davlatimiz rahbari viloyatga safarini Bahouddin Naqshband maqbarasini ziyorat qilishdan boshladi. Qur'on tilovat etilib, Alloh taolodan

xalqimizga tinchlik-farovonlik tilab duo qilindi. Ulamolar bilan suhbatda ilmning ahamiyati, yoshlar tarbiyasi haqida so'z bordi.

Davlatimiz rahbari ziyoratgohlarni va ularga olib boradigan yo'l-larni obod qilish, ichki turizmni rivojlantirish muhimligini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev Olot tumanidagi «Merganteks» mas'uliyati cheklangan jamiyatini borib ko'rdi.

Korxonalar paxta xomashyosiga bir-lamchi ishlov berishdan tortib tayyor kiyim-kechak tikishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni qamrab olgan ulkan klasterga aylandi.

Davlatimiz rahbariga paxta yetishtirishda qo'llanilayotgan innovatsion usullar haqida ma'lumot berildi. Klaster tomonidan 1 ming 200 gektar maydonda tomchilatib sug'orish joriy etilgan. Natijada suv sarfi kamayib, yerning unumdorligi oshgan. Ayrim fermer xo'jaliklari paxtadan 70 sentnergacha hosil olgan. Bir tup g'ozada 190 tagacha ko'sak bo'lgan.

Prezident bunday samarali ishlarni davom ettirish, fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, jumladan, xorij tajribasi asosida mahalliy tomchilatib sug'orish texnologiyasi ishlab chiqarish zarurligini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev Qorako'l tumanida viloyat saylovchilari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Shundan so'ng Qorako'l tumanidagi Xalqaro matematika maktabi faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari maktab jamoasi bilan suhbatlashdi.

Shu yerda xalqaro matematika maktabining tajribasini ommalash-tirish, IT mutaxassislar tayyorlashga doir loyihalar taqdimot qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Qorako'l tumanidagi «Xo'jalar» mahallasida aholining yashash tarzi bilan tanishdi.

Mahalla Qorako'l tumani marka-zida joylashgan bo'lib, 2 ming 800 nafardan ziyod aholi yashaydi. Bu yerda ko'plab savdo shoxobchalari, to'qimachilik korxonalari bor.

Davlatimiz rahbari shu mahalla-da yashovchi Sohib Xo'jamberdiyev xonadonida mehmon bo'ldi. Xonadon sohiblari bilan mamlakatimizdagi tinchlik, bugungi imkoniyatlar, is-lohotlar natijasi haqida samimiy suhbat bo'ldi.

Romitan tumanidagi «Bukhara Desert Oasis» nomli turizm mas-kanida «Zakovat» intellektual o'yi-nining final bosqichi bo'lib o'tdi.

Bu yerga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tash-rif buyurib, bahsni kuzatdi.

Tadbir so'ngida Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Prezident ushbu musobaqa Buxo-roda o'tayotganiga alohida urg'u berdi. Bu zamindan Imom Buxoriy, Ibn Sino, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Muhammad Narshaxiy, Abdurauf Fitrat kabi ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqanini qayd etib, bugungi yosh-lar ularga munosib voris bo'lishiga ishonch bildirdi.

Davlatimiz rahbari Buxoroga tash-rifini yakunlab, Navoiy viloyatiga jo'nab ketdi.

\* \* \*

**12-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Zakovat» intellektual o'yini faol ishtirokchilaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**13-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylardagi bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maq-sadida Navoiy viloyatida bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev dastlab navoiylik saylovchilar vakillari bilan uchrashdi.

Shundan so'ng Navoiy shahridagi «Ishga marhamat» monomarkazini borib ko'rdi, markazdagi mashg'u-lotlarni ko'zdan kechirib, yoshlar bilan suhbatlashdi.

Iqtisodiyot tarmoqlarida mala-kali mutaxassislarga talab oshib borayotgani, bu yerda o'qigan yosh-lar kelgusida ishga olinishi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Navoiy shah-ridagi «Farhod» madaniyat saroyida viloyatdagi milliy madaniy markazlar vakillari bilan muloqot qildi.

Ko'p millatli Navoiy viloya-ti – xalqlar do'stligi va o'zaro anglashuvining yorqin ifodasi. O'zbek, qozoq, qoraqalpoq, tojik, rus, koreys va ko'plab boshqa mil-lat vakillari bir oila a'zolaridek yashab, yurtimiz rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Viloyatda 8 ta milliy madaniy markaz faoliyat yuritmoqda. Maktablarda o'qitish 7 tilda yo'lga qo'yilgan.

Uchrashuvda qatnashgan tur-li millat va elat vakillari ularning

o'qib, ishlashi, madaniyatini saqlashi uchun keng sharoit yaratilganini ta'kidlashdi. O'zlari, farzandlari erishayotgan muvaffaqiyatlarni so'zlab berishdi. Madaniy markazlar uchun binolar ajratilgani, 30-iyul mamlakatimizda Xalqlar do'stligi kuni etib belgilangani qayd etildi.

Prezident yurtimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, turli diniy konfessiyalar uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan siyosat izchil davom ettirilishini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari shu bilan Navoiy viloyatiga tashrifini yakunlab, Toshkentga qaytib keldi.

\* \* \*

**14-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining videoanjuman shaklidagi navbatdan tashqari yig'ilishida ishtirok etdi.

Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayev raisligida o'tgan sammitda Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, YOII huzuridagi kuzatuvchi mamlakat – Kuba Respublikasi Prezidenti Migel Bermudes va Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi Hay'ati raisi Mixail Myasnikovich qatnashdi.

Yig'ilish kun tartibidan ko'p tomonlama iqtisodiy sheriklikni yanada mustahkamlash, shuning-

dek, savdo, sanoat kooperatsiyasi, transport-tranzit salohiyatini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligi, raqamlashtirish, «yashil» iqtisodiyot va boshqa ustuvor yo'nalishlar bo'yicha amaliy hamkorlikni ilgari surish masalalari o'rin oldi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida O'zbekistonning tabiiy savdo va iqtisodiy hamkorlari – YOII mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Savdo-iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish borasidagi sa'y-harakatlarni faollashtirish muhim ekanini alohida qayd etib, O'zbekiston yetakchisi o'zaro savdoda mavjud to'siqlarni bartaraf etish, texnik reglament va standartlarni uyg'unlashtirish, boj-xona tartibotlarni raqamlashtirish bo'yicha qo'shma «yo'l xaritasi»ni ishlab chiqish taklifini ilgari surdi.

Prezidentimiz milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishida muhim omil sifatida transport yo'laklari tarmog'i va logistika infratuzilmasini takomillashtirish muhim ekaniga e'tibor qaratdi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalarining alohida dolzarb ahamiyatini hisobga olib, O'zbekiston Prezidenti bu boradagi sa'y-harakatlarni birlashtirish va qo'shma hamkorlik dasturini ishlab chiqish orqali sohadagi hamkorlikning yangi nuqtalarini izlash muhim ekanini ta'kidladi.

Mamlakatimiz YOII doirasidagi raqamli transformatsiya jarayonlarida ishtirok etish, amaliy tajriba almashish va ilg'or texnologiyalar-

ning o‘zaro transferidan manfaatdor ekani qayd etildi.

O‘zbekiston yetakchisi so‘zining yakunida sammit yakunlari YOII mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik va yaqin sheriklikni ilgari surishga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

\* \* \*

**14-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlari-ga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**15-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Davlat rahbarlari kengashining videoanjuman shaklida o‘tgan yubiley majlisida ishtirok etdi.

Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko raisligida o‘tgan sammit ishida Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan, Moldova Respublikasi Bosh vaziri Natalya Gavrilitsa, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jo‘mart Toqayev, MDH Ijroiya qo‘mitasi raisi – Ijrochi kotibi Sergey Lebedev ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq delegatsiyalar rahbarlari tashkilot faoliyatining 30 yillik davrida ko‘p tomonlama hamkorlikning rivojlanishi va erishilgan yutuqlar yuzasidan fikr almashdilar, iqtisodiy, huquqiy va madaniy-gumanitar sohalarda, shuningdek, mintaqadagi xavfsizlik va barqarorlikka tahdid solayotgan zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi kurashishdagi hamkorlikni yanada kengaytirish masalalarini ko‘rib chiqdilar.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida MDH doirasidagi sheriklikni mustahkamlashning muhim yo‘nalishlari yuzasidan nuqtayi nazarini bayon qildi. Hamdo‘stlik mamlakatlarida barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash muhim ekani alohida ta‘kidlandi.

Qo‘shma loyihalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va biznesning uzoq muddatli loyihalarini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Prezidenti sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishni MDH makonining 2022-yilgi iqtisodiy kun tartibining muhim masalasi sifatida belgilashni taklif qildi.

Davlatimiz rahbari samarali mintaqalararo va transqit‘aviy transport yo‘laklari tizimini, shu jumladan, yuk tashish tariflarini pasaytirish va tartibotlarini soddalashtirish orqali yanada rivojlantirish zaruriyatiga alohida e‘tibor qaratdi.

O‘zbekiston qo‘shma innovatsion dasturlarni faol ilgari surish va yosh tadbirkorlarni jalb qilgan holda startup loyihalarni qo‘llab-quvvatlashning ham tarafdoridir. Hamdo‘stlik mamlakatlarining tex-

nologik va IT-parklari o'rtasidagi hamkorlik bo'yicha dastur ishlab chiqish tashabbusi ilgari surildi.

MDH Iqtisodiy kengashi faoliyatiga mamlakatlarning ishbilarmon doiralari va hududlari vakillarini jalb qilish orqali kengash faoliyatini kuchaytirish muhim ekani ta'kidlandi.

Afg'onistondagi vaziyat to'g'risida so'z yuritar ekan, O'zbekiston Prezidenti afg'on xalqiga insonparvarlik va iqtisodiy yordamni davom ettirish maqsadga muvofiq ekanini ta'kidladi. Ayni paytda terrorizm va narkotrafikka qarshi kurashish borasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari so'zining yakunida O'zbekiston MDH mamlakatlari xalqlarining farovonligi yo'lidagi sheriklikda aniq natijalarga erishish maqsadida konstruktiv muloqotni davom ettirish va yaqindan hamkorlik qilishda qat'iy ekanini tasdiqladi.

Sammit yakunida tashkilotning 30 yilligi munosabati bilan bayonot, biologik xavfsizlikni ta'minlash, migratsiya sohalarida hamkorlik to'g'risida bayonotlar, Oliy sudlar vakillarining kengashini tuzish to'g'risida bitim hamda ko'p tomonlama hamkorlikning turli yo'nalishlariga doir boshqa qator muhim hujjatlar qabul qilindi.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev joylardagi bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qi-

lish maqsadida Toshkent viloyatida bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev Toshkent viloyati saylovchilari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Yuqori Chirchiq tumanida ta'lim va ishlab chiqarishni qamrab olgan klaster – «Astrum» IT akademiyasi ochildi. Davlatimiz rahbari bu yerda yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Prezidentimiz klasterda o'qish istagida bo'lgan yoshlar bilan suhbatlashdi.

Mutasaddilarga shu yerda yoshlar uchun kovorking markaz, turar joy barpo etish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Davlatimiz rahbari Chirchiq shahridagi «Iftixor» mahallasida barpo etilgan kottejlar qurilishini ko'zdan kechirdi.

Chirchiq shahrida bugungi kunda 165 ming nafardan ziyod aholi yashaydi. Kelajakda aholi soni oshishini inobatga olib «Iftixor» mahallasi yonida zamonaviy turar joy mavzesi qad rostlamoqda.

Ushbu tajribani kelgusida viloyatning boshqa shaharlarida ham davom ettirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbariga ana shu haqda ham ma'lumot berildi.

Shavkat Mirziyoyev mahalla bo'ylab yurib, bunyodkorlik ishlarini ko'zdan kechirdi.

Mahalladagi 300 o'rinli maktabgacha ta'lim muassasasi, 1 ming 250 o'rinli 7-umumta'lim maktabi ham mukammal ta'mirlangan. Davlatimiz rahbari maktabdagi sharoitlar bilan tanishdi.

Shu yerda mahalla faollari, nuroiniylar bilan suhbat bo'ldi.

Prezidentimiz Chirchiq shahridagi «Kimyogarlal» madaniyat saroyini ham borib ko'rdi.

Prezidentimiz bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi, mashg'ulotlar jarayonini ko'zdan kechirdi.

Madaniyat saroyida 700 o'ringa mo'ljallangan konsert zalida bolajonlar kuy-qo'shiqlar ijro etdi.

Davlatimiz rahbari ularning o'qish va ijodiga muvaffaqiyat tilab, us-tozlariga minnatdorlik bildirdi. Mutasaddilarga madaniyat saroyi faoliyatini kengaytirish, to'garaklar va ijodiy jamoalarni doimiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

\* \* \*

**16-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutini tashkil etish to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**18-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**19-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan tanishdi.

Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Shundan so'ng davlatimiz rahbari poytaxtimizning Talabalar shaharchasida barpo etilgan Innovation o'quv va ishlab chiqarish texnoparkini borib ko'rdi.

Davlatimiz rahbari texnoparkda boshqaruv kompaniyasi tashkil qilib, mahsulotlarni sotishni yo'lga qo'yish muhimligini ta'kidladi.

Texnika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalarini ko'proq jalb etib, amaliy saboqlarini shu yerda o'tish, o'quv dasturlarini ilg'or texnologiyalardan kelib chiqib takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari biotexnologiya laboratoriyasida amalga oshirilgan loyihalar bilan tanishdi. Rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni targ'ib qilish, ularni va yana shunday loyihalarni qo'llab-quvvatlash muhimligi ta'kidlandi.

Prezident talabalar va yosh olimlar bilan suhbatlashdi. Shu yerda ommaviy axborot vositalari vakillari bilan ham muloqot bo'ldi.

Davlatimiz rahbari Toshkent shahri-ning Yakkasaroy va Sergeli tumanlarida qurilgan yangi yo'lni ko'zdan kechirdi.

Sergeli bilan Yakkasaroy tumanini bog'laydigan qo'shimcha yo'l juda kerak edi. Cho'ponota ko'chasidan Toshkent halqa yo'ligacha qariyb 2 kilometrlik trassa qurib bitkazilgan. Uning Kichik halqa yo'li ustidan o'tgan qismida 788 metrlik ko'prik



va Toshkent halqa yo'liga tutashgan joyida ikkita 207 metrlik yo'l o'tkazgich barpo etilgan.

Ushbu yangi yo'l va ko'priklar muhandislik yechimiga ko'ra juda qulay. Birinchidan, mazkur yangi ko'cha Toshkentning eng yirik transport arteriyalari – kichik va katta halqa yo'llari bilan kesishadi. Ikkinchidan, transportlarning yangi ko'prikkacha chiqishi ham, undan tushishi ham qulay. Hech qanday svetofor yoki qayrilib olishsiz, boshqalarga xalaqit bermagan holda keyingi yo'nalishga qo'shilib ketish mumkin.

Ayni paytda loyihaning ikkinchi bosqichi doirasida jadal ish olib borilmoqda. Toshkent halqa yo'lidan Qipchoq ko'chasigacha bo'lgan 4 kilometr dan ziyod yo'l qurilmoqda.

Umuman, 6 qatorli mazkur yo'l va ko'priklar soatiga 12 mingtagacha avtotransportni o'tkazish quvvatiga ega bo'ladi. Shu tariqa, Sergeli tumanidan shahar markaziga yetib borish vaqti oldingi 40–50 daqiqa o'rniga 20 daqiqani tashkil qiladi. Yangi Sergeli ko'chasidagi tirbandlik ikki baravarga qisqaradi.

Shu yerda yo'lsozlik, obodonlashtirish va kommunal sohalarida qo'llaniladigan maxsus texnikalar namoyish etildi.

\* \* \*

**20-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-oktabr – O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan O'zbekiston xalqiga bayram tabrigi yo'lladi.

\* \* \*

**21-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Farzandlikka olish tartibining huquqiy asoslari takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**21-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev sanoat korxonalarini faoliyati, ijtimoiy loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida Jizzax viloyatida bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbari «Jizzax» erkin iqtisodiy zonasida joylashgan «ADM Jizzakh» mas'uliyati cheklangan jamiyatida avtomobillarni yig'ish jarayonini ko'zdan kechirdi.

Ushbu loyihaning qiymati 12 million dollardan ziyod. Yillik ishlab chiqarish quvvati 25 ming dona. Zavod multibrendli bo'lib, bu yerda «KIA», «Renault» va «Lada» rusumidagi 10 xil yengil avtomobil yig'ilmoqda.

Davlatimiz rahbariga loyihaning ikkinchi bosqichi haqida ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari mahalliy lashtirish darajasini oshirib, avtomobillar narxini arzonlashtirish, xaridorlarga tanlov imkoniyatini kengaytirish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyatining ichimlik suvi

ta'minotini yaxshilashga qaratilgan ishlarning borishi bilan tanishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi qaroriga muvofiq, bu yerda Zarafshon daryosi suvidan foydalanish hisobiga ichimlik suvi tizimini yaxshilash loyihasi amalga oshirilmoqda. Mutasaddilar loyiha doirasida bajarilgan ishlar to'g'risida ma'lumot berdi.

Tadbirda jizzaxlik nuroniylar, mahalla faollari, ziyolilar, yoshlar ishtirok etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi «Gold Fish agro» baliqchilik klasteri faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari baliq yetishtirish jarayonini ko'zdan kechirdi. Bu tajribani ommalashtirib, aholini ham jalb etish zarurligi ta'kidlandi.

Ishlab chiqaruvchilarni xomashyo va aylanma mablag' bilan ta'minlab, sun'iy hovuzlarni ko'proq tayyorlash va joylarga yetkazish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Shu yerda Jizzax viloyatida uzumchilikni rivojlantirishga oid loyihalar taqdimot qilindi.

Hudud tabiati uzumchilik uchun juda qulay. Bundan foydalanib, Baxmal, G'allaorol, Zomin, Sharof Rashidov, Zarbdor va Yangiobod tumanlarida 42 ta klaster tashkil qililib, 50 ming gektar maydonda tokzor va intensiv bog'lar barpo etilishi rejalashtirilgan.

Shavkat Mirziyoyev Sharof Rashidov tumanida uzumchilik klasteri tashkil etib, mahsulotni ko'paytirish, enoturizmni rivojlantirish

bo'yicha topshiriqlar berdi. Aholiga hosildor navlar berib, uzumini sotib olishni yo'lga qo'yish orqali besh ming kishining bandligini ta'minlash mumkinligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**22-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh xodimlarni mukofotlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi.

\* \* \*

**24-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev kasb bayrami hamda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tashkil etilganining 30 yilligi munosabati bilan soha xodimlari va faxriylariga tabrik yo'lladi.

\* \* \*

**24-oktabr.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Shavkat Mirziyoyev oila a'zolari bilan birga Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanidagi 59-saylov uchastkasiga tashrif buyurib, ovoz berish jarayonida ishtirok etdi.

Saylovda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan beshta siyosiy partiya ishtirok etdi. Buning uchun ularga teng va erkin sharoit yaratildi.

Saylovni qariyb ellikta davlat va yigirmaga yaqin nufuzli xalqaro tashkilotdan jami 971 nafar xalqaro kuzatuvchi bevosita kuzatib bordi. Saylov jarayonlarida oshkoralikni

ta'minlash va xabardorlikni oshirish maqsadida 1 ming 700 nafarga yaqin mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari akkreditatsiyadan o'tkazildi.

Prezident saylovi mamlakat ke-lajagi uchun muhim siyosiy voqea-dir. Fuqarolar buni chuqur his etib, saylovda faol ishtirok etdi.

\* \* \*

**25-oktabr.** Markaziy saylov komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining dastlabki natijalarini e'lon qildi. Shu munosabat bilan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi «Humo Arena» majmuasida tadbir o'tkazdi. Unda partiya faollari va partiyaga xayrixoh insonlar qatnashdi.

Monitorlarda Markaziy saylov komissiyasining saylovning dastlabki natijalariga bag'ishlangan matbuot anjumani onlayn tarzda namoyish etildi. Dastlabki natijalarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Preziden-ti saylovida Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylovda qatnashganlar umumiy sonining 80,1 foiz ovozi bilan g'alaba qozongani e'lon qilindi. Tadbirga yig'ilganlar bu xabarni xursandchilik va olqishlar bilan ku-tib oldi.

Tadbirda Shavkat Mirziyoyev so'zga chiqib, o'ziga bildirilgan yuk-sak ishonch uchun xalqimizga min-natdorlik bildirdi.

– Shunday ulug' xalqning ishonchi men uchun katta baxt! Menga shuncha ishonch bildirib, qo'llab-quvvatlagani uchun barcha partiyadoshlarimga, yoshlarga, aziz

farzandlarimga, munis onalarim va nuroniy otalarimizga ta'zim qilib, rahmat aytaman. Bu ishonch menga kuch bag'ishlaydi. Shu bilan birga, ichki dunyom bilan sezamanki, bu juda katta mas'uliyat va javobgarlik, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Hozirgi tahlikali zamonda murak-kab sinovlar ko'p bo'lgani, xal-qimiz jipslashib, fidoyiligi va meh-natsevarligi bilan ulkan natijalarga erishayotgani qayd etildi.

Bu yilgi saylov ilk bor Saylov kodeksi asosida, demokratik ruhda, ochiq-oshkora o'tgani ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari barcha xorijiy va mahalliy kuzatuvchilarga, Mar-kaziy saylov komissiyasi, okrug va uchastka saylov komissiyalari a'zo-lariga, ommaviy axborot vositalari vakillariga rahmat aytdi.

Prezident saylovida boshqa si-yosiy partiyalardan ilgari surilgan nomzodlarga ham minnatdorlik bil-dirdi.

\* \* \*

**25-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Mustaqil Davlatlar Ham-do'stligi kuzatuvchilarining mam-lakatimizdagi missiyasiga boshchilik qilayotgan MDH Ijroiya qo'mitasi raisi – Ijrochi kotibi Sergey Lebe-devni qabul qildi.

Uchrashuv avvalida MDH Ij-roqo'mi raisi davlatimiz rahbarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida ishonchli g'alabaga erish-gani bilan samimiy qutlab, mam-lakatimiz farovonligi va ravna-qini ta'minlash yo'lidagi faoliya-tiga katta muvaffaqiyatlar ti-ladi.

O'zbekistonda saylov qonunchiligi va saylov tartibotlarini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishilgani alohida ta'kidlandi. MDH doirasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston Hamdo'stlik makonida, eng avvalo, iqtisodiy yo'nalishda amaliy hamkorlikni mustahkamlashning qat'iy tarafdori ekanini ta'kidladi.

\* \* \*

**25-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizdagi Prezident saylovini kuzatish uchun kelgan rossiyalik kuzatuvchilar delegatsiyasiga boshchilik qilayotgan Rossiya Federatsiyasi Federal Kengashi Davlat Dumasi qo'mitasi raisi Leonid Kalashnikovni qabul qildi.

Rossiya parlamenti vakili O'zbekiston yetakchisini Prezident saylovida ishonchli g'alabaga erishgani va saylov kampaniyasi muvaffaqiyatli o'tkazilgani bilan qutladi.

Saylov jarayonlarini ilg'or xalqaro amaliyot va standartlarga muvofiq tayyorlangani va tashkil etilgani borasida qilingan ishlar yuksak baholandi.

O'zbekiston – Rossiya strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish, ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi. Parlamentlar o'rtasida yaqin va sermahsul muloqot yo'lga qo'yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Savdo, investitsiya, ta'lim, turizm va madaniyat sohalaridagi

ikki tomonlama sheriklikni, shuningdek, MDH makonidagi mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun katta imkoniyatlar borligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**25-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an, Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Nazarboyev, Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jo'mart Toqayev, Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan telefon orqali muloqot qildi.

Yetakchilar davlatimiz rahbarini Prezident saylovida qozongan yorqin va ishonchli g'alabasi bilan muborakbod etib, uning bo'lajak faoliyatiga katta zafarlar, O'zbekiston xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

Rossiya Prezidenti bilan suhbatda ikki tomonlama strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Oliy darajadagi uchrashuvlar rejasi ko'rib chiqildi. Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalaridagi amaliy hamkorlikni kengaytirish, shu jumladan, qo'shma Hukumatlararo komissiyaning bo'lajak yig'ilishi davomida istiqbolli kooperatsiya loyihalari va

dasturlarini tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Rejep Tayyip Erdog'an bilan muloqotda davlatimiz rahbari Turkiya Prezidenti va butun xalqini ushbu mamlakatning yaqinlashib kelayotgan bosh milliy bayrami – Respublika kuni bilan iliq qutlab, tinchlik-osoyishtalik va farovonlik tiladi. O'zaro savdoni yanada ko'paytirish, yirik investitsiya loyihalari portfelini kengaytirish va muhim ta'lim dasturlarini amalga oshirish borasidagi birgalikdagi sa'y-harakatlarni davom ettirish muhim ekani qayd etildi.

Qozog'istonning Birinchi Prezidenti – Elboshi bilan mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash hamda xalqaro siyosatga oid masalalar yuzasidan fikr almashildi. Savdo-iqtisodiy va transport-kommunikatsiya sohalaridagi ulkan hamkorlik salohiyatini ishga solishga xizmat qiladigan yirik qo'shma loyihalarni jadallashtirishga muhim e'tibor qaratildi.

Qosim-Jomart Toqayev bilan muloqotda ikki tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni, eng avvalo, iqtisodiy yo'nalishda kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Mamlakatlarimizning yetakchi korxonalar va kompaniyalari o'rtasidagi savdo va kooperatsiya aloqalari jadal sur'at bilan rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Turkmaniston yetakchisi bilan joriy yil 4–5-oktabr kunlari Tosh-

kent shahrida o'tgan oliy darajadagi rasmiy tadbirlar yakunida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. Bo'lajak muloqotlar, shu jumladan, mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi uchrashuvlar rejasi ko'rib chiqildi.

Tojikiston Prezidenti bilan suhbatda mamlakatlarimiz o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirish, yaxshi qo'shniçilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan qo'shma loyiha va dasturlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi. O'zaro savdoning o'sish sur'atlari, sanoat kooperatsiyasi loyihalari ilgari surilayotgani, avtobuslar qatnovi qayta tiklangani, sog'liqni saqlash va kinematografiya sohalarida faol aloqalar yo'lga qo'yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston va Qirg'iziston Prezidentlari o'rtasidagi muloqotda savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va gumanitar hamkorlikdagi qo'shma loyihalarning borishi muhokama qilindi.

Aleksandr Lukashenko bilan suhbatda ikki tomonlama hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Savdo aloqalari jadal rivojlanib, yetakchi korxonalarining kooperatsiyasi kengayib borayotgani, madaniy-gumanitar almashinuv faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy tashkilotlar, jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasidagi yaqin hamkorlikni davom ettirish muhim ekanini ta'kidladilar.

\* \* \*

**25-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga qo‘shimcha kiritish haqida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**25-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**26-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Imron Xon bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida Pokiston Hukumatini rahbari mamlakatimiz yetakchisini saylov kampaniyasi muvaffaqiyatli o‘tkazilgani va Prezident saylovida ishonchli g‘alabaga erishilgani bilan samimiy qutlab, do‘st O‘zbekiston xalqiga tinchlik-osoqiyat, farovonlik va ravnaq tiladi.

O‘zbekiston Prezidenti va Pokiston Bosh vaziri ikki tomonlama hamkorlikda barqaror rivojlantirish tendensiyasi kuzatilayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar.

O‘zaro savdo ko‘rsatkichlari ortayotgani, ikki mamlakat yetakchi

kompaniyalarining sanoat kooperatsiyasi ko‘lami kengayib bora-yotgani alohida ta‘kidlandi. Investitsiya, bank-moliya, transport-kommunikatsiya, gumanitar va boshqa sohalarda yangi loyiha va dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Afg‘onistonda vujudga kelayotgan vaziyat yuzasidan ham fikr almashildi. Ushbu mamlakatda tinchlik o‘rnatilishiga va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishga ko‘maklashish maqsadida xalqaro sa‘y-harakatlarni birlashtirish muhim ekani qayd etildi.

\* \* \*

**27-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida qishloq xo‘jaligida klaster tizimini rivojlantirish masalalari bo‘yicha videosektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Kelgusi besh yilda hosildorlikni kamida 2 barobar ko‘tarish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, soha eksportini 7 milliard dollarga yetkazish, aholi bandligi va daromadlarini yanada oshirish maqsad qilingan. Bunda klasterlar asosiy tayanch va yetakchi bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari qishloq xo‘jaligi va agrosanoatda samaradorlikni oshirish uchun klasterlarga imkoniyatlarni kengaytirish kerakligini ta‘kidladi.

Yig‘ilishda qayd etilganidek, endi paxta hosilini moliyalashtirish shudgor davridan, ya‘ni oktabr oyidan boshlanadi. Bundan buyon, klasterlarga kreditlar 24 oy muddatga ajratilib, uning imtiyozli davri amaldagi 11 oydan 18 oygacha uzaytiriladi.

Moliya vazirligi va Markaziy bankka ushbu yangi tizimni amaliyotga joriy qilish vazifasi qo'yildi. Klasterlar tomonidan ip-kalavani qayta ishlash darajasini kelgusi ikki yilda hozirgi 50 foizdan 70 foizga yetkazish mo'ljallangan. Shundan kelib chiqib, ularga moliyalashtirishning yangi mexanizmlari joriy etilishi ma'lum qilindi.

Yig'ilishda klasterlar faoliyatining huquqiy kafolatlarini yanada kuchaytirish bo'yicha ham ko'rsatmalar berildi.

Ma'lumki, g'alla yetishtirish va sotishda bozor munosabatlariga o'tilmoqda. Prezidentimiz kelgusi yildan g'allachilik klasterlari va fermerlarga bug'doyni bozor narxida to'liq erkin sotish huquqi berilishini ta'kidladi. Mutasaddilarga ikki hafta muddatda g'alla bo'yicha to'lovlarni to'liq amalga oshirish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Yig'ilishda meva-sabzavotchilik klasterlari va kooperatsiyalari uchun ham qo'shimcha imkoniyatlar yaratish choralari muhokama qilindi. Ularni ham Qishloq xo'jaligi jamg'armasi orqali imtiyozli kreditlash muhimligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari bunda ehtiyojmand oilalarga alohida e'tibor qaratish, ularga dehqonchilik sirlarini o'rgatish va ko'maklashish kerakligi, buning uchun 100 million so'mgacha bo'lgan meva-sabzavotchilik loyihalariga «Har bir oila – tadbirkor» dasturi shartlari asosida kredit berilishini qayd etdi.

Qishloq xo'jaligi texnikalarini yangilash masalasiga ham to'xtalib o'tildi. Bu borada fermer va

klasterlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida, kelgusi yildan boshlab, texnika sotib olish bo'yicha kreditlarning 10 foizdan yuqori qismi davlat tomonidan qoplab berilishi belgilandi.

\* \* \*

**27-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Tadbirkorlik subyektlarining xorijiy valutadagi kredit majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq yukini kamaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**27-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szipin bilan telefon orqali muloqot qildi.

Davlat rahbarlari O'zbekiston – Xitoy har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashning dolzarb masalalarini ko'rib chiqdilar.

Siyosiy sohada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti «yagona Xitoy siyosati»ni hamda «uch yovuz kuch» – terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi qat'iy kurashni doimiy qo'llab-quvvatlashini bildirdi.

Rais Si Szipin Xitoy O'zbekistonning suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini, shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlar dasturini qat'iy qo'llab-quvvatlashini ta'kidladi.

Savdo-iqtisodiy sohada yetakchilar tovar ayirboshlash sezilarli o'sayot-

ganini qayd etdilar. Xitoy bozoriga zarur mahsulotlar, eng avvalo, qishloq xo'jaligi tovarlarini ilgari surish maqsadida joriy yil noyabr oyida Shanxay shahrida o'tadigan to'rtinchi Import tovarlar xalqaro ko'rgazmasida O'zbekiston faol ishtirok etishiga kelishib olindi.

Besh yillik Savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturini tayyorlash, unga strategik ahamiyatga ega, shu jumladan, innovatsiyalar, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar va elektron tijorat sohalari bo'yicha loyihalarni kiritish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston va Xitoy rahbarlari Xitoyni mintaqamiz bilan bog'laydigan va «Bir makon, bir yo'l» tashabbusi doirasida Yevroosiyo transit yo'lagini shakllantiradigan samarali transport yo'nalishlarini rivojlantirish zarurligini ta'kidladilar. Fan va ta'lim, sog'liqni saqlash va aholini emlash, sport, turizm, madaniyat va boshqa yo'nalishlarda hamkorlikni kengaytirish uchun imkoniyatlar mavjud ekani qayd etildi.

Joriy yil yakunigacha O'zbekiston – Xitoy hukumatlararo qo'mitasining navbatdagi yig'ilishini o'tkazish, shuningdek, diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligini nishonlash bo'yicha qo'shma dasturni tayyorlashga kelishib olindi.

Davlatimiz rahbari Xitoy yetakchisi tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasida ilgari surilgan Global taraqqiyot tashabbusini qo'llab-quvvatladi.

Xitoy yetakchisi mamlakatimizning Shanxay hamkorlik tashkilotidagi raisligini to'liq qo'llab-quvvatladi.

Davlat rahbarlari Afg'onistonda mustahkam tinchlik o'rnatish va iqtisodiy taraqqiyotga erishish masalalarini ham ko'rib chiqdilar. Afg'on xalqiga ko'maklashish maqsadida ShHT va boshqa formatlar doirasidagi muloqotni davom ettirish haqida kelishuvga erishildi.

Muloqot yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev va Rais Si Szipin do'st xalqlarimiz va mamlakatlarimizga tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tiladilar.

\* \* \*

**28-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**29-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**30-oktabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «Turizm, madaniy meros va muzeyshunoslik sohasida malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorga imzo chekdi.

\* \* \*

**1-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida 2022-yil uchun



solih tushumlari hamda budjet parametrlari yuzasidan yig'ilish o'tkazildi.

Davlat rahbari mamlakatimizda inson qadrini ulug'lash, odamlar hayotini yaxshilash bosh maqsad etib belgilangani, bu tamoyillar budjetni shakllantirishda ham bosh mezon bo'lishi zarurligini ta'kidladi.

Budjet tizimida moliyaviy nazoratni kuchaytirish masalasiga alohida to'xtalib o'tildi. Buning uchun «temir intizom» bilan, davlat xaridlari tizimida oshkoralikni kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

Moliya vazirligiga kelgusi yil 1-yanvardan tenderlarni inson omilisiz o'tkazish tizimini joriy qilish vazifasi qo'yildi. Shuningdek, barcha budjet tashkilotlari buxgalteriyasini to'liq raqamlashtirish, davlat xaridlari bo'yicha hisob-kitoblarni elektron hisob-faktura orqali amalga oshirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari budjet loyihasini mahalliy kengashlar, tadbirkorlar va aholi bilan muhokama qilish, ularning takliflarini Oliy Majlisga muhokamaga kiritish lozimligini ta'kidladi.

\* \* \*

**2-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida aholini uy-joy bilan ta'minlash hamda yashil maydonlarni kengaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Yurtimizda uy-joy qurilishi ko'lamini bunday keyin ham kengaytirib boriladi. Har bir hududda barpo etiladigan «Yangi O'zbekiston» mas-

sivlari bunda muhim o'rin tutadi. Kelgusi besh yilda ularda 250 mingdan ziyod oila uy bilan ta'minlanadi.

Yig'ilishda shu boradagi bunyodkorlik ishlarining tashkiliy, moliyaviy jihatlarini muhokama qilindi.

Prezidentimiz «Yangi O'zbekiston» massivlari kompleks rivojlanish tamoyili asosida barpo etilishi kerakligini ta'kidladi. Ya'ni har bir massivda sanoat loyihalari, xizmat ko'rsatish obyektlari va ijtimoiy infratuzilma bir vaqtda quriladi. U yerda odamlar ham uyli, ham ishli bo'ladi. Kelgusi yili Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 40 ta shunday zamonaviy mavze barpo etish mo'ljallangan.

Qurilish vazirligiga viloyat hokimlari bilan birga har bir hududda yer maydonlarini aniqlab, ularning bosh rejasini ishlab chiqish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Davlatimiz rahbari ehtiyojmand oilalarga ko'maklashish, boshlang'ich badal va foizlar bo'yicha subsidiya berish muhimligini ta'kidladi.

Yig'ilishda «Yashil makon» umum-milliy loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari ham ko'rib chiqildi. Bu loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish, shu orqali shaharlardagi yashil maydonlarni hozirgi 8 foizdan 30 foizga oshirish rejalashtirilgan.

Sohadagi ishlarda Ekologiya qo'mitasining o'rne ta'kidlanib, uning tuzilmasi, vakolat va vazifalarini qayta ko'rib chiqish zarurligi ta'kidlandi.

\* \* \*

**4-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan oqilona iqtisodiy siyosat yuritilayotgani bois, eksport va investitsiya miqdori izchil oshib bormoqda. Xususan, so'nggi besh yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 3 barobar o'sgan. Yil boshidan buyon 179 ta yirik va 10 mingta hududiy loyihalar ishga tushirilgan. Ularga 76 trilion so'm investitsiya yo'naltirilgan. 143 mingta ish o'zni tashkil etilgan.

Yig'ilishda yangi loyihalarni o'z vaqtida bajarish va avval ishga tushganlarini to'liq quvvatga chiqarish chora-tadbirlari muhokama qilindi. Jumladan, oxirgi yillarda foydalanishga topshirilgan 442 ta loyiha past quvvatda ishlayotgani qayd etildi. Joyida o'rganilganda, ularning 238 tasida xomashyo va bozor topish, 115 tasida kredit, 35 tasida infratuzilma bilan bog'liq muammolar borligi aniqlangan.

Viloyat hokimlariga ushbu korxonalar muammolarini hal etish yuzasidan ko'rsatmalar berildi. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga yil yakuniga qadar 139 ta yirik va 3 mingta hududiy loyihalarni ishga tushirish vazifasi qo'yildi.

Shavkat Mirziyoyev Prezident saylovi oldidan xalq bilan uchrashuvlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha yangi tizim joriy etilishini aytgan edi. Buning uchun har bir hududda

«tuman loyiha guruhlari» va xolding kompaniyalari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Ushbu yangi tuzilmalar tadbirkorlarning biznes hamkoriga aylanadi. Ular tadbirkorlarning yonida turib, g'oyadan boshlab, investorlarni jalb qilish va loyihalarni to'liq quvvatda ishlashigacha har kuni yordam berishga mas'ul bo'ladi. Yig'ilishda ushbu yangi tizimni tez va samarali tashkil etishga doir vazifalar belgilandi.

Prezident xorijiy investitsiya va eksport hajmini oshirishda mamlakatimizning chet davlatlardagi elchilari faoliyati muhimligini ta'kidladi. Hudud va tarmoq rahbarlariga istiqbolli loyihalar topib, elchilar bilan birgalikda ularni amalga oshirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

\* \* \*

**5-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat chog'ida O'zbekiston – Ozarbayjon strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash va ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Yetakchilar o'zaro savdo ko'rsatkichlari barqaror sur'at bilan o'sayotgani, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo'shma loyihalar soni ortayotganini katta mamnuniyat bilan qayd etdilar. Joriy yilda Xojiqabul shahrida avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani, qishloq

xo'jaligi va ipakchilikda amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalar muvaffaqiyatli kooperatsiyaga misol ekani ta'kidlandi.

Transport-kommunikatsiya sohasidagi hamkorlik, shu jumladan, poytaxtlar o'rtasidagi aviaqatnovlarni tiklash masalalari ko'rib chiqildi. O'zbekiston va Ozarbayjon hududida qo'shma madaniy-gumanitar tadbirlarni muntazam o'tkazib turish muhim ekani qayd etildi.

Prezidentlar mintaqaviy hamkorlikning eng muhim jihatlari, shu jumladan, Turkiy kengashning bo'lajak sammiti kun tartibi yuzasidan fikr almashdilar. Oliy darajadagi uchrashuvlar rejasi ko'rib chiqildi.

\* \* \*

**5-noyabr.** Prezident Shavkat Mirziyoyev «2021-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini tasdiqladi.

\* \* \*

**6-noyabr.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'z lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

Marosimda Oliy Majlis Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari, diplomatik korpus vakillari, mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Raisi Z.Nizomxo'jayev ochdi. U 24-oktabr kuni bo'lib o'tgan Prezident saylovi demokratik tamoyillar asosida, faol siyosiy raqobat muhitida o'tganini ta'kidladi. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyev saylovchilarning 80,12 foiz ovozi bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanganini qayd etdi.

Markaziy saylov komissiyasi Raisi ishtirokchilar nomidan Shavkat Mirziyoyevni tabrikladi va unga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti guvohnomasini topshirdi.

Prezident O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 92-moddasiga muvofiq, qasamyod qildi.

Davlatimiz madhiyasi yangradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kelgusi besh yilga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlar haqida nutq so'zladi.

– Xalqimiz talablarini inobatga olgan holda, biz Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqdik va saylov jarayonida uni o'ziga xos umumxalq muhokamasidan o'tkazdik, – dedi davlat rahbari. – Bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida, **«Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari»** degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo'yildi.

Qayd etilganidek, ushbu taraqqiyot strategiyasi yetti yo'nalishdan iborat.

**Birinchi yo‘nalish** erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishga qaratilgan. Buning uchun kelgusida davlat funksiyalarining katta qismi markazdan hududlarga o‘tkaziladi. Tuman budjeti qo‘shimcha manbalar bilan ta‘minlanib, mahallaning alohida jamg‘armasi shakllantiriladi. Markaziy idoralar transformatsiya qilinib, ixcham va samarali boshqaruv tizimi yaratiladi, bir xil yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirayotgan idoralar optimallashtiriladi.

**Ikkinchi yo‘nalish** adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr-qimmatini ta‘minlash vazifalarini qamrab olgan. Shu maqsadda sudlov tizimi va advokatura instituti, huquq-tartibot organlari faoliyati takomillashtiriladi. Tadbirkor va mulkdorlar huquqlarining himoyasi kuchaytiriladi. Korrupsiyaga barham berishga davlat va jamiyatning barcha kuch va vositalari safarbar etiladi.

**Uchinchi yo‘nalishda** milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi rejalar bayon etildi. 2030-yilga borib, jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga chiqish maqsad qilingani aytiladi.

Aholini uy-joy va toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash, zamonaviy yo‘l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, jamoat transporti hamda hududlararo qatnovlarni yaxshilash bo‘yicha ham yirik loyihalar amalga oshiriladi.

**To‘rtinchi yo‘nalish**, sifatli ta‘lim-tarbiya masalasi doimiy e‘tibor markazida bo‘lishi ta‘kidlandi. Yangi maktablar qurish, mavjudlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohaning barcha bosqichlari o‘rtasida uzviylikni ta‘minlashga qaratilgan Milliy ta‘lim dasturi ishlab chiqiladi.

Aholi salomatligini saqlash uchun barcha sharoit yaratiladi. Vilo-yat, tuman va shaharlarda ixtisoslashgan tibbiy xizmatlar ko‘lami kengaytiriladi. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish muhim vazifa bo‘lib qoladi.

**Beshinchi yo‘nalishda** asosan, ma‘naviy va ma‘rifiy sohalar rivojlantiriladi. Shu maqsadda «Yangi O‘zbekiston – ma‘rifatli jamiyat» konsepsiyasi amalga oshiriladi. Madaniyat va san‘atni yuksaltirish, yoshlarni sog‘lom e‘tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi.

**Oltinchi yo‘nalish**, global muam-molarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish, bu boradagi barcha sa‘y-harakatlarni uyg‘unlashtirish zarurligi ta‘kidlandi. Xususan, ekologik tahdidlar-ning salbiy ta‘siri ortib borayotgani qayd etildi. Orolbo‘yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hu-dudi sifatida rivojlantirish, Butun-jahon ekologiya xartiyasini ishlab chiqish masalalariga to‘xtalib o‘til-di.

**Yettinchi yo‘nalishda** mamlakati-mizdagi tinchlik va xavfsizlikni

ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi vazifalar o'z ifodasini topgan. Qurolli Kuchlarimizning qudrati yanada oshirilishi, harbiylarning jangovar shayligi, jismoniy va ma'naviy tayyorgarligi kuchaytirilishi aytiladi.

Xalqaro hamkorlikda pragmatik va chuqur o'ylangan tashqi siyosat, iqtisodiy diplomatiya davom ettiriladi.

Avvalo, qo'shni mamlakatlar va dunyoning barcha mintaqalaridagi sheriklar bilan o'zaro manfaatli va ko'p qirrali aloqalar kengaytiriladi.

Davlatimiz rahbarining ushbu anjumandagi ma'ruzasi «Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz» sarlavhasi ostida matbuotda e'lon qilindi.

## MUNDARIJA

2016-yil solnomasi.....	6
2017-yil solnomasi.....	32
2018-yil solnomasi.....	171
2019-yil solnomasi.....	288
2020-yil solnomasi.....	403
2021-yil solnomasi.....	553

*Rasmiy nashr*

## **SOLNOMA**

### **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIROMONOVICH MIRZIYOYEV FAOLIYATI XRONIKASI**

Nashr uchun mas’ul *X. Sultonov*  
To‘plovchi va tuzuvchi *Z. Mirzaqulov*  
Mas’ul muharrirlar: *M. Qarshiboyev, I. Bo‘riboev*  
Muharrirlar: *E. Nishonov, B. Yakubov*

Nashriyot muharriri *Sh. Beknazarova*  
Rassom-dizayner *B. Zufarov*  
Texnik muharrir *Y. Stepanova*  
Kichik muharrir *M. Salimova*  
Musahhihlar: *M. Ishanxonova, G. Pattoxova*  
Kompyuterda sahifalovchi *N. Ahmedova*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 14.08.2009.  
Bosishga 2022-yil 10-avgustda ruxsat etildi.  
Bichimi 70×100<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog‘ozi.  
«Virtec Peterburg Uz» garniturasida ofset  
usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 60,45.  
Nashr tabog‘i 60,12. Adadi 5000 nusxa. Buyurtma №21-550.

«O‘zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

*e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)*

*[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)*

S 77 Solnoma. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat  
Miromonovich Mirziyoyev faoliyati xronikasi [Matn]. –Toshkent  
«O‘zbekiston» NMIU, 2022. – 744 b.

ISBN 978-9943-7608-5-1

UO‘K 323(575.1)  
KBK 66.3(5O‘)